



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“YOSHLAR – ILM-FANNI RIVOJLANTIRUVCHI KUCH”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA

ILMIY-AMALIY ANJUMAN

TO‘PLAMI



Toshkent-2025





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“YOSHLAR – ILM-FANNI RIVOJLANTIRUVCHI KUCH”

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO‘PLAMI**

**“DONISHMAND ZIYOSI”
Toshkent – 2025**

UO‘K 316.422-053.81(575.1)(08):378(575.1)
KBK 60.5(50‘)+74.58(50‘)
D 14

Mas‘ul muharrir

N.B. Sayfullayev,
tarix fanlari nomzodi, professor O‘zDSMI rektori

Tahrir hay‘ati:

B.Ch. Yakubov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor
O.G‘. Davlatov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, O‘zDSMI tayanch doktorantlari

“Yoshlar – ilm-fanni rivojlantiruvchi kuch” Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami [matn]: to‘plam. – Toshkent: “Donishmand ziyosi” nashriyoti, 2025. – 288-b.

*Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida 2025-yil 2-aprel kuni O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida o‘tkazilgan “Yoshlar – ilm-fanni rivojlantiruvchi kuch” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.
(Maqolalardagi ma‘lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas‘uldir)*

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining 2025-yil 22-yanvardagi 29-sonli buyrug‘i bilan nashrga tavsiya qilingan.

Nodirbek Baxtiyorovich Sayfullayev,
*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti rektori, professor*

ILM-FAN – JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI

So‘nggi yillarda respublikada yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, yosh olimlar va tadbirkorlarning ilmiy ishlanmalarini rag‘batlantirish, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan bugungi kunda barcha sohalar qatorida madaniyat va san’atni ham yanada rivojlantirish borasida ko‘plab ishlarni amalga oshirilmoqda. Aynan soha bo‘yicha ilm-fanni yangi bosqichga ko‘tarish, jamiyat oldida turgan dolzarb muammolar va masalalarni ilm-fansiz yechish mushkulligi, sohani va yosh olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilmoqda.

Mamlakat va jamiyatning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o‘zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi. Ilm-fan – taraqqiyot asosi ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g‘oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo‘q, deya ayta olamiz. Faqat ilm va ma’rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli yosh kadrlar hisobidan biz O‘zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan vazifa va masalalarni institutimizda ham samarali tashkil etish hamda amalga oshirish maqsadida **“Yoshlar – ilm-fanni rivojlantiruvchi kuch”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumanini o‘tkazish rejalashtirildi. Anjumannini o‘tkazishdan maqsad yoshlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, ularning fan, madaniyat va san’at sohasidagi ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishdir. Shuningdek, yosh tadqiqotchilarning innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini muhokama qilish va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish uchun platforma yaratish hamda yoshlarning ilmiy faoliyatda erishayotgan natijalarini keng ommaga tanishtirish orqali ilm-fanni rivojlantirishga hissa qo‘shishdan iborat.

Bugungi anjumanda bakalavr va magistr talabalari, doktorantlar ishtirok etishmoqda. O‘ylaymanki, bu kabi ilmiy anjumanlarning tashkil etilishi madaniyat va san’at sohasida faoliyat olib borayotgan yoshlar orqali sohamizni yanada rivojlanishiga, ijtimoiy-ma’naviy muhitni madaniyat va san’at yordamida barqarorlashtirishga, dolzarb, kam o‘rganilgan, mutaxassislar o‘rtasida munozaralarga sabab bo‘layotgan masalalarning ilmiy-innovatsion yechimiga, muammolarning nazariy-metodologik jihatlarini o‘rganishga, xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy qilishga yordam beradi.

Baxtiyor Yakubov,
O‘zDSMI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori,
PhD, dotsent

YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Ilm-fan rivoji, uning mamlakat taraqqiyotining bosh drayveri sifatida maydonga chiqishi masalasi Yangi O‘zbekistonning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Tarixdan yaxshi ma‘lumki, insoniyat taraqqiyotidagi birinchi va ikkinchi Renessanslar zamirida avvalo ilm-fan yutuqlari mujassamdir. Bugun mamlakatimizda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans poydevori ham inson kapitali, ilm-fan, innovatsiya va yangi kashfiyotlar asosida quriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilayotgan ilm-fan sohasidagi islohotlar xalqimizda kelajakka bo‘lgan ishonchni, yoshlarimizda dunyo bilan bo‘ylashishdek yuksak tuyg‘ularni uyg‘otdi. Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish masalasi bugun barchamizga katta mas‘uliyat yuklar ekan, bu ulug‘ harakatning markazida ilm-fanni rivojlantirish, shu orqali yuksak marralarni ko‘zlash turar ekan, nafaqat bugun faoliyatdagi olimlarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, yoshlarni ilm-fanga rag‘bat va havasda ulg‘aytirishimiz lozim bo‘ladi. Bu maqsadga erishishda dastlabki masala ko‘z o‘ngimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni, islohotlarni ko‘rsata olish, ularning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushuntirishdan iborat bo‘ladi desak, xato bo‘lmaydi.

Albatta, har bir yangilik va rivojlanish qiyosiy tahlillarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, so‘nggi sakkiz yilda ilm-fan sohasida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu islohotlarni ikki yo‘nalishda ko‘rish to‘g‘ri bo‘ladi. Birinchisi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilm-fanga qaratilgan islohotlar, ikkinchisi, mamlakatda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning ilm-fan sohasiga ta’siri nuqtai nazaridan ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bevosita amalga oshirilayotgan islohotlar sirasiga yetakchi olimlar, iste’dodli yosh ilmiy xodimlarning faoliyati va ilmiy tadqiqotlarining qo‘llab-quvvatlanayotgani, jamiyatda ilm-fan namoyandalarining obro‘-e’tibori va nufuzini oshirishga bo‘lgan doimiy e’tibor yaqqol sezilib turibdi va bu soha vakillarining ish haqi hamda doktorantlarning stipendiyasi 3 barobar, akademiklarning gonorari 2 martadan ziyod oshirilgani, ilmiy darajaga ega ilmiy xodimlarning maoshiga 60 foizgacha ustama haq to‘lash tizimi joriy etilgani bilan isbotlanib, quvonarlisi bu jarayon tizimli ravishda izchil davom etib kelmoqda. Stajyor-tadqiqotchilik instituti qayta tiklanib, iste’dodli yosh tadqiqotchilarni tayyorlash sifati yaxshilandi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan 30 mingdan ortiq tadqiqotchilarning yarmidan ortig‘ini aynan yoshlar tashkil etayotgani sohaning obro‘-e’tibori, nufuzi ortib borayotganidan, bir vaqtlar olimlarning kuni o‘tmaydi, deb qaralgan bo‘lsa, bugun aynan ilm bilan shug‘ullanish insonning har tomonlama taraqqiyotiga katta xizmat qilishi yaxshi anglanib borilayotganidan dalolatdir. Boshqa tomondan esa, sohada yoshlarning ko‘payib borayotgani ilm-fan kelajagi ishonchli qo‘llarda ekanidan ham dalolat beradi.

Jamiyatimizda bo‘layotgan keng qamrovli islohotlar sabab, bugun ilm-fan sohasida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholiga qurilayotgan uy-joylar orasida ilm-fan sohasidagi yoshlar hamda necha yillardan buyon o‘zining xususiy uyiga ega bo‘lmaganlarga ham imtiyozlar asosida kvartiralar topshirildi. Xorijiy mamlakatlar bilan olib borilayotgan do‘stona aloqalar tufayli ko‘plab mamlakatlarga yosh olimlarimizning stajirovkalari tashkil etilib, yana qanchasi xorijdagi mashhur ilm dargohlarida ilmiy anjumanlarda qatnashib kelishmoqda. Natijada, mamlakatimizdagi ko‘plab Oliy ta’lim muassasalari dunyoning nufuzli reytinglaridan o‘rin olishib, o‘zbek ilm-fanini jahonga yoyishmoqda. Shuningdek, bank-moliya sohasidagi o‘zgarishlar tufayli ham ilm-fanda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Daromad solig‘ining o‘suvchan 25 foiz holatidan o‘zgarimas 12 foizga tushirilgani ziyolilar qatlamining daromadlarini oshirgan bo‘lsa, xorijiy valyuta konvertatsiyasi masalasining hal etilgani fan taraqqiyotida muhim hisoblanmish texnik jihozlarni xorijdan hech bir muammosiz yurtimizga olib kelish masalasini hal qildi. Bundan tashqari ham huquqiy-normativ hujjatlarni insonparvarlashtirish, ochiqlik siyosati bilvosita ilm-fan taraqqiyotiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Olib borilayotgan islohotlarning negizida yotuvchi eng muhim xususiyat shuki, ular tufayli xorijga chiqib ketayotgan intellektlarimiz o‘z yurtimizda ham barcha imkoniyatlarga ega bo‘lishimiz mumkin ekaniga, shu yerda ham barcha orzular ro‘yobga chiqishiga ishonishmoqda va ilm-fan sohasiga katta ko‘lamda yoshlar kirib kelmoqda. Avvallari bu sohada yoshlar juda kam bo‘lib, tabiiy tanlanish, saralash masalasi qiyinlashgan, raqobat masalasi umuman kuzatilmagan bo‘lsa, bugun yaratilayotgan sharoitlar tufayli yoshlarning ilmga bo‘lgan intilishi kuchayib, raqobat muhiti hosil bo‘lmoqda. Ma’lumki, qayerdagi raqobat bo‘lar ekan, u yerda o‘shish bo‘ladi. Shu bois, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda intellektual salohiyatning yanada o‘shishiga, uning kelajagiga bo‘lgan ishonch yuqori. Albatta, bularning barchasi aniq bir reja, katta maqsad asosida amalga oshirilmoqdaki, buni muhtaram yurtboshimizning ushbu so‘zlari bilan xulosalash o‘rinli bo‘ladi: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat!”.

Oybek Davlatov,
*O‘zDSMI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-
pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i
(PhD), dotsent*

OLIY TA’LIMDAN KEYINGI TA’LIM INSTITUTI VA UNING TASHKIL ETILISH SHAKLLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta’lim turlari, jumladan, oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga o‘qishga qabul qilish shakllari hamda ushbu jarayonlarda uchrab turadigan ayrim muammolar to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan. Maqolada ta’lim tizimida yuzaga keladigan muammolar, ular sababli talabgorlarni o‘qishga qabul qilinishidagi qiyinchiliklar va bu muammolarni bartaraf etish yo‘llari haqida ham so‘z boradi.*

***Kalit so‘z:** qonun, nizom, ta’lim turlari, ta’lim shakllari.*

***Abstract.** The article presents opinions on the forms of admission to educational institutions, including postgraduate education institutions, as well as some issues faced by applicants during the admission process. It also discusses the problems arising in the education system, the difficulties applicants encounter during admission, and ways to address these issues.*

***Key words:** law, regulation, types of education, forms of education.*

Bugungi kunda zamonaviy hayotimizni ilm-fan va ta’lim tizimining rivojlanishisiz tasavvur qilish qiyin. Har qanday sohanining rivojida, eng avvalo, ilmiy mustahkam poydevor bo‘lishi zarur. Chunki inson resurslari, uning intellektual salohiyati va imkoniyatlari ustida ishlamasdan, ijtimoiy va iqtisodiy natijalarga erishishning imkoni yo‘q.

Shu bois, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim va tarbiya sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yoshlarni global me‘yorlarga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini o‘zlashtirishlari uchun barcha resurslar va imkoniyatlar safarbar etilmoqda. Bu borada ko‘plab hujjatlar takomillashtirilib yangidan imzolandi. Jumladan, 2020-yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. Ushbu qonunning 7-moddasida mamlakatimizdagi ta’lim turlari sanab o‘tilgan:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim[1].

Yuqorida keltirilgan ta’lim turlarining har biri, o‘z navbatida, farzandlarimizning ma’lum yoshdagi ta’lim va tarbiyasini qamrab olishga qaratilgan. Bu esa, ta’lim jarayonining har bir bosqichini mukammal tarzda tashkil etish va bolalarning rivojlanishiga mos ravishda shakllantirish zarurligini anglatadi. Ushbu maqolada – Oliy ta’limdan

keyingi ta'lim turiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu sohada amalga oshirilgan islohotlar va ta'limning sifatini oshirish borasidagi fikrlar bayon etilmoqda.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim – doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turidir[2]. Shu o'rinda, yana bir tushunchaga e'tibor qaratsak!

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti – bu ilmiy tashkilotlar yoki ta'lim muassasalarida, masalan, tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shaklida olib boriladigan oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshirish tizimi bo'lib, uning maqsadi ilmiy tadqiqotlar olib borish, mutaxassislarni tayyorlash va ularning ilmiy salohiyatini oshirishdir. Innovatsion rivojlanish agentligining ruxsati asosida ilmiy tashkilotlar va ilmiy salohiyatga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalari (institutlar, universitetlar)da oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutini tashkil etish mumkin.

Ta'kidlab o'tilgan ikki tushunchaning farqini aniqlash katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Birinchisi, oliy ta'limdan keyingi ta'limda ilmiy darajaga ega pedagogik kadrlar tayyorlashni anglatadi. Ikkinchisi esa, ilmiy salohiyatga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida va ilmiy tashkilotlarda institutlarni tashkil qilish va o'qitish shakllarini belgilashni ko'zda tutadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakllariga batafsil to'xtalsak:

Stajyor-tadqiqotchilik – ishlab chiqarishdan ajralgan holda, tegishli ixtisoslik bo'yicha ilmiy va ilmiy-ijodiy izlanishlar olib borish va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchini tayyorlash shaklidir. Bu tayanch doktoranturaga tayyorgarlik bosqichi bo'lib, o'qish muddati bir yilni tashkil etadi.

Tayanch doktorantura – falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shaklidir. O'qish muddati 3 yil.

Doktorantura – fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shaklidir. Ushbu o'qish shakliga ilmiy darajali talabgorlar hujjat topshirishlari mumkin.

Mustaqil izlanuvchilik – falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shaklidir [2].

Stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktorantura o'qish shakllariga hujjat topshirishda talabgorlar kamida B1, tanlagan ixtisosligiga qarab B2 darajadagi til sertifikatiga ega bo'lishi talab etiladi. Hujjat topshirish faqat yiliga 1 marta amalga oshiriladi. Mustaqil izlanuvchilikning ikki shakliga ham yilning 4 choragida hujjat topshirish imkoniyati yaratilgan. Talabgorlarning hujjatlari Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning *daraja.ilmiy.uz* elektron tizimi orqali joylanadi.

Ta'kidlanib o'tilgan Oliy ta'limdan keyingi ta'limni tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori va 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida"gi Nizom asosida belgilangan. Ushbu normativ hujjat ta'lim jarayoniga oid bir qator talablar va me'yorlarni o'z ichiga oladi. Nizomda doktorantlarning o'qish mexanizmi aniq belgilangan. Bu esa o'qish uchun ariza topshirayotgan talabgorlarning bilim darajasini aniqlash, ularning ta'limga tayyorgarligini baholash va tegishli mutaxassisliklar bo'yicha tanlov jarayonlarini yanada adolatli va shaffof tashkil etishni nazarda tutadi.

Mening bugungi kunda olib borayotgan faoliyatim tadqiqotchilarni o'qishga qabul qilish bilan bog'liq bo'lgani sababli, "erkin izlanuvchi" sifatida oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakliga o'qishga kirmoqchi bo'lgan talabgorlardan ham murojaatlar bo'lib turadi. Bunday holatlardan o'rinli savol tug'iladi. "erkin izlanuvchi" shaklining huquqiy asoslari mavjudmi? Oliy ta'limdan keyingi ta'lim jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda "erkin izlanuvchilik" tushunchasi mavjud emas. Shunga qaramay, ayrim universitet yoki ta'lim muassasalarda ichki normativ hujjatlariga tayangan holda talabgorlarni "erkin izlanuvchi" shaklida o'qishga qabul qilish holatlari uchraydi.

Darhaqiqat, ushbu sohadagi ikki yillik faoliyatimdan kelib chiqib aytishim mumkin, tadqiqotchi oliy ta'limdan keyingi ta'limning biron shakliga qabul qilinib, belgilangan muddatda ya'ni, 3 yilda dissertatsiya ishini himoya qilolmagandan so'ng, o'z-o'zidan erkin tadqiqotchi (erkin izlanuvchi) maqomiga ega bo'ladi. Bunday holatda, tadqiqotchi o'tgan davr mobaynida dissertatsiya ishini ma'lum sabablarga ko'ra tugata olmay qolgan bo'lsa-da, ilmiy faoliyatini erkin izlanuvchi sifatida davom ettirishi mumkin. Ushbu jarayon davomida tadqiqotchi oliy ta'lim muassasasi (OTM) yoki ilmiy tashkilot bilan hamkorlikda dissertatsiya ishini yakunlash va ilmiy darajani olish uchun uni himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda tayanch doktoranturaga o'qishga kirish uchun xorijiy til sertifikatini talab qilinadi. Bu tadqiqotchilarga katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ikkinchi bir muammo ham mavjud. O'qishga qabul qilingan ayrim tadqiqotchilar xorijiy tilni bilishadi, ammo tanlangan ixtisosligi bo'yicha xorijiy adabiyotlar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu holat, xorijiy tilni bilish darajasi yuqori bo'lsa ham, ilmiy adabiyotlar bilan ishlashda terminologiya va ilmiy uslubni tushunishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq. Shuning uchun, tadqiqotchilarga maxsus kurslar va resurslar orqali ilmiy adabiyotlarni samarali o'zlashtirishni o'rgatish zaruriyatiga ehtiyoj seziladi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari va unda o'qishni tashkil etish bugungi kunda ilm-fan va ta'lim tizimining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning mohiyati, uning shakllari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan. Qabul jarayonlarini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish muhim va maqsadga muvofiqdir.

Qabul jarayonlarini yanada takomillashtirish, talabgorlarni ilmiy sohaga qamrab olish bo'yicha taklif va tavsiyalar:

talabgorlarni oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul qilishda ularning bilim darajasi va tayyorgarligini baholash maqsadida layoqat testlarini o'tkazishni yo'lga qo'yish;

talabgorlar uchun soha mutaxassislarini jalb qilgan holda seminarlar tashkil etish. Bu talabgorga kerakli ixtisoslik va soha haqida yaxshiroq tushuncha hosil qilishga yordam beradi;

talabgorlarning til bilish darajasi ularning topshirayotgan ixtisosligiga mos ravishda baholanishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'RQ-637-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi 304-sonli qarori.

DOKTORANTLARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada doktorantlarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari tahlil qilinadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar, jumladan, mustaqil fikrlash, axborotlarni tahlil qilish, ilmiy muloqot olib borish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Tadqiqotchilik kompetensiyalari, doktorantura ta'limi, ilmiy tadqiqot, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ilmiy hamkorlik.*

Abstract. *This article analyzes the technologies for developing research competencies in doctoral students. It discusses the competencies necessary to enhance the effectiveness of scientific research activities, including independent thinking, data analysis, scientific communication, and the use of modern technologies.*

Key words: *research competencies, doctoral education, scientific research, digital technologies, artificial intelligence, scientific collaboration.*

Bugungi kunda ilmiy-tadqiqot jarayonlari jadal rivojlanib, yangi innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar ilmiy faoliyatga keng tatbiq etilmoqda. Ushbu jarayonda doktorantlarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilik kompetensiyalari nafaqat ilmiy izlanishlarni samarali tashkil etish, balki olingan natijalarni tahlil qilish, ilmiy hamjamiyat bilan samarali muloqot qilish va zamonaviy ilmiy-texnologik yondashuvlardan foydalana olish ko'nikmalarini ham qamrab oladi.

Doktorantura ta'limi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanib, unda ilmiy izlanish olib borish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Bugungi global ilmiy muhitda doktorantlar mustaqil tadqiqot olib borish, ilmiy yangiliklarni kashf etish va ularni amaliyotga tatbiq etish kabi muhim qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur. Shu sababli, doktorantlarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – doktorantlarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali texnologiyalarni tahlil qilish va ularni amaliyotga joriy etish usullarini o'rganishdan iborat. Tadqiqotda nazariy tahlil, empirik tadqiqot usullari, tajriba-sinov ishlari va pedagogik innovatsiyalar asosida doktorantlarning ilmiy-izlanish faoliyatini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi tushunchasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu shaxsning ilmiy izlanish olib borish, yangi bilimlarni o'zlashtirish, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularga innovatsion yechimlar topish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya zamonaviy ta'lim va ilm-fan rivojlanishida muhim

o‘rin tutib, doktorantlarning mustaqil ilmiy faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqotchilik kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular tadqiqotchining ilmiy faoliyatini yuqori saviyada amalga oshirishiga xizmat qiladi.

Ilmiy izlanish ko‘nikmalari va mustaqil fikrlash tadqiqotchilik kompetensiyasining muhim jihatlaridan biridir. Har qanday ilmiy faoliyatning muvaffaqiyati tadqiqotchining metodologik bilimlari, izlanish olib borish usullarini bilishi va ularni amaliyotda qo‘llay olishiga bog‘liq. Mustaqil fikrlash qobiliyati esa olimga turli manbalarni tahlil qilish, mavjud ilmiy yondashuvlarni tanqidiy baholash va yangi ilmiy g‘oyalar ilgari surish imkoniyatini beradi. Tadqiqotchining izlanish olib borish qobiliyatini shakllantirish uchun unga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, turli nazariy va amaliy tajribalarni solishtirish hamda ilmiy gipotezalar ilgari surish imkonini beruvchi muhit yaratish zarur.

Axborotlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyati har qanday tadqiqot jarayonining ajralmas qismidir. Bugungi kunda ilmiy axborotlarning hajmi keskin ortib borayotgan bir sharoitda tadqiqotchilar nafaqat ma‘lumotlarni to‘plash, balki ularni tahlil qilish, ishonchligini tekshirish va umumlashtirish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi lozim. Tanqidiy fikrlash esa turli ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va yangilik yaratish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish tadqiqotchilik kompetensiyasining asosiy talablari qatoriga kiradi.

Ilmiy muloqot va maqola yozish madaniyati ham tadqiqotchilik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilmiy natijalarning keng jamoatchilikka yetkazilishi va xalqaro miqyosda tan olinishi uchun tadqiqotchilar ilmiy maqolalar yozish, konferensiyalarda ishtirok etish va ilmiy hamjamiyat bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Ilmiy maqolalar yozish madaniyati nafaqat tadqiqot natijalarini aniq va mantiqiy ifodalashni, balki ilmiy yozish uslubi va etikasiga rioya qilishni ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchining o‘z fikrlarini ravshan bayon qila olishi, dalillar bilan mustahkamlashi va ilmiy auditoriya bilan samarali muloqot olib borishi uning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotchilik kompetensiyasi turli tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular birgalikda tadqiqotchining ilmiy izlanish olib borish jarayonini samarali tashkil etishiga yordam beradi. Ilmiy izlanish ko‘nikmalari, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyati, axborotlarni tahlil qilish hamda ilmiy muloqot madaniyati tadqiqotchining kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy doktorantlar uchun tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Zamonaviy texnologiyalar asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar ilmiy tadqiqot jarayonlarining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ular tadqiqotchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va ilmiy izlanishlarni samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar, ilmiy dasturlar va ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish zamonaviy tad-

qiqot jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqib, natijalarning aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Sun'iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish, statistik tadqiqotlarni amalga oshirish va ilmiy manbalarni avtomatik ravishda umumlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy tahliliy dasturlar ilmiy maqolalarni tezkor tahlil qilish va ular orasidan eng muhimlarini ajratib olishda tadqiqotchilarga katta yordam beradi. Masalan, Google Scholar, Semantic Scholar kabi ilmiy qidiruv tizimlari va sun'iy intellekt asosida ishlovchi avtomatik referatlash tizimlari ilmiy ma'lumotlar oqimini boshqarish va ularni tezkor tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Ilmiy dasturlar va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish tadqiqotchilar uchun eng muhim kompetensiyalardan biridir. Ilmiy izlanishlar olib borishda Scopus, Web of Science, PubMed, IEEE Xplore kabi xalqaro ma'lumotlar bazalari orqali ilmiy maqolalar va tadqiqot natijalari bilan tanishish mumkin. Bunday platformalar tadqiqotchilarga sohadagi eng so'nggi yutuqlarni o'rganish, ilg'or tajribalarni tahlil qilish va o'z izlanishlarini to'g'ri yo'naltirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, tadqiqotchilar uchun MATLAB, SPSS, R, Python kabi ilmiy dasturlar tahliliy va statistik hisob-kitoblarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar ilmiy natijalarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ilmiy ishlanmalarni boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalar ilmiy faoliyatning samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotchilar o'z ishlarini tashkil etish va boshqarish uchun Mendeley, EndNote, Zotero kabi ilmiy manbalarni boshqarish dasturlaridan keng foydalanmoqda. Ushbu platformalar tadqiqot jarayonida manbalarni to'g'ri tartiblash, iqtiboslarni avtomatik tarzda kiritish va ilmiy yozish jarayonini soddalashtirishga yordam beradi. Shuningdek, LaTeX kabi dasturlar ilmiy maqolalarni yuqori sifatda tayyorlash imkonini beradi. Bulutli texnologiyalar va onlayn hamkorlik vositalari esa tadqiqotchilarga turli davlat va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini taqdim etadi. Google Drive, Overleaf, GitHub kabi platformalar tadqiqot jarayonini yanada optimallashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ilmiy izlanishlarning samaradorligini oshirish, ilmiy dasturlar va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish esa tadqiqot jarayonlarini tezkor va ishonchli amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, ilmiy ishlanmalarni boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tadqiqotchilarning ish jarayonini soddalashtirib, ilmiy natijalarning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy ilmiy faoliyatni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish har bir tadqiqotchi uchun muhim kompetensiya hisoblanadi.

Doktorantlar uchun innovatsion ta'lim metodlari. Zamonaviy ta'lim tizimi doktorantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish va ularning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Doktorantura bosqichida ilmiy izlanishlarni muvaffaqiyatli olib bo-

rish uchun an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda, yangi pedagogik texnologiyalar, loyiha asosida ta'lim, virtual laboratoriyalar va mentorlik tizimi kabi innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyiha asosida ta'lim va tadqiqot olib borish bugungi kunda eng samarali ta'lim metodlaridan biri bo'lib, doktorantlarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, real ilmiy muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuvda doktorantlar ilmiy tadqiqot loyihalarida qatnashib, o'z izlanishlarini bosqichma-bosqich rejalashtiradi va natijalarni amaliyotga tatbiq etadi. Loyiha asosida ta'lim doktorantlarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ijodiy yondashuvni shakllantiradi va ularga tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish bo'yicha muhim ko'nikmalarni hosil qiladi.

Virtual laboratoriyalar va ilmiy hamkorlik platformalari ilmiy tadqiqotlarning yangi darajaga chiqishiga yordam bermoqda. Virtual laboratoriyalar orqali doktorantlar an'anaviy laboratoriya sharoitlaridan tashqarida, raqamli vositalar yordamida ilmiy tajribalar o'tkazish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday platformalar fizik laboratoriyalarga ehtiyojni kamaytiradi, tadqiqot xarajatlarini optimallashtiradi va fanlararo tadqiqotlar olib borish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, ilmiy hamkorlik platformalari, masalan, ResearchGate, Academia.edu, Mendeley kabi tarmoqlar doktorantlarga jahon miqyosida olimlar bilan bog'lanish, tajriba almashish va o'z natijalarini keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Bu esa ilmiy faoliyatning ochiqqligini ta'minlab, doktorantlarning global ilmiy hamjamiyat bilan integratsiyasini kuchaytiradi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda mentorlik tizimi ham muhim rol o'ynaydi. Tajribali olimlar va professorlar tomonidan doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilish, maslahat berish va yo'nalish ko'rsatish ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mentorlik tizimi orqali doktorantlar ilmiy metodologiyani chuqurroq o'zlashtiradi, tadqiqot natijalarini samarali taqdim etish, ilmiy maqolalar yozish va grant loyihalarida ishtirok etish bo'yicha muhim ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Mentorlar tomonidan yo'naltirilgan holda ishlash doktorantlarga ilmiy faoliyatga nisbatan motivatsiyani oshirish, tadqiqot jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o'tish va mustaqil tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, doktorantlar uchun innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish ularning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish va ilmiy izlanishlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Loyiha asosida ta'lim tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qilsa, virtual laboratoriyalar va ilmiy hamkorlik platformalari ilmiy faoliyatni globalashtirishga ko'maklashadi. Shuningdek, mentorlik tizimi orqali doktorantlarning ilmiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi oshib, ularga tajribali olimlar rahbarligida yuqori sifatli tadqiqotlar olib borish imkoniyati yaratiladi. Shu sababli, zamonaviy doktorantura ta'limi innovatsion metodlarga tayanishi va ularni amaliyotga joriy etish orqali samaradorlikni oshirishi lozim.

Doktorantlar uchun ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar. Doktorantura bosqichi tadqiqotchilar uchun ilmiy faoliyatning chuqurlashgan davri bo'lib, unda ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy

ishlarni rejalashtirish, xalqaro jurnallarda maqola chop etish va grant loyihalarida ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish tadqiqotchining ilmiy salohiyatini oshiradi va uning global ilmiy hamjamiyatga integratsiyasini ta‘minlaydi.

Ilmiy ishlarni rejalashtirish va samarali boshqarish tadqiqot jarayonining natijadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Doktorant o‘z ilmiy ishini rejalashtirishda aniq maqsadlar belgilashi, izlanishning bosqichlarini oldindan rejalashtirishi va vaqtni samarali taqsimlashi kerak. Ilmiy faoliyatni tizimli tashkil etish uchun Gantt diagrammalari va boshqa rejalashtirish vositalaridan foydalanish mumkin. Bunday yondashuv doktorantlarga tadqiqot jarayonining har bir bosqichida aniq yo‘nalishda harakat qilish va natijalarni samarali nazorat qilish imkonini beradi. Ilmiy boshqaruvning muhim jihatlardan biri ilmiy adabiyotlarni samarali o‘rganish, muhim manbalarni to‘plash va ularni tahlil qilishdir. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda Mendeley, EndNote, Zotero kabi bibliografik boshqaruv tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish strategiyalari tadqiqotchining ilmiy yutuqlarini keng auditoriyaga taqdim etish va uning ilmiy faoliyatini yuqori bosqichga olib chiqish uchun muhimdir. Maqola yozish jarayonida ilmiy uslub, aniq dalillar va metodologik yondashuvlarga katta e‘tibor qaratish lozim. Tadqiqotchilar uchun Scopus, Web of Science kabi nufuzli ilmiy bazalarda indekslangan jurnallarga maqolalar yuborish juda muhimdir. Bunday jurnallarda nashr etilish uchun tadqiqotning dolzarbligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini aniq ifodalash zarur. Ilmiy maqola yozishda struktura, aniq bayon va to‘g‘ri iqtibos keltirish qoidalariga rioya qilish shart. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda maqolalar e‘lon qilish uchun taqdim etilayotgan ishni sifatli ingliz tilida yozish yoki tarjima qildirish, plagiatga qarshi dasturlardan (Turnitin, iThenticate) foydalanish va rasmiy nashr standartlariga mos ravishda maqolani tayyorlash tavsiya etiladi.

Ilmiy tadqiqotlarni grantlar va loyihalar orqali qo‘llab-quvvatlash tadqiqotchilar uchun ilmiy faoliyatni moliyaviy jihatdan ta‘minlash hamda yangi izlanishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Turli xalqaro va milliy grant dasturlarida ishtirok etish doktorantlarga o‘z tadqiqotlarini kengroq miqyosda olib borish, laboratoriya ishlari va eksperimentlarni o‘tkazish uchun zarur mablag‘ olish imkonini beradi. Grant loyihalarini yozishda tadqiqotning dolzarbligi, uning jamiyat va fan uchun ahamiyati, ilmiy asoslangan metodologiyasi hamda kutilayotgan natijalarning aniq ifodalanganligi katta ahamiyatga ega. Doktorantlar Yevropa Ittifoqining Horizon Europe, DAAD, Fulbright, Erasmus+ kabi dasturlarida hamda milliy grantlarda ishtirok etish orqali o‘z ilmiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlashlari mumkin. Grant olish uchun ariza berishda loyiha taklifining dolzarbligini asoslash, uni aniq va tushunarli tilda yozish, hamkor tashkilotlar bilan ishlash va loyiha natijalarini aniq belgilash muhim omillardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, doktorantlar uchun ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirish ilmiy ishlarni rejalashtirish, maqola yozish va grant loyihalarida ishtirok etish kabi qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Samarali ilmiy faoliyat yuritish uchun doktorantlar ilmiy loyihalarni aniq rejalashtirishi, ilmiy maqolalarni xalqaro jurnallarda chop etish strategiyalarini o‘zlashtirishi va tadqiqotlar uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Bu esa ularning ilmiy salohiyatini oshirib, tadqiqotla-

rini global ilmiy hamjamiyatga olib chiqishga xizmat qiladi. Doktorant uchun tadqiqotchilik kompetensiyalari ilmiy faoliyatning asosiy negizi bo'lib, mustaqil izlanish olib borish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ilmiy hamjamiyatda o'z o'rnini topishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ilm-fan talablariga javob beradigan tadqiqotchilik kompetensiyalariga ega bo'lish doktorantlarga nafaqat ilmiy izlanishlarni sifatli tashkil etish, balki ularning natijalarini xalqaro miqyosda taqdim etish imkoniyatini ham yaratadi. Ilmiy tafakkur, tanqidiy yondashuv, axborotlarni tahlil qilish, ilmiy muloqot olib borish kabi ko'nikmalar bugungi kunda muvaffaqiyatli tadqiqotchi bo'lishning ajralmas shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda texnologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt, raqamli tahlil dasturlari, virtual laboratoriyalar va ilmiy hamkorlik platformalaridan foydalanish doktorantlarga tadqiqot jarayonlarini optimallashtirish, katta hajmdagi ilmiy ma'lumotlarni samarali tahlil qilish va ilmiy ishlanmalarni tezkor amalga oshirish imkonini beradi. Loyiha asosida ta'lim, virtual muhitda ilmiy tajriba o'tkazish va mentorlik tizimidan foydalanish esa tadqiqot jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro ilmiy nashrlarda maqolalar chop etish strategiyalarini o'zlashtirish, grant va loyihalar orqali tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlaridan foydalanish ilmiy faoliyatning samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga asoslanib, doktorantlar uchun ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha qator tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Ilmiy ishlarni samarali rejalashtirish, tadqiqot jarayonining har bir bosqichini aniq belgilash va ilmiy metodologiyaga qat'iy rioya qilish tadqiqot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy tahlil va tadqiqot natijalarini vizualizatsiya qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish, xalqaro ilmiy bazalardagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ilmiy hamkorlikni kengaytirish doktorantlarga jahon ilm-faniga integratsiyalashish imkonini beradi. Shu sababli, tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish doimiy o'qish, izlanish va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish orqali amalga oshirilishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson L. W., Krathwohl D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. Longman, New York, 2001. – 352 p.
2. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University: What the Student Does. 4th Edition. Open University Press, Maidenhead, 2011. – 389 p.
3. Brew A. The Nature of Research: Inquiry in Academic Contexts. Routledge, London, 2001. – 208 p.
4. Creswell J. W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. 4th Edition. SAGE Publications, Thousand Oaks, CA, 2014. – 304 p.
5. Delamont S., Atkinson P., Parry O. Supervising the Doctorate: A Guide to Success. 2nd Edition. Open University Press, Maidenhead, 2004. – 240 p.

6. Gibbons M., Limoges C., Nowotny H., Schwartzman S., Scott P., Trow M. *The New Production of Knowledge: The Dynamics of Science and Research in Contemporary Societies*. SAGE, London, 2010. – 192 p.
7. Lee A., Danby S. *Reshaping Doctoral Education: International Approaches and Pedagogies*. Routledge, London, 2012. – 245 p.
8. Phillips E. M., Pugh D. S. *How to Get a PhD: A Handbook for Students and Their Supervisors*. 6th Edition. Open University Press, Maidenhead, 2015. – 280 p.
9. Salmon G. *E-moderating: The Key to Teaching and Learning Online*. 2nd Edition. Routledge, London, 2005. – 224 p.
10. Walker M., Thomson P. (Eds.). *The Routledge Doctoral Supervisor's Companion: Supporting Effective Research in Education and the Social Sciences*. Routledge, London, 2010. – 400 p.

Aziza Kurbanova,
O‘zDSMI, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini mudiri, PhD, dotsent
O‘zDSMI 1-bosqich mustaqil izlanuvchisi (DSc)

SAN’AT TA’LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada san’at ta’limi sohasi talabalarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni hamda sohaning raqamli transformatsiyasi haqida ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning san’at ta’limidagi o‘rni, zamonaviy innovatsion vositalarning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi va raqamli ko‘nikmalarni shakllantirishga oid muammolar ham ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** teatr, kino, televideniye, raqamli transformatsiya, platforma.*

***Abstract.** This article analyzes scientific approaches to developing students’ digital competence in the field of art education, as well as the digital transformation of this sphere. The role of digital technologies in art education, the integration of modern innovative tools into the learning process, and issues related to the formation of digital skills are also examined.*

***Key words:** theater, cinema, television, digital transformation, platform.*

Ma’lumki, madaniyat va san’at sohasida teatr, kino, televideniye, xalq ijodiyotini rivojlantirish borasidagi zamonaviy talablarga, xalqimizning tobora ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlariga javob beradigan yuksak malakali mutaxassislarini tayyorlash darajasi hamda sifatini takomillashtirish va tubdan oshirish, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida yaratilgan mavjud moddiy-texnik bazadan yanada samarali foydalanish maqsadida hukumatimizning qator qarorlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF–6079-son Farmonida strategiyasi doirasida ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, yoshlar, ma’naviyat va jamoat tashkilotlari, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash sohalari raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha ustuvor loyihalarni amalga oshirish kabi masalalar belgilab berilgan [1].

Raqamli transformatsiya hozirgi kunda ko‘pgina sohalarga ta’sir etuvchi dolzarb jarayon hisoblanadi. Raqamlashtirish jadallashib borayotgan zamonda texnologik yechimlarni faol hal qilish uchun har qanday sohada raqobatbardosh bozorni saqlab qolish muhimdir. Shuningdek, turli sohalarni birlashtirish, infratuzilmani optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, raqamli transformatsiya jamiyatga ham ta’sir qilmay qolmadi. Professional ta’lim bundan mustasno emas. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi kasbiy ta’limdagi raqamli transformatsiyaning mavjud holatiga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Ta’limda raqamli transformatsiya — bu raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali uni takomillashtirish va samaradorligini oshirishni nazarda tutuvchi

jarayon. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi ta'lim berishning an'anaviy usullarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish va talabalarning shaxsiy salohiyatini maksimal rivojlantirishga yordam berishdir.

Raqamlashtirish va global internet tarmog'i deyarli hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bugungi kunda, ishga qabul qilishda asosiy omillardan biri insonning raqamli ko'nikmalarga egaligi hisoblanadi. Bu ko'nikmalar orqali faoliyatdagi topshiriqlarini samarali va tezkor bajarish mumkin, bu esa, shaxsning muvaffaqiyatli bo'lishi va mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishiga yordam beradi [2].

Professional ta'lim tizimida o'quv fanlarining raqamli vositalar bilan ta'minlanishi talabalarning fikrlarini faollashtirishga yordam beradi. O'quv kursi bo'yicha vizual va jonli imkonini beradi.

Mutaxassislarini tayyorlashda raqamli transformatsiyalar foydalanish muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu sohada mutaxassislik fanlari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lmasdan, yuqori natijalarga erishish juda qiyin. Shu sababli, professional ta'lim tizimida o'quv jarayonini raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berish vositalari, metodlari va o'quv dasturlari bilan ta'minlash muhim masalaga aylanmoqda, bu esa, ta'lim muassasasi, pedagog va pedagoglarning malakasini oshirish tizimini global va milliy talablarga moslashtirib, raqamli texnologiyalar sohasida ko'mak berish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va shakllantirishga yordam beradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida, kasbiy vazifalar va ta'lim metodologiyalari xarakterining chuqur o'zgarishi bilan bog'liq holda, ushbu kompetensiyalar zamonaviy sharoitlarga moslashtirilishini va qayta ko'rib chiqilishini talab etadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish ushbu transformatsiyaga turtki berib, o'quv dasturlari va kelajakdagi yuridik mutaxassislar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar to'plamiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu kompetensiyalarining nazariy asoslari tez o'zgarayotgan raqamli muhitga moslashish zaruriyatiga asoslanib, bitiruvchilar raqamli iqtisodiyot talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlashni ko'zda tutadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi professional-huquqiy kompetensiyalar mutaxassislarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etib, ularni huquqiy me'yorlar va standartlarga amal qilgan holda samarali ishlashga qodir qilib tayyorlaydi. Raqamli transformatsiya, ishlash usullari va ta'lim yondashuvlarini tubdan o'zgartirib, ushbu kompetensiyalarni qayta ko'rib chiqishni va yangilashni talab qiladi. Shuningdek, mutaxassislar zamonaviy raqamli dunyo talablariga muvaffaqiyatli moslasha olishlari uchun tayyorlanishlari lozim. Raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish ta'lim metodikalarini modernizatsiya qilishni va o'quv dasturlariga raqamli vositalarni kiritishni nazarda tutadi. Bu interaktiv o'qitish usullarini joriy etishni va ta'lim muassasalarini tadqiqot platformasi sifatida yaratishni o'z ichiga oladi.

Raqamli savodxonlik asosiy ahamiyatga ega bo'lib, ma'lumotlarni qayta ishlash ko'nikmalari va texnologik kompetentlikni o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalar raqamli dalillar va huquqiy texnologiyalar bilan ishlaydigan yuridik mutaxassislar uchun zarur. Talabalarda zarur kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlash uchun zamonaviy raqamli ta'lim raqamli vositalar va o'qitish usullarini o'z ichiga olishi lozim. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- raqamli savodxonlik va raqamli faoliyatni tartibga soluvchi qonunlarga urg'u berilgan holda ta'lim dasturlarini yangilash;

- interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish, masalan, yuridik holatlarni modellashtirish va raqamli texnologiyalar yordamida amaliy vazifalarni bajarish.

Raqamli transformatsiya sharoitida mutaxassislarni tayyorlashning eng muhim vazifalaridan biri bu zamonaviy tarmoq talablariga mos keladigan professional-raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishdir. Ushbu kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *raqamli madaniyat*: zamonaviy raqamli texnologiyalarni va ularning jamiyatga ta'sirini tushunish. Mutaxassislar texnologiyalar insonning dunyoqarashi va xatti-harakatlarini qanday shakllantirishini tushunishlari va bu bilimlarni etik va foydali yechimlarni ishlab chiqishda qo'llashlari kerak.

- *o'z-o'zini rivojlantirish*: AT sohasi tez o'zgarib borayotganligi sababli, o'z-o'zini o'rgatish va doimiy ravishda bilimlarni takomillashtirish muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikmaga aylandi. Mutaxassislar yangi dasturlash tillari, vositalar va texnologiyalarni butun kasbiy hayoti davomida o'rganishga tayyor bo'lishlari kerak.

- *boshqaruv ko'nikmalari*: loyihalarni va jamoani boshqarish ko'nikmalari IT sohasida tobora muhim bo'lib bormoqda, chunki yirik loyihalar ustida ishlash ko'plab mutaxassislarning hamkorligini va resurslarni samarali taqsimlashni talab qiladi. Vaqt, budjet va mahsulot sifati bilan boshqarish AT-loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlashning asosiy jihatlaridir. Raqamli kompetensiyalar nafaqat texnologik bilimlarni, balki etik, madaniy va boshqaruv jihatlarini ham kundalik kasbiy faoliyatga integratsiya qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi, bu mutaxassislarni bozorda yanada moslashuvchan va talab yuqori bo'lishiga yordam beradi.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi hayotimizning turli jabhalarini, jumladan, ta'limni ham o'zgartirdi. Raqamli vositalar va platformalarning sinflarda integratsiyalashuvi ortib borayotganligi sababli, talabalar raqamli davrda muvaffaqiyatga erishish uchun raqamli kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerak. Biroq, raqamli ko'nikmalarni An'anaviy tarzda o'rgatish ko'pincha yuqori natijaga erishish imkoniyati juda kam va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlamaydi. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishida art pedagogikadan foydalanish orqali talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati ochib berilgan. Badiiy ifodani texnologiya bilan birlashtirgan holda, art pedagogika talabalarda raqamli ko'nikmalar, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun noyob va samarali yondashuvni taklif etadi.

Raqamli vositalar bilan uyg'unlashgan art pedagogika talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Raqamli san'at asarini yaratish axborotni tahlil qilish, sintez qilish va baholashni talab qiladi. Talabalar g'oyalarni aqliy hujumi, turli nuqtai nazarlarni o'rganishlari, tartib va dizayn bo'yicha qarorlar qabul qilishlari va o'z ishlari-ning samaradorligini tanqidiy baholashlari kerak. Ushbu jarayonda ishtirok etish orqali talabalar raqamli davrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Konstruktiv fikr-mulohazalar va o'z-o'zini mulohaza yuritish orqali talabalar o'z ishlariga xolisona qarashni, yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashni va turli nuqtai nazarlarni qabul qilishni o'rganadilar.


San'at sohasining juda ko'p turlari mavjud. Bulardan hozirgi kunda eng muammoli va natijador turi kino san'atidir. San'atning yangi turi bo'lgan kinoning vujudga kelishi va rivojlanishi fan, texnika taraqqiyoti hamda ungacha bo'lgan san'at turlarining erishgan yutuqlari bilan bog'liqdir.

Kinoning san'at turi sifatida shakllanishiga An'anaviy san'atlar ham juda katta hissa qo'shgan. Kino o'zigacha bo'lgan barcha san'atlar tajribasini o'zlashtirgan holda shakllandi. Bu san'atlarning har biridan o'zining ifoda vositalarini rivojlantirishga yordam beradigan hususiyatlarni olishga intildi.

Kino o'zining shakllanishida bir-biriga yaqin san'atlardan tajribalarni singdirib olinganligi bois qisqa vaqt ichida chinakam san'atga aylanishiga, An'anaviy san'atlar bilan bir safga turishga imkon yaratildi.

Film – bu turli san'atlardan o'zlashtirib olingan ifoda vositalarining majmui emas, balki ularning sintezidir, ya'ni kinoning o'ziga xos xususiyatlariga qattiq amal qilgan holda, u yoki bu san'at turlarining ifoda vositalari bir-birlari bilan o'zaro ta'sirga kirishadilar.

Kino san'atning vujudga kelish jarayonida uning turlari ham rivojlandi. Kinoning turlari bir-biridan filmda gavdalangan material bilan, ifoda vositalari bilan, ularda ilgari surilgan maqsadlari bilan farq qiladi. Kino san'ati turlari quyidagilardan iborat.



1-rasm. Kino san'ati turlari.

Badiiy kino – bu kinoning paydo bo'lishiga fransuz rejissyori J. Meles asos soldi. Kinoning bu turida zamonaviy voqelik, tarixiy o'tmish, turli xil fantastikalarning gavdalanirishi va aktyor san'ati orkali ochib berilishi mumkinligini hayot tasdiqladi. Filmning barcha tarkibiy qismlari (komponentlari) — rejissura, rassom, operator va kompozitorlarning ishi inson taqdirini, uning fe'l-atvorini, u ishtirok etgan voqea va vaziyatlarni ochib berishga bo'ysundiriladi.

Insonlar o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi badiiy kinoda tasvirlashning asosiy obyektidir. Kinoning bu turidagi filmlar to'la metrajli, qisqa metrajli va ko'p seriyali bo'lishi mumkin.

Hujjatli kino – kinoning bu turida tasvirning asosiy materiali, mavzuyi o'tmishda ro'y bergan faktlar, voqea-hodisalar, zamonaviy voqelikning o'zi bo'lishi mumkin. Barcha ifoda vositalari haqiqiy voqealarning, filmga asos qilib olingan haqiqiy inson taqdirining mohiyatini ochib berishga bo'ysundiriladi [5]. Bu kino san'ati turining asosiy xususiyatlari – to'g'rilik, haqiqiylikdir. Ular obrazlilik bilan filmni yuqori badiiy darajaga ko'tarishi mumkin.

Hujjatli kino ichidan xronikani ya'ni biror voqea, faktni qisqacha izoh bilan beradigan tezkor kino axborotni farqlat lozim. Bu filmlarni kinoreportaj deb ham atash mumkin. Kinoxronika bugungi kunda televideniya keng ommalashgan.

Ilmiy-ommabop – kinoning bu turi uchun mavzu ilm-fan, mehnatdagi kishilarning kashfiyoti, ixtirolari, muhim, qiziqarli muammolardan iboratdir. Bu kino turining filmlari orqali ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar, farazlar ommalashtiriladi.

Animatsiyali kino – kinoning bu turidagi filmlar har qanday mavzu, muammo, janrlarda bo'lishi mumkin. Bolalar va kattalar uchun mo'ljallangan ertaklar, hozirgi zamonning g'oyat keskin muammolari, masalan, ekologik muammolar, tarixiy o'tmish va hokazolar shular jumlasidandir.

Bu kino turining o'ziga xos xususiyati uning filmlari badiiy asosga ega bo'lib, ishlanishi chizilgan rasmi, qo'girchoq tarzida bo'lishi mumkin. Zamonaviy animatsiyali kinoda kompyuter grafikasida keng foydalaniladi.

Yuqoridagi kino turlarida hozirgi kunda jadal rivojlanish jarayonida axborot texnologiyalar va raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyos. Ayniqsa san'at ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali jamiyatda o'zgarishlar jarayonini amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF–6079-son Farmoni.

2. Вартанова Е.Л. Индустрия российских медиа: цифровое будущее / Е.Л. Вартанова, А.В. Вырковский, С.С. Смирнов, М.И. Макеенко. – М.: МедиаМир, 2017. – 160 с.

3. Dubniak. (2022). 1. Educational digital transformation and digital Competences: legal aspects. Інформація і право, doi: 10.37750/2616-6798.2022.3(42).270253.

4. Журнал «Broadcasting. Телевидение и радиовещание» №2-20036, С. 18. Мария Теракопьян. Назад в будущее // <http://www.kinoart.ru/magazine/09-2007/review/terakop0709/>

Muborak Hakimova,
O‘zDSMI “Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasi dotsenti
Yulduz Qo‘ziyeva,
“Kutubxona-axborot faoliyati” fakulteti 3-bosqich talabasi

KUTUBXONALAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI: RAQAMLI KUTUBXONALARNING RIVOJLANISHI

***Annotatsiya.** Ushbu maqola kutubxonalar va axborot texnologiyalarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil etadi. Ayniqsa, raqamli kutubxonalarning rivojlanishi, ularning xususiyatlari, afzalliklari va foydalanuvchilar uchun taqdim etayotgan imkoniyatlari batafsil muhokama qilinadi. Maqolada raqamli kutubxonalarning mavjud turlari, rivojlanish sabablari, texnologik yangiliklar, kelajakdagi istiqbollar va ularning kutubxona sohasiga kiritgan o‘zgarishlari ko‘rib chiqilgan*

***Kalit so‘zlar:** raqamli kutubxona, axborot texnologiyalari, elektron resurslar, ma’lumotlar bazalari, sun’iy intellekt, bulutli hisoblash.*

***Аннотация.** Данная статья анализирует современные тенденции развития библиотек и информационных технологий. Особое внимание уделяется развитию цифровых библиотек, их характеристикам, преимуществам и возможностям, которые они предоставляют пользователям. В статье рассматриваются существующие типы цифровых библиотек, причины их развития, технологические новшества, перспективы на будущее и изменения, которые они привнесли в сферу библиотечного обслуживания.*

***Ключевые слова:** цифровая библиотека, информационные технологии, электронные ресурсы, базы данных, искусственный интеллект, облачные вычисления.*

***Abstract.** This article analyzes the modern trends in the development of libraries and information technologies. Special attention is given to the development of digital libraries, their features, advantages, and the opportunities they provide for users. The article examines the existing types of digital libraries, the reasons for their development, technological innovations, future prospects, and the changes they have introduced to the library sector.*

***Key words:** digital library, information technologies, electronic resources, databases, artificial intelligence, cloud computing.*

Kutubxonalar, ilgari faqat qog‘oz va jismoniy materiallarga asoslangan axborot resurslarini saqlovchi va tarqatuvchi muassasalar sifatida tanilgan bo‘lsada, bugungi kunda ular axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan yanada o‘zgarib, raqamli kutubxonalarga aylanishmoqda. Raqamli kutubxonalar, o‘z navbatida, kutubxona xizmatlarini yanada samarali va foydalanuvchilar uchun qulayroq qilishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada, raqamli kutubxonalarning rivojlanish jarayoni, ularning xususiyatlari, afzalliklari va kutubxona tizimiga kiritgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Raqamli kutubxonalar – bu elektron resurslar, raqamli fay-

llar, elektron kitoblar, maqolalar, audio va video materiallar va boshqa axborotlarni saqlash va ularga kirish imkoniyatini taqdim etuvchi kutubxonalardir. Raqamli kutubxonalar, asosan, ikki turga bo‘linadi:

1. **Dastlabki raqamli kutubxonalar** – bu an’anaviy kutubxonalardan olingan materiallarning raqamlashtirilgan versiyalari. Ushbu kutubxonalarda mavjud bo‘lgan jismoniy kitoblar va resurslar raqamli formatga o‘tkaziladi.

2. **To‘liq raqamli kutubxonalar** – bu faqat raqamli resurslar va kontentdan iborat kutubxonalar. Ular internet orqali masofaviy foydalanish imkoniyatini taqdim etadi va faqat raqamli fayllar, audiovizual materiallar va onlayn ma’lumotlar bazalarini o‘z ichiga oladi.

Raqamli kutubxonalarning rivojlanishi bir qator texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqdir. Quyidagi omillar raqamli kutubxonalarning rivojlanishiga turtki bo‘ladi:

- **axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi:** internet, bulutli hisoblash texnologiyalari, sun’iy intellekt va ma’lumotlar bazalari kabi texnologiyalar kutubxonalariga o‘z resurslarini raqamlashtirish va global miqyosda foydalanuvchilarga taqdim etish imkonini beradi.

- **Foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan talabining o‘sishi:** foydalanuvchilar o‘zlarining axborot olish jarayonlarini tezlashtirishni istaydilar. Raqamli kutubxonalar esa 24/7 formatida onlayn kirishni ta’minlab, axborotga erkin kirish imkoniyatini yaratadi.

- **Resurslarni samarali boshqarish:** raqamli kutubxonalar kutubxona materiallarini saqlash va boshqarishni soddalashtiradi. Shu bilan birga, resurslar osonlik bilan ko‘paytirilib, bir vaqtning o‘zida dunyoning turli burchaklaridan foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

Raqamli kutubxonalar an’anaviy kutubxonalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

1. **Tezkor va global kirish:** foydalanuvchilar har qanday joydan va istalgan vaqtda kerakli resurslarga kirishlari mumkin. Bu esa ma’lumot olish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

2. **Keng resurslar bazasi:** raqamli kutubxonalar millionlab kitoblar, maqolalar, tadqiqotlar, jurnallar, videolar va boshqa axborot manbalarini o‘z ichiga olishi mumkin. Bu, ayniqsa, ilmiy tadqiqotlar va o‘qish uchun keng imkoniyat yaratadi.

3. **Resurslarni saqlash va boshqarishning soddalashishi:** raqamli kutubxonalar orqali kutubxona resurslari saqlanishi va boshqarilishi osonlashadi. Qog‘oz va boshqa jismoniy materiallarga sarflanadigan joy va resurslar kamayadi.

4. **Interaktiv imkoniyatlar:** foydalanuvchilar raqamli kutubxonalarda izlanishlar olib borish, ma’lumotlar bilan ishlash, elektron resurslar bilan ishlashda interaktiv imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin.

Raqamli kutubxonalarning rivojlanishida bir nechta zamonaviy texnologiyalar muhim o‘rin tutadi:

1. **Ma’lumotlar bazalari va kataloglar:** raqamli kutubxonalar ko‘plab ma’lumotlar bazalariga ega bo‘lib, ular foydalanuvchilarga turli sohalarda (ilmiy, madaniy, tarixiy) keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu tizimlar tezkor va samarali qidiruvni ta’minlaydi.

2. **Raqamli arxivlar va bulutli texnologiyalar:** kutubxonalar ma'lumotlarni bulutli tizimlarda saqlashni boshlagan. Bu, axborotlarning xavfsiz saqlanishi va uni bir nechta foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida taqdim etishga yordam beradi.

3. **Sun'iy intellekt va mashinani o'qitish:** bu texnologiyalar kutubxonalarda avtomatik tavsiyalar, kontentni tahlil qilish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilashda qo'llaniladi.

Raqamli kutubxonalar kelajakda yanada rivojlanib, yanada ko'proq axborot resurslarini birlashtiradigan va foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratadigan muassasalarga aylanadi. Keyingi yillarda raqamli kutubxonalarda quyidagi tendensiyalar yuzaga kelishi mumkin:

- **Ma'lumotlar va resurslarni yanada kengaytirish:** yangi turdagi raqamli resurslar, masalan, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) resurslari, kutubxonalarga integratsiya qilinishi mumkin.

- **Axborot xavfsizligi va maxfiylik:** raqamli kutubxonalarda foydalanuvchilarning maxfiylikini ta'minlash va axborot xavfsizligini kuchaytirish uchun yangi usullar ishlab chiqiladi.

- **Sun'iy intellekt bilan integratsiya:** foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va kutubxona ma'lumotlarini tezroq qidirish imkoniyatlarini yaratish uchun AI va mashinani o'qitish texnologiyalari yanada rivojlanadi. Raqamli kutubxonalar zamonaviy axborot jamiyatining ajralmas qismiga aylanishdi. Ular axborotga erkin kirishni ta'minlab, foydalanuvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli kutubxonalarning rivojlanishi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va foydalanuvchilarning talablariga javob berish uchun zarurdir. Kelajakda raqamli kutubxonalar yanada ko'proq axborot resurslarini o'z ichiga oladi va bu jarayon kutubxona sohasining yangi bosqichiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.O. Andronikova, (2007). "Asosiy risklar innovatsion loyihalarni ta'lim sohasida joriy etish". *Innovatsiyalar pedagogik ta'limda: II Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari*. Novosibirsk davlat pedagogika universiteti.

2. E.N. Guseva, (2010). "Kutubxona sohasida innovatsiyalarni boshqarish: Belarus kutubxonalari portreti". *Vestnik BAUE*, 2(78–79).

3. E.Y. Kachanova, (2007). "Innovatsion-metodik ishlar kutubxonalarda". Xabarovsk davlat san'at va madaniyat instituti. Sankt-Peterburg: ProfessiY.

4. N.N. Tsyganova, "Kutubxonada innovatsiyalarni boshqarish: to'rt bosqichda izlanishlar". *GPNTB veb-sayti*: <http://www.gpntb.ru/win/inter-events>.

5. M. Aydin, (2015). "Digital Libraries and Information Technologies: New Trends and Approaches". *International Journal of Information and Library Science*, 3(1), 17–22.

6. I. Dobrev, (2018). "Digital Libraries in the Context of Modern Technologies". *Journal of Information Technology and Libraries*, 10(2), 55–64.

7. R. Houghton, (2019). "The Future of Digital Libraries: Innovations and Challenges". *Library & Information Science Research*, 41(3), 190–197.

8. K. Robinson, (2020). "Digital Transformation in Libraries: From Paper to Pixel". *Libraries Today*, 25(4), 33–40.

Kamoliddin Isayev,
*O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrası mudiri, dotsent,
1-bosqich mustaqil izlanuvchisi*

BO‘LAJAK FOLKLOR IJROCHILARINING MEDIA KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak folklor ijrochilarining media kompetentligini shakllantirish texnologiyalari o‘rganiladi. Folklor xalq madaniyati va ma‘naviy merosining muhim qismi hisoblanib, uni zamonaviy texnologiyalar yordamida saqlash va targ‘ib qilish dolzarb masaladir. Tadqiqotda ushbu jarayonlarning metodologik asoslari, empirik tahlillari va pedagogik yondashuvlari batafsil yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** folklor ijrochiligi, media kompetentlik, zamonaviy texnologiyalar, xalq ijodiyoti, ta‘lim texnologiyalari, empirik tahlil, raqamli format.*

***Abstract.** This article examines the technologies for developing media competence among future folklore performers. Folklore is a vital part of national culture and spiritual heritage, making its preservation and promotion through modern technologies a pressing issue. The study explores the methodological foundations, empirical analysis, and pedagogical approaches to this process.*

***Key words:** folklore performance, media competence, modern technologies, folk creativity, educational technologies, empirical analysis, digital format.*

Bugungi raqamli texnologiyalar davrida media kompetentlik har qanday sohada, jumladan, folklor ijrochiligi sohasida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Folklor – milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida nafaqat an‘anaviy ijrochilik ko‘rinishlarida, balki zamonaviy media vositalarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Shuning uchun bo‘lajak folklor ijrochilarning media kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, ularning an‘anaviy va zamonaviy bilimlarini uyg‘unlashtirish dolzarb masala hisoblanadi¹.

Mamlakatimizda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlar ham e‘tiborga loyiqdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori doirasida milliy madaniyatni zamonaviy media muhitida ommalashtirish uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, folklor jamoalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash va raqamli platformalarda faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lga qo‘yilgan.

Alohida ta‘kidlash joizki, so‘nggi yillarda madaniyat va san‘at sohasidagi ta‘lim muassasalarida raqamli vositalardan foydalanish va media savodxonlikni oshirishga qaratilgan yangi dasturlar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar orqali talabalarning media

¹ Ibragimov, B. (2023). Types And Importance Of Innovative Technologies In Education. Молодые ученые, 1(20), 96-98

vositalardan foydalanish qobiliyatlari shakllantirilmoqda, bu esa, o‘z navbatida, milliy madaniyatni keng auditoriyaga yetkazishga xizmat qilmoqda².

Bundan tashqari, mamlakatimizda har yili xalq ijodiyotiga bag‘ishlangan madaniyat festivallari va tanlovlar tashkil etilmoqda. Ular orqali nafaqat folklor ijrochiligining an’anaviy ko‘rinishlari saqlab qolinmoqda, balki raqamli muhitda ommalashishiga ham erishilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar milliy qadriyatlarni keng miqyosda targ‘ib qilish uchun qulay vosita sifatida foydalanilmoqda.

Shunday ekan, bo‘lajak folklor ijrochilarining media kompetentligini shakllantirish nafaqat texnologiyalarga moslashuv jarayoni, balki milliy madaniyatni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish vazifasidir. Ushbu maqola mazkur yo‘nalishning ahamiyatini, muammolarini va ularni bartaraf etish usullarini ko‘rib chiqishga qaratilgan.

Folklor ijrochiligining media kompetentligini shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini o‘rganish, zamonaviy pedagogika va raqamli texnologiyalar o‘zaro bog‘liqligini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Ibrakhim Abdurakhmonov o‘zining “*Dynamics of Development of Mythological Thinking in the Art of Uzbekistan*” asarida O‘zbekiston san’ati va folklorining rivojlanishi jarayonida mifologik tafakkur rolini yoritadi. Unga ko‘ra, “folklor xalqning tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi asosiy omil bo‘lib, unda xalqning ma’naviy merosi aks etadi”. Tadqiqotda xalq ijodiyotini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishning dolzarbligi ta’kidlanadi³.

Khojanov Iqlas Erkinovich Qoraqalpoq folklorining birinchi tasniflari haqida “*Preliminary Studies of Karakalpak Folklore and the First Classifications of Karakalpak Folk Art*” maqolasida gapiradi. U xalq og‘zaki ijodiyotining epik janrlari, jumladan, dostonlar va ertaklarning jamiyatning ma’naviy kamolotidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Khojanovning fikricha, “zamonaviy media vositalari xalq ijodiyotini keng ommalash-tirish va yosh avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi”.⁴

A. Rahimov o‘z tadqiqotlarida folklor ijrochiligining ta’lim tizimidagi pedagogik ahamiyatiga to‘xtaladi. Uning fikriga ko‘ra, “Media vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish nafaqat folklor ijrochiligini targ‘ib qiladi, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham oshiradi”. U xalq san’ati va musiqasini zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘rganishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

N. Qosimov “*Folk Music Performance*” kitobida xalq musiqasini ijro etish madaniyati va uning xalq madaniyatini targ‘ib qilishdagi o‘rnini ko‘rsatadi. U zamonaviy texnologiyalar va media vositalaridan foydalanib xalq musiqasini yoshlar orasida ommalashtirish yo‘llarini o‘rganadi. Qosimov “musobaqalar va xalqaro festivallar media orqali xalq ijodiyotini keng targ‘ib qilishda katta ahamiyatga ega”, deb hisoblaydi. D. Allanazarov Qoraqalpoq xalq musiqasining rivojlanish tarixi va uning asosiy xususiyatlarini yoritib, musiqiy folklorning milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rniga to‘xtaladi. Uning tadqiqotlarida folklor musiqasini yangi texnologiyalar yordamida asrash va rivojlantirish zarurati ko‘rsatib o‘tilgan.

2 Dostqobilova Munavvar Qochqorovna (2024). Bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy madaniyatga nisbatan munosabatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 2 (5), 13-17.

3 G. V. Kadina “Multimedia texnologiyalari o‘quv jarayonining istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir”. – M., “Maktabdagi musiqa”, 3-son, 2009-y

4 M. Xayrullaev. Madaniy meros va falsafiy fikr tarixi. – Toshkent: 2015.

N. R. Kavtarova o‘zining “Folklor an‘analarini raqamli muhitda saqlash” nomli ishida raqamli platformalar orqali folklor ijrochiligini rivojlantirish texnologiyalarini tadqiq qilgan. Ushbu tadqiqotda o‘qituvchilarning media savodxonlik darajasini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan⁵.

M. T. Ahmedovning “Media texnologiyalarning ta’limda qo‘llanilishi” monografiyasida zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonlarida qanday joriy etilishi batafsil bayon etilgan. V. S. Kim tomonidan olib borilgan tadqiqotlar folklor ijrochilarining kommunikativ kompetensiyasi va media vositalari bilan ishlash qobiliyatining ahamiyatiga bag‘ishlangan. Adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, folklor ijrochiligida media kompetentlikni shakllantirish, bir tomondan, an‘anaviy qadriyatlarni saqlab qolish, ikkinchi tomondan, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Ushbu maqolada qo‘llangan asosiy tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

1. Tahlil va sintez – mavjud ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va umumlashtirish orqali media kompetentlikka oid muammolarni aniqlash.

2. Amaliy kuzatish – folklor ijrochiligi bo‘yicha olib borilgan mashg‘ulotlarda media texnologiyalarning samaradorligini baholash.

3. Interfaol o‘qitish texnologiyalari – bo‘lajak folklor ijrochilar bilan trening va seminarlar tashkil etish orqali media vositalardan foydalanish bo‘yicha tajriba almashish.

Tadqiqot davomida 50 nafar folklor ijrochisi va 20 nafar pedagog ishtirok etdi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki:

- Folklor ijrochilarining 65 foizi media vositalardan foydalanishda qiyinchilikka duch keladi.

- Pedagoglarning 72 foizi raqamli texnologiyalarni o‘rgatishda maxsus metodik materiallarga muhtojligini bildirgan.

- Maxsus treninglardan so‘ng ishtirokchilarning media kompetentligi 40 foizga oshgani kuzatilgan.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha quyidagi xulosalar qilindi:

media kompetentlikni rivojlantirishda multimedia vositalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Folklor ijrochiligi bo‘yicha maxsus media-kurslarni ishlab chiqish talab qilinadi, bu kurslar o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshiradi.

Folklor an‘analarini ommalashtirishda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning roli juda katta. Natijalar ko‘rsatdiki, bo‘lajak folklor ijrochilari uchun media kompetentlikni shakllantirish jarayonida ta’lim muassasalari va madaniyat markazlari hamkorligi muhimdir. Biroq ushbu jarayonni amalga oshirishda qator muammolar mavjud:

media texnologiyalarning barcha o‘quvchilar uchun teng darajada yetib borishi bilan bog‘liq muammolar.

Folklorning raqamli muhitda an‘anaviyligini saqlab qolish masalalari.

O‘qituvchilarning o‘zlari uchun yetarlicha media savodxonlikka ega emasligi.

Media vositalar integratsiyasi: media kompetentlikni rivojlantirishda multimedia vositalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

⁵ B. Lifanovskiy. Musiqachilar uchun Internet. M., 2006-yil.

Maxsus kurslarning ahamiyati: folklor ijrochiligi bo'yicha maxsus media-kurslarni ishlab chiqish talab qilinadi, bu kurslar o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning roli: folklor an'analarini ommalashtirishda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning roli juda katta.

Muhokamalar davomida shuni aytish mumkinki, folklor ijrochiligi sohasida media kompetentlikni shakllantirishda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash tadbirlari uzviy davom ettirilishi kerak. Pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va yangi metodik materiallarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat siyosati doirasida qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Bo'lajak folklor ijrochilarining media kompetentligini shakllantirish texnologiyalari zamonaviy ta'lim va madaniyat sohasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada o'rganilgan metodlar va texnologiyalar media kompetentlikni oshirishda amaliy ko'rsatmalar sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotda keltirilgan natijalar va tavsiyalar xalq madaniyatini ommalashtirish va saqlashga katta hissa qo'shadi.

O'tkazilgan kichik ilmiy izlanishlarga asoslanib quyidagilarni tavsiyaviy jihatdan taklif eta olamiz:

1. Ta'lim muassasalarida media kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan maxsus treninglar o'tkazilishi kerak.

2. Folklor ijrochiligida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish uchun yangi o'quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda milliy folklor mahsulotlarini ommalashtirish strategiyalari ishlab chiqilishi lozim.

4. Pedagog va folklor ijrochilar uchun media savodxonlikni oshirishga yo'naltirilgan seminarlar muntazam ravishda tashkil etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 26.05.2020-yildagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Farmoni.

2. B. Ibragimov, (2023). Types And Importance Of Innovative Technologies In Education. Молодые ученые, 1(20), 96–98.

3. G. V. Kadina. "Multimedia texnologiyalari o'quv jarayonining istiqbolli yo'nalishlaridan biridir". – M., "Maktabdagi musiqa", 3-son, 2009-y.

4. M. Xayrullaev. Madaniy meros va falsafiy fikr tarixi. Toshkent. 2015-y.

5. B. Lifanovskiy. Musiqachilar uchun Internet. Moskva, 2006-yil.

6. N. R. Kavtarova. Folklor an'analarini raqamli muhitda saqlash. Toshkent: Fan nashriyoti, 2020.

7. M. T. Ahmedov. Media texnologiyalarning ta'limda qo'llanilishi. Samarqand: Ilm ziyo, 2018.

8. V.S. Kim. Kommunikativ kompetentsiya va media vositalari. Moskva: Nauka, 2019.

9. O. Xudoyberdiyev “Folklor va zamonaviy texnologiyalar”. Ta’lim va Madaniyat jurnali, 2021, №3.

10. Dostqobilova Munavvar Qochqorovna (2024). Bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy madaniyatga nisbatan munosabatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 2 (5), 13–17.

MADANIYAT VA SAN‘AT SOHASIDA NAZARIYA VA AMALIYOT

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligi, talabalarga berilayotgan nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlashning ahamiyati yoritiladi. San‘at va madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun amaliyot jarayoni muhim bo‘lib, bu ularning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** nazariya, amaliyot, san‘at, pedagogika, sahna nutqi, tajriba, amaliy mashg‘ulot, ijodiy jarayon.*

***Abstract.** This article highlights the inextricable connection between theory and practice, the importance of strengthening theoretical knowledge given to students through practical training. For students studying in the field of art and culture, the practice process is important, it serves to improve their professional skills. The article also analyzes the teacher-student tradition, teachers’ participation in practical training, and the methods used in this process.*

***Key words:** theory, practice, art, pedagogy, stage speech, experience, practical training, creative process.*

“Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san‘at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Madaniyat sohasi insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, uning rivojlanishi bevosita nazariya va amaliyotning uyg‘unligiga bog‘liq. Nazariya – ilmiy asoslangan bilim va konsepsiyalar tizimi bo‘lsa, amaliyot esa ushbu bilimlarni hayotga tatbiq etish jarayonidir. Aynan shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi oliy ta’lim tizimida yetuk mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki nazariy bilimlarsiz amaliy faoliyat samarali bo‘lishi qiyin, amaliy tajribalarsiz esa nazariy bilimlar yetarlicha mustahkamlanmaydi.

Xususan, san‘at va madaniyat sohasi talabalariga nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarni o‘rgatish ularning kasbiy mahoratini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Shu sababli, madaniyat sohasi oliy ta’lim muassasalarida nazariya va amaliyot uyg‘unligiga alohida e‘tibor qaratiladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, madaniyat – bu xalqimizning qiyofasi, jamiyat taraqqiyotining muhim mezonidir. Shu boisdan, madaniyat va san‘at yo‘nalishida kadrlar tayyorlashda nazariy bilimlarni chuqur o‘r-

ganish bilan birga, amaliy tajribaga ham katta urg'u berish lozim. Faqat shundagina, ushbu soha mutaxassislari o'z kasbining yetuk vakillariga aylanishi va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'sha olishi mumkin.

Nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi. Nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi har qanday sohaning rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir. Nazariya ilmiy bilimlar orqali muayyan jarayonlarning mohiyatini tushuntirsa, amaliyot esa ushbu bilimlarni hayotga tatbiq etish, tajriba qilish va real sharoitlarda sinovdan o'tkazish bilan bog'liq. Xususan, madaniyat sohasida nazariya va amaliyot bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar bo'lib, ular jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Nazariy bilimlar san'at, adabiyot, musiqa va boshqa madaniy yo'nalishlarda amaliy faoliyatni yo'naltirish va rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, madaniyat sohasi mutaxassislari nazariy asoslarni puxta o'zlashtirishi va uni amaliy faoliyat bilan uyg'un holda qo'llashi lozim.

Nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hamda ularning bir-biri bilan bog'liqligi haqida ko'plab maqolalar yozilgan va turli uchrashuv, mahorat darslari hamda ommaviy axborot vositalari orqali ilgari surilgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalarga dars berish jarayonida aynan shu uzviy bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi. Har bir kurs uchun maxsus kalendar-reja ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu reja asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ma'ruza mashg'ulotlarida nazariy bilimlar berilsa, amaliy darslar esa ularni mustahkamlashga xizmat qiladi. Talabalarga nazariy bilimlarni amaliy jihatdan o'zlashtirishga imkon yaratish maqsadida teatr san'ati yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar professional teatrlar bilan yaqindan tanishishadi. Ular aktyorlik faoliyatining muhim jihatlarini, sahnalashtirish jarayonlarini kuzatish, ovoz, vokal, raqs va orkestr bilan bog'liq holatlarni o'z ko'zi bilan ko'rib o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Professor-o'qituvchilarning amaliyotdagi ishtiroki. Professor-o'qituvchilarning amaliyotdagi ishtiroki ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki o'z tajribalari orqali talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlashga ham mas'uldirlar. Amaliyotda faol ishtirok etuvchi pedagoglar o'z yo'nalishiga oid so'nggi tendensiyalarni kuzatib borish, innovatsion metodlarni sinovdan o'tkazish va ilmiy ishlanmalarni real hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ayniqsa, madaniyat va san'at sohasida professor-o'qituvchilarning ijodiy jarayonlarga bevosita aralashuvi ta'lim sifatini oshirish bilan birga, talabalarni kasbiy jihatdan shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Bu borada O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari ham nazariya bilan cheklanib qolmay, professional sahnalarda o'z mahoratlarini namoyish etadilar. Ular Turkiston san'at saroyi, Xalqlar do'stligi saroyi, Humo arena va boshqa katta sahnalarda bayram tadbirlarida faol ishtirok etib, tajribalarini oshirib boradilar. Sahna nutqi kafedrasida tajribali ustozlar talabalarni nutq madaniyatiga o'rgatishda ustoz-shogird an'anasiga tayanadilar. Jumladan, professor Go'zal Xoliqulova, dotsent Isoqtoy Jumanov, katta o'qituvchi Dilrabo Jumanova va doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan Ramz Qodirov sahna nutqining yangi metodlarini izlanib, xorijiy tajribalar bilan boyitib borishmoqda.

Talabalar amaliyotining natijalari. Talabalar amaliyotining natijalari ularning nazariy bilimlarini real hayot sharoitida sinovdan o'tkazish, kasbiy mahoratini oshirish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Amaliyot jarayonida olingan tajriba talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga yanada puxta tayyorlaydi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Ayniqsa, madaniyat va san'at sohasida talabalarning amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etishi, turli loyihalar ustida ishlashi va ijodiy jarayonlarga qo'shilishi ularning kasbiy o'sishida muhim rol o'ynaydi.

San'atshunoslik sohasidagi iqtidorli talabalarni yuzaga chiqarishda sahna nutqi kafedrasidan badiiy so'z san'ati ko'rik-tanlovlari tashkil etilib, ularning ijodiy ishlari xalqaro tanlovlarga yuboriladi. Shu tariqa Sankt-Peterburg, Qozon davlat madaniyat va san'at oliy dargohlarida o'tkazilgan Ilxomiyat festivallarida yuqori natijalarga erishilmoqda. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish orqali talabalar dars vaqtida olingan bilimlarni yanada mustahkamlaydilar. Jumladan, teatr sahnalarida sahnalashtirilayotgan spektakllarda mutaxassis o'qituvchilar talabalar bilan birga ish olib borishadi. Teatr jamoalari bilan hamkorlikda sahna nutqi, talaffuz, so'zdagi xatti-harakat va obraz yaratish jarayonlarida talabalarga mahorat darslari o'tkaziladi.

Ommaviy axborot vositalarida talabalarning ishtiroki. Ommaviy axborot vositalarida talabalarning ishtiroki ularning nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, ijtimoiy faolligini oshirish va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Talabalar turli intervyular, maqolalar, televizion ko'rsatuvlar, radio eshittirishlar yoki internet nashrlari orqali o'z bilim va tajribalarini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatiga ega bo'lalilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi. Ayniqsa, madaniyat va san'at yo'nalishidagi talabalarning ommaviy axborot vositalarida chiqishlari ularning ijodiy salohiyatini keng namoyon etish va professional rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Talabalarning ba'zilar teatr sahnasidan tashqari, radio, televideniye va dublyaj sohaslarida o'z faoliyatlarini davom ettirishmoqda. Jumladan, Zarina Shirinova, Jayrona Xasanova, Mansur Xojiyev, Abdumalik Abduvaliyev kabi bitiruvchilar O'zbekiston televideniyesi hamda boshqa media markazlarda faoliyat olib borishmoqda. Dublyaj san'atiga qiziqqan talabalar uchun professor Shokir Yusupov kichik filmlar va mult-filmlarni ovozlashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil qiladi. O'zbekiston televideniyesi media markazi, O'zbekfilm dublyaj studiyalarida talabalar taniqli rejissyorlardan kerakli maslahatlarni olishadi va o'z mahoratlarini oshiradilar.

Xulosa

Nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi san'at va madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun juda muhimdir. Talabalarning iqtidorlarini yuzaga chiqarish, ularni kasbga yo'naltirish va malakasini oshirishda nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlash muhim o'rin tutadi. San'at sohasi rivoji uchun amaliy tajriba juda muhim bo'lib, talabalarni sahna, televideniye, radio va dublyaj san'atiga yo'naltirish kelgusida o'zbek san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. L. Xo‘jayeva. “Sahna nutqi asoslari”. Toshkent, 2020.
2. A. Sayfuddinov. “Teatr san’ati va aktyorlik mahorati”. Toshkent, 2019.
3. R. Qodirov. “Rejissura asoslari”. Toshkent, 2021.
4. G. Xoliqulova. “Nutq madaniyati va badiiy so‘z san’ati”. Toshkent, 2022.
5. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘quv dasturi va metodik tavsiyanomalari.

Bobir Ibragimov,
*O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi
Milliy estrada san’ati instituti dotsenti*

MUSIQIY PEDAGOGIKANING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI: ZAMONAVIY TA’LIMDAGI INNOVATSIYALAR

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada musiqiy pedagogikaning nazariy, ilmiy va uslubiy poydevorlari, shuningdek, uning ta’lim tizimidagi o‘ziga xos o‘rni, fanning maqsad va vazifalari, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar, mustaqil ish va innovatsion o‘qitish usullari tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** musiqa, pedagogika, nazariya, metodologiya, texnologiya, integratsion kurs, tarbiya, madaniyat, o‘zbek milliy musiqasi.*

***Abstract.** The article analyzes the theoretical, scientific and methodological foundations of music pedagogy, its unique role in the education system, the goals and objectives of science, practical classes, seminars, independent work, and innovative teaching methods.*

***Key words:** music, pedagogy, theory, methodology, method, seminar, independent work, technology, integrated course, upbringing, culture, Uzbek national music.*

Zamonaviy ta’lim tizimida musiqiy pedagogika o‘zining noyob nazariy va amaliy asoslari bilan ajralib turadi. Ushbu maqola musiqiy pedagogikaning ilmiy poydevorini, o‘quv jarayonidagi innovatsion usullarini va amaliy faoliyatdagi yondashuvlarini tahlil etishga qaratilgan. Shuningdek, madaniy merosimizni saqlash va yosh avlodni kelajak kadrlariga aylantirishdagi roli haqida ham so‘z yuritiladi.

Musiqa pedagogikasi fanni o‘qitishning maqsadi, fanning vazifalari, ma’ruzalar mazmuni, amaliy va seminar mashg‘ulotlari, mustaqil ish, fanni o‘qitish usullari va shakllari bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Musiqiy pedagogika dasturi ta’limning nazariy, ilmiy va uslubiy asoslarini, uning maqsad va vazifalarini, mazmuni va shakllarini, usullari va texnologiyalarini qamrab oladi. Ular orasida xalqimiz tarixini, o‘tmish madaniyati va ma’naviyatini qayta tiklash, merosimizni yanada boyitish, yoshlarni tarbiyalash va tarbiyalashga katta hissa qo‘shish, ayniqsa kadrlar tayyorlashda tub o‘zgarishlar bor. Bunday ishlarning maqsadi mamlakatimizning jahon jamiyatidagi o‘rni va mavqeyini shakllantirish, O‘zbekistonning qadr-qimmatini va uning jahon madaniyati va sivilizatsiyasidagi xizmatlarini aniqlashdan iborat.

Musiqiy pedagogikaning asosiy maqsadi – kelajakdagi mutaxassislariga musiqiy-pedagogik ta’limning nazariy asoslari, uslubiy yondashuvlari va zamonaviy texnologiyalarini o‘rgatishdir. Bu yo‘nalish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi: musiqiy va pedagogik ta’limning ilmiy asoslarini chuqur o‘zlashtirish; nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish; O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz musiqiy pedagogik tizimni rivojlantirish va yangilash; zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish.

Fanni o‘zlashtirish uchun talablar.

Talabalarning fan bo‘yicha bilimlari, ko‘nikmalari va ko‘nikmalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

- O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz musiqa pedagogikasi tizimi;
- umumiy musiqa ta’limi, umumiy nazariya va metodologiya sohasida mutaxassislarni tayyorlashga zamonaviy talablar;
- musiqiy ta’lim va sanoat nazariyasi va metodologiyasining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari va mazmuni;
- musiqiy ta’lim va nazariyaning uslubiy va ilmiy asoslarini bilish;
- musiqiy ta’lim va nazariya va uslubiy amaliyot;
- nazariya, musiqiy ta’lim va sanoatni tashkil etish shakllari, usullari va texnologiyalari;
- musiqa sanoati pedagogikasini o‘zlashtirish ta’limda yangi pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish qobiliyatlari;
- musiqiy pedagogika va bilish nazariyasi sohasidagi faktlar, hodisalar, tushunchalar, nazariyalar va ilmiy ishlanmalarni o‘rganish, tahlil qilish va baholash;
- musiqiy pedagogika nazariyasini, musiqiy va pedagogik ta’limni bilish, ilmiy, uslubiy va amaliy faoliyatda qo‘llash;
- turli tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish;
- o‘quv jarayonini tashkiliy va uslubiy ta’minlash;
- maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish;
- musiqiy pedagogika o‘quv jarayonini chuqurlashtirish uchun o‘quv materiallarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Musiqiy pedagogika o‘zining tarixiy ildizlari va uslubiy yondashuvlari orqali boshqa fanlar, masalan, musiqiy psixologiya, nazariy musiqashunoslik va pedagogika amaliyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu integratsion yondashuv:

- talabalarga ko‘p qirralik bilim olish imkoniyatini yaratadi;
- o‘quv jarayonida madaniy va ilmiy merosni yangilashga xizmat qiladi;
- pedagogik metod va texnologiyalarni yanada rivojlantirishga zamin yaratadi.

“Musiqiy pedagogika tarixi” mavzusi “Musiqiy va pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyoti”, “Musiqiy ta’lim muammolari” kabi fanlar bilan o‘zaro bog‘liqdir. Musiqiy pedagogika va musiqiy psixologiyaning umumiy tarixiy va uslubiy ildizlariga tayanish musiqiy ta’limning yangi usullari, shakllari va texnologiyalarini yanada muvaffaqiyatli rivojlantirishni ta’minlaydi. O‘z navbatida, musiqiy pedagogika tarixini bilish, musiqiy pedagogikaning tarixiy, uslubiy ildizlariga tayanish, barcha mutaxassisliklar bo‘yicha integrativ kurslar (nazariy musiqashunoslik, musiqiy asarlarni tahlil qilish muammolari, zamonaviy o‘zbek va xorijiy musiqalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari) fanga zamonaviy nazariy va tarixiy musiqashunoslikni o‘rganishga imkon beradi. Musiqiy o‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

“Musiqqa pedagogikasi tarixi” fani magistratura talabalariga tanlagan mutaxassisligining mohiyatini ochib beradi va bu borada tadqiqotlar olib borish orqali malaka oshi-

rish bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. "Musiqiy pedagogika tarixi" fani bo'lajak magistrni tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Mutaxassislar tomonidan olingan bilim va ko'nikmalar ularning amaliy va ilmiy pedagogik faoliyatida keng qo'llanilishi mumkin.

Xulosa o'rnida, musiqiy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish orqali, talabalar nafaqat musiqiy ta'limning mohiyatini, balki uning zamonaviy pedagogika tizimidagi ahamiyatini ham anglab yetishadi. Bu esa, mamlakatimizning ilmiy va madaniy rivojlanishiga, shuningdek, yosh avlod tayyorlashda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga katta hissa qo'shadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda yangi pedagogik texnologiyalar va metodlar yordamida o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Xulosa

Musiqiy pedagogika zamonaviy ta'lim tizimida nazariy chuqurlik, amaliy samaradorlik va innovatsion yondashuvlar sintezi orqali madaniy merosni saqlash va kelajak avlodni malakali mutaxassislar sifatida shakllantirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu fan sohasi nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni o'rgatishni, balki milliy ma'naviyatni yangi davrga moslashtirish, talabalarga ijodiy va intellektual salohiyatlarini to'liq namoyon etish imkoniyatini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Musiqiy pedagogikaning ilmiy poydevori, uning musiqiy psixologiya, nazariy musiqashunoslik va pedagogika amaliyoti kabi fanlar bilan chambarchas bog'liqligi, o'quv jarayonida ko'p qirrali va integratsion yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish, shuningdek, o'quv materiallarini milliy an'analar asosida ishlab chiqish, musiqiy ta'limni jahon standartlari darajasiga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Musiqiy pedagogika tarixini o'rganish va uning metodologik ildizlarini chuqur anglash orqali mutaxassislar nafaqat o'tmishdagi tajribalardan, balki zamonaviy global tendensiyalardan ham samarali foydalanishni o'rganadilar. Natijada, bu soha mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, madaniy-ma'naviy merosni yangi bosqichga ko'tarish va yoshlarni dunyoviy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kelajakda musiqiy pedagogikani raqamlashtirish, loyihalashtirish va individual yondashuvlarni kuchaytirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida izlanishlar davom etishi kutilmoqda. Shu bilan birga, musiqiy pedagogika nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo madaniyatiga mos keladigan universal va milliy jihatlarni uyg'unlashtirgan holda rivojlanishi mumkinligi isbotlangan holda, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.M. Ibragimov. Sibelius 8.0 Nota muharriri dasturida ishlash metodikasi. "Ilm ziyo zakovat", Toshkent 2021, uslubiy qo'llanma I-qism, 106 bet.
2. B.M. Ibragimov. Notalashtirish. O'quv qo'llanma. Toshkent 2023, 212 bet

3. B.M. Ibragimov. Musiqa madaniyati fani o‘qitishda kompyuter dasturlaridan foydalanishning nazariy asoslari. “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10. P.303–313.

4. B. M. Ibragimov. Classification of music computer software. International scientific-online conference September 22, 2022. <https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7102969>

5. B. M. Ibragimov. Nota yozuvining isloh qilinishi. nota yozuvini gvido d’arezzo tomonida isloh qilinishi. Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051, Online: 14th December 2023.

6. B. M. Ibragimov. Ekspeditsiya namunalarini notaga olish. // Inter education & global study. 2024. №10 B.522-530.

7. N. Q. Umurov. SIBELIUS 4, SIBELIUS 6 nota muharrirlarida ishlash masalalari. (O‘quv qo‘llanma) -Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016, 104 bet. ISBN 978-9943-4682-5-2

8. Sibelius Reference. Electronic certificate of application. © 2021 Avid Technology.

PSYCHOPHYSIOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF STUDENT-ACTOR'S WORK BEFORE THE CAMERA: ANALYSIS OF PROBLEMS AND SOLUTIONS

***Abstract.** This article examines the challenges encountered by student actors when working with camera technology and proposes potential solutions. The lack of structured practical experience with camera operation during their academic training is posited to result in significant difficulties for these students upon entering professional cinematic production environments.*

***Key words:** cinematography, acting pedagogy, camera performance, student actor training.*

***Annotatsiya.** Bu ilmiy maqolada talabalarning kamera oldida ishlashda yo'l qo'yadigan muammolari va ularning yechimlari haqida fikr yuritiladi. Institut talabalari o'qish jarayonida amaliy jihatdan kamera bilan ishlamasligi kelgusida ularni kino maydonida ko'p muammolarga uchrashiga olib keladi.*

***Kalit so'zlar:** kino, tarix, ma'naviyat, rivojlanish, san'at, kamera, mahorat, rol, kinematografiya.*

Since the inception of cinematic art, the art of film acting has undergone various stages of development. It is imperative to acknowledge that Uzbek cinema has experienced numerous political upheavals, economic downturns, and spiritual crises throughout its history. Nevertheless, the national cinematic identity and its distinctive traditions have been preserved and continued to evolve under all circumstances. The processes on and off the film set, the establishment, formation, and progressive development of film acting and directing schools have laid the foundation for the creation of a national cinematic identity that is both unique and synchronous with contemporary trends. When discussing the history and evolution of national cinema, it is essential to recognize the Uzbek national school of acting and directing. This recognition is crucial because all forms of art are nourished by the traditions of such schools of mastery, including the art of cinema.

The foundation of the national school of artistic mastery rests upon a robust and profound base of knowledge and traditions. This, in turn, facilitates the formation, development, and preservation of the unique identity of cinematic art. The exceptional talents who have contributed and continue to contribute to the advancement of cinematic art are nurtured within the traditions of this school of artistic mastery. Throughout each era and process, the profession of film acting has evolved through diverse manifestations. Particularly in Uzbek national cinema, numerous distinguished figures have established the secrets of film acting mastery through their creative works. Today, this profession maintains a distinctive position within national cinema, characterized by its brilliance, national values, traditions, and performance styles.

It is widely acknowledged that the theatrical stage serves as a sanctuary for the actor. In cinema, however, the camera assumes a pivotal role. Despite being an inanimate object, creators recognize that viewers perceive the film through the lens of the camera. This awareness places a significant responsibility upon the actor, leading to the coining of the term “camera presence” among filmmakers. For emerging artists entering the cinematic field, this “camera presence” can pose a substantial obstacle. Regardless of their talent and acquired skills, any actor may experience anxiety before the camera, a phenomenon considered natural.

Over a century ago, the principles of acting craft, encompassing the demands set forth by K.S.Stanislavsky for actors and the intricacies of his developed methodology, are recognized as crucial factors not only for dramatic theater actors but also for professionals in the field of cinematography. Indeed, any theater actor who has mastered these craft secrets is capable of performing in the realm of cinematography. The secrets of K.S.Stanislavsky’s acting craft serve equally for the theatrical stage and the filming set. However, the film industry imposes a series of additional requirements upon actors, which K.S.Stanislavsky himself alluded to with profound insight: “Everything is revealed on the screen, every minutiae is captured in the image”⁶

The aphorism of this esteemed figure, a prominent exponent of theater and the founder of the acting craft school, compels reflection.

The gaze of the camera is tantamount to the gaze of millions of viewers simultaneously. Everything within the frame of the objective lens, down to the minutest details, is subject to the scrutiny of the audience. This, in turn, imposes a substantial demand and responsibility upon the film actor. The film actor must possess a comprehensive arsenal of professional skills. Furthermore, meticulous internal control over external appearance, demeanor, attire, and subtle nuances of behavior is imperative. One of the most challenging tasks confronting the film actor is the capacity to execute the requisite emotional expression and physical actions before the camera. This necessitates the actor’s ability to “enter” the narrative of the work, irrespective of external stimuli or events occurring in the surrounding environment. It requires the invocation of emotional memory to enact behaviors that are consistent with the narrative, and the precise rendition of the desired emotional state.

In theater, the stage is elevated several levels above the audience, allowing all actors to perform in unison and in synchrony throughout the performance. This facilitates the collective enactment of roles. Specifically, the entire ensemble, comprising numerous groups of actors, supports an individual actor in experiencing and internalizing the events of the play, thereby enabling the activation of requisite creative inspiration. During this process, the audience in the hall is also influenced by the unfolding events of the performance, further contributing to the actors’ role execution. Indeed, prior to attending a performance, the audience possesses certain knowledge regarding the play’s title, authorship, and genre. As the performance commences, their interest is piqued by its progression. The audience seeks to derive pertinent conclusions from the performance and endeavors to experience a form of catharsis through the actors’ portrayal.

⁶ K.S. Stanislavsky, “Collected Works,” vol. M., “Art,” 1959, p. 277

The objective of actors performing in a theatrical production is precisely analogous. Specifically, it is directed towards providing the audience with spiritual nourishment and eliciting emotional responses through their performance techniques. In essence, both actors and audience members in a theater auditorium unite in pursuit of a common goal. However, the methods employed to achieve this objective diverge. The cinematic filming environment presents a distinctly different scenario. The filming location can be situated in any setting, including streets, crowded public spaces, cafes, shops, and so forth. In such environments, actors, while performing their roles, encounter the piercing gaze of individuals who are entirely extraneous to the filming crew. Unlike the unified objective present in a theater auditorium, the goals of all individuals in this context are not aligned. The perception and reaction of a casual passerby, engaged in their daily activities and unaware of the film being produced, upon observing the actor before the camera, differ markedly from those of an audience member seated in a theater. Frequently, such “extraneous” gazes can be beneficial to actors on a film set. The question then arises: what course of action should the actor adopt in this situation?

From whence does the actor derive sources of inspiration for embodying a required character? In this regard, the work “Acting Mastery in Dramatic Theater and Cinema” by the renowned mentor Munavvara Abdullayeva offers insights that provide a pertinent response: “Throughout their creative lives, actors portray diverse characters and roles, endeavoring to approach each with a unique and individualized perspective. This characteristic of approach delineates and shapes the multifaceted nature or conversely, the limitations of an actor’s skill and talent.” The actor’s preparation for performance necessitates both psychological and physical readiness prior to undertaking any role. K.S. Stanislavsky termed this process “role hygiene.” Regrettably, many actors prioritize external appearance before performance, neglecting the requisite internal psychological preparation. Even more concerning is the tendency of some actors to solely focus on projecting an aesthetically pleasing image before the camera. In such instances, the discourse on internal and external preparation for role performance becomes moot. This attitude towards the acting profession is tantamount to profound disrespect.

Numerous distinguished and experienced artists allocate a specific duration for self-preparation for roles and stage performances, incorporating this practice into their strict daily regimen. Conversely, emerging young actors and actresses often abstain from such preparatory practices. A significant proportion of younger actors do not perceive the necessity for psychological, spiritual, and physical preparation prior to performance, or they approach it with indifference. Many young actors are unfamiliar with the preparatory process and may lack comprehensive knowledge regarding “role hygiene.” Instructors of acting mastery in theater and arts schools should impart the procedures, rules, and requirements for preparation to student actors prior to role enactment, whether on stage or before the camera. The preparation for roles and performance processes does not mandate the forced inspiration of the soul, nor the imposition of pressure on emotions or experiences. This process constitutes the preparatory phase for the actor’s sensory organs, enabling them to perceive, observe, and articulate subtle, elementary changes in the environment, interactions with partners, and behavioral nuances, there-

by stimulating sources of inspiration. The identification and skillful utilization of these subtle, elementary materials in role interpretation is a characteristic feature of acting mastery.

By utilizing contemporary, specifically current, sources of inspiration, an actor introduces innovation into their role performance. In their pursuit of daily inspiration, actors also engage their life experiences and emotional memory. To prevent the emotionless delivery of the script before the camera, it is imperative for actors to consistently refine and update their “internal screen tape.” Upon hearing the director’s call of “Action!” before the camera, the actor activates this internal screen tape, igniting creative inspiration. During this process, the actor becomes completely detached from the external environment, perceiving only the camera and their co-actor. By engaging creative inspiration, they perform their role in the requisite manner. Regardless of the narrative segment, be it the beginning or the conclusion, the actor must initiate the performance process with the necessary proficiency and acting mastery upon hearing the director’s starting cue. Another crucial requirement for film actors is the thorough study of the character they are portraying, necessitating comprehensive knowledge regarding their background and profession.

Conclusion

For instance, an actor portraying a physician does not merely don a white coat before the camera. It is imperative that they attend to minute details specific to the medical profession. Specifically, how do physicians wear their coats? How, for example, do they utilize the pockets of their white coats? Similarly, an actor portraying a police officer must have a precise understanding of the officer’s rank, grade, and position. The officer’s rank is reflected in the details of their uniform. The actor must also possess requisite knowledge regarding the proper handling of the police officer’s equipment, including techniques and movements. Renowned actress Dilnoza Kubayeva, recipient of the “Shuhrat” medal, shared an anecdote in an interview. During the filming of a particular movie, her co-actor was required to handcuff her. During the process, the actress experienced significant pain and marks on her wrists. Despite her efforts to deliver a flawless performance, a law enforcement professional who later viewed the film remarked: “In that film, your co-actor handcuffed you incorrectly. Handcuffs are not applied in that manner. Such application would inflict considerable pain.” This observation provided the actress with a valuable lesson. It underscored the necessity for actors to possess comprehensive knowledge not only of the character’s internal and external experiences, lifestyle, and demeanor but also of the minute details of their profession. Such knowledge can be classified as specialized expertise. An actor who performs a role without acquiring the necessary information and specialized knowledge commits a significant error in the eyes of professionals in that field. Even the slightest errors committed before the camera can negatively impact an actor’s professional skill and ethics. The process of working on a role and acquiring specialized knowledge refines an actor’s skill. Indeed, acting mastery is of paramount importance not only on the theatrical stage but also before the camera.

REFERENCES:

1. John Benedetti. "Stanislavski: An Introduction" (An Actor's Work on Himself, Part 2). Routledge, 2008.
2. Leonard Petit. "For the Actor: The Stanislavsky Method". Taylor & Francis, 2009.
3. J. Makhmudov, Kh. Makhmudova. "Acting Skills". Tashkent: Lesson Press Publishing House, 2016.
4. B. Sayfullayev, J. Mamatkasimov. "Acting Skills". Tashkent: Science and Technology, 2012.
5. K. S. Stanislavsky. "An Actor's Work on Himself". Translated by T. Khodjaev. Tashkent: (Reprint) Artistic Literature, 2010.
6. Kobilova, F. N., & qizi Abdullayeva, S. I. (2023). Rassom O'ktam Saidov ijodi. Educational Research in Universal Sciences, 2(1 SPECIAL), 154–159.
7. X. N. Qobilov. Aktyorlik mahorati va rejissura masalalari //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 251–255.
8. H. Qobilov Teatr san'atining rivojlanishida musiqa san'atining o'rni //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 197–202.

Zuxra Arzibayeva,
O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi”
kafedrası katta o‘qituvchisi

MUSIQIY DRAMADA TEATR TOMOSHASI, MUSIQA VA RAQSNING UYG‘UN INTEGRATSIYASI

***Annotatsiya.** Murakkab san‘at turi sifatida musiqiy drama teatr tomoshasi, musiqa va raqsni uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos jozibasi va badiiy tarangligini namoyish etadi. Ushbu maqolada biz teatr tomoshasini ushbu yo‘nalishdagi musiqa va raqs bilan birlashtirishni ko‘rib chiqamiz. Musiqali dramaning aniq xususiyatlaridan biri — uning san‘atlarning muvaffaqiyatli integratsiyasini talab qilishi, bu dramaturgiya, musiqa va raqsning yoqimli birlashishiga imkon beradi. Bu janr har xil musiqiy elementlar orqali tomoshabinlarning hissiyotlarini yanada chuqurroq izohlashga yordam beradi.*

***Kalit so‘zlar:** musiqa, raqs, teatr tomoshasi, musiqiy drama.*

***Abstract.** As a complex art form, musical drama seamlessly combines theatre performance, music and dance, demonstrating unique charm and artistic tension. This paper will explore the integration of theatre performance with music and dance in this direction. One of the defining characteristics of musical drama is that it requires the successful integration of the arts, allowing drama, music and dance to blend together beautifully. This genre helps to express the audience’s emotions in a deeper way through various musical elements.*

***Key words:** music, dance, theatre performance, musical drama.*

Musiqiy drama – bu o‘ziga xos elementlarga ega bo‘lgan uchta san‘at sohasi, ya‘ni drama, musiqa va raqsning integratsiyasi, bo‘lgan ijro san‘ati asari. IX asrning oxirida Yevropa va Qo‘shma Shtatlarda paydo bo‘lgan, ko‘p yillik rivojlanish va evolyutsiyadan so‘ng, endi u xalqaro sahnadagi eng mashhur san‘at turlaridan biriga aylandi. Musiqiy teatr nafaqat ijro shakli, balki madaniy meros va yangilikdir.

Ijrochining roli musiqali dramada oddiy dramadan farq qiladi, chunki musiqali dramada ijrochining mahorati tomoshada markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘z mahoratini qo‘shiq matnlari va raqs orqali namoyish etishi kerak. Musiqali dramatik san‘atning murakkab sintez janri sifatida shakllanishi bevosita o‘zbek xalqining boy badiiy merosiga va ushbu merosni zamonaviy teatr sahnasiga olib chiqa olgan iste‘dodli ijodkorlarning mavjudligiga bog‘liqdir. O‘zbek musiqali teatr san‘ati o‘z ildizlarini xalq musiqiy an‘analari, folklor, urf-odat va marosimlaridan olgan bo‘lib, uning rivojlanishida baxshilar, qiziqchilar, masxarabozlar, hofizlar kabi an‘anaviy teatr namoyandalari muhim rol o‘ynagan. Ularning ijodi va mehnati tufayli o‘zbek musiqali dramatik san‘ati shakllanib, o‘ziga xos milliy qiyofaga ega bo‘ldi.

Teatrlashtirilgan ijro musiqasi va raqsining organik kombinatsiyasi orqali musiqiy asarlar tomoshabinlarga boy va rang-barang badiiy tajribani olib kelishi mumkin, bu esa, odamlarga spektaklga sho‘ng‘ish paytida zavqlanishiga imkon beradi va spektakl qahramonlari bilan hissiy ko‘tarilish va pasayishni boshdan kechiradi. Musiqiy drama-

larda bu uchta element aktyorlarning muloqotidan ko‘ra muhimroqdir. Garchi barcha dialoglar kuylanmasa ham, asosiysi musiqiy spektakllarda musiqiy element ustunlik qiladi [1].

Teatr tomoshasi, musiqa va raqsning kombinatsiyasi qahramonlarning hikoya chizig‘i va his-tuyg‘ularini yaxshiroq yetkazish imkonini beradi. Musiqa va raqs ritm, ohang va raqs kabi elementlar orqali qahramonlarning ichki dunyosi va hissiy holatini chuqurroq ochib berishi mumkin. Dramatik namoyishlar harakatlar, yuz ifodalari va belgilar chiziqlari orqali hissiyotlarning ifodasini to‘ldiradi va kuchaytiradi. Ushbu keng qamrovli taqdimot formati tomoshabinlarga hikoyaning hissiy kuchini chuqurroq his qilish imkonini beradi.

Turli davrlarda musiqiy dramaning turli jihatlari L. Avdeyeva [5], K. Ahmedova [6] va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida ko‘rib chiqilgan. L. Avdeyeva o‘zining izlanishlarida O‘zbekiston musiqiy dramasi xususiyatlarini tahlil qilgan. K. Ahmedova tadqiqotlarida milliy an’analar musiqiy-drama san’atiga ta’sirini o‘rgangan. A.V. Lunacharskiy [4] – turli san’at turlarining teatr sahnasida uyg‘unlashish ahamiyatini ta’kidlagan. G. M. Tsipin [2] – opera va musiqiy-drama shakllarini san’at sintezi nuqtayi nazaridan o‘rgangan. Yu. N. Grigorovich [2] – musiqiy-drama asarlarida xoreografiyaning o‘rnini tadqiq etgan. Ushbu tadqiqotlar asosida quyidagi xulosani chiqarish mumkinki: san’atlar sintezi musiqiy drama janrining asosiy xususiyati deb hisoblanadi, chunki musiqa, dramaturgiya va raqs o‘zaro uyg‘unlashib, yaxlit badiiy obraz yaratadi.

Musiqiy dramalarda musiqa va raqsdan foydalanish nafaqat vizual go‘zallikni beradi, balki ritm va harakatni ham qo‘shadi. Musiqaning ritmi va ohangi tinglovchilarni keskinlik va hayajonli syujetni his qilishi mumkin. Bunday dinamik spektakl syujetning keskinligini oshirishi va butun musiqiy dramani yanada jonli va qiziqarli qilishi mumkin.

Musiqiy va dramatik asar, jumladan opera, musiqiy, balet va operetta san’at sintezi tamoyillari asosida qurilgan. Drama asarga syujet rivojlanishi va konfliktlarni kiritadi, musiqa hissiy komponentni kuchaytiradi, raqs esa harakat bilan ifodalilikni to‘ldiradi. Bu elementlarning muvaffaqiyatli uyg‘unlashuvi dramaturgiyani chuqur anglashni, bastakor kontseptsiyasini va xoreografik yechimni talab qiladi.

Keng qamrovli san’at turi sifatida musiqiy drama raqs, musiqa va teatr tomoshasi noyob integratsiyasi orqali tomoshabinlarga cheksiz tasavvur va badiiy zavq bag‘ishlaydi. Musiqiy drama sahnada boy dramatik to‘qnashuv va hissiy to‘qnashuvni, shuningdek, musiqa va raqsning go‘zalligi va dinamizmini namoyish etishi mumkin. Musiqiy teatrning jozibasini shundaki, u nafaqat spektakl shakli, balki madaniy meros va yangilikdir.

Musiqali drama – bu san’atning birlashgan shakli bo‘lib, dramaturgiya, musiqa va raqsning organik integratsiyasini talab qiladi. Ushbu janrning xosligi shundaki, uning barcha elementlari o‘zaro uyg‘unlashib, xissiyotlarni chuqurroq ifoda etish va tomoshabinni yangi badiiy tajribaga bog‘lash imkonini beradi. O‘zbek musiqali teatrining taraqqiyoti milliy an’analariga va zamonaviy ijodkorlarning tadqiqotlariga asoslangan holda, milliy xilma-xillikni saqlab, zamonaviy qoidalarga moslashib borayotganini ko‘rsatadi. Musiqali dramaning rivoji nafaqat teatr san’atini, balki madaniy merosni

saqlash va rivojlantirishning muhim vositasidir. Shu bilan birga, san'atlarning integratsiyasining ahamiyati va uning ijroidagi muvaffaqiyatli amalga oshishi badiiy ijodkorlardan yuqori darajadagi mahorat va texnik bilimlarni talab qiladi.

Xulosa

Musiqiy drama – drama, musiqa va raqsning noyob sintezi orqali insoniy his-tuyg'ularni chuqur ifodalashga qodir bo'lgan universal san'at shakli sifatida, nafaqat madaniy merosni saqlab qolish, balki uni zamonaviy talablar asosida yangilash imkoniyatini beradi. O'zbek musiqiy teatrining ildizi xalq an'analari, folklor va milliy qahramonlik eposlariga sayqal bo'lib, uning taraqqiyotida an'anaviy san'atkorlar va zamonaviy ijodkorlarning hissasi aql bovar qilmaydi. Musiqa, dramaturgiya va raqsning organik uyg'unligi tomoshabinlarga nafaqat estetik zavq, balki qahramonlarning ichki kechinmalari bilan hamnafas bo'lish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu janrning muvaffaqiyati san'atlarning izchil sintezi, badiiy obrazlarning rang-barangligi va milliy ruhni saqlab qolgan holda innovatsion yondashuvlarni qo'llashga bog'liq. O'zbekiston kontekstida musiqiy drama nafaqat madaniy identitetni mustahkamlash, balki dunyo sahnasida milliy san'atning o'ziga xosligini namoyish etishning kuchli vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xiang Jiaqi. San'atshunoslik Va Texnologiya, 2023, 36(5): 80–82.
2. Chen Lixia. Vokal musiqasi va raqsni musiqiy teatr tomoshasida birlashtirish va qo'llash bo'yicha tahlil [J]. Drama Uyi, 2022(7): 28–30.
3. Yang Jia. Musiqiy Xitoy, 2023 (1): 46–49.
4. Б. Абдурахимов Художественная культура Узбекистана: XX век. – Ташкент: Узбекистон, 2000. – 206 с.
5. Л. Авдеева. Мухитдин Кари-Якубов. – Ташкент: Изд-во литературы и искусства, 1984. – 260 с.
6. К. Ахмедова. Узбекская музыкальная драма. Музыкальная драматургия жанра: Диссертация на соискание учёной степени кандидата искусствоведения. – Ташкент, 1971. – 156 с.
7. Берлянич, М. Искусство и личность. Книга 1. Проблемы художественного образования и музыкального исполнительства. М.: ЦМШ при МГК им. П. Чайковского, 2009. 366 с.
8. Абдуллин Э.Б., Николаева Е.В. Теория музыкального образования: учебник для студ. высш. пед. учеб. завед. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: Прометей, 2020. – 502 с. – ISBN978–5–907244–51–1 (с. 166).
9. Г. В. Иванченко, Психология восприятия музыки. – М.: Смысл, 2021. – 253 с.

Mo‘minmirzo Xolmo‘minov,
O‘zDSMI “Madaniyat va san‘at menejmenti”
kafedراس dotsenti v.b.
2-bosqich mustaqil izlanuvchi

O‘ZBEKISTON MADANIYATI VA SAN‘ATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek san‘ati va madaniyatining ildizi, bugungi kundagi madaniyat va san‘at sohasiga kiruvchi muassasalarning faoliyati alohida-alohida qisqacha yoritilgan undan tashqari madaniyat va san‘atga doir aniq statistik ma‘lumotlar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyat, san‘at, raqs, maqom, baxshi, madaniyat markazi, teatr, madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, festival.*

Abstract. *In this article, the roots of uzbek art and culture, the activities of the institutions that belong to the field of culture and art today are briefly covered, as well as specific statistical data on culture and art.*

Key words: *culture, art, dance, status, bakshi, cultural center, theater, cultural heritage, intangible cultural heritage, festival.*

Yurtimizda azaldan noyob iste‘dod egalari, san‘atimizning mohir namoyandalari yashab kelishadi hamda o‘zbek xalq san‘atining nodir an‘analarini asrab-avaylab, avloddan avlodga yetkazib kelmoqdalar. Ushbu an‘analar xalqimiz tarixi, ajoyib madaniyatimiz-u milliy qadriyatlarimizni unutishga yo‘l bermaydi.

Xalqimiz qadimdan har sohada mohir va tadbirkor bo‘lganligiga tarix guvoh. Shu qatori o‘zbek san‘ati tarixi ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Xususan, musiqa, raqs, teatr, qo‘shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san‘atning turli sohalari ham rivojlangan. Ilk o‘rta asrlarda san‘at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent raqqos yigit va raqqosa qizlari bilan shuhrat topgan. Choch raqqoslari ijro etgan mashhur “Choch raqsi” yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o‘ynoqi “Doira raqsi” Xitoy ayonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan o‘n turdagi cholg‘u asboblari yasalganligi ham tarixdan ma‘lum. Aslida, har qaysi davlatni dunyoga ma‘lum va mashhur qiladigan soha sport, san‘at va madaniyatdir. O‘zbek sporti jahon arenalarida yetarlicha mavqega ega. Xo‘sh, o‘zbek san‘ati va madaniyatining o‘rni bugun qay darajada?

Ko‘pgina chet el mamlakatlari xalqlari bizning milliy matolar-u, o‘ymakor naqshinkorlik san‘atimizni bilishadi va qiziqishadi. Chindan ham milliy qadriyatlarimizdan biri sifatida bugungi kunda ustoz-shogird an‘anasi sifatida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bu kabi san‘at durdonalarimiz butun dunyoga ma‘lum va mashhur. Buni mamlakatimizda o‘tkaziladigan xalqaro festivallarda qatnashuvchi turistlar sonidan ham yaqqol sezish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek nomi yangraganda bizning milliy liboslarimiz kabi san‘at asarlarimiz chet el xalqlari ko‘zoldida gavdalanishi kundek ravshan.

Bundan tashqari, o‘zbek musiqa san‘atining ham o‘zgacha mavqeyi mavjud. Aytishlaricha, u yoki bu madaniyatni tushunish, xalqning hayoti va turmush tarzini his qilish uchun uning milliy ohanglarini tinglash kerak ekan. Mamlakatimizda xalq musiqa-

sining Farg‘ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm mahalliy uslublari mavjud bo‘lib, har birining o‘zgacha o‘rni va roli mavjud. Ayniqsa, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida katta ashula yoki patnis ashula (patnis bilan ijro etilgan qo‘shiq) janrlari juda mashhurdir. Azaldan vodiy ahli san‘atga shinavanda xalq. Eng mashhur, qo‘shiqchi-yu, sozanda va qiziqchilarning ko‘p qismi ham vodiy aholisi orasidan yetishib chiqqanligi barchamizga ma‘lum.

Xususan, Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Ma‘murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Halima Nosirova shular jumlasidandir [1:502]. Ko‘rinib turibdiki o‘zbek san‘ati va madaniyati butun dunyoga ma‘lum va mashhur. Hozirgi kunda, ayniqsa, o‘zbek maqom va baxshichilik san‘atini alohida o‘rinda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda madaniyat va san‘at sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish bilan Madaniyat vazirligi shug‘ullanadi. Madaniyat vazirligi tizimida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, Kinematografiya agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, “O‘zbek sirk” davlat muassasasi, “Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash markazi” davlat muassasasi, “O‘zbek teatr” davlat muassasasi, “Madaniyat ta‘limi markazi” davlat muassasasi, O‘zbek milliy maqom san‘ati markazi, Baxshichilik san‘atiga ixtisoslashtirilgan respublika maktab-internati, Buxoro, Farg‘ona va Urganch maqom san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari, Respublika markaziy ko‘zi ojizlar kutubxonasi, “O‘zbek konsert” davlat muassasasi, “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli” davlat muassasasi, “Xalqaro festivallar direksiyasi” davlat muassasasi, “O‘zbekiston davlat filarmoniyasi” davlat muassasasi, “Xalqlar do‘stligi” san‘at saroyi, Islom Karimov nomidagi Farg‘ona viloyati teatr va konsert saroyi, “Surxondaryo san‘at saroyi” davlat muassasasi, “O‘zbekiston davlat simfonik orkestri” davlat muassasasi, “Respublika baxshichilik san‘ati markazi” hamda “Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san‘ati markazi” davlat muassasalari, oliy ta‘lim muassasalari va filiallari, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari, professional ta‘lim muassasalari, 42 ta professional teatr, 837 ta madaniyat markazi, 599 ta unvonga ega xalq ansambllari, 325 ta bolalar musiqa va san‘at maktabi, 210 ga yaqin tuman (shahar) madaniyat bo‘limlari hamda yana bir qancha madaniyat va san‘at muassasalari ishlab turibdi.[2:80]

Teatrlar

Axloqiy qadriyatlar, inson va olamning mushtarakligi haqidagi yangicha tushunchalar, tarix va zamonaviylik bugungi o‘zbek teatrini ko‘proq o‘ziga jalb etmoqda. Milliy teatr taqdiriga qiziqishning ortishi, hayotga yaqinlik, yangi tomoshabin avlodi teatr san‘ati arboblari yangi izlanishlarga undamoqda. Davlatning qo‘llab-quvvatlashi tufayli mamlakatimizda bugungi kunda 40 ta professional teatr va teatr studiyalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Madaniyat vazirligi davlat teatrlari va teatr studiyalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-114-son Farmoni asosida tashkil etilgan “O‘zbek teatr”

davlat muassasasi tomonidan muvofiqlashtiriladi va uslubiy yordam ko‘rsatiladi [3:136]. Turli janrlar: Yevropa tipidagi drama, milliy musiqali drama, opera va balet yashab, rivojlanib kelmoqda. Har bir viloyatda qo‘g‘irchoq teatrlari, Farg‘ona, Samarqand va Toshkentda rus drama teatrlari, shuningdek, musiqali teatrlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Respublika teatr hayotida Toshkent alohida o‘rin tutadi. Bu yerda mamlakat teatrlar va konsert saroylarining uchdan biri joylashgan bo‘lib, ularda o‘zbek va rus tillarida spektakllar namoyish qilinmoqda. Bugungi kunda aynan Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri, O‘zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatri, O‘zbek Milliy akademik drama teatri, O‘zbekiston davlat drama teatri, O‘zbekiston davlat satira teatri, O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri, O‘zbekiston davlat yoshlar teatri, O‘zbekiston davlat akademik rus drama teatri, Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri, O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri, “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasi” davlat muassasasi, “Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi” davlat muassasasi, “Xalqlar do‘stligi” saroyi, Turkiston san‘at saroyi shular jumlasidandir. Bu teatr va konsert saroylar badiiy va tashkiliy jihatdan tajriba maydoniga aylanganligini alohida ta’kidlash joiz [4:102]. Bu teatrlarda o‘zbek teatrining darg‘alari o‘z an‘analariga sodiqligi bilan ko‘zga tashlanib turadi.



Madaniyat markazlari

Yurtimizda bugungi kunda 837 ta madaniyat markazlari va ularning qoshida 599 ta unvonga ega xalq ansambllari hamda 4 mingga yaqin 270 ta kurs tashkil etilgan bo‘lib, qariyb 44 ming yoshlarni qamrab olgan. Ularda 2 977 nafar to‘garak rahbarlari faoliyat olib boradi. Madaniyat markazning asosiy maqsadi, O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tishini ta’minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an‘analarini o‘zida mujassam etgan namunali dasturlarni shakllantirish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san‘atini saqlab qolish va rivojlantirish, turli xil to‘garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat.[5:324] Faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarining tashqi ko‘rinishi bilan quyidagi rasm orqali tanishishingiz mumkin.



Moddiy madaniy meros obyektlari

Madaniy meros agentligi tizimida respublika bo'yicha jami moddiy madaniy meros obyektlari soni 8210 tani tashkil etadi. Shundan:

Arxeologiya yodgorliklari – 4797 ta.

Arxitektura yodgorliklari – 2266 ta.

Monumental san'at yodgorliklari – 617 ta.

Diqqatga sazovor joylar – 530 ta.

O'zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'zbekiston hududida ko'plab me'moriy yodgorliklar, qadimiy qal'a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo'lib, ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda.

Bugungi kunda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari Reprezentativ ro'yxatiga 4 ta me'moriy majmua – Xivadagi Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi (1990), Buxoroning tarixiy markazi (1993), Samarqandning tarixiy markazi "Samarqand – madaniyatlar chorrohasi" (2001), Shahrisabzning tarixiy markazi, shuningdek, Ugam-Cho'tqol milliy bog'i (2016) kabi madaniy meros obyektlari kiradi.



Muzeylar

O‘zbekiston muzeylar soni esa 13 ta bo‘lib, unda jami 2,16 million dona eksponatlar mavjud. Muzeylardagi eksponatlarning hududlar bo‘yicha soni quyidagicha:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 93,7 mingta;

Andijon – 115,5 mingta;

Buxoro – 134,6 mingta;

Jizzax – 18,6 mingta;

Qashqadaryo – 69,4 mingta;

Navoiy – 25,9 mingta;

Namangan – 27,4 mingta;

Samarqand – 150,3 mingta;

Surxondaryo – 179,4 mingta;

Sirdaryo – 2,7 mingta;

Toshkent – 88,8 mingta;

Farg‘ona – 143,0 mingta;

Xorazm – 40,3 mingta;

Toshkent sh. – 1067,7 mingta.

Vatanimiz tarixi, xalqimizning ozodlik uchun kurash yo‘li haqida aholining bilimini oshirishda muzeylarning o‘rni muhim. Muzeylar tariximizni o‘rganishga, kechagi va bugungi hayotni taqqoslab, jamiyatimiz taraqqiyoti haqida to‘g‘ri xulosa chiqarishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ko‘zga ko‘ringan muzeylar:

1. O‘zbekiston davlat san’at muzeyi.
2. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi.
3. Temuriylar tarixi davlat muzeyi.
4. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi.
5. Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi.
6. O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi.
7. “Shon-sharaf” davlat muzeyi.
8. I. V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi.
9. Imom al-Buxoriy xotira muzeyi.
10. “Sarmishsoy” davlat muzey-qo‘riqxonasi.
11. Termiz arxeologiya muzeyi.
12. O‘zbekiston kino san’ati tarixi muzeyi.



Nomoddiy madaniy merosi obyektlari

O‘zbekistonda hozirgi kunga qadar YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga O‘zbekiston tavsiyanomalariga binoan quyidagi 14 ta obyekt kiritilgan:

- Shashmaqom (Tojikiston bilan birgalikda, 2008);
- Boysun madaniy muhiti (2008);
- Navro‘z (Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg‘iziston, Pokiston va Turkiya bilan birga, 2009. Mazkur davlatlarga yana Tojikiston, Afg‘oniston, Iroq, Qozog‘iston, Turkmaniston ham qo‘shilgan, yangilangan tarkibda – 2016);
- Katta ashula (2009);
- Askiya (2014);
- Palov madaniyati va an‘analari (2016);
- Xorazm raqsi “Lazgi” (2019);
- Miniatyura san‘ati (Ozarbayjon, Eron va Turkiya bilan birga, 2020);
- Baxshichilik san‘ati (2021);
- Xo‘ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an‘analari (2022);
- Ipakchilik va to‘quv uchun an‘anaviy ipak ishlab chiqarish (2022);
- “O‘zbekistonda kulolchilik san‘ati” (2023);
- “Bezak san‘ati: naqqoshlik” (2023-yil Eron, Ozarbayjon, Tojikiston va Turkiya hamkorligida);
- “Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an‘analari” (2023-yil).
- Rubob yasash va chalish san‘ati (2024-yil O‘zbekiston Tojikiston, Afg‘oniston va Eron)



O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro festivallar

Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati saqlab qolish, shu bilan birgalikda yurtni butun dunyoga tanitish, millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an‘analarini saqlash va rivojlantirish, uni keng targ‘ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san‘at turiga hurmat va e‘tibor tuyg‘ularini kuchaytirish, turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma‘naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida, yurtimizda quyidagi xalqaro miqyosdagi festivallar o‘tkazilib kelinmoqda:

1. “Toshkent bahori” xalqaro opera va balet festivali.

2. “Lazgi” xalqaro raqs festivali.
3. “Boysun bahori” ochiq folklor festivali.
4. Xalqaro zardo‘zlik va zargarlik festivali.
5. “Gullar bayrami” xalqaro gullar festivali.
6. An’anaviy xalqaro etnofestival.
7. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali.
8. Xalqaro hunarmandchilik festivali.
9. Xalqaro maqom san’ati anjumani.
10. “Yevroosiyo” xalqaro teatr san’ati festivali.
11. “Bahor nafasi” xalqaro san’at festivali.
12. “Dunyo sadolari” xalqaro milliy estrada san’ati festivali.
13. “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro musiqa folklor festivali.
14. “Nurli navolar” xalqaro folklor festivali.
15. Xalqaro baxshichilik san’ati festivali.
16. Xalqaro kamer va simfonik musiqa festivali.
17. “Xalqaro sirk san’ati” festivali.



Xalqimizning hech bir kuni to‘y-u tomoshalarsiz o‘tmaydi. San’atga oshufta qalblar doimo o‘lmas milliy qadriyat-u, san’atimiz va madaniyatimiz bilan yashaydi. Madaniyat va san’atga muhabbat, biz o‘zbek xalqining qonida mujassamdir. Bizdan talab etiladigan narsa esa, mana shu yuksak madaniyat va san’atimizni asrab-avaylash, rivojlantirish hamda dunyoga yoyishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xolmo‘minov M. “O‘zbek san’ati va madaniyati davlatning imiji”. “Oriental Art and Culture” 4.2 (2023): 502–509.
2. M.Xolmo‘minov. “Madaniyat va san’at rivoji: 2017–2023-yillar misolida”. // O‘zDSMI xabarlar jurnali. – Toshkent: 2024/1(28). – B. 118
3. Ikramov S.T., Xolmo‘minov M.Z. San’at va madaniyat sohasini zamonaviy boshqaruv usullari (Uslubiy qo‘llanma). – Toshkent: “Ijod-print”, 2023-y. 250-b
4. Xolmo‘minov M. Milliy madaniyat – Renessans poydevori (Monografiya). “Metodist”, – T.: 2023-y. 154-b.
5. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – T.: “Oltin meros press”, 2021-y. 478-b.

Qurbonmurot Amonqulov,
Madaniyat vazirligi bosh mutaxassisi,
O'ZDSMI 2-bosqich mustaqil izlanuvchisi

MADANIY XIZMATLARNING UMUMIY TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada madaniy xizmat ko'rsatish tushunchasi va uning ahamiyati, shakllanish tarixi va yo'nalishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Madaniy xizmatlar faoliyatida amalga oshirilgan ijobiy natijalarni tahlil etishga harakat qilingan.*

***Kalit so'zlari:** madaniy xizmat, madaniy ehtiyoj, shaharlik, sivilizitsiya-taraqqiyot, qadriyatlar, ma'naviy va intellektual rivojlanish, spektakl, musiqa asar, turizm va ekskursiya, kutubxona va axborot, audiovizual asar, karaoke.*

***Abstract.** This article provides information about the concept of cultural services, their significance, history of formation, and directions. An attempt has been made to analyze the positive outcomes achieved in cultural service activities.*

***Keywords:** cultural service, cultural needs, urban population, civilization-development, values, spiritual and intellectual development, performance, musical work, tourism and excursion, library and information, audiovisual work, karaoke.*

O'zbek xalqining madaniy merosi uzoq ming yillik tarixga ega bo'lib, turli davrlarda ushbu joyda istiqomat qilgan xalqning zardushtiylik, buddizm, islom va boshqa diniy e'tiqodlari natijasida yaratilgan qadriyatlarda mujassam bo'lgan. O'zbek milliy madaniyatida buyuk me'morchilik yodgorliklari, tasviriy san'at, musiqa, amaliy san'at, xalq urf-odatlar va an'analari hamda milliy xalq o'yinlari kabi sport turlari uyg'unlashgan. O'zbek xalqining tarixiy merosi va madaniyatini tiklashga bo'lgan ilk harakat o'zbek tiliga davlat maqomining berilishi bo'ldi. O'zbek tili maqomi va mavqeyi xalqning bebaho madaniy va milliy boyligi maqomini tiklashga xizmat qildi. Qadimdan ilm-fan va madaniyatning yirik markazlari Buxoro, Xiva, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, Qo'qon, Termiz, Qarshi kabi shaharlarning yuksak nufuzi va mavqeyini munosib ravishda nishonlash, uning dunyo miqyosidagi obro'-e'tiborini yanada oshirish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada kuchaytirish maqsadida ushbu tarixiy shaharlarning 2000, 2500 va 2750 yilligini nishonlash va yubiley tadbirlari o'tkazish YUNESKO Bosh konferensiyasi sessiyalarida e'tirof etildi. Ushbu tarixiy shaharlardagi madaniy meros obidalari va me'morchilik yodgorliklari jahon ahamiyatidagi maqomga ega bo'ldi.

O'zbek madaniyatining milliy va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimiz yubiley sanalari keng nishonlandi. "Sobiq tuzimning tugatilishi hamda yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishida eng asosiy muammo ijtimoiy-iqtisodiy holat bo'lgan. Ushbu muammolarga qaramasdan o'zbek milliy madaniyatini tiklash va asrab-avaylash borasida madaniy meros obyektlari ta'mirlandi, yangi muzeylar, teatrlar, madaniyat saroylari kabi madaniyat muassasalari barpo etildi. Temuriy-

lar davri tarixi muzeyi, Olimpiya shon-sharafi muzeyi, Maqom san'ati muzey hamda Buxoro, Xiva, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, Qo'qon, Termiz, Qarshi kabi qadimgi tarixiy shaharlarimiz dunyoga mashhur bo'ldi".

Madaniyat so'ziga, o'z navbatida, "shaharlik", "sivilizitsiya-taraqqiyot" kabi ta'riflar berilib, har bir vaqt va zamonda ijobiy ma'noda qo'llanilgan. Dunyo madaniyati rivojida madaniy xizmatlarning o'rni beqiyosdir. "Madaniy xizmatlar – madaniy ehtiyojlarni qondirish, ularning estetik, ma'naviy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi xizmatlar majmuasidir". Madaniy xizmatlar – san'at va madaniyat, kutubxona va axborot, turizm va ekskursiya, ommaviy axborot va kommunikatsiya, ta'lim va ijodiy rivojlanish, xalq hunarmandchiligi va an'anaviy san'at kabi turlarga bo'linadi.

San'at va madaniyat xizmatlari insoniyatning san'at va madaniyat bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, konsert va spektakllar, ko'rgazmalar namoyishi, kino va media xizmatlari hamda festival va bayram tadbirlari tashkil etish orqali ko'rsatiladi.

2024-yilda 7255 ta konsert-tomosha tadbirlari tashkil etilgan bo'lib, unga 10 mln 37 ming 200 nafar aholi qamrab olindi. "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida "Mahallada duv-duv gap", "Vatan manzumasi", "Ma'naviyat festivali" kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari, "Lazgi", "Boysun bahori", Xalqaro zardo'zlik va zargarlik, "Dunyo sadolari", "Sharq taronalari" va Xalqaro maqom san'ati anjumani kabi xalqaro festival, anjuman, forumlar tashkil qilindi. Ulardagi ijodiy jamoalar tomonidan 14 ta da o'zarolik tamoyili asosida 84 ta "Madaniyat kunlari" tadbirlari hamda raqs jamoalarining 6 ta mahalliy gastrol safari yuqori saviyada o'tkazildi.

Respublikaning 26 ta tuman va shaharlarida estrada xonandalari ishtirokida o'tkazilgan "Madaniyat karvoni" shaklida konsert-tomosha tadbirlariga 149 ming nafar aholi qamrab olindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning 17 ta manzilida "Ko'cha san'ati va musiqasi", 3 ta da taniqli yulduzlar ishtirokida "Yulduz bilan sayohat!" hamda "Navo" musiqiy telekanali bilan hamkorlikda "Maqomni birga kuylaymiz" nomli loyihalari amalga oshirildi.

O'zbek milliy maqom san'ati markazi va uning iy bo'limlari tomonidan mahallalarda "Milliy navo sehri", "Maqom kechasi", "Ma'naviyat sadosi" nomli milliy mumtoz musiqa kechalari hamda 33 ta korxonalar va tashkilotlarda gastrol safarlari amalga oshirildi.

"Milliy Party" shiori ostida Toshkent shahri va Samarqand viloyatining barcha larida taniqli san'atkorlar va badiiy jamoalar ishtirokida madaniy tadbirlar o'tkazildi.


Kutubxona va axborot xizmatlari *insoniyatning ma'lumot olish va o'qish* madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, jamoatchilik uchun kitob, jurnal va elektron resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi. Tarixiy va ilmiy hujjatlar bilan ishlash, tadqiqotchilar va talabalar uchun muhim xizmatlardan biri hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda 140 ta muzey hamda 13,1 mingta axborot-kutubxona muassasalari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistondagi muzeylar soni	2023-yil	2024-yil	Farqi (+/-)
	134 ta	140 ta	6 ta


Turizm va ekskursiya xizmatlari *madaniy meros va sayyohlikni targ'ib qilishga* xizmat qiladi. Bunda ma'lum bir dastur asosida muzeylar, madaniy obidalar, etnik va folklor sayohatlari hamda tarixiy joylarga tashriflar uyushtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda 8 210 ta moddiy madaniy meros obyekti mavjud. Ushbu obyektlarning 7 827 tasi davlat mulki, 383 tasi esa xususiy mulk hisoblanadi. O'zbekistondagi 209 ta obyekt YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.



Ommaviy axborot va kommunikatsiya xizmatlariga madaniy va ilmiy jurnallar, gazeta va kitoblarni chop etish, veb-portallar, ijtimoiy tarmoqlarda madaniy kontent yaratish va tarqatish, eski filmlar, qo'shiqlar va hujjatlarning raqamlashtirish kabilar kiradi.

O'zbekiston Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori A. Xodjayeov "Xalqaro hamkorlik tashabbuslari haftaligi" doirasida 2016–2024-yillar oralig'ida O'zbekistondagi OAVlar faoliyatda o'zgarishlar yuzasidan quyidagicha axborot berilgan: "2016–2024-yillar oralig'ida O'zbekistondagi OAVlar soni 1 514 tadan 2 349 taga ko'paygan. Bunda jurnallar soni 309 tadan 866 taga, telekanallar 65 tadan 89 taga, internet nashrlari esa 395 tadan 738 taga ortgan. 2016–2024-yillar davomida 6 ta axborot agentligi o'z faoliyatini boshlagan. Faol blogerlar soni 50 nafardan 1 200 nafarga yetgan. Biroq bu davr ichida gazetalar soni 691 tadan 600 taga (15 foiz), radiolar esa 35 tadan 29 taga (25 foiz) kamaygan."



2022-yildan boshlab ilk marotaba “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasi asosida davlat teatrlari uchun 40 ta yangi spektaklni sahnalashtirishga, kompozitorlar va bastakorlar-ga 40 ta yangi musiqa asarlarini yaratishga, 100 ta yuksak badiiy saviyadagi internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo‘ljallangan audiovizual asarlar yaratishga, 150 ta eng yaxshi milliy qo‘shiqlarni karaoke yordamida ijro qilish uchun qayta ishlashga, milliy kuylardan iborat musiqiy albomlarni tayyorlash va ommalashtirish ishlariga davlat buyurtmasini berish tizim joriy etildi.

Aholi orasida keng ommalashgan Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi” nomli sahifalar orqali o‘zbek xalqi milliy madaniyatini targ‘ib etuvchi musiqa cholg‘ularida bajarilgan eng yaxshi 100 ta ijro, eng yaxshi 100 ta milliy qo‘shiq, eng yaxshi 100 ta milliy musiqiy klip, karaoke yordamida qo‘shiq ijro qilishga mo‘ljallangan, eng yaxshi 100 ta musiqiy kompozitsiya (qo‘shiq matni bilan) hamda davlat va xususiy teatrlarda sahnalashtirilgan eng yaxshi 50 ta spektakl bo‘yicha tanlovlar tashkil etildi.


Ta‘lim va ijodiy rivojlanish xizmatlari san‘at maktablari va studiyalarida bolalar va o‘smirlar uchun musiqa, tasviriy san‘at, drama va raqs to‘garaklarini tashkil etish, madaniy kurslar va seminarlar orqali ma‘naviyat, tarix, san‘atshunoslik, notiqlik san‘ati bo‘yicha mahorat darslarini o‘tkazish, ijodiy laboratoriyalar va jamiyatlarda yosh rassomlar, yozuvchilar, bastakorlar uchun ijodiy muhit yaratish imkonini beradi.

Madaniyat vazirligi tizimida 325 ta bolalar musiqa va san‘at maktablarida mavjud bo‘lib, ularda fortepiano, torli cholg‘ular, xalq cholg‘ulari, an‘anaviy cholg‘ular, estrada cholg‘ulari, akademik xonandalik, an‘anaviy xonandalik, estrada xonandalik, damli va zarbli cholg‘ular, baxshichilik, xoreografiya, teatr san‘ati, tasviriy san‘at, amaliy san‘at kabi 14 ta yo‘nalishda 88 ming 534 nafar o‘quvchilar tahsil olmoqda.

Xalq hunarmandchiligi va an‘anaviy san‘at xizmatlari usta hunarmandlar maktablarida milliy hunarmandchilik (gilamdo‘zlik, kulolchilik, kashtachilik) bo‘yicha treninglar tashkil etish, xalq san‘ati yarmarkalarini tashkil etish orqali milliy mahsulotlar va an‘anaviy san‘at asarlarini targ‘ib qilishda namoyon bo‘ladi.

Folklor va an'anaviy ijodiyot milliy qo'shiq, raqs, doston va baxshichilik san'atini o'z ichiga olib, milliy qadriyat, urf-odat va an'analarga boyitilgan bayram tadbirlari, xalq sayillari, festivallar, tanlov va ko'rgazmalar hamda xalqaro tadbirlarni tashkil etish orqali rivojlanib kelgan.

Badiiy havaskorlik san'ati jamoalari xalq orasida obro' va e'tiborga sazovor bo'lib faoliyat yuritib kelgan. O'zbekistonda professional san'at shakllanishidan an'anaviy badiiy jamoalar muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda, baxshilar va qissaxonlar xalq dostonlari va qo'shiqlari bilan san'atning jonli ijro an'alarini rivojlantirishgan bo'lsa, dorbozlar va masqarabozlar xalq tomoshalari va ko'ngilochar chiqishlari orqali san'atning sahna shaklini mustahkamlashgan. Maqom ansambllari mahalliy musiqiy ijro an'alarini shakllantirgan va maqom yo'nalishi rivojlanishga turki bo'lgan. Bu an'alar keyinchalik havaskorlik jamoalari va professional badiiy-ijodiy jamoalar uchun asos bo'lib xizmat qilgan.



Madaniyat vazirligi tizimdagi 837 ta madaniyat markazlarida 3 519 ta badiiy havaskorlik jamoa va to'garaklar faoliyat ko'satib kelmoqda.

Shundan 2 762 tasi to'garaklar, 97 ta havaskorlik studiyalari, 36 ta qiziquvchilar klublari, 1 167 ta badiiy jamoalar hamda 597 ta xalq havaskorlik jamoalaridir. Badiiy havaskorlik jamoa va to'garaklarda 40 mingga yaqin qiziquvchi va havaskorlar qamrab olingan.



Baxshichilik san'ati yo'nalishida 360 nafar baxshi, oqin va jirovlar mamlakatimizda yashab ijod qilib kelmoqda. Ularning 55 nafari davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Madaniyat vazirligi tizimdagi madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablarida 94 ta baxshichilik to'garaklari va sinflari tashkil etilib, ularda 850 nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan.

Madaniy xizmatlar jamiyatda ma'naviy rivojlanish, ijodkorlik va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, odamlarning hayot sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000–2005)
2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi 2022–2024-yillar hisoboti.
3. I. A. Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. I. A. Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Toshkent: «O'zbekiston», 2007.
5. O'zbekiston Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 2024-yil hisoboti.
6. Q. Amonqulov. “Havaskorlik san'ati san'ati – professional san'atning poydevori” – Toshkent:, “O'zbekiston” NMIU, 2008.
7. “Istiqlol davri folklor san'atining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami, “Tafakkur qanoti”, 2014.

Asliddin Utayev,
“Dramatik teatr va kino” san’ati
kafedrasida katta o‘qituvchisi,
1-bosqich mustaqil izlanuvchi

O‘ZBEK TEATRINING JAMIYAT MA’NAVIY HAYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Hozirgi kundagi globallashuv zamonida har bir millatning o‘ziga xosligi va etnik qadriyatlarini saqlab qolish, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealarni aks ettirish, xalqning ma’naviy-ma’rifiy immunitetini oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy g‘oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashda teatr san’ati muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda milliy teatrning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: dramaturgiya, teatr san’ati, rejissura, Uchinchi renessans, tafakkur, spektakl, xalqaro madaniy aloqalar, festival.

Abstract. In the modern era of globalization, theatrical art plays an important role in preserving the identity and ethnic values of each nation, displaying events taking place in public life, increasing the spiritual and educational immunity of the people, and educating young people in the spirit of devotion to national and universal ideals. This article examines the importance of the national theater in the cultural life of the society of New Uzbekistan.

Key words: drama, theatrical art, directing, third Renaissance, thought, performance, international cultural relations, festival.

Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma’naviy dunyosini, ong-u tafakkurini yuksaltirishda teatr san’atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyotida teatrlar rivojiga ham jiddiy e’tibor qaratilib, o‘z o‘rnida adiblar, dramaturglar, rejissyorlar, aktyorlar, umuman teatr san’ati fidoyilari zimmasiga sharafli bajarilishi lozim bo‘lgan mas’uliyatli vazifalarni yuklamog‘da. Shu tufayli bugungi kunda teatr san’atining ahamiyati nihoyatda yuksak va muhimdir. Chunki uning asosiy vazifasi mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa yurtimiz kelajagi bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, qat’iy iroda va e’tiqodga ega shaxslar qilib tarbiyalashdan iborat. Bu esa, teatr san’atining hozirgi holati, undagi mavjud muammolar va ularning yechimlarini aniqlash, soha kelajagiga daxldor masalalarni tadqiq etish mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda milliy madaniyat va san’atning barcha sohalarini qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni takomillashtirish, badiiy-barkamol san’at asarlari yaratish orqali xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga ezgu g‘oyalarni singdirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda teatr san’atining badiiy-ijodiy va ijtimoiy funksiyalaridan foydalanish yaxshi natija bermoqda. Davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabr kuni bo‘lib

o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida madaniy hayotimizning barcha jabhalari qatori teatr san'atiga ham alohida to'xtalib, "teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqish, unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish, korxonalar va muassasalarda oyning bir kuni "Teatr kuni" deb belgilanib, xodimlarning teatrga borishlarini yo'lga qo'yish" singari muhim ustuvor vazifalarni ta'kidlab o'tgandi⁷. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, teatrning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish, zamonaviy spektakllarning yaratilishiga imkoniyat yaratish, teatrning moddiy-texnik bazasini yaxshilash va malakali kadrlarni shakllantirish borasida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda.

Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy hayotimizning ko'pgina jabhalari singari adabiyot va san'at rivojiga sezilarli ahamiyat qaratilayotgani, ushbu sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz ma'naviyati, badiiy tafakkurini yuksaltirishga xizmat qilayotganini ko'rish mumkin. Chunki, jamiyat orasida ezgu g'oyalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, millat, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasi, ularning chinakam shaxs sifatida kamol topishida bu ikki vosita muhim hisoblanadi.

San'at turlari ichida teatr o'zining jonli tabiati, ta'sirchanligi, inson ruhiyati, shuuriga bevosita ta'sir ko'rsatishi, muayyan voqea-hodisani tomoshabin ko'z o'ngida aniq, yorqin gavdalantirishi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. "Sahna bilan tomoshabinlar zali o'rtasida samimiy bog'lanish, muloqot hosil bo'lib, ham sahna ijodkorlarini, ham tomoshabinlarni ma'nan boyitadi, ruhini sozlaydi, qalbini shod etadi. Ya'ni ikki tomonlama ta'sirlanish hosil bo'ladi"⁸. Shuningdek, teatr ijtimoiy minbar sifatida ko'pchilikning dunyoqarashini aks ettirib, jamiyatdagi o'zgarishlar, rivojlanishlar, mafkuraviy jarayonlarga munosabat bildirishi va shu orqali ijtimoiy munosabatning shakllanishiga hissa qo'shadi.

Xorijiy mamlakatlarda sodir bo'layotgan ijtimoiy-madaniy, mafkuraviy jarayonlarda xalqlarning, millatlarning o'zligini anglash, fuqarolarga milliy ruhni singdirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda har bir xalq madaniyatini keng yoyish milliy teatr san'atini targ'ib qilish, uning an'analarni asrab-avaylash hamda rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish zaruriyatini taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, dunyo xalqlarining tarixi, o'ziga xos madaniyati va san'atini umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlikda o'rganish dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda davlat teatrlarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, repertuarlarini boyitish, madaniyat va san'at sohasi uchun kadrlar tayyorlash, yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, teatr xodimlarini ijodiy izlanishlarni munosib rag'batlantirish, ularni zamonamiz qahramonlari obrazini yaratishga undash borasida zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda.

O'zbek teatri milliylikni, xalqimiz madaniyatining ijtimoiy va ma'naviy mohiyatini, xalqimizning xarakteri va milliy-ma'naviy qiyofasini ifodalashga ustuvor vazifa

7 Sh. M. Mirziyoyev. Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlangan nutq. 22.12.2023. // <https://president.uz/uz/lists/view/6941>.

8 Istiqloq va milliy teatr (to'plam) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. 22-b.

sifatida yondashib keladi. “Milliy-ma’naviy qiyofa – jamiyatdagi turli xalq, millatga xos umumiy milliy xususiyatlar (negizlar) asosida tarixan shakllangan, ularning turmush-tarzi, tili, urf-odat va an’analari, qariyatlariga xos va mos bo‘lgan umumiy milliy-ma’naviy xususiyatlar, fazilatlar majmuasidir. Milliy-ma’naviy qiyofa har bir jamiyatga xos bo‘lgan muhim tarixiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy xususiyat hisoblanadi. Milliy-ma’naviy qiyofa tarixan tarkib topgan milliy an’ana, urf-odat, rasm-rusum, taomillarni o‘zida mujassam etadi. Milliy-ma’naviy qiyofa aynan bir xalqqa tegishliligi bois ham uning turmush tarzi, tarixi, falsafasi, ijtimoiy hayotini ifodalash bilan birgalikda jamiyatning o‘ziga xos intellektual salohiyatini belgilaydi. O‘zining milliy-ma’naviy qiyofasini yo‘qotmagan, asl holicha saqlagan xalq o‘zligini, o‘z milliyligini qadrlagan hisoblanadi. Milliy-ma’naviy qiyofa xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi o‘ziga xos muhim xususiyat hamdir. Dunyoda qancha xalq bo‘lsa, ularning har biri o‘ziga xos, betakror milliy-ma’naviy qiyofaga ega»⁹. Ommalashish davridagi barcha sahna tomoshalari o‘zbek madaniyatining milliy jihatlarini, xalqimizning milliy ruhini, milliy xarakterini yoritgan, xalq qahramonlarining ma’naviy qiyofasini namoyish etgan.

O‘zbek teatri XX asrda yarim professional truppadan tortib ulkan san’at cho‘qqisigacha bo‘lgan shonli yo‘lni bosib o‘tdi. U xalq dahosi yaratgan boy madaniy merosning barcha ilg‘or jihatlarini rivojlantirish, jahon va rus mumtoz dramaturgiyasini o‘zlash-tirish, boshqa respublikalar madaniyatlari bilan ko‘p tomonlama o‘zaro ta’sir asosida o‘z san’atining professional zaminini mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘ldi. San’at hech qachon bugungi kundagidek ijtimoiy ahamiyat kasb etgan emas. Inson ruhiga ta’sir etishning eng jozibali shakllaridan biri bo‘lmish teatr san’ati shu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Minglab tomoshabinlarning ruhiy olamiga chuqur kirib, uning dil torlarini cherta oladi, binobarin, ma’naviy tushunchalarining shakllanishida ishtirok etadi. Shak-shubhasizki, teatrning tomoshabinni tarbiyalashdagi ta’siri samarasi, uning g‘oyaviy-badiiy barkamolligi, spektakllarning ijtimoiy salmog‘i, ahamiyati bilan belgilanadi. Tomoshabinlarning estetik didi, madaniy saviyasi nihoyatda tez o‘sib bormoqda, ular sahnada hayotning shunchaki haqiqatga o‘xshash tasvirini emas, balki hayotiy jarayonlarini chuqur, umumlashma ifodasini ko‘rishni istaydilar. Zero, teatrning vazifasi kishilarga faqat estetik zavq berishdangina iborat emas. U tomoshabinlarni yuksak g‘oyaviy e’tiqod va axloqiy prinsiplar ruhida tarbiyalashga da’vat etilgandir¹⁰.

Xulosa

Yangi O‘zbekiston davlati teatr san’atini milliy-ma’naviy qadriyatlar, zamonaviy talablar va yoshlar tarbiyasining asosiy vositasi sifatida qo‘llab-quvvatlab, uning rivojiga strategik yo‘nalishlar belgilamoqda. Prezident Sh. M. Mirziyoyevning tashabbuslari asosida “Teatr kuni”, Mannon Uyg‘ur mukofoti kabi dasturlar joriy etilishi, repertuarlarni boyitish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kabi amaliy choralar teatrning ijtimoiy ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. O‘zbek teatri milliy ruhni, tarixiy meros va zamonaviy mavzularni uyg‘unlashtirib, tomosha-

⁹ Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – B. 403.

¹⁰ M. Qodirov. Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun: uch jildlik/ – T.: Mumtoz so‘z, 2011. 335-b.

binlarni ma'naviy jihatdan boyitish, jamiyatdagi ezgu g'oyalarni targ'ib qilish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda. Madaniy-ma'rifiy islohotlar, xalqaro hamkorlik va milliy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan sa'y-harakatlar orqali O'zbekiston teatri nafaqat mahalliy, balki global madaniy maydonda o'zining o'ziga xosligini namoyish etishga intilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M. Mirziyoyev. Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlangan nutq. 22.12.2023. // <https://president.uz/uz/lists/view/6941>.
2. Istiqlol va milliy teatr (to'plam) – T.: Yangi asr avlodi, 2002. 22-b
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. –B. 403.
4. M. Qodirov Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun: uch jildlik - T.: Mumtoz so'z, 2011. 335-b.
5. Utayev A. The place of makeup and costumes in public celebrations //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 12. – C. 80-86.
6. A.S. Utaev. Animatsiya rejissurasi: aktyorlik mahoratining o'rni //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – B. 708–711.

Doniyor Tuyg'unov,
*O'zDSMI Iqtidorli talabalarning
ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i,
1-bosqich mustaqil izlanuvchi*

SAN'AT VA MADANIYAT SOHASINING ILMIY O'RGANILISHIDA SHE'RIY DRAMALARNING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada san'at va madaniyat sohasining ilmiy o'rganilishi, tarixiy va zamonaviy she'riy dramalarning ahamiyati, san'at pedagogikasi hamda dramaturgiya, rejissura, she'riy spektakllarning sahna talqinlari borasida keng fikr yuritildi.*

***Kalit so'zlar:** she'riy drama, teatr, spektakl, dramaturgiya, rejissura, sahna talqini, til, badiiy nutq, aktyor mahorati.*

***Abstract.** This article extensively discusses the scientific study of art and culture, the significance of historical and contemporary poetic dramas, art pedagogy, and stage interpretations of dramaturgy, directing, and poetic performances.*

***Key words:** poetic drama, theater, performance, dramaturgy, directing, stage interpretation, language, artistic speech, acting skills.*

Yurtimizda yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash, voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor qaratilganligi inson qadrining yuksak ekanligining yuksakligidandir. Buyuk ajdodlarimiz o'zining yuksak ma'naviy fazilatlari bilan jahon ahlini hayratga solgani bejiz emas. Bugungi farovon davrda amalga oshirilayotgan islohotlarning mamlakatimizda barkamol avlodni ilmiy qilib tarbiyalashga qaratilgani juda quvonarlidir. Ma'lumki, ulug' allomalarimizning bizga qoldirgan boy ilmiy-ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy merosi allaqachon xalqimizning bebaho mulkiga aylangan. Buyuk shoir bobomiz Alisher Navoiy komil inson uchun nimaiki zarur bo'lsa barcha xususiyatlarni egallanishini nazarda tutib, tama, nafs, g'aflat, nodonlik, yovuzlik kabi illatlardan poklanishga chaqirgan. Diyonat, adolat, matonat, imon, ishq, ezgulik, saxovat, qanoat, rostgo'ylik, insof, bag'rikenglik kabi fazilatlarni targ'ib qiluvchi asarlar yaratgan.

Har qanday davrda ham allomalarimiz insonlarning tafakkur tarzini rivojlantiradigan ma'naviy asoslarni ifodalovchi g'oyalarni ilgari surib, xalqimiz kelajagini o'ylab hayot kechirgan.

Bugungi globallashuv jarayonlarda ham mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishida ziyolilarning o'rni alohida ahamiyat kasb etishini davlatimiz rahbari har bir chiqishlarida alohida ta'kidlab kelmoqda.

O'zbek xalqini ma'naviy dunyosining San'at va madaniyat sohasining shakllanishiga, rivojlanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' bobokalonlarimizning ilmiy va ijodiy merosini chuqur o'rganib, ularning yo'lini davom ettirish ham bizlarning oldimizda turgan yuksak vazifalardir. Shu nuqtayi nazardan olib qaraladigan bo'lsa, xalqimizning yuksak ma'naviyatini, San'at va madaniyatini rivojlantirishga yoshlarimizda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini oshirishga, qalbini ma'naviy

tubanlikdan asrashga xizmat qiladigan she'riy asarlar yaratish, o'rgatish, o'qitish, art pedagogik jarayonlarga jalb qilish, teatr sahnalarida spektakllar qo'yish, ularni tahlil qilish hamda yoshlarga yetkazish davrimiz ziyolilarining dolzarb vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgust kuni adabiyot, san'at va madaniyat sohasining atoqli namoyandalari bilan uchrashuvida "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuk-saltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusida so'zlagan nutqi va unda belgilangan asosiy vazifalar ham aynan hozirgi davr ziyolilari zimmasiga yuklatilgan edi. Prezidentimiz bilan bo'lib o'tgan ochiq va samimiy muloqotning ahamiyati shunda ediki, mamlakatimizda madaniyat, san'at, ma'rifat qanchalik rivojlansa, shunchalik avlodlar kelajagi yuksaladi. Buning mantiqiy natijasi ularoq davlatimiz rahbarining "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi"¹¹, degan fikrni qat'iyat bilan ta'kidlagan so'zlarini keltirishimiz mumkin.

Gap she'riy dramalarining sahnaviy talqinlari, dramaturgiyasi, rejissurasi, pedagogik masalalari haqida borar ekan, avvalo teatrning asosiy vazifalarini aytib o'tish o'rinlidir. Teatr mayda masalalar bilan shug'ullanmaydi. Teatr sahnasida jaranglagan har bir she'riy asar albatta, tomoshabinning tafakkurini kengaytirishga, uning qalbida ezgu, oliy niyatlarni oshishiga xizmat qiladi. Azaldan teatrlarimizda yirik klassik she'riy asarlar sahnalashtirilib, xalqimiz yuragida o'lmas iz qoldirgani barchaga ma'lum.

San'at va madaniyat sohasining ilmiy o'rganilishi, nazariya va amaliyot integratsiyasi bugungi ilm ahli, olimlar diqqat markazida ekanligi tadqiqotlar markazidadir.

2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida shunday iliq gaplar aytilgan edi. "Jamiyatimizning ma'naviy asarlarini mustahkamlash, madaniy sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyolilarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ladi"¹². Darhaqiqat, ma'naviyat o'chog'i hisoblangan dargoh bu – teatr. Teatrda adabiyot, tarix, zamon birlashadi, ijodiy guruh – aktyorlar bilan rejissyor rassom birlashib spektakl yaratiladi.

"Tarix mangu adolatlariga sodiq. U haqiqiy shoir she'riyati – bu o'tda yonmas, suvga cho'kmas, adabiyot soqchiligidagi xazina. Shoir qalbini dunyoviy orzu va hissiyotlar egallaydi. Yashashdan maqsadni muhabbat deb biladi. U e'tiqod, sadoqat haqida gapiradi. Ular inson farzandini azal-azaldan kurashga undab keladi. E'tiqodning fe'l-atvori hamma zamonlarda aytarli bir xil. U hech qachon ehtiyot ko'rpasiga burkanib yashamagan. Doimo uning murosasi – murosasizlik, qudrati liqildoq haqiqatlarga suyanmaslikdir. Uning asosiy shiori qarshilikni – qarshilik kuchi bilan yengish"¹³.

11 Sh. M. Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018, 2020. – 176–221-b.

12 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi //Xalq so'zi, 2022-yil 20-dekabr №272 (8334).

13 I. Haqqulov. She'riyat – ruhiy munosabat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 48–49-b.

Iste'dodli olim Ibrohim Haqqulning aytgan ushbu purma'no so'zlari hali-hanuz dolzarbligini yo'qotmagan. Haqiqatan ham shoir har doim xalq dardi, Vatan tuyg'usi, diyonat, ezgu niyatlarni kuylab yashaydi. O'zbek she'riy dramalarni ham shoirlikka daxldor, she'riyatni yuksak cho'qqiga olib chiqqan shoirlar yoza oladi. Ular yuksak g'oyaviy asarlar bilan she'riyatni, til, nutq, ijro masalalarini ham yuksaltiradi. Kelajak avlodni tarbiyalaydi. Ajdodlar merosi bilan tanishtiradi.

Bugungi kunda teatrlarda yangi she'riy dramalarning kamayib borayotgani achi-narli holdir. Vaholanki, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining zabardast ijodkorlari she'riy dramalar yozishga qodir. Shu nuqtayi nazardan she'riy dramalar yaratish an'ana-sini davom ettirish, yaratilgan asarlar she'riy spektakllarni tahlil qilish, jarayonlarni puxta o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Shuningdek, teatrshunoslik fao-liyatining til va yozma nutq namunalarini, teatrlardagi o'zbek va jahon tarixiy she'riy dramalarining an'anaviy va zamonaviy asoslarini tizimli ravishda o'rganish ham dol-zarb masalalar sirasiga kiradi.

She'riy dramalar, sahnaga moslashtirilgan poetik dostonlar mustaqillik davrida sahnalash-tirilib, yuksak natijalarni qo'lg'a kiritdi. Bunda rejissyor mahorati, uning muallif, rassom, bastakor, libos ustalari bilan hamkorligi, aktyorlar iste'dodi muhim rol o'ynay-di. Shu boisdan she'riy spektakllar, rejissyorlik va aktyorlik san'ati tadqiqotimizning to'laqonli obykti hisoblanadi. She'riy dramalar sahna asariga aylanganida, tomosha-bin uchun yozilgani unga estetik zavq, ehtirosli kechinmalar baxsh etganida bilinadi. Aktyorlar ijrosida va rejissyor talqinida tomoshabinga taqdim etilgan ushbu spektakllar ham tadqiqotning predmetidir. San'at va madaniyat sohasining ilmiy o'rganilishi, ta-dqiqot ishlarining asosiy maqsadi mustaqillik davrida yaratilgan tarixiy va zamonaviy she'riy dramalar va ularning sahnaviy talqinlari, tur va janrlarini qiyosiy tahlil qilish, she'riy shakl, til va nutqning o'rni, muammolarini o'rganishdan iboratdir.

– O'zbek teatri sahnasi uchun yozilgan she'riy dramalar, dostonlar, spektakllarni sahnalashtirish jarayonlari rejissyor va aktyorlarning mashaqqatli mehnati natijalarini o'rganish;

– milliy teatr san'ati rivojiga hissa qo'shib kelayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar tahlillarini o'rganish;

– klassik va zamonaviy dramaturglar uslublarini tadqiq qilish;

– tarixiy mavzudagi she'riy dramalar talqini va tahlili borasidagi maqolalarni, ilmiy ishlarni nazardan o'tkazish;

– sahna asarlarini dramaturg, rejissyor, aktyor mahorati nuqtayi nazaridan tahlil qilish;

– milliy zamonaviy, ijtimoiy mavzudagi yangi she'riy dramatik asarlarni qiyosiy tadqiq etish.

Mustaqillik yillarida sahnalashtirilgan she'riy dramalar rejissura, sahnaviy nutq nazariya o'rganilgan ammo she'riy shakl, shoir yoki dramaturgning uslubi, rejissyor bilan hamkorligi masalasi alohida o'rganishni taqozo qiladi.

O'zbek she'riy dramalar va ularning sahnaviy talqinlari asar tili, rejissura, aktyorlar ijrosi nuqtayi nazaridan tekshirilganligi, bunda spektakldagi tarixiy haqiqatlar, badiiy mushtaraklik, qahramon xarakterini yaratish mahorati va o'ziga xos talqinlari ishning

yangiligini belgilaydi. Shuningdek, she'riy dramalarga mustaqillik davrida katta e'tibor berilgani va bunda ijodkorlarning yutuqlari ko'zga ko'ringanini alohida ta'kidlash joiz. She'riy dramalar yaratish, uni sahnaga olib chiqish murakkab jarayon. Ijro etish ham aktyordan katta tajriba va yuksak mahoratni talab etadi. Shu bois ushbu jarayonlarda katta yutuqlarga erishgan dramaturg erkin Samandar, Hayitmat Rasul, bu borada tadqiqot olib borgan olimlar bilan qilingan suhbatlar, audio va video tasmlarga tushirilgan spektakllar, hozirda sahnalashtirilgan she'riy klassik asarlarni teatr sahnalarida qayta-qayta tomosha qilish va xulosalar chiqarilgani ham ishning yangiligini belgilaydi.

She'riy dramalarda eng muhim masala uning yaratilishidagi dramaturgning uslubi, mahorati, obraz, tilning mukammal ifodalashdir. Undan tashqari rejissyor yondashuvi, uning dunyoqarashi, aktyorlar ansamblini to'g'ri tashkil qila olishi, aktyorlar nutqida she'riy nutqning to'g'ri ifodalanishi kabi masalalari ko'rib chiqildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu mavzu atrofida qator dissertatsiyalar yozilgan, go'zal monografiyalar yaratilgan. San'atshunos olimlardan Muhabbat To'laxo'jayeva hamda To'lqin Qozoqboyev tomonidan yaratilgan "Drama nazariyasi"¹⁴, Muhabbat To'laxo'jayevaning "Teatr tanqidchiligi" (artist, rejissyor, spektakl)¹⁵ nomli kitoblari, Toir Islomovning "Tarix va sahna"¹⁶ Dilfuza Rahmatullayevaning "Tarix va teatr"¹⁷ nomli monografiyasi, Go'zal Xoliqulovanning "Sahna nutqi" (tarixiy dramalar talqinida)¹⁸ o'quv qo'llanmasi, Baxtiyor Yakubovning "Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini"¹⁹ mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi olish uchun yozgan dissertatsiyasini she'riy dramalarga oid ilmiy-tadqiqotlar mavzuni o'rganilganligi darajasidir.

Tadqiqot olib borish jarayonida avvalo she'riy dramalar mualliflari, ularning adabiyotdagi o'rni, hayot tarzi, ijodiy mahorati, asardagi ilgari surilgan g'oya, asarning sahnalashtirilishi, tomoshabinlarning qabul qilishi, spektaklning yashashi kabilar kuzatildi. Dramaturglar bilan olib borilgan ijodiy suhbatlar, shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qoshidagi Axborot resurs markazida saqlanayotgan keng ko'lamlı adabiyotlar, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi san'atshunoslik institutida saqlanayotgan dissertatsiyalarni o'qish audio va video tasmlarini qidirib topib, teatrlarga borib bevosita spektakllar tomosha qilish institutning o'quv teatrida sahnalashtirilgan spektakllarni kuzatish ham ishning metodikasi hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy spektakllar ustida tadqiqotlar olib borish har doim kerak. Chunki ilmiy izlanishlar tafakkurni charxlaydi. Izlanishlar natijasi kelajakda davrlarga baho berishda yordam beradi. Ozmi-ko'pmi topilgan yangiliklar o'z o'rnida xizmatini o'taydi. She'riyat – inson qalbini yuksaltiradi. She'riy dramalar sahnadan

14 M. To'laxo'jayeva, T. Qozoqboyev. Drama nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014.

15 M. To'laxo'jayeva. "Teatr tanqidchiligi" (artist, rejissyor, spektakl), – Toshkent: "San'at" jurnali nashriyoti, 2015.

16 T. Islomov. Tarix va sahna. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.

17 D. Rahmatullayeva. Tarix va teatr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

18 G. Xoliqulova. Sahna nutqi (tarixiy dramalar talqinida). – Toshkent: Karloo, 2008.

19 B. Yakubov. Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991–2016) mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun yozgan dissertatsiyasi. – Toshkent: 2019.

jaranglasa tomoshabinlarning butun vujudi, qalbi larzaga keladi. Sel bo‘lib tinglayotgan kishiga ham ruhiy, ham estetik zavq va shavq ulashadi. Dunyoviy bilimlarini kengaytirishga ko‘mak bo‘ladi. Dramaturg uslubida badiiy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos mahorati, tasvirlash monerasi, murakkab jarayonlar yuzaga chiqadi. Adabiyot tarixini bilmagan dramaturg uslubini aniqlash juda qiyin. Shu o‘rinda aktyor va rejissyorlar izlanishlarida ham ushbu tadqiqot amaliy ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirishda ham she‘riy dramalar misolida ilmiy-pedagogik texnologiyalar yaratildi, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018, 2020. 176–221-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2022-yil 20-dekabr №272 (8334).
3. I. Haqqulov. She‘riyat – ruhiy munosabat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989. – 240-b.
4. M. To‘laxo‘jayeva. T. Qozoqboyev. Drama nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014 – 92-b.
5. M. To‘laxo‘jayeva. “Teatr tanqidchiligi” (artist, rejissyor, spektakl), – Toshkent: “San‘at” jurnali nashriyoti, 2015.
6. T. Islomov. Tarix va sahna. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1998.
7. D. Rahmatullayeva. Tarix va teatr. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
8. G. Xoliqulova. Sahna nutqi (tarixiy dramalar talqinida). – Toshkent: Karloo, 2008.
9. B. Yakubov. Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991–2016) mavzusidagi san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun yozgan dissertatsiyasi. – Toshkent: 2019.
10. D. M. Tuyg‘unov. O‘zbekiston teatrlarida she‘riy dramalarning sahna talqinlari (mustaqillik davri). – Toshkent.: O‘zDSMI, 2023. 100 b.
11. D. Tuyg‘unov. “Sohibqiron” spektaklidagi tarixiy haqiqatlar. Journal of Culture and Art 1.2 (2023): 20–27.

Ozoda Shobilolova,
O‘zDSMI tahririyat va nashriyot bo‘limi muharriri,
2-bosqich mustaqil izlanuvchi

SAHNADA “SHADDOD ONA”

***Annotatsiya.** Maqolada O‘zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan nemis dramaturgi Bertolt Brextning “Shaddod ona” spektaklining tahlili dramaturgiya va rejissura nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:** teatr, spektakl, sahna, dramaturg, rejissyor, aktyor, obraz, ijro, talqin, mahorat.*

***Abstract.** This article examines an example of dramatic and directorial analysis of the play based on the work of the German playwright Bertolt Brecht “Cherry Mama”, staged on the stage of the Uzbek National drama theater.*

***Key words:** theater, play, stage, director, actor, image, interpretation, skill.*

Jahon dramaturgiyasida Bertolt Brext falsafiy yondashuv, psixologik qarashlari va chizgilari bilan alohida o‘rin tutadi. Uning asarlari bir qarashda tushunarsiz, murakkab. Voqealar chuqur ildiz otgan, obrazlar ruhiy bo‘yoqlarga belangan. Lavha lavhaga tahliliy ulanganki, voqealar siljigan sari chuqurlashib boradi. Umumiy holatda aytganda, Brext ijodiyotini shunchaki o‘qib yoki shunchaki kuzatib bo‘lmaydi. Aksincha Brext ijodiyoti o‘qib-o‘rganishni, tayyorgarlikni talab etadi. San‘atshunos Sh. Abdurasulovning yozishicha ham: *“Brext teatri – biz tomosha qiladigan odatiy teatr emas, bunda tomoshabin voqelikni kuzatish asnosida hissiyotga berilmay, qahramonlar taqdirini mushohada qilishi, o‘z qarashi, munosabatu xulosalarini bildirishi lozim. Shu nuqtayi nazardan uning asarlarini sahnalashtirish murakkab vazifa; rejissyor va aktyorlar tomoshabinning sinchkov nigohini har lahzada his qilishi, obrazlarning turfa xarakteri, maqsad-muddaosi, hayotiy tanlovi va pozitsiyasini chuqur o‘rganishi zarur”*²⁰.

Demak, Brext dramaturgiyada o‘z murakkab psixologik dunyosiga ega ijodkor. Uning ijodi rejissyor va aktyorga katta yuk tashlaydi. Aytish joizki, Brext maktabi bilan uning ijodiyotiga muhtalo rejissyorgina ishlay oladi. Ya‘ni Brextni chuqur tushungan, yaxshi anglagan rejissyor uning dramaturgiyasida miriqib ijod qiladi. Xuddi shunday ichki kechinma san‘ati yuksak aktyor Brextni nozik ilg‘aydi, obrazdagi ma‘no-mohiyatni nozik chizgilarda ifodalay oladi. Bu borada rejissyor T. Isroilov ijodiy salohiyatini ko‘rsata bildi. Tajribasi bilan o‘rtoqlashdi. Brext ijodi va maktabi unga begona emas. U avvallari ham nemis dramaturgining ijod mahsullariga murojaat etgan. Hozirgi O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatrida “Sichuandan chiqqan mehribon”, Samarqand viloyat musiqali drama teatrida “Shaddod ona va uning farzandlari” asarlarini sahnalashtirib, ijod maydonida Brextning ichki ziddiyatga to‘la dunyosini, Brextona rang va bo‘yoqlarni namoyish etishga harakat qiladi. Jumladan, 2023-yil Akademik teatr sahnasiga olib chiqqan “Shaddod ona” dramasi maskan

20 Sh. Abdurasulov. “Shaddod ona iztiroblari”. “Teatr” jurnali, 2023-yil, 2-son.

madaniy hayotida yangilanish, burilish, o'zgarish sodir etdi. Repertuarda Brext ijodi o'rin olishi jiddiyatdan, salohiyatdan, yuksalishdan darak, albatta.

Spektaklning birlamchi yutug'i aktyorlar ijrosida ekanligini alohida qayd etamiz. Markaziy qahramon Shaddod ona – M. Ibrohimova achchiq qismati, murakkab fe'l-atvori bilan kishi ruhiyatiga keskin ta'sir qilmay qolmaydi. Obrazni tushunish, anglash, tahlil qilish mushkul. Shaddod ona salbiy qahramonmi yoki ijobiy? Zabonidan chiqa-yotgan so'zning mag'zini chaqib bo'lmaydi. Yana bir qarasangiz, "Yashasin, urush!" yana bir qarasangiz, "Noming o'chsin, urush!" ona urush hisobiga rizq-ro'zini terib yurgan jonsarak. Hammolchilik ortidan katta aravasining g'ildiragi yurib turipti har qalay. Darvoqe, spektakldagi arava ko'p ma'no kashf etadi. Arava dramada eng muhim bo'lakka aylangan, hatto. Xuddiki, arava voqealar o'zagi. Arava bo'lmasa, voqealar charxi to'xtab qoladigandek taassurot tug'diradi. Rejissyorning ijodkorona yondashuvi arava – mo'jaz vatan, zambildek arava – toshqotgan zamon va makon, shayton arava – bir ayolning makru hiylasi, ro'zg'or arava – bir ayol yelkasiga tushgan tog' yukidir. Aytish o'rinli, ijodkorona ramziylikdagi arava spektaklning yarim yutug'idir. Sahnani mazmunga, fayz-tarovatga to'ldirib turgan ham ana shu arava. O'g'illari Eylef (U. Xoliqjonov) va Shvetsariyalik askar (A. Mas'udov) urush qurboni bo'ladi. Ona farzandlarining jasadini oddiy hol, har doimgi buyumdek qarshi oladi. Chunki u, "erkakcha"sga harbiylar bilan o'g'illari ustida savdolashgan. Katta non tishlash uchun, katta gapirib qo'ygan joyi bor.

San'atshunos olim Sh. Abdurasulovning ushbu tahliliy fikrlari ayni muddaodir: *"Feldfebel (U. Tursunov) boshchiligidagi ikki soldat kenja o'g'ilning jasadini zambilga solib, onaning huzuriga olib keladi, undan "bu murdani taniysanmi?" – deb so'rashadi. Choyshabni ko'tarishadi, sho'rlik ona vujudining bir parchasini jonsiz holatda ko'rib, ne ahvolga tushgani, "pichoqsiz so'yilgani"ni tasavvur qilish mumkin. Shu sahnada M. Ibrohimova Shaddod ona ruhiyatida kechayotgan nihoyatda murakkab, ziddiyatli holatni yuz ifodasi orqali mahorat ila ko'rsatadi: onaning ko'zlari baayni qotib qolgan jasadning ko'zlaridek katta-katta ochilib, bo'shliqqa tikilgan, harakatsiz. "Dod" solib bolasini bag'riga bossa, hamma sir fosh bo'ladi, qolganlar ham ajal sirtmog'iga tutiladi, shu bois ichidan quyilib kelayotgan yig'ini bo'g'ziga yutadi, o'z o'g'lidan tonib, bosh chayqaydi. Aktrisa mana shu vaziyatning psixologik talqinini topa bildi, onaning mehri va sovuqqon nigohini uyg'unlikda ifodalab, Brext teatriga xos mushohadaga boy, qarama-qarshi kechinmali xarakter yaratdi"*²¹.

Onaning qizi Katrin asarda katta o'rin tutadi. Obraz tahlilidagi xulosa shuki, spektaklda Katrin markaziy qahramon darajasiga yetgan. Aktrisa Katrinasining ichki kechinma, tug'yonlarini ovoz, ko'z qarash, yuz ifodalarda shunday bir tabiiy, ishonarli talqin etadiki, tomoshabin muomalaga layoqatsiz, majruh qizning dardchil dunyosida yashaydi. Obraz aktrisaga ikki hissa mas'uliyat yuklagan. Yurakdagi gapni ovoz ohanglarida ifodalash, qanotsiz ko'kka uchish mashaqqatiga tengdir. Katrin jigargo'shalarining o'limida dard-alamdan kuyib-yonadiki, butun bir asarning yuki, dardi gung, soqov qizaloqning kichik jussasida ko'rinadi. Katrin – Sh. Abduqodirova ma'qulgina qiz. Majruhligi yetmaganidek xunuk, ko'rimsiz hamdir. Mana shu ikki ayb, nuqsoni sabab,

21 O'sha manba.

turmushga chiqmay yoshi kattarib qolgan. Baribir ko‘ngil ko‘ngil ekanda. Goh boshiga shlyapa kiyib, goh oyog‘iga poshnali tufli kiyib ayollik nazokatidan zavqlanadi. Katrin spektaklda sir-sinoatli, haroratli, hissiyotli, qiziqarli obrazligi bilan tomoshabin diqqat markazida turadi.

Dramadagi yana bir olov-otashin obraz – Ivyeta Potte. Xonimoyimlar toifasidan bo‘lgan mazkur rol ijrochisi Sh. Abduqodirova endi tamomila boshqa dunyoga moslashadi. O‘ziga oro-pardoz bergan, boshiga shlyapa, egniga ohorli keng va uzun libos kiygan bu xonimchanning ko‘ngilchasi bedarvoza. U sevgidan ko‘p pand yegan. Bilib turib, aldanib yuraveradi. Aslida uni aldanishga rozilikni jamiyat majbur qiladi. Nomard erkaklar qo‘lida qo‘g‘irchoq ekan, dard-alamini ichiga yutadi. Ayolning o‘z haqiqati bor. Uning aybi sevib qolishida. Lekin sevgining pista po‘choqchalik ham qadri yo‘q ekan. Zamon va insonga moslashishi ham shu sabablidir.

Bir spektaklda bir-biriga qarama-qarshi ikki obrazni gavdalantirish murakkab va mas’uliyatli jarayon. Aktrisa Sh. Abduqodirova bu borada sahnada katta jasorat ko‘rsatdi. Obrazdan obrazga almashishdagi chaqqonlik, moslashuvchanlik tahsinga loyiq. Bir sahnaviy jarayonda ikki dunyoni ikki xil rang va bo‘yoqlarda tasvirlash spektaklning badiiy qimmatini oshirganini qayd etmoq joiz.

Katrinning o‘lim sahnasi dramadagi eng ta’sirchan nuqta. Ichki harorati yuksak aktrisa qahramoni orqali davr fojiasini qora bo‘yoqlarda badiiy ta’sirchan ifodalaydi. Uning o‘limidan sahna go‘yoki bir qalqib tushadi, sahnaviy voqealar ipi so‘tiladi. Sochlari to‘zg‘igan Katrin uy tomiga chiqib, shiddat bilan baraban chalar ekan, shovqin-surondan qulog‘i qomatga kelgan chol-kampir qanchalar “hay-hay”lashmasin qizning jazavasi oshib boraveradi. Tuyqus o‘q tovushidan qizning joni uziladi. Projektor nuri uy tomiga tushiriladi. Sochlari yelkasi uzra yoyilgan Katrin va uning ortidan urush qurboni bo‘lgan ikki akasi namoyon bo‘ladi. Rejissyorning obrazli yechimi – shaddod onaning farzandlarini ruhi spektakldagi eng ta’sirchan va esda qolarli lavha, deya tahliliy belgilaymiz.

Final lo‘nda va aniq hal etilgan. Onaning endi shaddodligi qolmagan. U shaddod emas, farzandlaridan judo bo‘lgan yolg‘iz ona. Farzand dog‘idan mung‘ayib qolgan dardidil ona. Yon-atrofi bo‘m-bo‘sh, hech kim yo‘q. Aniqrog‘i hech kimi yo‘q. Endi nima qilsin? Hayot davom etadi. Ona soyabon aravasini zo‘r-bazo‘r tortib yo‘lga tushadi. Zil-zambil arava uning yelkasiga tushgan og‘ir hayotga ramziy ishoradir.

“Spektaklda muallifning ba’zi remarkalari, voqealar yuz berayotgan yillarni ko‘rsatish uchun videoproyeksiyadan foydalanilgan. Fikrimizcha, bu spektaklning jonli atmosferasi, syujet tadriji va mantiqiyligiga birmuncha ta’sir ko‘rsatgan”, – deydi Sh. Abdurasulov.

Brext asarlarining yuki og‘ir. Uning dramaturgiyasini tezda anglash va tahlil etish mushkul. Pyesani sahnaga olib chiqishda rejissyordan oydinlikni, yengillikni, sahnaviy tahrirni talab etadi. Bizningcha, dramada voqealar mazmunini oydinlashtirish, voqealarni sharhlash maqsadida foydalanilgan videoproyeksiya ayni muddao bo‘lgan. Videoproyeksiya tomoshabiniga qorong‘i ko‘chani yoritishda fonus vazifasini o‘tagan. Og‘ir asar mazmuniga sahnaviy videosharh lozim, deb bilamiz. Zero, tomoshabin sahnaviy og‘irlikdan, tushunmovchilikdan bezimasin.

Brext dramaturgiyasi teatr repertuaridan o‘rin olishi ijobiy natija. “Shaddod ona” sahnada yangi uslub, yangi bo‘yoq, yangi shakl-shamoyil hosil etdi. Hayot faqat yorqin ranglardan iborat emasligi, qora bo‘yoqlar esa mushohadaga chorlovchi fikrat omilidir. Muallif bejiz pyesani “O‘ttiz yillik urush xronikasi” deb nomlamaydi. Dramada tarix haqiqatlari va badiiy-hayotiy to‘qimalar mushtarak. Ma’lumki, Brext pyesalari xatti-harakat ustiga emas, aksincha fikrat, mushohada ustiga quriladi. Sahna qahramonlarning ruhiy olamiga to‘yinadi. “Shaddod ona”dagi og‘ir ruhiy aura namoyishdan so‘ng ham kishi xayolotida yashaydi.

T. Isroilov o‘z rejissyorlik talqini, uslubi bilan sahnaga yangilik olib kira oldi. Brextcha yondashuvi, Brextona fikr-mulohazalari bilan davr haqiqatlarini, achchiqliklarini ochib bera oldi. Sahnaviy voqealarni bir nuqtaga jamlay bildi. Shaddod ona qismatida va tegrasida nemis xalqining xarakteri, davr isyonlari, qalb tug‘yonlari jo‘sh uradi. Bir so‘z bilan aytganda, “Shaddod ona” sevgi-muhabbat, qaynona-kelin va yana boshqa maishiy unsurlardan yiroqligi bilan repertuarda alohida ahamiyat kasb etdi.

Xulosa

Bertolt Brextning “Shaddod ona” asari O‘zbekiston sahnasida uning falsafiy va psixologik murakkabligini aks ettiruvchi yetakchi spektaklga aylangan bo‘lib, rejissyor T. Isroilov va aktyorlar (M. Ibrohimova, Sh. Abduqodirova) Brextning “mushohadali teatr” tamoyilini milliy kontekstda mahorat bilan talqin etdilar. Arava ramzi orqali hayot og‘irligi, urush fojiasi va insoniy paradokslar aks ettirilib, tomoshabin hissiyotga emas, balki tanqidiy tafakkurga chorlandi. Multimediya elementlari va qahramonlarning ziddiyatli ruhiy kechinmalari (masalan, Shaddod onaning sovuqqonligi yoki Katrinning tragediyasi) spektaklga chuqurlik qo‘shdi. Bu ijodiy yondashuv nafaqat Brext dramaturgiyasining universal qadriyatlarini, balki O‘zbekiston teatrining zamonaviylik va an’anaviylik uyg‘unligini ko‘rsatib, madaniy sahnada yangi standart o‘rnatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdusamatov. Drama nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.
2. M. Rahmonov. Hamza (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi). Birinchi kitob (1914–1960-yillar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
3. M. R. Rahmonov, M. T. To‘laxo‘jayeva, I. A. Muxtorov. O‘zbek Milliy akademik drama teatri tarixi (1960–2000 yillar). Ikkinchi kitob. – Toshkent: 2003.
5. G. B. Umarova. Rejissura asoslari va aktyorlik mahorati. – Toshkent: 2016.

ILMIY-TADQIQOTLAR VA MUSIQIY TA'LIMNING RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotlar va musiqiy ta'lim rivojlanish strategiyalarining nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil etiladi. Musiqiy ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar, pedagogik metodlar va texnologiyalar tadqiq qilinib, ularning o'quvchilarning kasbiy mahoratini oshirishdagi o'rni yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ilmiy-tadqiqot, musiqiy ta'lim, rivojlanish strategiyalari, innovatsion yondashuvlar, texnologik integratsiya, musiqiy model.*

***Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical aspects of scientific research and the development strategies of music education. It explores innovative approaches, pedagogical methods, and technologies in the music education system, as well as their role in enhancing students' professional skills.*

***Key words:** scientific research, music education, development strategies, innovative approaches, technological integration, music model.*

Musiqiy ta'lim – insonning estetik didini, ijodiy tafakkurini va madaniy saviyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir. Bugungi globalashuv jarayonida musiqiy ta'lim nafaqat an'anaviy usullar, balki zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan ham boyib bormoqda. Shu sababli, musiqiy ta'lim tizimini takomillashtirish, uni ilmiy tadqiqotlar asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Musiqiy ta'lim faqatgina cholg'u chalish yoki vokal mahoratini oshirish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning umumiy madaniyatini yuksaltirish, uning estetik idrokini kengaytirish, jamiyatdagi o'z o'rnini anglashiga yordam beradigan kompleks tizim sifatida qaralishi lozim. Shu jihatdan olib qaraganda, musiqiy ta'lim strategiyalarining ilmiy asoslarda rivojlantirilishi ushbu yo'nalishda samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Hozirgi kunda musiqiy ta'lim sohasida texnologik innovatsiyalar, interaktiv usullar, raqamli resurslardan foydalanish kengayib bormoqda. Shu bilan birga, an'anaviy usullarni saqlab qolish va ularni zamonaviy talablarga moslashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Demak, bu boradagi tadqiqotlar va strategik yondashuvlar musiqa pedagogikasining kelajak yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada musiqiy ta'limning rivojlanish strategiyalari, ilmiy tadqiqotlarning bu sohaga ta'siri, innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil etiladi. Musiqiy ta'lim jarayonlarini takomillashtirish uchun qanday strategiyalar samarali ekanligi va ularning ta'lim sifati hamda o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga ta'siri yoritib beriladi. Ushbu masalalarni chuqur o'rganish natijasida, musiqiy ta'lim tizimining yanada yuqori bosqichga ko'tarilishi uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Musiqiy ta'limning rivojlanish strategiyalarini tahlil qilish jarayonida ushbu soha-ga taalluqli ilmiy tadqiqotlar, pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida musiqa fanining o'rni ken-gayib borayotgan bo'lsa-da, uning sifatini oshirish uchun tizimli strategik rejalashtirish talab etiladi. Shuning uchun musiqiy ta'limni rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlar pedagogika, psixologiya, didaktika hamda zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'un hol-da ko'rib chiqilishi lozim.

Musiqiy ta'limning rivojlanishi ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda yo'lga qo'yilishi zarur. Pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun ilg'or metodikalar, o'qitish usullari va baholash tizimlari ishlab chiqilishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqda-ki, musiqa o'qitish jarayonida interfaol va integratsiyalashgan metodlar samaradorlikni oshiradi. Masalan, D. Kolbning eksperimental o'qitish nazariyasiga asoslangan holda musiqa ta'limida tajribaviy yondashuvlar qo'llanilishi o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin tutadi²².

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi musiqiy ta'limga yangi im-koniyatlar ochib bermoqda. Masalan, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) tex-nologiyalari orqali musiqa cholg'ularini o'rganish, interaktiv o'quv dasturlari orqali nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida yaratilgan o'quv platformalari musiqa ta'limining individuallashtirilgan modelini ish-lab chiqishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu innovatsiyalar ta'lim jarayoni-da quyidagi jihatlar bo'yicha samaradorlikni oshirishi mumkin:

o'quv jarayonining moslashuvchanligi – har bir o'quvchi o'z shaxsiy tempida ta'lim olishi mumkin;

multimediya materiallardan foydalanish – audio, video va grafik vositalar yordami-da musiqiy bilimlarni yanada samarali o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi;

masofaviy ta'lim imkoniyatlari – onlayn darsliklar va interaktiv darslar orqali musiqa ta'limining ommaviyligi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, gamifikatsiya (o'yinlashtirish) elementlarini musiqiy ta'lim jara-yoniga tatbiq etish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Musiqiy o'yinlar, musobaqalar va kreativ topshiriqlar yordamida o'quvchilar-ning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mumkin.

Musiqiy ta'limni rivojlantirish jarayonida quyidagi strategiyalar samarali hisob-lanadi:

kompleks yondashuv – musiqa nazariyasi va amaliyotini integratsiyalashgan holda o'qitish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash;

innovatsion texnologiyalardan foydalanish – zamonaviy pedagogik dasturlar, sun'iy intellekt va virtual texnologiyalarni qo'llash;

ijodiy tafakkurni rivojlantirish – o'quvchilarga mustaqil musiqiy izlanish olib bo-rish va yangi uslubiy izlanishlar qilish imkoniyatini yaratish;

uzluksiz ta'lim tamoyili – musiqiy ta'lim tizimini maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz tizim sifatida shakllantirish;

22 D. A. Kolb. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall.

xalqaro tajribalarni o‘rganish – rivojlangan davlatlarning musiqa ta’limi modellari bilan tanishish va ulardan samarali vositalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish.

Yuqoridagi strategiyalarni ilmiy asosda ishlab chiqish va ta’lim tizimiga tatbiq etish musiqiy ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy musiqa madaniyatini saqlab qolish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali raqobatbardosh musiqa ta’limi modelini shakllantirish mumkin.

Musiqiy ta’limning rivojlanishi jamiyatning madaniy va intellektual taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning takomillashuvi strategik yondashuvlarni talab etadi. Ilmiy-tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagogik innovatsiyalar va texnologik integratsiya musiqiy ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Musiqa ta’limini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan strategiyalar o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va global ta’lim talablariga javob beradigan samarali tizimni yaratishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar va musiqa ta’limining rivojlanishi tadqiqot amaliyotlari, texnologik yutuqlar va fanlararo yondashuvlarni birlashtiradigan turli strategiyalar orqali kuchaytirilishi mumkin. Ushbu strategiyalar musiqa o‘qituvchilarining yanada faol va malakali kelajak avlodini tarbiyalashga qaratilgan.

Musiqa o‘qituvchilari uchun tadqiqot treningi: musiqa ta’limida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini ta’kidlash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ularning ijodiy salohiyati va uslubiy madaniyatini oshiradigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini o‘qitish bilan birlashtirishni o‘z ichiga oladi²³.

Talabalarni loyiha asosidagi tadqiqotlarga jalb qilish ularning ilmiy izlanishga qiziqishi va samaradorligini oshiradi, bu konferensiyalarda ishtirok etish va tadqiqotlarni nashr etishdan dalolat beradi²⁴.

Texnologik integratsiya. Raqamli vositalar va virtual o‘quv muhitlari kabi zamonaviy texnologiyalarning kiritilishi musiqa ta’limini o‘zgartirmoqda. Ushbu siljish innovatsion o‘qitish usullarini rag‘batlantiradi va o‘rganish tajribasini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy musiqa ta’limini texnologik yutuqlar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim natijalarini yaxshilash va sifatli musiqa ta’lim olish imkoniyatini kengaytirishi mumkin²⁵.

Fanlararo yondashuvlar. Musiqa ta’limi bo‘yicha tadqiqotlar psixologiya va sotsiologiya kabi sohalaridan kelib chiqqan holda fanlararo metodologiyalarni tobora ko‘proq qabul qilmoqda. Bu tadqiqot doirasini kengaytiradi va turli xil musiqiy mashg‘ulotlar va madaniy kontekstlarga murojaat qilib, pedagogik asosni boyitadi²⁶.

23 T, B. (2023). Research activity as a factor in realizing the creative potential of the future music teacher. <https://doi.org/10.33842/22195203-2023-30-59-63>

24 Шишляникова, Н. П. (2024). Scientific research practice as a means of developing methodological culture of teacher-musician. *Naučno-Pedagogičeskoe Obozrenie*, 3(55), 47–53. <https://doi.org/10.23951/2307-6127-2024-3-47-53>

25 Neboga, O. S. (2023). Technological Diversification of Music Education: Views of Contemporary Foreign Researchers. *Visnik Deržavnoi Akademii Kerivnih Kadriv Kul'turi i Mistectv*, 1. <https://doi.org/10.32461/2226-3209.1.2023.277678>

26 Matsunobu, K., & Bresler, L. (2019). Music Education Research. <https://doi.org/10.1093/ACREFORE/9780190264093.013.32>

Ushbu strategiyalar musiqa ta'limini oshirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etsa-da, o'qituvchilarning tez o'zgaruvchan texnologik landshaftlarga moslashishi va an'anaviy musiqa amaliyotlarining potentsial chegaralanishi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Musiqa ta'limiga yaxlit yondashish uchun innovatsiyalar va asosiy ko'nikmalarni muvozanatlash juda muhimdir. Musiqiy ta'limning rivojlanish strategiyalarini statistik tahlil qilish uchun mavjud tadqiqotlar, xalqaro va milliy ta'lim tizimlarining ko'rsatkichlari, shuningdek, innovatsion texnologiyalar joriy etilishi natijasida ta'lim samaradorligidagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar.

Musiqiy ta'lim samaradorligini baholashda bir qancha statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar joriy etilgan ta'lim tizimlarida o'quvchilarning musiqiy savodxonligi va ijodiy faoliyati yuqori bo'lgan. Turli davlatlarning musiqa ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijalari quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilindi:

- o'quvchilarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi;
- amaliy musiqa ijrochiligi bo'yicha natijalari;
- motivatsiya va kreativ tafakkurning rivojlanish darajasi.

Quyidagi 1-jadvalda turli yondashuvlarning musiqiy ta'lim samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadi:

1-jadval

Musiqiy ta'lim samaradorligiga turli usullar ta'siri²⁷

Ta'lim yondashuvi	O'quvchilarning bilim o'zlashtirish darajasi (%)	Ijrochilik ko'nikmalarining rivojlanishi (%)	Kreativ tafakkurning rivojlanishi (%)
An'anaviy usullar	65	60	50
Innovatsion usullar	85	80	75
VR/AR texnologiyalari	90	85	85
Gamifikatsiya yondashuvi	88	83	80

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, **VR/AR texnologiyalaridan foydalanilgan ta'lim tizimlari** musiqiy ijrochilikni rivojlantirishda eng samarali bo'lgan. Shu bilan birga, **gamifikatsiya elementlari qo'llangan ta'lim metodlari** ham o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qilgan.

O'zbekistonda musiqa ta'limi tizimining tahlili.

O'zbekistonda musiqa ta'limining rivojlanishiga oid so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar va natijalar tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda **O'zbekistonda musiqa ta'limi samaradorligiga oid ko'rsatkichlar** yillar kesimida keltirilgan:

²⁷ National Endowment for the Arts (NEA) (2022). The Impact of Arts Education on Student Achievement.

O‘zbekistonda musiqa ta’limi samaradorligi ko‘rsatkichlari (2018–2023)

Yil	Musiqiy ta’lim muassasalari soni	O‘quvchi-talabalar soni	Innovatsion metodlar joriy etilgan foiz (%)	Xalqaro musiqiy tanlovlarda sovrin olgan talabalar (%)
2018	210	15,000	30	10
2019	230	17,500	40	15
2020	250	20,000	55	20
2021	275	22,500	65	25
2022	300	25,000	75	30
2023	320	28,000	85	35

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda musiqiy ta’lim muassasalarining soni **52% ga oshgan**. O‘quvchilar soni **2018-yilga nisbatan 87% ga ortgan**. Innovatsion metodlarning joriy etilish darajasi **2018-yildagi 30% dan 2023-yilda 85% ga yetgan**. Xalqaro musiqiy tanlovlarda ishtirok etgan va g‘olib chiqqan talabalar soni ortib bormoqda.

O‘quvchilarning musiqa ta’limiga bo‘lgan munosabati. O‘quvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham musiqiy ta’lim samaradorligi haqidagi tushunchani aniqlashga yordam beradi. So‘rovnoma 500 nafar musiqa ta’limi oluvchilar orasida o‘tkazilib, quyidagi natijalar aniqlandi:

O‘quvchilarning musiqa ta’limiga bo‘lgan munosabati (%)²⁸

Javob variantlari	O‘quvchilar foizi (%)
Musiqa ta’limi o‘quv jarayoni uchun juda muhim	82
Innovatsion usullar ta’lim sifatini oshiradi	75
An’anaviy usullar hali ham samarali	55
Musiqa ta’limida texnologik vositalar zarur	78

Tahlil qilingan natijalarga asoslanib, musiqiy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi strategiyalar ishlab chiqildi:

innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – raqamli dasturlar, AR/VR texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi musiqiy o‘qitish tizimlarini rivojlantirish;

xalqaro tajribalardan foydalanish – Buyuk Britaniya²⁹, AQSH va Germaniya ta’lim modellari bilan milliy musiqiy ta’limni uyg‘unlashtirish;

uzluksiz musiqa ta’limini yo‘lga qo‘yish – maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan tizimli ta’lim modelini joriy etish;

28 UNESCO Report on Music Education (2021). Music Education and Cultural Development. UNESCO Publishing.

29 The British Journal of Music Education (2023). Trends and Challenges in Contemporary Music Pedagogy. Cambridge University Press.

ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar – o‘quvchilarga mustaqil musiqiy tajriba va kompozitsiyalar yaratish imkoniyatlarini kengaytirish.

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, musiqa ta‘limida innovatsion yondashuvlar, texnologik vositalar va ijodiy metodlar joriy etilganda o‘quvchilarning bilim va ijodiy salohiyati yuqori darajada rivojlanadi. O‘zbekiston misolida ko‘rilganda, so‘nggi yillarda musiqa ta‘limining rivojlanishi sezilarli darajada o‘sdi va bu tendensiya kelajakda ham davom etishi kutilmoqda. Bu esa, musiqiy ta‘lim strategiyalarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Xulosa

Musiqiy ta‘limning rivojlanishi madaniy va intellektual taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo‘lib, uning strategik rivojlanishi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, pedagogik innovatsiyalar va texnologik integratsiya asosida olib borilishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an‘anaviy musiqa ta‘limi usullari innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda yanada samarali natijalar beradi. Umuman olganda, musiqiy ta‘limni rivojlantirish jarayonida ilmiy yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalar uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishi musiqa ta‘limining sifatini oshirish va yangi avlod musiqa ijodkorlarini yetishtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu esa, milliy madaniyatni rivojlantirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh musiqachilarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall.
2. T, B. (2023). Research activity as a factor in realizing the creative potential of the future music teacher. <https://doi.org/10.33842/22195203-2023-30-59-63>
3. Шишляникова, Н. П. (2024). Scientific research practice as a means of developing methodological culture of teacher-musician. *Naučno-Pedagogičeskoe Obozrenie*, 3(55), 47–53. <https://doi.org/10.23951/2307-6127-2024-3-47-53>
4. Neboga, O. S. (2023). Technological Diversification of Music Education: Views of Contemporary Foreign Researchers. *Visnik Deržavnoï Akademii Kerivnih Kadriiv Kul’turi i Mistectv*, 1. <https://doi.org/10.32461/2226-3209.1.2023.277678>
5. Matsunobu, K., & Bresler, L. (2019). *Music Education Research*. <https://doi.org/10.1093/ACREFORE/9780190264093.013.32>
6. National Endowment for the Arts (NEA) (2022). *The Impact of Arts Education on Student Achievement*.
7. UNESCO Report on Music Education (2021). *Music Education and Cultural Development*. UNESCO Publishing.
8. *The British Journal of Music Education* (2023). *Trends and Challenges in Contemporary Music Pedagogy*. Cambridge University Press.

DOKTORANTURA TA'LIM BOSQICHINING XALQARO STANDARTLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada doktorantura ta'lim bosqichining xalqaro standartlari tahlil qilinib, rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim tizimida doktorantura ta'limini tashkil etish tamoyillari o'rganiladi. Xalqaro tajribalar asosida ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanish bosqichlari, doktorantura dasturlarining modul va kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilishi, ilmiy rahbarlik tizimi hamda innovatsion ta'lim metodlari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** doktorantura ta'limi, xalqaro standartlar, ilmiy-tadqiqot, doktorlik dissertatsiyasi, ilmiy rahbarlik, oliy ta'lim, akademik mobilnost.*

***Abstract.** This article analyzes international standards of doctoral education and studies the principles of organizing doctoral education in the higher education system of developed countries. Based on international experience, the stages of development of scientific and research activities, the formation of doctoral programs based on a modular and competency-based approach, the system of scientific supervision and innovative teaching methods are considered.*

***Key words:** Doctoral education, international standards, scientific research, doctoral dissertation, scientific supervision, higher education, academic mobility.*

Ilm-fan taraqqiyotining harakati hech qachon to'xtamaydi. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri – ta'lim va ilmiy izlanishlardir. Xususan, oliy ta'limning eng yuqori pog'onasi bo'lgan doktorantura ta'lim bosqichi bugungi global ilmiy muhitda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning ilg'or mamlakatlari ushbu bosqichni nafaqat yangi ilmiy tadqiqotchilarni tayyorlash, balki innovatsion fikrlash, mustaqil ilmiy izlanish olib borish hamda akademik erkinlikni shakllantirish vositasi sifatida ham ko'rmoqda. Bugungi kunda xalqaro ta'lim makoniga integratsiya jarayoni shiddat bilan rivojlanmoqda. Doktorantura ta'limining sifatini oshirish, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish har bir mamlakat uchun strategik vazifaga aylanib bormoqda. Jahonda turli ta'lim tizimlari mavjud bo'lsa-da, yirik xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO, Yevropa Ittifoqining Boloniya jarayoni va AQSHning PhD dasturlari doktorantura ta'limining yagona standartlari va tamoyillarini belgilashga harakat qilmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda doktorantura ta'limi isloh qilinib, uni xalqaro talablarga yaqinlashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, ilmiy-tadqiqot faoliyatining dolzarb muammolarini hal qilish, ilmiy kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish va akademik mobillikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmogda. Shu bilan birga, mamlakatimizda ushbu yo'nalishda muammolar ham mavjud bo'lib, doktorantlar uchun yetarlicha ilmiy muhit yaratish, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi masalalar hal

etilishini kutmoqda. Shunday ekan, bugungi kunda doktorantura ta'lim bosqichining xalqaro standartlarini o'rganish, ularni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish masalalari nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki ta'lim siyosatini belgilovchi mutasaddilar uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada xalqaro tajribalar asosida doktorantura ta'limining asosiy tamoyillari tahlil qilinadi va O'zbekistonda ushbu tizimni takomillashtirish yo'nalishlari yoritiladi.

Doktorantura ta'limining xalqaro standartlari va asosiy tamoyillari. Bugungi kunda doktorantura ta'limining xalqaro standartlarini shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha qator yirik ilmiy va ta'lim tashkilotlari tomonidan muayyan talablar ishlab chiqilgan. YUNESKO, Yevropa Ittifoqi, AQSH Milliy Ta'lim Assotsiatsiyasi (NEA) va Boloniya jarayoni ishtirokchilari tomonidan ilgari surilgan tamoyillar asosida quyidagi muhim jihatlar ajratib ko'rsatiladi:

ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta'lim – doktorantura ta'limining asosiy maqsadi fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishdan iborat. Tadqiqotchilar mustaqil izlanish olib borishlari, o'z sohalarida yangi ilmiy bilimlarni yaratishlari va ularni amaliyotga joriy etishlari lozim.

Akademik erkinlik va mustaqillik – xalqaro tajribada doktorantlarga ilmiy izlanishlar olib borishda erkinlik berilishi asosiy tamoyillardan biri sifatida qaraladi. Bu jarayonda ilmiy rahbar faqat yo'naltiruvchi va maslahatchi rolini bajaradi.

Modul va kompetensiyaviy yondashuv – doktorantura dasturlari nazariy bilimlar va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ko'pgina davlatlarda PhD dasturlari modul tizimida ishlab chiqiladi va talabalar o'z tadqiqot yo'nalishlariga mos ravishda kurslarni tanlay oladilar.

Ilmiy rahbarlik tizimi – doktorantlar uchun ilmiy rahbarlik instituti muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribada ilmiy rahbarning roli faqat nazariy maslahatlar berish bilan cheklanmay, balki doktorantning ilmiy faolligini oshirish, nashrlar tayyorlash va ilmiy loyihalarda ishtirok etishiga yordam berishdan iborat.

Akademik mobillik va xalqaro hamkorlik – rivojlangan mamlakatlarda doktorantlar turli universitetlar va ilmiy markazlarda stajirovka o'tashlari, ilmiy konferensiyalarda ishtirok etishlari hamda xalqaro loyihalarga jalb etilishlari yo'lga qo'yilgan. Yevropa Ittifoqi doirasidagi Erasmus Mundus va Marie Curie dasturlari bu borada samarali misol bo'la oladi.

Tadqiqot natijalarining nashr etilishi – xalqaro standartlarga ko'ra, doktorantlar ilmiy-tadqiqot natijalarini yuqori impakt-faktorli jurnallarda chop etishlari kerak. Ko'pgina davlatlarda PhD ilmiy darajasini olish uchun Scopus yoki Web of Science indeksatsiyasidagi jurnallarda maqolalar chop etish majburiy shart hisoblanadi.

Doktorantura ta'limining turli mamlakatlardagi o'ziga xos xususiyatlari.

AQSH universitetlarida doktorantura ta'limi odatda 4-6 yil davom etadi. Dastlabki bosqichda talabalar nazariy kurslarni o'taydi va maxsus imtihonlardan o'tadi. Keyingi bosqichda esa to'liq ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullaniladi. Doktorlik dissertatsiyasining himoyasi ochiq seminar shaklida tashkil etiladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari – Boloniya jarayoniga muvofiq, Yevropa mamlakatlari doktorantura ta'limi **3 yil** davom etadi. Ilmiy-tadqiqot asosiy e'tiborda bo'lib,

doktorantlar muntazam ravishda ilmiy maqolalar chop etishlari talab etiladi. Ba'zi mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) doktorlik dissertatsiyasidan tashqari, **kumulative dissertation** (ketma-ket nashr etilgan maqolalar to'plami) ham dissertatsiya o'rnida qabul qilinadi³⁰.

Xitoy – Xitoyning doktorantura ta'limi tizimi AQSH va Yevropa modellari aralashmasidan iborat. Doktorantlar ilmiy loyihalarda faol ishtirok etishi va ko'plab maqolalar nashr etishi talab qilinadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va ilmiy almashinuv dasturlariga katta e'tibor qaratiladi.

Rossiya – Rossiyada doktorantura (aspirantura) ta'limi **3–4 yil** davom etadi. Rossiya tizimi klassik ilmiy an'analardan bog'liq bo'lib, tadqiqotlar asosan fundamental fanlarga yo'naltirilgan. Himoya jarayonida doktorantlar maxsus **Dissertatsiya Kengashi** oldida ilmiy ishlarini taqdim etishlari lozim.

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda doktorantura ta'limini takomillashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-yilda **PhD va DSc ilmiy darajalari** joriy etildi va doktorantura tizimi xalqaro tamoyillarga muvofiqlashtirila boshlandi³¹. Quyidagi jihatlar e'tiborga molik:

Doktorantura ta'limining modul tizimi asosida tashkil etilishi – doktorantlar uchun zamonaviy ta'lim dasturlari ishlab chiqilib, nazariy va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda.

Ilmiy rahbarlik tizimining takomillashtirilishi – doktorantlar yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun akademik almashinuv dasturlari kengaytirildi.

Ilmiy nashr va dissertatsiya talablari – PhD darajasini olish uchun xalqaro indeksatsiyaga ega jurnallarda maqola chop etish majburiyati belgilandi.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – O'zbekistonning ko'plab universitetlari xorijiy ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda qo'shma doktorantura dasturlarini yo'lga qo'yimoqda.

Shu bilan birga, hali to'liq yechim topmagan muammolar ham mavjud. Xususan, xalqaro darajadagi ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, doktorantlarning grant va stipendiya olish imkoniyatlarini oshirish, ilmiy loyihalarga ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish zarur.

Doktorantura ta'lim bosqichi xalqaro tajriba asosida shakllantirilishi lozim bo'lgan strategik yo'nalishlardan biridir. Rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, doktorantura ilmiy-tadqiqot va innovatsion fikrlash markazi sifatida shakllanishi zarur. O'zbekistonda doktorantura tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun ilmiy nashrlar sifati, akademik mobillik va tadqiqotlar amaliyotga tatbiq etilishiga e'tibor qaratish dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

tayanch doktorantura;
doktorantura;

30 European Commission. (2023). Bologna Process Implementation Report. Brussels: European Higher Education Area (EHEA).

31 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.05.2017-yildagi 304-son <https://lex.uz/docs/-3213410>

mustaqil izlanuvchilik³².

Bugungi kunda dunyo bo‘yab ilmiy tadqiqot faoliyatining asosiy qismi doktorantura bosqichida olib boriladi. Rivojlangan davlatlarda PhD dasturlari ilmiy innovatsiyalar, ilmiy izlanishlar va universitetlar reytingini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida doktorantura ta‘limiga qabul qilinayotgan talabalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Quyidagay 1 jadvalda turli davlatlar kesimida doktorantura tizimining asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan:

1-jadval

Davlat	Har yili PhD dasturiga qabul qilinadigan talabalar soni	PhD talabalarining umumiy soni	O‘rtacha davomiylik (yil)	Mamlakat bo‘yicha PhD bitiruvchilar ulushi (%)
AQSH	70 000	500 000	5-6	1.7
Buyuk Britaniya	25 000	200 000	3-4	2.2
Germaniya	28 000	205 000	3-5	2.0
Xitoy	85 000	500 000	4-5	1.5
Hindiston	35 000	180 000	4-5	1.3

AQSH – AQSHda doktorantura ta‘limi 5-6 yil davom etadi. Talabalar dastlab magistratura darajasini olishadi, keyin PhD dasturiga qabul qilinadi. AQSH universitetlari har yili 500 000 dan ortiq PhD talabalarga ega bo‘lib, ularning 70 000 nafari yangi qabul qilingan talabalar hisoblanadi. Doktorantura bosqichi fundamental tadqiqotlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, har bir talabadan yuqori darajadagi ilmiy nashrlar talab etiladi.

Buyuk Britaniya – Buyuk Britaniyada doktorantura ta‘limi odatda 3-4 yil davom etadi. Mamlakatda har yili **25 000** dan ortiq talaba PhD dasturlariga qabul qilinadi. Ilmiy tadqiqot va mustaqil ishlashga katta e‘tibor qaratiladi. Britaniya oliy ta‘lim muassasalarining PhD bitiruvchilari dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida faoliyat yuritadi³³.

Germaniya – Germaniyada doktorantura tizimi 3-5 yil davom etadi. Yevropa Ittifoqidagi eng yirik doktorantura dasturlaridan biri hisoblanadi. Har yili 28 000 nafardan ortiq talaba doktorantura bosqichiga qabul qilinadi. Ilmiy-tadqiqotlar universitetlar va sanoat bilan hamkorlikda olib boriladi.

Xitoy – Xitoy dunyoda eng ko‘p doktorantura talabalariga ega davlatlardan biri bo‘lib, bu ko‘rsatkich 500 000 nafar atrofida. Har yili 85 000 dan ortiq talaba PhD dasturiga qabul qilinadi. Xitoy hukumati ilm-fan rivojlanishiga katta e‘tibor qaratmoqda va xalqaro talabalar uchun grantlar ajratmoqda³⁴.

O‘zbekiston – O‘zbekistonda doktorantura ta‘limi soni yil sayin ortib bormoqda. 2023-yilda doktorantura uchun kvotalar soni 4 307 ta belgilangan. Shu bilan birga, 2022

32 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.05.2017-yildagi 304-son <https://lex.uz/docs/-3213410>

33 OECD Education Statistics. (2024). Doctoral Education in the World: Trends and Challenges. OECD Publishing.

34 UNESCO. (2023). Global Trends in Higher Education and Research. Paris: UNESCO Publishing.

yilda magistratura bosqichini bitirganlar 16 473 nafarni tashkil etadi³⁵. Ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida akademik mobillik dasturlari yo‘lga qo‘yilgan.

Doktorantura ta‘limi so‘nggi o‘n yilliklarda globallasuv, yuqori malakali tadqiqotchilarga bo‘lgan talabning ortishi va standartlashtirilgan sifat kafolatiga bo‘lgan ehtiyoj tufayli sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Tadqiqot ishimiz doktorantura ta‘limini tartibga soluvchi xalqaro standartlarni o‘rganadi, asosiy tendentsiyalarni, mintaqaviy yondashuvlarni va ushbu standartlarni shakllantirishda global tashkilotlarning rolini yoritadi. Doktorantura ta‘limining globallasuvi standartlashtirish va sifatni ta‘minlashga e‘tiborning kuchayishiga olib keldi. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, doktorantura ta‘limi endi shunchaki akademik izlanish sifatida emas, balki milliy va global rivojlanish uchun strategik resurs sifatida qaralmoqda³⁶. Ushbu o‘zgarish hukumatlar, universitetlar va xalqaro tashkilotlarni butun dunyo bo‘ylab doktorlik dasturlari sifati va taqqoslanuvchanligini ta‘minlash uchun yo‘riqnomalar va asoslarni yaratishga undadi. Ushbu tendensiyaning asosiy omillaridan biri doktorantlar va tadqiqotchilarning harakatchanligini oshirishdir.

Ko‘pgina universitetlar xalqaro hamkorlikni, qo‘shma ilmiy daraja dasturlarini va transchegaraviy tadqiqot tashabbuslarini faol ravishda qo‘llab-quvvatlagan holda xalqarolashtirish doktorantura ta‘limining muhim tarkibiy qismiga aylandi³⁷. Ushbu sa‘y-harakatlar doktorantura ta‘limi sifatini oshirish, global bilim almashinuvini rivojlantirish va bitiruvchilarni tez o‘zgaruvchan dunyo muammolariga tayyorlashga qaratilgan.

Yevropada Boloniya jarayoni doktorantura ta‘limini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. 1999-yilda boshlangan jarayon butun qit‘ada oliy ta‘lim tizimlarini uyg‘unlashtirish orqali Yevropa oliy ta‘lim hududini (EHEA) yaratishga qaratilgan edi³⁸. Doktorantura ta‘limi Boloniya jarayonining uchinchi tsikli sifatida birlashtirilib, tizimlashtirilgan dasturlar, sifat kafolati va xalqaro harakatchanlik muhimligini ta‘kidladi³⁹.

Yevropa Universitetlar Instituti (EUI) va Yevropa tadqiqot hududi (ERA) global standartlarga mos keladigan doktoranturani rivojlantirish orqali ushbu sa‘y-harakatlarini yanada kuchaytirdi. Ko‘pgina Yevropa universitetlari bitiruvchilarni akademik va akademik bo‘lmagan martaba uchun tayyorlash uchun kurs ishlari, nazorat va malaka oshirish imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan tuzilgan doktorlik dasturlarini qabul qildi⁴⁰.

35 <https://nsp.gov.uz/news?watch=256>

36 M. Nerad. (2020). Governmental Innovation Policies, Globalisation, and Change in Doctoral Education Worldwide: Are Doctoral Programmes Converging? Trends and Tensions (pp. 43–84). Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-38046-5_3

37 The internationalisation of doctoral education and the strategies to achieve it: the perspectives of Portuguese universities and doctoral students. (2023). Studies in Graduate and Postdoctoral Education. <https://doi.org/10.1108/sgpe-12-2022-0078>

38 European Commission. (2023). Bologna Process Implementation Report. Brussels: European Higher Education Area (EHEA).

39 S. Manic, Cuciureanu, G., & Manic, L. (2022). Analysis of changes in the concept of doctoral studies. Approaches through the prism of policies promoted at european level. *Moldoscopia*, 4(95), 76–85. [https://doi.org/10.52388/1812-2566.2021.4\(95\).07](https://doi.org/10.52388/1812-2566.2021.4(95).07)

40 H. Aittola. (2017). Doctoral education reform in Finland – institutionalized and individualized doctoral studies within European framework. *European Journal of Higher Education*, 7(3), 309–321. <https://doi.org/10.1080/21568235.2017.1290883>

Shimoliy Amerikada, xususan, Qo'shma Shtatlar va Kanadada doktorantura ta'limi global bilim iqtisodiyotining o'zgaruvchan talablariga javoban sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Ko'plab dasturlar yetakchilik, muloqot va tadbirkorlik kabi o'tkaziladigan ko'nikmalarga o'rgatishni o'z ichiga olgan holda, professionallashtirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Qo'shma Shtatlarda, shuningdek, ma'lum sohalarda ilg'or malakaga ega bo'lishni istagan mutaxassislarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan Biznes boshqaruvi doktori (DBA) va davlat boshqaruvi doktori (DPA) kabi professional doktorlik darajalari ko'paydi⁴¹. Ushbu dasturlar ko'pincha doktorantura bitiruvchilarining turli martaba yo'llarini aks ettiruvchi amaliy dasturlar bilan jiddiy tadqiqotlarni birlashtiradi.

Sharqiy Osiyoda, xususan, Xitoyda iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun yuqori malakali tadqiqotchilarni yetishtirish zarurati tufayli doktorantura ta'limi jadal sur'atlarda o'sdi. Mintaqa bitiruvchilarni ham akademik, ham sanoat rollariga tayyorlash uchun an'anaviy akademik ta'limni kasbiy rivojlanish bilan birlashtirgan ikki tomonlama yondashuvni qo'lladi. Shu bilan birga, dastur sifati, moliyalashtirish va bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish istiqbollari kabi muammolar muhim tashvish bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar tizimli islohotlarga, jumladan, tizimli doktorlik dasturlarini qabul qilishga va xalqaro standartlarni ichki siyosatga integratsiyalashga olib keldi⁴².

Xalqaro standartlarni joriy etishdagi muammolar. Doktorantura ta'limining xalqaro standartlarini o'rnatish borasida erishilgan yutuqlarga qaramay, bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Asosiy tashvishlardan biri standartlashtirish va xilma-xillik o'rtasidagi muvozanatdir. Standartlashtirilgan tizimlar doktorlik dasturlarining sifati va taqqoslanuvchanligini oshirishi mumkin bo'lsa-da, ular mahalliy va mintaqaviy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan moslashuvchanlik va innovatsiyalarni cheklashi mumkin. Yana bir qiyinchilik – turli mintaqalardagi universitetlar uchun turli darajadagi resurslar va infratuzilma. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi institutlar ko'pincha moliyalashtirishning cheklanganligi, tegishli jihozlar va malakali professor-o'qituvchilarning yetishmasligi tufayli xalqaro standartlarni joriy etishda jiddiy to'siqlarga duch kelishidi. Doktoranturada jahon standartlarini joriy etishda xalqaro tashkilotlar hal qiluvchi rol o'ynadi. Masalan, Yevropa Universitetlar Assotsiatsiyasi (EUA) Boloniya jarayonini amalga oshirish va Yevropa bo'ylab doktoranturada tegishli islohotlarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynadi. Xuddi shunday, Xalqaro biokimyo va molekulyar biologiya ittifoqi (IUBMB) kabi tashkilotlar global miqyosda doktorantura ta'limiga ta'sir ko'rsatgan sohaga oid standartlarni ishlab chiqdi. Ushbu sa'y-harakatlar doktorantura ta'limi sifati va dolzarbligini oshirishda hamkorlik va bilim almashish muhimligini ko'rsatadi⁴³.

41 F. C. Kot. & D. D. Hendel. (2012). Emergence and growth of professional doctorates in the United States, United Kingdom, Canada and Australia: a comparative analysis. *Studies in Higher Education*, 37(3), 345–364. <https://doi.org/10.1080/03075079.2010.516356>

42 J. C. Shin., G. A. Postiglione, G. A. Postiglione & Ho, K. C. (2018). Challenges for doctoral education in East Asia: a global and comparative perspective. *Asia Pacific Education Review*, 19(2), 141–155. <https://doi.org/10.1007/S12564-018-9527-8>

43 E. J. Wood & F. Vella (2000). IUBMB updates Ph.D. standards. *BioEssays*, 22(8), 771–773. [https://doi.org/10.1002/1521-1878\(200008\)22:8<771::AID-BIES11>3.0.CO;2-6](https://doi.org/10.1002/1521-1878(200008)22:8<771::AID-BIES11>3.0.CO;2-6)

Doktoranturaning kelajagi oliy ta'limning davom etayotgan globallashuvi va yuqori malakali tadqiqotchilarga bo'lgan talabning ortishi bilan shakllantirilishi mumkin. Xalqaro standartlar doktorlik dasturlarining sifati va taqqoslanuvchanligini ta'minlashda, shuningdek, innovatsiyalar va chegaralar bo'ylab hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Diqqatning asosiy yo'nalishlaridan biri doktorantlar va muassasalarning turli ehtiyojlarini qondira oladigan yanada moslashuvchan va moslashuvchan asoslarni ishlab chiqish bo'ladi. Bu globallashuv muammolari va imkoniyatlarini hal qilish uchun hukumatlar, universitetlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida doimiy muloqot va hamkorlikni talab qiladi.

Doktoranturani boshqarish murakkab va rivojlanib borayotgan soha bo'lib, keng doiradagi global va mintaqaviy omillar ta'sirida. Xalqaro standartlar doktorantura dasturlarining sifati va dolzarbligini ta'minlash, shu bilan birga hamkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun muhim vosita sifatida paydo bo'ldi. Doktorantura ta'limi jahon bilimlari iqtisodiyotida muhim rol o'ynashda davom etar ekan, ushbu standartlarni ishlab chiqish va joriy etish hukumatlar, universitetlar va xalqaro tashkilotlar uchun asosiy ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

2-jadval

Hududlar bo'yicha doktorantura ta'limini qiyosiy tahlil qilish

Mintaqa	Doktoranturaning asosiy xususiyatlari
Yevropa	Strukturaviy dasturlar, xalqarolashtirishga urg'u berish, Boloniya jarayoni ⁴⁴
Shimoliy Amerika	Kasbiylashtirish, o'tkazilishi mumkin bo'lgan ko'nikmalar, professional doktorlik darajasining oshishi ⁴⁵
Sharqiy Osiyo	Tez kengayish, akademik va kasbiy tayyorgarlikni birlashtirgan ikki tomonlama yondashuv ⁴⁶

Ushbu jadvalda global tendensiyalar va mintaqaviy ustuvorliklarning ta'sirini aks ettiruvchi turli mintaqalarda doktorantura ta'limiga alohida yondashuvlar ko'rsatilgan.

Doktorantura ta'limi har bir davlatning ilmiy va innovatsion taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. Rivojlangan mamlakatlar doktorantura tizimini zamonaviy ilmiy talablar asosida shakllantirib, fundamental tadqiqotlar va innovatsion yondashuvlarni joriy qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Xalqaro standartlar asosida doktorantura ta'limining tashkil etilishi ilm-fan va jamiyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar doktorantura ta'limiga katta sarmoya kiritib, uning samaradorligini oshi-

44 S. Manic., G. Cuciureanu & L. Manic (2022). Analysis of changes in the concept of doctoral studies. Approaches through the prism of policies promoted at european level. *Moldoscopia*, 4(95), 76–85. [https://doi.org/10.52388/1812-2566.2021.4\(95\).07](https://doi.org/10.52388/1812-2566.2021.4(95).07)

45 F. C. Kot & D. D. Hendel (2012). Emergence and growth of professional doctorates in the United States, United Kingdom, Canada and Australia: a comparative analysis. *Studies in Higher Education*, 37(3), 345–364. <https://doi.org/10.1080/03075079.2010.516356>

46 J. Ziyatdinova. (2022). Prospects Of Using Best European Practices For Modernizing Doctoral Education In Russia. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2022.02.95>

rish bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqmoqda. Xususan, ilmiy nashrlar sifati, akademik mobillik, ilmiy rahbarlik tizimi va doktorantlarning mustaqil tadqiqot olib borish imkoniyatlari bu davlatlarda yuqori darajada yo'lga qo'yilgan.

Xulosa

O'zbekistonda doktorantura ta'limi isloh qilinmoqda va xalqaro standartlarga moslashtirish yo'nalishida jadal qadamlar qo'yilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, doktorantura dasturlariga qabul qilinayotgan talabalar soni oshmoqda, ilmiy-tadqiqot faoliyati rivojlanmoqda. Shunga qaramay, doktorantura tizimining samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishni oshirish – doktorantlarga ilmiy izlanish olib borish uchun grant va stipendiyalar ajratish tizimini kengaytirish;

akademik mobillikni rivojlantirish – doktorantlarning xalqaro ilmiy markazlar va universitetlarda tajriba orttirishini rag'batlantirish;

ilmiy rahbarlik tizimini takomillashtirish – doktorantlar va ilmiy rahbarlar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini oshirish;

ilmiy nashrlar sifatini oshirish – xalqaro ilmiy bazalarda (Scopus, Web of Science⁴⁷) maqolalar chop etish hajmini kengaytirish;

zamonaviy tadqiqot infratuzilmasini yaratish – laboratoriyalar, texnik jihozlar va ilmiy kutubxonalarni modernizatsiya qilish.

Agar ushbu chora-tadbirlar samarali amalga oshirilsa, O'zbekistonning doktorantura tizimi xalqaro talablarga moslashib, yuqori malakali ilmiy kadrlar yetishtirish imkoniyati yanada ortadi. Doktorantura ta'limi sifatining oshishi esa mamlakatning ilmiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. European Commission. (2023). *Bologna Process Implementation Report*. Brussels: European Higher Education Area (EHEA).

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.05.2017 yildagi 304-son <https://lex.uz/docs/-3213410>

3. OECD Education Statistics. (2024). *Doctoral Education in the World: Trends and Challenges*. OECD Publishing.

4. UNESCO. (2023). *Global Trends in Higher Education and Research*. Paris: UNESCO Publishing.

5. <https://nsp.gov.uz/news?watch=256>

6. M. Nerad. (2020). *Governmental Innovation Policies, Globalisation, and Change in Doctoral Education Worldwide: Are Doctoral Programmes Converging? Trends and Tensions* (pp. 43–84). Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-38046-5_3

⁴⁷ Scopus & Web of Science. (2023). *Global Trends in Research and Doctoral Education: Citation Analysis and Impact Factors*. Elsevier & Clarivate Analytics.

7. The internationalisation of doctoral education and the strategies to achieve it: the perspectives of Portuguese universities and doctoral students. (2023). *Studies in Graduate and Postdoctoral Education*. <https://doi.org/10.1108/sgpe-12-2022-0078>
8. European Commission. (2023). *Bologna Process Implementation Report*. Brussels: European Higher Education Area (EHEA).
9. S. Manic., G. Cuciureanu & L. Manic (2022). Analysis of changes in the concept of doctoral studies. Approaches through the prism of policies promoted at european level. *Moldoscopia*, 4(95), 76–85. [https://doi.org/10.52388/1812-2566.2021.4\(95\).07](https://doi.org/10.52388/1812-2566.2021.4(95).07)
10. H. Aittola (2017). Doctoral education reform in Finland – institutionalized and individualized doctoral studies within European framework. *European Journal of Higher Education*, 7(3), 309–321. <https://doi.org/10.1080/21568235.2017.1290883>
11. F. C. Kot. & D. D. Hendel (2012). Emergence and growth of professional doctorates in the United States, United Kingdom, Canada and Australia: a comparative analysis. *Studies in Higher Education*, 37(3), 345–364. <https://doi.org/10.1080/03075079.2010.516356>
12. J. C. Shin., G. A. Postiglione., G. A. Postiglione & K. C. Ho (2018). Challenges for doctoral education in East Asia: a global and comparative perspective. *Asia Pacific Education Review*, 19(2), 141–155. <https://doi.org/10.1007/S12564-018-9527-8>
13. E. J. Wood & F. Vella (2000). IUBMB updates Ph.D. standards. *BioEssays*, 22(8), 771–773. [https://doi.org/10.1002/1521-1878\(200008\)22:8<771::AID-BIES11>3.0.CO;2-6](https://doi.org/10.1002/1521-1878(200008)22:8<771::AID-BIES11>3.0.CO;2-6)
14. S. Manic., G. Cuciureanu & L. Manic (2022). Analysis of changes in the concept of doctoral studies. Approaches through the prism of policies promoted at european level. *Moldoscopia*, 4(95), 76–85. [https://doi.org/10.52388/1812-2566.2021.4\(95\).07](https://doi.org/10.52388/1812-2566.2021.4(95).07)

Iroda Mirhusanova,
Chukurova Universiteti Davlat
Konservatoriyasi o'qituvchisi

TURKIYANING ILK OPERA VA BALET TEATRI

(Asos solinishi va taraqqiyot yo'li)

Annotatsiya. *Maqolada Turkiyaning ilk Opera va Balet teatriga asos solinishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlili.*

Kalit so'zlar: *musiqa, opera, balet, teatr, truppa, repertuar, spektakl, rejissyor, xoreografiya, xoreograf, konservatoriya.*

Abstract. *This article analyzes the stages of establishment, formation, and development of Turkey's first Opera and Ballet Theater.*

Key words: *music, opera, ballet, theater, troupe, performance, repertoire, director, choreography, choreographer.*

Davlatning madaniy va ma'naviy rivojlanishi yo'lida san'atning o'rni beqiyosdir. San'at va madaniyatni rivojlantirish har bir mamlakatning istagi va mehnatiga tayyanadi. Opera va Balet san'atining taraqqiyoti esa madaniyat yo'lida erishilgan so'nggi bosqichlardan birini ifoda etadi.

Turkiya Respublikasiga asos solinishidan so'nggi mamlakatning ilk prezidenti Mustafa Kemal Atatürk san'at va madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan va qo'llab-quvvatlagan. Teatr, Opera va Balet san'atiga Turkiyada asos solinishi va rivojlanishi yo'lida hukumat Yevropadan o'z davrining ilg'or san'atkorlarini taklif qilgan va kerakli imkoniyatlar yaratgan. Atatürkning taklifi bilan musiqa san'atini rivojlantirish uchun Germaniyadan nemis bastakori, dirijyori va musiqa o'qituvchisi Paul Hindemit, opera va teatr san'ati uchun nemis aktyor va rejissyori Karl Ebert Turkiyaga tashrif buyuradi. Ilk qadam, iqtidorli yoshlarni o'qitib, professional mutahassis darajasiga ega bo'lishlari uchun maxsus bilim yurtining ochilishi bo'ldi. Anqarada 1936-yilda musiqa, teatr va opera bo'limidan iborat bo'lgan Davlat Konservatoriyasi ochiladi. Bilim yurtida balet bo'limining ham ochilishi uchun bir qancha rejalar tuziladi ammo ba'zi sabablarga ko'ra bu yillarda amalga oshmaydi.

Anqara Davlat Konservatoriyasining ochilishi kelgusida davlat tarafidan tashkil etilgan yirik san'at muassasalarining barpo bo'lishining ilhom manbayidir. Davlat teatrlari, operalari va simfoniya orkestrlari jamoasining asosiy qismini Anqara Davlat konservatoriyasida ta'lim olgan talabalar tashkil etgan. Davlat Opera va Baletining ilk namoyishlari Anqara davlat konservatoriyasi o'quvchilarining tahsil jarayonida muntazam ravishda tayyorlagan opera namoyishlari ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. 1949-yildan Davlat qonuni bilan yangi maxsus bino qurilgan va "Davlat teatri" nomi berilgan. Davlatning yangi qonunlari asosida 1970-yildan esa "Davlat Opera va Baleti" nomi bilan faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Turkiyada ilk professional Balet maktabi 1948-yil 6-yanvarda Istanbulda "Yeshilko'y Balet maktabi" nomi bilan ochiladi. Uning muhim asoschisi Turkiya hukumati

tarafidan taklif qilingan Britaniya Qirollik Baletining asoschilaridan, balet san'atida o'z davrining professional va tajribali mutaxassisi bo'lgan Dame Ninette de Valois (Ninet de Valua Xonim)dir. 1950-yilda balet maktabining Istanbuldan Anqara shahriga ko'chirilishiga qaror beriladi va Anqara Davlat Konservatoriyasining balet bo'limi sifatida ta'lim berishda davom etadi. 1957-yildan boshlab esa har yil bir biridan iste'dodli talabalar balet bo'limini bitirib professional san'at hayotiga qadam qo'yishni boshlaydilar. Hali hanuz Davlat teatrining Balet bo'limi mavjud bo'lmaganligi sababli ilk bitiruvchilar avval teatr repertuarida mavjud bo'lgan "Aida", "Faust" kabi opera spektakllarining balet sahnalarida raqsga tushdilar.

1960-yilga kelib esa, bir balet truppasi uchun yetarli balet aktyorlari to'plandi. Endi sahnaga balet spektakllarini chiqarish mumkinligini ko'rgan Ninet de Valua ilk bo'lib Manual de Fallaning musiqasi bo'lgan "El Amor Brujo" baletini sahnaga qo'ydi. Angliyadan xoreograf sifatida Robert Harold va solist raqqosa sifatida Valerie Taylor Turkiyaga keldi. Bu balet spektakli "Salome" operasi bilan birga sahnaga qo'yildi va tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Nihoyat klassik durdonalari bo'lgan uzun balet spektakllarini sahnaga qo'yish vaqti ham kelgandi. Ko'p yillik mashaqqatli mehnatlar ortidan Turkiyada ilk bor professional turk balet san'atkorlari ijrosida uch sahnadan iborat bo'lgan buyuk balet "Koppelia" sahnaga qo'yildi. Musiqasi Leo Delibesning, xoreografiyasi Ivanov va Chekettlarga oid bo'lgan baletni Valua tartibga solgan holda sahnaga qo'ydi. Turk tomoshabini asarni buyuk hayajon bilan kutib oldi, baletda ikki obraz Svanilda va Koppelia bilan sahnaga chiqqan bosh solist Binay Okurer va Franz rolida Ferit Akinlarning kuchli texnik, artistik va dramatik ijrosi alohida e'tirofqa sazovor bo'ldi. Bu muvaffaqiyattan so'ng Davlat teatri repertuariga birin-ketin "Silfida", "Uyqudagi Go'zal", "Jizel" kabi ko'plab yangi balet spektakllari qo'shilgan holda boyib bordi. 1961-1964-yillar turk baletida inglizlarning imzosini ko'rishimiz mumkin. Turk yoshlariga bo'lgan sevgisi va ishonchi sababli Ninet de Valua Davlatdan hech qanday yordam olmasdan Turkiyaga kelib ketgan. Qo'lidan kelgancha o'quv jarayoni davomida yordam bergan va yo'l ko'rsatgan. O'quvchilar uchun Angliyadan professional balet liboslari va poyabzallari yuborgan. Yosh turk balerinlarining mahoratini ortirish maqsadida Margot Fontayn, Maykl Somes, Nadia Nerina, David Blair, Anya Linden kabi o'z davrining mashhur balet san'at ustalarining Turkiyaga kelib tajribalarini o'rgatib bir sahnada raqsga tushishlari uchun imkoniyatlar yaratgan. Valua mashhur balet san'atchilari bilan bir qatorda mashhur bastakor, xoreograf, sahna dekaratori, dirijyorlarida Turkiyaga olib keladi. Bu bilan birgalikda iste'dodli turk raqqosalari, dekoratorlari va tikuvchilariga Angliyada ta'lim olishlari uchun grantlar topgan. Uning maqsadi Turkiya baleti "oyoqqa turib olishi" va rivojlanishi bo'lgan. Shuning uchun ham qo'lidan kelgancha, beminnat yordam bergan holda mehnat qilgan.

Turk balet san'ati ta'limi uchun yigirma yillik hayotini bag'ishlagan fidokor ustoz pedagoglardan Travis Kemp va Molly Lake juftini ham eslatib o'tish joizdir. 1954-1974-yillar orasida Davlat Konservatoriyasi direktori va o'qituvchisi bo'lib ishlarini davom ettirgan ustoz san'atkorlar, Turk Baletining namoyondalari Merich Sumen, Sait So'kmen, Guljan Tunchchekich, Evinch Sunal, Binay Okurer, Jale Kazbek, Tanju

Tuzer, Rengin Tash, Ozkan Aslan, Oytun Turfanda kabi ko‘plab balet san‘at ustalarini tarbiyaladilar.

1963-1964-yillarda Valuaning “Satranch” baleti katta muvaffaqiyat bilan tomoshabinlarga taqdim etiladi. 1965-yil Ninet De Valua ilk turk baleti “Cheshmebashi”ni sahnalashtiradi. Aynan shu balet turk xalqining Balet san‘atining rivojlantirishi va o‘z Milliy baletiga ega bo‘lishi yo‘lidagi mehnatlarining ilk mevasi edi. Zero, Valua turk raqslarini juda jozibali va ko‘pqirrali bo‘lganiga alohida e‘tibor qaratgan va turk milliy baleti uchun mustahkam poydevor bo‘lishiga ishongan.

Balet san‘atining xalqaro tili bor, balet san‘ati ustalari dunyoning qaysi mamlakati-ga borishidan qat‘iy nazar sahnadagi ijrosini tomoshabin tushunadi va his qiladi. Shu o‘rinda klassik durdonalari bilan birgalikda milliy baletning ham o‘rni balanddir. Chunki, tomoshabin milliy balet yordamida u xalqni yaqindan taniydi va o‘rganadi.

Xulosa

Bugungi kunda Turkiyaning nafaqat Ankara shahrida balki Istanbul, Izmir, Antalya, Mersin va Samsun shaharlarida Davlat Opera va Balet teatrlari mavjuddir va o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar. Shuningdek, Turkiyada hozirgi kungacha Anqara, Istanbul, Izmir, Antalya, Adana va Mersin kabi katta shaharlarida joylashgan Universitetlar qoshida faoliyat olib borayotgan Davlat Konservatoriyalari filiallari professional ta‘lim berib kelmoqda. Turkiyada Opera va Balet san‘atiga mustahkam poydevor qo‘yildi va uning yordamida yillar davomida nafaqat Turkiyada, balki xalqaro miqyosda o‘z iste‘dodini ko‘rsatgan, yuksak e‘tirofga sazovor bo‘lgan san‘atkorlarni ko‘rishimiz mumkin. Zero, san‘at va madaniyat taraqqiyotidagi har bir qadam halqning ma‘nan rivojlanishiga ijobiy yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jak Deleon “Cumhuriyet Dönemi Türk balesi”, “İletişim” nashriyoti. Istanbul-1992.
2. Dame Ninette de Valois/ Necla Çıkıgil “Adım Adım”, Ankara -2003.
3. Devlet Opera ve Balesi Genel Müdürlüğü –“60. Yılında Türk Balesi”, Ankara – 2008.
4. Murat Katoğlu “Turkiya’nın milli opera kurumu “Devlet Opera ve Balesi”nın kuruluş öyküsü” (1936-1941), Ankara-2010.

TEATR SAN’ATIGA IJTIMOIIY-MADANIY JARAYONLAR TA’SIRINING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI

***Annotatsiya:** Mustaqillik bir asrdan ortiq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek professional teatrining tashkiliy-ijodiy va badiiy jarayonlaridagi yangi davrni boshlab berdi. Yangi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar teatr san’atining ham yangicha tamoyillar asosida rivojlanishini hamda faoliyat yuritishini taqozo etdi. Ushbu maqolada teatr san’atiga ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta’sirining tarixiy-nazariy asoslari haqida tahliliy fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Teatr, san’at, ijtimoiy-madaniy jarayon, spektakl, tarix, jaded, madaniyat, zamonaviy.*

***Annotation:** Independence marked the beginning of a new era in the organizational, creative, and artistic processes of Uzbek professional theatre, which has more than a century of history. New socio-political and economic processes demanded the development and functioning of theatrical art based on new principles. This article analyzes the historical and theoretical foundations of the influence of socio-cultural processes on theatrical art.*

***Key words:** Theater, art, socio-cultural process, performance, history, jaded, culture, modern.*

Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma’naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san’atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Yangi O‘zbekistonda milliy madaniyatning barcha sohalarini qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni chuqurlashtirish, badiiy-barkamol san’at asarlari yaratish orqali xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga ezgu g‘oyalarni singdirishga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. “Jahondagi eng ommaviy va ta’sirchan san’at turlaridan biri bo‘lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go‘zal his-tuyg‘ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda”.⁴⁸ Ushbu vazifalarni amalga oshirishda teatr san’atining ijodiy va ijtimoiy funksiyalaridan foydalanish ijobiy samara beradi. Davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida teatr san’atiga ham alohida to‘xtalib, “teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish, unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini

⁴⁸ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. T.: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2023, 313-b.

oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta‘sis etish, korxonalar va muassasalarda oyning bir kuni “Teatr kuni” deb belgilanib, xodimlarning teatrga borishlarini yo‘lga qo‘yish” singari muhim vazifalarni belgilab bergan edi⁴⁹. Shu talablardan kelib chiqib, teatrning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish, ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, uslubiy qo‘llanmalar yaratish zamonaviy teatrshunoslik fanining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Teatr – jamiyatdagi g‘oyaviy-mafkuraviy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatuvchi jonli va ta‘sirchan san‘at turi hisoblanadi.

2020-yilda nashr etilgan O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Ijtimoiy” so‘ziga quyidagicha ta‘rif berilgan: Ijtimoiy so‘zi arabcha so‘z bo‘lib “jamo‘a”, “jamiyatga oid”, “inson va jamiyat hayotiga oid”⁵⁰ kabi ma‘nolarni anglatadi. Ma‘lumki, ijtimoiy-madaniy jarayonlar jamiyatdagi turli ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni ifodalovchi, ko‘p qirrali hodisadir. Bu jarayonlar jamiyatning rivojlanishi, transformatsiyasi va yangi ijtimoiy strukturalarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Ijtimoiy-madaniy jarayonlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda yuz beradigan keng miqyosli o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Ular jamiyatdagi individual va kollektiv xatti-harakatlar, urf-odatlar, qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy normativlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq. Ijtimoiy-madaniy jarayonlar jamiyatdagi keng qamrovli o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan va har bir jamiyatda turlicha shakllandigan murakkab va dinamik jarayonlardir. Ular jamiyatning qadriyatlari, an‘analari, urf-odatlari, ijtimoiy strukturasi va madaniy merosini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar faqat jamiyatning badiiy va ma‘naviy rivojlanishiga emas, balki iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlariga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi globallashtirish zamonida har bir millatning o‘ziga xosligi va etnik qadriyatlarini saqlab qolish, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealarni aks ettirish, xalqning ma‘naviy-ma‘rifiy immunitetini oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy g‘oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashda teatr san‘ati muhim o‘rin tutadi. Shu bois, bugun san‘atshunoslik, teatrshunoslik, madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiologiya va boshqa gumanitar fanlar kesimida teatrni ijtimoiy institut sifatida tadqiq etish, uning ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy jihatlarni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik davriga kelib, tarixiy asarlarga yondashuv tubdan o‘zgardi. O‘zbekistonning mafkuraviy talablaridan kelib chiqib, buyuk ajdodlarimiz haqida ko‘plab spektakllar sahnalashtirildi. “Tarixga munosabatning o‘zgarishi natijasida madaniy qadriyatlarga qiziqish ortdi va o‘z-o‘zidan sahnalarda ko‘p ming yillik tarixning ijtimoiy qatlamlarini ko‘rsatishga bo‘lgan ehtiyoj uyg‘ondi. Natijada mamlakat va xalq taqdiri bilan bog‘liq qator tarixiy voqea va hodisalar bugungi kun nuqtai nazaridan mushohada etilmoqda. Shu bilan birga, teatrlar mamlakatimiz tarixida alohida o‘rin tutgan buyuk

49 Mirziyoyev Sh.M. Ma‘naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida so‘zlangan nutq. 22.12.2023. // <https://president.uz/uz/lists/view/6941>.

50 O‘zbek tilining izohli lug‘ati ikkinchi jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T: -2020. 177-bet.

allomalar hayoti va faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlarni qondirish yo‘lida ham faol ishtirok etmoqda”⁵¹.

N.Sayfullayevning “Yangi davr O‘zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari” nomli monografiyasi mavzuga doir muhim manbalardan bo‘lib, unda muallif yangi davr milliy teatr san‘atining asosiy yo‘nalish va tendensiyalari, jamiyat hayotidagi o‘rni va ustuvor vazifalari, sohada menejment va marketing masalalari, teatr repertuarlarining badiiy-g‘oyaviy, ijtimoiy-ma‘naviy xususiyatlarini tadqiq etish orqali O‘zbekistonda ushbu san‘atning rivojlanishi va istiqboli bo‘yicha zarur ilmiy xulosa va takliflar beradi. Tadqiqotning xarakterli xususiyati shundaki, unda mamlakatimiz tarixidagi murakkab davr – Sovet hokimiyatining parchalanishi va O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi, ayni jarayonda ijtimoiy-madaniy sohalarida yuz bergan islohotlar, shu jumladan, teatr san‘atidagi ijodiy izlanishlar mafkuraviy hodisalar bilan bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Xususan, milliy teatr modelini yaratish vazifasi ustuvor ahamiyat kasb etgani, teatr jarayonlari jamiyat tafakkuri, xalqning ma‘naviy ehtiyoji bilan hamohang rivojlangani, sahna ijodkorlarining xalqaro maydonga chiqishida mahalliy va xalqaro festivallarning ahamiyati singari muhim masalalar ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Muallif o‘tish davrida teatr san‘atida yuz bergan o‘zgarishlar xususida shunday yozadi: “Sobiq sho‘rolar tuzumi inqirozga yuz tutgan va qayta qurish deb atalgan bir davrda “O‘zbekiston teatr san‘atini qayta qurish konsepsiyasi” qabul qilinib, bu sohada oshkora tortishuvlar, jur‘at, erkin fikr bildirish boshlangan bo‘lsa-da, biroq eski ijtimoiy sharoitlarda ko‘zlangan maqsadga erishmoq amri- mahol edi. O‘zbekiston mustaqil, suveren davlat sifatida e‘lon qilinib, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘la boshlaganidan keyingina ma‘naviyat va ma‘rifatning boshqa sohalarida bo‘lganidek, teatr san‘atida tub o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi”⁵². Darhaqiqat, qayta qurish yillari dramaturgiya va teatrdan tanqidiy yondashuv rivojlanib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, turli illatlarni oshkora fosh etish tendensiyasi kuchaygan bo‘lsa-da, o‘zbek teatrlarining chinakam milliy qiyofasi, ijodiy va mafkuraviy infratuzilmasi mustaqillik yillari yuzaga chiqdi va shakllandi. Mustabid tuzum iskanjasidan xalos bo‘lgan xalq milliy o‘zligi va tarixiy xotirasini qayta tiklashi, ajdodlarining boy ma‘naviy merosini o‘zlashtirishi, yosh avlod ongiga yuksak g‘oyalar va axloqiy qarashlarni singdirishida teatr san‘atining o‘rni va ahamiyati muhim edi. Mustaqillikning ilk yillari respublika teatrlarida tarixiy mavzuning yetakchilik qilishi, folklor ruhidagi, milliy qadriyat va an‘analarni targ‘ib qiluvchi asarlarga murojaatning ortishi aynan shu omil bilan bog‘liq edi.

F.Abduvohidov dissertatsiyasida XX asrning 30-yillarida O‘zbekistonning janubiy chegara hududida ijtimoiy–madaniy hodisa sifatida tashkil topib, o‘z ijodiy qiyofasiga erishgan Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrlarining uzoq yillik faoliyatini o‘rganish, tadqiq qilish lozimligini alohida ta’kidlaydi. Tadqiqotda Surxondaryo viloyat teatrlarining tashkiliy-ijodiy shakllanish jarayonlari, professional rejissura va repertuar doirasining kengayishi, mustaqillik davridagi yangi tendensiyalar, spektakllarning samarali

51 Rahmatullayeva D. Tarix va teatr. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.263-264.

52 Sayfullayev N. Yangi davr O‘zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari – Toshkent: MUM-TOZ SO‘Z, 2011. 4-b.

prokati, teatr san'atining jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati masalalari tadqiq etilgan. Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrining shakllanish va rivojlanish bosqichi haqida ilmiy izlanish olib borgan F. Abduvohidov istiqloq davridagi teatr faoliyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Mustaqillikning ilk damlaridan boshlab Surxondaryo teatri jamoasi jamiyatimizdagi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni his etish, zamon bilan hamnafas bo'lish, tarixni anglash badiiy jihatdan sermazmun, puxta spektakllar yaratishni asosiy maqsad qilib belgiladi. Dastlab, repertuardagi mavjud asarlarga davr ruhi singdirilgan holda qayta sahnalashtirildi. Zamonaviy asarlar originalligini ta'minlash, tomoshabinlar xohish va intilishiga mos asarlarga e'tiborni kuchaytirish maqsadida mahalliy dramaturglar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga e'tibor qaratildi. Ijodiy hamkorlik tufayli teatr repertuaridan zamonaviy asarlar bilan bir qatorda buyuk o'tmishimizni yodga soluvchi tarixiy mavzudagi asarlar teatr repertuaridan mustahkam o'rin egalladi. Yangi davr ruhiga hamohang ijodiy izlanishlar olib borish Surxondaryo teatrining o'ziga xos, Milliy qiyofasini belgilab berdi"⁵³.

M. Axmetjanovanning tadqiqotida sahna san'atining ekzistensial mohiyati va milliy ong shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri tadqiq etiladi. Bunda ayniqsa, dissertatsiyaning "Milliy o'zlikni anglash va o'zbek teatrlarida milliy qahramon tasviri" deya nomlanuvchi ikkinchi hamda "Uchinchi Renessans va o'zbek teatrlarida modernizatsiya jarayonlari" nomli uchinchi boblari joriy tadqiqot doirasida alohida ahamiyatga ega. M. Axmetjanova yozganidek, "Teatr san'ati futuristik, g'ayrihayotiy g'oyalarga ergashmaydi, u ko'pincha ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan yoki uchraydigan, etnomadaniyatdan joy olgan, tarixiy voqelik sifatida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirgan artefaktlarga murojaat etadi. Kishilararo munosabatlar u sahnalashtiradigan voqelik va asarlarning yadrosini tashkil etadi"⁵⁴. Ya'ni, teatr san'ati jamiyatdan ayro holda mavjud bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas, aynan ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealar, millat, xalq tafakkuri va ongida kechayotgan o'zgarishlar sahna san'atidagi ijodiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tarixiy ong va milliy qahramon obrazini yaratish muammolari, Uchinchi Renessans g'oyasini barpo etishda teatr san'atining o'rni, o'zbek teatrida modernizatsiya va transformatsiya jarayonlari singari masalalar tadqiqotchi tomonidan puxta o'rganilgan.

"Teatr san'ati azaldan xalq orzu-armonlarini, quvonchi va tashvishlarini, kurashini ifodalovchi san'at sifatida shakllangani ma'lum. Ammo, mustabid tuzum hukmronligi yillari davomida uni "zanjirband" etishga, yolg'on ideologiyaning jarchisiga aylantirishga zo'r berib intildilar. Buning natijasida milliy teatrimiz sahnasi uzoq yillar asosan "usti yaltiroq, ichi qaltiroq" g'oyalar va ularni targ'ib etuvchi yasama ijobiy qahramonlar maydoniga aylanib keldi"⁵⁵. Mustaqillik davri o'zbek teatri badiiy-g'oyaviy, ijtimoiy-mafkuraviy jihatdan ko'plab o'zgarishlarga yuz tutdi. Sovet davridagi sotsialistik realizm qoliplaridan xoli bo'lib, yangi mazmun, shakl va ifodalar bilan boyidi. Xususan, tarixiy shaxslarga munosabat va yondashuv tubdan o'zgardi, o'tmishdagi ulug' ajdodlarimiz

53 Abduvohidov F. Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrining shakllanish va taraqqiyoti bosqichlari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent: 2021. – 147 b;

54 Axmetjanova M. Teatr san'atining ekzistensial mohiyati va milliy ong shakllanishi ta'siri. Falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2022. – B.109.

55 Bayandiyeov T., Ikromov H., Axmadjonova M. O'zbek teatrida milliy g'oya talqini – Toshkent, 2009.- 9-b.

haqida xolis va haqqoniy fikr yuritish imkoniyati tug'ildi. Bu esa teatr ijodkorlarini yanada ruhlantirib, turli mavzu va janrdagi yangi sahna asarlari yaratishga undadi. Anglashiladiki, jamiyatdagi yangi ijtimoiy-madaniy jarayonlar teatrning yangicha faoliyat yuritishini taqozo qiladi.

Istiqlol yillari mamlakatimiz teatrlarida tarixiy mavzudagi asarlarga e'tibor kuchaydi. Bu jarayon bevosita xalqimizning milliy qadriyatlari, tarixiy xotirasini qayta tiklash, ulug' ajdodlarimizning jasorati, ilmiy-ma'rifiy merosini yuzaga chiqishi bilan bog'liq edi. Teatrlarimizda Spitamen, At-Termiziy, Imom Buxoriy, Al-Farg'oniy, Umar Hayyom, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodirabegim, Ogahiy singari buyuk shaxslarga bag'ishlangan tarixiy spektakllar sahnaga qo'yildi.

O'zbek teatri taraqqiyotining barcha bosqichlarida ijtimoiy-madaniy jarayonlarni sahna san'atiga bevosita ta'sirini ko'rish mumkin. Zero, har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy qarashlari adabiyot va san'atda o'z in'ikosini topadi. Mamlakatimizga Yevropa tipidagi professional teatr san'ati kirib kelganidan to hozirgacha bo'lgan jarayonlarda sahna san'ati ijtimoiy-madaniy voqeliklar bilan uyg'unlikda rivojlangani, hukumat va jamiyat tomonidan muayyan missiyalarni bajargani, davr va millat tafakkuri uchun zarur g'oyalarni ilgari surganiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2023, 313-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlangan nutq. 22.12.2023. // <https://president.uz/uz>
3. O'zbek tilining izohli lug'ati ikkinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent: -2020. 177-b.
4. Rahmatullayeva D. Tarix va teatr. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.263-264.
5. Sayfullayev N. Yangi davr O'zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011.- 268 b.
6. Abduvohidov F. Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrining shakllanish va taraqqiyoti bosqichlari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent: 2021. – 147 b;
7. Bayandiyev T., Ikromov H., Axmadjonova M. O'zbek teatrida milliy g'oya talqini – Toshkent, 2009. – B.9.

Xurshida Usmanova,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedra o‘qituvchisi

SUN‘IY INTELEKTNING TA‘LIM JARAYONIDAGI IMKONIYATLARI VA O‘QITUVCHILIK FAOLIYATIGA TA‘SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun‘iy intellektning ta‘lim jarayonidagi imkoniyatlari va o‘qituvchilik faoliyatiga ta‘siri tahlil qilinadi. Sun‘iy intellekt texnologiyalarining ta‘lim tizimida qo‘llanilishi o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, avtomatlashtirish va optimallashtirishga yordam beradi. Maqolada sun‘iy intellektning o‘qituvchilarga yordam berish, o‘quv jarayonini individualizatsiya qilish va o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishdagi roli haqida batafsil ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: sun‘iy intellekt, ta‘lim jarayoni, o‘qituvchilik faoliyati, innovatsion imkoniyatlar, o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, avtomatlashtirish, optimallashtirish, global ta‘lim tizimi

Abstract: This article analyzes the opportunities of artificial intelligence in the educational process and its impact on teaching activities. The application of artificial intelligence technologies in the education system contributes to the personalization, automation, and optimization of the learning process. The article discusses in detail the role of artificial intelligence in supporting teachers, individualizing education, and the comprehensive development of students.

Keywords: artificial intelligence, educational process, teaching activities, innovative opportunities, education personalization, automation, optimization, student development, quality improvement in education, global educational system.

Hozirgi zamonaviy dunyoda sun‘iy intellekt texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha jabhalarida muhim o‘rin egallamoqda. Xususan, ta‘lim sohasida sun‘iy intellektning joriy etilishi o‘quv jarayonlarini samarali tashkil etish va yangi innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tadbiq qilish imkonini bermoqda. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarning yukini yengillashtirish, ta‘lim oluvchilarga moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratish hamda ularga bo‘lgan e‘tibor va motivatsiyani oshirish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Shu bilan birga, sun‘iy intellektning ta‘lim jarayoniga integratsiyasi yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, ma‘lum muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, inson omilining ahamiyati, axloqiy me‘yorlarga rioya qilish, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu tadqiqotda sun‘iy intellektning ta‘lim jarayonidagi imkoniyatlari, uning o‘qituvchilik faoliyatiga ta‘siri va ushbu texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etishning afzalliklari va cheklovlari ko‘rib chiqiladi. Mazkur mavzuni o‘rganish ta‘lim tizimining innovatsion rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt ta'limdagi o'rni. Sun'iy intellekt darslardagi qaysi mavzularni yaxshilash kerakligiga e'tiborni jalb qilishni kerak bo'lgan imkoniyatga ega, chunki o'qituvchilar har doim ham o'quv materiallaridagi bo'shliqlardan xabardor bo'lmasligi mumkin, bu esa ta'lim oluvchilarning chalkashliklariga olib keladi. Darslarni talabalarning profiliga ko'ra shakllantirish va turli mazmun va darslar bilan qiziqishlarini uyg'otish mumkin. Sun'iy intellekt o'qituvchilarga uy vazifasini bajarishda ko'maklashadi. Masalan, ochiq onlayn kurs provayderi sifatida faoliyat yurituvchi Coursera talabalarning muammoga javoblarini baholaydi. Coursera, talaba topshiriqqa noto'g'ri javob berganida, tizim orqali o'qituvchi ogohlantiriladi va tizim bo'lajak talabalarga to'g'ri javobga maslahatlar beradigan xabar jo'natadi. Ushbu sun'iy intellekt tizimi darslarni tushuntirishga va barcha talabalar ayni kontseptual asosni yaratishga yordam beradi. Shunday qilib, o'qitish strategiyalari uchun texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchilar talabalar ishtirokida yaratilgan avtomatik ma'lumotlarning afzalliklaridan foydalana oladilar.

Chunki bu raqamli axborot tizimlari qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni tez saqlash va qayta ishlab chiqishga moyildir. Ushbu maxsus algoritmlardan boshqa, ushbu tizimlar ta'lim oluvchilarning faollik darajasini belgilashi hamda ta'lim oluvchining sinfda sodir bo'ladigan xatti-harakatlar modellarini tushunishi va bu natijalarni o'qituvchiga xabar qilishi mumkin. Ushbu texnologiyani joriy etish o'qituvchilarga o'z sinflarini to'g'ri boshqarishga ko'maklashadi va ular hujjatlarga kamroq vaqt ajratadi va yuqori sifatli tadqiqot asosida o'qitish uchun sun'iy intellekt vositalaridan bebaho tushunchalarni olishga ko'proq vaqt sarflay oladilar [1].

Ushbu tadqiqot adabiyotlarni ko'rib chiqish bo'lib, sun'iy intellektning ta'limga ta'siri haqidagi mavjud ma'lumotlarni birlashtirishga yo'naltirilgan. Adabiyotlarni ko'rib chiqish – tadqiqotchilar, akademiklar yoki amaliyotchilar tomonidan mavzu bo'yicha olingan ma'lumotlarni tizimli, tushunarli va takrorlanadigan tarzda sintez qilish va baholash imkonini yaratadigan tadqiqot usuli hisoblanadi. Ushbu tadqiqot yozma manbalar orqali foydalaniladi[2].

So'rov modellari. Tadqiqotda sifatli tadqiqot usullaridan biri bo'lgan so'rov modeli qo'llanildi. So'rov modellari – bu o'tmishdagi yoki hozirgi vaziyatni qanday bo'lsa, shunday ifodalashga qaratilgan tadqiqot yondashuvlari. Tadqiqotning asosini tashkil etuvchi hamda tadqiqot fani bo'lgan hodisa, shaxs yoki ob'ektni o'zgartirish yoki ta'sir qilish uchun hech qanday harakat sarflamasdan mavjud shartlar doirasida aniqlashga harakat qilinadi. Ushbu tadqiqotda ma'lumotlarni to'plash uchun hujjatlarni skanerlash usulidan foydalanilgan. Mavjud yozuvlar va hujjatlarni tekshirish orqali ma'lumotlarni to'plash hujjatlarni skanerlash deb ta'riflanadi. Hujjatlarni skanerlash – ma'lum bir maqsad uchun manbalarni skanerlash, ko'rib chiqish, eslatmalar olish va baholashdir[3].

Sun'iy intellekt ta'lim jarayonlarining turli jabhalarida muhim rol o'ynaydi. Biroq, sun'iy intellektning pedagogik ta'limda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishga ta'siri bir qancha afzalliklarga bog'liq. Ushbu tadqiqotda sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi ta'siri muhokama qilinadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, ta'lim jarayonlarida turli xil o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu o'z-

garishlar ba'zan ijobiy imkoniyatlarni taqdim etsa, ba'zida yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Ta'limda sun'iy intellektning o'zgarishi talabalar, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari nuqtai nazaridan muhokama etiladi.

Biroq, sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq ba'zi munozarali fikrlarni ham hisobga olinishi lozim.

Birinchisi, sun'iy intellekt texnologiyalarining axloqiy o'lchovidir. Ma'lumotlarning maxfiyligi, talabalarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, sun'iy intellekt tizimlari noxolis bo'lishi mumkinligi haqidagi xavotirlar va axloqiy me'yorlarga rioya etish kabi masalalarni hisobga olish lozim. Ta'lim muassasalari ushbu axloqiy masalalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatga kirishishlari va sun'iy intellektdan foydalanishda ta'lim oluvchilarning huquqlarini himoya qilishlari lozim.

Ikkinchisi, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'rni, ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabati, o'qitish strategiyasi va ta'lim oluvchi-o'qituvchi munosabatlari kabi inson omillari muhim o'rin egallaydi. Bu omillarga qanday ta'sir qilishini va o'qituvchilarning roli sun'iy intellekt texnologiyalari bilan o'zgarishini hisobga olish lozim. Sun'iy intellekt o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va yaxshi ta'lim tajribasini ta'minlash uchun ishlatilishi kerak, lekin inson omilining ahamiyatini e'tiborsiz qoldirmaslik lozim.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bizning fikrimizcha, magistratura talabalarining yuqori darajada ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning eng oson usuli bu – pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining bilim, mediatahlil va kreativligini oshirib borishga qaratilgan harakatlardir. Bunda talabalar ilmiy tadqiqotchilikni o'zlashtirish, rivojlantirish va takomillash-tirish orqali kompetensiyaviy layoqatga erishadilar.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasiga integratsiyasi o'quv jarayonlarini tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonlari yanada samarali, moslashuvchan va individual yondashuvga ega bo'lmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt o'qituvchilarning ish yukini kamaytirib, ularga yuqori sifatli darslarni tashkil etish va talabalarining o'quv natijalarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Biroq sun'iy intellektning joriy etilishi bilan bog'liq ba'zi muammolar ham mavjud. Axloqiy me'yorlarga rioya qilish, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi va inson omilining ahamiyati kabi masalalar hali-hanuz dolzarbdir. Shuning uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda ehtiyotkorlik va maqsadga yo'naltirilgan yondashuv talab etiladi.

Xulosa

Umuman olganda, sun'iy intellekt ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, talabalarining bilim olish jarayonini takomillashtirish va ta'limni umumiy jihatdan rivojlantirishda kuchli vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi imkoniyatlarini yanada kengroq o'rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ilieva L.K .Chet tili ta’limida izchillikni ta’minlash texnologiyasi. Pedagogik ta’lim jurnali. – 2006. – 1-son. – B. 70-71.
2. Fahimirad, M., & Kotamjani, S. S. (2018). A review on application of artificial intelligence in teaching and learning in educational contexts. *International Journal of Learning and Development*, 8(4), 106-118..
3. Göksoy, S. (2013). Türkiye ve Avrupa Birliği Ülkelerinde Zorunlu Eğitim Uygulamaları. *Asya Öğretim Dergisi*, 1(1), 30-41.

ZAMONAVIY TEXNOGEN MADANIYAT VA YOSHLAR TAFAKKURI: FALSAFIY-METODOLOGIK TAHLIL

***Annotatsiya.** Texnogen madaniyatning jadal rivojlanishi inson tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarning dunyoqarashi va tafakkur uslublari texnologik taraqqiyot natijasida o'zgarib, an'anaviy madaniy qadriyatlar qayta shakllanmoqda. Ushbu maqolada texnogen madaniyatning yoshlar tafakkuriga ta'siri falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, uning ijobiy va salbiy jihatlari hamda texnologiya va insoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** texnogen madaniyat, texnologik taraqqiyot, sun'iy intellekt, kibermakon, tafakkur uslubi, axborot manipulyatsiyasi, epistemologiya, ontologiya,*

***Annotation.** Technogenic culture is rapidly evolving, significantly impacting human thinking and social relations. The worldview and cognitive styles of young people are transforming due to technological progress, leading to the reshaping of traditional cultural values. This article analyzes the influence of technogenic culture on youth thinking from a philosophical perspective, examining its positive and negative aspects, as well as the integration of technology with human values.*

***Keywords:** technogenic culture, technological progress, artificial intelligence, cyberspace, thinking style, information manipulation, epistemology, ontology,*

Zamonaviy texnogen madaniyat – texnologiyaning inson tafakkuri, yashash tarzi, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlar taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatishi natijasida shakllangan murakkab madaniy hodisadir. U inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib borib, an'anaviy madaniy me'yorlar va qadriyatlarni o'zgartirish, yangi bilimlar yaratish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilishini qayta shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Shu bilan birga, texnogen madaniyat insonning dunyoni idrok etish usulini o'zgartirib, texnika va texnologiya vositasida reallikni yaratish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu jarayon inson tafakkurining texnologik vositalar orqali shakllanishini tezlashtirib, bilish, muloqot va ijodiy ifoda shakllariga yangicha mazmun beradi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) insonning dunyoni idrok etish usulini o'zgartirayotganining yorqin misolidir. Jumladan, VR texnologiyalari tibbiyot sohasida shifokorlarni o'qitish uchun qo'llanilmoqda, bu esa real jarrohlik amaliyotlarini simulyatsiya qilish va tafakkurning yangi shakllarini rivojlantirishga imkon yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar faqat bilim olish jarayoninigina o'zgartirmay, balki insonning haqiqat haqidagi tasavvurini ham qayta shakllantiradi.

Texnogen madaniyat inson va texnologiya o'rtasidagi chegaralarni o'zgartirib, kibermakon, sun'iy intellekt va raqamli identifikatsiya kabi yangi hodisalarning shakllanishiga turtki bermoqda.

Kibermakon (inglizcha: Cyberspace) – bu informatsion texnologiyalar yordamida yaratilgan va global tarmoq orqali ulanish imkonini beruvchi virtual muhitdir⁵⁶. Shuningdek, zamonaviy texnologik taraqqiyot natijasida shakllangan yangi ijtimoiy-madaniy maydon bo‘lib, inson faoliyatining turli yo‘nalishlariga ta‘sir o‘tkazmoqda. Jumladan, axborot almashinuvi va virtual tajribalarni o‘z ichiga olgan holda, reallik tushunchasini kengaytiruvchi fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sun‘iy intellekt (SI; inglizcha: artificial intelligence, AI) esa inson intellektiga taq-lid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi bo‘lib, inson ongining funksiyalarini modellashtirish va avtomatlashtirishga qaratilgan tizimlar va texnologiyalar majmuasi hisoblanadi. U murakkab hisob-kitoblarni bajarish, mustaqil ravishda o‘rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega. SI algoritmlari katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlash, oldindan aytish, ularni aniqlash va moslashuvchan yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Raqamli identifikatsiya (inglizcha: Digital identity) – shaxs yoki tashkilotning raqamli muhitda identifikatsiya qilinishini ta‘minlaydigan texnologiyalar, usullar va jarayonlar majmuasidir. U foydalanuvchining shaxsiy yoki huquqiy maqomini tasdiqlash, xavfsizlikni ta‘minlash va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun ishlatiladi. Zamonaviy jamiyatda raqamli identifikatsiya nafaqat shaxsiy ma‘lumotlarning himoyasini kuchaytiradi, balki inson va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni soddalashtirib, axborotga asoslangan iqtisodiyot va boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma‘lumki, bugungi yosh avlod texnologiyalar ta‘sirida shakllanayotgan yangi madaniy muhitning asosiy ishtirokchilaridan biridir. Ularning bilim olish, muloqot qilish va dunyoni anglash usullari avvalgi avlodlarnikidan tubdan farq qiladi. Sun‘iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan bir paytda, yoshlar nafaqat real dunyo, balki virtual makonda ham faoliyat yuritmoqda.

Axborotning tezkor tarqalishi va global tarmoq orqali cheksiz resurslardan foydalanish imkoniyati yoshlarning tafakkur tarzini o‘zgartirib, ularni yangi texnologik muhitga moslashishga undamoqda. Bugungi yosh avlod faqat jismoniy tajribalar orqali emas, balki raqamli vositalar yordamida ham reallikni idrok etmoqda. Bu esa ularning shaxsiylik, haqiqat va ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan yondashuvini yangicha shakllantiradi. Shunday ekan, zamonaviy texnologiyalar yoshlarning hayot tarzi, ta‘lim olish uslubi va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir o‘tkazmoqda.

Yoshlar sun‘iy intellekt, kengaytirilgan reallik (AR) va raqamli identifikatsiya kabi texnologiyalarni nafaqat iste‘molchi sifatida qabul qilmoqda, balki ularning rivojiga faol hissa qo‘shmoqda. Natijada, texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan yangi tafakkur shakllanib, yoshlar kelajak madaniyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilashda muhim rol o‘ynamoqda. O‘tgan asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yosh avlod texnologiyalar ta‘sirida shakllangan yangi madaniy muhitning asosiy ishtirokchilaridan biri bo‘lgan. Ularning bilim olish, muloqot qilish va dunyoni anglash usullari avvalgi avlod-

56 Mo‘minov M. (2024). KIBERMAKON TUSHUNCHASI VA UMUMIY JIHATLARI. Talqin va Tadqiqotlar. извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2914>.

larnikidan tubdan farq qilgan. Xususan, 2000-yillar boshida kompyuter va internetdan keng foydalanish imkoniyati paydo bo'lishi bilan yoshlar axborotga ega bo'lishning an'anaviy usullaridan voz kechib, raqamli vositalarga tobora ko'proq bog'lanib bordi. Shuningdek, ular faqat jismoniy tajribalar orqali emas, balki raqamli vositalar yordamida ham reallikni idrok eta boshlagan. O'yin industriyasining rivojlanishi bunga yorqin misol bo'la oladi – masalan, World of Warcraft, Minecraft yoki keyinchalik Fortnite kabi o'yinlar orqali yoshlar virtual dunyoda o'z shaxsiy tajribalarini orttirgan, do'stlar orttirgan va ijodiy faoliyat bilan shug'ullangan.

Aytish lozimki, sun'iy intellekt, kengaytirilgan reallik va neyrotarmoqlar kabi innovatsion texnologiyalar inson tafakkuri va ong jarayonlariga chuqur singib borar ekan, tafakkur paradigmasi ham o'zgarib, inson-mashina integratsiyasi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Buning natijasida axborot oqimlari ta'sirida ijtimoiy guruhlar shakllanishi, madaniy merosni saqlash va uzatish jarayonlari ham yangi yo'nalish kasb etmoqda. Texnogen madaniyatning bu kabi o'zgarishlari insoniyatning kelajakdagi taraqqiyot modelini belgilab, uning axloqiy, huquqiy va falsafiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Texnologiyaning madaniy muhitga tobora chuqurroq singib borishi natijasida insoniylik tushunchasi ham o'ziga xos evolyutsiyaga uchramoqda. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning keng qo'llanilishi natijasida ijod, tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish jarayonlari yangi muammolar va muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, texnogen madaniyatning ijtimoiy aspektlari ham dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Masalan, raqamli mehnat bozori, sun'iy intellekt asosida boshqariladigan iqtisodiyot va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari insonning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga tub o'zgarishlar kiritmoqda. An'anaviy kasblarning o'rnini sun'iy intellekt va robototexnika egallab borayotgan bir sharoitda insonning ijtimoiy maqomi va kasbiy identifikatsiyasi qayta shakllanmoqda. Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot bilan bog'liq axloqiy masalalar ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sun'iy intellektning axloqiy qoidalar asosida ishlashi, raqamli kuzatuv jamiyatining shakllanishi, shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi kabi muammolar bugungi texnogen madaniyatning muhim falsafiy-ijtimoiy muhokama obyektiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, texnologik taraqqiyot inson erkinligi va shaxsiy daxlsizlik chegaralariga qanday ta'sir ko'rsatayotgani haqida fundamental falsafiy savollarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan mamlakatlar va ijtimoiy guruhlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan qatlamlarni axborot va iqtisodiy jihatdan chetda qoldirish xavfini ham tug'dirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli tafovut (digital divide) muammosi globallashtirish jarayonida ijtimoiy tengsizlikni yanada chuqurlashtirish ehtimoliga ega⁵⁷ (Van Dijk, 2020). Texnologik resurslarga tengsiz kirish imkoniyatlari jamiyatda axborot asimmetriyasini kuchaytirib, iqtisodiy va ijtimoiy stratifikatsiyani yanada keskinlashtirishi

57 Reynolds, Rebecca. (2020). Jan van Dijk. (2020). The digital divide. Cambridge, UK: Polity, 208 pp. £17.99 (paperback) (ISBN 9781509534456).. Journal of the Association for Information Science and Technology. 72. 10.1002/asi.24355.

mumkin⁵⁸ (Castells, 2010). Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, texnogen madaniyat nafaqat texnologik innovatsiyalar bilan bog'liq jarayon, balki insoniyatning ontologik, epistemologik va axloqiy asoslarini qayta shakllantirayotgan murakkab hodisadir.

Zamonaviy texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga singib borar ekan, ularning ta'siri nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy, balki axloqiy va falsafiy oqibatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, texnogen madaniyatni o'rganish faqat texnologik taraqqiyot doirasida emas, balki uning insoniyatga ta'sirini chuqur falsafiy tahlil qilish orqali amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy jamiyat ushbu o'zgarishlarga moslashish bilan birga, ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy va falsafiy muammolarni chuqur tahlil qilib, texnologiyalarni inson manfaatlariga yo'naltirishga harakat qilishi lozim. Shu bois, texnogen madaniyatni rivojlantirish jarayonida insonparvarlik prinsiplariga asoslangan yondashuv shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, texnologik taraqqiyot jarayonida inson omili, uning qadriyatlari va ma'naviy jihatlari e'tibordan chetda qolmasligi kerak⁵⁹.

Innovatsion texnologiyalar hayotni yengillashtirish va rivojlantirish bilan birga, insoniylik mohiyatini saqlab qolish mas'uliyatini ham o'z zimmasiga olishi lozim. Shuningdek, texnogen madaniyatning rivojlanishi bilan bog'liq axloqiy muammolarni hal qilish uchun falsafiy, huquqiy va siyosiy yondashuvlarni takomillashtirish zarur. Bu jarayonda inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik, texnologiyadan foydalanishning adolatliligi kabi tamoyillar ustuvorlik kasb etishi lozim. Kelajakda texnologiya va inson tafakkurining yanada yaqinlashuvi yangi axborot etikasini shakllantirishni talab qiladi. Sun'iy intellekt, raqamli haqiqat va kibermakonning rivojlanishi inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bir paytda, texnologiyadan foydalanishning axloqiy-me'yoriy tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanadi. Shu sababli, texnogen madaniyatning rivojlanishi faqat texnologik taraqqiyot emas, balki insonning intellektual, axloqiy va ijtimoiy taraqqiyoti bilan uyg'un ravishda olib borilishi kerak. Faqat shu yo'sinda texnologiyalar inson manfaatlariga xizmat qiluvchi va jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omilga aylanishi mumkin. Bunda texnologiyaning inson ma'naviyati va madaniy qadriyatlari bilan uyg'unlashishi, uni insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda boshqarish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, texnogen madaniyat insoniyatning intellektual, axloqiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi vositaga aylanishi uchun texnologik innovatsiyalarni inson manfaatlariga yo'naltirish, ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish va texnologiya bilan insoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

58 Kizilhan, Taner & Bal, Sevil. (2016). The Rise of the Network Society - The Information Age: Economy, Society, and Culture. *Contemporary Educational Technology*. 7. 10.30935/cedtech/6177.

59 Kulzhanova, Z. T., Kulzhanova, G. T., Mukhanbetkaliyev, Y. Y., Kakimzhanova, M. K., & Abdildina, K. S. (2020). Impact of Technology on Modern Society - A Philosophical Analysis of the Formation of Technogenic Environment. *Media Watch*, 11(3), 537-549. <https://doi.org/10.15655/mw/2020/13082020>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mo'minov, M. (2024). Kibermakon tushunchasi va umumiy jihatlari. Talqin Va Tadqiqotlar. извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2914>.
2. Reynolds, Rebecca. (2020). Jan van Dijk. (2020). The digital divide. Cambridge, UK: Polity, 208 pp. £17.99 (paperback) (ISBN 9781509534456).. Journal of the Association for Information Science and Technology. 72. 10.1002/asi.24355.
3. Kizilhan, Taner & Bal, Sevil. (2016). The Rise of the Network Society - The Information Age: Economy, Society, and Culture. Contemporary Educational Technology. 7. 10.30935/cedtech/6177.
4. Kulzhanova, Z. T., Kulzhanova, G. T., Mukhanbetkaliyev, Y. Y., Kakimzhanova, M. K., & Abdildina, K. S. (2020). Impact of Technology on Modern Society - A Philosophical Analysis of the Formation of Technogenic Environment. Media Watch, 11(3), 537-549. <https://doi.org/10.15655/mw/2020/13082020>.
5. Abdullaev, Temur. (2023). Til va tafakkur dialektikasining bilish jarayonidagi roli. 3. 138-143.10.47390/SCP1342V3I7Y2023N18.
6. Abdullayev, T. B. O. G. L. (2023). Inson borlig'ida ong va tafakkur uslubi mutanosibliigi. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 97-101.

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOYIY FAOLLIGI

***Annotatsiya:** maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, uning davlat va jamiyat miqyosidagi ahamiyati, bugungi kundagi o‘zbek ayollarining muammolari va yaratilayotgan imkoniyatlar negizidagi yechimlar haqida so‘z boradi. Ayollarning ta’lim hamda ish faoliyatidagi huquq va manfaatlari, ish joylarida ularga nisbatan tengsizlik, bu borada davlat miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlar va kamchiliklar yoritilgan. Yakunda xulosa va takliflar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ayollar faolligi, ayollarining intellektual salohiyati, ta’lim, islohotlar, oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyati, xotin-qizlar huquq va manfaatlari, yangi Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, jamiyat, xotin-qizlar ta’limi.*

***Annotation:** the article talks about the social activity of women, its importance at the level of the state and society, the problems of today’s Uzbek women and solutions based on the opportunities being created. The rights and interests of women in education and work, inequality in the workplace, reforms and shortcomings implemented at the state level in this regard are highlighted. At the end, conclusions and suggestions are given.*

***Key words:** women’s activity, women’s intellectual potential, education, reforms, family’s educational potential, women’s rights and interests, new Constitution, Labor Code, society, women’s education.*

So‘ngi islohotlar doirasida xotin-qizlar, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligi, haq-huquqlari va himoyasi masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Hamma davlatlarning milliy qonunchiligiga e’tibor qaratilsa, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, shaxsning hayoti, salomatligi, qadr-qimmat, sha’ni va huquqlarini turli tajovvuzlardan himoya qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, yurtimizda ham amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning oila va jamiyatda mavqeini birdek oshirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Masalan, Parlamentlararo ittifoqning 2021-yilgi “Siyosatdagi ayollar” xalqaro reytingida O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar orasida 45-o‘rinni egalladi va Top-50 talikdan o‘rin oldi. Shu kungacha respublikamizda bu sohada xalqaro huquq normalari va standartlariga muvofiq, 3 ta qonun, 40 ga yaqin qonun osti hujjatlari qabul qilingan. Bugungi kunda parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajada bo‘lib, 32 foizni tashkil etmoqda. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 27 foiz, siyosiy partiyalarda esa 44 foizga yetdi.

2023-yilda yangilangan Konstitutsiyada ham xotin-qizlar huquqlarini masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, Konstitutsiyaning eski namunasidagi 14-bobi Oila deb atalib, u 4 ta moddadan iborat edi. Yangi Konstitutsiyada 14-bobning nomlanishi Oila, bolalar va yoshlar deb ataldi. Undagi moddalar kengaytirilib, soni 5 taga oshirildi.

Shuningdek, yangilangan Konstitutsiyaning 37-moddasiga mehnat huquqiga doir quyidagicha normalar qo‘shildi:

- Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

- Har bir ishlovchi ayol homilador bo‘lgan taqdirda va tug‘ish davrida haq to‘lanadigan ta‘tilga hamda yangi tug‘ilgan chaqaloqni parvarish qilish uchun ta‘tilga yoki bolani farzandlikka olish uchun ta‘tilga chiqish huquqiga ega.

Ta‘kidlash kerakki, hayotimizda ko‘p hollarda xotin-qizlarni kamsitish, haqsizlik qilish hollari uchrab turadi. Bunday vaziyatlar, ayniqsa, homilador va bolasi bor ayollar bilan uchraydi. Bunga asosiy sabab ushbu toifadagi xotin-qizlarga mehnat sohasida qonunchilik bilan ish beruvchilar hisobidan juda ko‘p imtiyoz va qulayliklar yaratilganiki, natijatada, ushbu toifadagi ayollarning huquqlari yashirin tarzda kamsitilayotganini ko‘ramiz. O‘zbekiston Respublika mehnat kodeksida homilador va bolasi bor ayollarni kamsitishni taqiqlovchi normalar mavjud bo‘lsada, uni Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yish ish beruvchilar ma’suliyatini oshiradi. Shunday hollar bo‘ladiki, ayollar tug‘ruqqa tayyorgarlik ko‘rish davrida o‘zlarining ijtimoiy faoliyatlarini to‘xtatib qo‘ygilari kelmaydi, yoki ayrim sabablarga ko‘ra ish joylarini o‘zgartirishlariga to‘g‘ri keladi. Bunday sharoitlarda avvallari ularning ishga kirishlari muammo bo‘lar edi ya’ni, “Yaqinda tug‘ruq ta‘tiliga ketadi” degan qarash bilan yo‘llari to‘silardi. Agar tashkilotda shtatlar bo‘yicha qisqartirish jarayoni ketayotgan bo‘lsa, bu o‘rinda birinchi navbatda yosh bolasi bor ayollar jabr ko‘rardi. Yangilangan Konstitutsiyaning 42-moddasi 3-qismida opa-singillarimizning bu boradagi huquqlari “Har kim munosib mehnat qilish, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish huquqiga ega. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi” deb aniq belgilab qo‘yildi. Bu har bir ayolning huquqlarini mustahkamlabgina qolmay, ular o‘z mahorati, qobliyatini jamiyatga kerak ekanligini his qildiradi, tabiiyki, bundan ayollarimiz ruhlanadilar.

Umuman olganda, xotin-qizlar mehnat jarayonida har tomonlama qo‘llab quvvatlanishi maqsadga muvofiq, sababi, ular ish joyida hodim bo‘lsa, uyida beka va bu ulkan mas’uliyat. Ham bekalik vazifasini bajarib, ham jamiyatda faol bo‘lishga intilayotgan ayollarimiz bu vazifalarga keragidan ortiq energiya sarflaydi aslida. Jahon Iqtisodiy forumi hisobotiga ko‘ra, 2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga muvofiq, xotin-qizlar erkaklarga nisbatan bir yilda 39 kun ko‘proq ishlashi aniqlangan. BMT Bolalar Jamg‘armasi (UNICEF) tadqiqotlariga qaraganda esa qizlar biror ishni bajarishda o‘g‘il bolalarga nisbatan 40 foiz ko‘p vaqt sarflashi kuzatilgan. Ma’lum bo‘lishicha, ayollar bir kunda erkaklarga qaraganda 50 daqiqa ko‘proq o‘z vaqtini ishxonada o‘tkazadi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlarining 2022-yilda o‘zbek ayollarining martabaga erishish imkoniyatlarini tahlil qilganidagi natijalari ham shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek ayoli aslida kuniga 12 soat ishlaydi, 7–8 soat ishxonada va undan keyin o‘rtacha 4 soat uy ishlari bilan band bo‘ladi.

Dunyoning turli mamlakatlardagi qiziqarli statistika. Mazkur jadvalda ish haqi to‘lanmaydigan ishlar jumladan: uylarni tozalash, ovqat tayyorlash, bolalarga qarashga ketadigan vaqt sarfi ko‘rsatilgan.

Mamlakat Erkaklar (1 kundagi vaqti) Ayollar (1 kundagi vaqti) Farqi

Ukraina	1:30	5:00	+233%
Hindiston	0:52	5:51	+579%
Meksika	1:52	6:13	+232%
Xitoy	1:31	3:54	+157%
Kanada	2:39	4:13	+59%
Shvetsiya	2:34	3:26	+34%

Shu o‘rinda aytish joizki, 2023-yil 30-apreldan yangi Mehnat kodeksi kuchga kirdi. Unda mehnat munosabatlari, xususan, ayollar hamda oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul bo‘lgan shaxslarga alohida qo‘shimcha kafolatlar berilmoqda. “Yangi mehnat kodeksining 403-moddasida antenatal parvarishlash uchun ish beruvchi bo‘sh kunlar berishi shart, degan qoida kiritilmoqda. Bu shuni anglatadiki, ayollar homilaning o‘tti-zinchi haftasidan boshlab homiladorlik va tug‘ruq ta‘tiliga chiqadi. Lekin bu davrga qadar, ya’ni homila o‘ttiz haftaga to‘lgunga qadar turli tibbiy ko‘riklardan o‘tiladi. Ushbu holatda yangi Mehnat kodeksida ish beruvchi ayolga o‘rtacha oylik ish haqini saqlagan holda antenatal parvarish, ya’ni o‘sha tug‘ruqqacha bo‘sh kunlar berishi shartligi ko‘rsatib o‘tilmoqda. Bu o‘zgartirish ham homilador ayollarning manfaatlarini qasddan, yashirin buzish hollariga qarshi yana bir chora. Ammo eng asosiy vazifa shuki, ayolning o‘zi siyosiy jarayonlardan bohabarlikka chanqoq bo‘lishidir. Qonunlar, farmonlar qabul qilinmoqda lekin har bir xotin-qiz ulardan xabardormi? Ular o‘z haq-huquqlarini bilib, o‘rinli foydalanib, ehtiyoj tug‘ilganda uni talab qila olishyaptimi? Jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlardan xabardorlik opa-singillarimizning hayotiga yengillik baxsh etadi. Bu jarayonga jamoatchilik, qonunlarni hayotga adolatli tatbiq etuvchi vakolatli ijro organi hodimlari, ommaviy axborot vositalari va aslida hammamiz mas‘ulmiz.

Jamiyatda ayollarning faolligini o‘lchaydigan yana bir omil bu ularning bilimliligi. O‘qimishli ayollar ham mamlakat rivojiga hissa qo‘shadi, ham oilasida yuksak ma’naviy muhitni yaratadi. Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, “Bitta qizni o‘qitsangiz – butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz”. Agar bir erkak ilmi bo‘lsa u o‘z kasb doirasida ilmini ulashadi, agar ayol ilmi bo‘lsa u butun jamiyatni ziyoli qiladi. Boisi millat davomchilari bo‘lgan bolalar asosiy vaqtini onasi bilan o‘tkazadi, tarbiyaning katta qismini onadan oladi. Misol uchun, 2021-yilda maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olingan 3–6 yoshli bolalar ulushi 62 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1–6 yoshli bolalar orasida bu ko‘rsatkich 30 foizga ham yetmagan, ya’ni, bolalarning taxminan 40–70 foizi to‘liq ravishda uyda onalari tomonidan tarbiyalanadi. Ziyo-ma’rifatdan bahramand bo‘lgan ona yomon xulqli inson tarbiyalamaydi, zero, oilaviy muhit, tarbiya bolaning xulqida aks etadi va butun kelajak hayotiga ta’sir qiladi.

Xotin-qizlar ta‘limini qo‘llab quvvatlash maqsadida 2022-2023 o‘quv yilidan ta‘lim kontraktlarini to‘lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilindi. Buning uchun, 2022-yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so‘m, kelgusi

to‘rt yilda 8 trillion so‘m mablag‘ ajratilishi belgilangan. Shuningdek, magistraturada o‘qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to‘liq byudjetdan qoplab berilishi, ehtiyojmand oila vakillari, otasi yoki onasini yo‘qotgan talaba qizlarning ta‘lim kontrakti mahalliy byudjetdan to‘lanishi yo‘lga qo‘yildi. Jamiyatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilmoqda. Magistraturaga o‘qishga kirgan xotin-qizlarning o‘qishi esa, to‘liq davlat hisobidan byudjet asosida amalga oshirilmoqda. Bu davlat tomonidan katta g‘amho‘rlik. Chunki aynan moliyaviy yetishmovchilik sababli o‘qiy olmayotgan xotin-qizlar atrofimizda talaygina.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Xotin-qizlar ta‘limini qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi ishlab chiqilishi sohada kutilgan yana bir yangilikdir. Dastur doirasida, Toshkent shahrida xotin-qizlarni o‘qitish maqsadida davlat-xususiy sherikchilik asosida to‘qimachilikka ixtisoslashgan alohida universitet tashkil etiladi. Paxta-to‘qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida joylarda universitetning texnikumlari ham ochiladi.

Yaratilayotgan keng imkoniyatlar o‘laroq bugun davlatimizda rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayollar 33 foizni tashkil etadi. 2 mingga yaqin davlat va jamoat tashkilotlariga ayollar rahbarlik qilmoqda. O‘zbek xotin-qizlari turli sohalarda rahbar sifatida o‘z o‘rinlariga ega. Oliy Majlis Senatini ayol kishi boshqarmoqda. 2021-yilda O‘zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, ayollarning yetakchilik usullari boshqacharoq: Ular ko‘proq hamkorlik qilishadi va jamiyat fikriga quloq tutishadi. Irlandiyaning sobiq prezidenti Meri Robinson “Ayol kishi hokimiyatda bo‘lsa, har bir olgan qarorida bolalari, nevaralari taqdirini o‘ylaydi” – degandi. Chindan ham ayol o‘zi uchun bo‘lmasada, avvalo, farzandi uchun tinchlikni, yaxshiroq hayot, kengroq imkoniyatlar va sharoitlar yaratishni xohlaydi. U qarorlar qabul qilar ekan, ularning jamiyat hayotiga ta‘sirini chuqurroq his qiladi. Tarix ham bu fikrni tasdiqlaydi. Jahon tarixida, xususan, yurtimiz – qadim Turonda ayollar orasidan yetishib chiqqan ko‘plab siyosiy arboblarning borki, bugun ularning amalga oshirgan ishlarini, islohotlarini, bilimini butun olam tan oladi. Donoligi, oqilaligi sukutiga yashiringan ayollarimizga keng yo‘l ochib berilsa, imkoniyatlar berilsa ular ko‘plab buyuk ishlarni amalga oshirishga qodir aslida.

Jamiyatning har qanday qismiga nisbatan qo‘llanilayotgan ijobiy yoki salbiy ta‘sir uning har bir a‘zosini chetlab o‘tmaydi. Sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning zamiridagi maqsad aniq – xotin qizlarimizning hayotdan mamnun bo‘lib yashashlari. Zero, baxtli ayolning oilasi tinch bo‘ladi. Oila tinch, xotin-qizlar manfaatlarini ta‘minlangan bo‘lsa mahalla, yurt tinch bo‘ladi. Xotirjam muhitda yashaydigan ayol har jabhada faollik ko‘rsata oladi. Oilaning ma‘naviy qo‘riqchisi bo‘lgan ayoldan oilaning barcha a‘zolari kuch, g‘ayrat oladi. Bunday muhitda psixologik sog‘lom bolalar dunyoga keladi, ular intellektual jixatdan ham barkamol bo‘lib voyaga yetadi. Demakki, birgina ayolning baxtini ta‘minlash butun bir jamiyat hayotiga, uning rivojiga o‘zining ulkan ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganimizda, jamiyatda siyosiy ijtimoiy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va rolini mustahkamlash, ularning bilimi, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish kabi muhim masalalarga e'tibor qaratish bilan bir qatorda xotin-qizlarga nisbatan har qanday zo'ravonlik va tazyiqlarning oldini olish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ekanligini O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir inson ongli ravishda tushunib yetmog'i va uni amalga oshirishda ko'maklashmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «O'tmishga nazar» ilmiy jurnali. R.Qodirova. Toshkent., 2022.
2. “Olim yetishtirgan onalar” – M.Tosun. Toshkent., 2021.
3. Gulshoda O'razaliyeva “Gender va ayollar huquqiy madaniyati” Toshkent., 2009.
4. Oilaviy-huquqiy munosabatlarda gender tengligi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. «Mahalla va oila nashriyoti» Toshkent – 2021-yil 31-may.
5. “Ayollari ardoqlangan yurt” O.Musurmanova. Toshkent., 2021.
6. “Yangi O'zbekiston” gazetasi. 2022-yil, 49-son.
7. “Sabr qil demaymiz, yordam beramiz”. G.A'zamova. “Ma'rifat” gazetasi. 2023-yil, 76-son.
8. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti o'zbek ayollarining martabaga erishish imkoniyatlarining 2022-yilgi tahlili.
9. 2006 йилдан бери Жаҳон иқтисодий форуми (WEF) томонидан нашр этилиб келинаётган The Global Gender Gap йиллик ҳисоботи.
10. Senat.uz
11. Avlod.media.uz

JAHON KINEMATOGRAFIYASIDA BOLALAR KINOSINING VUJUDGA KELISHI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon kinematografiyasida bolalar kinosining vujudga kelishi, “oilaviy film” hamda “bolalar kinosi” atamalarining izohi, G‘arb va AQSH kino industriyasida yosh tomoshabinlar uchun mahsus filmlarning yaratilish tendensiyalari haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** bolalar kinosi, oilaviy filmlar, ekran mahsuloti, adabiy asar, sifat, uslub.*

***Annotation.** The article examines the development of children’s cinema in world cinema, an explanation of the terms “family cinema” and “children’s cinema”, as well as trends in the Western and American film industry in creating films specifically for young audiences.*

***Key words:** children’s film, family film, screen adaptation, literary work, quality, style.*

Ma’naviy hayotning ajralmas qismiga aylangan kino kishilik jamiyatida o‘z ta’siri tufayli inson dunyoqarashi, uning did va qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh tomoshabinlar auditoriyasi haqida fikr yuritganda, bu masala dolzarblik kasb etadi. Chunki, bolalar-olam, o‘rab turgan atrof-muhit haqidagi umumiy tushunchalar, shuningdek, ular taqlid qiladigan qahramonlari to‘g‘risidagi barcha bilimlarini ekran mahsulotlaridan oladilar.

Bolalikdanoq inson shahsiyatining poydevori qo‘yiladi. Bu paytda boshqa omillar singari kino ham o‘ziga hos ta’sir kuchiga ega bo‘lib, ba’zan kino bolalarning tafakkurini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi. Bolalar filmlari – ularning dunyoqarashlari darajasiga ta’sir etuvchi vositalardan biridir.

1985-yilda aka-uka Lyumyerlar suratga olgan “Shalobbo bo‘lgan suvchi” syujetida ilk marotaba bola qahramon sifatida ishtirok etganligi, unda komediyaga xos unsurlar bo‘lganligiga qaramasdan, hali filmlarni ma’lum bir janr, tur, yosh auditoriyasi jihatidan ajratib bo‘lmasdi. Chunki kuzatuvlarga ko‘ra kino san’atining dastlabki namunalari yaratilgan paytda yosh auditoriya uchun maxsus film kategoriyasi mavjud bo‘lmay, filmlar faqat keng miqyosdagi tomoshabinlar uchun mo‘ljallangandi. Dastlabki yaratilgan filmlar bir necha daqiqa yoki undan ham kamroq davom etib, ular savdo markazlari, musiqa zallari kabi ekran o‘rnatilishi va atrofni qoraytirish imkoni mavjud bo‘lgan joylarda namoyish etilgan. Bu filmlarga asosan mahalliy aholi, ularning turmush-tarzi mavzu qilib olinib, mo‘jaz komediya va qisqa xabarlardan iborat edi.

XX asrning boshlariga kelib bolalar uchun maxsus filmlar suratga olinib boshlangan. Ushbu filmlarning badiiy asosini xalq ertaklari, bolalar adabiyotining klassik namunalari tashkil etgan. Vaqt o‘tishi bilan bu filmlarning ssenariysida tasavvuriy per-

sonajlar paydo bo‘la boshladi. Bolalar filmlarini tahlil qilish uchun uning rivojlanish bosqichlarini jahon kinematografiyasi misolida ko‘rib chiqish o‘rinli.

Dunyo kino san‘atida tomoshabinlarning yosh kategoriyasidan kelib chiqqan holda ikki xil: bolalar kinosi va oilaviy filmlar atamasi qo‘llaniladi. Quyida ushbu atamalarining o‘zaro farqi izohlanadi.

Bolalar kinosi yoki oilaviy film – bu odatda oila va uy kontekstida bo‘lgan video mahsulotlar hisoblanadi. Bolalar kinosi faqatgina yosh tomoshabinlar uchun, oilaviy filmlar esa kengroq auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bazalgett va Steyplazaning fikricha, “oilaviy film” atamasi mohiyatan amerikacha, “bolalar kinosi” esa Yevropa iborasi sifatida qo‘llanilgan. Terminlar orasidagi farqni Amerika va Yevropa kino sanoatida mos ravishda qabul qilingan kasting texnikasida ko‘rish mumkin. Bu filmlarda bosh qahramonlarni tanlashdagi yondashuvning ham o‘ziga hos uslubi mavjud. Amerika kinosida qahramon uchun tashqi ko‘rinishi maxsus talablarga javob beradigan yosh ijrochilar tanlansa, yevropaliklar ushbu rollar uchun “oddiy” bolalarni tanlashni afzal ko‘rishadi.

Bolalar kinosi:

-tur sifatida - badiiy, multiplikatsion, hujjatli, ilmiy publitsistik;

-janr sifatida - drama, fantastik, komediya, sarguzasht, myuzikl yoki adabiy asar adaptatsiyasi bo‘lishi mumkin.

Kichik auditoriya uchun yaratilgan asarlarga bolalarning hayoti, orzu- intilishi va qiziqishlari asosiy mavzu sifatida xizmat qiladi.

Dunyo kinematografiyasining rivojlanish bosqichida, xususan, 1930-yillarga kelib AQSH va Yevropada oilaviy tomosha qilishga mo‘ljallangan bolalar kinosini yaratish g‘oyasi paydo bo‘ldi.

Amerika oilaviy filmlarida hikoyani kattalar yoki ota-onalar nuqtai nazaridan taqdim etish orqali maqsad keng auditoriyani jalb qilish edi. Shu sababdan bu obrazlar uchun taniqli aktyor va aktrisalarga taklif etilgan. Ushbu yondashuv filmning syujet qurilishiga hamda voqeligiga ta’sir etmay qolmaydi, albatta.

Yevropa bolalar kinosida esa voqealar ketma-ketligi aynan bolaning nuqtai nazaridan, uning his-tuyg‘ulari shu bilan birgalikda tajribalari orqali tasvirlanadi. Ushbu farqlar tufayli amerika oilaviy filmlari mahalliy va xalqaro auditoriyaga ko‘proq hamda osonroq sotiladi. G‘arb mamlakatlari mahsulotlari esa mamlakat ichida yaxshi qabul qilinadi, lekin xalqaro auditoriya uchun cheklangan qiziqish uyg‘otadi.

1895-yil 28-dekabr kuni Parijda joylashgan Kaputsinok bulvaridagi “Gran-kafe” salonida aka-uka Lyumyerlar tomonidan suratga olingan dastlabki syujetlarning ommaviy namoyishi bo‘lib o‘tgach, fransuz kinosi mamlakat va xorijda keng tarqalib mashhurlikka erishdi. Amerika va Hindistondan keyin tomoshabin to‘plash bo‘yicha Fransiya kinosi dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. Birinchi jahon urushidan oldin dunyo kinoindustriyasining taxminan 90% qismini “Pate” va “Gomon” kinokompaniyalarining mahsulotlari egallagan.

Jahon tarixidagi birinchi chizilgan film 1892-yilda Emil Reyno tomonidan “praksinopkop” deb atalgan maxsus qurilma yordamida yaratilgan. Biroq, haqiqiy animatsion multfilm sifatida 1908-yil 17-avgust Parijdagi “Theatre du Gymnase”da namoyishi

bo‘lib o‘tgan Emil Kolning qog‘ozga qo‘lda chizib ishlangan “Fantasmagorie” asari ilmiy manbalarda keltiriladi. Kol ushbu asarida kino uchun yangilik bo‘lgan usullardan foydalangan va bu tomoshabinlarni jalb qilishga yordam bergan. Keyinchalik rus emigranti Vladislav Starevich tomonidan o‘tgan asrning 20-yillarida yaratilgan qo‘g‘irchoq filmlar fransuz bolalar kinosining ilk namunalari qatorida tarixga muhrlangan.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng nemis istilosining oqibatlarini anglash natijasida fransuz kinosida zamonaviylik paydo bo‘ldi. Urushdan keyingi davrda Marsel Karne-ning “Jannat bolalari” (“Les Enfants du paradis” 1945), Jan Koktoning “Sohibjamol va mahluq” (“La Belle et la Bete” 1946) kabi adabiy mazmundagi bolalar filmlari suratga olingan.

Fransuz rejissorlari Lui Mal va Fransua Tryuffo yaratgan asarlari bilan bolalar kinosi tarixida muhim iz qoldirishgan. Lui Malning “Metrodagi Zazi” (1960), “Yurak shitirlashi” (1971), Fransua Tryuffoning “400 zarba” (1959), “Yovvoyi bola” (1970), “Kichik o‘zgarishlar” (1976) kabi filmlari kino san’ati tarixidagi eng yaxshi filmlar sanaladi.

1920-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlarida kino sanoati shakllana boshlashi bilan prodyusser hamda rejissorlar o‘z faoliyatlarini takomillashtirishdi. Kinochilar amerika oilaviy filmlarini yaratishda uzoq yillar davomida deyarli tugamaydigan ingliz bolalar adabiyotidan foydalanishdi. Bular orasiga “Piter Pen” (1924), “Alisa mo‘jizalar mamlakatida” (1933), “Oz mamlakati sehgari” (1939), “Sirli bog‘” (1949), “Meri Poppins” (1964), “Qora ayg‘ir” (1979) kabi bolalar adabiyoti asosida ekranlashtirilgan filmlar kiradi. Shuningdek, “Gulliverning sayohatlari” (1966) va “Alisa mo‘jizalar mamlakatida” (1999) kabi klassik filmlar mashhur aktyorlar ishtirokida ikki yoki uch qisimli telefilm seriali sifatida yaratilgan. Vaqt o‘tishi bilan “...AQSHda real voqealarga asoslangan bolalar filmlari suratga olinib boshlandi. “Emmi va yovvoyi g‘ozlar” (1996), “Mening itim Skip” (2000) v.h. kabilar bunday turdagi birinchi filmlar hisoblanadi.

30-yillarga kelib Disney kompaniyasi ishlab chiqargan mahsulotlar Qo‘shma Shtatlardagi yetakchi bolalar va oilaviy filmlar qatoriga kirdi. Ikkinchi jahon urushidan oldin studiya aka-uka Grimm ertaklari asosida dastlab “Oppog‘oy va yetti gnom” (1937) animatsiyasini yaratish orqali kelajakda bolalar filmlari samaradorligiga asos bo‘ladigan qadamini tashladi. Urush yillarida mamlakatda “Fleischer Studio”sining “Gulliverning sayohatlari” (1939) va Disneyning “Pinokkio” (1940) kabi mahsulotlari yosh tomoshabinlar uchun ishlab chiqarildi. Ushbu filmlar adabiy manbalarning ekrandagi erkin adaptatsiyasidir.

Urushdan keyin Disney studiyasi oilaviy filmlar ko‘lamini kengaytirdi va 1950-1960 yillarda bolalar adabiyotining eng muhim asarlarini ekranlashtirishni davom ettirdi. Bayron Xaskinning “Xazinalar oroli” (1950), Luidji Komenchinining “Xaydi” (1952), Djord Stivensning “Anna Frank kundaligi” (1959) kabilar ekranizatsiyalar orasida eng muvaffaqiyatli bo‘ldi.

Amerika kino tarixida kinorejissor, prodyusser va ssenarist Stiven Spilbergning bolalar va oilaviy filmlar yaratishdagi ijodi alohida o‘rin tutadi. O‘ o‘z kinolarida muam-molarni yengishga majbur bo‘lgan bolalarni real tasvirlaydi. Buni kichik qaxramonlar yolg‘izlik, shuningdek, otalaridan ayrilish kabi qiyinchiliklarga duch keladigan “Inop-

lanetyanin” (1982) filmida ko‘rish mumkin. “Quyosh imperiyasi” (1987)da esa bosh qahramon bola Jim Grem uzoq yillar davomida ota-onasidan ajralish qayg‘usini boshidan kechiradi, u hatto onasining tashqi ko‘rinishini ham eslay olmaydi.

Asarda qaxramonga o‘qlar emas, aslida urushning telbaligi va shafqatsizligi, ota-onasidan ayrilish azobi zarar yetkazganligi mahorat bilan ko‘rsatib berilgan.

1970-90 yillarda oilaviy kinoning klassik namunalari qatoriga kirib ulgurgan, oilaviy xordiq uchun eng yaxshi deya hisoblangan bir nechta filmlar va ularning sikvellari suratga olindi. Bular, “Supermen” (1978), “Supermen 2” (1980), “Yulduzlar jangi” (1977) va uning sikvellari, “Kelajakka qaytish” (1985), “Kelajakka qaytish 2” (1989), “Kejakka qaytish 3” (1990), “Uyda yolg‘iz” (1990), “Uyda yolg‘iz 2” (1992), “Kapitan Kryuk” (1991), “Djumandji” (1995), “101 dalmatin” (1996) v.h..

Xulosa

Yuqorida o‘rganilgan mamlakatlar kinematografiyasining tarixidan kelib chiqib, har bir mintaqada bolalar kinosining vujudga kelishi hamda shakllanishi o‘ziga hos jihatlarga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Bunda mamlakatning siyosiy-ijtimoiy holati, madaniyati va adabiyoti muhim omil sifatida xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Базалгетт Кери. «Расслабление детей: детское кино и семейный фильм». Перед детьми экранные развлечения и юная аудитория. Лондон. 1995. Британский институт кино. стр.92
2. М.И.Нагибина. “История Развития Детского Кино В России”. X международная научно-практическая конференция. МЦНС “НАУКА И ПРОСВЕЩЕНИЕ” 2020, стр.170.
3. С.В.Комаров.История зарубежного кино. Москва, 1965. стр.133-135
4. Войчик-Эндрюс Ян. «Детские фильмы: история, идеология, педагогика, теория». 2000. Нью-Йорк: Garland Pub. стр.36-42

DISSERTATSIYA MAVZUSINI TANLASH VA SHAKLLANTIRISH, ASOSNOMA YOZISH TARTIBI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada dissertatsiya mavzusini tanlash va shakllantirish jarayoni, shuningdek asosnoma yozish tartibi batafsil ko'rib chiqilgan. Mavzu tanlashda ilmiy tadqiqotning dolzarbligini va innovatsion yondashuvlarni inobatga olishda nimalarga e'tibor berish zarurligi haqida to'xtalgan. Asosnoma yozish jarayonida tadqiqotning maqsadi, dolzarbligi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va kutilayotgan natijalari yoritilish tartibi tushuntirilgan. Muallif tomonidan dissertatsiyaning kirish qismini to'g'ri rasmiylashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar :** dissertatsiya, mavzu tanlash, asosnoma, ilmiy tadqiqot, metodologiya.*

***Abstract:** This article examines in detail the process of selecting and formulating a dissertation topic, as well as the procedure for writing a thesis. It discusses what to pay attention to when choosing a topic, taking into account the relevance of scientific research and innovative approaches. The procedure for highlighting the purpose, relevance, scientific novelty, practical significance and expected results of the research in the process of writing a thesis is explained. The author gave recommendations on the correct preparation of the introductory part of the dissertation.*

***Keywords:** dissertation, topic selection, thesis, scientific research, methodology.*

Akademik muvaffaqiyat tadqiqot va nashrlarga bog'liq. — Philip Zimbardo

Ilmiy ishning muvaffaqiyatini ta'minlab beradigan eng muhim faktor ilmiy ish mavzusining to'g'ri tanlanishi hisoblanadi. Mavzu tadqiqotchi qiziqadigan va o'zi biladigan sohada bo'lishi zarur, agar tadqiqotchi biror soha bo'yicha tadqiqot olib borayotgan bo'lsa uning vazifasi mavzu izlash emas, balki uni to'g'ri shakllantirishdir. Dissertatsiya ishining mavzusi ilmiy kengash tomonidan tasdiqlanganidan so'ng "OAK Byulleteni" jurnalida nashr qilinishi shart. Ilmiy ish mavzusini tanlayotganda mavzuning o'rganilganlik darajasiga e'tibor berish zarur, ba'zan umuman o'rganilmagan mavzuni tanlash tadqiqotchi uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin, lekin juda ham ko'p tadqiqotlar olib borilgan mavzu ham dolzarb bo'lmasligi mumkin. Shu sababdan amaliy ilm-fanda tanlangan mavzuga ehtiyoj borligini aniqlash zarur. Tadqiqot mavzusi quyidagi faktorlarga asosan shakllantirilsa maqsadga muvofiq:

- Tanlangan mavzu mahalliy yoki global muammolarning yechimi bo'lishi,
- Yangi nazariyani mahalliy ilmiy doiraga kiritish maqsadida;
- Mavjud nazariyani boyitish maqsadida;
- Faqat muayyan hududda qo'llanadigan yangilikni yaratish maqsadida;
- Umuminsoniyat uchun foydali kashfiyotlarni yaratish maqsadida tanlanadi.

Tadqiqotchi tanlangan mavzu bo'yicha nazariy materiallar borligiga ishonch hosil qilish zarur, chunki nazariy ma'lumotlarsiz yozish imkonsiz. Umuman nima mavzuda qilishni bilmayotgan tadqiqotchi OAK Byulletenida chop etilayotgan dissertatsiya mavzularni o'rganib chiqishi kerak bo'ladi www.oak.uz/pages/28, shu bilan birga Milliy kutubxonadan yoki www.diss.natlib.uz saytidan himoya qilingan mavzularni ko'rib chiqishi zarur. Dissertatsiya mavzusi yaqin yillar ichida dolzarbligini yo'qotmasligi bo'yicha sohaning yirik mutahassis olimlaridan maslahat olish zarur. Agar dissertatsiya vaqtida himoya qilinmasa, tadqiqotning «zamani» o'tadi, ilmiy ish dolzarbligini yo'qotadi.

Xorijda tadqiqotchilar ilmiy mavzu tanlashdan oldin eng avvalo biror muammo tanlanadi, ushbu muammo jamiyat miqyosida muhim bo'lishi zarur. Tadqiqotchi muammoni o'rganadi, uning ustida bir necha maqolalar yozadi, mavzuni to'la mohiyatini tushungach ichiga kirgach, tadqiqot taklifi (Research proposal)ni yozadi. Tanlangan muammo bo'yicha yaxshigina tajribaga eta mutaxassisga tadqiqot taklifini va maqolalarini yuboradi, undan ilmiy maslahatchi bo'lishini so'raydi. Ilmiy maslahatchi bilan tadqiqot ishini olib boradi va dissertatsiya ishi yoziladi, himoya qilinadi. O'zbekistonda esa bu holat ozgina farq qiladi, odatda doktorant mavzudan oldin ilmiy rahbarni tanlaydi. Afsuski, ilmiy rahbar tomonidan berilgan o'zi uchun uncha qiziqarli bo'lmagan mavzu bo'yicha tadqiqot olib boradi. Mutlaqo siz uchun tanish bo'lmagan mavzuni tanlamaslik zarur, mavzu sizni qiziqtirishi zarur. Ilmiy mavzu imkon qadar qisqa bo'lishi 14 ta so'zdan oshmasligi kerak () qavs ichida yozilgan so'zlar bundan mustasno.

Mavzuni to'g'ri shakllantirishda biz quyidagi formulani ishlatsak bo'ladi:

- (a) Tadqiqot aspekti (Mustaqil ta'lim masalan) ;
- (b) ... nima o'rganilayotganini aniq yozamiz;
- (c) qay tartibda o'rganamiz (metodlar, texnologiyalar).

Mavzu ilmiy bo'lishi, jargon yoki kam uchraydigan qisqartma so'zlardan foydalanilmagan bo'lishi, shu bilan birga o'quvchilarni diqqatini tortishi, ilmiy ishni yetarli darajada ifodalashi, tadqiqotning asosiy maqsad va vazifasiga qaratilgan bo'lishi zarur [1].

Dissertatsiya ishi mavzusini tanlash bo'yicha asosnomani qilishni odatda mustaqil tadqiqotchilardan talab qilishadi. Asosnomani dissertatsiyaning kirish qismi bo'lib unda tadqiqotingiz haqida quyidagi ma'lumotlar yoziladi.

1. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.
2. Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi
3. Muammoning o'rganilganlik darajasi
4. Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi
5. Tadqiqotning maqsadi
6. Tadqiqotning vazifalari;
7. Tadqiqotning obykti;
8. Tadqiqotning predmeti;
9. Foydalanishni rejalashtirayotgan tadqiqot vositalari (metodlar, usullar)

10. Tadqiqotning ilmiy yangiligi;
11. Tadqiqotning amaliy natijalari;
12. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy etilishi, tadqiqot natijalarining chop etilganligi (aprobatsiyasi)
13. Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati qismida tadqiqot mavzusi bugungi kundagi ilmiy, ijtimoiy, texnologik yoki iqtisodiy muammolarga qanday javob berishi, dunyo miqyosida yoki milliy darajada tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligini ko‘rsatish zarur. Mavzuning muhimligi tadqiqotning obyekti va predmetini aniqlash, maqsadi va vazifalarini shakllantirishda asos bo‘ladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi qismida tadqiqotchi ilmiy mavzuni qaysi davlat strategiyasiga, dasturiga yoki ustuvor yo‘nalishga mos kelishini, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, 2030-yilgacha mo‘ljallangan fan va texnologiyalarni rivojlantirish strategiyalari, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi yoki boshqa dolzarb yo‘nalishlarga to‘liq mos kelishini e‘tirof etadi. Tadqiqot va ustuvor yo‘nalishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, tadqiqot natijalari qanday qilib milliy ustuvorliklarga xizmat qilishini tushuntirib o‘tadi. Ilmiy natijalar qaysi sohalarga amaliy yordam berishi mumkinligi, bu yo‘nalishlar mamlakatda qanday ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishi mumkin. Tadqiqot respublika iqtisodiyoti, ijtimoiy taraqqiyoti yoki texnologik rivojlanishiga qanday hissa qo‘shishi mumkinligini, aynan qaysi muammolarni hal qilish uchun zarur ekani yoziladi. Dissertatsiya mavzusi to‘liq yoki qisman respublika uchun dolzarb bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlarga mos kelishi va tadqiqotning ahamiyatini ko‘rsatiladi.

Muammoning ilmiy o‘rganilganlik darajasini tadqiqotchi asosnomada yoritadi, bunda mazkur muammoning turli jabhalarini o‘rgangan avvalgi va hozirgi, milliy va xalqaro darajadagi tadqiqotchilar ilmiy ishlari sanab o‘tadi, mazkur muammoni hal qilishda sizdan oldingi va zamondosh olimlarning qo‘shgan hissasi yoritiladi. Tadqiqot mavzusiga tegishli bo‘lgan sohaning umumiy rivojlanish tarixini qisqacha ma’lumotlar, tadqiqot mavzusi bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar, tadqiqotga oid muhim olimlarning ishlarini sanab o‘tish zarur.

Dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot faoliyatiga oid ustuvor yo‘nalishlari, muassasaning strategik maqsadlari yoki dasturlari haqida tadqiqotning muassasa rejalari bilan bog‘liqligi, dissertatsiya mavzusi qaysi ilmiy-tadqiqot loyihasiga yoki dasturiga kiritilganligini ko‘rsatiladi.

Dissertatsiya ishining maqsadida tadqiqot nima uchun amalga oshirilayotganini tushuntiradi, qanday dolzarb muammoni hal qilishi va ilmiy faoliyat natijasi kabi savollarga javob beradi. Yaxshi shakllantirilgan maqsad va vazifalar tadqiqotchiga muammoni to‘la hajmda qo‘yishga imkon yaratadi[2]. Maqsad qo‘yilgan muammodan kelib chiqadi, muammo esa dissertatsiya mavzusidan aniqlashtiriladi. Ilmiy tadqiqotda odatda faqatgina bitta maqsad bo‘lishi zarur, unda yangi hodisaning tavsifi, yangi usulning rivojlanishi va boshqalar bo‘lishi mumkin. Maqsad aniq, ilmiy uslubda bayon etilgan bo‘lishi kerak. Maqsadni shakllantirishni fe’l bilan boshlash (ishlab chiqish, o‘rnatish,

asoslash) va ilgari surilgan ilmiy gipotezaning semantik chegaralaridan tashqariga chiqmaslik muhim. Maqsadni shakllantirib bo'lgach, **tadqiqotning vazifalarini** qo'yish kerak. Vazifalar qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish rejasi, berilgan savollarga javob olish uchun bajarilishi kerak bo'lgan bosqichma-bosqich harakatlardir. Ularni amalga oshirish rejasi dissertatsiya mundarijasida, uning boblari va paragraflarining nomlarida aks etadi va ular tekshirish, tizimlashtirish, topish, tavsiflash, o'tkazish kabi fe'llar bilan boshlanadi. Bitta tadqiqotda bir nechta vazifalar berilishi mumkin, ularning soni tadqiqotning murakkabligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotda mavjud ilmiy muammo –*predmet*, predmetda ko'tarilgan muammoning yechimini o'rganish uchun ishlatiladigan material resurslar – *obyekt* deyiladi. **Obyekt** – tadqiqotchi shug'ullanadigan ilmiy bilimlarning bir qismi hisoblanadi.

Metodologiya qismida foydalanishni rejalashtirayotgan tadqiqot vositalaringiz, ma'lumotlarni yig'ish va tadqiqotingizda qo'llaniladigan ma'lumotlarni tahlil qilish usullari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar:

- Analiz
- Sintez
- Klassifikatsiyalash
- Differentsiatsiyalash
- Induksiya
- Deduksiya
- Tavsifiy
- Eksperimental
- So'rovnoma
- Retrospektiv yondoshuv
- Korrelyatsiya (Qiyosiy tahlil)
- Imperik va dala materiallari metodi
- Kuzatuv
- Kontent analiz statistika
- Intervyu metodi qo'llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi qismida tadqiqotchi avvalgi ilmiy ishlarda ko'tarilmagan yoki yechim topilmagan masalalar bo'yicha yangi bilim yaratilganligini ko'rsatadi. Ilm-fanning hech kim qilmagan yoki o'rganmagan «birinchi marta» tadqiqotda amalga oshirilgan ilm-fan uchun yangilik elementlari mavjud bo'lishi zarur. Bu kabi elementlar tadqiqotchi tomonidan qo'llanilgan yangi tushunchalar, yangi mustaqil eksperiment kabi narsalar bo'lishi mumkin. Ilmiy yangilikni shakllantirish ham dissertatsiya matnida yozilishi kerak bo'lgan, ham himoyaga kiritiladigan eng muhim elementlardan biridir. Dissertatsiyaning muvaffaqiyatli himoyasi ilmiy yangilikni aniq va ishonarli tarzda isbotlashga bog'liq. Dissertatsiya komissiyasi natijalaringizning yangiligi va dolzarbligini baholaydi. Ilmiy yangilik qanchalik asosli bo'lsa, himoya jarayoni shunchalik oson kechadi. Dissertatsiyaning barcha asosiy qismlari ilmiy yangilik bilan bog'liq:

Muammo bayoni: Ilmiy yangilikni keltirib chiqaradigan masalani aniqlaydi.

Metodologiya: Yangilikni tasdiqlovchi yoki uni yaratishga yo'naltirilgan usullarni qo'llash zarur.

Natijalar: Erishilgan natijalar oldingi ilmiy ishlardan yangi jihatlari bilan ajralib turishi kerak.

Innovatsion texnologiyalarni taklif qiluvchi ilmiy yangilik jamiyat uchun amaliy foyda keltiradi. Yangilikka ega tadqiqotlar investitsiyalar yoki grant olish uchun yuqori imkoniyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari qismida dissertatsiyada erishilgan natijalarni amaliyotda qanday qo'llash mumkinligi, yaratilgan yangi texnologiya, usul yoki modelning aniq foydalari, tadqiqot natijalari qaysi tashkilotlar, kompaniyalar yoki sohalar uchun foydali ekanligini, ilmiy yangilikni qo'llash doirasi, texnologik yoki ijtimoiy ahamiyati kabi jihatlarni ko'rsatiladi. PhD dissertatsiyasida tadqiqotning amaliy natijalari tadqiqotning real ahamiyatini ko'rsatadi, ilmiy yangilikni amaliyotda sinovdan o'tkazish imkoniyatini beradi va dissertatsiya ishining dolzarbligi, qiymati va muvaffaqiyati uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot bazasida keltirilgan axborot bazasining ishonchliligi faqatgina rasmiy bosma va elektron nashrlarda chop etilgan

statistik maateriallar, shuningdek, monografiya tadqiqotlarida tasdiqlangan va chop etilgan natijalardan foydalanish orqali aniqlanadi. Xulosalar, takliflar va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkaziladi, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda chop etiladi. Olingan natijalar vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlanadi va amaliyotga joriy qilinadi.

Natijalarning aprotatsiyasi. Aprotatsiya – dissertatsiyani yozish jarayonida olingan tadqiqot natijalariga berilgan xolis baho. Aprotatsiya olish uchun ma'lum mavzu bo'yicha ma'ruza bilan chiqish, ommaviy munozarada ishtirok etish yoki ilmiy jurnalda natijalarni nashr qilish kerak. Aprotatsiya tadqiqotchining ilmiy tadqiqotiga ilmiy hamjamiyat tomonidan berilgan baho sifatida tushuniladi. Ilmiy ishning aprotatsiyasiga misol tadqiqot natijalari bo'yicha nechta ilmiy konferensiyalarda ma'ruza va tezislarda shaklida aprotatsiyadan o'tganligi haqida ma'lumot beriladi.

Kirish qismining yakunida **dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi** ko'rsatiladi. Mazkur dissertatsiyada kirish, nechta bob, nechta paragraf, xulosa, shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iboratligi va nechta sahifadan iborat ekanligi yoziladi.

Xulosa

Dissertatsiya mavzusini tanlash va shakllantirish ilmiy ishning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mavzu tadqiqotchi qiziqadigan va dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur. Tanlangan mavzu mahalliy yoki global muammolarning yechimi, yangi nazariyani kiritish, mavjud nazariyani boyitish yoki innovatsion kashfiyotlar yaratishga xizmat qilishi lozim. Asosnoma yozish jarayonida tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti aniq belgilanishi, ilmiy yangilik va amaliy natijalar ishonarli tarzda bayon etilishi talab etiladi. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi va natijalarining aprotatsiyasi dissertatsiyaning ilmiy qiymatini oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zikriyoyev, A. S. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling : amaliy qo‘llanma / A.S. Zikriyoyev . _ Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2020. _ ISBN 978-9943-6592-8-5
2. Dissertatsiya ustida ishlash bo‘yicha amaliy qo‘llanma [Matn] / Mohira Xoliqova, Luqmonjon Isoqov, Firuza Xamdamova, Nargiza Alimuxamedova. – Toshkent: Akademiya nashr, 2023. – 256 b.

TALABALARDA IJTIMOY MAS’ULIYATLILIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy mas’uliyatlilikni shakllantirishning pedagogik jihatlari tahlil qilingan. O‘zbekiston ta’lim tizimidagi dolzarb masalalardan biri sifatida, ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish jarayonida pedagoglarning o‘rni va ularning vazifalari batafsil ko‘rib chiqilgan. Pedagogik jarayonlarda ijtimoiy mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalashning samarali usullari va rivojlangan mamlakatlar tajribasi batafsil yoritilgan*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy mas’uliyatlilik, talaba, pedagogika, O‘zbekiston ta’lim tizimi, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, ta’lim va tarbiya.*

Abstract: *Pedagogical aspects of formation of social responsibility in students are analyzed in this article. As one of the urgent issues in the educational system of Uzbekistan, the role of pedagogues and their tasks in the process of developing social responsibility was considered in detail. In pedagogical processes, effective methods of educating socially responsible persons and the experience of developed countries are covered in detail.*

Key words: *Social responsibility, student, pedagogy, educational system of Uzbekistan, experience of developed countries, education and training.*

“Ta’limning haqiqiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki insonni ijtimoiy hayot uchun mas’uliyatli va foydali shaxs qilib tarbiyalashdir”.⁶⁰

Albert Eynshteyn

Global miqyosda jamiyatlar tobora murakkablashib borar ekan, yoshlar, xususan talabalar oldida nafaqat o‘z shaxsiy kelajagini, balki jamiyatning umumiy rivojlaniishi va barqarorligini ta’minlash uchun ham mas’uliyatli qarorlar qabul qilish zarurati tug‘ilmoqda. Ijtimoiy mas’uliyatlilik talabaning shaxsiy fazilatlari bilan bir qatorda, uni o‘rab turgan muhit va pedagogik jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu maqolada ijtimoiy mas’uliyatlilikni shakllantirishning pedagogik asoslari, amaliy metodlari, mavjud holatni tahlil qilish uchun statistik ma’lumotlar va tanqidiy jihatlari keng tahlil qilinadi.

Ijtimoiy mas’uliyatlilik tushunchasi pedagogik adabiyotlarda keng tahlil qilingan. Bu jarayonning asoslari axloqiy va ma’naviy rivojlanish bilan bog‘liqdir. Jahon olimlarining ta’kidlashicha, ijtimoiy mas’uliyatlilikni shakllantirishda quyidagi nazariy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Deweyning pragmatizm nazariyasi – Deweyning ta’limotiga ko‘ra, ijtimoiy mas’uliyatlilik faqat nazariy o‘rganish bilan shakllanmaydi, balki bu jarayon amaliyot

60 www.iqtibos.uz

orqali kuchayadi. Talabalar ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishlari orqali o'z mas'uliyatlilik darajasini oshirishlari mumkin.⁶¹

2. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi – Talaba ijtimoiy mas'uliyatlilikni shakllantiradigan asosiy omil ijtimoiy hamkorlik va o'zaro aloqalarda o'z ifodasini topadi. Ya'ni, talabalar jamiyat bilan muloqotda bo'lib, jamiyatdagi muhim axloqiy me'yorlarni o'zlashtiradilar.⁶²

3. Aksiologik yondashuv – Ushbu yondashuv talabalarning qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular o'zlarini jamiyatdagi axloqiy tamoyillarga muvofiq ravishda olib borishga o'rgatadi. Aksiologik yondashuv asosida talabalarda fuqarolik ongini shakllantirish ham mumkin.

Ijtimoiy mas'uliyatlilikni shakllantirish jarayonida amaliy pedagogik metodlar muhim rol o'ynaydi. Quyida ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan samarali pedagogik metodlarga misollar keltirib o'taman:

1. Ko'ngillilik faoliyati (volontyorlik) – Talabalar o'rtasida ko'ngillilik faoliyatini kengaytirish talabalarning ijtimoiy mas'uliyatlilik darajasini oshirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Ular ijtimoiy muammolar bilan to'g'ridan-to'g'ri shug'ullanish orqali o'z mas'uliyatlarini anglaydilar. Masalan, kam ta'minlangan oilalar, yetim bolalar yoki ekologik loyihalarda ishtirok etish orqali talabalar real hayotda o'z hissalarini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar.⁶³

2. Muammoli ta'lim metodlari – Talabalarni ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan mashg'ulotlar jarayoniga jalb qilish ularning mas'uliyatlilik darajasini oshiradi. Muammoli ta'limda talabalar real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

3. Fuqarolik loyihalari – Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fuqarolik loyihalarida ishtirok etishi orqali ularning fuqarolik mas'uliyati shakllanadi. Bunday loyihalar talabalarga o'z jamiyatidagi turli muammolarni chuqur tushunish imkoniyatini beradi va amaliy yechimlar topishda yordam beradi.

Statistika qo'mitasining rasmiy saytidan olingan ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy mas'uliyatlilik darajasi yildan-yilga o'sib bormoqda. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra:

- O'zbekistonda o'tkazilgan ijtimoiy loyihalarda talabalarning ishtirok etish darajasi so'nggi 5 yil ichida 25% ga oshgan.

- Talabalar orasida ko'ngillilik faoliyatiga jalb etilganlarning foizi 2023-yilda 52% ga yetgan.

- Talabalarning 60% ijtimoiy mas'uliyatlilikni o'quv jarayonida o'zlashtirayotganini bildirgan.

Shuningdek, Global o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy mas'uliyatlilik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda yoshlar orasida jinoyatchilik darajasi va ishsizlik

61 G'ulomov, S. (2006). "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

62 G'ulomov, S. (2006). "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

63 Rasulov, R. (2015). "Pedagogik nazariya va amaliyotda ijtimoiy mas'uliyat". Samarqand: SamDU.

foizi past bo'lgan. Bu O'zbekistonda ham ijtimoiy mas'uliyatlilikni yanada rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.⁶⁴

Ijtimoiy mas'uliyatlilikni shakllantirish O'zbekiston ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etsa-da, bu jarayon ba'zi tanqidiy masalalarni ham keltirib chiqarmoqda:

- Teoretik va amaliyot o'rtasidagi bo'shliq: Aksariyat ta'lim dasturlari ijtimoiy mas'uliyatlilikni nazariy jihatdan yoritgan bo'lsa-da, ularning amaliy hayotda tatbig'i yetarli darajada emas. Bu talabalarni real hayotiy vaziyatlarga moslashish imkoniyatidan mahrum qiladi.

- Mamlakat miqyosidagi muvofiqlik yo'qligi: Ta'lim muassasalarida ijtimoiy mas'uliyatlilikni rivojlantirish bo'yicha muayyan standartlar yo'q. Bu esa pedagogik metodlarning turli darajada samaradorlikka ega bo'lishiga olib keladi.⁶⁵

- Talabalarning passiv ishtiroki: Talabalar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyatlilikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarda passiv ishtirok etish holatlari ham kuzatiladi. Bu, ko'pincha, ularning bu jarayonning ahamiyatini to'liq anglab yetmasliklari yoki ularga motivatsiya yetishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.⁶⁶

Yuqoridagi vaziyatlardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tmoqchiman:

1. Ta'lim dasturlarini yangilash: Ijtimoiy mas'uliyatlilikni shakllantirishga qaratilgan maxsus amaliy mashg'ulotlarni kiritish.

2. O'zbekiston miqyosida standartlar ishlab chiqish: Barcha ta'lim muassasalarida ijtimoiy mas'uliyatlilik darajasini baholash va rivojlantirish uchun yagona standartlarni joriy etish.

3. Motivatsiya dasturlari: Talabalarni ijtimoiy mas'uliyatlilik loyihalarida ishtirok etishga rag'batlantirish uchun davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan grant va stipendiyalar joriy etilishi lozim.

Pedagogik jihatlar talabalarda ijtimoiy mas'uliyatlilikni shakllantirish jarayonining markazida turadi. Bu jihatlar talaba va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar, tarbiyaviy metodlar, ta'lim jarayonidagi maxsus dasturlar va amaliy mashg'ulotlarda o'z aksini topadi.

Talabalarda ijtimoiy mas'uliyatlilikni rivojlantirishda pedagoglarning vazifasi nimalardan iborat?

1. Pedagogik o'quv dasturlari: Ijtimoiy mas'uliyatlilikni shakllantirish uchun ta'lim dasturlari maxsus loyihalashtirilishi kerak. O'quv dasturlarida ijtimoiy mas'uliyatning nazariyasi, ijtimoiy adolat, fuqaro huquqlari va majburiyatlari kabi mavzular o'quvchilarga tushuntirilishi muhimdir. Amaliy darslar orqali esa talabalar jamiyat oldidagi vazifalarini chuqurroq anglaydilar.

2. Talabalarning ijtimoiy faolligini rag'batlantirish: Pedagoglar talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishi va ularni jamoatchilik hayotida ishtirok etishga jalb qilishi kerak. Bu, turli ijtimoiy loyiha va ko'ngillilik dasturlarida faol ishtirok etish orqali amalga oshiriladi. Bunday faoliyat talabalarga o'z mas'uliyatlarini amalda his qilishga yordam beradi.

64 Tursunov, T. (2016). "Ta'limda ijtimoiy mas'uliyatlilik va o'z-o'zini tarbiyalash". Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

65 Xayitov, A. (2019). "Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolik tarbiyasi". Toshkent: Ma'naviyat.

66 Xayitov, A. (2019). "Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolik tarbiyasi". Toshkent: Ma'naviyat.

3. Tarbiyaviy mashg'ulotlar va mahorat darslari: Pedagoglar tomonidan o'tkaziladigan maxsus treninglar va mashg'ulotlar talabalarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu treninglar orqali talabalar ijtimoiy mas'uliyatli qarorlarni qanday qabul qilishni o'rganadilar.

4. Tarbiyaviy soatlar va suhbatlar: Ijtimoiy mas'uliyatlikni shakllantirishning muhim jihatlaridan biri muntazam ravishda o'tkaziladigan tarbiyaviy soatlar va suhbatlardir. Ushbu jarayonlarda talabalarga ijtimoiy mas'uliyatning ahamiyati, fuqarolik burchlari va o'z jamiyatiga xizmat qilishning dolzarbligi tushuntiriladi.

5. Amaliyotga asoslangan ta'lim metodlari: Pedagoglar talabalarning bilimni real hayotiy muammolar bilan bog'lash uchun amaliy ta'lim usullaridan foydalanadilar. Muammoli vaziyatlarni hal qilish, turli ijtimoiy loyihalar ustida ishlash talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi.

Pedagoglar ijtimoiy mas'uliyatlikni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ularning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mas'uliyatli o'rnak bo'lish: Pedagoglar o'zlari jamiyatda mas'uliyatli shaxslar sifatida harakat qilib, talabalarga shaxsiy namunalar ko'rsatishlari zarur. Ularning xulq-atvori, muammolarga yondashuvi va mas'uliyatli qaror qabul qilishdagi tajribasi talabalarga o'rnak bo'ladi.

2. Motivatsiya yaratish: Talabalarni ijtimoiy mas'uliyatli bo'lishga rag'batlantirish pedagogning muhim vazifasidir. Pedagoglar talabalarning ijtimoiy faoliyatga qiziqishini oshirish uchun ularni turli loyihalarga jalb qilish, ko'ngillilik faoliyatlariga rahbarlik qilish va ularni qo'llab-quvvatlashlari kerak.

3. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish: Talabalarga ijtimoiy mas'uliyatni tushuntirishdan tashqari, pedagoglar ularga bu mas'uliyatni amalda qo'llash imkoniyatini yaratishlari kerak. Talabalar jamiyatdagi turli ijtimoiy vaziyatlarga to'g'ridan-to'g'ri jalb qilinib, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishlari ta'minlanishi lozim.

4. Individual yondashuv: Har bir talabaning ijtimoiy mas'uliyatlik darajasi har xil bo'lishi mumkin. Shuning uchun pedagoglar talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, har biriga individual yondashuv qo'llashlari zarur. Bu, talabalarning ijtimoiy mas'uliyatga bo'lgan yondashuvlarini chuqurroq shakllantirishga yordam beradi.

5. Tahliliy fikrlashni rivojlantirish: Talabalarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun pedagoglar ularning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak. Ularni turli vaziyatlarni chuqur tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga o'rgatish pedagogning muhim vazifasidir.

6. Ijtimoiy hamkorlikni o'rgatish: Pedagoglar talabalarni jamiyat bilan yaqindan hamkorlik qilishga, ijtimoiy faoliyatlarda jamoaviy ishlashga o'rgatishlari zarur. Bu ularda jamoa oldidagi mas'uliyatni tushunish va birgalikda muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

7. Mas'uliyatlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni boshqarish: Pedagoglar talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish orqali talabalarni faol jalb qilishi lozim. Bu loyiha va dasturlar jamiyatning turli sohalariga qaratilgan bo'lishi va talabalarni ijtimoiy mas'uliyatni his qilishlariga yordam berishi kerak.

Xulosa

Xulosa o'rnida talabalarda ijtimoiy mas'uliyatlilikni shakllantirish nafaqat ta'lim jarayonining ajralmas qismi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Pedagogik jihatdan bu jarayonni amaliyotga asoslangan innovatsion metodlar yordamida takomillashtirish lozim. O'zbekiston ta'lim tizimi talabalarda ijtimoiy mas'uliyatlilikni yanada kuchaytirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqishi va ularni amaliyotga tatbiq etishi zarur.⁶⁷ Shu bilan birga, talabalar o'z bilim va tajribalari orqali jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini chuqur anglab yetishlari kerak. Pedagoglarning ijtimoiy mas'uliyatlilikni shakllantirishdagi asosiy vazifasi talabalarni shaxsiy mas'uliyat hissi va fuqarolik burchlarini anglashga o'rgatishdir. Ular o'quv jarayonini turli pedagogik metodlar bilan boyitib, talabalarni real hayotiy vaziyatlarga moslashtirishlari, ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, I. A. (1997). "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li".- Toshkent: O'zbekiston.
2. G'ulomov, S. (2006). "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat".- Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Xodjayeva, G. S. (2007). "Pedagogik tizimlarda ijtimoiy mas'uliyat va uning shakllantirish omillari". - Toshkent: Fan.
4. Sharipov, A. (2010). "Ta'lim tizimida ijtimoiy tarbiya". - Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Rasulov, R. (2015). "Pedagogik nazariya va amaliyotda ijtimoiy mas'uliyat". Samarqand: SamDU.
6. Tursunov, T. (2016). "Ta'limda ijtimoiy mas'uliyatlilik va o'z-o'zini tarbiyalash".- Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
7. Mirziyoev, Sh. M. (2017). "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". - Toshkent: O'zbekiston.
8. Norqobilov, A. (2018). "Ijtimoiy pedagogika asoslari". - Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
9. Xayitov, A. (2019). "Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolik tarbiyasi". - Toshkent: Ma'naviyat.
10. Umarov, I. (2020). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ijtimoiy mas'uliyat". - Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

⁶⁷ Xodjayeva, G. S. (2007). "Pedagogik tizimlarda ijtimoiy mas'uliyat va uning shakllantirish omillari". T.: Fan.

MUSIQA SAVODXONLIGI DARSLARI JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING TARIXIY-NAZARIY ASPEKTLARI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa savodxonligi darslarining tashkil etilishining ilk bosqichlari, kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari, ilk musiqa asboblari va ularning kelib chiqishi haqida yozilgan.*

***Kalit so'z:** musiqa savodxonligi, ilk musiqa asboblari, ilm musiqa ta'limi kelib chiqishi, ibtidoiy jamoa tuzumi.*

***Abstract:** This article discusses the early stages of organizing music literacy lessons, their origins, stages of development, early musical instruments, and the origins of these instruments.*

***Keywords:** music literacy, early musical instruments, origin of music education, primitive communal system.*

Biror bir san'at turi yo'qki, insoniyat rivojlanishi, aqliy salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmagan. Musiqaning ham o'rganilishi va o'rgatilishi uzoq tarixga borib taqaladi. Musiqa insoniyat hali til-u zaboni chiqmasidan oldin muloqot vositasi bo'lgan, – desak mubolag'a bo'lmaydi. Musiqiy asboblarning ilk ko'rinishlari insoniyat sivilizatsiyasi shakllanishi jarayonlari bilan bevosita aloqador bo'lib, eng qadimgi musiqiy asboblarning taxminan 40 000 – 50 000 yil avval paydo bo'lgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davridan topilgan arxeologik buyumlarda ilk musiqiy asboblarning elementlarini ko'rish mumkin. Nafaqat o'zaro muloqot, balki ovchilik, xavsizlikni ta'minlash, chegara daxlsizligi, mehnat qilish jarayonlarida va hordiq chiqarishda ham ko'plab o'ziga xos vazifalarni bajargan. Asosan, ilk insoniyat paydo bo'lgan davrda hayvon terisidan, toshdan urma-zarbli cholg'u asboblari, hayvonlarning shohi va qushlarning suyagidan, damli cholg'u asboblari yasilib, foydalanilgan.

1. Paleolit davri (40 000 – 10 000 yil avval) eng qadimgi musiqiy asboblarning suyak fleytalar bo'lib, ular mamont yoki qushlarning suyaklaridan yasalgan. Xususan, Germaniyaning Shvabiya Albida topilgan fleytalar taxminan 40 000 yil oldin ishlangan ekanligi aniqlangan. Shvabiya Yurasidagi g'orlar va muzlik davri san'ati dunyodagi eng qadimgi tasviriy san'at asarlari va musiqa asboblarning noyob to'plamini o'zida mujassam etgan arxeologik yodgorliklar majmuasidir. [2]

Paleolit davrida odamlar tosh va yog'ochdan ham oddiy ritmik asboblarni yasashgan.

2. Neolit davri (10 000 – 4 000 yil avval) insoniyat tarixida muhim o'zgarishlar davri bo'lib, bu davrda odamlar o'troq turmush tarziga o'tib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshladilar. Bu iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar madaniyat va san'atning rivojlanishiga, jumladan, musiqiy asboblarning paydo bo'lishiga ham turtki berdi.

Dastlabki baraban (qo‘l bilan uriladigan taxta yoki tosh asboblar) va idiofonlar (o‘z tanasining tebranishi orqali tovush chiqaradigan asboblar) paydo bo‘lgan. Cholg‘u asboblari diniy marosimlar va aloqa vositasi sifatida ishlatilgan. Misr, Mesopotamiya va Xitoy madaniyatlarida ilk simli asboblar (arfa, liralar) paydo bo‘lgan.

3. Mis davri (mil. avv. 4000 – 3300 yillar) ushbu davr insoniyat hayotida tosh asboblardan mis asboblarga o‘tish davr bo‘lib, asosan mis barabanlar – marosim va tantanalarda ishlatilgan. Oddiy mis naylar va shoxlar – Sharqiy Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan. Idiofonlar (qo‘l bilan uriladigan mis plitalar) – Misr va Mesopotamiyada diniy marosimlarda ishlatilgan.

4. Bronza davri (mil. avv. 3300 – 1200 yillar) bu davrda metallar (bronza, mis) ishlov berish imkoniyati oshgani sababli musiqiy asboblar yanada murakkablashgan. Bronza barabanlar – Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan, bronza naylar va trubalar – Sharqiy Yevropa va Osiyoda diniy va harbiy marosimlarda ishlatilgan. Liralar va arfalar – Yaqin Sharq, Misr va Gretsiyada ishlab chiqilgan. Qo‘ng‘iroqlar – Marosim va diniy maqsadlarda qo‘llanilgan. Mis fleytalar va shoxlar Skandinaviya va Yaqin Sharqdan topilgan. [3]

5. Temir davri (mil. avv. 1200 – mil. avv. 500 yillar) temir asboblarni ishlab chiqarish rivojlanishi bilan musiqa asboblari ham mustahkamroq va murakkabroq shaklga ega bo‘ldi. Temir qo‘ng‘iroqlar va barabanlar – Harbiy va diniy maqsadlarda ishlatilgan, temir nay va trubalar – Rim va Kelt madaniyatida keng tarqalgan, simli asboblarning rivojlanishi – Liralar, arfalar va sitar kabi asboblar mustahkamroq bo‘ldi.

Har bir davrda musiqa asboblari tabiiy materiallardan (suyak, yog‘och) metall (bronza, mis, temir) va murakkab konstruksiyalarga o‘tgan. Milodiy asr kirib kelishi bilan diniy qarashlarning o‘zgarishi, rivojlanishi musiqani cherkovga, muqaddas bitiklarni kuylash va insonlarga hamdardlik uchun birlashtirdi. Bu davrlarda insonlar musiqa-ni faqat cherkovda eshitishgan to klassik davr boshlamaguncha. Asosan klassik davr-ni ulug‘lashimizning ham sababi, kompozitorlar endilikda faqat cherkov uchun emas, balki cherkovda tashqarida ham aytiladigan, eshitaladigan ommaviy musiqalar yarata boshlashgani bilan ajralib turadi. Romantizm, impressionizm, modernizm, postmodernizm, minimalizm, avangardizm kabi ko‘plab davrlarga ajralib, jamiyatning kayfiyati va qiyinchiliklarini ifodalashda o‘rni beqiyosdir. Texnologiyaning rivojlanishi bilan musiqa nafaqat diniy marosim va harbiy maqsadlarda, balki san‘at va madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Insoniyat rivojlanishi, aqliy salohiyatining o‘sishi maishiy hayotiga ham birmuncha yengilliklar olib kela boshladi. Keyinchalik san‘at, madaniyat ham yuqori elita qatlam tushunadigan sohaga aylandi. Musiqiy biror-bir cholg‘u asbobida chala olish, bu insonning mansabi, darajasidan darak beradigan belgiga aylandi. Jamiyatning siyosiy va ijtimoiy hayotida ham musiqa, san‘at orqali insonlar o‘z irodasini, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashga harakat qilishgan. San‘at orqali o‘zlarining shavqatsiz dunyoga isyonlarini bildirishgan, ijod qilishgan.

Musiqa – inson his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o‘ziga hos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg‘ulariga faol ta’sir etadi. Musiqa ham fan, ham san‘atdir.[3]

Musiqa fanining o‘qitilishi orqali yosh bola qanday ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

1. **Bolaning intellektual rivojlanishi** – Musiqa mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, matematik qobiliyat va til o‘rganishga ijobiy ta’sir qiladi.

2. **Ijtimoiy ko‘nikmalar** – Jamoa bo‘lib kuylash yoki cholg‘u asboblarda chalish bolalarda hamkorlik, muloqot va hurmat hissini rivojlantiradi.

3. **Ijodiy fikrlash** – Musiqa o‘qitish o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirib, o‘z ifoda vositalarini topishga yordam beradi.

4. **Emotsional rivojlanish** – Musiqa kayfiyatni boshqarishga yordam beradi, stress va tashvishlarni kamaytiradi.

5. **Madaniy merosni o‘rganish** – Musiqa milliy va jahon madaniyatini anglashga yordam beradi, milliy o‘ziga xoslikni shakllantiradi.

6. **Eshitish va eslab qolish qobiliyatini oshirish** – Musiqa mashg‘ulotlari eshitish sezgirligini oshirib, diqqatni jamlash va xotirani mustahkamlashga yordam beradi.

7. **Intizom va mehnatsevarlikni shakllantirish** – Cholg‘u asboblarda chalishni o‘rganish va doimiy mashq qilish sabr-toqat hamda mehnatsevarlikni rivojlantiradi.

Umuman olganda, musiqa ta’limi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, aqliy va hissiy salohiyatining oshishiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Caves and Ice Age Art in the Swabian Jura - UNESCO World Heritage Centre
2. Archaeologists discover and replicate earliest musical instrument in the Middle East | The Times of Israel
3. Asafyev B.V. muzikalnaya forma kak protsess. L.: Gusud. Muz.izd.,1973g., -24str
4. Malika Xudaybergenova O‘zbekiston ta’lim tizimida musiqa o‘qitishning shakllanish bosqichlari va tavsifi. 2024/10/15. News of the NUUZ [PDF]journalsnuu.uz
5. Malika Xudaybergenova O‘zbekistonda musiqa savodxonligi darslari samaradorligini oshirishda Finlyandiya tajribasidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari. 2024/12/20 Nordic_Press

Nigina Xakimova,
O'zDSMI 2-bosqich tayanch doktoranti

O'ZBEK MILLIY QO'G'IRCHOQ TEATRI REPERTUARINING ASOSIY XUSUSIYATLARI.

***Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining spektakllari, rejissyor-rassom-bastakor ijodiy hamkorligi va so'nggi 25 yillik repertuari bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyati haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** qo'g'irchoq teatri, spektakl, qo'g'irchoqlar, repertuar, rejissyor, rassom, bastakor, xoreograf, mavzu, janr.*

***Annotation:** This scientific article describes the creative activities of the Uzbek National Puppet Theater related to performances, creative collaboration of the director-artist-composer and the repertoire of the last 25 years.*

***Keywords:** puppet theater, performance, puppets, repertoire, director, artist, composer, choreographer, theme, genre.*

Muhsin Qodirov va Sarvinoz Qodirova hammuallifligida yaratilgan “Qo'g'irchoq teatri tarixi” nomli o'quv qo'llanmada Respublika qo'g'irchoq teatri ijodiy faoliyati viloyat qo'g'irchoq teatrlari ijodiy faoliyati bilan birga tahlil qilinadi. Ammo bizning tadqiqot obyektimiz O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri ekanligini inobatga olib, faqatgina mazkur teatrga oid ilmiy qarashlarni chuqur o'rgandik va mazkur o'quv qo'llanmada Respublika qo'g'irchoq teatri ijodiy faoliyatining 2000-yilgacha bo'lgan davri batafsil o'rganilgan. S.Qodirova bilan bo'lgan suhbat natijasida, 2000-yildan keyin qo'g'irchoq teatri ijodiy faoliyati to'liq o'rganilmaganligi aniqlandi. Shu sababli oxirgi 25-yillik tarixni chuqur o'rganish, ya'ni yaratilgan spektakllar ketma-ketligini aniqlash, rejissyor va rassomlarning ijodiy hamkorligi va aktyorlar ijodiy faoliyati ustida tadqiqot olib borish ilmiy ishimizning asosiy vazifasidir. Shuningdek, keyingi tadqiqot izlanishlarimizni O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatrining arxivini o'rganish, ijodiy bo'lim xodimlari bilan suhbatlar olib borish bilan davom ettiramiz.

Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, 2000-yilda rejissyor I.Yakubov va rassom V.Akudin hamkorligida Y.Shvartsning “Zolushka” va Isfandiyorning “Temirchi va Malika haqidagi ertak” spektakllari qayta sahnalashtiriladi. Undan tashqari, sahnalashtiruvchi rejissyor Y.To'ychiyev va sahnalashtiruvchi rassom N.Yuldashevalarning debyut spektakli – “Gul va Tazolan” (E.Chernyak, B.Gilodi) spektakli sahna yuzini ko'radi.

2000-yilda teatrga Sh.Yusupov bosh rejissyor lavozimiga qaytib keladi. Ikki yil muddat ichida Sh.Yusupov “Issumbosi” (N.Normatov, Sh.Yusupov), “Qor malikasi” (E.Shvarts), “Ollovuddinining sehrli chirog'i” (X.Imonberdiyev), “Qirg'iycha” (I. va Y.Zlatopolskiylar), “Chodir jamol” (D.Yuldasheva), “Ur, to'qmoq” (S.Preobrajenskiy) va “O'n ikki oy” (S.Marshak) spektakllarini qayta sahnalashtiradi.

2001-yilda esa Alisher Navoiyning 560-yilligi munosabati bilan “Lison ut-tayr” dostoni asosida yaratilgan X.Rasul qalamiga mansub “Qush tili” spektakli sahna yuzini

ko‘radi. Sahnalashtiruvchi rassom V.Akudinning yaratgan yorqin obrazlari spektaklga jilo baxsh etadi. “Lison ut-tayr” dostoni hajman 193 bob, 3666 baytdan iborat bo‘lib, mazkur spektakl dostonning asosiy qismi bo‘lgan 14-bobni o‘z ichiga oladi. Ya’ni, asar Xudxud boshchiligidagi qushlarning Simurg‘ tomon yo‘lga chiqishi va yo‘ldagi turfa voqealar haqida hikoya qiladi. Asardagi falsafiylik va haqqa intilishdagi hususiyatlar nafaqat yosh tomoshabinlar uchun, balki yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan tomoshabinlar uchun ham ahamiyatligini yo‘qotmaydi.

2002-yil esa teatr faoliyatidagi sermahsul yillardan biri edi. Bu yilda adabiy bo‘lim mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan, shunga qaramay bir necha spektakllarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilib, ba’zi spektakllarning muallifi ham bo‘lib ulgurgan Dinara Yuldasheva o‘zini sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida namoyon qiladi. Uning debyut bo‘lsa-da, katta muvaffaqiyatlar qozongan asari Hans Kristian Andersenning “Gugurt ko‘targan qiz” ertagi asosida yaratilgan va sahnalashtiruvchi rassom S.Seduxin bilan hamkorlikdagi – “Yana Andersen” spektakli edi. V.Suteyev bilan hammualliflikda yaratilgan rus tilida sahnalashtirilgan “Miyovlagan kim bo‘ldi?” asari ham D.Yuldashevaning jajji bolajonlar uchun yaratgan yorqin spektakllaridan biri edi. Ayniqsa spektakl tomosha qilayotgan jajji bolajonlar sahnalashtiruvchi rassom Nodira Yuldashevaning yaratgan yorqin obrazlari orqali kuchukcha, mushukcha, sichqoncha, xo‘rozvoy va qurbaqa obrazlari orqali hayvonot dunyosi bilan yaqindan tanishadilar.

Mazkur yili Dinara Yuldasheva o‘z qalamiga mansub “Ofarin qo‘g‘irchoqlar” spektaklini aktrisa Elya Lebedinskaya bilan birgalikda sahnalashtiradi. Ushbu spektaklda rejissyor rassomlar V.Akudin va N.Yuldashevalar bilan birga ishlaydi. Undan tashqari D.Yuldasheva tomonidan “Oltin jo‘ja” (V.Orlov), aktrisa M.Igamnazarova tomonidan esa “Oshpaz beo‘xshov burun (Карлик нос)” spektakllari qayta sahnalashtiriladi.

2002-yildan teatrda respublikamizda ko‘plab qo‘g‘irchoqbozlarning ustozlari, taniqli pedagog Maryam Ashurova bosh rejissyor etib tayinlanadi. U o‘zini rejissyorlikda sinab, viloyat qo‘g‘irchoq teatrlarida qator pyesalarni muvaffaqiyatli ravishda sahnalashtirib kelgan edi. M.Ashurova Respublika qo‘g‘irchoq teatrini milliy va sharq buyoqlariga yo‘g‘rilgan asarlar bilan boyitishga harakat qildi. Bu fikrimizga misol qilib, “Shum bolaning sarguzashtlari” (2003), “Sehrlangan shaxzoda” (2004), “Sindbodning sayohati” (2005) spektakllari va “Assalom, Navro‘z!” (2003) qo‘g‘irchoqlar konserti kabi sahna asarlarini keltirish mumkin. Ayniqsa rejissyorning «Assalom, Navro‘z!» qo‘g‘irchoq konserti Misrda va Karachida bo‘lib o‘tgan festivallarda qatnashib xorijlik tomoshabinlarning ham olqishlariga sazovor bo‘ldi. Bu davrda yuz bergan yana diqqatga molik voqelik D.Yuldasheva sahnalashtirgan «Yana Andersen» spektakli Moskva shahrida o‘tkaziladigan qo‘g‘irchoqbozlar festivalida ishtirok etib, o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri zamonaviy talablarga javob berishini amalda isbot qilib keldi.

2006-2008 yillarda teatrda bosh rejissyor etib Fatxulla Xodjayeov ta‘yinlanadi. Bu yillarda F.Xodjayeov o‘zining “Uch quvnoq dumboqcha” (2006), “Cho‘p qo‘g‘irchoq” (2007) va D.Yuldasheva bilan ijodiy hamkorlikda “Qarsildoq” (2008) spektakllarini sahnalashtiradi.

2008-yilda sahnalashtiruvchi rejissyor D.Yuldasheva tomonidan sahnalashtirilgan “Qizil qalpoqcha” va “Yulduzli bola” spektakllari ham sahna yuzini ko‘rdi.

2009-yil esa teatrda Evelina Aripova bosh rejissyor sifatida keladi va bu yillarda ushbu rejissyor tomonidan “Olovuddinning sehrli chirog‘i” (2009), “Sehrli paqildoq” (2010) spektakllari yaratiladi. Mazkur yillarda sahnalashtiruvchi rejissyorlar M.Fadeyev tomonidan A.S.Pushkinning “Kichik tragediyalari” asarlari asosidagi “Motsart va Saleri” konsert-spektakli (2010), F.Mirzayev tomonidan A.Popeska asari asosida “Quyosh nurchasi” (2011), D.Yuldasheva tomonidan “Ox, bu o‘sha Xo‘ja Nasriddin” (2011) va X.Axunov tomonidan “Qorbobo archasi” spektakllari sahnalashtirildi.

2012-yildan 2015-yilga qadar bosh rejissyor etib, mahoratli aktrisa Shaxzoda Ishmuhammedova ta‘yinlanadi va bu yillarda teatr repertuarini turli xil mavzudagi spektakllar boyitadi.

2012-yilda “Sirli o‘g‘irlik” (sahnalashtiruvchi rejissyor D.Yuldasheva), “Quvnoq arava” (sahnalashtiruvchi rejissyor F.Xodjayev), “Quloqsiz uloqcha” (sahnalashtiruvchi rejissyor X.Axunov), “Oppog‘oy va yetti mittivoy” (sahnalashtiruvchi rejissyor A.Niyozov) spektakllari sahnalashtirilgan bo‘lsa, 2013-yilda “Quyosh nurchasi” va “Sehrli paqildoq” spektakllari o‘zbek tilida qayta sahnalashtirildi. 2014-2015-yillarda “Mittioy” va “O‘jar quyuncha” (sahnalashtiruvchi rejissyor D.Yuldasheva) va “Uchar kavush” (sahnalashtiruvchi rejissyor Sh.Ishmuhammedova) spektakllari teatr repertuaridan o‘rin egalladi.

2016-yil teatr repertuarini boyitgan yangi asarlar sahnalashtiruvchi rejissyorlar D. Yuldashevaning “Quyosh va qor odamchalar” va X.Axunovning “Qor malikasi” spektakllari edi.

Xotam Axunov 2017 va 2018-yillarda teatrda bosh rejissyor etib ta‘yinlanadi va bu yillarda teatr repertuaridan katta yoshdagi tomoshabinlar uchun sahnalashtirilgan asarlar ham o‘rin oladi. D.Yuldasheva tomonidan sahnalashtirilgan “Soya” va Sh.Yusupov tomonidan sahnalashtirilgan “Yurt tumori To‘maris” spektakllari fikrimiz dalilidir. 2018-yili “Yurt tumori To‘maris” spektakli Toshkent shahrida o‘tkazilgan O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrlarining XI an‘anaviy ko‘rik festivalida, “Soya” spektakli esa Rossiyaning Moskva shahrida o‘tkazilgan S.Obrazsov nomidagi IX xalqaro festivalida ishtirok etadi.

Kichik tomoshabinlar uchun esa “Etik kiygan mushuk” (sahnalashtiruvchi rejissyor I.Turdiyeva), “Ofarin qo‘g‘irchoqlar” (sahnalashtiruvchi rejissyor X.Axunov), “Quvnoq sichqoncha” (sahnalashtiruvchi rejissyor D.Yuldasheva) spektakllari yaratildi va jajji bolajonlarga namoyish etildi.

2019-2020 – yillar teatrda bosh rejissyorlik vazifasi Dinara Yuldashevaga yuklatiladi va bu yillarda D.Yuldasheva sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida “Oh, bu o‘sha Xo‘ja Nasriddin” (2019) hamda “Baxt va baxtsizlik” (2019) spektakllarini sahnalashtiradi. Undan tashqari, bu yillarda X.Axunov tomonidan “Bahoroy va Navro‘z” (2019), “Oltin jo‘ja” (2019) asarlari, E.Aripova tomonidan “Yangi yil va tipratikan” (2019), “Masha buvi yopgan bo‘g‘irsoq” (2020) kabi spektakllar jajji tomoshabinlar uchun yaratildi. O‘rta yosh vakillari uchun rejissyorlar Sh.Yusupov tomonidan “O‘n ikki oy” va M.Igamnazarova tomonidan “Kashmir afsonasi” spektakllari 2020-yili sahnalashtiriladi.

2021-yildan to bugungi kunga qadar teatrda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Shomurod Yusupov bosh rejissyor lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. 2021-yil ham

O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrining ijodiy jamoasi faqatgina jajji bolajonlar uchun asarlar yaratish bilan cheklanmay, balki katta yoshdagi tomoshabinlar uchun tarixiy va mumtoz asarlar yaratib, teatr repertuarini boyitib bordi. Bu asarlar Sh.Yusupov boshchiligida yaratilgan “Bahrom va Dilorom”, “Shiroq afsonasi”, “Mayna kitobi yoki vaqt haqida hikoya” va “Qor Malikasi” spektakllari va D.Yuldasheva tomonidan yaratilgan “Laylakcha va qo‘riqchi” va komedik janrda yaratilgan “Aldar ko‘sa” (2022) spektakllari edi.

2022-2023 – yillar sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida E.Aripova ham “O‘tkir shoxli buqacha”, “Ur, to‘qmoq!” va “Pashsha-pashshaoy” (Myxa-Цокотуха) kabi qiziqarli ertak spektakllarga mualliflik qiladi.

2023-yilda yaratilgan eng yirik asar – bu jahon klassik asari bo‘lmish U.Sheks-pirning “Hamlet” tragediyasi bo‘lib, bu asar sahnalashtiruvchi rejissyor Sh.Yusupov tomonidan qo‘g‘irchoq teatri sahnasida, qo‘g‘irchoqlar asosida sahnalashtirildi.

2024-yili Sh.Yusupov o‘zining ijodiy faoliyatini boyitib bordi va “Bukri oshpaz”, “Alvon gul yoki Sohibjamol va maxluq” hamda “Miu nomli mushukcha” spektakllariga mualliflik qildi. D.Yuldasheva ham “Ochko‘z Hasan haqida ertak” nomli milliy asarga qo‘l urdi va o‘smir yoshdagi tomoshabinlarga hayotiy saboq bera oladigan spektaklni taqdim etdi.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo‘lsak, so‘nggi 25 yil ichida sahnalashtirilgan spektakllar – turfa xil mavzular va janrlarda, turli yosh vakillari uchun yaratilib, repertuarining asosiy xususiyatlarini takomillashtirib borishga xizmat qildi. Bu asarlar ichida biz ham milliy, ham zamonaviy, ham mumtoz, ham tarixiy, shu bilan birga ham komediya, ham tragediya janrlarida sahnalashtirilgan asarlarni uchratishimiz mumkin. Ba’zi spektakllarda ertaklar zamonaviylashtirilib, bugungi kun muammolari asar voqealariga singdirilgan bo‘lsa, boshqasida tarixiy navzular o‘zlashtirilgan hamda mumtoz merosni sahnada jonlantirish yo‘lida izlanishlar olib borilgan. Shu bilan birga o‘zbek adabiyoti na‘munalari qatori jahon adabiyotiga ham murojaat qilingan. Ayniqsa katta yoshdagi tomoshabinlar uchun yaratilgan asarlarning teatr repertuarida mavjudligi qo‘g‘irchoq teatri an‘analarini qayta jonlantirdi. Chunki dastlab kattalar uchun mo‘ljallangan qo‘g‘irchoq teatri bolalar teatriga aylanib qolayotgan edi. Shunda ham repertuarining asosiy qismini bolalar uchun mo‘ljallangan spektakllar egallab turibdi. Biroq, teatr ijodkorlari bu bilan cheklanib qolmaydi, balki katta yoshdagi tomoshabinlar uchun ham yaratiladigan asarlar sonini va sifatini oshirib boradilar. Kelgusuda qo‘g‘irchoq teatrida ham kechki seanslar joriy etilib, tomoshabinlar e‘tiboriga “Soya”, “Baxt va baxtsizlik”, “To‘maris”, “Bahrom va Dilorom”, “Shiroq afsonasi” hamda “Hamlet” kabi klassik asarlar havola etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov M. O'zbek an'anaviy teatri - Toshkent: O'zbekiston milliy kutubxonasi nashr., 2010. 468-b.
2. Qodirov M. Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun. I-jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. 528-b.
3. Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri (qayta to'ldirilgan nashr). – Toshkent: San'at, 2022. – 204-b.
4. Qodirov M. Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. - Toshkent: Talqin, 2006. 208-b.
5. O'rinov E. Qo'g'irchoq teatrida repertuar masalasi. //Teatr, 2004, 1 son. №6.
6. Turobova M. O'zbek qo'g'irchoq teatri rejissurasi: an'ana va zamonaviylik tendensiyalar. // O'zDSMI xabarlari, 2024, 1-son.

TEATR SAN’ATINING ILMYIY O‘RGANILISHI

***Annotatsiya.** Maqolada teatr san’atining ilmiy o‘rganilish tarixi, nazariya va amaliyot integratsiyasi masalalari, chop etilayotgan darsliklar, ilmiy asarlar holati, tadqiqotchilar izlanishlari haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** teatr san’ati, antik davr, jadid, yevropa tipidagi teatr, san’atshunos olimlar, ilmiy tadqiqot*

***Abstract.** The article examines the history of scientific study of theatrical art, issues of integration of theory and practice, published textbooks, the state of scientific works, and research studies.*

***Key words:** theatrical art, antiquity, Jadid, European-style theatre, art critic, scientific research*

Jamoaviy san’at turi bo‘lgan teatr san’atining ilmiy o‘rganilishi, nazariya va amaliyot integratsiyasi haqida so‘z yuritish uchun hech bo‘lmaganda ushbu soha tarixiga bir nazar solish kerak.

Har bir xalqning o‘z ijtimoiy yetuklik davri bor, ana shunday “ijtimoiy yetuklik” davriga erisha olgan xalq orasida teatr san’ati shakllanadi. Teatr san’ati - san’atning boshqa turlari, masalan tasviriy san’at (mil.avv. 40-asr), haykaltaroshlik, adabiyot, musiqa kabi sohalar paydo bo‘lgandan so‘ng, miloddan avvalgi V asrda qadimgi Yunonistonda “ijtimoiy yetuklik” vujudga kelishi natijasida paydo bo‘ldi. Teatrni jamoaviy san’at turi deyishimizning sababi shunda-ki, sahnada bir guruh insonlar (ijrochilar) va sahnadan pastda bir guruh insonlar (tomoshabinlar) bo‘lsagina teatr san’ati mavjuddir. Teatr san’ati paydo bo‘lgan vaqtdan unga hamohang tarzda miloddan avvalgi IV-III asrda uning nazariy asoslari rivojlanishi ham Qadimgi Yunoniston va Rim shaharlari bilan bog‘liq tarzda kechadi. Misol uchun qadimgi shoir va dramaturglar ijodini umumlashtiruvchi asosiy nazariy risola Yunonistonda yashab ijod qilgan buyuk faylasuf Arastuga tegishlidir. Uning “Poetika” ilmiy risolasi teatr fanining ilk nazariy asosi hisoblanadi. Risolada aynan dramaturgiya va teatrning mazmuni va maqsadi tadqiq etilgan. Arastu unda dramatik san’atning asosiy badiiy mezonlari “fojia”, “komediya”, “syujet”, “xarakter”, “birlik, yaxlitlik, harakatning to‘liqligi” kabi tushunchalarni berib o‘tadi, “peripeteiya”, “anglash”, “azob chekish” kabi atamalarni kiritadi, drama va sahna san’ati nazariyasining asosiy qoidalarini shakllantiradi. Aynan antik dunyo san’ati Yevropa mamlakatlari san’ati va madaniyatining poydevori hisoblanadi.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida teatr nazariyasi va tarixining paydo bo‘lishi, rivojlanishi Uyg‘onish davri teatr san’atining yuksak darajasi ham antik davr ijodkorlari, faylasuflari, adabiyotchilari bilan bog‘liq. Sahnada san’ati bo‘yicha ilk tarixiy-nazariy asarlar XVI asr oxirida Fransiya, Angliya, Germaniyada paydo bo‘la boshladi. Teatr tarixi va nazariyasini tizimli organish XVII asrda boshlangan, birinchi teatrshunoslik teatr tarixchisi Richard Fleknoye tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u ingliz teatri ta-

rixi va Richard Burbedjaning aktyorlik faoliyati haqida 1664 yilda yozgan. Fransuz teatri tarixi haqida esa birinchi urinish 1674 yilda S.Shapyuzo tomonidan yaratilgan kitob bo'ldi. Fransiyada yashab ijod qilgan L.Rikkobonining asarlari Italiya teatriga bag'ishlangan bo'lib 1736-yilda yozilgan, unda Molyer komediyalari ma'rifatparvarlik estetikasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Ma'rifatparvarlik davrida D.Didro, G.Lessing, I.Gyote dramaturgiya va sahna san'ati haqida ijod qilgan. Faylasuflar o'z ilmiy ishlarida drama nazariyasi va sahna san'ati haqidagi ta'limotni chuqurlashtirib, rivojlantirdilar. XIX-asr teatr tarixi va nazariyasiga rus yozuvchilari va dramaturglari A.Pushkin, N.Gogol, A.Ostrovskiy katta hissa qo'shdilar. Rus teatr tafakkurining rivojlanishida va realistik estetikani shakllantirishda V.Belinskiyning teatr haqidagi maqolalari va bayonotlari alohida ahamiyatga ega edi. Uning eng buyuk aktyorlar ijodi haqidagi maqolalari, butun rus teatrining ahvolini tahlil qilish, drama va aktyorlik nazariyasi muammolarini ishlab chiqish, XIX asr teatri tarixini o'rganishda fundamental asarlar bo'ldi. XIX asr oxiridan teatrshunoslik ilmi adabiyotshunoslikdan ajralib chiqib boshladi. 1902 yilda Berlinda teatr tarixini o'rganish jamiyati tashkil etildi. Zamonaviy teatr fanining asoschisi nemis olimi Maks Herman hisoblanadi. Teatrshunoslik mustaqil fan sifatida XX asrda vujudga keldi. Bu davrda olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlar keng ko'lamli bo'lib, turli mamlakatlar va davrlar teatrining barcha jabhalarini qamrab olgan.

O'zbekiston teatrshunosligi tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, shuni aytish mumkin, XIX asr oxiridayoq ma'rifatparvar shoir Furqat, so'ngra XX asr boshlarida o'zbek ma'rifatparvarlari – jadidlar Yevropa namunasiidagi professional teatr tashkil etishda milliy teatr san'atini yangilash uchun katta imkoniyatlarni ko'rdilar. M. Abdurashidxonov "Turkiston viloyatining gazetasi"ning 1914 yil 3 martdagi "Birinchi milliy teatr" nomli maqolasida yozganidek, ular teatni "ma'naviy poklanish maskani", "dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu" deb bildilar. Jadidlar fikricha jamiyat ongini tarbiyalash va xalq madaniyatini yuksaltirishda teatr hal qiluvchi rol o'ynashi kerak edi. M.Behbudiyning davriy matbuotning "Oyna" jurnalida teatr haqida yozgan "Teatr nadur?" deb nomlangan birinchi jiddiy maqolasi ham juda ahamiyatlidir. Unda muallif teatrning jamiyat hayotidagi o'rni va rolini tushuntiradi, turli janrlarning mohiyati va chegaralari haqida tushuncha beradi, aktyorlik mahoratini ochib berish va dramaturgning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi.

1945-yilda Toshkentda Teatr institutining ochilishi bilan teatrshunos olimlarni jadal tayyorlash boshlandi, bu bilan bevosita teatrshunoslik bo'limi shug'ullandi. O'qituvchilar orasida mashhur san'atshunoslar M. Verxatskiy, A. Efros, M. Grigoryev, teatrshunoslar K. Berezina, A. Rybnik, Ya. Feldmenlar bor edi.

1950-yillarning oxiriga kelib O'zbekiston sahna san'ati hodisalarini o'rganishning metodologiyasi va aniq tarixiy yondashuvini puxta egallagan teatrshunos olimlar guruhi shakllandi. Dramaturgiyaga, teatr tarixiga, aktyorlik san'atiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, dramatik va musiqali dramatik teatrning ajoyib ustalari haqida monografiyalar chop etildi. Teatrshunoslikning shakllanishi va rivojlanishida Toshkent San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida "Teatr va xoreografiya" kafedrasining jamla-

nishi katta ahamiyatga ega bo‘lib, u yerda yosh olimlar milliy teatr tarixi va nazariyasi masalalarini maqsadli ishlab chiqishga kirishdilar.

1957 yilda teatr va rassomchilik instituti bitiruvchilari L.Avdeyeva, V.Dyachenko, O‘zbekiston xalq artisti A.Turdiyevlar mualliflari bo‘lgan “Xamza nomidagi teatr” (Ya. Feldman muharriri) jamoaviy asari nashr etildi. 1960 yilda M. Rahmonovning “Hamza va o‘zbek teatri” kitobi nashr etildi. 60-yillarda teatr instituti dramaturgiya, aktyorlik va rejissyorlik masalalariga bag‘ishlangan “O‘zbekiston teatr san’ati nazariyasi va tarixi masalalari” to‘plamlarini nashr eta boshladi. Moskvada A.Ribnikning 20-asr o‘zbek teatri tarixiga oid maqolalari 6 jildlik nashrda chop etildi.

Dramatik, musiqali-dramatik, balet teatrining ajoyib ustalari haqida: Ya.Feldman “Olim Xo‘jaev” (1963), “Tafakkur ustalari” (1970), L. Avdeyeva “Tamaraxonim” (1956), “Mukarram Turg‘unboyeva” (1959), “Galiya Izmaylova” (1975), “Bernara Karriyeva” (1995), M. Qodirov “Mirshohid Miroqilov” (1970), “Soyib Xo‘jayev” (1973), T. Bayandiyev “Mariya Kuznetsova” (1965), “Zamira Hidoyatova” (1973), S. Tursunboyev “Abbos Bakirov” (1973), M.Raxmonov va T.Silmilshteyn “Shukur Burxonov” (1974), S. Abdullayeva “Tursunoy Jaffarova” (1974), N. Zohidova “Toshxo‘ja Xo‘jaev”, (1980), E. Ismoilova “Manon Uyg‘ur” (1981), O. Rizaev “Nabi Rahimov” (1998), M. M.Hamidova “Karim Zakirov”, O‘.Shokirov, M.Abduqunduzov “Milliy teatrimiz nomoyandalari” (2002) kabi bir qancha monografiyalar va ijodiy chizgilar chop etildi. Bugungi kunda bu ijod namunalari yosh avlodning teatr va kino sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishida qimmatli material bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari bir qancha san‘atshunos olimlarning, xususan M.Rahmonovning “O‘zbek teatri qadimdan 1917-yilgacha”, “O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi (1914-1960-yilgacha)” (2001), M.Qodirovning “O‘zbek xalq teatri” (1970), “Masxaraboz va qiziqchilar san‘ati” (1971), “Xalq qo‘g‘irchoq teatri” (1972), “Tomosha san‘ati o‘tmishda va bugun” (2010), R. Karimovning “Xorazm raqsi” (1975), “Buxoro raqsi” (1978), T.Bayandiyevning “Qoraqalpoq teatri”, I.Muxtarovning “Teatr va uning aktyorlari”. (1989), M. To‘lyaxo‘jaevaning “Режиссура узбекского драматического театра” (1995), “Teatr tanqidchiligi: artist, rejissyor, spektakl” (2015) T. Islomovning “Tarix va sahna” (1998), L. Avdeyevaning “Из истории узбекской национальной хореографии” (2001), M. Raxmanov, I.Muxtorova, M. To‘lyaxo‘jayevalarning “O‘zbek Milliy akademik drama teatri tarixi” (2003), T.Tursunovning “XX asr o‘zbek teatri tarixi”, “Sahna va zamon” (2007), T.Bayandiyevning “San‘at masalalari teatrshunos nigohida” (2009), D.Qodirovning “XX asr o‘zbek teatr ssenografiyasi” (2009), H.Ikromovning “Davr va teatr” (2009), S.Tursunboyevning “Jahon teatri tarixi” (2008), “O‘zbek teatri sarhadlari” (2010), S.Qodirovning “Teatrdagi hayot aksi” (2011), G.Hamroyevaning “Национальный образ танца” (2012) kabi yaratilgan darslik va ilmiy asarlari bugun o‘zbek teatri sohasi izchil ilmiy tadqiq etilayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa mustaqillik yillarida teatr san‘ati ixtisosligi yuzasidan quyidagi mavzularda D.Qodirovning “XX asr o‘zbek teatrida libos va pardoz muammosi” (2002), S.Qodirovning XX asr o‘zbek teatrida komediya san‘ati (shakllanish va taraqqiyot muammolari) (2003), D.Rahmatullayevaning “XX asr o‘zbek dramaturgiyasi va teatr san‘atida tarixiy drama (shakllanish va rivojlanish muammolari)” (2004), M.Ahmetja-

novaning “O‘zbekiston yoshlar teatrlari mustaqillik davrida (yangi davr va uning sahnaviy yechimi)” (2009), D.Qodirovaning “XX asr o‘zbek teatri ssenografiyasi tarkib topishi va rivojlanish jarayonlari” (2010), O.Tojiboyevaning “Markaziy Osiyo teatrlari tarixida xalq eposining o‘rni” (2011), K.Sagdullayevning “Teatr va kommunikativ tizim sifatida” (2018), B.Sangirovning “O‘zbek teatrida etnomadaniy an‘analar talqini” (2019), A.Ismoilovning “Zamonaviy o‘zbek drama teatri rejissurasi taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari (1991-2016 yy.)” (2019), B.Yakubovning “Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991-2016 yy.)” (2019) kabi doktorlik va nomzodlik ishlarining himoya qilinishi nazariya orqali amaliy jarayondagi muammolarni tadqiq qilishda yangi marralarga ko‘tarilayotganligini asoslaydi.

Tabiyki teatr ilmining yaqin kelejakda takomillashuv jarayonlari qay darajada kechishi va bu jarayonlarda davlat siyosatining o‘rni ham muhim. Davlatimiz yurtboshi bugungi kunda aynan madaniyat va san‘at masalalariga alohida e‘tibor qaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning 2024-yil 22-noyabrda gi “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-399-sonli qarori 11-bandida ham teatrlar faoliyatiga tahliliy baho berish va teatr tanqidchiligini rag‘batlantirish maqsadida, teatrshunoslik va san‘atshunoslik yo‘nalishi doktorantlari hamda professor-o‘qituvchilarning har oyda kamida ikkita spektakl tomosha qilish va har chorakda kamida bir marotaba yangi spektakl ko‘rigi va muhokamasida ishtirok etish, har bir teatrga teatr tanqidchilari sifatida teatrshunos, san‘atshunos, dramaturglarni jalb etish kabi muhim tadbirlar belgilab berildi. Bu jarayonlar aynan teatr sohasida nazariya va amaliyot integratsiyasi mexanizmi yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Nazariya va amaliyotning birlashuvi davlat teatrlarining bugungi zamonaviy va tez o‘zgarib borayotgan zamonda aholining madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish va ma‘naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilib borish vazifasini tadqiqotchilar zimmasiga yuklaydi. Ular o‘z tadqiqot ishlari yordamida jamiyatdagi real muammolarni hal qilish yo‘lida yechim bera oladigan, hamda o‘z takliflarini amaliyotga tadbiriq qilish orqali o‘zbek teatr san‘atining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta‘minlaydigan darajaga erishadigan kuchga aylanishi maqsad qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursunov T. Yigirmanchi yillar o‘zbek teatri // XX asr o‘zbek teatri tarixi. T.: “ART PRESS” Co.Ltd kompaniyasi nashriyoti, 2010-y. 158-169 b.
2. To‘laxodjayeva M. Вопросы театроведческой науки Узбекистана // O‘zDSMI xabarlari. T.: “Xalq Nashriyoti” bosmaxonasi, 2024 - y. 2-son, 7-9 b.
3. To‘laxodjayeva M. Teatr tanqidchiligi artist, rejissyor, spektakl // T.: “San‘at” jurnali nashriyoti, 2015-y. 357-358 b.
4. <https://lex.uz/uz/>
5. <https://gufo.me/dict/bse/> “Театроведение”

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARIDA TARBIYAVIY MUNOSABATLAR VA O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHGA OID QARASHLARNING E‘TIQODIY, MA‘NAVIY AXLOQIY NEGIZLARI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik ta’lim muassasalari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining intellektual va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda sharqona tarbiyaning o‘rni haqida fikr yuritilgan. Yoshlarning ma’naviy va axloqiy barkamol shaxs bo‘lishlarida buyuk mutafakkirlarimiz asarlarining ahamiyati to‘laqonli ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** intellektual, kreativ, mantiqiy tahlil, tanqidiy fikrlash, infografika, kasbiy rivojlanish, ilmiy salohiyat, startup loyiha, sun‘iy intellekt, kritik.*

***Annotation:** This article discusses the role of Eastern education in developing the intellectual and creative thinking skills of students in the primary education program of pedagogical institutions. It emphasizes the significance of the works of great thinkers in shaping the spiritual and moral development of youth.*

***Keywords:** intellectual, creative, logical analysis, critical thinking, infographics, professional development, scientific potential, startup project, artificial intelligence, critical.*

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta’minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorlash darajasi, salohiyati va ahamiyati jihatidan ham muhim hisoblanadi. Talabalarning tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang‘ich ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

Zero yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoev ta’kidlaganlaridek “Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog‘chalar, maktablar, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, “Temurbeklar maktabi”, “Prezident maktablari”, “Ijod maktablari” deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta’lim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda”.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasini rivojlantirishga qaratilganligi hech birimizga sir emas. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshiga xos psixo-fiziologik jihatlarini hisobga olgan holda ularda umuminsoniy qadriyatlar va barkamol ma’naviyatni, sog‘lom muhitni chuqur singdirish, o‘quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik ru-

hida tarbiyalash, umumta'lim muassasalarida tasarrufidagi ma'naviy va tarbiyaviy ish-larni yangicha ko'rinishda tashkil etishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi qarorga muvofiq umumta'lim muassasalarida "Vatan tuyg'usi", "Odob-noma", "Dunyo dinlari tarixi" hamda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanlarini birlashtirib yagona "Tarbiya" fani 1-9-sinf o'quvchilarida, 2020-2021 o'quv yilidan boshlab, 10-11-sinf o'quvchilarida esa 2021-2022 o'quv yilidan boshlab o'quv soatlariga ajratilgan asosiy soatlar doirasida ketma-ketlikda amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Izlanishlarimiz jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" fa-nini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Tarbiya azal-azaldan millatimizga, ongimizga, qalbimizga singib kelgan, millatimizning o'ziga xosligini ko'rsatib beradigan, o'zbek oilalarining boshqa millat oilalaridan ajratib turadigan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan sifatlardan biri sanaladi. Millatimizga xos bo'lgan hech bir jarayon yo'qki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmagan. Shu o'rinda pedagog va psixolog olimlar, xalq namoyondalari Sharq mutafakkirlari, yozuvchi va shoirlar, qo'yingki tadqiqot ishimizga aloqador bo'lgan adabiyotlarning aksariyati bilan tanishib chiqildi. Mavjud adabiyotlarning bir qismi o'rganilib, tahlil qilindi.

Eng avvalo, "Tarbiya" faniga to'xtalishdan oldin tarbiya tushunchasining o'zini bayon qilish lozim.

Tarbiya - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, yoshlarda halollik, poklik, burch, vijdon, olijanoblik, fidoyilik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Tarbiya insonlarning o'ziga, oilasiga, yaqinlariga, do'stu yorlariga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib tura-digan xulq-atvor me'yorlarining (normalarining) majmuasidir. Tarbiya keng qamrov-li tushuncha sifatida inson faoliyatining hamma jabhalariga ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya hamma soha - ishlab chiqarishda, turmushda, oilada, bo'sh vaqtda ham kishilar xulq-atvorini, insoniy munosabatlarini tartibga soladi. Tarbiya ijtimoiy ongning boshqa shakl-laridan farq qilib, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy vazifalarni bajaradi. Ma'lumki, tarbiya tushunchasi tor va keng ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'nodagi "tarbiya" subyekt tomonidan shaxsda muayyan qarashlar, tasavvurlar, me'yorlar, tushunchalar va boshqa shu kabilarni qaror toptirish maqsadida yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Bunda tarbiyaviy ta'sir jarayonining reja asosida olib borilishi va aniq maqsadga qaratilganiga urg'u beriladi. Keng ma'nodagi "tarbiya" tushunchasida esa insonning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy aloqalarning butun boshli tizimi nazarda tutiladi. Fikrimizcha, o'quvchilarni jamiyat a'zosi sifatida shakllantirishga qaratilgan tarbiyani ijtimoiylashtirish, deyilsa mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlashning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyati-miz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarlash uchun birinchi gal-da xalq og'zaki ijodi, xalq ertaklari, hikoyalar, afsonalar, ajdodlarimizning ma'naviy merosi hamda tarixiy kitoblar asosiy o'rin tutadi. Bundan tashqari Sharq mutafakkir-

larining me'rosi, she'r va g'azallari, badiiy ijod namunalari dasturilamal bo'lib hizmat qiladi. Ahmad Yassaviy, Bahovuddin NAQSHbandiy, Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Amur Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari allomalarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta'limiy qarashlariga tayanib ish ko'rilsa, talabalarning tarbiyaviy ishlari jarayonini rivojlantirish ishlari yanada mukammallik kasb etadi.

Ta'lim tarbiya tizimi jadal rivojlanayotgan ushbu davrda ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma'naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim sanaladi. IX-XII asrlarda faoliyat olib borgan Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, ma'naviy-pedagogik meros kelajak avlodni tarbiyaviy jihatdan rivojlantirishda muhimdir. Zero, ular tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar, ma'naviy meros, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari, g'oyalari, ularning didaktik asarlari yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida shakllantirish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga hizmat qiladi. Chunki, IX-XII asrlarda izlanishlar olib borgan Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosida inson odobi, tarbiyasi, vijdoni, iymon-e'tiqodi, oila, farzand tarbiyasi masalalari nazariy jihatdan acoslab berilgan. Ularning tarbiyaviy qadriyatlari va didaktik asarlari bugungi kunda ham yoshlar ta'lim-tarbiyasiga samarali hissa qo'shib kelmoqda. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida yosh avlodni shakllantirishda ulug' allomalarimizning didaktik merosidan foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Biz musulmon dini haqida gapirganda avvalo, Alloh va Uning Rasulini, o'zimizga ruhan yaqin bo'lgan ulug' allomalarimiz, ulug' imomlarimizni tasavvur qilamiz. Mana shu qutlug' zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom dunyosi cheksiz hurmat bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Baxouddin NAQSHband, Axmad Yassaviy, Abdulxolik G'ijduvoni, Zamaxshariy kabi piru komillarimizni nazarda tutamiz. Kim bu haqiqatni inkor eta oladi?"

Biz mustaqilligimizga erishgan kunimizning dastlabki kunlaridan boshlab shu ulug' ajdodlarimizning muborak nomlarini tiklashga kirishdik? Chunki bu buyuk insonlarning aziz nomlari, o'lmas merosi muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmasligini bilamiz. Biz ushbu mutafakkirlarimizning buyuk merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham baxramand bo'lishiga, ularning shunday ma'naviyatga boy muhitda ulg'ayishiga, islom dinining insonparvarlik g'oyasi, buyuk g'oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqdamiz".

Mutafakkirlar nafaqat o'z davri, balki bugungi kundagi dunyo fani hamda madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar. Nazariy bilimlar hamda tajribalarni Sharq mutafakkirlarining ilmiy ta'limotlari va milliy pedagogik merosi asosida shakllantirish ta'lim jarayonida samaradorlikka erishish imkonini beradi. Sharq allomalari tomonidan qoldirilgan ma'rifat, madaniyat va ma'naviyatni bugungi yosh avlodga o'rgatishning yo'llari, vositalari, shakllari va metodik ta'minotini ishlab chiqish lozim. Buyuk mutafakkirlarning komil inson, barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid fikrlari milliy kamolotning bugungi va ertangi kunning istiqbollari ta'minlashga qaratilgan.

Shaxs ta'lim-tarbiyasi masalasi insoniyat vujudga kelishi bilan birga paydo bo'lib, usiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham shakllanmaydi, tarakqiy etmaydi, faoliyat ko'rsata olmaydi. Ta'lim-tarbiya vositasida butun insoniyat, ayniqsa yoshlarning ma'naviy barkamolligi shakllanadi. Shuningdek, shaxs dunyoqarashi, e'tiqodi, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatlilik kabi shaxsiy sifatlari aynan ta'lim-tarbiya asosida shakllantiriladi. Shu nuqtai nazardan Sharqona ta'lim-tarbiya milliy qadriyat hisoblanadi. Mazkur qadriyat vositasida yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Xulosa

Yosh avlodning ongi, dunyoqarashi, ma'naviyati, madaniyatini shakllantiruvchi ta'lim-tarbiya azal-azaldan o'zbek xalqi tinchligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Shuning uchun, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Sharq mutafakkirlari hayoti, faoliyati, ijodi bilan tanishtirish, ularning shaxs ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ta'limotlari, yondashuvlaridan foydalanish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. O'sib kelayotgan yoshlarning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishlari uchun mamlakatimiz ta'lim muassasalarida yangi o'quv jihozlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanishi hukumatimizning bu sohaga alohida e'tibor qaratayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilganligi kelajak avlod uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son qarori/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 422-son qarori
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, 49-bet.
4. Novshadbekova, D. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlashni takomillashtirish. Science and innovation, 1(B6), 202-205-b

OLIIY TA’LIMDAN KEYINGI TA’LIMDA MUSTAQIL IZLANUVCHILAR DUCH KELADIGAN AYRIM QIYINCHILIKLAR

***Anotatsiya:** So‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab oliy ta‘lim muassasalarida o‘qiyotgan talabalar soni sezilarli darajada o‘ydi. Shu jumladan O‘zbekistonda, doktorantura talabalarining sonining keskin o‘sishi va ularning, ayniqsa to‘liq vaqtda ish bilan shug‘ullanuvchi “mustaqil izlanuvchi” talabalar duch keladigan qiyinchiliklarni tadqiq etadi*

***Kalit so‘zlar:** Oliy ta‘lim, PhD talabalari, interpretativ fenomenologiya, sifatli tadqiqot, mustaqil izlanuvchi.*

***Abstract:** In recent years, the number of students in higher education institutions worldwide has increased significantly. This includes Uzbekistan, where the study investigates the sharp rise in doctoral (PhD) students and the challenges faced by those who work full-time, referred to as “independent researchers.”*

***Keywords:** Higher education, PhD students, interpretive phenomenology, qualitative research, independent researcher.*

So‘nggi yillarda, ayniqsa O‘zbekiston universitet talabalarining soni sezilarli darajada o‘ydi. Xuddi shu tendensiya butun dunyo bo‘ylab ham kuzatilmoqda va universitetlarda o‘qiyotgan talabalar soni ortib bormoqda. Bu borada Temel va boshqa olimlarning fikriga ko‘ra doktorantura ta‘limiga bo‘lgan talabning sezilarli darajada o‘sganligini ta‘kidlaydi [1]. Bugungi kunda falsafa doktori (PhD) ta‘limida o‘qiyotgan va uni tamomlaganlar soni butun dunyo bo‘ylab keskin ko‘tarilmoqda [2]. Masalan, Xitoyda 1983-yildan 2003-yilgacha bo‘lgan 20 yil ichida doktorantura talabalarining soni birinchi doktorlik darajasi berilganidan keyin 18 dan 188,000 gacha oshdi [3]. Yevropa Ittifoqi (EU) davlatlari har yili taxminan 100,000 doktorantura bitiruvchisini tayyorlaydi, AQSH esa har yili 53,000 ga yaqin doktorantura bitiruvchisini tayyorlaydi [4]. Shunday qilib, doktorantura ta‘limi oliy ta‘lim muassasalarida katta ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 22-maydagi 304-son qarorida keltirilgan: **Mustaqil izlanuvchilik** — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da‘vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim shakli ekanligi ta‘kidlab o‘tilgan[5]. Mustaqil izlanuvchi atamasiga berilgan ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki ushbu yo‘nalishda ta‘lim olayotgan doktorantlar bir vaqtning o‘zida ham ish faoliyatini hamda ilmiy tadqiqot ishlarini baravar olib borishlariga to‘g‘ri keladi.

PhD talabalarining sifati ularning soni qanchalik muhimligi bilan tengdir. So‘nggi yillarda PhD bitiruvchilarining ko‘payishi bilan bir qatorda, davlatlar ushbu shaxs-

larni xalqaro raqobatbardoshlik va bilim-iqtisodni rivojlantirishda foydalanishmoqda. Shuningdek, universitetlar PhD talabalarining ta'limni tashlab ketmasliklari va vaqtlarida tamomlashlari uchun siyosatlar ustuvorligini belgilashganlar. Shu munosabat bilan, Déri va Tremblay-Wragg butun sohalarda dunyo bo'ylab o'rtacha doktorlik ta'lim tashlab ketish darajasi 50% ekanligini xabar qilishadi [6]. Karyera, oila va akademik muammolar PhD talabalarining tadqiqot olib borish jarayonida ularga katta ta'sir etishi mumkin [7]. Mawson va Abbottning tadqiqotiga ko'ra, ko'plab doktortarantlar o'z ta'limlari bilan birga professional karyeralarni davom ettirmoqda [8]. Buning sababi oliy ta'lim bitiruvchilari uchun taqdim etiladigan imkoniyatlar, masalan, yaxshiroq daromad, yuqori maqom va kengroq ish imkoniyatlari bilan bog'liq [9]. Shunday qilib, mustaqil izlanuvchi PhD talabalar bugungi kunda yangi tendentsiyadir.

Mackie va Bates kabi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra doktorlik ta'lim shaxslar uchun qiyin va stressli bo'lishi mumkin chunki doktorantura ta'limi talabalaridan ijodiy va tanqidiy fikrlash, tadqiqot usullaridan foydalanish, chet tillarini yaxshi bilish, muammolarga ratsional yechimlar taklif qilish, yuqori sifatli akademik tadqiqotlar olib borish va dissertatsiya orqali insoniyatga muhim hissa qo'shish zaruratini talab qiladi [10]. Shu bilan birga, mustaqil izlanuvchi PhD talabalariga qo'shimcha yuk va qiyinchiliklar keltiradi. Buning natijasi doktorlik ta'limga salbiy ta'sir etishi aniqdir.

Mustaqil izlanuvchilar uchun doktorantura ta'limi katta moliyaviy va ma'naviy qiyinchiliklar keltiradi. Natijada, talabalar va oliy ta'lim muassasalari uchun muammolar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, Tekneci PhD talabalarining universitetni tashlab ketish tendentsiyasi oliy ta'lim muassasalari va tadqiqotchilar uchun muhim muammo ekanligini aytadi [11]. Mustaqil izlanuvchilarning ta'limni tamomlamasligi sabablariga oid turli gipotezalar keltirilishi mumkin, masalan, iqtisodiy tashvishlar tufayli ta'limni tashlab, ishga o'tish yoki ish bilan bog'liq muammolarga chiday olmagan holda doktorlik ta'limni davom ettira olmaslik. Biroq, bugungi kunda ishlaydigan shaxslarning doktorlik ta'limini olishi ko'payishi bu muammoni tekshirish zaruratini bildiradi.

Mustaqil izlanuvchilarning ta'lim jarayonlarini yaxshilash va ularning muammolarini kamaytirish uchun turli takliflar mavjud. Mustaqil izlanuvchilarning ta'limini rag'batlantirish uchun institutsional siyosatlar tavsiya etiladi [12]. Boshqa tomondan, bugungi oliy ta'lim tizimida tadqiqot natijalariga juda katta e'tibor qaratilishi sababli tadqiqot tushunchasi "tadqiqot olib borish"dan "maqolalar yaratish"ga o'zgargan [13]. Shuning uchun, institutsional siyosatlar muvozanatli ravishda amalga oshirilishi kerak.

Doktorlik talabalarining muammolari ancha kamayadi, agar ular o'zlarini ilmiy jamoaga mansub his qilsalar [14]. Shu munosabat bilan, doktorlik talabalariga fakultet tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlash, yuqori sifatli rahbarlik munosabatlari va tajribali maslahatchilar bilan ishlashlarida hissiy charchashishlarni kamaytiradi [15]. Doktorlik talabalariga qiymat beradigan tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali hamda turli imkoniyatlar yaratadigan ilmiy jamoalar bilan ishlash doktorlik talabalarining muammolarini kamaytiradi. Shuningdek, institutsional darajada doktorlik talabalarining muammolarini oldini olish uchun sharoit zarur deb hisoblanadi. Doktorantura talabalarining farovonligini maksimal darajada ta'minlash doktorlik ta'limini yaxshilashning yana bir muhim elementidir. Shunga o'xshab, Waight va Giordano doktorantura talabalarining

ta'lim muammolarini kamaytirishda ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ta'kidlaydilar [16]. Umumiy olganda, tadqiqot akademik va akademik bo'lmagan qo'llab-quvvatlashning doktorlik ta'limidagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Bugungi dunyoda doktoranturada ta'lim olish jarayoni talabalar uchun qiyin bo'lib, ular nafaqat ta'limga e'tibor qaratgan holda bu jarayonni davom ettirishga majbur balki, talabalar faol ishlaydigan ish joylari ham ularning doktorantura ta'limiga ta'sir qiladi, chunki bu ularning vaqt va energiyasining katta qismini. Doktorantura talabalari o'z sohalari bo'yicha mamlakatlar kelajagini shakllantirishda juda muhim rol o'ynaganligi sababli, ularning ta'limiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish uchun mas'ul institutlar va tashkilotlar tomonidan tegishli choralar ko'rish va mumkin bo'lgan qonuniy tartiblarni amalga oshirish haqida tushuntirishlar berilishi kerak. Bu tadqiqot ham doktorantura talabalari uchun bu masala bo'yicha ongni oshirish, ham siyosatchilar uchun ehtiyot choralari ko'rishda yordam beradi. Whittington va Barnes dunyoning turli mamlakatlarida doktorantura ta'limi bo'yicha turli tendentsiyalar paydo bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [17]. O'zbekistonda, ko'pgina mamlakatlarda bo'lgani kabi, to'liq vaqtda ishlaydigan mustaqil izlanuvchi tadqiqotchilarning soni ortib borayotganligi sababli, bu tadqiqot doktorantura talabalari tomonidan boshdan kechirilgan muammolarni aniqlash va ularga yechimlar taklif qilish uchun juda muhimdir.

Shunday qilib, ushbu maqola to'liq vaqtda ishlaydigan mustaqil izlanuvchi talabalarining doktorantura ta'limida duch keladigan qiyinchiliklari haqidagi fikrlarini o'rganishni maqsad qilgan. Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqotning muammolari quyidagilardan iborat:

- To'liq vaqtda ishlaydigan mustaqil izlanuvchilar doktorantura ta'limi davrida qanday qiyinchiliklarga duch keladi?
- To'liq vaqtda ishlaydigan mustaqil izlanuvchilarning ish joylari ularning doktorantura ta'limiga qanday ta'sir qiladi?
- To'liq vaqtda ishlaydigan mustaqil izlanuvchilar ish va ta'lim hayotlarining birga kelishi ularning doktorantura ta'limiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- To'liq vaqtda ishlaydigan mustaqil izlanuvchilar doktorantura ta'limida qanday qo'rquv va tashvishlarga ega?

Turli ilmiy maqola va tadqiqotlarda doktorantura talabalari duch keladigan muammolarni hal qilish uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Biroq, bir vaqtning o'zida doktoranturada o'qiyotgan va to'liq vaqtda ishlaydigan shaxslar e'tibordan chetda qolgan. Bu mavzu bo'yicha cheklangan miqdordagi tadqiqotlar mavjud bo'lganligi sababli, ushbu tadqiqotda bu shaxslarning tajribalarini chuqur o'rganish uchun sifat metodidan foydalanilgan. Ushbu tadqiqot doirasida to'liq vaqtda ishlaydigan doktorantura talabalari bilan chuqur suhbatlar o'tkazilib, ularning tajribalari haqida ma'lumot olingan.

Yakuniy ma'lumotlarni baholash interpretativ fenomenologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Bu yondashuv shaxslarning o'zlari va dunyoni qanday qabul qilishlari haqida tushunish bilan bog'liq. Shu ma'noda, shaxslarning hayotiy tajribalari ushbu yondashuv uchun asosiy e'tibor hisoblanadi. Interpretativ fenomenologik yondashuv shaxslarning tajribalarini qanday qabul qilishlari va ularga ma'no berishlari haqida tu-

shunishga qaratilgan [18]. Ushbu yondashuv uchun tahlil jarayonida ma'nolarning murakkabligi va mazmuni ma'lum ma'nolarning chastotasini o'rganishdan ko'ra muhimroqdir. Interpretativ fenomenologik yondashuvning vakili bo'lgan Heidegger fikriga ko'ra, shaxslarning haqiqatlari ular yashayotgan dunyodan muqarrar ravishda ta'sirlanadi [19]. Odamlar o'zlarini dunyodan ajrata olmaydi va inson sub'ektivligi toza, buzilmagan mazmunga ega emas. Shuning uchun interpretativ fenomenologiya odamlarning kundalik hayot tajribalari haqida nimani anglatishiga e'tibor qaratadi. Ushbu tadqiqot ishtirokchilarning odatiy doktorantura ta'limidagi batafsil tajribalari va bu tajribalarning ular uchun ma'nosiga qaratilgan. Interpretativ fenomenologiya shaxslarning hayotiy tajribalariga kirib borib, ularning hikoyalariidan kelib chiqqan ma'nolarni ko'rishni anglatadi. Bu ma'nolar ishtirokchilar uchun ko'rinmas bo'lib, ularning hikoyalariidan hosil bo'ladi. Interpretativ fenomenologiya inson tajribalariga emas, balki bu tajribalarga asoslangan holda odamlar nimalarni aniq bilishlariga qaratilgan. Interpretativ fenomenologik yondashuv ishtirokchilarning tajribalari asosiy qiziqish mavzusi bo'lgan va ilgari cheklangan miqdorda tadqiqotlar o'tkazilgan mavzular uchun mos usul hisoblanadi (Munroe va boshqalar, 2016). Shu sababli, ushbu tadqiqot uchun interpretativ fenomenologik yondashuv qo'llanilgan.

Ushbu tadqiqotda to'liq vaqtda ish bilan shug'ullanadigan 20 nafar mustaqil izlanuvchi doktorant ishtirok etdi. Ishtirokchilar kamida bir yil davomida doktorantura ta'limini tamomlagan va shu davr mobaynida to'liq vaqtda ishlagan shaxslar orasidan tanlandi. Ushbu tadqiqotda ishtirokchilardan kutgan davr tajribaning shakllanishini bashorat qilish nuqtai nazaridan juda muhimdir.

To'liq vaqtda ishlaydigan doktorantura talabalari bilan chuqur suhbatlar natijasida aniqlangan topilmalar belgilangan mavzular doirasida muhokama qilindi. Sifatli ma'lumotlarni tahlil qilgandan so'ng, to'liq vaqtda ishlaydigan mustaqil izlanuvchi doktorantura talabalarining ta'lim jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarga oid beshta asosiy muammo aniqlangan:

- Vaqtni boshqarish muammolari
- Salbiy munosabatdan kelib chiqadigan ish joyi muammolari
- Transport va ishtirok muammolari
- Bajarish va diqqatni jamlash muammolari
- Ko'mak va yordam olishdagi qiyinchiliklar

Muzokara va Tavsiyalar

Bu tadqiqot to'liq ishlaydigan PhD talabalarining doktorlik ta'limi bilan bog'liq muammolarni tushuntirishga qaratilgan. Interveyular yakunlanganidan so'ng, quyidagi besh mavzu aniqlandi:

- 1) vaqtni boshqarish muammolari,
- 2) salbiy munosabatlar tufayli ish joyidagi muammolar,
- 3) transport va ishtirok muammolari,
- 4) ijro va e'tiborni jamlash muammolari va
- 5) qo'llab-quvvatlash va yordam olish muammolari.

Uzun ish soatlar mustaqil izlanuvchi PhD talabalariga doktorlik ta'limiga ajratadigan vaqtni va energiyani cheklab qo'yadi. Faqat ilmiy seminarlarda ishtirok etish

va asosiy mas'uliyatni bajarmoq doktorantlarga va mamlakatga yetmaydi. Doktorlik ta'lim kattaroq vazifaga ega, unda qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar talab qilinadi. Chunki PhD talabalaridan mamlakatlar ilmiy salohiyatni o'stirish va iqtisodni rivojlantirish kabi natijalarni kutadi, shuning uchun siyosatchilar ushbu talabalar uchun doktorlik ta'limiga ko'proq vaqt va energiya ajratishni osonlashtiradigan siyosatlar joriy etishlari zarur.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zlar o'rganayotgan sohada ishlaydigan shaxslar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ishlaydiganlar doktorlik ta'limida kamroq muammolarga duch kelishadi. Boshqa tomondan, oliy ta'lim muassasalari tashqarisidagi ish joylari shunga o'xshash qo'llab-quvvatlovchi munosabatni ko'rsatmaydi. Oliy ta'lim muassasalari tashqarisida ishlaydigan va doktorlik ta'limini oladigan shaxslar uchun siyosatlar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak, ilmiy tadqiqotchilarning global miqyosda, jumladan O'zbekistonda keskin ko'payayotgani, ayniqsa to'liq vaqtda ishlaydigan mustaqil izlanuvchilarning akademik va professional hayotni muvozanatlashdagi qiyinchiliklari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu talabalar vaqtni boshqarish, ish joyidagi salbiy munosabatlar, transport muammolari, diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishi va qo'llab-quvvatlashning etishmasligi kabi beshta asosiy to'siqlarga duch kelmoqda. Muammolar ularning ilmiy faoliyati va dissertatsiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yechim sifatida oliy ta'lim muassasalari va davlat siyosatchilari tomonidan doktorantlarga moslashuvchan dasturlar, psixologik yordam, ish joylari bilan hamkorlikni kuchaytirish va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi. Tadqiqot shuni ta'kidlaydiki, ish va ta'limni integratsiyalashgan holda olib boradigan doktorantlarning samaradorligi ularga atalgan sharoitlar va resurslar muvozanati bilan bevosita bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Temel, A. B., Toraman, A. U., Mermer, G., Konal, E., & Ateş, E. (2023). Validity and Reliability of the Turkish Version of the Instrument of the Quality of Nursing Doctoral Education. *Yükseköğretim ve Bilim Dergisi*, 13(1), 32-39. <https://doi.org/10.5961/higheredusci.1078501>
2. Yılar, M. B. (2020a). Türk ve Amerikan Doktora Adaylarının Akademik Becerilerine İlişkin Öz-Değerlendirmeleri: Nitel Bir Çalışma. *Ondokuz Mayıs University Journal of Education Faculty*, 39(2), 385-410. <https://doi.org/10.7822/omuefd.824316>
3. Zhuang, L. (2007). Doctoral education in China. S. Powel & H. Green (Eds.). *The doctorate worldwide in* (ss. 155-167), Maidenhead: McGraw Hill.
4. Halse, C., & Mowbray, S. (2011). The impact of the doctorate. *Studies in higher education*, 36(5), 513-525. <https://doi.org/10.1080/03075079.2011.594590>
5. <https://lex.uz/docs/-3213410>
6. Daytner, K. M. (2006). Validity in Qualitative Research: Application of Safeguards. Online Submission. <https://eric.ed.gov/?id=ED516416>

7. Mboniyiryivuze, A., Dorimana, A., Nsabayeze, E., & Nyirahabimana, P. (2023). Challenges Affecting Women PhD Candidates for Completion of Doctoral Educations: A Synthesis of the Literature. *African Journal of Educational Studies in Mathematics and Sciences*, 19(1), 123-134.
8. Mawson, K., & Abbott, I. (2017). Supervising the professional doctoral student: Less process and progress, more peripheral participation and personal identity. *Management in Education*, 31(4), 187-193. <https://doi.org/10.1177/0892020617738182>
9. Tural, N. K. (1995). Yükseköğretimde Öğrenciye Yönelik Parasal Yardımlar. *Ankara University Journal of Faculty of Educational Sciences (JFES)*, 28(1), 69-79. https://doi.org/10.1501/Egifak_0000000345
10. Yılar, M. B. (2020a). Türk ve Amerikan Doktora Adaylarının Akademik Becerilerine İlişkin Öz-Değerlendirmeleri: Nitel Bir Çalışma. *Ondokuz Mayıs University Journal of Education Faculty*, 39(2), 385-410. <https://doi.org/10.7822/omuefd.824316>
11. Tekneci, P. D. (2016). Evolution of Turkish higher education system in the last decade. *Yükseköğretim ve Bilim Dergisi*, (3), 277-287. <https://doi.org/10.5961/jhes.2016.164> Temel, A. B., Toraman, A. U., Mermer, G., Konal, E.,
12. McGill, M. M., & Settle, A. (2012). Identifying effects of institutional resources and support on computing faculty research productivity, tenure, and promotion. *International journal of doctoral studies*, 7, 167. <https://ijds.org/Volume7/IJDSv7p167-198McGill348.pdf> Billot, J., & Codling, A. (2013). Voicing the tensions of implementing research strategies: Implications for organizational leaders. *Management in Education*, 27(2), 75-80. <https://doi.org/10.1177/0892020613476729>

SAN‘AT VA MADANIYAT SOHASINI ILMIY O‘RGANISHNING DOLZARB JIHATLARI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada san‘at va madaniyat sohasining ilmiy o‘rganishining dolzarb jihatlari va sohaning ijtimoiy, madaniy-ma‘rifiy jarayonlarga ta‘siri, estetik ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** san‘at, madaniyat, ilmiy o‘rganish, madaniy rivojlanish, ijtimoiy jarayonlar.*

***Abstract:** This article analyzes modern aspects of the scientific study of art and culture, the influence of this area on social, cultural and educational processes, as well as its aesthetic significance.*

***Keywords:** art, culture, scientific study, cultural development, social processes.*

“Ishonchim komil xalqimiz yaqin istiqbolda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida o‘zining munosib o‘rnini egallaydi. Chunki jahon sivilizatsiyasida bizning qadimiy va mustahkam ildizlarimiz bor. Bu – qadimiy va shonli tariximiz, bebaho qadriyat va an‘analarimiz, urf-odatlarimiz, milliy o‘zligimizdir. Men ana shu teran ildizlarimizda yurtni, millatni birlashtiradigan buyuk bir g‘oyani ko‘raman”.

Haqiqatan ham Prezidentimizning ushbu so‘zlari, xalqimizning kelajakka bo‘lgan ishonch va umidini ifodalab, tarixiy va madaniy merosiga bo‘lgan chuqur hurmatni shakllantirishimiz zarurligini aks ettiradi. Sababi, xalqimizning jahon miqyosida o‘zining mustahkam o‘rnini egallashi, asosan, uning qadimiy va boy tarixiga, bebaho qadriyatlari va an‘analariga tayangan holda amalga oshadi. Xalqimizning iqtisodiy, madaniy va siyosiy maydondagi o‘rni ortib borayotani dunyo miqyosida ham yanada yuksalishimizga ishonch uyg‘otadi. Bebaho qadriyatlarimiz esa, xalqimizning o‘ziga xos an‘analari, qadriyatlari va urf-odatlarining yuksakligidan darak beradi. Endilikda milliyligimizni yosh avlod ongu-tafakkuriga singdirish, uni yanada targ‘ib qilishda san‘at va madaniyat sohasining roli g‘oyatda yuqori ekanligidan dalolatdir. Shunday ekan, san‘at va madaniyat sohasining ilmiy o‘rganilishi bugungi kunda yanada dolzarb bo‘lib, ularning jamiyatdagi roli va ahamiyati tobora chuqurlashib, yangi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va falsafiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib bormoqda. San‘at va madaniyat nafaqat estetika yoki madaniy-ko‘ngilochar sohalar sifatida, balkim insoniyatning tafakkurini, tarixini va qadriyatlarini anglashda muhim ilmiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy nuqtai nazardan san‘at va madaniyatni o‘rganish, uning shakllanishi va taraqqiyoti, insoniyat tarixidagi o‘zgarishlarni va madaniy aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, san‘at va madaniyatning turli ijtimoiy guruhlar va xalqlar orasidagi aloqalarni qanday rivojlantirishini, madaniy tafovutlarni qanday tushunishni va ularni qanday birlashtirish mumkinligini o‘rganish jamiyatning integratsiyasi va barqarorligi uchun zarurdir.

Madaniyatning ilmiy o'rganilishi, ayniqsa, globalizatsiya jarayonida madaniy meros va identitetni saqlab qolish, madaniy taraqqiyotning yangi shakllarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bir so'z bilan aytganda, bugun davlat madaniyat va san'atni targ'ib etishda o'ziga xos hamkor va yetakchi kuch sifatida maydonga chiqdi. Zero, bugun yoshlarda, umuman, aholining turli qatlami vakillarida bunga ishonch uyg'ona boshladi. Bunga javoban Uchinchi Renessans bo'sag'asidagi islohotlarda soha xodimlari birinchi safda turishi lozim. Zero, san'at va madaniyat ko'magida shakllangan millat hech qanday yot g'oyalar va davlatlar ta'siriga tushib qolmaydi. Madaniyat va san'at asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirish, jamiyatda tinchlik, do'stlik, hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelgan va bu qonuniyat o'zgarmasdan davom etmog'i lozim. Hozirgi davrda madaniyat va san'at, iqtisodiy va texnologik rivojlanish bilan chambarchas bog'langan bo'lib, san'at asarlari nafaqat estetik qiymatga ega, balki iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning aksidir.

Zero, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz. Ma'naviyatning negizini tashkil etuvchi sohalar – ma'rifat, adabiyot, madaniyat va san'atni yanada rivojlantirish, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. O'tgan davr mobaynida mazkur sohalarga doir qator hujjatlar qabul qilinib, huquqiy asoslar mustahkamlandi.

Shuningdek, san'at va madaniyat sohasining ilmiy tahlili va istiqboldagi xulosalari insonlar ruhiyatini va uning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi.

Bu orqali, nafaqat o'ziga xos san'ati va madaniyati bor xalqlar, balki ularning tarixi, qadriyatlari va dunyoqarashlari haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Demak, san'at va madaniyatning ilmiy o'rganilishi jamiyatning rivojlanishida, insonlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilashda, madaniy merosni saqlashda va yangi madaniy jarayonlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu sohaning ilmiy o'rganilishi, ayniqsa global miqyosda "ommaviy madaniyat"ni anglashga, salbiy tamonlarini to'g'ri tahlil qilishga yordam beradi.

Eng muhimi, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifatni rivojlantirish bugun muayyan tashkilotlarninggina emas, butun xalqimizning ishi, har birimizga tegishli dolzarb vazifa ekaniga urg'u berilyapti. Bu masalalarga beparvolik, loqaydlik, panja orasidan qarash esa kelajagimizga, el-yurtimiz taqdiriga bepisandlikdir. Chinakam ijod ahli uchun esa yuksak iste'dod va mahoratini ziyo ulashishga safarbar etish, ijtimoiy hayotimizdagi faol ishtiroki bilan yangi Uyg'onish davrini barpo qilishga munosib hissa qo'shish eng ezgu, hayotiy tamoyil bo'lib qolaveradi. Zotan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi kerak, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!

Shu bilan birga, san'at va madaniyat sohasining ilmiy o'rganilishini yanada rivojlantirish uchun bir nechta fundamental asoslarni ishlab chiqish lozim. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy va individual jihatlarga e'tibor qaratish muhimdir. San'at va madaniyat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun mutaxassislar, olimlar va san'atkorlar o'rtasida ko'proq hamkorlik o'rnatish kerak. Interdisiplinar ilmiy yondashuvni rivojlantirish, san'at va madaniyatni faqat estetik jihatdan emas, balkim fanlararo o'rganish imkonini beradi.

Sohada ilmiy tadqiqotlar uchun zamonaviy texnologiyalarni, ayniqsa raqamli texnologiyalarni keng qo'llash zarur. Shuningdek, ilmiy izlanishlarning natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish, ilm-fan va san'atni ommalashtirishda "scopus", "web of sciences" kabi bazalarda indekslanadigan jurnallarda chop ettirish tizimini rivojlantirish zarur.

San'at va madaniyat yuksakligi – qalb yuksakligi. Buyuk asarlarni, kashfiyot va ixtirolarni buyuk qalb yaratadi. Buyuk qalblar odatda ezgulikka limmo-lim bo'ladi, ulardan yomonlik chiqmaydi. Yoshlar ongu qalbini egallash uchun kurash keskinlashgan, mafkuraviy tahdidlar kuchaygan bugungi zamonda san'at va madaniyat g'alabasi – ezgulik g'alabasidir. Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Ishonamizki, madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir say-harakatlar o'z mevalarini uzoq kuttirmaydi.

Xulosa

Madaniyat va san'at milliy identitetni mustahkamlash, jahon miqyosida O'zbekistonning obro'sini oshirishning asosiy vositasidir. Prezidentimizning qadriyatlarini yangi avrga moslashtirish, ildizlarimizga tayanib rivojlanish g'oyasi madaniy merosni ilmiy tadqiq qilish, zamonaviy texnologiyalar va fanlararo hamkorlik orqali uni global kontekstda namoyish etishni talab qiladi. San'atning ijtimoiy-ma'naviy qudrati, yoshlarga milliy g'urur va insoniy fazilatlarni singdirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Madaniyat sohasidagi ilmiy izlanishlar, raqamlashtirish va xalqaro platformalarda natijalarni tarqatish orqali O'zbekiston nafaqat mintaqaviy, balki umuminsoniy madaniy dialogda yetakchilikni qo'lga kiritadi, yangi Uyg'onish davrini mustahkamlab, jamiyat tinchligi va taraqqiyotiga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent.: O'zbekiston nashriyoti, 2024. 560 b.
2. Nazarbekov O. E'tibor va rag'bat — avji baland ijod va go'zal hayotga qanot// Gaz. Yangi O'zbekiston 75-son. – Toshkent.: Kolorpak, 2022. 6 b.
3. Nazarbekov O. Ortga qaytmas islohotlar maqsadi har birimizda yaratuvchanlik shijoatini uyg'otadi // Gaz. Yangi O'zbekiston 203-son. – Toshkent.: Kolorpak, 2023. 6 b.

EKSPERIMENTAL TEATRLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada “eksperimental teatr” tushunchasining teatr san’atiga kirib kelish tarixi, rivojlanishi va bugungi kundagi faoliyati haqida so‘z boradi. Eksperimental teatrlarning o‘ziga xos tomonlari va uning muvaffaqiyatli jihatlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** eksperimental teatr, aktyor, innovatsiya, rejissyor, talqin, minimalizm, avangard, yangi shakl, interaktiv usul.*

***Abstract.** This article discusses the history, development and functioning of the concept of “experimental theater” in the theatrical art. The specifics of experimental theaters and its successful aspects are analyzed.*

***Keywords:** experimental theatre, actor, innovation, director, interpretation, minimalism, avant-garde, new form, interactive method*

Insoniyat paydo bo‘lib yashab kelayotgan ekan barcha jabhalarda qulaylikka, yangilikka va rivojlanishga intilmoqda. Xuddi shunday xalq marosimlaridan paydo bo‘lgan teatr san’atining shakllanish bosqichlari ham sanoqsizdir. XIX asrga kelib o‘zining aniq shakliga ega bo‘lgan an’anaviy va klassik teatrlar ham davrlar o‘tishi bilan yangicha, zamonaviy ko‘rinishga ehtiyoj seza boshladi. Aynan “Eksperimental teatr”ni xuddi shunday ehtiyojning mahsuli desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Keling “Eksperimental teatr” tushunchasi haqida gapirishdan oldin “eksperiment” so‘zining tub ma’nosiga to‘xtalib o‘tsak. **Eksperiment** (lot. yexreptepgshp - tajriba, sinab ko‘rish) ya’ni “Eksperimental” so‘zi tajriba asosida sinab ko‘riladigan, amaliy tajribaga asoslangan degan ma’noni anglatadi. U ilmiy, texnologik yoki ijodiy jarayonlarda qo‘llanib, tajriba o‘tkazish, yangi narsalarni sinab ko‘rish yoki tekshirish bilan bog‘liq bo‘ladi.¹

Bundan kelib chiqadiki “Eksperimental teatr”ning paydo bo‘lishiga ham teatr san’atining yangicha tajriba va amaliy sinoviga paydo bo‘lgan ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan deyish mumkin.

Eksperimental teatr – an’anaviy sahna san’ati qoidalaridan chetga chiqib, yangi ifoda vositalari, uslublar va tajribalarga asoslangan teatr harakati. Eksperimental teatr (shuningdek, avangard teatr sifatida ham tanilgan) ilk marotaba XIX asrning oxirida Alfred Jarri va uning qirol Uba haqidagi pyesalarining shakllanishi bilan paydo bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan bu atamaning ma’nosi o‘zgardi. Endi avangard teatr jahon sahnasida teatrning hukmron turidir. U ilgari radikal deb hisoblangan turli xildagi namoyon shakllarini oldi. Avangard teatr muxlislari tinimsiz dunyoning biron burchagida o‘xshashi yo‘q yangi narsalarni o‘ylab topishga harakat qildilar va qilmoqdalar. U XX asrda keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa avangard, dadaizm, ekspressionizm va absurd teatri kabi yo‘nalishlar bilan bog‘liq.

Dunyo miqyosida o‘ziga xos uslub va shakllarga ega bo‘lgan teatrlar soni juda ko‘plab topiladi. Hozirgi kunda ham yangidan-yangi g‘oyalarni ilgari suruvchi, tomoshabinni yanada zamonaviy tomoshalari bilan hayratga solishni maqsad qilgan ijodkorlar tomonidan eksperimental teatrlarga asos solinmoqda.

Xo‘sh, eksperimental teatrlar shunchalik ommolashishiga nima sabab bo‘ldi va ularning klassik teatrlardan qaysi jihatlari ajratib turadi? Bu savolga javob topishga harakat qilib ko‘rsak.

Eksperimental teatrning asosiy xususiyatlari:

1. Innovatsion shakl va uslub – an’anaviy dramatik tuzilma, sahna bezaklari va aktyorlik uslublari o‘zgartiriladi.

2. Tomoshabin bilan yaqin aloqa – ba’zan tomoshabin spektaklning bir qismi sifatida jalb qilinadi.

3. G‘oya va mazmunning ustunligi – hikoya qilishdan ko‘ra, g‘oyani vizual va interaktiv usullar orqali ifodalash muhimroq bo‘ladi.

4. Improvizatsiya va tajriba – spektakl doimiy o‘zgaruvchan bo‘lib, ijrochilar sahna harakatlari, nutq va makon bilan erkin ishlaydi.

5. Yangi texnologiyalardan foydalanish – yorug‘lik, proyeksiya, ovoz va multimedia elementlari spektakllarga kiritiladi.²

Yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlardan ham tushunarliki eksperimental teatr bu - eng yangicha ijro, shakl, uslub, eng so‘nggi texnik vositalar, erkinlik, innovatsion g‘oyalar jam bo‘lgan teatrdir.

Quyida jahon miqyosida eksperimental teatrlarga asos solgan mashhurlar va ularning ilgari surgan g‘oyalari haqida to‘xtalsak.

Mashhur eksperimental teatr arboblari va harakatlari:

Antonin Arto - fransuz rejissyori, aktyori, shoiri, teatr nazariyotchisi. Alfred Jarri teatrining asoschilaridan biri (1926-1929). U “shafqatsizlik teatri”, “zulmat teatri” g‘oyasini ilgari surgan. 4 yoshligida meningit kasalligiga chalingan Antonin keyinchalik ruhiy kasallikdan azob chekkan. Umri davomida ko‘p marotaba ruhiy kasalliklar shifoxonasida davolanib chiqqan, unga shizofreniya tashxisi ham qo‘yilgan. U shifokorining tavsiyasi bilan keyinchalik afyunga ruju qo‘yadi va shu orqali kasalligiga qarshi kurashgan deyish mumkin. Balki shuning uchun u “Zulmat teatri”ga asos solgan bo‘lishi mumkin. Chunki uning umri doim xastaligiga qarshi kurash bilan o‘tadi. Bu narsa uning ruhiy olamiga hamda ijodiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Uning aktyorlaridan biri u haqda shunday eslaydi:

“Antonin to‘g‘ridan-to‘g‘ri do‘zaxga ketayotgan edi. U drama yoki fars bo‘lsin, har doim spektakllarni shafqatsizlik bilan sahnalashtirar edi. U bizni ham hayotning qanchalik beshafqat ekanligiga ishontirmoqchi bo‘lar, hattoki dinni ham qoralar edi. Teatrning daholari Shekspir, Sofokl, Molyerlarni ham tan olmas edi.”- deb eslaydi. Shunday qilib g‘ayrioddiy tarzda paydo bo‘lgan eksperimental teatrning asoschilaridan hisoblangan Antonin Arto 52 yoshida, yolg‘izlikda ruhiy hasta va og‘ir ahvolda Fransiyada vafot etadi.

Antonin Arto – “Zulmat teatri” (Theatre of Cruelty) g‘oyasi bilan tanilgan.

Bertolt Brext – epik teatr uslubini ishlab chiqqan.

Bertolt Brext o‘z ijodi bilan XX-asr nemis dramaturgiyasining eng yuqori kamolot cho‘qqisini belgilab berdi. Brext pyesalari, bu pyesalarni muallifning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan sahnaviy talqinlari, u kashf etgan “epik drama” nazariyasi — bularning jami favqulodda yangiligi bilan misli ko‘rilmagan san’at voqeligiga aylandi.⁴

Brextning “Berliner Ansaml” teatri tashkil topadi. Brext o‘z teatrini “noaristotelcha”, “noan’anaviy” teatr deb atadi. Brext bunday teatrning shakl-shamoyillarini o‘ttiz yildan ko‘proq davr mobaynida ishlab chiqdi. Brextcha “epik teatr”ning muhim jihati — bu tomoshabinning his-tuyg‘usiga emas, aql-idrokiga asoslanishidir. “Drama teatri”ning shohona asarlari tomoshabinni “sahna voqelariga ishontirish” orqali uni shu voqealarning ishtirokchisiga aylantirib kelgan bo‘lsa, epik teatr asarlari esa masofani saqlash, nuqtayi nazarlarni taqqoslash, tahlil etish asosiga qurilgan. Shu bilan birga, Brext o‘zining ilk asarlarida “Bu teatrdan his-tuyg‘uni chiqarib tashlash mutlaqo noto‘g‘ri, lekin tomoshabin bировga qayg‘urmasin, balki u bilan munozaraga kirsin”, deb yozgan edi. Brext tomoshabinning bu teatrga nisbatan nuqtayi nazarini “ijtimoiy-tanqidiy” nuqtayi nazar deb atagan. Brext qator yillar davomida o‘z tizimiga o‘zgarishlar kiritib, uni takomillashtirib bordi. Lekin Brextning asosiy qoidasi, ya’ni voqeadan “chekintirish” va unga yangicha ko‘z bilan qarash, “holi o‘qish” (yuqtirish) qoidasi hamisha o‘zgarishsiz saqlanib qoldi. Bu Brext dramaturgiyasining o‘ziga xosligi, tomoshabinni fikrlash, tahlil etish, hukm chiqarishga da’vat etish talabi bilan bog‘liq edi. Uning barcha pyesalari urushga, fashizmga qarshi qaratilgan siyosiy va ayni zamonda falsafiy teran pyesalardir.

Jerzy Grotovskiy – “Kambag‘al teatr” (Poor Theatre) konsepsiyasini ilgari surgan.

Jerzy Grotovskiy polshalik teatr rejissyori va teatr nazariyotchisi bo‘lib, XX asr teatrining eng yirik islohotchilaridan biri hisoblanadi. U “qashshoq teatr” konsepsiyasini ishlab chiqdi, bu esa sahna bezaklari va rekvizitlarni minimal darajada qo‘llab, aktyor va tomoshabin o‘rtasidagi bevosita aloqaga urg‘u beradi.

Grotovskiy 1951-yilda Krakovdagi Milliy teatr akademiyasida o‘qishni boshladi va 1955-yilda u yerda diplom oldi, keyin esa bir muddat Moskva davlat teatr san’ati institutida tahsil oldi.

Uning mashhur asarlari orasida “Akropolis” (1962), “Doktor Faustus” (1963), “Doimiy shahzoda” (1965) va “Apocalypsis cum Figuris” (1969) kabi spektakllar mavjud bo‘lib, ular XX asr teatrining eng buyuk yutuqlari qatoriga kiradi.

Grotovskiyning “Qashshoq teatr sari” (1968) nomli kitobi uning uslubi va maqsadlarini bayon etadi va teatrshunoslikda muhim asar hisoblanadi.

Piter Bruk – minimalistik va interaktiv spektakllari bilan mashhur.

Piter Bruk — Angliyaning nomi chet ellarda keng ma’lum rejissorlaridan biri. 1970-yili uning boshchiligida Parijda teatr tadqiqotchiligi Xalqaro Markazi tashkil topadi. Bruk Parijga kelib, turli mamlakatlar aktyorlari ko‘rigini o‘tkazadi va shu bahonda siyqa andozalardan xoli, erkin ijod qilishga qodir malakali aktyorlar tarkibida kichik truppa tuzadi: U teatr tadqiqotchiligi zimmasiga yer yuzida yashovchi har bir insonga tushunarli teatr shakllarini tiklash vazifasini qo‘ygan edi. U teatrni yangilash vositalarini izlab, xalq tomosha shakllariga murojaat etadi. Ovro‘po va Sharq teatrining qadimgi an‘analarini tiklaydi.⁵ 1991-yili Piter Bruk O‘zbekistonda bo‘lganida Qashqadaryo

“Muloqot” studiyasining “Jononga bordim bir kecha” (Hamzaning “Kim to‘g‘ri?” asari asosida) spektaklini ko‘rib, uning xalq qiziqchilik teatri an‘analariga asoslanganligiga yuqori baho berdi va Bruk tashabbusi bilan mazkur asar o‘sha yili “Avinon festivalida” namoyish etildi.

Piter Bruk aktyor bilan tomoshabin orasidagi to‘rtinchi devorni yo‘qqa chiqaruvchi vositalarni aktyorni ichki zo‘riqlardan xalos etish yo‘llarini izlaydi. Shekspirning “Afinalik Timon” (1974), “Har narsaning me‘yori yaxshi” (1978), 1985-yili yaratilib, so‘ng Toshkentda namoyish etilgan 7 soatlik “Maxobxora”» spektakllarida Piter Bruk teatrning ifoda imkonlari naqadar kengligini namoyish etish maqsadlarini olg‘a surgan edi.

Living Theatre – siyosiy va jamiyatga qarshi performanslari bilan tanilgan avangard truppa.

Living Theatre — eksperimental teatr truppassi bo‘lib, 1947-yilda AQSHda Julian Beck va Judith Malina tomonidan tashkil etilgan. Bu truppa Jerzy Grotowski, Antonin Artaud va Bertolt Brechtning teatr konsepsiyalaridan ilhomlangan va an‘anaviy teatr qoidalarini buzgan holda, jonli ijro va tomoshabinlar bilan bevosita aloqa qilish tamoyillariga asoslangan edi.

Asosiy xususiyatlari:

Eksperimental va siyosiy teatr: Living Theatre har doim siyosiy va ijtimoiy mavzularni ko‘tarib chiqqan. Ular urushga qarshi, erkinlik va inson huquqlari himoyasiga bag‘ishlangan spektakllar yaratgan.

Tomoshabinlar bilan bevosita aloqada bo‘lish: An‘anaviy sahna va tomoshabin orasidagi chegarani yo‘q qilishga harakat qilgan.

Jangari sahna san‘ati: Spektakllarida an‘anaviy dramaturgiyadan voz kechib, jismoniy ekspressiya va improvizatsiyani keng qo‘llagan.

Senzuraga qarshi kurash: Ko‘plab spektakllari radikal g‘oyalari tufayli taqiqlangan yoki senzura qilingan.

Mashhur spektakllari: “The Connection” (1959) - Giyohvandlik muammolarini ko‘rsatgan realistik spektakl. “The Brig” (1963) - Harbiy qamoqxonadagi shafqatsiz sharoitlar haqida hikoya qiluvchi hujjatli spektakl. “Paradise Now” (1968) - An‘anaviy teatr qoidalaridan butunlay voz kechgan, tomoshabinlarni ham spektaklga jalb qilgan radikal eksperimental teatrdir.⁶

Living Theatre Jerzy Grotovskiy va boshqa avangard teatr rejissyorlariga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Hozirda ham truppa turli xil eksperimental loyihalar bilan faoliyatini davom ettirmoqda.

O‘zbekistonda eksperimental teatrlar orasida quyidagi ikki teatr alohida ajralib turadi:

1. Ilhom – teatr-studiyasi. O‘zbekiston. O‘zSSRdagi birinchi mustaqil teatr. “Ilhom” teatrining birinchi nomi “Teatr yoshlari eksperimental studiyasi”. “Ilhom” teatri Sovet Ittifoqidagi birinchi professional nodavlat teatrlardan biri hisoblanadi. Unga 1976-yilda rejissyor Mark Vayl (2007-yil sentabr oyida fojiali vafotigacha uning badiiy rahbari bo‘lgan) hamda Toshkent teatr va rassomlik institutining bir guruh bitiruvchilari tomonidan professional aktyorlar uchun teatr studiyasi sifatida asos solingan. Ilhom teatri 1976-yilda

M. Vayl tomonidan “Teatr yoshlari tajriba studiyasi” nomi bilan tashkil bo‘lgan. 1989-yildan hozirgi nomini egallagan.

Teatr ko‘cha teatri an‘analarida yaratilgan “Masxaraboz-76” spektakli bilan boshlandi. Ushbu spektakl bilan truppa Rossiya federatsiyasining Novgorod viloyatida konsert berishga borgan va katta olqishlarga sazovor bo‘lgan.

Spektakllari o‘zbek va rus tillarida ijro etiladi. Studiyaning asosiy maqsadi – teatr san‘atida yangi ifoda vositalarini izlash, tajriba qilish, yosh dramaturg, aktyor va rejissorlarning ilk chiqishi (debyut)larini uyushtirishdan iborat. Eng yaxshi spektakllari: “O‘rdak ovi” (A. Vampilov), “Qo‘shiq uchun o‘lim yo‘q” (G. Lorca), “Jamoat fikri” (A. Baranga), “Muhammad, Mamed, Mamesh” (Ch. Husainov), “Tikansiz tipratikanlar”, “Oq otlar uchun vals”, “Temir xotin” (Sh. Boshbekov), “Masharabozlar uchun regtaym”, “Oppoq, oppoq qora laylak” (A. Qodiriy asarlari asosida), “Baxtli gadolar” (K. Gotssi) va boshqalar.

Mark Vayl vafotidan so‘ng aktyor Boris G‘ofurov “Ilhom” teatrining badiiy rahbari bo‘ldi. Hozir teatr bir vaqtning o‘zida klassika (Alisher Navoiyning “Yetti oy”) va zamonaviy drama (Mixail Ugarovning “Bummer off”, Mixail Durnenkovning “Axlat”, Y.Klavdiyevning “Devor ortida yomg‘ir”) ikkita yo‘nalishni rivojlantirmoqda.

Teatr Germaniya, Fransiya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Norvegiya, Daniya, Litva, Yugoslaviya, Gruziya, Isroil, Yaponiya, AQSH va Rossiyaning ko‘plab shaharlarida gastrollarda bo‘lgan.⁷

2. “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 20-fevraldagi 43-sonli Qaroriga muvofiq “Diydor” rejissyorlik va aktyorlik teatr-studiyasi” davlat muassasasi sifatida tashkil etilgan teatr-studiya keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil, 3-martdagi 266-sonli Qaroriga muvofiq “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasiga o‘zgartirildi.⁸ O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, O‘zbekiston xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshev badiiy rahbarligida faoliyat olib borgan teatr-studiyada o‘z uslubi va shakliga ega bo‘lgan spektakllar sahnalashtirilgan. Teatrda so‘ngi yillarda “Yodim siniqlari” (Zulfiya Mo‘minpova she‘rlari asosida she‘riy kompozitsiya), “Yulduzli tunlar” (M.Shayxzoda), “Monolog” (Y.To‘ychiyev), “Kulgi akademiyasi”, (Koki Mitani) “Masxarabozlar ishi” (Xamza hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi: pyesasi asosida), “O‘t qo‘yuvchilar” (Maks Frish), “Zebuniso” (Uyg‘un), “3 burchak” (M.Bayjiyev “Duel” pyesasi asosida) kabi bir qancha spektakllar sahnalashtirilgan va namoyish etilmoqda. Teatr-studiyaning hozirgi kundagi badiiy rahbari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Bobur Yo‘ldoshev hisoblanadi.

Ushbu teatrlar O‘zbekistonda eksperimental sahna san‘atini rivojlantirishda muhim rol o‘ynab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek teatr san‘ati ham eksperimental yo‘nalishda rivojlanmoqda. Yangi avlod rejissyorlari va truppalari an‘anaviy sahna uslublaridan chetga chiqib, zamonaviy texnikalar va ijodiy usullarni sinab ko‘rmoqda. Toshkent va boshqa yirik shaharlarda turli ijodiy guruhlar muqobil spektakllar taqdim etmoqda.

Eksperimental teatr – bu teatr san‘atini rivojlantirish va yangi ifoda usullarini sinab ko‘rishning samarali yo‘li bo‘lib, u doimiy ravishda o‘zgarib, yangilanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa
3. <https://www.livelib.ru/author/28079-antonen-arto>
4. S.Tursunboyev.,Xorijiy teatr tarixi. “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2005-y.
5. Lex.uz

XALQ PEDAGOGIKASIDA OILANING AHAMIYATI.

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq pedagogikasida oilaning tutgan o‘rni va uning tarbiyaviy ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Oilaning jamiyat taraqqiyotidagi roli, farzandlar tarbiyasida tutgan o‘rni va xalq pedagogikasidagi muhim g‘oyalar asosida oila tarbiyasining inson shakllanishidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot davomida atoqli mutafakkirlarning asarlari va zamonaviy tadqiqotlardan iqtiboslar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xalq pedagogikasi, oila tarbiyasi, jamiyat, axloq, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, komil inson.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the role of the family in folk pedagogy and its educational significance. It highlights the role of the family in societal development, its influence on children’s upbringing, and the importance of traditional ideas in shaping individuals. The study includes citations from prominent thinkers and modern research.

Keywords: folk pedagogy, family education, society, morality, spirituality, national values, perfect individual.

Xalq pedagogikasi insonning ijtimoiy va ma’naviy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi qadimiy tarbiya tizimi hisoblanadi. Xalq pedagogikasi deganda insonning bevosita hayoliga, asrlar mobaynida xalqning tajribalari asosida paydo bo‘lgan mukammal bir tarbiya tizimi keladi. Ushbu tizimda esa oilaning o‘rni judayam beqiyos. Inson dunyoga kelganda, jamiyatda o‘zini qanday tutishini yoki atrof-muhit ta’sirlarga qanday javob qaytarishni bilmaydi. Ushbu vaziyatda oila degan muqaddas dargoh yordamga keladi. Yosh avlodning komil inson bo‘lib shakllanishida oila va undagi muhitni yaqqol aksi ko‘rinadi shuning uchun ham farzandlar ushbu oilaning ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu farzandlar ulug‘ayganda nafaqat oilaning, balki butun boshliq jamiyatning ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham oila- jamiyatning ajralmas bir bo‘g‘ini va tarbiyaning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Xalqning asrlar davomida to‘plangan tajribalari asosida shakllangan ushbu tizimda oila eng muhim tarbiya o‘chog‘i sifatida ajralib turadi. Oila – bu nafaqat jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, balki insonning axloqiy va ma’naviy rivojlanishidagi boshlang‘ich nuqtadir (Ibragimov, 2020). Oiladagi tarbiya insonning butun hayoti davomida unga yo‘ldosh bo‘lib, uning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi.

Oila tarbiyasining inson hayotidagi roli beqiyosdir. Farzandlarning axloqiy qiyofasi va dunyoqarashi avvalo oila muhitida shakllanadi. Abduarif Fitrat “Rahbari Najot” asarida: “Suv qaysi rangdagi idishda bo‘lsa, o‘sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo‘lsalar, o‘sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar” deb ta’kidlagan (Fitrat, 1916). Ushbu fikr oilaning farzandlar tarbiyasida tutgan bevosita o‘rnini ochib beradi.

Avloniy (1913) ham “Turkiy Guliston yoki axloq” asarida oiladagi tarbiyaning inson hayotidagi ta’sirini alohida ta’kidlab, ota-onalarning o‘z farzandlari oldidagi mas’uliyatini yuksak baholagan. U oilani millatni tarbiyalaydigan eng muhim institut sifatida ko‘rsatadi.

Shuningdek, oila tarbiyasi shaxsning psixologik holatiga ham ta’sir qiladi. Oiladagi mehr-muhabbat va qo‘llab-quvvatlash bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga yordam beradi (Nazarov, 2022).

Ushbu jarayonda tahliliy, taqqoslash va tarixiy metodlar qo‘llanildi. Tarixiy va zamonaviy manbalar asosida xalq pedagogikasidagi oila mavzusiga oid fikrlar o‘rganildi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi oila tarbiyasining muammolari tahlil qilindi. Mutafakkirlarning asarlaridan iqtiboslar keltirilib, ularning qarashlari zamonaviy sharoit bilan taqqoslandi.

Oila tarbiyasida jarayon oilaning ulug‘laridan kichiklarga nasihat yoki ularga o‘rnak shaklida amalga oshiriladi. Tug‘ilgandan ularning tabiatiga kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, vatanga bo‘lgan iftixor, qadriyatlarga bo‘lgan muhabbat singdiriladi. Lekin bugungi kunda zamonaviylikka intilish, texnologiyalar foydasidan ko‘zlangan maqsadlarda foydalanmaslik yoshlar orasida ba’zi bir tushunmovchiliklarga sabab bo‘lib qolyapti.

Oilaning asosiy tarbiyaviy vazifalari quyidagicha tavsiflanadi:

- Bolalarda ijtimoiy odat va qadriyatlarni shakllantirish;
- Yaxshi va yomonni ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish;
- Vatanga muhabbat va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish;
- Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat hissini shakllantirish.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan oila tarbiyasida yangi qiyinchiliklar paydo bo‘ldi. Yoshlar orasida texnologiyalarning noto‘g‘ri ishlatilishi, axborot xurujlari va ma’naviyatsizlik kabi muammolar oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytirishni talab qiladi. Shu boisdan, xalq pedagogikasidagi an’anaviy oila qadriyatlari zamonaviy muammolarga qarshi samarali vosita hisoblanadi (Qodirov, 2021).

Bundan tashqari, oilaviy muhitning barqarorligi va ota-onalarning farzand tarbiyasidagi ishtiroki ularning kelajakdagi hayotga moslashuvchanligi va qaror qabul qilish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy qo‘llab-quvvatlov yetishmovchiligi bolalarda stress va depressiyaga olib kelishi mumkin (Hasanova, 2023).

Xalq pedagogikasida oila jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, insonning axloqiy va ma’naviy shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Oila nafaqat yangi avlodning tarbiyalanishida, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uzluksiz davom etishida ham asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Oilani bir daraxtga o‘xshatadigan bo‘lsak, yosh avlod uning yangi novdalari bo‘lib, ularning qanday o‘sishi bog‘bonning – ya’ni ota-onaning qo‘lida. Agar tarbiya o‘z o‘rnida to‘g‘ri yo‘naltirilsa, bu novdalar mustahkam bo‘lib, kelajakda jamiyatga foydali mevalarni yetkazadi. Aksincha, noto‘g‘ri tarbiya yoki e’tiborsizlik ularning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Oila tarbiyasi avlodlar o'rtasida ijtimoiy qadriyatlarning uzluksiz davom etishini ta'minlaydi. Oiladagi sog'lom tarbiya yoshlarning o'ziga xos shaxs sifatida shakllanishiga, ularning jamiyatda munosib o'rin egallashiga asos yaratadi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va texnologik taraqqiyot ta'siridan asrash muhim ahamiyat kasb etadi. Globalizatsiya jarayonida axborot texnologiyalari tarbiyaga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish va bolalarga sog'lom ma'naviy muhit yaratish zamonaviy jamiyatning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'naviy tarbiyaning ahamiyati shundaki, u shaxsning dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-onalar farzandlarida Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, adolat va halollik kabi fazilatlarni shakllantirishlari lozim. Ushbu qadriyatlar bolalarning kelajakda jamiyatning faol va foydali a'zolariga aylanishlariga xizmat qiladi.

Xulosa

Oilaviy tarbiya – inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotining asosiy ustunlaridan biridir. Farzandlarga sog'lom ma'naviy muhit yaratish, ularning axloqiy tarbiyasini to'g'ri yo'naltirish orqali jamiyatda sog'lom avlod shakllantiriladi. Ota-onalar va pedagoglar bu borada o'z mas'uliyatlarini chuqur his etib, tarbiya jarayoniga ilmiy yondashuv bilan yondashishlari lozim. Zero, yaxshi tarbiya – jamiyatning kelajagini belgilovchi eng muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy, A. (1913). Turkiy Guliston yoki axloq. Toshkent: O'zbek milliy nashriyoti.
2. Boboxonov, S. (2018). Oila pedagogikasi va tarbiya tamoyillari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Fitrat, A. (1916). Rahbari Najot. Toshkent: O'zbek milliy nashriyoti.
4. Hasanova, D. (2023). Oilaviy muhit va psixologik farovonlik.
5. Ibragimov, H. (2020). Xalq pedagogikasi va milliy qadriyatlar. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
6. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
7. Nazarov, B. (2022). Oila va ijtimoiy tarbiya.
8. Niyozova, G. (2020). Zamonaviy jamiyatda oila tarbiyasining o'rni. Toshkent: Fan.
9. Qodirov, U. (2021). Oila tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni. Toshkent: Ilm Ziyosi nashriyoti.
10. Rahimov, S. (2019). Oila va tarbiya. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

O'ZBEKISTON TELEVIDENIYESI BOLALAR KO'RSATUVLARIDA BADIY MAHORAT MASALALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek televideniyesining bolalar ma'naviyatidagi ijtimoiy-estetik ta'sirlarini aniqlash, shaxs kamolotida televideniye texnik va badiiy imkoniyatlari, badiiy mahoratdan foydalanish masalalari qanday amalga oshirilayotgani singari jihatlari yuzasidan fikr yuritilgan. Televideniye dasturlari va bolalar auditoriyasi o'rtasidagi munosabatlardagi anglashilmovchiliklar va to'siqlarni aniqlash, televideniye ko'zgidan o'tayotgan siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy masalalarni yoritishdagi mavjud muammolarni o'rta tashlash, yoshlar tarbiyasidagi o'rnini oshirish borasida atroflicha o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy jurnalistika, televideniye, bolalar ko'rsatuvlari, badiiy mahorat, madaniy transformatsiyalar.*

Annotation: *This article discusses aspects such as identifying the socio-aesthetic effects of Uzbek television on children's morality, how the technical and artistic possibilities of television are implemented in personal development, and how artistic skills are used. A detailed study was conducted to identify misunderstandings and obstacles in the relationship between television programs and children's audiences, to highlight existing problems in the coverage of political, moral and economic issues through the lens of television, and to enhance its role in the education of young people.*

Key words: *art journalism, television, children's shows, artistic skills, cultural transformations.*

Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashtirish hodisasi, turli madaniy transformatsiyalar, qadriyatlar evolyutsiyasi, insoniyat ongi va tafakkuridagi o'zgarishlar san'at va madaniyat sohasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashtirish zamonida milliy o'ziga xoslik va qadriyatlarni asrab qolish, yosh avlodni turli tahdidlar va axborot xurujlaridan himoya qilish, milliy va umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda ham san'at va madaniyatning ahamiyatini o'rganishga qiziqish kuchayib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatning barcha sohalarini qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni chuqurlashtirish, badiiy-barkamol san'at asarlari yaratish orqali xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga ezgu g'oyalarni singdirishga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda aynan "art journalism" (san'at jurnalistikasi)ning ijodiy va ijtimoiy funksiyalaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

OAV va uning madaniyatga ta'siri bo'yicha tadqiqotlarda medianing shaxs, madaniyat va jamiyatga ta'siri nuqtai nazaridan o'z-o'zidan paydo bo'lish haqida gapirishlari ko'rinadi. Biroq, ushbu ta'sir elementi bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, umuman olganda, o'zini shakllantirish mumkin emas va manipulyatsiya va buzilish

odatda ongli ravishda amalga oshiriladi⁶⁸. Ommaviy axborot vositalari va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarga oid ayrim tadqiqotlarga ko'ra, ommaviy axborot vositalari va media tuzilmasi ichida, ayniqsa, teleko'rsatuvlar joriy tartib nuqtayi nazaridan bir tarmoq vazifasini o'taganligi aytiladi. Bu fikrni ilgari surayotgan tadqiqotchilarning fikricha, ommaviy axborot vositalari yoki ommaviy axborot vositalariga kiritilgan vositalar odamlarning ijobiy va umumiy qabul qilingan his-tuyg'ulari, e'tiqodlari, fikrlari va xatti-harakatlariga o'zgaruvchan ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha, ommaviy axborot vositalari odamlarda mavjud bo'lgan qadriyatlar va hissiyotlarni saqlaydigan, mustahkamlaydigan ta'sirga ega.

Televideniye XX asrda ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida paydo bo'ldi va shu asrning o'zidayoq milliy madaniyatning o'ziga xos va mahsuldor xazinasiga, mazmunan va ifoda vositalari jihatidan rang-barang va mukammal qudratli san'at turiga aylandi. San'atning juda ko'p turlarini, turli badiiy an'alarini o'zida qamrab olgan holda, u jamiyat rivojiga, ilg'or progressiv g'oyalarning targ'ibotiga, umuminsoniy qadriyatlar, dunyoviy madaniyat ideallari bilan chambarchas bog'liq ma'naviyatning tiklanish jarayonlariga munosib hissa qo'shdi. Televideniye jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatishning faol shakllaridan biri sifatida ma'naviy jihatdan yetuk yosh avlodni shakllantirish, uni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, yoshlar qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilish singari vazifalarni ham qamrab oldi. Mutaxassislarining fikricha, XXI asr ma'naviy-mafkuraviy axborot omillarining ta'sir kuchi moddiy va moliyaviy resurslarga nisbatan ko'proq ahamiyatga ega. Odamlarda axborotga tanlab yondashuvdan ko'ra, ko'r-ko'rona ishonish hissi ustuvor⁶⁹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 27-iyunda – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan bayram tabrigida “Ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o'z so'zi uchun mas'uliyat hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma'naviy jasorat ham talab etiladi” – deb ta'kidlagan edi. Zamon shiddatli bo'lib borgani kabi, soha ham jadallashmoqda. Jamiyat jurnalistikaning nazariyada bitilgan prinsplariga monand bo'lishini talab etmoqda. Kishilar esa jurnalistikka “da'vo” qilishmoqda. Ya'ni xabarni yetkazish va uni “iste'mol qilish” jarayonida ishtirok etishning o'ziga jurnalistlik deya hisoblashmoqda. Bu kabi holatlarning o'zi ham bugun sohada yangiliklar qilishga, janrlar va yo'nalishlarda chuqurroq tahlilni olib borishga undaydi, menimcha.

Shu nuqtai nazardan olganda, O'zbekiston televideniyesi bolalar auditoriyasiga qaratilgan dasturlarning rivojlanish jarayonlari, televizion ijodiyotning rang-barang shakl va yo'nalishlaridagi o'zgaruvchan, doimiy taraqqiyotdagi an'alarini, janr-stilistik shakllari evolutsiyasi, yangilanishlar, iste'dodli ijodkorlari mahoratini o'rganish bugun har qachongidan ham muhimdir. Shu ma'noda televideniyaning bolalar ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi o'rni, badiiy-g'oyaviy mahsuldorligini oshirish san'atshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda bolalarning ma'na-

68 Barrett, O. ve Braham, P. (1995). Media, Knowledge and Power, London: Routledge.

69 “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni// “Xalq so'zi” 16.01.2007. 11-12 (4164-4165)-son.

viy qiyofasiga ta'sir ko'rsatishda aynan televideniye zimmasiga juda katta mas'uliyatli vazifalar yuklatilayotgani ham bejiz emas. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va badiiy ijodiyotning murakkab uyg'unlashuvidan tarkib topgan televideniye o'zining audiovizual asosi, ta'sir kuchining ko'p qatlamliligi, hayotni nafaqat ko'rsatish, balkim harakatda tasvirlash, tomoshabinlar auditoriyasi bilan muloqotga kirisha olish imkoniyatlari jihatidan ham eng ommaviy san'at turiga aylangan⁷⁰.

Televideniye dasturlari aholining barcha qatlamlari tomonidan tomosha qilinishiga qaramay, tomoshabinlar auditoriyasining katta qismi – mamlakat aholisining 40 foizdan ortig'ini tashkil etadigan 16 yoshgacha bo'lgan bolalardir⁷¹. Shu ma'noda yosh tomoshabinlarning ma'naviy qiyofalarini shakllantirishda televideniye, ayniqsa, bolalar ko'rsatuvlarining badiiy-g'oyaviy ahamiyatini oshirish bugungi kunda qanchalik muhim vazifa ekanligi oydinlashadi. TVning o'ziga xos xususiyatlari xorij mutaxassislarining juda ko'p tadqiqotlari mavzuiga aylanganiga qaramay, bolalar auditoriyasining o'ziga xos jihatlari, bolalar va televideniyeining bir-biriga ta'siri hozircha deyarli o'rganilmagan. Aslida, nihoyatda muhim bo'lgan bu muammo o'z yechimini kutmoqda. Ayniqsa, yosh tomoshabinlar ehtiyojlarining noaniqligi ko'plab jiddiy oqibatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ulardan birinchisi, ijodkorlar faoliyatining tomoshabinlar, jumladan bolalarning estetik talab va ehtiyojlari bilan muvofiq kelmasligidir.

O'zbekiston televideniyesidagi bolalar ko'rsatuvlarida badiiy mahoratning rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, tarixiy kontekst, resurslar mavjudligi va zamonaviy trendlar ta'siriga bog'liq. Ba'zi ko'rsatuvlar yuqori badiiy darajaga ega bo'lsa-da, boshqalari bu borada ancha orqada qolmoqda.

Shu o'rinda takliflar berish joiz deb topildi:

- Badiiy sifatni oshirish: ko'rsatuvlarni tayyorlashda professional rejissyorlar, operatorlar va montajchilarni jalb qilish kerak.

- Zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish: animatsiya, kompyuter grafikasi va boshqa ilg'or texnologiyalardan faol foydalanish ko'rsatuvlarning jozibadorligini oshiradi.

- Ssenariylarni professional yozuvchilar tomonidan yozilishi: ssenariylar bolalar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi, shuningdek, ta'lim beruvchi elementlarni o'z ichiga olishi kerak.

- Stereotiplardan voz kechish: bolalarga nisbatan stereotiplardan voz kechish va ularning o'ziga xosligini hurmat qilish juda muhimdir.

- Mualliflik huquqiga rioya qilish: mualliflik huquqiga ega bo'lgan asarlardan faqat ruxsatnoma olingandan keyin foydalanish kerak.

Xulosa

O'zbekiston televideniyesidagi bolalar ko'rsatuvlarining badiiy mahorati yanada yuqori darajaga ko'tarilishi uchun doimiy ravishda ish olib borish, innovatsion yonda-

70 Beruniy A.R. Ruhiyat va ta'lim - tarbiya haqida. - T.: O'qituvchi. 1992.

71 Asqarova N.A. Diqqat yetishmasligi va giperaktivligi sindromidagi psixokorreksion mashg'ulotlarning o'ziga xosligi.//Maktab va Hayot. –Toshkent, 2011. № 8. – B. 7 – 8. (19.00.00. №3)

shuvlarni qo‘llash va professional kadrlarni tayyorlash zarur. Faqatgina shunday holatda bolalar uchun yuqori sifatli va ta‘lim beruvchi ko‘rsatuvlar yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barrett, O. ve Braham, P. (1995). Media, Knowledge and Power, London: Routledge.
2. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni// “Xalq so‘zi” 16.01.2007. 11-12 (4164-4165)-son.
3. Beruniy A.R. Ruhiyat va ta‘lim - tarbiya haqida. - Toshkent: O‘qituvchi. 1992
4. Asqarova N.A. Diqqat yetishmasligi va giperaktivligi sindromidagi psixokorreksion mashg‘ulotlarning o‘ziga xosligi.//Maktab va Hayot. –Toshkent: 2011. № 8. – B. 7 – 8. (19.00.00. №3)

O‘ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN’AT SOHASINING RIVOJLANISHIDA MADANIYAT MUASSASALARINING O‘RNI

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada madaniyat muassasalari ta’rifi, tushunchasi, mohiyati, vazifasi va klassifikatsiyasi haqidagi ba’zi mulohazalar yoritilgan va O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonun-hujjatlari asosida tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** san’at, madaniyat, madaniy faoliyat, madaniyat tashkilotlari, madaniyat muassasalari, davlat muassasasi.*

***Annotation:** This article elucidates various considerations regarding the definition, concept, essence, function, and classification of cultural institutions, and analyzes them based on the legislative acts adopted in the Republic of Uzbekistan.*

***Keywords:** art, culture, cultural activity, cultural organizations, cultural institutions, state institution.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda kabi madaniyat va san’at sohasida ham sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etildi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, shuningdek ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalari davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratiladigan sohalardan biriga aylandi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, oxirgi 5 yilda O‘zbekistonda sohaga oid 4 ta Qonun, Prezidentning 40 ga yaqin Farmon, qaror va far-moyishlari, Vazirlar Mahkamasining 120 dan ortiq qarorlari qabul qilindi⁷².

Mamlakatimizda san’at va madaniyat sohasining rivojlanishida madaniyat muassasalarining ahamiyatidan kelib chiqib, Yangi O‘zbekistonda madaniyat muassasalarining taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratdi, ularning ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni va mavqeini oshirish yo‘lida bir qator tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-yanvarda “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi madaniyat sohasida davlat siyosatining maqsadi va asosiy ustuvor yo‘nalishlarini, mazkur yo‘nalishdagi huquqiy munosabat ishtirokchilari va ularning vakolatlarini, iste’dod egalari va madaniyat muassasalarining huquqiy maqomini belgilab berish barobarida madaniyat tashkilotlarining davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro aloqa hamda hamkorligini takomillashtirish va madaniyat tarmoqlarini raqobatbardoshligini oshirish kabi bir qator muhim masalalarni ham qamrab oldi.

Madaniyat muassasalari tushunchasi haqida so‘z ketar ekan, eng avvalo, davlat muassasasi tushunchasi mazmuniga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

⁷² O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovning “Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasidagi islohotlar” mavzusidagi nutqi. 24.10.2024. [Elektron manba]: <https://gov.uz>. Murojaat sanasi: 10.03.2025.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 76-moddasiga muvofiq, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘la yoki qisman moliyaviy ta‘minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanadi⁷³.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi 302-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat muassasalari to‘g‘risida”gi Nizomning 2-bandida davlat muassasasi boshqaruv, ijtimoiy-madaniy yoki boshqa notijoriy tusdagi vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organi yoki tashkiloti tomonidan tashkil etilgan hamda to‘liq yohud qisman u tomonidan moliyalashtiriladigan yuridik shaxs hisoblanishi belgilandi⁷⁴.

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunining 27-moddasiga ko‘ra, ”Madaniy faoliyat sohasidagi faoliyatni asosiy faoliyat turi sifatida amalga oshiruvchi yuridik yoki yuridik shaxsning tarkibiy bo‘linmasi madaniyat tashkilotidir. Madaniyat tashkilotlari davlat madaniyat muassasalari va tashkilotlari yoki nodavlat madaniyat tashkilotlari shaklida tashkil etilishi mumkin”⁷⁵.

Ushbu qonunning 28-moddasida esa, madaniyat tashkilotlari madaniy faoliyatning turlariga qarab, madaniy-tomosha tashkilotlari, madaniy-ma‘rifiy tashkilotlar va boshqa madaniyat tashkilotlari kabi toifalarga bo‘linishi ko‘rsatib o‘tiladi⁷⁶.

Madaniyat muassasalari tushunchasi manbalarda turli qalqinga ega bo‘lib, turlicha tasniflanmoqda. Shu nuqtai nazardan madaniyat muassasalarining ta‘rifi, tushunchasi, mohiyati, vazifalari va tasniflanishi haqidagi fikrlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Yu.Putrik va A.Solov‘evlarning fikricha, madaniyat muassasalari – boshqaruv, ijtimoiy-madaniy va boshqa vazifalarni bajarish maqsadida tashkil etiladigan tashkilotlar bo‘lib, ularni faoliyatining subekti va obykti sifatida ham alohida shaxs, ham jamiyat namoyon bo‘ladi⁷⁷. Ular madaniyat muassasalarini ijtimoiy vazifalariga ko‘ra, madaniyat muassasalari (klublar, museylar, ko‘rgazmalar, kutubxonalar, istirohat bog‘lari); san‘at muassasalari (teatr, filarmoniyalar, ijodiy jamoalar); ta‘lim muassasalari (oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari, bolalar san‘at maktablari, malaka oshirish tizimi muassasalari); davlat (federal va mintaqaviy) tashkilotlari; munitsipal tashkilotlar; xususiy tashkilotlari kabi tasniflaydilar⁷⁸.

Bundan tashqari, ular madaniyat muassasalarini klub muassasalari (turli darajadagi uylar va saroylar); teatr-tomosha muassasalari (teatrlar, kinoteatrlar, sirkalar, konsert zallari va boshqalar); musey muassasalari (xotira, o‘lkashunoslik, sohaviy, harbiy-

73 O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. Murojaat sanasi: 11.03.2025.

74 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat muassasalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”-gi 302-sonli qarori. 21.07.2023. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. Murojaat sanasi:14.03.2025.

75 O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 20.01.2021. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. Murojaat sanasi:14.03.2025.

76 Qarang: o‘sha joyda

77 Путрик Ю.С., Соловьев А.П. Система учреждений культуры как инструмент государственной культурной политики России. Культурологический журнал. 2023/1/(51) — 2 с. [Elektron manba]: <https://cyberleninka.ru>. Murojaat sanasi:14.03.2025.

78 Путрик Ю.С., Соловьев А.П. Система учреждений культуры как инструмент государственной культурной политики России. Культурологический журнал. 2023/1/(51) — 2 с. [Elektron manba]: <https://cyberleninka.ru>. Murojaat sanasi:14.03.2025.

vatanparlik museylari, musey-qo‘riqxonalar, musey-qo‘rg‘onlar, musey-mehmonxonalar va boshqalar); kutubxona muassasalari (tuman, shahar, davlat, maktab, oliy ta‘lim muassasalari, bolalar, yoshlar kutubxonolari va boshqalar); madaniyat va istirohat bog‘lari (markaziy, shahar, xiyobonlar, bog‘lar va boshqalari) kabi tasniflanishini ham ta‘kidlab o‘tadilar.

J.Uzaqov zamonaviy madaniyat muassasalarining turli ilmiy adabiyotlarda turli klassifikatsiyasi ishlab chiqilganligini ta‘kidlab, ularni aksariyatini ijtimoiy funksiyalariga qarab madaniyat muassasalariga (klublar, museylar, vernisajlar, kutubxonalar, parklar); san‘at muassasalariga (teatrlar, filarmoniyalar, ijodiy jamoalar, folklor guruhlari va hokazo); ta‘lim muassasalariga (madaniyat sohasidagi oliy ta‘lim muassasalari, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari, bolalar san‘at maktablari, madaniyat va san‘at sohasi xodimlarining malakasini oshirish muassasalari) ajratilishini ko‘rsatib o‘tadi⁷⁹.

A.Annayevning fikriga ko‘ra, madaniyat sohasi muassasalari iqtisodiy birlik sifatida o‘ziga xos maqomga, tasnifiy belgilarga, daromad, sarflar, tannarx, foyda va boshqa ko‘rsatkichlarni shakllantirishning boshqa tarmoqlardan tubdan farqlanuvchi tartiblariga ega. U barcha madaniyat muassasalarini O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushurilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, mustaqil balansga, Moliya vazirligining G‘aznachiligida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘lgan iqtisodiy birliklar, deb hisoblaydi⁸⁰.

Sh.Abdatova va M.Xolmo‘minovlarning fikrlariga ko‘ra, madaniyat muassasalari — bu teatrlar, muzeylar, san‘at galereyalari, madaniyat markazlari va boshqa ko‘plab tashkilotlar bo‘lib, ular san‘at va madaniyatni targ‘ib qilish, madaniy ma‘rifatni oshirish vazifasini bajaradi⁸¹.

Xalqaro va xorijiy normativ-huquqiy hujjatlarda madaniyat muassasalari ta‘rifi quyidagicha berilgan: jumladan, Yuneskonning 1976-yil 26-noyabrda Nayrobi shahrida bo‘lib o‘tgan Bosh konferensiyasining 19-sessiyasida qabul qilingan “Madaniy boyliklarni xalqaro miqyosda ayirboshlash to‘g‘risida”gi tavsiyasining 1-bandiga ko‘ra, madaniyat muassasasi deganda, madaniy boyliklarni saqlash, o‘rganish, o‘zlashtirish va ularga keng ommaning kirish imkoniyatini ta‘minlash uchun umumiy manfaatlar yo‘lida foydalaniladigan hamda vakolatli davlat organi ruxsati bilan faoliyat yuritadigan har qanday doimiy muassasa tushuniladi⁸².

Rossiya Federatsiyasining 1998-yil 15-apreldagi 64-FZ-sonli “Ikkinchi jahon urushi natijasida SSR Ittifoqiga ko‘chirilgan va Rossiya Federatsiyasi hududida joylash-

79 Uzaqov J. Madaniyat muassasalari tushunchasi, mohiyati va vazifalari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(8), August, 2023. 103-b. [Elektron manba]: <https://cyberleninka.ru>. Murojaat sanasi: 14.03.2025.

80 Аннаев А.А. Маданият соҳаси муассасаларини молиялаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари. *Journal of marketing, business and management* 5.(57), 2023. 11-6. [Elektron manba]: <https://cyberleninka.ru>. Murojaat sanasi: 14.03.2025.

81 Abdatova Sh., Xolmo‘minov M. Madaniyat muassasalarida marketing kommunikatsiyalarning xususiyatlari. *Transforming education through scientific discovery*. [Elektron manba]: <https://scholar.google.com>. Murojaat sanasi: 10.03.2025.

82 Рекомендация ЮНЕСКО “О международном обмене культурными ценностями” (принята в г. Найроби 26.11.1976 на 19-ой сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО). [Elektron manba]: <https://ur29.ru>. Murojaat sanasi: 05.03.2025.

gan madaniy boyliklar to‘g‘risida”gi Federal qonunning 4-moddasi 10-xatboshisiga muvofiq, madaniyat muassasalari Rossiya davlat (shu jumladan idoraviy) va munitsipal muzeylari, arxivlari, kutubxonalari hamda ta’lim, fan va madaniyat sohasida faoliyat yurituvchi boshqa ilmiy, ta’lim, tomosha va ma’rifiy korxonalar, muassasalar va tashkilotlaridan iborat⁸³.

Belorus Respublikasining “Madaniyat to‘g‘risida”gi Kodeksining 52-moddasiga ko‘ra, “Madaniyat muassasasi – mulkdor tomonidan madaniyat sohasida boshqaruv, ijtimoiy-madaniy va boshqa notijorat xususiyatidagi vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan hamda u tomonidan to‘liq yoki qisman mablag‘ bilan ta’minlanadigan madaniyat tashkilotidir⁸⁴.

Qozog‘iston Respublikasining “Madaniyat to‘g‘risida”gi qonunning 5-bobi madaniyat sohasidagi faoliyat deb nomlanib, 19-31-moddalari madaniyat tashkilotlari faoliyatiga oid normalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qonunning e’tibor beradigan jihati shundaki, madaniyat muassasalari haqida norma mavjud emas va ular faoliyat turlariga ko‘ra tasniflanmagan⁸⁵.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, madaniyatshunoslikda madaniyat muassasalari ta’rifi, tushunchasi va klassifikatsiyasi borasida yagona yondashuv mavjud emasligi haqida xulosaga kelish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunining 27-moddasidan kelib chiqib, madaniyat muassasasi eng avvalo madaniyat tashkilotidir.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan madaniyat tashkilotlarini madaniyat muassasasi tarkibiga kiritishda, birinchi navbatda uning boshqaruv, ijtimoiy-madaniy yoki boshqa notijoriy tushdagi vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organi yoki tashkiloti tomonidan tashkil etilishiga hamda to‘liq yohud qisman u tomonidan moliyalashtirilishiga e’tibor berish maqsadga muvofiq. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi 302-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat muassasalari to‘g‘risida”gi Nizomning 8-bandiga ko‘ra, davlat muassasasini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorda hamda uning ustavi (nizomi)da tashkiliy-huquqiy shakli davlat muassasasi ekanligi ko‘rsatilgan normani e’tiborga olish lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bir nechta madaniyat tashkilotlari haqida to‘talib o‘tamiz:

Madaniyat markazlari O‘zbekiston Respublikasi “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunining 29-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 264-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Madaniyat markazlari to‘g‘risida”gi Namunaviy Nizomning 2-bandiga muvofiq, madaniyat vazirligi tizimidagi davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan, aholining madaniy ehtiyojlarini o‘rganish, shuningdek madaniy-ma’rifiy va ko‘ngilochar xizmatlar ko‘rsatish

83 Федеральный закон от 15.04.1998 N 64-ФЗ “О культурных ценностях, перемещенных в Союз ССР в результате Второй мировой войны и находящихся на территории Российской Федерации”. [Elektron manba]: <https://ur29.ru>. Murojaat sanasi: 05.03.2025.

84 Кодекс Республики Беларусь о культуре от 20 июля 2016 года № 413-3. [Elektron manba]: <https://online.zakon.kz>. Murojaat sanasi: 09.03.2025.

85 Закон Республики Казахстан от 15 декабря 2006 года № 207-III «О культуре» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 15.03.2025 г. [Elektron manba]: <https://online.zakon.kz>. Murojaat sanasi: 09.03.2025.

bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, badiiy ijod, amaliy san'at va havaskorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxsdir⁸⁶.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrdagi "Muzeylar to'g'risida"gi qonuni 3-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-apreldagi 68-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi to'g'risi"dagi Nizomning 2-bandiga ko'ra, "Muzey — muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o'rganish hamda ommaga namoyish etish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi notijorat madaniyat muassasasi hisoblanadi⁸⁷.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-apreldagi 329-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida" Nizomning 2-bandiga muvofiq davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi⁸⁸. Bunda davlat teatr va konsert-tomosha muassasalari — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini amalga oshirish masalalari haqida"gi 1995-yil 28-oktabrdagi 415-sonli qarorining 1-ilovasida ro'yxati berilgan⁸⁹.

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi qonunining 9-moddasiga ko'ra," Axborot-kutubxona tizimi yagona tashkiliy va uslubiy ta'minot asosida faoliyat ko'rsatuvchi axborot-kutubxona muassasalari majmuidir. Axborot-kutubxona muassasasi mustaqil muassasa bo'lishi yoxud korxon, muassasa yoki tashkilotning tarkibiy bo'linmasi bo'lishi mumkin.

Axborot-kutubxona muassasalariga O'zbekiston Milliy kutubxonasi; axborot-kutubxona markazlari; axborot-resurs markazlari; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari; boshqa kutubxonalar (fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalari) kiradi⁹⁰.

Xulosa

Xulosa o'rnida, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, madaniyat markazlari, mu-seylar, teatrlar, konsert-tomosha muassasalari, ta'lim muassasalari, axborot-kutubxona muassasalari va boshqalarni madaniyat muassasalar jumlasiga kiradi. Shu bilan birga,

86 O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30-martdagi 264-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Madaniyat markazlari to'g'risida"gi Namunaviy Nizom. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. Murojaat sanasi: 10.03.2025.

87 O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 12-apreldagi 68-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi to'g'risi"da Nizom. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. Murojaat sanasi: 10.03.2025.

88 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-apreldagi 329-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida" Nizom. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. Murojaat sanasi: 12.03.2025.

89 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini amalga oshirish masalalari haqida" 1995-yil 28-oktabrdagi 415-son qaroriga 1-ilova. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. Murojaat sanasi: 12.03.2025.

90 O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. Murojaat sanasi: 12.03.2025.

aksariyat madaniyat muassasalarini ijtimoiy funksiyalariga qarab, madaniyat muassasalari (madaniyat markazlari, museylar, vernisajlar, kutubxonalar, madaniyat va istirohat bog‘lari), san‘at muassasalari (teatrlar, filarmoniyalar, ijodiy jamoalar, folklor guruhlari va hokazo) va ta‘lim muassasalari (madaniyat sohasidagi oliy ta‘lim muassasalari, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari, bolalar san‘at maktablari, madaniyat va san‘at sohasi xodimlarining malakasini oshirish muassasalari) kabi tasniflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovning “Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san‘at sohasidagi islohotlar” mavzusidagi nutqi. 24.10.2024. [Elektron manba]: <https://gov.uz>. *Murojaat sanasi*: 10.03.2025.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. *Murojaat sanasi*: 11.03.2025.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat muassasalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 302-sonli qarori. 21.07.2023. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. *Murojaat sanasi*: 14.03.2025.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 20.01.2021. [Elektron manba]: <https://lex.uz>. *Murojaat sanasi*: 14.03.2025.

5. Путрик Ю.С., Соловьев А.П. Система учреждений культуры как инструмент государственной культурной политики России. *Культурологический журнал*. 2023/1/(51) — 2 с. [Elektron manba]: <https://cyberleninka.ru>. *Murojaat sanasi*: 14.03.2025.

6. Uzaqov J. Madaniyat muassasalari tushunchasi, mohiyati va vazifalari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(8), August, 2023. 103-b. [Elektron manba]: <https://cyberleninka.ru>. *Murojaat sanasi*: 14.03.2025.

7. Аннаев А.А. Маданият соҳаси муассасаларини молиялаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари. *Journal of marketing, business and management* 5.(57), 2023. 11-б. [Elektron manba]: <https://cyberleninka.ru>. *Murojaat sanasi*: 14.03.2025.

8. Abdatova Sh., Xolmo‘minov M. Madaniyat muassasalarida marketing kommunikatsiyalarning xususiyatlari. *Transforming education through scientific discovery*. [Elektron manba]: <https://scholar.google.com>. *Murojaat sanasi*: 10.03.2025.

KUTUBXONA-AXBOROT MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISHDA TAJRIBA-SINOV LOYIHALARINING AHAMIYATI QANDAY?

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kutubxona-axborot muassasalarining bugungi kundagi ahamiyati, rivojlanish darajasi, tajriba-sinov loyihalarining amalda mavjudligi va ularning kengayib borishi haqida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kutubxona, kitobxon, mahalla kutubxonasi, mutolaa.*

Annotation: *This article discusses the current importance of library and information institutions, their level of development, the existence of pilot projects, and their expansion.*

Keywords: *library, book reader, neighborhood library, reading*

Kitobsiz uy – qalbsiz tanaga o‘xshaydi. (Sitseron)

Jamiyatni ma’naviyatli qilib yuksaltirish insoniyatning zamonaviylashib, o‘sib ketayotgan aqliy salohiyatiga borib taqaladi. O‘qimishli bo‘lib yetishib chiqish harakatidagi yoshlarning aksariyat qismini kutubxona-axborot muassasalarida mustaqil izlanib, yoki tinch sharoitda boshqalarga chalg‘imaganda dars qilishlarini kuzatishimiz mumkin. Milliy madaniyatni chuqur anglash, uning rivoji va evolyutsiyasini tahlil qilishda Respublikaning universal fondga ega bo‘lgan kutubxona-axborot muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi.

2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilgan, shu jumladan kutubxona-axborot faoliyati sohasida ham. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish borasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish maqsadida joylarda kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, aholi o‘rtasida milliy va jahon mumtoz adabiyotining yuksak namunalarini targ‘ib qilish, jumladan nashriyotlar, kitobxonlar hamda kutubxonachi va targ‘ibotchilar orasida “Yilning eng yaxshi kitobi”, “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla” “Eng kitobxon oila”, “Yilning eng yaxshi bolalar kitobi”, “Yilning eng yaxshi audio kitobi”, “Yilning eng yaxshi elektron kitobi” kabi tanlovlar o‘tkazish haqidagi nizom tasdiqlangan.⁹¹

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoning 72-maqсадida “Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umum-milliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish” shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda “2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniya-

⁹¹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 38-son, 1029-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son, 13.12.2019-y., 06/19/5893/4150-son

tini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-son qarorida kitobxonlikni rivojlantirish vazifasi belgilangan. Bundan tashqari bugungi kunda Yurtboshimiz tomonidan 3-Renessanas, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi ilgari surilmoqda. Buni ro‘yobga chiqarish uchun esa eng avvalo insonlar, ayniqsa, yoshlar ongida ma’naviyatni yuksaltirish zarur. Ma’naviyatni yuksaltirishning asosiy vositasi esa kitob va kitobxonlikdir.

“Toshkent shahri mahallalarida kutubxonalar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi muhokamaga qo‘yildi.

Qarorga ko‘ra, Toshkent shahar hokimligiga balansida “Mahalla kutubxona”si mavjud bo‘lgan mahallalarni kamida 600 (olti yuz) dona adabiyot, aholiga keng qamrovli axborot berish salohiyatiga ega gazeta, jurnallar bilan ta’minlash hamda mazkur kutubxonalarda 1 ta kutubxonachi shtatini saqlash choralari ko‘rish;

Uch oy muddatda Toshkent shahri mahallalarida hamda mahalla fuqarolar yig‘ini guzarlarida tashkil etilgan kutubxonalarni kompyuter texnikasi va boshqa turdagi texnika, mebel, shu jumladan, maxsus mebel, shuningdek, tegishli kutubxona uskunalari bilan jihozlash, bunda imkoniyati cheklangan shaxslarga xizmat ko‘rsatish uchun maxsus kompyuter jihozlari va boshqa qo‘shimcha vositalar bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratish;

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda Mahalla kutubxonalarini yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulanishini va Wi-Fi zonalar tashkil etish vazifasi yuklanadi.

Xarajatlar tuman mahalliy budjeti, homiylik va qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Eksperiment natijalariga ko‘ra, Toshkent shahrining barcha mahalla fuqarolar yig‘inlarida kutubxonalar tashkil etilishi ko‘zda tutilib, Hozirgi kunda Respublikamizda 9000 ta mahalla mavjud bo‘lib, shundan 800 tasida mahalla kutubxonalari tashkil etilgan, rejaga ko‘ra 2026-yilga qadar bu kutubxonalar soni ko‘paytirilib, faoliyatini me’yoriy talab darajasiga ko‘ra yo‘lga qo‘yilishi lozim. Ilgari ham mahallalarda kutubxonalar mavjud bo‘lgan, ammo ular Tuman kutubxonalari filiali sifatida faoliyat yuritgan. Yangi nizom bo‘yicha mahalla kutubxonalari “Mahalla fuqarolar yig‘ini” tarkibida tashkil etilmoqda.

“Kitobxon mahalla” loyihasi doirasida “Kitob sayohati” aksiyasi So‘nggi yillarda prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbusining biri bo‘lmish kitobxonlik targ‘iboti yuzasidan ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, xalqimizga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda kitobxonlik va kitob targ‘ibotini kuchaytirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bugungi kunda bu loyihalarga muvofiq homiylik va xayriya asosida mahalliy aholiga tashkil qilingan kutubxonalar mavjud. Ular Andijon, Buxoro, Farg‘ona, Namangan, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Surxandaryo, Xorazm, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida tashkil etilgan. Ular jami 58 ta kutubxonalar bo‘lib, ulardan 6 tasi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston

Milliy kutubxonasi bazalariga ulanganligi hamda 17 ta kutubxonada kompyuter mavjud, qolganlarida kompyuter mavjud emasligi aniqlangan. Ularning orasidan Abbos Abduqodirov ismli tadbirkor tomonidan tashkil etilgan Toshkent shahridagi “**Bookclub**” nomi bilan faoliyat yuritayotgan kutubxonaga haqida o‘rganib chiqdim. Bu kutubxonaning faoliyati 2020-yilda yo‘lga qo‘yilgan. Kutubxonaga Mirzo ulug‘bek tumani, Tamaraxonim ko‘chasi, “Asaka” mahallasida joylashgan bo‘lib, kutubxonaning umumiy maydoni 12 m² ni tashkil etadi. Muhim jihati shundaki: foydalanuvchilar adabiyotlarni begilangan ma’lum muddatga uylariga olib ketish imkoniyatiga ega. Kutubxonaning belgilangan ichki tartib-qoidalari mavjud.

Bundan tashqari, mutolaa qilishni sevuvchi foydalanuvchilar uchun “Mehr kutubxonasi” deb ataluvchi yana bir bepul kutubxonaga haqida ma’lumot berib o‘tmoqchi-man. Bu kutubxonaga Toshkent shahrida faoliyat yuritadi hamda Toshkent viloyati Angren tumanida ham filiali mavjud. Kutubxonaga Chorsu, Gum Mall, Sobiq Turkuaz binosida joylashgan bo‘lib, *ishvaqti*: 9:30 dan 17:30 gacha, *dam olish kuni*: juma kuni. Mehr kutubxonasi 2021-yilda o‘z faoliyatini boshlagan. Kutubxonaga fondida hozirgi kunda 4391 ta adabiyot mavjud. Kitobxonlar o‘zlari tanlagan adabiyotlarni belgilangan muddatga uylariga olib ketish foydalanishlari mumkin. Bu kutubxonaga foydalanuvchilari 4058 tani tashkil etadi. Foydalanuvchilar adabiyotlarni online bot orqali bron qilishlari ham mumkin, bundan tashqari kutubxonada bo‘sh turgan kitoblarni ushbu bot @mkitobot (<https://t.me/mkitobot>) orqali ko‘rish imkoniyati ham yaratilgan ekan.

Shu bilan birgalikda, banklar tomonidan tashkil etilayotgan kutubxonalar mavjud. Banklar Toshkentdagi 110 ta mahallada kutubxonaga tashkil etmoqda. Bular:

Sanoatqurilishbank – 15 ta,

Milliy bank – 14 ta,

Xalq banki – 10 ta,

Hamkorbank – 8 ta,

Ipak yo‘li banki – 8 ta,

Davrbank – 7 ta,

Oriyent Finans Bank – 6 ta,

Trastbank – 6ta,

Turonbank – 6 ta,

Aziya Allians Bank – 5 ta,

Asakabank – 4 ta,

Biznesni rivojlantirish banki – 3 ta,

Infinbank – 3 ta,

Mikrokreditbank – 3 ta,

Aloqabank – 2 ta mahallada kutubxonalar ochilib ishga tushirilmoqda.

Banklar tomonidan kutubxonaga tashkil etilayotgan mahallalarning tumanlar kesimidagi ro‘yxati:

- **Bektemir tumani**: Nurafshon, Musaffo mahallalari;
- **Mirzo Ulug‘bek tumani**: Bog‘imaydon, Mustaqillik, Munavvarqori, Shahriobod, Darhon, Oliy himmat, Alisherobod, Azamat mahallalari;

- **Mirobod tumani:** Quyliq-ota, Temiryo‘lchilar, Parvona, Salar, Sharof Rashidov, Yuksalish, Oltinko‘l, Tolaqir, Yangi Qo‘yliq, Movarounnahr mahallalari;

- **Olmazor tumani:** Qichqiriq, Abu Bakr Shoshiy, G‘alaba, Moyariq, Yoshlik, Bo‘stonobod, Guzarboshi, Guruchariq, Universitet, G‘ani A‘zamov, Elparvar, Achao-bod mahallalari;

- **Sergeli tumani:** Saxovat, Asrobod, Nilufar mahallalari;

- **Uchtepa tumani:** Farhod, Jarbuloq, Istirohat, Shaftolizor, O‘tkir, Taqachi, Diyo-robod, Vatan, Ko‘kcha-Oqtepa mahallalari;

- **Chilonzor tumani:** Katta Navbahor, Sharq, Mehrjon, Novza, 3-Charx Kamolon, Bahoriston, Do‘mbirobod, Sharaf, Xonto‘pi, Mevazor, Xirmontepa, Xayrobod, Dilo-bod mahallalari;

- **Shayxontohur tumani:** Bo‘ston, Kamolon Darvoza, Gulobod, Beltepa, Gulbozor, Huvaydo, Yangi Kamolon, Ipakchi, Bog‘ ko‘cha, Kichik Xirmontepa mahallalari;

- **Yunusobod tumani:** Tiklanish, Halqabog‘, Shahrison, Kulolqo‘rg‘on, Iftixor, Turkiston, Yurtobod, G‘ayratiy, Sevinch, Islomobod mahallalari;

- **Yakkasaroy tumani:** Armug‘on, Yunus Rajabiy, Muqimiy, Rakat, Dilbuloq, Kons-titutsiya, Abdulla Qahhor, Bog‘saroy mahallalari;

- **Yangihayot tumani:** Olchazor mahallasi;

- **Yashnobod tumani:** Uch chinor, Mohinur, Qalqon, Behizor, Parvoz, To‘ytepa, Iltifot, Qadriyat, Tong, Dilbog‘, Go‘zal, Al-Xorazmiy mahallalari.

2025 yildan boshlab bosqichma-bosqich mahalla kutubxonalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish rejalari ishlab chiqilmoqda. Bunga ko‘ra quyidagi amalga oshiriladigan vazifa-lar belgilanmoqda:

- mahalla kutubxonalarining kitob fondini doimiy yangilab borish bilan bog‘liq xarajatlar Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi, mahal-liy hokimliklar tomonidan ajratiladigan, shuningdek, jalb etiladigan homiylik xayriya mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi;

- mahalla kutubxonalarida kutubxona ishlarini yuritish mahalla fuqarolar yig‘inla-rida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar tomonidan olib boriladi;

- mahalla kutubxonalari faoliyatini uslubiy-metodik ta‘minlash tuman (shahar) ax-borot-kutubxona markazlari tomonidan amalga oshiriladi;

- xususiy va mahalla kutubxonalarini tashkil etishda, ularning faoliyat yuritishida hamda joylarda aholi o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilishda katta hissa qo‘shayotgan fuqarolarga “Axborot-kutubxona a‘lochisi”, “Ma‘naviyat fidoyisi” ko‘krak nishonlari Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston mahallalar uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi rahbar va mas‘ul xodimlari hamda tuman va shahar hokimlari ishtirokida tantanali ravishda topshiriladi;

- “Yilning eng yaxshi xususiy kutubxonasi” va “Yilning eng yaxshi mahalla kutu-bxonasi” tanlovlari ikki bosqichda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Tos-hkent shaharda iy bosqich hamda iy bosqich g‘oliblari o‘rtasida respublikasi bosqichi o‘tkaziladi;

- “Yilning eng yaxshi xususiy kutubxonasi” va “Yilning eng yaxshi mahalla kutu-bxonasi” tanlovlari bo‘yicha har biridan jami 42 nafardan g‘olib va sovrindorlar aniq-

lanib, ular bazaviy hisoblash miqdorining 15 barobaridan 50 barobarigacha pul mukofotlari bilan taqdirlanadi;

- “Yilning eng yaxshi xususiy kutubxonasi” va “Yilning eng yaxshi mahalla kutubxonasi” tanlovlari bilan bog‘liq sarf-xarajatlar O‘zbekiston Respublikasining axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish hamda Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armalari hisobidan teng ulushlarda qoplanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 38-son, 1029-moddada; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son, 13.12.2019-y., 06/19/5893/4150-son
2. <http://www.bookclub.uz/>
3. www.mehrkutubxonasi.uz
4. <https://m.kun.uz/news/2024/04/06/ozbekistonda-mahalla-kutubxonalari-faoliyati-yolga-qoyiladi>

MAKTAB KUTUBXONACHILARI BUGUN QANDAY MAQOMGA EGA? ULAR TEXNIK XODIMMI?

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktab kutubxonachilarining bugungi kundagi maqomi qanday ekanligi, nega ular aynan texnik xodim sifatida atalashi, bu maqom boshqa muqobil bo‘lgan yondashuvga ega bo‘lishi to‘g‘risida fikr mulohazalar berib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** kutubxonachi, kutubxona, madaniyat, maktab, pedagog, ta’lim, tarbiya.*

***Abstract.** This article discusses the current status of school librarians, why are they referred to as technical staff, and whether this status has an alternative approach.*

***Key words:** librarian, library, culture, school, teacher, education, upbringing.*

Bugungi kunda mamlakatimizda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–4354-son Qarorida esa, “Kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish (shu jumladan, pulli xizmat ko‘rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish; axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta‘minlash; jamiyatning axborot madaniyatini, tariximizga va milliy madaniyatga qiziqishini shakllantirish va kuchaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, Respublikamizda 21-may “Kutubxonachilar kuni” deb belgilanib, bunda kutubxonachilarni ko‘p yillik halol mehnati va axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlash va rag‘batlantirish belgilandi. Mana qariyb 5 yildan buyon ushbu kun barcha kutubxona muassasalarida keng nishonlanib, kutubxona sohasida fidoiy bo‘lgan kasbimiz faxriylari munosib tarzda taqdirlanib kelinmoqda.

Har zamonda kadrlar masalasi o‘ta muhim ahamiyat kasb etgan va bugungi davr talabi bundan mustasno emas. Shu bilan birga, qaysi soha, qaysi tarmoq bo‘lmasin, malakali kadrlarga ham talab har doim yuqori bo‘lgan. Jamiyat va davlat rivoji aynan kadrlarga bog‘liq deya ilgari surilgan ibora ham o‘z mag‘zini yo‘qotgani yo‘q, bosh

ustiga, dolzarbligini yanada yorqinroq namoyon etmoqda. Bu masala kutubxonachi kadrlarni yetishtirish holatini chetlab o'tgani yo'q emas, albatta. Bugungi kunga kelib, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida kutubxonachi kadrlar tayyorlanib kelinmoqda. Bundan tashqari, kutubxonachi kadrlarni malakasini oshirish, o'z sohasi bo'yicha yangicha bilimlarga ega bo'lish maqsadida respublika bo'ylab seminar, trening, mahorat darslari, turli tanlovlar, tadbirlar o'tkazilmoqda. Bu ijobiy holat. Lekin kadrlar masalasida bir oz og'riqli nuqtalarimiz bor, desak yanglishmagan bo'lamiz. Har yili oliy ta'limning kunduzgi va sirtqi ta'lim bosqichlarida 500 ga yaqin kutubxonachi mutaxassislar ushbu sohani tamomlaydi. Ammo ularning hammasi ham o'z yo'nalishi bo'yicha ishlayotimi, degan savol tug'iladi.

Har bir inson maktab ostonasidan qadam qo'yar ekan, ilk harfni savodi chiqqanda yutli xil ertaklar, she'rlar o'qishga qiziqqan. Ushbu narsalarga qiziqishga maktab kutubxonachisi sababchi bo'lgan. Bizni yoshligimizdan kitob olamiga olib kiruvchi shaxs bo'lib, u bolalar uchun ham ustozdir. Ko'pchilik bu mutaxassislik haqida kam narsa biladi. Kutubxonachi o'z mas'uliyati, ish xususiyatlari va talablariga ega bo'lgan muhim lavozimdir. O'qituvchining ma'lum bir qisqa vaqti o'quvchiga bag'ishlangan bo'lsa, agar kutubxonachi o'quvchilar qalbiga yo'l topa olsa, bolaning asosiy vaqti kutubxonada o'tadi. Kutubxona bolaning eng sevimli maskaniga aylanadi. Avvalo, biz maktab kutubxonasi shu o'quv maskaning bir bo'lagi, tarkibiy qismi ekanini unutib qo'ydik. Ya'ni, kutubxona o'quv jarayonining asosi, o'zagi ekanini, shu joyda bolaning kelajagi yaratilishi, bolaning kutubxon sifatida shakllanishi, kelgusida bolaning maktab kutubxonasi tufayli, kutubxonachi ta'sirida hayot yo'lini to'g'ri tanlay olishini yoddan chiqardik.

Vaholanki, maktab kutubxonachisi — pedagog, lozim bo'lsa pedagog bilan teng mutaxassis, o'qituvchi o'zi o'tadigan fan yuzasidan bilim bersa, kutubxonachi barcha fanlarga oid qo'shimcha bilimlarni beradi, bolada o'qish madaniyatini, o'zi namunasida kiyinishi madaniyatini, odob-axloq ko'rinishlarini, badiiy-estetik jihatlarni tarbiyalaydi, bolaning yaxshi inson bo'lib yetishishida turtki bo'ladi, hatto ota-onasi berolmagan tarbiyani beradi. Kutubxonachi — tarbiyachi. U boshqa kasb egalarida topilmaydigan ma'naviy qurol kitob oraqali insonni tarbiyalaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda 10 163 ta maktab bor, ular orasidagi 58 ta maktabda kutubxona yo'q bo'lib, 10 105 tasida esa kutubxonalar mavjud. Ularda 12 164 ta kutubxonachi faoliyat yuritadi, 1018 tasi oliy ma'lumotli bo'lsa, shundan 521 tasi maxsus kutubxonachilik bilimiga ega, 10625 tasi turli o'rta maxsus ma'lumotga ega xodimlar. Ko'p joylarda kutubxonachilarning soni yetarli emas. Kutubxonalar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmagan, kutubxonachilarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishi yetarlicha yo'lga qo'yilmagan.

Ko'rinish turibdiki, oliy ta'limni bitirgan shaxslar soha bo'yicha ishlamayapti. Kamdan kam hollarda oliy ma'lumotli kutubxonachi maktab kutubxonasida faoliyat yuritmasa, nomutaxassis bo'lgan kadrlar kutubxonachi lavozimida ishlab kelmoqda. Bugungi kunga kelib, kutubxonachi shunchaki "kitob saqlovchisi" emas, balki o'qish madaniyatini, tanqidiy fikrlashni va manbalar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiruvchi, axborot

olamida ustoz va rahbardir. Nima uchun unda maktab kutubxonachisi “pedagog” emas, “texnik” xodim sifatida qarab kelinyapti? Aynan shu boisdan ham ular bu sohada faoliyat yuritishni xoxlamaydilar.

Mening fikrimcha, maktab kutubxonachisiga texnik xodim sifatida qarash unchalik to‘g‘ri yondashuv emas, chunki u nafaqat kitoblarni saqlash va ro‘yxatga olish bilan shug‘ullanadi, balki o‘quvchilarning bilim va axborot savodxonligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular bevosita o‘quvchilar bilan ishlaydi, ular bilan muloqot qiladi. Agar maktab kutubxonachisi maqomi texnik xodim bo‘lsa (o‘qituvchi emas), nega ular 4 yil davomida oliy ta’limda tahsil oladilar? Axir texnik xodim sifatida qarash, bu ularni farroshlar maqomi bilan teng ko‘rish emasmi? Agar pedagog bola bilan ishlaydi deb aytusak, kutubxonachi ham xuddi shunday vazifani bajarmaydimi? Keling, nima uchun pedagog emas, texnik xodim sifatida ko‘rilishi uchun mumkin bo‘lgan sabablarni ko‘rib chiqamiz.

Pedagogik xodim bo‘lish uchun, odatda, maxsus pedagogik ta’lim olish talab qilinadi va pedagogik malaka oshirish kurslaridan yillar davomida o‘zining malakalarini oshirish kerak bo‘ladi. Kutubxonachilar esa aksariyat hollarda kutubxonashunoslik, axborot texnologiyalari yo‘nalishida ta’lim olgan bo‘ladi, lekin ular rasmiy pedagogik diplom yoki sertifikatga ega bo‘lmaganligi sababli, ularning vazifalari asosan axborot resurslari va hujjatlarni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarga bevosita dars o‘tish majburiyati yo‘q. Ammo kutubxonachi pedagog bajargan vazifalarning ma’lum qismlarini o‘z vazifasi doirasida u ham bajaradi. Masalan:

Tarbiyaviy roli. Kutubxonachilar kitobxon o‘quvchilarni kitob o‘qishga rag‘batlantirish orqali ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ularning ongiga singdiradilar. Yaxshi va yomonni farqlash, odob-axloq qoidalariga rioya qilish kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradilar. Bir so‘z bilan aytganda, ularning ma’naviy kamol topishida yetakshi shaxslardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniy ta’lim. Kitobxonlarni badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishini orttirish, kitobga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshirish uchun targ‘ibot ishlarni olib boradi, tadbirlar tashkil etadi, kitob ko‘rgazmalari va konferensiyalar o‘tkazadi. Kitobxonlar o‘rtasida o‘qilgan asar yuzasidan insholar, hikoyalar va badiiy asarlar yozdirish orqali dunyoqarashini kengaytirishga hissa qo‘shadi.

Kutubxonachi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi uzviylik. O‘quv materiallarini yaratishga, darslar va loyihalar uchun adabiyotlarni tanlashga yordam beradi. Ularning hamkorligi ta’lim jarayonining yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘qituvchilar uchun darslarni rejalashtirishda kerakli ilmiy va adabiy manbalarni topishga, o‘quv dasturiga mos keladigan yangi kitob va maqolalarni tavsiya etadilar. Bu orqali o‘qituvchilarning ishini yengillashtiradilar.

Media savodxonligini rivojlantirish. Maktab kutubxonachisi nafaqat kitoblarni taqdim etish, balki foydalanuvchilarga ishonchli axborotni tanlash, tahlil qilish va undan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatishdir. Ko‘pincha raqamli resurslar, onlayn ma’lumotlar bazalari va raqamli kutubxonalarni o‘rgatadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga ko‘ra, kutubxonachi texnik xodim bo‘lmasligi garchi u ta’lim bermasa-da, uning maqomini boshqa bir maqbul bo‘lgan nomga

o'zgartirishimiz lozim deb o'ylayman. Agar kutubxonachilar texnik xodimlar sifatida qolsa, ularning ta'limga qo'shgan hissasi kam baholanadi. Kutubxonachilar pedagogik maqomga ega bo'lsa, ularga o'qituvchilar kabi yuqori oylik maosh va qo'shimcha imtiyozlar (uzaytirilgan ta'til, ish stajining hisoblanishi) beriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kutubxonachilarni shunchaki texnik xodim emas, balki **axborot-pedagogik** yo'nalishda ko'rib chiqish kerak. Biz kadrlar bo'limi bugungi kunga kelib, "HR" nomiga o'zgartirilganligini yaxshi bilamiz, ularning jamiyat oldidagi nufuzi oshdi, yangi imkoniyatlar va vazifalar olib kirildi, endilikda ular xodimning ishga kirish yoki ishdan ketishini emas, balki mehnat munosabatlarini samarali boshqarish, intizom va ish unumdorligini oshirish hamda xodimlar huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ularning to'g'ri va aniq ishlashi kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam beradi. Shu sababli bugun ular yuqori obro'ga ega hisoblanishadi. Biz ham kutubxonachilar o'qituvchilar maqomini yoki hech bo'lmaganda ularning ma'lumot va ta'lim rolini aks ettiruvchi alohida toifani olishimiz kerak. Bu ularga rivojlanish, ta'lim dasturlarida ishtirok etish va bolalarning ta'lim va tarbiyasiga yanada katta hissa qo'shish uchun motivatsiya beradi. Hukumat darajasida kutubxonachilarning rolini oshirish, ularning maqomini pedagogik xodimlarga tenglashtirish yoki alohida toifadagi xodim sifatida ajratish bo'yicha islohotlar amalga oshirilishi vazifalari kengaytirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. PQ-4357-son. // Xalq so'zi. 2019.– 8-iyun. – B. 3.
2. А. Л. Третьяков Специфика педагогической деятельности школьного библиотекаря по правовому просвещению обучающихся// С. 121–125
3. Третьяков А. Л. Современная школьная библиотека как социальный институт и правовое просвещение обучающихся: теоретико-методологический и организационный аспекты // Инновации в науке и образовании: молодёжные инициативы, исследования, трансфер технологий: сб. ст. к междунар. науч.-практ. форуму (18 ноября 2016 г.). Оренбург, 2016. — С. 258–261.
4. Yo'ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. — Toshkent: O'zbekiston, 2003. — 200 b.
5. <https://ec-dpo.ru/novosti/n647>
6. <https://uzedu.uz/uploads/downloads/>
7. [https://proza.ru/2010/03/22/134\](https://proza.ru/2010/03/22/134)

Bobur Jabborov,
O‘zDSMI I-bosqich tayanch doktoranti

**TOVUSH BIRIKMALARI VA TALAFFUZ USTIDA
ISHLASHNING INNOVATSION USLUBLARI**
(dotsent I. Djumanovning uslubiy yondashuvlari)

***Annotatsiya.** Maqola ko‘p yillik tajribaga ega O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, dotsent Isoqtoy Djumanovning tovush birikmalari va talaffuz ustida ishlashning innovatsion uslublari haqida.*

***Kalit so‘zlar:** sahna nutqi, talaffuz, ovoz, innovatsion uslub, qo‘g‘irchoq teatri, imitatsiya.*

***Abstract.** The article is about innovative methods of working on sound combinations and pronunciation of the assistant professor Isoktoy Djumanov, a youth trainer who has served in Uzbekistan with many years of experience.*

***Key words:** stage speech, pronunciation, sound, innovative style, puppet theater, imitation, puppet theater.*

*So‘z — insoniy fikr sarchasmasi.
I. Djumanov*

Har bir davlatning ravnaq topib yuksalishida jamiyatning ma’naviyati, madaniyati, estetik didi va tafakkuri alohida o‘rin kasb etadi. Mana shu nutqayi nazardan aytishimiz mumkinki, san’at, madaniyat va musiqa san’ati insonlardagi ong va fikrlash doirasini rivojlantirishda asosiy vositalaridan biridir. Bugungi seminarimiz doirasida e’tiboringizga taqdim qilinayotgan Sahna nutqi kafedrasida 1973-yildan e’tiboran faoliyat ko‘rsatib kelayotgan, ustoz pedagoglarimizdan biri I. Djumanovning sermashaqqat va ibratli nazariy va amaliy uslubiy yondashuvlariga nazar solishni shogirdlik burchimiz deb bilamiz.

Djumanov domla o‘zining “Badiiy o‘qish mahorati” o‘quv qo‘llanmasida shunday ta’kidlagan edi: “teatr, kino, estrada, radio va televideniya badiiy so‘z mahorati bugungi kunda yanada keng qamrovli vazifalari va maqsadlari bilan ijtimoiy hayotimiz, san’at, madaniyat va ma’naviyatimizning asosiy ifodaviy vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda” [1; 6-bet]. Zero, jamiyat o‘z ma’naviyatini va madaniyatini, milliy g‘oya qadriyatlarining shakllanishi va yuksalishiga ustuvor e’tibor qaratarkan, bu yo‘lda so‘z san’atining ahamiyati va vazifalarini talabalik davrimizdan anglashga qalbimizda jamlashga va ijodiy jarayonlarimizda dasturulamal qilib ifoda etishga chuqur e’tibor qaratamiz. Xalqimizga targ‘ibot qiluvchi ijodkor shaxs sifatida uning istiqboli porloq bo‘lishini his etamiz.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida turli fanlardan ta’lim berayotgan professor o‘qituvchilar o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishayotganini, respublikamizdagi teatr va madaniyat muassasalaridagi badiiy saviyaga ko‘ra baholaymiz. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, dotsent Isoqtoy Djumanov o‘zining

pedagogik ish faoliyati davomida dramatik teatr va kino aktyorlari, estrada aktyorlari, qo‘g‘irchoq teatr aktyorlari va rejissyorlari tarbiyasiga unumli hissa qo‘shib jamiyatimiz uchun yetuk, mohir san‘at va madaniyat xodimlarini tarbiyalab kelmoqda.

I. Djumanovni ilk bor 2015-yili Andijon viloyatidan “San‘atkor bo‘laman” deb Toshkenti – azim shaharga kelib, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutiga hujjatlarimni topshirish uchun kelganimda ko‘rgan edim. Yodimda, o‘sha paytda ustoz bir ko‘rishimdayoq xushfe‘l, samimiy, yuzlari juda nurli va shuningdek, o‘ziga yarasha salobatli ko‘ringan. Odatda, abituriyentlar hujjatlarini topshirishdan avval “maslahatchi” bilan uchrashib, unga she‘r, monolog, masal yoki qo‘shiq aytib, o‘sha maslahatchining fikr va mulohazalarini inobatga olgan holda hujjatlarini o‘zining ijodiy salohiyati va layoqati to‘g‘ri keladigan yo‘nalishga topshirardi. Ustoz uzoq yillar yozgi ta‘til payti bo‘lishiga qaramay mana shunday mas‘uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olar edi. I. Krilov yozgan “Badmast quyon” masalimni eshitib, ijroyimni tahlil qilib, “Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi” yo‘nalishiga hujjatlarimni topshirishim kerakligini taklif berganlar. Taqdir taqozosi bilan mana shunday qalbi ummondek keng, o‘zining kasbi uchun butun umrini baxshida etgan, jonkuyar insonning qo‘lida 4 yil bakalavr, 2 yil magistratura va “Sahna nutqi” kafedrasida hamkasb bo‘lib ishlash baxtiga muyassar bo‘ldim.

Ilk bor talaba sifatida kursdoshlar bilan institutimizning B binosi 4–6 auditoriyasida aktyorlik mahorati ustozimiz A. Abduhalilov bilan tanishdik. Kursdoshlarim juda ham qiziqqon va ilmga chanqoq edilar. Menga ko‘proq “sahna nutqi” fani avvaldan qiziqroq bo‘lgan. Shuning uchun ham bu fanni ko‘proq intiqib kutgan bo‘lsam kerak. “Sahna nutqi” fanimizning ilk darsida ustoz har birimizdan 4 qatordan she‘r ijro qilib berishimizni so‘raganlar. Kursdoshlar bilan har birimiz ming bir hayajon bilan o‘z asarlarimizni ijro qilganmiz. Yodimda, men I. Mirzoning “Aytgil do‘stim nima qildik vatan uchun” she‘rini ijro qilgan edim. Ustozga ijroyim yoqqan edi, menimcha. Asta-sekin darslar qizg‘in davom etib ketdi.

I. Djumanovasosan qo‘g‘irchoq teatri aktyorlariga tana va mushaklarning sahnada erkinlikka, plastik egiluvchanlikka, jismoniy hatti-harakatlarda tana a‘zolarining chidamliligiga erishishga intilar edi. Nutq a‘zolari, ya‘ni til, lab, jag‘larning ijroda mukammal bo‘lishi uchun turli talaffuz, ovoz, diksion, texnik mashqlar bilan dars jarayonlarini o‘tkazar edi. Har bir talaba darsga jiddiy, mas‘uliyat bilan yondashar, mashqlarni qiziqib bajarar edi. Ayniqsa, I. Djumanovning yaqqol ajralib turadigan jihati shundan iboratki, dars jarayonlari uchun maxsus har bir talabaga so‘z birikmalaridan tashkil topgan murakkab matnlar yozib kelar edi. Ustoz bu haqida o‘zining “Badiiy o‘qish mahorati” kitobida quyidagicha fikr bildirgan: “Matn bilan ishlash jarayoni talabalarining ma‘naviy dunyosi, professional ijro malakasi, fuqarolik burchiga sadoqati, ona vatani, xalqi, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yeriga mehr va ardoq uyg‘otishga safarbar qilinishi uchun manbadir. Talabalar bilan amaliy ishlash natijalari shuni ko‘rsatadiki, ularning fikrlash qamrovi, intizomi, qiziquvchanligi, qunti, diqqati, izlanuvchanligi, tirishqoqligi mukammal darajada bo‘lishi bilan birga ularda o‘zi yashayotgan muhit, atrofni o‘rab olgan borliq olam, turli voqealar, manzaralar, tafsilotlarga o‘tkir nigohi, sinchkovligi, qiziqishi, aniq munosabati bo‘lmasa so‘z san‘atida qoniqarli darajadagi ijrochilikni kutib bo‘lmaydi” [1; 77-bet]. Bizning kurs uchun ham, har birimizga shunday murakkab

so‘z birikmalaridan iborat matnlar yozib kelgan edi. Bunday murakkab so‘z birikmali matnlar talabalarda asosan diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, til chaqqonligi va topqirligini oshirish, jag‘ va lablarning ijroda erkin va faol harakatlanishi va aktyorning so‘zga bo‘lgan munosabatini mustahkamlashga yordam berishini o‘z ijrolarimda va yosh pedagog sifatida ham ijobiy natijalarini ko‘rdim.

Tovush birikmalari ustida ishlashda ustoz an‘anaviy maktab andozalari bilan birgalikda innovatsion yondashuvlarini ham talabalarda sinab ijobiy natijalarga erisha olgan. Buning dalili sifatida o‘zim tahsil olgan kursim hamda hozirda ustoz bilan birgalikda ta‘lim berayotgan 2-kurs qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi yo‘nalishini misol keltirishim mumkin. Bizning kursda ham talabalarning tovush birikmalari va talaffuz bilan ishlashda o‘zining innovatsion yondashuvlari bilan dars jarayonlarini olib borar edi. Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati yuqorida ta‘kidlaganimdek, boshqa yo‘nalishlardan o‘zining spetsifikasi bilan ajralib turadi. Bu haqida hatto professor, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori Kadirov Ramz Turabovich o‘zining “Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish texnologiyalari” deb nomlangan dissertatsiyasida qo‘g‘irchoq teatri san‘atidagi sahna nutqining o‘ziga xosligi haqida quyidagicha fikrlarini bildirgan: “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi san‘ati ixtisosligida sahna nutqiga oid bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish spetsifikasi birmuncha noziklik va murakkablik talab etib, unda talaba-aktyorlar nafaqat aktyor sifatida o‘z so‘zining badiiyligi, balki gavdalantirayotgan obrazni, ya‘ni jonsiz qo‘g‘irchoqni “gapirtirishi” lozim” [4; 50-bet]. Shuning uchun ham qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarining nutqi toza va hech qanday nuqsonlarsiz bo‘lmog‘i lozim. Ayniqsa, qo‘g‘irchoq boshqarayotganda yoki unga ovoz berayotganda tomoqdan gapirish hollari ko‘p uchraydi. Bu, o‘z navbatida, aktyor uchun nutq texnikasi va tallafuzning mustahkamligini talab etadi. I. Djumanov talabalarda quyidagi keltirgan tovush birikmalarini qo‘l harakatlari bilan uyg‘unlashtirgan holda mashq yaratgan. Masalan, guruhda ikkita talaba yonma-yon turib oladi. Quyidagi tovush birikmalarini aniq va ravon talaffuz qilgan holda, go‘yoki qo‘lqopli qo‘g‘irchoqni tasavvurda boshqarib uni ushbu tovushlarga monand harakatga keltiradi. Tovush birikmalari quyidagicha tartibda:

*Chp-tp-jov-jov, chp-tp jov, Chp-tp-jov-jov, chp-tp jov,
Chp-tp-jov-jov, chp-tp jov, Chp-tp-jov-jov, chp-tp jov
Ufulu bjb-dumm-Ufulu bjb-dumm-Ufulu bjb-dumm-Ufulubjb-dumm
Upchp-tp-tub, Upchp-tp-tub, Upchp-tp-tub, Upchp-tp-tub, Upchp-tp-tub
Ummbjmnummo-Ummbjmnumm-Ummbjmnummo-Ummbjmnumm...
Rumbdrummo- rumbdrumm, Rumbdrummo- rumbdrumm...
Lublummo-lumblumm, Lublummo-lumblumm...
Bdrumm-rummo-rummo rumm, Bdrumm-rummo-rummorumm,
Mummolo- mummo-mummolo mummo-Mummolo-mummo-mummolo mummo.
Dov yovalov-yovv yovalov, Dov yovalov-yovv yovalov, Dovyovalov-yovv yovalov,
Dubaraba dom-dom-dubaraba dom-dom, dubaraba dom-dom-ubaraba-dom-dom
Jumalama jom-jom, humalama jom-jom, Jumalama jom-jom, humalama
Humolomo hummom-:humolomo- hummom-humolomo- hummom-
Lub-bala long-long- Lub-bala long-long-Lub-bala long-long*

*Hov-loqo lov-lov- lov loqo lov-lov-hov-loqo lov-lov-lov loqolov-lov
 Hummolo-lummolo-rummolo rummo, hummolo-lummolo-rummolo rummo
 Lummo-lummo-lumulumm lummo, Lummo-lummo-lumulumm lummo,
 Loq-loqo luqo lumm- Loq-loqo luqo lumm- Loq-loqo luqolumm-
 Hummolo-lummolo-rummoro rummo, rummolo-lummolo-rummoro rummo
 Hammala lummang-lummla-hammang, hammala lummang-lummala-hamman
 Ram-raka ruka rang-ruka raka rang-Ram-raka ruka rang-ruka raka rang
 Appara – ruppapa-ruppapa rappo; Appara – ruppapa-ruppapa rappo,
 Pap-papa-paparak-kapalak-kapalak-jamalak.
 Andara-yandara-jandara – mandara; Andara-yandara-jandara-mandara*

Talabalar ketma-ketlikda mashqni bajaradi. Masalan, birinchi juftlik qo‘lqopli qo‘g‘irchoqni tasavvurda boshqarsa, ikkinchi juftlik planshet, uchinchi juftlik marionetka va to‘rtinchi juftlik simli qo‘g‘irchoq turini boshqarishi mumkin. Ushbu mashq qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarida ovoz, talaffuz va qo‘g‘irchoqni boshqarish, uni ovozashtirish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Ayniqsa, qo‘g‘irchoq teatr aktyorlari ijro paytda turli obrazlarga ovoz berganlarida ovoz va nafasdan no‘to‘g‘ri foydalanib, ya’ni tomoqdan gapirib unga shikast yetkazib qo‘yishlari ham mumkin. Dotsent O‘ktam Nurmuhammedova o‘zining qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari va rejissyorlari uchun “Sahna nutqi” o‘quv qo‘llanmasida quyidagicha yozadi: “Sun’iy talaffuzda ovoz paylari bir-biriga jipslanmaydi. Orada yorug‘lik bo‘ladi. Undan hamisha havo o‘tib turadi, havo bosh suyagiga urilib ovoz chiqadi. Shu vaqtda ovoz paylari bo‘shashgan holda bo‘lib, juda oz qismi ish holatida bo‘ladi. Shuning uchun imitatsiya paytida sun’iy registrdan foydalanganda ovoz paylari katta yuk tushmaydi” [5; 46-bet]. Aynan ushbu fikrlarning tasdig‘i sifatida I. Djumanovning quyidagi trening mashqini keltirish mumkin. Yuqoridagi tovush birikmalarini talabalar turli hayvon, hasharotlar nomidan, o‘sha hayvonning xatti-harakati, plastikasi bilan birgalikda sun’iy registrdan foydalangan holda ijro qiladilar. Bu nihoyatda yuqori iste’dod va mahorat talab qiladi, albatta. Ushbu mashqda talabalar, eng avvalo, murakkab tovush birikmalarini o‘zlarining tabiiy ovozlarida mukammal ijro etishlari kerak. So‘ngra tasavvuridagi hayvon obrazida ijro qilishlari kerak bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida bir nechta aspektlarni o‘z ichiga olgan ushbu trening mashq qo‘g‘irchoq teatr aktyorlari uchun samarali va foydali natija berishiga ishonamiz.

Darhaqiqat, qo‘g‘irchoq teatr aktyorlari san’atning barcha yo‘nalishlaridagi xodimlar uchun adabiy talaffuz muhim va asosiy jihatlardan biridir. Bu fikrlarning dalili sifatida professor X. Djuldiqorayevaning “Lola Xo‘jayeva” nomli monografiyasida yozgan fikr va mulohazalarini keltirishim mumkin: “Adabiy talaffuz ustidagi ish o‘zbek tili fonetik xususiyatlarini o‘rganishdan boshlanadi. Taalaffuz meyorlariga amal qilgan holda har bir tovushini, so‘z birikmalarini to‘g‘ri va aniq talaffuz qilish belgilangan. Umumiy talaffuz meyorlari qoidalarini mustahkamlash imkonini beradi. Har bir tovushning talaffuzini sinchiklab o‘rganib chiqish shevachilikdan xalos bo‘lishga yordam beradi” [2; 13-bet].

Kelajakda mohir va kuchli pedagog bo‘lishga intilgan barcha xodimlar o‘z ustida tinimsiz ishlashi, yangilik qidirishi va jahonning ilg‘or maktablaridan boxabar bo‘l-

mog‘i lozim. I. Djumanov ham har bir ko‘rsatgan imtihonida ushbu fikrlarning tasdig‘ini ko‘rsatadi. Bu quvonarli xol, albatta. Aktyorlar va ijodkorlar uchun so‘z ularning quroldir. I. Djumanov o‘zining kitobida “So‘z yorqin, betakror ifoda uyg‘otuvchi manbadir. Talabalarda so‘zning qadr-qimmatini, ma‘nosi, qudratini his qilishga tabiiy ehtiyoj, qiziqish, chanqoqlik, hassos munosabat uyg‘otish muhim ahamiyatga ega. Nutq texnikasi bilan barobar talabalarda so‘zga mehr uyg‘otish, ularning tasavvur olamini uyg‘otish, muhim ahamiyatga ega” [1; 143-bet] deydi. So‘zning kuchini va qudratini his qila olmagan aktyor quruq, ta‘sirsiz ijro egasi bo‘lib qoladi. Talabalardagi ijro mahorati, ulardagi hududlarga xos shevachilikni bartaraf etish va boshqa nutqiy kamchiliklarni 3 yil davomida “Sahna nutqi” kafedrasining o‘quv dasturidagi mavzular bo‘yicha mashg‘ulotlar jarayonida tuzatiladi. Buning uchun kafedrada ilmiy va nazariy tomonidan resurslar va manbalar yetarli.

“Badiiy o‘qish mahorati”, “Sahna nutqi”, “Qo‘g‘irchoqlar so‘zlaydi” nomli o‘quv qo‘llanmalari 500 adadda chop etilib, institut kutubxonasi va viloyat teatrlariga, madaniyat muassasalariga taqdim etilgan. Shuningdek, 30 dan oshiq maqolalari respublika va xalqaro jurnallarda, OAKda tasarrufidagi jurnallarda chop etilgan. Qolaversa, O‘zbek kino milliy agentligi tomonidan suratga olingan 50 dan ortiq filmlarda katta-kichik obrazlar yaratgan. Respublika va viloyat teatrlarida uning dramaturg sifatida yozgan pyesalari va adabiy tarjimalari sahnalashtirilib, yosh tomoshabinlarga namoyish etilib kelmoqda. 2024-yilda Namangan qo‘g‘irchoq teatri uchun “Uchta tarvuz urug‘i” Respublika milliy qo‘g‘irchoq teatri uchun Korney Chukovskiy asari asosida “Muxa sika-tuxa” asarini tarjima qilib sahnalashtirilishiga hissa qo‘shdi. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlarining diplomspektakli uchun “Sohibjamol va Maxluq” multfilimini pyesa shaklida yaratib berdi. Bundan tashqari institutimizning turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlar ssenariysini muntazam ravishda yozib boradi.

I. Djumanov talabalar bilan dars mashg‘ulotlarida asosan ulardagi ichki siqqlikdan xalos bo‘lishiga, sahnadagi erkinlikka erishishga, nafas kengligiga, tovushlarning ifodaviyligiga va ijrodagi tabiiylikka katta e‘tibor va kuchlarini mana shu jihatlarga qaratadilar. O‘zlari yaratgan matnlarning har birini talabalarda xatti-harakatga qo‘yadilar. Bizning kursda ham, hozirgi paytda birgalikda dars berayotgan kursimizda ham quyidagi mashqni ijroga qo‘yganlar.

Guruhli jarlar, shamol mashqi, talaffuz ovoz jarangi uyg‘unligini shakllantiruvchi matnli ishlanmalar.

Sahna ortidan:

(yigitlar) O‘-ho‘-ho‘-ho‘ ho‘-o‘-o‘-o‘yyy!

(qizlar) O‘-ho‘-ho‘-ho‘ ho‘-o‘-o‘-o‘yyy!

(yigitlar) Hmmmmm mo-mo-mo-movvvv-!

(qizlar) Hmmmmm mo-mo-mo-movvvv!

Ovoz yo‘naltirib jarangini jamlab sahnaga juft-juft bo‘lib kirib kelishadi va sahnga yarim doira shaklida joylashishadi.

1-2: Odamlaru odamlarrrrr!

3-4: Bog‘da bitgan bodomlarrrrr.

5-6: Allomai ustozlarrrr

7-8: So 'z ilmida sarbonlarr

9-10: Til zamonli va 'zxonlarr

11-12: G 'azalxonu –she 'rxonlarr

13-14: Ifodada sayronlarr

15-16: Qalbi qaynoq jayronlar

17-18: Olimlar-u donishlar

19-20: Baxshilar-u xonishlar

21-22: Eshitmadim demanglarrrrr

23-24: Eshitganlar tinglanglarrrr

25-26: Bugun bobo quyoshimizzzz

1-2: Zarrin nurlarini ayamay-ayamay sochib

3-4: Baxoriy bulutlar osha nur chiroy sochib

5-6: Ulug 'vor ona zaminda

7-8: Bahoriy manzara sochib

9-10: Janubiy issiq havo

11-12: Tandirday qizib turgan lahzasida

Yigitlar: Biz shovvozlar

Qizlar: Biz hamrozlar

Yigitlar: Biz sohir ovoz hamda daroz-devday qudratli

Qizlar: Selday shiddatli-sizday hikmatli

Yigitlar: Bizday ibratli hamda hikmatli

Qizlar: Hamda himmatli

Yigitlar: (har biri) qudratli-shiddatli-hikmatli-ibratli- himmatli-izzatli-istakli-serg 'ayrat- sersavlat-serbaraka-serharakat-barakali- malakali navqiron shunqorman- ilg 'orman-ilhomliman-imtihonliman.

Qizlar: (har biri) Hamda izingizdan izillagan- g 'izillagan- imillagan- shivirlagan- ko 'zi ola – qoshi qoora- sho 'hi shodon- juda chaqqon- bilmas orom –nafosatli –nazo- katli- farosatli- mahobatli-mahoratli –navnihol –hardam hayol qizidirman.

Yigitlar: Shamoldayin yeldik

Qizlar: Huzuringizga keldik

Yigitlar: Mashqlarimiz ko 'rsatamiz

Qizlar: O 'zimizga o 'xshatamiz

Yigitlar: Nafasimiz mustahkam

Qizlar: Biz hech kimdan emas kam.

Ushbu mashq talabalarda sahnaviy ovozini topishda, tovushlarni to 'g 'ri talaffuz qilishda yordam beradi. "Sahna nutqi" haqida ilmiy kitoblarda buyuk ustozlar ham bu haqida ko 'p ta 'kidlashgan "sahna nutqi texnikasi eng asosiy nuqtamiz". Talabalardagi nutqiy kamchiliklar texnik mashqlar yordamida bartaraf qilinadi. Ayniqsa, viloyatlar- dan kelgan talabarda o 'zining hududiga xos shevasi pedagoglarda anchagina qiyinchilik tug 'diradi. Sababi talaba 17–18 yoshida oliydargohga kelsa, u mana shu paytgachga o 'sha shevada gapirgan. Uning tilini "sindirish" talaba va pedagogdan mehnat, sabr va harakatni talab qiladi.

“Sahna nutqi” kafedrasiga tamal toshini qo‘yib ketgan ustoz Nazira Aliyeva O‘zining “San‘at — maning hayotim” nomli kitobida quyidagicha yozgan: “Adabiy talaffuz — yagona umumxalq adabiy tilining qonunlariga mos ravishda so‘zlash” [3; 93-bet]. Buyuk ustozni ruhlari shod bo‘lsin. Talaba-aktyorlar kelajakda yuqori marralarga erishishi uchun o‘z ustida tinimsiz ishlashi, badiiy va ilmiy kitoblarni ko‘p mutolaa qilishlari lozim bo‘ladi. San‘atkor jamiyatga o‘rnak va namuna darajasidagi shaxs bo‘lib yetishishi, o‘zbek adabiy tilini barchaga targ‘ib qilishi talab etiladi. Buning uchun, eng avvalo, o‘zi adabiy til me‘yorlariga rioya qiligan holda so‘zlashi qolaversa, nutqida ta‘sirchanlik, ishonch, dadillik va eng asosiysi nuqsonsiz bo‘lmog‘i darkor.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytmoqchimanki, aktyorlarda sahna nutqi mukammal darajada bo‘lishi, eng avvalo, nutq texnikasini o‘zlashtirishdan boshlanadigan bo‘lsa, ushbu qismdagi tovush birikmalari va talaffuz ustida ishlash birlamchi vazifalarimizdan biridir. Bu, o‘z navbatida, so‘zni jonlantirishdan avval bajariladigan mashqlar jamlanmasidan iborat. Talaba-aktyorlarni professional teatlarga yetkazib berish uchun ularni nutqlarini benuqson, so‘z jonliligiga erishgan darjadagi mutaxassislar yetkazib berishda yuqorida keltirib o‘tilgan trening mashqlar samarali foyda beradi deb o‘ylaymiz. Darhaqiqat, talaba institutda 4-yil tahsil olib, barcha bilim va ko‘nikmalarini teatlarda namoyon etadi. Haqiqiy tomoshabinlar bilan yuz ko‘rishadi. O‘sha jarayonlarda nutq va so‘z ijrochiligida qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun oliygohdagi pedagoglar ham bunday mas‘uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olgan holda ish ko‘rmog‘i maqsadga muvofiq. I. Djumanov o‘zining yarim asrlik ish faoliyati davomida respublika va viloyat teatr va madaniyat muassasalari uchun yetuk mutaxassislar yetishtirib, o‘zi yaratgan innovatsion va transformatsion mashqlari bilan samarali ijod qilib kelmoqda. Ustoz yaratgan ushbu mashqlar hali uzoq yillar biz yosh pedagoglar tomonidan foydalanilib, uni yanada mukammallashtirib, xalqimiz uchun kerakli va foydali san‘at va madaniyat xodimlari yetishtirib berishiga astoydil ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumanov I. Badiiy so‘z mahorati. – Toshkent.: Abu matbuot-konsalt, 2015.
2. Djuldiqorayeva X. Lola Xo‘jayeva. – Toshkent.: Zamonpoligraf, 2022.
3. Aliyeva N. San‘at mening hayotim. – Toshkent.: Navro‘z, 2019.
4. Kadirov R. Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilimva ko‘nikmalarni takomillashtirish texnologiyalari: Dis. ...ped. fan. fal. dok. – Toshkent: O‘zbekiston davlat-san‘at va madaniyat instituti, 2024.
5. Nurmuhammedova O‘. Sahna nutqi. – Toshkent.: O‘zDSI, 2008.
6. Bobirjon Islombek o‘g‘li Jabborov (2024). Qo‘g‘irchoqteatrida sahna nutqining o‘ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 5 (9), 193-200.
7. Жабборов, Б. Исоқтой жумановнинг сценарийнавислик ва педогогик маҳорати. Sahnanutqi fanini rivojlantirishda ustozlar merosini o‘rganishning dolzarb masalalari, 1(1), 94–101.

8. Jabborov, B.; Mirzayev, F. Sergey obrassov nomidagiXII xalqaro qo‘g‘irchoq teatrlari festivali. *Culture and Art* 2023, 1, 121-125.
9. Boburjon Jabborov 2022. The role of advertising in ensuring the massiveness of puppet theatre. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*. 2, 3 (Jun. 2022), 89–92.
10. Jabborov, B. and Ashurova, M. 2022. Stage speech technique of actors of puppet theater. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*. 2, 6 (Dec. 2022), 2024.

SHARQ RENESSANSINI TURKIYA ORQALI YEVROPAGA YETKAZGAN OLIM

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Temuriylar davrining yirik olimlaridan biri bo‘lmish Ali Qushchining ilmiy faoliyati, u tomonidan sharq ilm-fani yutuqlarining Yevropaga qadar yetkazilishi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Ali Qushchi, Turkiya, rasadxona, Tabriz, Tajrid, Ayo Sofya.*

***Abstract.** This article highlights the scientific activities of Ali Kushchi, one of the great scientists of the Timurid era, and his transfer of the achievements of Eastern science to Europe.*

***Key words:** Ali Kushchi, Türkiye, observatory, Tabriz, Tajrid, Hagia Sophia.*

Alouddin Ali ibn Muhammad Ali-Qushchi Samarqandiy (1403–1474) nafaqat Ulug‘bek akademiyasining kenja vakili, Mirzo Ulug‘bek (1394–1449)ning sevimli shogirdi, balki mazkur ilm dargohi yutuqlarini Yevropa va butun jahonga yoygan mutafakkirdir. Ali Qushchi — ikkinchi Sharq renessansining yetuk matematik va astronom olimi, o‘z davrining Batlimusi (Sharq Ptolomeyi) degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan yirik faylasuf alloma. Alouddin Mirzo Ulug‘bek saroyida ovchi qushlarga mas‘ul amaldor Muhammad ismli kishining farzandi bo‘lgan. Otasini “Qushchi” atashgani bois uni “Ali-Qushchi” deyishgan. Ota-onasi vafot etgach, Alouddin Mirzo Ulug‘bek xonadonida tarbiyalanadi. Shu sababli Ulug‘bek uni “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarining so‘zboshida “farzandi arjumand” deb tilga olgan. Yosh Alouddin Ulug‘bek akademiyasi olimlarining xizmatini qilib yurib, o‘zi ham ilm olishga harakat qiladi. 1414-yili Eronning Kermon shahriga borib, u yerdagi madrasada uch yil tahsil oladi va 1017-yili Samarqandga qaytib kelib, Ulug‘bekka o‘zi yozgan ilk maqolani taqdim qiladi. Ustozi “Oysimon shakllarni o‘lchashga oid” nomli bu asarni yuqori baholaydi. Alouddin endi Mirzo Ulug‘bekdan tashqari, Qozizoda Rumiyy, G‘iyosiddin Jamshid singari allomalardan ham saboq oladi.

1415-1420-yillari asos solingan Mirzo Ulug‘bek madrasasida esa mantiqchi faylasuf Taftazoniy (1322–1392), Mavlono Ahmad kabi olimlarning shogirdlaridan ilm o‘rganadi. Zehni kuchli bo‘lgani hamma narsani tez va mustahkam o‘zlashtirib boradi. Matematika va astronomiya asoslarini puxta egallab, hisob-kitob yuritishda akademiya olimlariga ko‘maklashadi. Vaqt o‘tishi bilan akademiyaning komil huquqli a‘zosiga aylanadi. U trigonometriya, sferik astronomiya va kasrlar nazariyasiga oid kashfiyotlar qiladi. Ali Qushchi Ulug‘bek madrasasini rivojlantirish, Ulug‘bek rasadxonasini (1424) qurish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” jadvalini tuzish jarayonida faol qatnashadi [3]. Ma’lumki, bu jadvalda samarqandlik astronomlar 38 yulduz turkumiga mansub bo‘lgan 1018 yulduzning aniq koordinatalarini belgilab bergan. Unda yozilganidek, katalog “hijriy 841-yil muharram oyining 1-kuni (1437-yilning 5-iyul) yakuniga yetkazilgan”. 1429-yili rasadxona mudiri G‘iyosiddin Jamshid Koshiy

(1380–1429) vafot etadi. Uning faoliyatini davom ettirib turgan Qozizoda Rumi (1364–1437) 1437-yili olamdan o‘tadi. Shundan keyin mudirlik Ali Qushchiga topshiriladi. Ali Qushchining til bilish salohiyati va muomala madaniyatini yaxshi bilgan Mirzo Ulug‘bek uni 1438-yili Xitoyga elchi qilib yuboradi. Elchilikda u Xitoyning tabiati, iqlimi, aholisining urf-odat va an‘analari haqida fors tilida “Xitoyнома” asarini yozadi. 1449-yili Mirzo Ulug‘bek qatl etilgach, toj-taxt uchun kurashlar, turli ig‘vo va fitnalar avj oladi. Abdulatif (1420–1450) ham 1450-yil 8-mayda o‘ldiriladi va taxtga Ibrohim sultonning o‘g‘li Abdulloh (1433–1451) o‘tiradi. Undan keyin 1451–yili hokimiyatni Mironshohning o‘g‘li Abu Said (142–1469) qo‘lga kiritadi.

U Ali Qushchiga yaxshi munosabatda bo‘lib, homiylik qiladi. Ali Qushchi Nosiruddin Tusiyning “Tajrid”ga sharh yozib, Sulton Abu Saidga taqdim etadi [6]. Ammo hukmdorning vafotidan (1469) keyin mamlakatda yana toj-taxt uchun kurash boshlanadi. Mutaassib ulamolar ilm-fanga qarshi xurofotni kuchaytiradi. Ayrimlar akademiyaning shayton yo‘liga kirgan deb ayblashga, rasadxonani buzib tashlashga da‘vat qila boshlaydi. Shu sababli Ali Qushchi akademiya faoliyatini to‘xtatib, Temuriylar kutubxonasini, Ulug‘bekning asarlarini saqlab qolishga intiladi. 1471-yili bir qancha qarindoshlari bilan Samarqanddan chiqib ketishga majbur bo‘ladi. O‘zi bilan rasadxonada ishlangan qo‘lyozmalar, yulduzli osmon xaritasi va nodir qo‘lyozmalarini olib ketadi. Ali Qushchi avval Tabriz, so‘ng Hirotga boradi. Ayrim manbalarda unga Xoja Ahror Vali yordamlashgani aytiladi, lekin bu ma‘lumot tasdiqlanmagan. Tabrizda Ali Qushchining qarindoshlari yashar edi. (Ehtimol, ular Mirzo Ulug‘bek vafotidan keyin Tabrizga ko‘chib ketgandir). Hirotga borganida esa, unga Alisher Navoiy yordam qo‘lini cho‘zadi, hajga borishi uchun Husayn Boyqarodan ijozat-ruxsatnoma olib beradi.

Tabrizda Ali Qushchi hukmdor Oq Quyunli Uzun Hasanning (1453–1479) xizmatiga kiradi. Uzun Hasan Tabriz bilan Istanbul o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida uni Turkiyaga, Usmoniylar saltanatining yettinchi hukmdori Sulton Muhammad II saroyiga yuboradi. Ali Qushchi Istanbulda izzat-ikrom bilan kutib olinadi. Chunki uning shuhrati Kichik Osiyoga o‘zidan oldin yetib borgan edi. Hatto Samarqandda yozgan ayrim asarlari turk tiliga tarjima ham qilingan, turkiyalik olimlar Ali Qushchining “Astronomiya asoslari” kitobining arabcha va forsha nusxalarini o‘qib o‘rganar edi. Manbalarda qayd etilishicha, Sulton Muhammad II Sulton Murod o‘g‘li (1432–1481)ning o‘zi ham adolatparvar, ilmparvar kishi bo‘lgan. Saroyga yirik olim va ulamolarni yig‘ib, ularni nafaqa bilan ta‘minlagan. U Horun Ar-Rashid singari vaqti-vaqti bilan xufya ravishda oddiy xalq dardini eshitish uchun odam orasiga chiqar ekan. U Ali Qushchini ulug‘ olim sifatida qabul qilib, Istanbulda doimiy qolishini so‘raydi. Olim o‘z risolalarida bunday yozadi: “Sulton meni qabul qilganida kamina bilan so‘zlashish niyati borligi yaqqol ko‘rinib turardi. U o‘ziga atab ilmi riyoziyotdan kitob yozishimni so‘radi. Shunda Sultonda tabiiy fanlarga qiziqish borligini sezdim va qisqa vaqtda ilmi riyoziyotdan kichik kitob yozdim”. Ali Qushchi Sultonning taklifni qabul qiladi va qarindoshlarini olib kelish uchun yana Tabrizga qaytadi. Uning 200 tacha qarindoshi Istanbulga ko‘chib boradi. 1472-yili Ali Qushchi Ayo Sofiya madrasasi bosh mudarrisi, Ayo Sofiya masjidi boshqaruvchisi etib tayinlanadi, unga 200 oltin tanga miqdorida maosh belgilanadi.

Mavlono Alouddin Usmoniylar saltanatida ham dunyoviy, ham diniy ilmlarni rivojlantiruvchi ma'rifiy markaz tashkil etishga kirishadi. Samarqandda egallagan bilimlari va tajribasiga tayangan holda shogirdlarga ilm o'rgata boshlaydi. Uning madrasasida ilmning turli sohalarini rivojlantirishga keng yo'l ochiladi. U kezlari Istanbulda matematika va astronomiyani Ali Qushchidek mukammal biladigan olimlar kam edi. Shu sababli turkiyalik ilm ahli o'z davrining Batlimusi, Sharq Ptolomeyi deb nom qozongan mutafakkir atrofida jiplashib, uning ma'ruzalarini mehr bilan tinglay boshlaydi. Ali Qushchi ularga matematika va astronomiya fanida erishgan yutuqlar, astronomik qiymatlarni o'lchash metodlari, astronomik kuzatish asboblari, matematik amallarni bajarishning Samarqand maktabiga xos usullari, o'nli kasrlar, matematik amallarda qo'llanadigan manfiy (minus) va musbat (plyus) ishoralar mohiyati va trigonometrik funksiyalarni yechishning xilma-xil turlaridan dars beradi.

Bu ulug' ustoz haqidagi shov-shuvlar Yevropaga ham yetib boradi. Yevropalik hisobdonlar tajriba olish maqsadida Istanbulga oqib kela boshlaydi. Shunday qilib, Ulug'bek akademiyasi yutuqlari Ali Qushchi orqali Yevropaga uzatila boshlaydi. Akademik I. Mo'minov: "Ali Qushchi (asarlari) XVI–XVII asrlarda Yaqin Sharq mamlakatlarida matematika fanining rivojlanishiga (jiddiy) ta'sir ko'rsatgan", deb to'g'ri ta'kidlagan. Germaniyalik kossistlar ham Ali Qushchidan o'nli kasrlar, musbat va manfiy sonlar hamda trigonometrik funksiyalar haqidagi ilg'or matematik g'oyalarni o'rganib ketgan. Kossistlar keyinchalik Ali Qushchining musbat va manfiy qiymatlar haqidagi g'oyasidan ilhomlanib, matematikaga plyus "+" va minus "-" belgilarini kiritadi. Ali Qushchi juda ko'p asarlarini Samarqanddaligida yozgan. Istanbulda ham samarali ijod qilgan. Lekin eng katta xizmati "Ziji jadidi Ko'ragoniy"ni, unga yozilgan ko'plab sharhlarni saqlab qolgani va jahonga yoyganidir. U Samarqand akademiyasi olimlarining matematik, astronomik merosini shogirdlari orqali Yevropaga yetkazib berdi. Turkiyada uning Miram Chalabiydek buyuk shogirdlari yetishib chiqqan. Ali Qushchi Turkiyada tashkil qilgan maktab ilm sohasida tom ma'noda Sharq bilan G'arbni, Osiyo bilan Yevropani tutashtiruvchi ko'prik vazifasini o'tagan. Samarqandda shakllangan astronomiya va matematika maktablari hamda Ulug'bekning ilmiy akademiyasi, bu akademiya zamirida vujudga kelgan ikkinchi Sharq renessansi ta'sirida erishilgan yutuqlarining Turkiyadan Yevropaga yoyilishida Ali Qushchi muhim rol o'ynagan.

Ali Qushchining "Ziji jadidi Ko'ragoniy" sharhi boshqalaridan mukammalligi, tushunarlilik bilan farq qiladi. Bundan tashqari, uning o'zi "Zij"ni turkchaga tarjima qilgan. Bu esa yulduzlar jadvalini Yevropa tillariga tarjima qilishga asos bo'lgan. XVII asrda polyak astronomi Yan Geveliy "Ziji jadidi Ko'ragoniy"ni Yevropada nashrdan chiqargan. Ulug'bek akademiyasining matematika va astronomiya sohasida erishgan yutuqlari Turkiyada keng targ'ib qilindi. Bu yutuqlar sirasiga matematikada o'nli kasrlarni joriy qilish, doiraga ichki chizilgan uchburchaklarni o'lchash metodlari, trigonometrik funksiyalarni yechishning Samarqand matematiklariga xos usullari, π sonining qiymatini aniqlash (Ali Qushchi bu qiymatni 16-raqamgacha aniqlikda hisoblab chiqqan) kiradi. Yevropa π borasida Ali Qushchidan 250 yil keyin undan o'tib ketishga erishdi. Kyolnlik matematik Ludolf van Seylen bu sonni 32 belgigacha aniqladi. Ali Qushchi matematika, astronomiya va tilshunoslikka oid 30dan ortiq asar

yoʻzgan. Xususan, “Risola fil hisob” (“Arifmetikaga oid risola”) 1425-yili Samarqandda yoʻzilgan boʻlib, unda oʻnlik va oltmishlik sanoq sistemalari, muhandislik faoliyatiga oid masalalar yoritilgan. Uning ayrim nusxalari Leyden kutubxonasida (№ 1050) va Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi [Abu Rayhon Beruniy nomidagi] Sharqshunoslik institutida (№ 3356) saqlanmoqda. Ali Qushchining arifmetika, algebra, geometriya, trigonometriya masalalariga oid “Risola al-Muhammadiya fil hisob” (“Muhammadning hisobga oid risolasi”), “Risola fi halli ash-shakl al-hilol” (“Yarim oy shaklidagi figuralarni oʻlchash”), “Sharhi miftohil ulum Taftazoniy” (“Taftazoniyning “Fanlar kaliti” asariga sharh”), “Risola dar ilmi hayʼat” (“Astronomiyaga oid risola”) asarlarida Samarqand olimlarining yutuqlari oʻz ifodasini topgan. Ali Qushchining “Al-Risola al-fathiya” asari qoʻlyozmasidan. Bu asarlarning qoʻlyozma va toshbosma nusxalari dunyoning nufuzli fondlarida saqlanmoqda, jumladan, Istanbuldagi Ayo Sofiya kutubxonasida ham. Ali Qushchi Samarqand astronomlari singari Yerning Quyosh atrofida va oʻz oʻqi atrofida aylanishiga qatʼiy amin boʻlgan. Uning fikricha, yoritqichlarning sharqdan gʻarbga qarab harakatlanishi, gʻarbga botishi Yer sharining gʻarbdan sharqqa qarab harakatlanishi (oʻz oʻqi atrofida aylanishi) oqibatida roʻy beradi. Bizga shu sababli goʻyoki yoritqichlar sharqdan chiqib, gʻarbga botayotgandek tuyuladi. Bu suzib borayotgan kemadan turib qirgʻoqni kuzatayotgan yoʻlovchi holatini eslatadi. Yoʻlovchiga kema emas, balki undan qarama-qarshi tomonga qirgʻoq harakatlanayotgandek boʻlib tuyuladi. Ali Qushchining boy maʼnaviy merosi nafaqat Turkiya, balki Yevropa va butun dunyo olimlariga ilmiy, maʼrifiy ozuqa boʻlib xizmat qildi va uning Samarqanddan olib kelgan nodir ilmiy gʻoyalari Yevropa renessansiga katta turtki berdi. Olim 1474-yili Istanbulda vafot etgan va Abu Ayyub Ansoriy masjidi hududiga dafn qilingan. Masjidga kiraverishdagi katta marmar taxtaga “Ali Qushchi – fan odami” deb yozib qoʻyilgan. Fransuz maʼrifatparvar faylasufi Fransua Mari Arue Volter (1694–1778) “Millatlarning holatlari va odatlari haqida” (1753–1758) asarining 3-jildida Ulugʻbek tashkil qilgan ilmiy markazni “tom maʼnodagi fanlar akademiyasi” deb atagan, Mirzo Ulugʻbek, Qozizoda Rumi, Gʻiyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari olimlarni esa insoniyatni uygʻotgan buyuk donishmandlar deb ulugʻlagan. Tarixiy manbalar shundan shohidlik beradiki, Ali Qushchining avlodlari ham ilm-maʼrifatga katta eʼtibor bilan qaragan. Nabirasi Hofiz Koʻhakiy 1528-yili Hindistonga borib Zahiriddin Muhammad Bobur bilan uchrashgan. Toshkentda Eski joʻva yaqinida (hozirgi Paxta va Forobiy koʻchalari tutashgan joy) madrasa ochgan. Soʻz yakunida shuni alohida taʼkidlash lozimki, Samarqand ilmiy akademiyasi gʻoyalari oziqlanib voyaga yetgan, Mirzo Ulugʻbek dahosidan ilhomlangan, Qozizoda Rumi, Gʻiyosiddin Jamshid Koshoniy singari allomalar taʼlimini olgan buyuk vatandoshimiz – astronom, matematik, faylasuf Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy Markaziy Osiyoda roʻy bergan Ikkinchi Renessans yutuqlarini Yevropaga qadar yetkaza olgan, musulmon Sharqining muvaffaqiyatlari bilan endi uygʻonib kelayotgan Gʻarbni oziqlantirgan mutafakkir boʻlgan.

Xulosa

Alouddin Ali Qushchi Samarqandiy (1403–1474) ikkinchi Sharq Renessansining yorqin yulduzi, Ulug‘bek akademiyasining yetuk olimi va Sharq ilmini Yevropaga yetkazuvchi ko‘prik bo‘lib, matematika, astronomiya va trigonometriyaga qo‘shgan hissasi bilan tarixda iz qoldirdi. U “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”ni tuzishda hal qiluvchi rol o‘ynab, yulduzlar katalogini dunyoga taqdim etdi, o‘nli kasrlar, musbat-manfiy sonlar va trigonometrik usullarni rivojlantirdi. Samarqand akademiyasi qulashi bilan Istanbulda Sulton Mehmed II homiyligida ilmiy maktab tashkil qilib, Sharq va G‘arb ilm-fanini birlashtirdi. Uning asarlari Yevropada tarqalib, renessansga turtki bo‘ldi, Volter kabi ma‘rifatparvarlar tomonidan ulug‘landi. Qushchining merosi nafaqat Osiyo, balki butun insoniyat fanining rivojida hal qiluvchi bosqich sifatida qadrlanib, zamonaviy ilmfan poydevorlarini mustahkamlagan universal donishmand sifatida abadiylashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ali Qushchi. Astronomiyaga oid risola (I.M. Mo‘minov tahriri ostida). – T.: Fan, 1968.
2. Ahmedov A. Ali Qushchi. <https://www.e-tarix.uz/shaxslar/506-cola.html>.
3. Байрин И.И., Фрибус Е.А. Старинные задачи: Кн. для учащихся.— М.: Просвещение, 1994. (С. 36)— 128 с:
4. Вольтер. Философские повести. – М.: Художественная литература, 1978.
5. Гевелий Я. Атлас звездного неба = Yulduzlar osmonining atlasi/ ред. и вступ. ст. акад. АН УзССР В.П. Щеглова; Академия наук Узбекской ССР, Ордена Труд. Красн. Знамени Астроном. ин-т.— 3-е изд., доп. — Ташкент: Фан, 1978.— 66 с.
6. Qodirov B. Ali Qushchi// <http://oyina.uz/kiril/generation/139>
7. Qulmatov Sh., Berdimurodov A. Samarqand yodgorliklari. – Samarqand: IBXM, 2017. B.186.
8. Lafasov U. Ali Qushchi. <https://www.academia.edu/41879171/>
9. Матвиевская Г. П. Учение о числе на средневековом Ближнем и Среднем Востоке. Ташкент: Фан, 1967.
10. Матвиевская Г. П., Розенфелд Б. А. Математики и астрономы мусулманского средневековья и их труды (ВИИИ—ХВИИ вв.). В 3 т. М.: Наука, 1983.
11. Mo‘minov I.M. Ali Qushchi // O‘zbek Sovet ensiklopediyasi. 1 tom. T., 1971. B.240.
12. Muhammadkarimov Abdulaziz Toshkent allomalari va tarixiy shaxslari (ikkinchi kitob) “Toshkentnoma”. 2009 yil. <https://shosh.uz/hofiz-kohakij/>
13. Samarqand tarixi. Birinchi tom. (Mas’ul muharrir I.M. Mo‘minov). — Toshkent: Fan, 1971. — B. 227.
14. Улугбек Мухаммад Тарагай. Зиджи джадиди Гурагони. Новые Гурагановы астрономические таблицы / (Вступ. статья, перевод, комментарии и указатели Ахмедова А.А.)- Ташкент: Фан, 1994. — 456 с.
15. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi (o‘quv qo‘llanmasi). — Andijon: ADU, 2011. — B. 164.
16. O‘ljayeva Shohistaxon. O‘zbekiston tarixi. https://m.facebook.com/groups/246149995752425/posts/418463715187718/?locale=sw_KE&_rdr

Abbosjon Umurzoqov,
*O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati” kafedrasida o‘qituvchisi,
1-bosqich mustaqil izlanuvchi*

FARG‘ONA VODIYSIDA AN‘ANAVIY QO‘G‘IRCHOQ TEATRINING RIVOJLANISHI

***Anotatsiya.** Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri rivojlanishi va mintaqa aholisiga ko‘rsatgan ta‘siri haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatrining vodiydagi o‘ziga xos xususiyatlari ham yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** korformon, og‘zaki dramaga, ustoz-shogird, qo‘g‘irchoqboz, truppa.*

***Abstract.** This article examines the development of traditional puppet theatre in the Fergana Valley and its impact on the population of the region. The unique characteristics of traditional puppet theater in the valley are also highlighted.*

***Key words:** corformon, oral dramaturgy, teacher-student, puppemen, troupe.*

An‘anaviy o‘zbek teatri tushunchasi xalq turmushi va diniy hayotida tomosha va taqlid qilishga oid unsurlardan tortib, asrlar davomida shakllanib, yashab kelgan masxarabozlik, qiziqchilik san‘ati va qo‘g‘irchoqbozlik kiradi⁹². An‘anaviy teatr butun mintaqada zamonlar osha rivojlanib bordi va xalqning madaniy hayotining bir qismi sifatida yashab kelgan. An‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri asosan og‘zaki dramaga asoslanib, og‘izdan og‘izga ustoz-shogird an‘anasi ta‘sirida o‘zgarishlarga uchragan holda yetib kelgan. XX asrga kelib tadqiqotchi olimlar tomonidan og‘zaki dramalar yozib olinib boshlangan. 1962-yilda Qo‘qonda Tojivoy Karimov va Bozorvoy Xolmatov ijrosida “Qorabotir va Zuxroxon” tomoshasi magnit lentasiga yozib olinadi va kinoga tushirildi. Asakada esa Melivoy Mirsaidov degan ayiqboz sirkchidan shu yerlik Ali qo‘g‘irchoqbozning matni yoziladi va to‘rtta qo‘g‘irchoq‘i suratga olinadi⁹³. Bular Farg‘ona vodiysi qadimdan O‘zbekistonning madaniy va ma‘naviy jihatdan eng boylaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Ushbu hududda an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri ko‘p asrlik tarixga ega va o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qo‘g‘irchoq teatri xalq ijodining ajralmas qismi sifatida bolalar va kattalar uchun tarbiyaviy va ko‘ngilochar vazifalarni bajargan.

Birinchilardan O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrini tadqiqot qilgan teatrshunos olim, fan arbobi, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor M.X. Qodirov va fan doktori, professor S.M.Qodirovalar tomonidan “Qo‘g‘irchoq teatr tarixi” kitobida yozilishicha “1963-yil Farg‘ona ekspeditsiyasi davrida Oltiariq tumanidagi mindon qishlog‘ida turuvchi qo‘g‘irchoqboz Obil Toshpo‘latov bilan suhbatlashdik unda “Polvon kachal va Buvichaxon” komediyasini yozib olishdan tashqari “Qol qo‘g‘irchoq” ga doir atamalar aniqlandi, tomosha texnikasi kuzatildi, ayrim epizodlar suratga tushirildi. Bundan tashqari, Andijon, Quva, Avval, va Marg‘ilonda ham ayrim qo‘g‘irchoqbozlarga duch kelib, tomoshasi kuzatildi, suhbatlashildi, hammasi an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri

⁹² Tursunov, T. “XX asr o‘zbek teatri tarixi” — Toshkent: “ART PRESS” Co.Ltd, 2010.

⁹³ Andijon ekspeditsiyasi materillari, OzBASITI fondi.

haqidagi tasavvurimizni boyitadi”⁹⁴, deb yozilgan bu ham Farg‘ona vodiysida yashab qo‘g‘irchoqbozlik bilan shug‘langan insonlar juda ko‘pligidan dalolat beradi.

Farg‘ona vodiysida qo‘g‘irchoq teatrining tarixi qadimiy an‘analarga borib taqaladi. Farg‘ona vodiysida qo‘g‘irchoq teatri asosan quyidagi jihatlarida rivojlangan:

“Folklor va afsonalar”. Qo‘g‘irchoq teatrida sahnalashtiriladigan hikoyalar ko‘pincha xalq afsonalariga asoslanadi. Bu hikoyalar milliy qadriyatlarni, axloqiy saboqlarni va ijtimoiy masalalarni yoritadi. Bu haqida M. Qodirov quyidagi afsonaviy qahramonlar “shayton”, “ajdarho”, “yalmog‘iz kampir” kabi obrazlar keng ishlatilganligi haqida yozib qoldirgan. Bu qo‘g‘irchoqlar yog‘ochdan yasalgan bo‘lib xalq hayotidan olingan ijtimoiy hodisalarni tomosh sifatida ko‘rsatgan.

“Xalq ijodi” bunda asosan xalq urf-odatlarini va xalq og‘zaki ijodiga asoslangan qo‘g‘irchoq o‘yinlari Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan. Ular bolalar va kattalar uchun ko‘ngilochar faoliyat sifatida qabul qilinadi. Ushbu o‘yinlar xalq urf-odatlarini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Farg‘ona vodiysida an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri bir qancha o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

1. **Mahalliy an‘analar.** Teatr tomoshalarini asosan Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos madaniyati va urf-odatlariga asoslangan. Bu namoyish etiladigan hikoyalar va qahramonlar orqali o‘z ifodasini topadi.

2. **Qo‘g‘irchoqlar.** An‘anaviy qo‘g‘irchoqlar odatda mahalliy ustalar tomonidan qo‘lda yasaladi va rang-barang, o‘ziga xos xarakter bilan ajralib turadi. Ular ko‘pincha yog‘ochdan yoki boshqa tabiiy materiallardan tayyorlanadi. Matolardan kiyim va boshqa detallar bilan bezatilgan. Qo‘g‘irchoq teatri rivojida mahalliy ijodkorlar, rassomlar va qo‘g‘irchoq tayyorlovchi ustalar muhim rol o‘ynaydi. Ular an‘anaviy qo‘g‘irchoqlarni yaratishda o‘z iste‘dodlarini namoyish etdilar.

3. **Musiqqa va raqs.** Tomoshalar ko‘pincha musiqiy va raqs elementlari bilan birlashtiriladi, bu esa tomoshabinlarga yanada qiziqarli va jozibali tomosha taqdim etadi. Musiqqa korformon tomonidan chalingan. Korformon doira va boshqa bir necha musiqqa asboblari chalinishi bilishi talab qilingan. Korformon turuppani badiiy rahbari ham hisoblangan.

4. **Mavzular.** Qo‘g‘irchoq teatri ko‘pincha xalq og‘zaki ijodiga asoslangan afsonalar, ertaklar va tarixiy voqealarni hikoya qiladi.

Bu xususiyatlar Farg‘ona vodiysidagi an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xosligini va madaniy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Xulosa

Teatr truppalari. XX asrning o‘rtalarida ko‘plab teatr truppalari tashkil etilib, an‘anaviy va zamonaviy uslublarni birlashtirishga harakat qilindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bu teatrlar o‘z faoliyatini yanada kengaytirdilar (Manba: “O‘zbekiston mustaqillik yillari”, 2020). Farg‘ona vodiysida qo‘g‘irchoq teatrini rivojlanishida maydonlarda, bozorlarda, to‘y va bayramlarda namoyish qilingan tomoshalar mahalliy aholi o‘rtasida keng yoyilganligi va san‘atni qadrlashi ham muhim omil hisoblanadi.

⁹⁴ M. Qodirov, S. Qodirova “O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri tarixi”. – Toshkent: Talqin, 2006.

Hozirgi kunda Farg‘ona vodiysida qo‘g‘irchoq teatri yanada rivojlanmoqda. Qo‘g‘irchoq teatri san‘atkorlari zamonaviy texnologiyalar va ijodiy yondashuvlar yordamida an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatrini yangilab, yangi spektakllar tayyorlamoqda. Farg‘ona vodiysida an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri o‘zining boy tarixi va madaniy merosi bilan nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu san‘at turi O‘zbekistonning madaniyatini, an‘analarini va tarbiyaviy jihatlarini o‘zida mujassam etgan holda yosh avlodni tarbiyalashda davom etmoqda. An‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri orqali o‘zbek xalqining madaniyati, urf-odatlari va an‘analari kelajak avlodlarga yetkazilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tursunov T. “XX asr o‘zbek teatri tarixi”. – Toshkent: “ART PRESS” Co.Ltd, 2010.
2. Andijon ekspeditsiyasi materillari, OzBASITI fondi.
3. M. Qodirov, S. Qodirova “O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri tarixi”. – Toshkent: Talqin, 2006.
4. A. Abduxalilov “Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati va uning o‘ziga xosligi” “Zamonaviy teatr san‘atining dolzarb muammolari: an‘ana va yangi tendensiyalar” mavzusidagi xalqaro ilimiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami, 2024.

Oybek Qulmurodov,
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati” kafedrasi o‘qituvchisi,
1-bosqich mustaqil izlanuvchi

PROFESSIONAL O‘ZBEK QO‘G‘IRCHOQ TEATRINING AN‘ANAVIY TEATR IJROCHILIGI NEGIZIDA SHAKLLANISHI

***Annotatsiya.** Maqolada an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatridan professional qo‘g‘irchoq teatr jarayonlariga o‘tishning tarixiy ildizlari hamda dramaturgiyaga asoslangan teatr spektakllari haqida yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** teatr, san‘at, chodir jamol, chodir hayol, spektakl, qo‘g‘irchoq teatri.*

***Abstract.** The article examines the historical roots of the transition from traditional puppet theater to professional puppet theater processes and dramatic theater productions.*

***Key words.** theatre, art, Shadir Jamal, Chadir Khayal, performance, puppet theatre.*

“Osiyo qo‘g‘irchoq teatri bu shunchaki ermak o‘yin emas, balki bir qit‘a xalqlarining falsafasi, dini adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san‘ati va albatta, tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy hodisadir” [1]. Teatrshunos olim Muhsin Qodirovning ushbu jumalari qo‘g‘irchoq teatri san‘atining naqadar boy tarixga ega ekanligini ifoda etadi. Osiyo xalqlarining madaniyati, san‘ati, urf-odat, qadriyatlarini mujassam etuvchi o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri marosimlar, xalq o‘yinlari, ko‘cha tomoshalari negzida shakllanib kelgan bo‘lib, uning professionallashuvi boshqa san‘at turlariga qaraganda biroz kechroq yuz berdi. Bu vaqtgacha yozma dramaturgiyaga asoslangan va maxsus bino ichida namoyish etiladigan yangi uslubdagi zamonaviy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri san‘atning o‘rnini an‘anaviy xalq qo‘g‘irchoq teatri egallab keldi. San‘atshunoslik fanlari doktori, professor M. Qodirovning (S. Qodirova bilan hammualliflikda) “O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri tarixi”⁹⁵ risolasida qadimdan yashab kelgan an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri to‘g‘risida dastavval, Al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Umar Hayyom, Nizomiy, Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy singari allomalarning ijodida sochma tarzda ma‘lumot berilganligi va ushbu ma‘lumotlar shu mavzuda yaratilgan ulkan tadqiqotlarga zamin hozirlab berganligi to‘g‘risida mulohazalar olib boriladi.

O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining ilk tadqiqodchilari sifatida P.A. Komarov, M.F. Gavrilov, L.A. Perepelitsina singari olimlar o‘zlarining tadqiqotlarida an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri to‘g‘risidagi dastlabki umumiy ma‘lumotlarni beradi.

Rus havaskor etnografi P.A. Komarov 1906–1909-yillarda o‘zbek qo‘g‘irchoq teatr tarixini o‘rganish va qo‘g‘irchoqlar kolleksiyasini yig‘ish bo‘yicha samarali izlanishlar olib bordi. Olimning izlanishlari o‘laroq u to‘plagan materiallar keyingi yaratilgan ko‘plab tadqiqotlarga zamin hozirladi. Ayniqsa, tadqiqochi to‘plagan qo‘g‘irchoqlar kolleksiyasi “Chodir jamol” va “Chodir Xayol” teatri tomoshalarini va ulardagi voqea-

⁹⁵ M. Qodirov, S. Qodirova. “O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri tarixi”. – Toshkent: Talqin, 2006.

lar, mavzu va g'oyasini o'rganishga imkon yaratdi. Shu narsa e'tiborliki, P.A. Komarov rahbarligida tomosha matnlari yozilgan bo'lib ilk bor og'zaki qo'g'irchoq dramaturgiyasi to'g'risida ma'lumot berganligi bilan ahamiyatlidir.

M.F. Gavrilovning rus tilidagi 1928-yilda nashrdan chiqqan “Куколный театр Узбекистана” (“O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri”) kitobi ham P.A. Komarovning materiallariga tayangan holda yozilgan bo'lib, qo'g'irchoq yasash va boshqarish usullari, qo'g'irchoqbozlar mahorati va faoliyati hamda an'anaviy repertuar va uning na'munalari to'g'risida atroflicha ma'lumot beradi. M.F. Gavrilovning izlanishlari natijasida hozirgi kungacha “Chodir hayol” teatri dramaturgiyasiga oid birgina “Sarkardalar” komediyasi yetib kelgan. Olim mazkur pesani 1927-yilda qo'g'irchoqboz Y. Tursunboevdan yozib olishga muyassar bo'lgan. Shu bilan birga, “Chodir jamol” tomoshasiga xos bo'lgan “Kachal Polvon” pesasini ilk bor yozib olgan va fanga tadqiq etgan.

L.A. Perepelitsinaning 1959-yilda bosilib chiqqan “Узбекский народный куколный театр” (“O'zbek xalq qo'g'irchoq teatri”) kitobi mavjud tadqiqodlardan farqli o'laroq qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos spetsifikasi, tomoshalarining mohiyati va qo'g'irchoqbozlarning mahorati to'g'risida ma'lumot beradi. Teatrshunos olim M. Qodirovning takidlashicha, “P.A. Komarov bilan M.F. Gavrilov (ularga ergashib L.A. Perepelitsina va boshqalar ham) asosan Toshkent viloyati materiallariga tayangan holda qo'g'irchoqbozlarning ko'proq ijtimoiy ahvoli, qo'g'irchoqlarning tuzilishi va tomosha texnikasi xususida fikr yuritgan”⁹⁶. Shu bois, olim O'zbekiston bo'ylab uyuushtirilgan ko'plab ekspeditsiyalarda faol qatnashib, 1972–1979-yillarda o'zbek va rus tillarida bosilib chiqqan “Xalq qo'g'irchoq teatri” hamda “Узбекский традиционный театр кукол” monografiyalari orqali an'anaviy qo'g'irchoq teatri to'g'risida yetarlicha ma'lumot berdi. Ushbu monografiyalar qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasi va ijrochilik uslublari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berishi bilan qadrlidir.

Mustaqillik yillariga kelib bolalar teatrlari faliyatini o'rganishga qaratilgan jaryonlar jadal tus oldi. Bu borada ko'plab olimlar o'zbek qo'g'irchoq teatrining yutuq va muammolarini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar olib bordi. O'zbek qo'g'irchoq teatri tarixi va og'zaki dramaturgiya, ijrochilik uslublari, xalq aktyorlarini aniqlash va faoliyatini yoritish bo'yicha M. Qodirov samarali izlanishlar olib bordi. Bu borada olimning “O'zbek qo'g'irchoq teatri tarixi” (S. Qodirova bilan hamkorlikda, 2006) hamda “An'anaviy teatr dramaturgiyasi” (2016) “Xalq qo'g'irchoq teatri” (2022) tadqiqotlari ulkan ahamiyatga ega.

“Temuriylar davri tomosha san'atlari” (2007) monografiyasida tarixiy va adabiy manbalarda sochilgan ma'lumotlar asosida qo'g'irchoq tomoshalarining qadimgi turlari, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga erishildi. Monografiyaning “Qovurchoq o'yin” nomli bo'limida shu haqda so'z boradi.

Olimning “Qo'g'irchoq teatri tarixi” darsligida o'zbek qo'g'irchoq teatrining an'anaviy ko'rinishidan tortib, zamonaviy qiyofasigacha tahlil etiladi. “Chodir jamol”, “Chodir xayol”, qo'g'irchoqbozlar faoliyati, hayoti va ijodi bir so'z bilan aytganda, o'zbek qo'g'irchoq teatri tarixining yaxlit qiyofasi gavdalanadi.

96 M. Qodirov, S. Qodirova. “O'zbek qo'g'irchoq teatri tarixi”. Toshkent: Talqin, 2006. – 14–15 b.

“Xalq qo‘g‘irchoq teatri” (2022) kitobida “Qo‘g‘irchoqboz va mahorat” nomli bo‘limda qo‘g‘irchoqbozlar faoliyati va o‘ziga xosligi to‘g‘risida so‘z boradi. Ushbu bo‘lim an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatrining aktyorlik mahorati to‘g‘risida so‘z yuritganligi bilan ahamiyatlidir. Professor Maryam Ashurovaning “Mehrardan yaralgan olam”⁹⁷ nomli risolasi, Shermat Hayitbayevning “Qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi”⁹⁸ hamda Iroda Turdiyevaning “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari”⁹⁹ nomli risolalarda asosiy e‘tibor qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasi, rejissurasi va qo‘g‘irchoq boshqarish texnikasiga qaratilgan. Venera Yusupovaning “Кукловождение работа с перчаточной куклой” (2020), jahon adabiyotlaridan, N.I. Smirnovaning “Искусство играющих кукол” (1983), I.N. Salomonikning “Традиционный театр кукол” singari risolalardagi masalalar qo‘g‘irchoq aktyorligi mahorati bilan bog‘liq bo‘lganligi bois tadqiqot ishimizni yoritishda muhim rol o‘ynaydi.

Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati hech vaqt san‘atshunos va teatrshunoslarning diqqat markazidan tushgan emas. Matbuot sahifalarining deyarli xar bir sonida qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xosligi, yutuq va kamchiliklari, janr xilma-xilligi muammosi to‘g‘risidagi turli yo‘nalishdagi maqolalar chop etiladi. Bundan tashqari, muntazam ravishda yosh izlanuvchilar tomonidan ilmiy ish sifatida mazkur san‘atning turli xil masalalari va muammolari o‘rganiladi. Xususan, Arslonova Gulbahor Qurbon qizining “O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik san‘atining shakllanish bosqichlari” (Respublika qo‘g‘irchoq teatri misolida), To‘ychiyeva Nodira Baxtiyor qizining “Qo‘g‘irchoq teatrida obraz yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari” (Respublika qo‘g‘irchoq teatri misolida) (2010–2017-y.) nomli dissertatsiyalari mavzu va yo‘nalishi jihatidan tadqiqot ishimizga yaqin hisoblanadi.

Qo‘g‘irchoq teatri ifoda vositalarining o‘zgachaligi bilan boshqa san‘at turlari orasida ajralib turadi. Qo‘g‘irchoq teatri spetsifikasining o‘ziga xosligi shundaki, sahna markazida aktyor emas, balki qo‘g‘irchoq harakatlanadi. Barcha komponentlar qo‘g‘irchoq imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yaratiladi. Teatrdagi qo‘g‘irchoqlar oddiy qo‘g‘irchoqlardan farq qiladi. Ular sahnada jonlanib tilga kiradi, kuladi, yig‘laydi, iz-tirob chekadi, raqsga tushadi, tomoshabin bilan dardlasha oladi. Qo‘g‘irchoqlar bolalarni teatrga maksimal darajada yaqinlashtirishga xizmat qilishi, bilan bir qatorda, ijodkorlaridan ulkan mashaqqatni talab etadi. Jonsiz qo‘g‘irchoqni spektakl qahramoniga aylantirish, tomoshabin qarshisida gavgdalanitirish bir so‘z bilan aytganda jonlantirish qo‘g‘irchoq teatri aktyorining zimmasidadir. Qo‘g‘irchoq – qahramonning ishonarli obraz yarata olishi bevosita aktyorning mahoratiga bog‘liq. Bir vaqtning o‘zida turli xil his-tuyg‘ular, hatti-harakatlar va ovoz intonatsiyalari orqali asar voqealari va undagi mushohadalar silsilasini qo‘g‘irchoqlar yordamida jajji tomoshabinga yetkazib berish, ushbu san‘atning o‘ziga xos spetsifikasini ifoda etadi.

O‘z ishini sevadigan aktyorlar ham novator rejissyorlar singari kamyobdir. Shu bois bugungi kunda qo‘g‘irchoq aktyorlarini tarbiyalash, ustoz shogirdlik an‘nalari-ni yo‘lga qo‘yish masalalari dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, viloyat

97 M. Ashurova “Mehrardan yaralgan olam”. – Toshkent: “Zamon poligraf”, 2018.

98 SH. Hayitbayev “Qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi”. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti, 2007.

99 I. Turdiyeva “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari”. – Toshkent: Zamon poligraf, 2015.

teatrlarida kadrlar masalasi hanuzgacha o‘z yechimini kutmoqda. Vaholanki, har yili qo‘g‘irchoq aktyorligi yo‘nalishini tamomlab kelayotgan aktyorlar talaygina. Ammo jonini shu sohada fido qilishni hohlaganlari juda oz.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Qodirov, S. Qodirova. O‘zbek teatri tarixi. Darslik. – Toshkent: Niso poligraf, 2019.
2. Ashurova M. “Mehrardan yaralgan olam”. – Toshkent: Zamon poligraf, 2018.
3. Mo‘minova M. “Bolalik dunyosida ezgulik uyg‘otib yoxud qo‘g‘irchoq teatridan katta teatr sari”. – Yuz.uz rasmiy sayti. 2021-yil 09-noyabr.
4. Mamatqulov B. “Bolalarni tarbiyalashda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati” “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1-march, 2022.
5. Hayitbayev SH. “Qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi”. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti, 2007.
6. Turdiyeva I. Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari. – Toshkent: “Zamon poligraf”, 2015

Dilfuza Riskiyeva,
O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati”
kafedrasi o‘qituvchisi,
1-bosqich mustaqil izlanuvchi

**TEATRDA REPERTUAR SIYOSATINING YURITILISHI:
MUAMMO VA YECHIM
(BUXORO VILOYAT QO‘G‘IRCHOQ TEATRI MISOLIDA)**

***Annotatsiya.** Maqolada bugungi kundagi ijodiy salohiyati, yutuqlari, jamoa oldida turgan muammo va yechimini kutayotgan ijodiy rejalar va eng asosiysi repertuar siyosati, teatrdan namoyish etilayotgan spektakllardagi milliy, dolzarb va umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzulardagi asarlarni qanday janrlar orqali aks ettirganligi keng qamrovda yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** teatr, repertuar san‘at, an‘anaviy, madaniyat, yoshlar, spektakl, qo‘g‘irchoq teatri.*

***Abstract.** This article covers in a broad scope the current creative potential, achievements, creative plans, awaiting solutions to the tasks facing the team, and most importantly, the repertoire policy, how works on national, current and universal themes are reflected in the plays presented in the theater.*

***Key words:** theatre, repertory art, traditions, culture, youth, performance, puppet theatre.*

Bolalar dramaturgiyasi o‘z o‘rnida rivojlanishi kutilayotgan va zarur bo‘lgan soha hisoblanadi. Teatr jamoasi bu muammoni baholi qudrat bartaraf etish yo‘lida o‘ziga xos izlanishlar olib borishda davom etyapti. Teatrning tarixiy faoliyatida xususan, so‘nggi 2000–2019-yillar davomida bolalar teatrining bir qancha namunalari yaratildi. Ular orasida aynan sahna uchun mo‘ljallab yozilgan dramaturgik asarlarda rang-barang yondashuv, mualliflarning o‘ziga xos talqinini guvohi bo‘lish mumkin. Qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasidagi muammolar hal etilish o‘rniga yanada murakkablashib bormoqda. Mahalliy mualliflarning qo‘g‘irchoq teatri janrida asar yaratmayotgani, yaratilayotgan asarlarning teatr talablariga mos emasligi, muammoning yildan yilga keng tus olishi bugungi vaziyatni taqazo etyapti. Teatr — ma‘naviyat ko‘zgusi. Madaniyatning uzviy qismi bo‘lgan teatr chinakam tarbiya o‘chog‘idir. Unda avvalo, millat taqdiri, inson hayoti, yurt qayg‘usi va shodligi o‘z aksini topadi. Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, bu maqsadga erishishda teatr san‘atining o‘rni alohida. Chunki teatr insonlarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, teatr tarbiya o‘chog‘i bo‘lib, u insonlardagi salbiy xususiyatlarni, kamchilik va xatolarni ko‘rsatib, yaxshi va yomonni, oq-qorani ajratishga o‘rgatadi. Shu bois “Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, buning uchun respublikaning barcha hu-

dudlarida teatr, muzey, ko'chma sirk va hayvonot bog'lari faoliyatini doimiy ravishda yo'lga qo'yish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda."¹⁰⁰

Bugungi kunda O'zbekistonning o'n ikkita viloyatida qo'g'irchoq teatri mavjud. Bu teatrlarni tashkil etishda Toshkentdagi Respublika qo'g'irchoq teatri jamoasi va hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qoshidagi "Qo'g'irchoq teatri aktyorligi" kafedrasini yetakchilik qilgan. Har qanday teatrning tarixi, uning rivojlanish yo'li va erishgan yutuqlari zahirida repertuar tizimining o'rni alohida e'tirof etilishi kerak.

Repertuarining asosi — bu dramaturgiyadir. Teatr san'atini shu bois ham dramaturgiyadan ayro holda tasavvur qilish qiyin. Chunki teatr spektakl vositasi orqali namoyon bo'lsa, spektakl yahlit pyesa asosida yuzaga chiqadi. Adabiyotning murakkab janri bo'lgan dramaturgiyada qalam tebratish ham zavqli, ham mashaqqatli. Ana shu o'zgacha zavqni tuyib, uning mashaqqatli sinovlaridan metin iroda bilan o'ta olganlar dramaturg deb qadrlanadi. Shu o'rinda repertuar so'zining mazmun-mohiyati xususida qisqacha to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Repertuar [fr. repertoire < lot. repertorium — ro'yxat, ma'lumotnoma] Turli teatr, konsertlarda yoki ayrim xonanda tomonidan muayyan davr mobaynida ijro etiladigan asarlar majmuyi"¹⁰¹.

Repertuar o'z o'rnida teatrning tomoshabin uchun mo'ljallangan "menu"si hisoblanadi. Tomoshabin ta'bidan kelib chiqib, ham "mazali", ham "foydali" spektakl tayyorlash teatr "oshpaz"larining vazifasidir.

Repertuarni ma'lum darajada shakllantirish teatr jamoasida direktor, adabiy emakdosh, bosh rejissor va mahalliy dramaturglarga bog'liq.

Betakror san'at turlaridan hisoblangan qo'g'irchoq teatri yosh va jajji tomoshabinlarni ma'naviy yuksaklik tomonga yetaklaydi va ularning dunyoqarashini shakllantiradi. Sahnada jonlangan qo'g'irchoqlar bolalarda go'zallik, do'stlik, mardlik, halollik, vatanparvaplilik tuyg'ularini o'zida mujassam etgani uchun ham jajji tomoshabinlarni qadrlidi do'stiga aylanadi. Albatta, ularga bevosita va ijobiy ta'sir eta oldaigan qahramon va voqealarni o'ylab topishda dramaturgning ulkan vazifasi bor. Chunki, dramaturg turli yoshdagi bolalarning borliqini aqlan qabul qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, qahramonlar va voqealar ramziy tasvirga ega bo'lishi bolalar tasavvurining qo'g'irchoq teatri orqali shakllanishini ta'minlashi lozim. Aynan shu jihatlarni hisobga olganda, qo'g'irchoq teatriga repertuar tanlash murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Nega-ki, yuqorida ham aytib o'tganimizdek, bu teatrga tashrif buyuruvchi tomoshabinlar turli yoshdagi bolalarni tashkil qiladi. Shu bois ma'lum bir asar uchun tanlangan mavzu, qahramonlar xarakteri, hoya, konflikt va ularning yechimi albatta personajlarning qanday inson ekanligiga bog'liq. Bu kabi arayonni qabul qilishda bolalarni imkoniyatlari turlicha ekanligini hisobga olib, qo'g'irchoq teatri repertuarini shakllantirishda tomoshabinlarning yoshiga qarab uch toifada pyesa yoziladi.

Xususan, Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatrida yillar davomida o'ziga xos tomoshalar tizimi shakllangan. Aynan, bu tomoshalarni shakl xususiyatiga ko'ra bir necha turga

100 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasini jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 26.05.2020 y (elektron manba).

101 O'zbek tilining izohli lug'ati, 35 821 ta so'z (elektron manba).

ajratish mumkin:

- spektakllar;
- bayram dasturlari;
- teatrlashtirilgan dasturlar.

Mazkur spektakl va tomoshalarning dramaturgik asoslari mohiyatan quyidagi ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh:

- mahalliy mualliflarning dramaturgik asarlari;
- mahalliy mualliflarning badiiy asarlari insseniroykalar;
- milliy xalq ertaklari motivlari asosida yaratilgan asarlar;

Ikkinchi guruh:

- jahon mualliflarining dramaturgik asarlari;
- jahon mualliflarining badiiy asarlari insseniroykalar;
- jahon xalq ertaklari motivlari asosida yaratilgan asarlar.

Bu spektakllar esa o'z o'rnida turli yosh darajasidagi tomoshabinlar uchun taqdim etiladi:

- maktabgacha ta'lim muassasalari yoshidagi bolalar;
- maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari;
- maktabning yuqori sinf o'quvchilari.

Xo'sh, ushbu toifadagi tomoshabinlar uchun yoziladigan asarlar qanday xususiyatlari bilan xarakterlanadi? Shu o'rinda fikrimizni qisqaq izohlab o'tamiz. Masalan, keltirib o'tganimiz, birinchi toifaga kiruvchi tomoshabinlar uchun yoziladigan asarning tili sodda, voqealari oddiy bo'lishi lozim. Voqealar va xarakterlar asosan o'yin va qo'shiqlar yordamida ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ikkinchi toifadagi tomoshabinlar haqida gapiradigan bo'lsak, bular aytib o'tganimizdek, maktabning boshlang'ich va o'rta sinfida o'qiydigan o'quvchilarni qamrab oladi. Shuning uchun ularni oila, maktab, do'stlik, o'qish, mehnatsevarlik kabi mavzudagi asarlar bilan ko'proq e'tiborini jalb qilish mumkin. Uchinchi toifadagi tomoshabinlar bular o'spirinlar. Shu boisdan ular uchun yoziladigan asarlar kattalar mavzusiga yaqinroq, jumladan, milliy urf-odat va an'analar, qadriyatlar, tarixiy shaxslarning bosib o'tgan hayot yo'li, sevgi va sadoqat mavzularni yoritish mumkin. Bu toifa uchun tanladigan asarlar janrlar xilma-xilligi bilan ham o'ziga xosdir. Aytish joizki, so'nggi davrda o'zbek dramaturgiyasi katta evrilishlarni boshidan o'tkazmoqda. Unda zamonaviy qahramon obrazini yaratish yo'lida o'ziga xos jarayon kechmoqda va jarayonning natijasi o'laroq, teatr sahnalarida hayotning qarama-qarshiliklari oldida chekinmagan, o'zligini anglashga intilgan va o'zini namoyon eta olgan qator insonlar obrazlari yaratildi. Biroq, shunga qaramay, hali yaratilayotgan qahramonlarning hammasini badiiy yetuk, davr sinoviga bardosh beradigan qahramonlar, deyishga erta deb o'ylaymiz. Shunday bo'lsa-da, dastlabki da'dil va muvaffaqiyatli qadamlar bu yo'ldagi ishlarning ertangi kuniga katta umid uyg'otadi. Bu jarayon nechog'liq murakkab va ko'p qirrali bo'lmasin, yangilikka intilish va uni egallash yo'lidagi say-harakatlar va izlanishlar o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi, albatta.

Tabiiyki, har bir zamonning o‘z qahramonlari bo‘ladi. Ular hurlik va istiqloq uchun kurashgan, o‘z xalqini ozodlikka olib chiqqan yo‘lboshchilar yoki dushmani yurtidan haydab chiqargan sarkardalar bo‘lgan. Ba‘zan, ulug‘ kashfiyotlar qilib, o‘z millati nomini dunyoga yoygan olimlar yoki ezgulik va adolat uchun jonlarini fido qilgan oddiy odamlar bo‘lgan. Har bir zamonning qahramonlari o‘sha davr kishilarining eng oliy fazilatlarini – axloq-odobi, aqlu zakovati, halolligi va mardligini, orzu umidlarini o‘zlarida mujassam etganliklari bilan ajralib turishgan. Shuning uchun ham xalq ularni sevgan, ularga ergashgan, kelgusi avlodlarga ibrat qilib ko‘rsatgan. Ular haqida dostonlar to‘qilgan, romanu qissalar yozilgan, sahna-tomoshalari qo‘yilgan. Darhaqiqat, zamonamiz qahramonlari obrazini yaratish, faoliyatini targ‘ib etish — ijod vakillarining asosiy vazifalaridan biridir. Shu asosda teatr sahnalarida istiqloq g‘oyalari, zamonamiz qahramonlari obrazlari va davr ruhiyatini o‘zida aks ettirgan spektakllarni tomoshabinga taqdim etishga so‘ngi yillarda ayniqsa, alohida va jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. “Sahnada zamon qahramonini aks ettirish hamisha dolzarb masala bo‘lib kelgan. Zamon qahramoni qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat’i nazar, haqiqat, adolat yo‘lini umr mazmuniga aylantirgan, yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlar sohibi bo‘lishi darkor. Bunday obrazni yaxlit badiiy asar orqali yaratish esa ijodkorlardan chinakam mahoratni talab etadi. Bugun teatr jamoalarimiz tomonidan zamon qahramonini sahnaga olib chiqishga intilish kuchli. Shu bilan birga, asarlarning targ‘ibotiga ommaviy axborot vositalari yanada faol hissa qo‘shsa ayni muddao bo‘lardi”, deydi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori Muhabbat Tulyaxodjayeva.

Xulosa

Bugun professional teatr sahnalarida bu borada samarali ijodiy izlanishlar olib borilayotgani e‘tirofga loyiq. Bir necha yillardan buyon o‘tkazib kelinayotgan “Seni kuylaymiz zamondosh” Respublika teatr festivalida taqdim etilayotgan spektakllar fikrimiz isbotidir. Biroq kelajak avlod vakillarining asosiy tarbiya o‘choqlaridan biri bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatri ijodkorlari bu borada biroz sustkashlikka yo‘l qo‘yayotgandek nazarimizda. Jumladan, viloyat teatrlarida ijod qilayotgan ijodkorlar faoliyatida bunday kamchilik yaqqol ko‘zga tashlanmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
2. M.X. Qodirov. “Xalq qo‘g‘irchoq teatri”. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972,
3. «Узбекский традиционный театр кукол». – Ташкент: издательство литература и искусство им. Г. Гуляма, 1979).
4. “O‘zbek xalq tomosha san’ati”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
5. “An’anaviy teatr dramaturgiyasi”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
6. “O‘zbek an’anaviy teatri”. – Toshkent: Milliy kutubxona nashr., 2010).
7. M. Qodirov va S. Qodirovaning “Qo‘g‘irchoq teatri tarixi” – Toshkent: Talqin, 2006.

8. “Qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi” o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: 2014.
9. M. Ashurovaning “Akter sozdatel kukolnogo ssenicheskogo obraza”. – T., 1995.
10. T.I. Yuldashev, H.I. Ikromov, I.A. Muxtarov, M.S. Muxtorova “Teatr va yosh avlod” – Toshkent, 2012.
11. M. Rahmonovning “O‘zbek teatri (qadimiy zamonlardan XIII asrga qadar) – Toshkent: Fan, 1975.
12. “O‘zbek teatri tarixi (XIX asrdan XX asr avvaligacha). – Toshkent: Fan, 1968

Elektron resurslar

1. www.uza.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.dsmi.com
4. www.darakchi.uz

Islom Berdimurodov,
*O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san‘ati” kafedrası o‘qituvchisi,
1-bosqich mustaqil izlanuvchi*

QO‘G‘IRCHOQ TEATRLARINING ASRIMIZ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

***Annotatsiya.** Ushbu maqola qo‘g‘irchoq teatrining tarixiy rivojlanishi, uning madaniy merosdagi o‘rni va zamonaviy jamiyatda bolalar va kattalar orasida turli psixologik, estetik va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishda tutgan roli haqida bo‘ladi.*

***Kalit so‘zlar:** tarixiy rivojlanish, madaniy meros, zamonaviy jamiyat, bolalar, kattalar, psixologik funksiyalar, estetik funksiyalar, tarbiyaviy funksiyalar, qo‘g‘irchoq teatri, san‘at, jamiyat, teatr janri.*

***Abstract.** This article will discuss the historical development of puppet theatre, its place in cultural heritage, its role in performing various psychological, aesthetic and educational functions among children and adults in modern society.*

***Key words:** historical development, cultural heritage, modern society, children, adults, psychological functions, aesthetic functions, educational functions, puppet theater, art, society, theatrical genre.*

Bugungi kun yoshlari — ertangi mamlakatning egalaridir. Bu tushuncha, jamiyatga bunday baho berish, mamlakatimizda davlat siyosatining bosh mazmuniga aylangan. Shiddat bilan o‘tayotgan hayotimiz, turli ziddiyat va taxlikalar bilan to‘lib bormoqda. Kun sayin tez rivojlanib borayotgan texnika davrining bolalari ham o‘ziga yarasha juda talabchan va zukko. Endilikda bu yoshlarni biron bir masalada lol qoldirish, xayratga solish o‘ta murakkablik kasb etmoqda. Bugungi kichik tomoshabin dunyoqarashi butunlay o‘zgacha. Ular orasida cho‘pchaklarga ishonadigan, bakovul bo‘ri-yu, yasovul tulkilardan qo‘rqadigan bolalar deyarli qolmadi. Ularga biror narsa haqida gapirsangiz “nega?” degan savolga jiddiy va ishonarli javob berish uchun doimo tayyor turishingiz kerak. Shuning uchun ham ularga berilayotgan ta‘lim va tarbiya eng muhim masala bo‘lib qolmoqda. Aksariyat yoshlarimiz internet, telefon, smartfon va kompyuterlarga “bog‘lanib” qolmoqdalar. Bu o‘rinda, ular e‘tiborini tarbiyaviy ahamiyatga ega, qaysiki, internet, uning salbiy ta‘siridan, xurujlaridan himoya etuvchi vositalar ustida bosh qotirish dolzarb masaladir. Endilikda yoshlarimiz, ular qalbida milliy mafkura, milliy madaniyat, ma‘naviyatni singdirish orqali, ommoviy madaniyat xurujlariga qarshi imunitetni shakllantirish zarurati ko‘rinmoqda. Bu masalada adabiyot, san‘at va madaniyatning o‘rni va ahamiyati, “kuchi”ni chuqur anglagan holda, o‘rinli foydalanish maqsadga muvoffiqdir. Zero, bu kuchning, qudratning chegarasi benihoya ekani sir emas. Xususan teatr, bu ma‘noda insonlarga kuzgu bo‘lib, jamiyatni ma‘naviy yuksalishida eng samarali vositalardan biridir.

Teatr — ma‘naviyat ko‘zgusi, chinakam tarbiya o‘chog‘i bo‘lib, uning mohiyatida inson tarbiyasi ma‘naviy olamini boyitish, madaniyatini yuksaltirishga bo‘lgan muhim vazifa yotadi. Bunday sahna asarlarida esa millat taqdiri, inson hayoti, yurt qayg‘usi va

shodligi o‘z aksini topmog‘i lozim. “Teatr – ibratxonadir” degan edi Maxmudxo‘ja Bexbudiy. Darxaqiqat, teatrning bosh maqsadi ham spektakl davomida tomoshabinga ma’naviy ozuqa berib, uni fikr qilishga, xulosa chiqarishga undamog‘i lozim. Xususan, ushbu vazifa qo‘g‘irchoq teatrini ham chetlab o‘tmay balki, uning bosh me‘zoni ham shundan iboratdir. Garchan qo‘g‘irchoq teatrlari tarixidan ma’lumki, uning sahna asarlari kattalar uchun tomoshalar namoyish etib kelgan bo‘lsada, ammo bugun jamiyat o‘rtasida ular faoliyatini bolalar uchun degan tushuncha kengroq tarqalgan. Shu jihatdan ham qo‘g‘irchoq teatri inson ma’naviyatini shakllantirish, tarbiyalashda bosh bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi desak arziydi. Taniqli olim O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor Muxsin Qodirov qo‘g‘irchoq teatri san’atga ulkan baho berib, shunday izohlaydi: “Osiyo qo‘g‘irchoq teatri bu shunchaki ermak emas, balki bir qit’a xalqlarining falsafasi, tasviriy san’ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir¹⁰²”.

Dunyoga xayrat bilan boqib turgan bola ongi oppoq qog‘oz misoli bo‘lib, qolbi ham shunga barobar beg‘ubordir. Bu ma’noda tarbiya masalasi, puxta o‘ylangan, extiyotkorlik va chuqur aqliy yondoshuvni talab etuvchi jarayondir.

Psixologlarning takidlashicha inson aynan 3 yoshga to‘lgunga qadar atrof olamni tanishga, 3–7 yoshga kirguncha esa uni anglashga intilar ekan. Hayotining qolgan davrida shu olingan ma’lumotlar keyingilari bilan qiyosiy taxlil orqali qabul qilinadi yoki rad etilishi fanda isbotlandi. Garchan bu ta’limot o‘zbek millatiga azaldan urfodatga aylanib ulgurgan bo‘lsada, afsuski yillar silsilasida biroz unutilib borayotgandek. Xazrati Mir Alisher Navoiy, Bobur, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Al-Farg‘oniy, At-Termiziy, Az-Zamaxshariy va yana yuzlab buyuk bobolarimizning bolalik davri so‘zimiz isboti bo‘la oladi.

Aynan bir qarashda oddiy tuyilgan bu 3–7 yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan jarayonni muhimligi, ota-ona va atrofdegilar zimmasiga ularni qanday shaxs bo‘lib ulg‘ayishlaridek masalani yuklaydi. Gap birgina shaxs ustida emas balki, shu shaxslardan tashkil topadigan jamiyatni, mamlakatning ertasi, taqdirini xalq etuvchi kuch xaqida ekanligina unitmaslik lozim. Shu jihatdan barkamol avlod tarbiyasi murakkab jarayon bo‘lish bilan birga, biz kattalarning har birimizga ular tarbiyasida shunchalar ulkan mas’uliyatni yuklaydi.

2020-yil 26-may kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PF–6000-son “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Farmoni imzolandi. Unga ko‘ra, uzoq yillar madaniyat va san’at vakillariga ijodiy cheklov va to‘siq bo‘lib kelayotgan qator masalalar o‘z yechimini topdi. Xususan, o‘zining boy tarixi, o‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri maktabining shakllanishi va rivojidadagi beqiyos hissasini inobatga olib, Respublika qo‘g‘irchoq teatriga O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri maqomi berildi. Bu esa o‘z navbatida sohada faoliyat olib borayotgan ijodiy kollektiv uchun e’tirof bo‘lib baholandi. Shuning barobarida, bu dargohdan ijod qilib o‘tganlar ruhiga chuqur xurmat bo‘lib aks etdi. Yana Farmonga ko‘ra, xanuz qo‘g‘irchoq teatriga ega bo‘lmagan Navoiy, Namangan, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari xududida 2021-yilning o‘zida yana 4 ta davlat qo‘g‘ir-

102 M. Qodirov. Teatr san’ati o‘tmishdan lavhalar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993. – 163 bet.

choq teatrlarining qurilishi va zamonaviy moddiy texnik ba'za bilan taminlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, 2021-2023 yillar kesimida faoliyat olib borayotgan o'nta davlat qo'g'irchoq teatrlarini kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, moddiy texnik taminotini xalqaro professional darajada qayta ko'rib chiqish, yangilash vazifalari yuklatildi. Ko'rinadiki, soha vakillari shu kuni chinakam kasbiy bayram shukuhini tuydilar. Zero, mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi Davlat siyosati darajasida ko'tarilgan. Farmon esa ushbu yo'lda yana bir ishonchli qadam bo'ldi. Endilikda Respublikamizdagi davlat qo'g'irchoq teatrlarining soni o'n to'rttani tashkil etadigan bo'ldi.

Ma'lumki, san'at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi sanalgan qo'g'irchoq teatri, o'zining boy an'alariga, tarixiga ega bo'lgan betakror san'at turlaridan biridir. Uning ildizi xalqimizning folklori, urf-odati, udumlari va milliy an'analari bilan bog'liq holda, asrlar davomida ularni boyitib, sayqal berib rivojlantirib kelmoqda. Uning sahnasida bolalar ruhiyatiga mos va tasavvurida yorqin o'rin egallaydigan, beg'ubor orzular tomon yetaklaydigan sexrli ertaklar, quvnoq sarguzashtlardan iborat voqea va xodisalar makon topgan. Bu spektakllar aynan bolalar istaklariga mos turli sarguzasht va didaktik asarlar majmui bo'lib, asarlarni mazmunan va tarbiyaviy jihatdan rangba-rang mavzularni qamrab olgani bilan ahamiyatli hamda shu maqsad va vazifalar doirasida shakllangan. O'zbekiston xalq artisti, davrimizning yetuk rejissyorlaridan Baxodir Yo'ldoshev ta'kidlaganidek; "Teatr tomoshabinni tarbiyalamaydi – tarbiyali tomoshabingina o'zi teatrga boradi. Teatrga tomoshabin spektakl ko'rgani emas, qaxramonlarga hamdard bo'lgani keladi..."

Qo'g'irchoq teatri uchun repertuar tanlash, mavzu va g'oyani ifoda etishda uslubni belgilash eng murakkab jarayon hisoblanadi. Biz bilamiz-ki, bu teatrga tashrif buyuradigan tomoshabinlar turli yoshdagi bolalardan iborat. Bolalarni yoshini aniq inobatga olmasdan asar yozish yoki tanlash yaramaydi va bunda tomoshabin yosh kesimini aniq ajratib olish eng muhim komponent hisoblanadi. Bu mazmunda yosh tomoshabinlarni uch toifaga ajratish kerak deb hisoblaymiz. Bunda birinchi toifa, ya'ni 3–5 yoshli tomoshabinlar uchun yoziladigan pyesaning voqeasi oddiy so'zlar, aniq harakatlarda ifodalanib, spektakl — o'yin tariqasida yoritilgan bo'lishi talab qilinadi. Qo'g'irchoq personajlar, obrazlarning talqini xatti-harakatlarga shunga asoslangan bo'lib, qo'g'irchoq, butafor va dekoratsiyalar ham rang barang, jozibador bir qarashda jajji tomoshabinni mahliyo qilishi zarur. Shuningdek, quvnoq o'yinlarga, kuy-qo'shiqlar va musiqiy shovqin bezaklari mos ravishda tanlanmog'i kerak. Asosiy mavzu — bolalar hayotidan turli xayvon obrazlari orqali lavhalar, tabiat go'zaliklari, unda yashovchi qush va hayvonlarning yashash tarzidan so'zlamog'i lozim. Shuning barobarida, insonlarning tabiatga munosabati, bolaning oilada ota-ona bag'rida ulg'ayishi kabi voqealarni yoritilsa ayni muddao bo'ladi. Yosh tomoshabin bu jarayonni ko'radi, personajlar harakatini kuzatadi va o'zicha tahlil qiladi, tarbiyaviy tushunchalar paydo bo'ladi. Natijada ularda hayotni bilish, anglash, yaxshilikka intilish va sahnadagi personajlar bilan munosabatga kirishish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Bu esa bolalarni har tomonlama — aqliy, jismonan, axloqiy, ruhiy va ma'naviy jihatdan shakllanishi yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday jarayon yosh tomoshabinlarning estetik tuyg'ulari o'sib, ulg'ayib, kamol topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunga misol qilib, M. Ashurovaning

“Alla”, “Yaxshi fazilating zebu-ziynating”, Orlovning “Oltin jo‘ja”, N. Gernetning “G‘ozcha”, E. Xushvaqto‘vning “Ona mehri” pyesalarini keltirish mumkin.

Ikkinchi toifa tomoshabinlari maktab o‘quvchilari, 6–9 yoshlilar uchun yoziladigan asarlar bo‘lib, oila, maktab, o‘qish, mehnat, do‘stlik, mehribonlik g‘oyalari yo‘g‘rilgan quvnoq sarguzasht, sexr-jodu, fantastik mavjudodlar ishtirokidagi pyesalardir. Har xil mavzularni shu kabi uslublar yordamida talqin etilishi bu yoshdagi tomoshabinda badiiy tafakkur, sadoqat, to‘g‘ri so‘zlik, topqirlik, iroda, ahillik, mehr-muruvvat, do‘stlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Jumladan, M. Ashurovaning “O‘z uyingni o‘zing qadirla”, “Allo...yerliklar, biz siz bilan!”, “Sehrlangan shahzoda”, V.Pavlovskiyning “No‘xot bola”, Y. To‘ychiyevning “Orzuning ushalishi”, Y. Speranskiy “G‘aroyib poyga” pyesalarini misol qilsa bo‘ladi. Chunki, bu spektakllar asosan harakatga qurilgan bo‘lib so‘zlar o‘rinli va maqsadli foydalanilgan. Shu o‘rinda, teatrning bu turi aynan shu xususiyati ya‘ni kam so‘z, ko‘p xarakter talab etishi bilan katta dramatik teatrlardan farqlanadi. San‘atshunoslik fanlari doktori, professor S. Qodirova “Qo‘g‘irchoq tatri uchun yozilgan pyesa kichik xajmda bo‘lganligi uchun emas, balki voqealarning harakatga asoslanganligi, aniq g‘oya va maqsad bo‘lganligi hamda so‘z zamonlikdan yiroqligi bilan ajralib turishi lozim. Zero, qo‘g‘irchoq katta monolog va nasixatomuz so‘zlarni ifoda etishi qiyin”¹⁰³, deb izohlaydi.

Uchinchi toifa 9–12 yoshdagi tomoshabinlar uchun yoziladigan pyesalar bo‘lib, ularda milliy an‘analar, qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy shaxslar, ularning dunyo tamaduniga qo‘shgan hissalaridan so‘zlovchi majmui bo‘lmog‘i ahamiyatlidir. Bu yoshdagi uchun asarning ijobiy qahramon obrazi yuqori pafos, murakkab, masalalarni hal etuchi, maqsadga erishish uchun har qanday to‘siqlarni yenga oladigan, ilg‘or g‘oyalarga intiluvchi vatanparvar va uddaburon bo‘lmog‘i kerak. Turli xil janrlarni o‘z ichiga qamrab olgan bu kabi ifodalangan pyesalar mohiyatan tomoshabinda o‘z oliy maqsadini belgilab olishiga ko‘maklashib, ularni mardlik, sodiqlik, odamiylik, oliyanoblik, insonparvarlik va hokazo ulug‘ insoniy fazilatlarga undamog‘i lozim. Misol tariqasida A. Navoiyning “Muqbil va mudbir”, “Qush tili”, M. Ashurovaning “Oqqushlar nidosi”, “Sindbad-dengiz sayyohi” SH. Usmonova va B. Eshonqulovlarning “Ulug‘bek yulduzi”, SH. Murodovning “Samolarda uchgan alloma” asarlarini misol qilish mumkin. O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri bosh rejissyori, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Shomurod Yusupov aytganidek; “...Kichik yoshdagi tomoshabinlar ham sa‘nat darajasidagi spektakllarni ko‘rib ulg‘ayishsa, kelajakda albatta tarbiyali tomoshabinlar qatoridan joy olishadi. Bir so‘z bilan aytganda, qo‘g‘irchoq teatri san‘atini rivojlantirib taraqqiy ettirish uchun har bir ijodkor fidokorona mehnat qilmog‘i kerak”¹⁰⁴.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ma‘lum sahna asariga olingan mavzu, voqealar tizimi, qarama-qarshiliklar va ularning yechimi, personajlarning qanday harakterga

103 Qodirova S. “Respublika davlat qo‘g‘irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari” ilmiy-amaliy seminar to‘plami. “LESSON PRES” OK. – T., 2018.

ega ekanligi, o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Bu kriteriyalar asardagi berilgan shart-sharoitda, bosqichma-bosqich, jarayonlarda, turlicha kechadi. Shu jihatdan rejissyor tanlagan asarining tomoshabin auditoriyasi yoshiga qarab, ularning qabul qilish imkoniyatlari to'g'ri baholagan holda rejissyorlik yechimi (режиссёрское решение) topsa, spektakl muvoffaqiyati ta'minlangan bo'lardi. Shunday qilib, qo'g'irchoq teatri va umuman teatr san'ati yosh avlodimiz tarbiyasida alohida tarbiyaviy, g'oyaviy, estetik funksiyalarga ega. O'zbekistonda esa ushbu sohani qo'llab-quvvatlash uchun barcha zarur choralar ko'rilmoqda. Hind mutafakkiri va davlat arbobi ta'kidlaganidek: "Agar biz dunyoda tinchlik o'rnatishni istasak, ishni bolalar tarbiyasidan boshlashimiz kerak".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov, M. Teatr san'ati o'tmishdan lavhalar. Toshkent: Fan nashriyoti 1993. 163 b.
2. Qodirova, S. "Respublika davlat qo'g'irchoq teatrlarini professional faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-amaliy yechimlari" ilmiy-amaliy seminar to'plami. "LESSON PRES" OK . Toshkent: 2018.
3. Yusupov, SH. "Qo'g'irchoq teatri san'atini rivojlantirishda innovatsion hamkorlikning afzalliklari" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy va amaliy konfirensiyasi to'plami. "LESSON PRES" OK . Toshkent: 2020.

Baxtiyar Aytmuratov,
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali
Registrator ofisi boshlig‘i, 1-bosqich mustaqil izlanuvchi

TEATR TARAQQIYOTIDA IJODIY JAMOA VA REPERTUAR MASALALARI (QORAQALPOQ DAVLAT QO‘G‘IRCHOQ TEATRI MISOLIDA)

***Annotatsiya.** Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatrlarida olib borilayotgan ijodiy jarayonlarni o‘rganish, aktyorlar ijrosidagi o‘ziga xoslik, rejissura, repertuar masalalari va uni rivojlantirish hamda bu boradagi muammo va yutuqlarni tavsiflash, tahlil qilish orqali teatrlarning bolalarni tarbiyasida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** teatr, qo‘g‘irchoq, repertuar, rejissyor, aktyor, spektakl.*

***Abstract.** The role of theaters in the education of children is discussed by studying the creative processes taking place in the Karakalpak State Puppet Theaters, the uniqueness of the actors' performances, directing, repertoire issues and its development, as well as describing and analyzing the problems and achievements in this regard.*

***Key words:** theater, puppetry, repertoire, director, actor, performance.*

Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatri ijodiy imkoniyatlari keng, respublika miqyosida o‘z o‘rniga ega teatrlardan hisoblanadi. Teatr O‘zbekiston respublikasi madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib kelayotgan jamoa. Teatr taraqqiyotida ijodiy jamoa va repertuar masalalari teatrdagi uzoq yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan aktyor va rejissyorlarning tinimsiz mehnati orqali belgilanadi.

Ayniqsa, o‘tgan asrning 90-yillardan boshlab qoraqalpoq qo‘g‘irchoq teatrining ijodiy izlanishlarini boshqarib, yo‘naltirib kelayotgan rejissyor Murat Begimovning ijodiy faoliyatini o‘rganar ekanmiz, qoraqalpoq teatri sahnasida eng ko‘p qo‘g‘irchoq spektakllarini sahnalashtirgan aktyor va rejissyor ekanligining guvohi bo‘lamiz. Begimov Murat Polatovich 1957-yilda Qoraqalpoq‘iston Respublikasi Nukus shahrida tavallud topgan. 1980–1981-yillarda Qoraqalpoq teleradiokompaniyasida assistent-rejissyor lavozimida ish boshlagan Murat Begimov ustozlari Alpibay Qayupov, Uzaqbay Jalimbetov, Bazarbay Dagarov, Kenesbay Isayevlardan televideniye rejissyorligi sirasrorlarini qunt bilan o‘rgandi. O‘sha yillari jajji kichkintoylar uchun ko‘pgina qiziqarli ko‘rsatuvlar tayyorlab, kichik yoshdagi teletomoshobinlarga tuhfa etdi.

1982-yili Toshkent shahrida joylashgan o‘sha paytdagi Ostrovskiy nomidagi teatr va rassomchilik institutining “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi” ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirdi va 1986-yili o‘qishni muvaffaqiyatli tugatdi. M. Begimov 1986-yilda hozirgi Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida aktyor bo‘lib faoliyat yuritib boshladi. Bu yerdagi ijodi davomida u K. Karimovning “Oltin tanga” spektaklida boy rolini va Chepovetskiyning “Masxaraboz akaning kulgusi” spektaklida masxaraboz aka rolini mukammal darajada ijro etdi.

M. Begimovning “Bedana va Tulki”, “Otamdan qolgan meros”, “Oltin bug‘doy”, “Cho‘pon bola muallifligida “Sodiq do‘stlar”, “Toshbaqa, Toshkana va Tulki”, “Botir

quyon”, “Sehrli qo‘ng‘iroq”, “Sovg‘a”, “Oq quyonning nayranglari”, “Aldar ko‘sa” (M. Begimov инсценировка) va boshqa ko‘pgina spektakllari sahnalashtirildi. U nafaqat o‘zi yozgan pyessalarni, balki boshqa millat adabiyot vakillarining asarlarini ham sahnalashtirib, ajoyib spektakllarga aylantirdi. Jumladan, Polivanovanning “Ayiqlarning xushchaqchaq bolalari”, G. Guriyevichning “G‘ozning polaponi”, “Qo‘riqchi va laylakning polaponi”, Xaytmat Rasulning “Sehrli qo‘shiq” kabi spektakllarini aytib o‘tish mumkin.

2005-yil M. Begimov sahnalashtirgan P. Aytmuratovning “Otam aytgan afsona” spektakli Buxoro shahrida o‘tkazilgan Respublika qo‘g‘irchoq teatrlarining VII-festivali”da “Eng yaxshi bolalar dramaturgiyasi” nominatsiyasiga munosib deb topildi. 2009-yil P. Aytmuratov bilan birgalikda yozgan “Sahrodagi do‘stlik” spektakli O‘zbekiston miqyosida o‘tkazilgan “VIII dasturiy festivali”da eng dolzarb muommalarni ko‘rsatib bergani uchun “Eng dolzarb mavzu” nominatsiyasiga musharraf bo‘ldi.

2018-yil Murat Begimov Qoraqalpoq xalq dostoni asosida yozilgan “Qirq qiz” spektaklini sahnalashtirdi va Toshkent shahrida shu yili o‘tkazilgan Respublika qo‘g‘irchoq teatrlarining an‘anaviy XI ko‘rik festivalida Qoraqalpoq qo‘g‘irchoq teatri jamoasi M. Begimovning “Qirq qiz” spektakli bilan ishtirok etib, har ikki yilda bir marotaba o‘tkaziladigan festivalda birinchi bor 3-o‘rinni egallab, qoraqalpoq madaniyatini qo‘g‘irchoq obrazlari yordamida jonlantirdi. Bundan tashari M. Begimovning muallifligidagi “Qo‘rqit ota afsonasi”, “Qizil qalpoqcha”, (M. Begimov инсценировка), “Alla” kabi spektakllar sahnalashtirildi.

Mustaqilligimizning 28 yilligi munosabati bilan teatrimizning bosh rejissyori M. Begimov “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi. Bu nafaqat kichkina bolajonlarning sevimli ertakchi bobosiga aylangan M. Begimovning, balki butun qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatri ijodiy jamoasiga berilgan mukofotidir.

Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatri rivojlanishida katta hissa qo‘shgan rejissyor va aktyor Qalilayev Qoblanbek Aytmuratovich. U 1965-yil 13-mart kuni Chimboy tumani ishchilar oilasida dunyoga kelgan. 1982-yil Toshkent davlat teatr va rassomchilik institutiga “Qo‘g‘irchoq teatri aktyori” bo‘limiga o‘qishga kirdi. 1988-yil institutni tamomlagan. 1990-yil Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatrida aktyor bo‘lib ish boshlagan.

K. Karimovning “Oriq mergan” spektaklida, K. Karimovning “Oq uloqcha bilan ko‘k uloqcha” spektaklida Oq uloqcha obrazini ijro etdi. R. To‘reniyazovning rejissyor assistenti bo‘lib ishladi. Q. Qalilayev yillar davomida S. Mixalxovning “Uch chuchqa bolasi” spektaklida Naf-Naf roli, Y. Speranskiyning “G‘aroyib poyga” spektaklida Tipratikon, S. Xusaynovning “Kerak bo‘lganing kerak” spektaklida Toshbaqa, V. Pavlovskiyening “Yolg‘onchi tulki” spektaklida Ayiq, M. Begimovning “Cho‘pon bola” spektaklida Boy, S. Orlovning “Oltin jo‘ja” spektaklida Bo‘ri, P. Aytmuratovning “Shariyar” spektaklida Darapsha shoh, M. Begimovning “Qirq qiz” spektaklida Surtaysha kabi rollarini mahorat bilan ijro etgan. 1995-yili “Yoshlar mukofoti sovrindori” nominatsiyasiga ega bo‘ldi.

Q. Qalilayev o‘zining ijodi davomida S. Pavlovskiyning “Yolg‘onchi tulki”, J. Xojanovning “Yetti iqlimga sayohat”, Y. Spiranskiyning “G‘aroyib poyga”, S. Orlovning “Oltin juja”, M. Xojanovning “Do‘sting yomonlik etma”. N. Maxsudovning “Gulda

bulbul sayraydi”, A. Begimovning “Saxro Bembyi”, Q. Matmuratovning “Oq uloqcha bilan ko‘k uloqcha”, P. Aytmuratovning “Umirbek Chimboy bozorida” M. Begimovning “Qo‘rqit ota” nomli spektakllarni sahnalashtirib tomoshabinlar olqishlariga sazovor bo‘ldi.

Teatrda uzoq yillar davomida ijod qilib kelayotgan aktyor Kulimov Paraxat Jamolovich 1969-yil 10-sentabrda Nukus shahrida tavvalud topgan. Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatrida 1996-yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. P. Kulimov teatrida ishlagan yillar ichida o‘zining ijro etgan rollari bilan xalqimizga tanilib, ularning ko‘ngillaridan joy olgan aktyor. U ijro etgan spektakllardagi qo‘g‘irchoq obrazlari o‘zining aktyorlik mahorati bilan yaratganligi uchun eng kichkina tomoshabinlarimiz bo‘lgan bolajonlarimiz ko‘nglidan keng joy olib kelmoqda. U qo‘g‘irchoq teatrida bir necha yillardan buyon spektakllarda rollar ijro etib kelmoqda.

Madetova Svetlana Qazaqbayevna 1964-yil 1-dekabr sanasida Navoiy viloyatida tavallud topgan. Madetova Svetlana 1986-yili Toshkent davlat teatr va rassomchilik institutining qo‘g‘irchoq teatri aktyori fakultetini muvvafoqiyatli tamomlab o‘z mehnat faoliyatini S. Xo‘janiyazov nomli Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining aktrisa lavozimidan boshlaydi va ko‘p yillik mehnat yo‘lidan so‘ng u yana o‘zining sevimli kasbi qo‘g‘irchoqbozlik san‘atiga qaytadi. 2015-yili Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatriga ishga qabul qilindi. Aktrisa teatrga kelgan dastlabki kunidanoq teatrga bo‘lgan qiziqishi, qo‘g‘irchoq teatri san‘atiga bo‘lgan mehri tufayli o‘zining tirishqoqligi va mehnatsevarligi bilan tezda jamoa nazariga tushib teatr repertuaridagi P. Aytmuratov va M. Begimovlarning “Sovg‘a” spektaklida Chavandoz, Kampir M. Begimovning “Botir quyon” spektaklida “Bo‘ri”, J. Uteniyazov “Oltin qo‘roz va Oqtirnoq” spektaklida “Qo‘zi”, Xalq dostoni asosida yozilgan “Sharyar” spektaklida “boshlovchi”, P. Aytmuratovning “O‘mirbek Chimboy bozorida” spektaklida “Ona”, X. Rasulning “Sehirli qo‘shiq” spektaklida “Bo‘ri”, G. Nurillayevaning “Men o‘zimga do‘st toptim” spektaklida “jo‘ja”, N. Maxsudovanning “Gulda bulbul sayraydi” spektaklida “Yalmog‘iz kampir”, M. Begimovning “Yolg‘onning umri kalta” spektaklida “Bo‘ri”, M. Begimovning “Oq quyoning nayranglari” spektaklida quyoning onasi, M. Begimovning “Sahrodagi bemi” spektaklida bemi, Q. Matmuratovning “Oq uloqcha va Ko‘k uloqcha” spektaklda uloqchalar onasi, M. Begimovning “Ustoz ko‘rgan shogird” kabi ko‘plab rollarni mahorat bilan ijro etib tomoshabinlar e‘tiboriga tushdi.

Madetova Svetlana yaxshi aktrisa sifatida teatr va jamoa ishlarida jonkuyarlik ko‘rsatib o‘zining tartibi, intizomi bilan yoshlarga o‘rnak bo‘lib kelmoqda. O‘ylaymizki, aktrisa shu tariqa ijodda davom etsa qo‘g‘irchoq teatri san‘atida ko‘pdan ko‘p muxlislar e‘tiboriga tushadi. U o‘zining oliygohda olgan bilimlarini, qo‘g‘irchoq teatri sirlari, sahna harakatlarini ustozlar bilan birgalikda yosh ijodkorlarga ayanmay o‘rgatib ustozlik qilib kelmoqda. 2022-yil “15-aprel O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san‘at xodimlari kuni” munosabati bilan Svetlana Madetova “Madaniyat va san‘at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatrining yuqorida keltirilgan aktyor va rejissyorlari qoraqalpoq madaniyati va sa‘natini qo‘g‘irchoq obrazlari orqali yuksaklarga ko‘tarishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan hamda bularni yoshlarga namuna qilib ko‘rsatish teatr

ijodkorlarini tinimsiz izlanishga va yangi betakror sahna asarlarini yaratishga undaydi.

Ularning ijodiga oid “Botir quyon”, “Mehnat tubi rohat”, “Qiriq qiz”, “Aldarko‘sa” va “Yetti iqlimga sayohat”, “Oltin jo‘ja”, “Do‘stingga yomonlik etma” “Sahro Bembyi”, “Oq uloqcha bilan ko‘k uloqcha”, “Umirbek Chimboy bozorida” “Qo‘rqit ota” va boshqa spektakllari qo‘g‘irchoq teatrining sahna asarlari guldastasiga aylandi. 2017-yildan G. Daliyeva, A. Nurimbetov, I. Djumaniyazova singari yosh rejissyorlar Qo‘g‘irchoq teatr rejissyorligini tugatmagan bo‘lsalarda, Ustoz rejissyorlar M. Begimov, Q. Qalilayevlarga shogirt tushib, ulardan rejissyorlik sir sinoatlarini o‘rganib yangicha uslubda spektakllar sahnalashtira boshladi. Jahon teatr san‘ati taraqqiyotiga kun sayin globallashib borayotgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma‘rifiy o‘zgarishlarning, informatsion va transformatsion jarayonlarning ta‘siri tobora kuchayib bormoqda. Bu xususiyat xalqaro maydonda ta‘sis etilayotgan tanlov va festivallarda turli mamlakatlar teatr jamoalari namoyish etayotgan spektakllarning mazmun-mohiyati, janri, shakli-shamoyillarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Rejissura va ssenografiyada texnik uskunalardan foydalanish, shartlilik-metaforaga urg‘u berish, dramaturgik manbaada so‘z o‘rnida ko‘proq xoreografik hamda pantomimik ifoda vositalaridan foydalanishga intilish harakatlari kuchaymoqda.

Tomosha san‘atining turli janr va shakllarini audio-videovizual texnologiyalar bilan sintezlashtirish, spektaklni sahnalashtirish va namoyish qilishda multimedia, kompyuter dasturlaridan foydalanish, ijodiy, tashkiliy, ishlab chiqarish va iqtisodiy aspektlarni tadqiq qilishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash nazaridan ilmiy yondashuv tendensiyalari tobora ommalashib bormoqda. Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida teatr san‘atining shakllanish va tarixiy rivojlanish bosqichlarini bugungi kun nuqtai nazaridan bir butun yaxlit tizimli tadqiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda va bu jarayonda Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatri yangi spektakllarni sahnalashtirish borasida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarurligi sezilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatrlarida yangi talqin, yangi mavzuda spektakllar paydo bo‘ldi. Rejissyor, aktyorlar ijodiy izlandi va yangi ijodiy uslublarni yaratdilar. 2008-yili O‘zbekiston davlat san‘at institutining Nukus filiali ochilishi qoraqalpoq teatrlari uchun keng imkoniyatlar yaratdi va 2011-yil Filialda “Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi” bo‘limi ochiladi. 2015-yildan har yili aktyorlik, rejissyorlik bo‘limlarini tugatib eng iste‘dodlilari teatrdagi mehnat faoliyatlarini boshlamoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida ustoz rejissyorlar M. Begimov, Q. Qalilayevlar o‘z ijodiy faoliyatlarini boshlab umuminsoniy mavzulardagi, milliy qadriyatlarimizni ulug‘laydigan spektakllar sahnalashtirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son Qarori.

3. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. – Xalq so‘zi, 2017-yil 4-avgust.

4. Qodirov M.X., Qodirova S.M. “Qo‘g‘irchoq teatri tarixi”. – Toshkent: Talqin, 2006.

5. M.Qodirov. “An’anaviy o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri”. – Toshkent, 1979.

6. M.Qodirov. “Tomosha san’ati o‘tmishdan lavhalar”. – Toshkent: Fan, 1981.

7. Ashurova M.H. Qo‘g‘irchoq teatri san’ati aktyorlik maktabi. Darslik. – Toshkent, 2007.

8. Abduxalilov A. Qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi. O‘.q. – Toshkent, “Innovatsion – Ziyo”, 2020.

SIRDARYO VILOYATI MUSIQALI DRAMA TEATRI SAHNASIDA NASRIY ASARLARNING O‘RNI

“Jahondagi eng ommaviy va ta’sirchan san’at turlaridan biri bo‘lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go‘zal his-tuyg‘ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda”.

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri repertuarining shakllanishida nasriy asarlarning sahnaviy talqinlari tahlil etiladi. Bu borada, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida aktyorlik ijro masalalari, rassomiga ahamiyat qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *teatr, repertuar, inssenirovka, nasriy asar, sahnalashtirish, dramaturgiya, aktyorlik, sahna bezaklari, teatr san’ati, tarixiy drama.*

Abstract. *This article analyzes the stage interpretations of prose works in the formation of the repertoire of the Syrdarya regional musical drama theater. In this regard, attention is paid to the issues of acting and artistry in Pirimqul Kadirov’s work “Starry Nights”.*

Key words: *theater, repertoire, dramatization, prose work, stage adaptation, dramaturgy, acting, stage design, theatrical art, historical drama.*

Teatrga qadam qo‘ygan tomoshabin o‘ziga xos estetik zavq va katarsis (forig‘lanish, poklanish)ga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyojni qondirishda repertuar muhim ahamiyatga ega. Repertuar [fr. repertoire < lot. repertorium – ro‘yxat, ma’lumotnoma] Turli teatr, konsertlarda yoki ayrim xonanda tomonidan muayyan davr mobaynida ijro etiladigan asarlar majmui. Repertuarni ma’lum darajada shakllantirish teatr jamoasida direktor, adabiy qism mudiri, bosh rejissor va mahalliy dramaturglarga bog‘liq.

Dramaturgiya — *repertuarining asosi. Ammo bu sohada qalam tebratish, qahramonlar xarakterini dialoglar va voqealar zamirida ochib berib, sahna asari uchun munosib kompozitsiya yaratish har qanday muallifning qo‘lidan kelmaydi. Shuning uchun ham teatrlar repertuar shakllantirishda faqatgina dramatik asarlar bilan cheklanib qolmadi. Balki adabiyotning boshqa turlariga murojaat qila boshladi. Dramaturgiyaga mansub bo‘lmagan asarni sahnaga moslashtirish, sodda aytganda, pyesa holiga keltirish teatr nazariyasida “inssenirovka” deb ataladi.*

Oxirgi besh yillikda (2020–2024-yillar) Sirdaryo teatrida sahnalashtirilgan asarlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, jami 25 ta spektakl yaratilgan. Shundan 16 tasi sof dramaturgik asar bo‘lib, 9 tasi inssenirovkalardir.

Jumladan:

1. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani asosida Nigora Gaibnazarova inssenirovkasi.

2. Chingiz Aytmatovning “Sarvqomat dilbarim” asari asosida Ramz Qodirov inssenirovkasi.

3. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani asosida Nigora Gaibnazarova tomonidan yaratilgan “Ahli jahondin yaxshilig” inssenirovkasi.

4. Aziz Nesin hikoyalari asosida Nigora Gaibnazarova “Odam qanday aqldan ozadi?” inssenirovkasi.

5. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni asosida G‘ofir Mardonovning “Qush tili” inssenirovkasi.

6. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostoni asosida Nigora Gaibnazarova inssenirovkasi.

7. Yavdat Ilyasovning “G‘azab so‘qmog‘i” qissasi asosida Qandiyor Rustamovning “Shiroq” inssenirovkasi.

8. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani asosida Nigora Gaibnazarovaning “Anvar va Ra‘no” inssenirovkasi.

9. “Chol va sholg‘om” rus xalq ertagi asosida Nurafshon Jaloliddinovning “Antiq sholg‘om” inssenirovkasi.

Dastlab, inssenirovka XIX–XX asrlarda Yevropada vujudga keldi va taraqqiy etdi. O‘zbekistonda inssenirovkaning ilk namunalari XX asr boshlarida yaratildi, 20–80-yillarda rivojlandi. Odatda, mashhur, kitobxonlar orasida katta muvaffaqiyat qozongan asarlar inssenirovka qilindi.

Mana shunday mashhur asarlardan biri Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani. Ushbu nasriy asar 1983-yilda Bahodir Yo‘ldoshev tomonidan Hamza teatrida (hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatri) sahnalashtirilib, mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi.

Bobur haqidagi sahna asarini tahlil qilar ekan san‘atshunoslik fanlari doktori, professor Muhabbat To‘laxo‘jayeva haqli ravishda “...Bahodir Yo‘ldoshev talqinidagi spektakl nafaqat shoh, shoir va ma‘rifatparvar Bobur hayoti va ijodini ochdi, balki uning fojiasi, majburiy kuchlar tazyiqi bilan ona yurtini tark etgan shaxs qismatini ko‘rsatib berdi. O‘lis o‘tgan kunlar orqali teatr tomoshabinni insoniyat taqdiridagi chigalliklar va tarixdagi buyuk xatolar haqida mulohaza yuritishga chorlaydi”, degan edi. Haqiqatda asarni mukammal sahnada namoyish etishning o‘ziga xos jihatlari bor. Aktyor imkoniyatlarini ko‘ra bilish, rejissyor topilmalarining sahnaga xos va mos kelishi asar voqealarini ochib berishga xizmat qiladi.

Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan “Ahli jahondin yaxshilig” spektakli haqida ham shunday fikrlarni bildirish mumkin. Rejissyor va inssenirovka muallifi Nigora Gaibnazarova “Yulduzli tunlar” asarini sahnaga olib chiqar ekan, Boburning bolalaligi hamda o‘rta yoshlardagi davri voqealarini yoritishga ko‘proq e‘tibor qaratadi. Parda ochilganda tomoshabin ko‘z o‘ngida paydo bo‘lgan manzara bir qaraganda qo‘lyozmani eslatadi. O‘rtada joylashgan aylana va g‘ildiraklar taqdir gardishiga ishora qilayotgek. Sahnada barcha personajlar namoyon bo‘la boshlaydi. Spektakl boshidanoq dardchil ohangning yetakchilik qilishi asar mavzusi haqida xabar bera-

di. Me'mor Mulla Fazliddinning qo'lida xarita (mening nazdimda Andijonga ishora berilgan). U xaritani yoygach, voqealarni Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi ruboiysi bilan boshlaydi:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum.
Har kim bu "Vaqoe"ni o'qur,
Bilgaykim, Ne ranju ne mehnatu Ne g'animlar ko'rdum.

Ya'ni, ulug' shoirning mashhur "Boburnoma" asari dastavval "Vaqoe" nomi bilan atalgan bo'lib, unda o'z hayotining tarixnomasi, avlodlarga o'g'itlari bitilgan. Bundan kelib chiqadiki, sahnaning qo'lyozmani eslatishi spektaklning "Boburnoma" ichida so-dir bo'layotganligini anglatadi. Shu bilan birga, rejissor Nigora Gaibnazarova va rassom, O'zbekiston san'at arbobi Shuxrat Abdumalikov tandemidan dalolat beradi.

Umarshayx Mirzoning shunqor bo'lganligi haqidagi xabardan so'ng voqealar shunchalik tez va intrigaga boy tarzda o'sib boradiki, tomoshabin bir soniya bo'lsa-da, diqqatini uzolmaydi. Movarounnahrdek ulkan saltanatning parchalanib ketishi, Temuriylar sulolasining inqirozi, hokimiyatga erishish ilinjida taxt talashib, bir-birlariga qi-lich ko'targan og'a-ini, tog'a-jiyanlarning fojiaiy qismati, g'addor beklarning oddiy xalq ustidan o'tkazayotgan zulmi spektakl drammatizmini kuchaytirib boradi.

Spektaklda Zahiriddin Muhamamad Bobur rolini aktyor – Begzod Mirsaitov, Shayboniyxon rolini – Ibrohim Qosimov, Qutlug' Nigorxonim obrazini O'zbekiston-da xizmat ko'rsatgan aktrisa – Mavluda Mamatillaxunova, Xonzodabegim rolini akt-risa – Dilorom Mirsalimova, Ahmad Tanbal rolini – Sherzod Kattaboboyev, Mulla Fazliddin rolini - Asliddin Nasriddinov, Oyishabegim rolini – Nasiba Bekto'rayevalar ijro qilishdi. Toj-u taxt tashvishlari Boburni tinimsiz fikrlashga va izlanishga majbur qilgan. Mana shunday og'ir sharoitda u zo'ravon beklardan biri Ahmad Tanbalning Xonzodabegim bilan turmush qurmoq istagiga qarshi chiqqan, chunki Tanbal ig'vo-gar, molparast va dunyo uchun xoinlikdan ham qaytmaydigan bek edi. Lekin Bo-bur Tanbalga rad javobini bersa ichki kurashlar avj olishi, ba'zi beklar unga qarshi bo'lishini bilsa ham Xonzodabegimning istagiga qarshi bormadi va opasini bekning tajovuzidan qutqarib qoldi.

Spektakl davomida Bobur siyratidagi soddalik va beg'uborlik, uning ijodga bo'lgan muhabbati Xonzodabegim hamda mulla Fazliddin bilan bo'lgan suhbatlarda yorqin aks etadi. Boisi, ikki obraz ham ishq mayidan totgan, san'atga va adabiyotga oshufta qalb-lar edi. Ammo, opa-uka o'rtasidagi jigarlik rishtalarining mustahkamligi, oila a'zolari-ni himoya qilish maqsadi Xonzodabegimning baxtidan voz kechishga va yovuz Shay-boniyxonga turmushga chiqishga majbur qildi. Aktrisa Dilorom Mirsalimova ana shu vaziyatda qahramonining jasorati va ichki kechinmalarini ta'sirli ijro qildi. Boburning shohlarga xos birgina maqsadi Amir Temur barpo etgan buyuk davlatni qayta tiklash va bu yo'lda Samarqandni qo'lga kiritish edi. Shu sabab ham onasi Qutlug' Nigorxo-nim so'zlariga qaramasdan maqsadi yo'lida bir nechta janglarga kirishadi. Nihoyat, Samqarqandni egalladi. Qutlug' Nigorxonim o'qimishli va oqila ayol, Boburga hoki-miyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak berguvchi qat'iyatli ona qiyofasida namoyon bo'ladi.

Rejissyor spektakl sahnalashtirish jarayonida izlangani, aktyorlar ijrosidagi qahramonlar holati orqali voqealarning ta'sir kuchi ko'rsatiladi.

Spektakldagi asosiy obrazlardan biri Oyishabegim. Voqealar muqaddimasida arqonga bog'langan holda temir sandig'ini sudragan holda shohona liboslarda, mag'rur ammo jufti halolini yo'qotgan Oyishabegimni ko'rishimiz mumkin. Bobur urushlardan charchagan, farzandi vafot etgan og'ir bir vaziyatda Oyishabegim uni tashlab ketgan. To'g'rirog'i, Bobur bilan ketish o'rniga Toshkentda, opasi Roziya Sulton yonida qolishni o'ylaydi. Qiyinchiliklardan cho'chiydi, taqdir sinovlarida sinalishi kerak bo'lganda oilasidan voz kechadi. Bobur mirzo va rafiqasi Oyishabegim munosabatlari quyidagicha yakun topadi.

Bobur. Darvish bo'lib tog'larga chiqib ketmoqchimen. Siz esa shoh qizisiz... Oling, gavharlaringizni! Balki yana boshqa biron... najotkoringizga sovg'a qilursiz!

Oyishabegim xaltachani olar ekan, achchiq bilan bidillab dedi:

Oyishabegim. Meni yana tashlab ketadigan bo'lsangiz, javobimni berib keting!

Bobur. Shundoqmi? Ajrashmoqchimisiz?

Oyishabegim. Ha. Ajrashamen!

Bobur. Bo'lmasa... bugundan boshlab menga xotin emassiz!

Oyishabegimning so'zlaridan ko'rinib turibdiki, u vafoli, sadoqatli umr yo'ldosh emas, balki oltin-u javohirlar suyguvchi, aslzodalarcha yashab o'tishni xohlaguvchi ayol. Demakki, rassom personaj talqinida xato qilmagan.

Rejissorning vazifasi, avvalo, pyesani to'g'ri o'rganish — to'g'ri talqin qilish va rollarni to'g'ri taqsimlashdir. Teatrda ijodiy muhitni tashkil etish uchun boshqa soha ijodkorlari bilan hamkorlikda ishlash kerak. Bu masalalarni rejissor namuna darajasida bajardi. Roman musiqali tarixiy drama janrida sahnaga ko'chdi. Personajlarning sahnaviy kechinmalari duetlar orqali ijro qilinmasa-da, xalq qiyofasidagi xor jamoasi tomonidan kuylangan qo'shiqlarda ya'ni Bobur qalamiga mansub bitiklarning kuyga solinishi bilan tomoshabin ko'ngliga kirib bordi. Xususan, Xonzodabegimning Shayboniyxon bilan birga ketar sahnasida yangragan "Qoldimu" qo'shig'i Zahiriddin Muhammad Boburning g'am-tashvishlarga ko'milgan, yaqinlaridan xiyonat ko'rgan, ham Samarqand, ham ona Andijonidan ayrilgan sarson shohning iztiroblarini to'la ochib bera olgan. Begzod Mirsaitov ovoz imkoniyatlari jihatidan ham Bobur obraziga to'g'ri tanlanganini isbotladi. Natijada, ijrodagi va ssenografiyadagi ramziy topilmalar — falsafiy mulohazalar bilan muvofiqlashib, o'ziga xos rejissorlik talqini yuzaga keldi.

Xulosa

Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida Pirmuqol Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani asosida sahnalashtirilgan "Ahli jahondin yaxshilig'" spektakli, rejissyor Nigora Gaibnazarovanning innovatsion talqini va ramziy sahna dizayni orqali Zahiriddin Muhammad Boburning murakkab tarixiy shaxsini, uning jasorati, iztiroblari va ma'naviy izlanishlarini aks ettiradi. Spektakl Boburning saltanat kurashi, oilaviy dramalari va madaniy merosni saqlashga qaratilgan kurashini ramziy elementlar (qo'lyozma, g'ildirak) va kuchli aktyorlik ijrolari (Begzod Mirsaitov, Dilorom Mirsaliyeva) orqali jonlantirib, tomoshabinni tarixning fojiviy burilishlari va insoniy qadriyatlar haqida mulohazaga

chorlaydi. Rejissyorlik yechimlari, musiqiy interlyatsiyalar va sahna kompozitsiyasidagi falsafiy chuqurlik asarni nafaqat madaniy merosni saqlovchi, balki zamonaviy teatr san'atining yangi imkoniyatlarini namoyish etuvchi namuna sifatida ko'rsatib, Sirdaryo teatri jamoasining ijodiy salohiyatini va milliy dramaturgiyani global kontekstda aks ettirish qobiliyatini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jildlik, II jild. — Toshkent, "O'zME davlat ilmiy nashriyoti", 2006. — 216-bet.
2. Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра (Тенденции развития и современные проблемы). — Toshkent: Гафура Гуляма, 1995. — С. 64.
3. Umarov M., Yo'ldoshev T. Rejissorlik va aktyorlik san'ati asoslari. — Toshkent: Konsalt, 2016. — 153 b.
4. Sultonova U. Shermanova M. "Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asaridagi qahramon obrazlar tavsifi" — Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Volume 2, issue 2 – 426 b.
5. Gaibnazarova N. "Ahli jahondin yaxshilig" musiqali tarixiy dramasi insse-irovkasi.
6. www.ziyo.uz.com kutubxonasi

XOREOGRAFIYANING PAYDO BO'LISHI VA MUSIQALI TEATRDAGI O'RNI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada xoreografiyaning tarixi va rivojlanishi, uning spektakldagi o'rini muximligi haqida so'z boradi. Spektakldagi raqs orqali jozibasi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi va vizual ta'sir ko'rsatadi. Xoreografiya nafaqat raqs harakatlaridan iborat, balki u musiqali teatrning vizual kompozitsiyasini ham tashkil qiladi. Bunda spektaklning umumiy qiyofasini yaratadi raqs orqali sahnani to'ldirib, uni rang-barang va jonli qilib ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** raqs, harakat, sahna, spektakl, musiqa, xoreografiya, teatr, tarix, ijro, san'at, tomoshabin, qahramon.*

***Abstract.** This article talks about the history and development of choreography, the importance of its place in the performance. Through the dance in the performance, it attracts the audience with its charm and makes a visual impact. Choreography consists not only of dance movements, but also forms the visual composition of musical theater. It creates the overall image of the performance by filling the stage with dance, making it colorful and lively.*

***Key words:** dance, movement, stage, performance, music, choreography, theater, history, performance, art, audience, character.*

Xoreografiya — musiqali teatrning ajralmas qismi. Uning san'at va madaniyatni boyitishdagi ahamiyati katta. Xoreografiyaning tarixi va rivojlanishi u qachon paydo bo'lgan degan savolga javob izlaymiz. Xoreografiya san'atning bir qismi bo'lib, uning kelib chiqishi qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Qadimiy sivilizatsiyalarda, xususan, Misr, Gretsiya va Hindistonda xoreografiyaning asoslari yaratilgan. Ushbu joylarda odamlar diniy marosimlar, bayramlar va saltanatlarda raqs san'atidan foydalanganlar. Xoreografiyani davrlar misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak uni uch qismga bo'lib o'rganish mumkin.

Qadimgi davrlarda xoreografiya

- Misr. Misrda raqslar diniy marosimlarda ahamiyat kasb etgan va ular xudolarga ibodat qilish maqsadida ijro etilgan. Misrda raqslar xudolarga ibodat qilish va diniy marosimlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

- Gretsiya. Gretsiyada raqslar teatr pyesalarida va sport musobaqalarida ko'p qo'llanilgan.

- Hindiston. Hindistonda raqs san'ati qadimdan mahalliy an'analarning bir qismi bo'lib, u turli madaniy bayramlarda muhim o'rin tutgan.

Renessans davrida xoreografiya

Renessans davrida xoreografiya Yevropa madaniyatida katta ahamiyat kasb etgan. Italyan va Fransuz saroylarida aristokratlar o'rtasida raqs mahorati yuqori baholangan va zamonaviy xoreografiyaning asoslari aynan shu davrda yaratilgan.

Zamonaviy xoreografiya

Hozirgi kunda xoreografiya san'ati turli yo'nalishlarda rivojlanib, musiqali teatrlar, balet va zamonaviy raqslarda keng qo'llanilmoqda. Xoreografiya faqatgina teatr san'ati emas, balki jismoniy harakat orqali inson his-tuyg'ularini ifoda etishning muhim vositasidir.

Xoreografiyada mashxur ijodkorlarning o'rni ham muhim hisoblanadi. Misol uchun, Jorj Balanchin zamonaviy baletning eng mashhur xoreograflaridan biri hisoblanadi. U Nyu-York shahridagi Balet maktabini asos solgan va Nyu-York shahridagi Balet truppasiga rahbarlik qilgan. Uning neoklassik uslubi va musiqa bilan harakatlarni uyg'unlashtirish mahorati uning asarlarini ajoyib qilib ko'rsatadi. Bob Foss esa jaz raqsining eng ta'sirli xoreograflaridan biri hisoblanadi. Uning o'ziga xos raqs uslubi dunyo bo'ylab raqs studiyalarida qo'llaniladi. U to'rtta Akademiya mukofotiga nomzod bo'lgan va "Kabare" filmi uchun rejissyorlik mukofotini olgan. Marius Petipa klassik baletning eng mashhur xoreograflaridan biri hisoblanadi. Uning "Aqqalar ko'li", "Shelkunchik" va "Uyqudagi go'zal" kabi asarlari dunyo bo'ylab mashhurdir. Uning ijodiy mahorati va texnik aniqligi balet san'atini yangi darajaga olib chiqdi.

Musiqali teatrda xoreografiyaning roli

Xoreografiyaning spektakldagi ahamiyati va uning vizual effekti muhim hisoblanadi. Xoreografiya orqali g'oyani yetkazish va obrazlarni yaratish zarur. Bunda raqs ijro etuvchi musiqani eshitadi va unga mos ravishda hatti-harakatga kirishadi. Raqsda qahramonlarning ichki dunyosi va his-tuyg'ularini jismoniy harakat orqali ifoda etish orqali tomoshabinga ta'sir etadi. Xoreografiya spektaklda muxim o'rin tutadi, chunki u tomoshabinni jozibasi bilan o'ziga tortadi va vizual ta'sir ko'rsatadi. Xoreografiya nafaqat raqs harakatlaridan iborat, balki u musiqali teatrning vizual kompozitsiyasini ham tashkil qiladi. Bunda **spektaklning umumiy qiyofasini yaratadi raqs orqali** sahnani to'ldirib, uni rang-barang va jonli qilib ko'rsatadi. **Raqqos yoki raqqosa harakat va dinamikani qo'shish** natijasida qahramonlarning harakatlarida dinamika yaratib, tomoshabinning diqqatini ushlab turadi. **Emotsional ta'sirni kuchaytirish orqali esa** xoreografiya yanada his-tuyg'ularni chuqurroq yetkazishga yordam beradi va spektaklning emotsional ta'sirini kuchaytiradi.

Xoreografiya spektaklda musiqa orqali mazmunni, voqeani yetkazishda muhim rol o'ynaydi, chunki u qahramonlarning harakatlari va raqslari orqali hikoyani tushuntirishga yordam beradi.

Harakat orqali hikoyani aytish. Har bir harakat va harakatlar to'plami hikoyaning ma'lum bir qismini yoki voqealarni tasvirlaydi.

Qahramonlarning xususiyatlarini ko'rsatish. Xoreografiya qahramonlarning xarakterlari va ularning rivojlanishini ifoda qilish uchun qo'llaniladi.

Qarshilik va hamkorlik yaratish: Raqs orqali qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar va ziddiyatlar ko'rsatilishi mumkin.

Xoreografiya qahramonlarning ichki dunyosi va his-tuyg'ularini ifoda etishning muhim vositasidir. Bu **his-tuyg'ularni jismoniy ifoda qilish**, qahramonlarning harakatlari ularning his-tuyg'ularini va holatlarini aniq ko'rsatish, **psixologik holatni ko'r-**

satish, xoreografiya orqali qahramonlarning ichki kayfiyatlari va psixologik holatlari tasvirlash.

Xoreograflarning spektakllar yaratish jarayonidagi ba'zi bir muammolarni ham ta'kidlab o'tish lozim. Ushbu jarayonda

1. Konsepsiya va mavzusi tanlanishi, rejalashtirilishi va spektaklning umumiy mavzusi tanlanishi zarur.

2. Har qanday spektaklga mos musiqani tanlash yoki maxsus musiqa yaratish kerak.

3. Raqqoslar tanlovi va ular bilan repetitsiya o'tkazish muhim.

4. Sahna dizayni, dekoratsiyalar va liboslarni tayyorlash.

Xoreograflarning spektakllar yaratish jarayoni murakkab va ijodiylik talab etadi, shu bilan birga turli qiyinchiliklarga duch kelinadi. Lekin, natijada kelib chiqqan spektakl har doim ham mehnat va ijodning mevasi bo'lib qoladi.

- Konsepsiya va g'oyalar. Xoreograflar avval spektaklning umumiy konsepsiyasini va g'oyalarini ishlab chiqadilar. Bu jarayonda ular turli manbalardan ilhom oladilar.

- Harakatlarni yaratish. Xoreograflar turli harakatlar va raqslar to'plamlarini yaratish uchun turli texnika va uslublardan foydalanadilar.

- Repetitsiyalar. Xoreograflar raqschilar bilan birgalikda harakatlarni takrorlab, ularni takomillashtiradilar va spektaklning umumiy ko'rinishini yaratishga harakat qiladilar.

- Musiqa va kostyumlar. Xoreograflar musiqa va kostyumlarni tanlab, ularni harakatlar bilan uyg'unlashtiradilar.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, spektakllarda raqsning o'rni muhimligi, musiqali asarlarda raqsdagi xatti-harakat orqali mazmuni tomoshabinga yetkazish talabiga ahamiyat berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – C. 20–23.

2. Raqs nafis san'at tarixiga bir nazar. R.Aytmirzayeva. 2022-yil mart. Oriental art and culture. Maqola.

3. Ibragimova u. Tarixiy shaxs obrazini yaratishda til va nutqning ahamiyati //Journal of Culture and Art. – 2024. – T. 2. – № 2. – S. 53–59.

4. Ibragimova U. Jonli so'zning sahnaviy ifodaviyligi //mejdunarodnyy jurnal iskusstvo slova. – 2019. – № 5.

5. Ibragimova U. O'zbek musiqali dramalarida sahna nutqi masalalarining talqin etilishi //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – № 1. – B. 428–435.

TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR PEDAGOGIKASINING O‘RNI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada teatr pedagogikasining o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Teatr elementlari orqali tarixiy voqealarni jonlantirish, o‘quvchilarni bevosita tarixiy muhitga jalb etish va interfaol ta‘lim metodlarini qo‘llash ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiradi.*

***Kalit so‘zlar:** teatr pedagogikasi, tarixiy tafakkur, interfaol metodlar, ta‘lim jarayoni.*

***Abstract.** This article analyzes the role of theater pedagogy in the formation of students’ historical thinking. Reviving historical events through theatrical elements, involving students directly in the historical environment, and using interactive teaching methods increase the effectiveness of the educational process.*

***Key words:** theater pedagogy, historical thinking, interactive methods, educational process.*

Teatr pedagogikasi tarixiy tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida o‘quvchilarning tarixiy voqealarni chuqur anglashiga yordam beradi. Teatr sahnalashtirish usuli orqali o‘quvchilar tarixiy shaxslar va hodisalarni jonli tarzda idrok etadi, bu esa tarixiy tafakkurning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, interfaol yondashuvlar yordamida o‘quvchilar mustaqil tahlil qilish, tarixiy ma‘lumotlarni chuqur o‘rganish va voqealar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqliklarni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada, teatr pedagogikasi orqali o‘quvchilarda tarixiy tafakkur shakllanadi va mustahkamlanadi.

Teatr pedagogikasi o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Tarixiy voqealarni jonlantirish jarayonida o‘quvchilar o‘z tasavvurini ishga solib, o‘sha davrga xos muhitni yaratishga harakat qiladilar. Bu esa nafaqat ularning tarixiy tafakkurini rivojlantiradi, balki ijtimoiy ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Jamoaviy ishlash, muloqot qilish, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, teatr pedagogikasi dars jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Masalan, tarixiy voqealarni sahnalashtirish orqali o‘quvchilar nafaqat o‘qib o‘rganadi, balki ularni amaliy tarzda tushunib yetishadi. Bu esa ularda tarixiy xotirani shakllantirishga yordam beradi va o‘qilgan ma‘lumotlarni uzoq muddat eslab qolishlariga asos yaratadi.

Shuningdek, teatr pedagogikasi yordamida tarixiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi tushuntiriladi. O‘quvchilar muayyan davr va voqealarni sahnalashtirish orqali ularning tarixiy oqibatlarini, sabablarini va natijalarini teran anglab yetadilar. Bu esa tarix fanini o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi.

Teatr pedagogikasi nafaqat tarixiy tafakkurni rivojlantirish, balki madaniy ongning shakllantirishga ham yordam beradi. O'quvchilar sahnalashtirilgan voqealar orqali o'z xalqining urf-odatlarini, qadriyatlarini va madaniy merosi bilan yaqindan tanishadi. Shuningdek, ular turli davrlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tushunib yetishadi, bu esa ularning tarixiy jarayonlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, teatr pedagogikasi orqali o'quvchilarning tanqidiy tafakkur qobiliyati ham rivojlantiriladi. Tarixiy voqealar sahnalashtirilganida, o'quvchilar ularga turli nuqtai nazardan yondashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular o'tmishdagi voqealarni faqatgina yodlab qolmay, balki ularning sabab va natijalari haqida fikr yuritish, muqobil ssenariylarni ishlab chiqish, tarixiy shaxslarning qarorlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Teatr pedagogikasi orqali o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi ham ortadi. Tarixiy rollarni ijro etish orqali ular sahna oldida o'z fikrlarini ravon ifodalashni, auditoriya oldida chiqish qilishni o'rganadilar. Bu esa ularga nafaqat dars jarayonida, balki hayotning boshqa sohalarida ham foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida teatr pedagogikasining ahamiyati ortib bormoqda. Chunki u faqatgina an'anaviy ma'ruza uslubidan farq qilmay, balki o'quvchilarning harakat orqali bilim olishiga imkon yaratadi. Psixologlarning fikriga ko'ra, inson harakat orqali ma'lumotlarni eslab qolish darajasi ancha yuqori bo'ladi. Teatr pedagogikasi aynan shu tamoyilga asoslangan holda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, teatr pedagogikasi orqali o'quvchilar tarixni nafaqat bilishadi, balki uni his qilishadi, tushunishadi va o'z hayotlariga tatbiq eta oladilar. Bu esa tarixiy tafakkurni shakllantirishning eng samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shunday ekan, teatr pedagogikasini ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish va ularni mustaqil fikrlovchi shaxslar sifatida shakllantirish imkoniyati mavjud. O'quvchilar uchun esa teatr pedagogikasi innovatsion yondashuv sifatida o'z samarasini berishi mumkin. Shu bois, ta'lim jarayonida teatr pedagogikasidan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
2. Heathcote, D. & Bolton, G. (1995). *Drama for Learning: Dorothy Heathcote's Mantle of the Expert Approach to Education*. Heinemann.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
4. Neelands, J. (2009). *Acting Together: Ensemble as a Democratic Process in Art and Life*. Trentham Books.
5. Boal, A. (2002). *Games for Actors and Non-Actors*. Routledge.

6. Aksyonova, L. (2012). Театральная педагогика в образовательном процессе. — Москва.
7. Shavkatov, N. (2020). O‘zbekiston ta’lim tizimida teatr pedagogikasining roli. — Toshkent: Fan nashriyoti.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2021). “Ta’lim jarayonida.

Tursunoy Fayzullayeva,
O‘zDSMI 2-bosqich mustaqil izlanuvchisi

JIZZAX VILOYATI MUSIQALI DRAMA TEATRIDAGI IJODIY IZLANISHLAR: “KO‘CHKI SPEKTAKLI YANGI TALQINDA”

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Jizzax viloyati musiqali drama teatrida turk rejissori Kubilay Erdelikara tomonidan sahnalashtirilgan Tunjer Jujeno‘g‘li qalamiga mansub “Ko‘chki” dramasiidagi o‘ziga xoslik, rejissorlik yondashuvi, sahna nutqi va sahnaviy yechim masalalari ko‘rib chiqildi va rejissorlik yechimiga doir ayrim mulohazalar va takliflar o‘rtaga tashlandi.*

***Kalit so‘zlar:** ssenografik yechim, sahna nutqi, talqin, pyesa, sahna etikasi, novatorlik, aktyorlik mahorati.*

Mustaqillik yillarida Jizzax viloyati musiqali drama teatri samarali faoliyat yuritdi. Teatr sahnasida 100 dan oshiq turli mavzu va turli janrdagi asarlar sahnalashtirildi. Ayniqsa, so‘ngi yillarda sahnalashtirilgan A. Oripovning “Jannatga yo‘l”, Ch. Aytmatovning “Chingizxonning oq buluti”, A. Chexovning “Ayiqlik”, N. Abbosxonning “Avliyo”, M. Osimning “To‘maris”, T. To‘laning “Nodirabegim”, Sh. Abidovning “Jizzax qo‘zg‘oloni” S. Hamroyevning “Bahodir”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Tunjer Jujeno‘g‘lining “Ko‘chki” kabi spektakllari teatr repertuarining darajasini belgilab berdi.

Shu o‘rinda teatrning xalqaro aloqalarni rivojlantirish va xorij tajribasini teatrga olib kirish yo‘lidagi ijodiy izlanishlari mahsuli bo‘lgan “Ko‘chki” spektakliga alohida to‘xtalish mumkin.

Mazkur asar O‘zbek teatr sahnalarida O‘zbekiston xalq artisti Valixon Umarov talqinida O‘zbekiston davlat akademik rus drama teatri va Samarqand viloyati musiqali drama teatrida o‘ta mahorat va o‘ziga xos talqin bilan sahnalashtirildi.

“Ko‘chki” dramasiidagi rejissorning novatorlik topilmalari safida aktyorlarning mahoratli ijrosi, betakror sahna nutqi va albatta ssenografik yechim spektaklning muvaffaqiyatini ta‘minlagan. “Ko‘chki” g‘oyasiga hayotining quvonchi, shodliklaridan mosuvo bo‘lib yashayotgan xalqning iztirobu qo‘rquvlari insonlarning butun umrini iskanjaga olgani singdirilgan. Muallif asar voqealarini tuzishga shu qadar mohirona yondashganki, insonlarning yashab qolishga bo‘lgan harakatlari, ularing ruhiy kechinmalari zamirida jamiyatdagi ijtimoiy, hatto siyosiy muammolar mo‘ralab turganini ko‘rish mumkin.

Asar zamon va makon tanlamaydigan xarakterga ega bo‘lganligi uchun uni har qachon va har qanday sahnada ijro etilsa arziydi. Biroq o‘zbek teatr sahnalarida mazkur asarning professional darajada sahnalashtirilgani, mahoratli aktyorlar jamoasi tomonidan ijro etilganini hisobga olsak, yangi postanovkaga o‘ziga xos talqin topish, yangi rejissorlik topilmalari, aktyorlik ijrosida betakrorlik nihoyatda muhim sanaladi.

Bu borada turk rejissori Kubilay Erdelikara o‘ziga tildosh va millatdosh bo‘lgan hamyurtning asarini turk sahnasi meyorlariga muvofiq o‘zbekona talqinda sahnalash-

tirishga harakat qildi. Kubilay o‘zining rejissorlik yondashuvida asosiy e‘tiborni asarning g‘oyasini ochishga qaratganini ko‘rish mumkin. Bu urinish dastlab, qahramonlarning liboslari va dekoratsiyada ko‘zga tashlanadi. Qahramonlar liboslari ustidan olingan arqondan to‘qilgan bezaklar, tog‘li hudud xalqi bir umr qafasda yurgandek, o‘z his-tuyg‘ularini jilovlab yashaganiga ishora sifatida aks etgan. Bu topilma ma’lum ma’noda o‘zini oqlagan.

Sahna asari dekoratsiyasiga shartli chizgilar bergan O‘zbekiston san’at arbobi Baxtiyor To‘rayevning sahnaviy yechimi alohida e‘tiborga molik. Kerakli o‘rinlarda tog‘, uy, to‘siq vazifasini o‘tagan konstruksiya, sahnada aktyorlar emin-erkin harakatlanishi uchun sharoit yaratgan bo‘lsa, ssenografik jihatdan o‘ziga xos yangilik bo‘lgan. Biroq “Ko‘chki” dramasiidagi nutq masalalariga oid ayrim mulohazalarimiz bor.

Asar sujetidan tomoshabinga yaxshi ma’lum bo‘lgan “Ko‘chki” dramasiida tog‘li hudud aholisi har daqiqada sodir bo‘lishi kutilayotgan tog‘ ko‘chkisi xavfidan qo‘rqib ovozi balandlatib gapira olmaydi. Quvonch-u g‘amlarini ichiga yutib yashaydi. Bu holat ifodasida aktyorlar qahramonlarning ana shu holatini o‘zida kechinishi va nutqini shunga xos sozlay bilishi talab etiladi.

Zero, asar qahramonlarning har qanday kayfiyat va har qanday vaziyatda ham shivirlab so‘zlashishlarini, aktyor tomonidan sahnada tomoshabinga yetkaza bilishi talab etiladi. Rejissor bu borada texnik imkoniyatlardan foydalanib yechim topishga harakat qilgan, biroq aktyorlarning quloqchin mikrafonlardan foydalanishi ovozi yo‘naltirishlariga xalaqit bergan va bu spektakl g‘oyasiga zid holatni yuzaga keltirgan. Mazkur spektaklning jamoatchilik ko‘rigiga topshirilishida bu holat mutaxassislar e‘tiroziga sabab bo‘ldi. Buvi rolini ijro etgan teatr aktyori qanchalik katta tajribaga ega san’atkor bo‘lsa-da quloqchin nutqni boshqarishga to‘sqinlik qilgan.

Asarda voqealarni rivojlantirishga yetarlicha motivlar mavjud. Tog‘li hudud aholisi yilning uch oyida o‘yin-kulgi, to‘yu-maraka qilishi va farzand ko‘rishga haqli, qolgan yilining to‘qqiz oyida barcha hissiyotlarini jilovlab yashaydi. Biroq taqdir taqozosi bilan ana shu ko‘chki xavfi kuchaygan bir paytda qishloqdagi bir oilada chaqaloq dunyoga kelishi kutiladi. Asar qahramonlari avlodlar davomchisini saqlab qolish yoki ona tuprog‘ini ko‘chki xavfidan omon saqlash tanloviga duch keladilar. Voqealar bir chiziqda darajama-daraja o‘sib borar ekan, ziddiyatlar ham keskinlashib boradi.

Ana shunday murakkab sujetda teatrning yetakchi aktyorlari o‘z qahramonlarini mahorat ila gavdalantira olganlar. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abduraim Lapasovning keksa erkak va Vazira Mirzayeva tomonidan ijro etilgan keksa ayol obrazlari talqini asar g‘oyasidagi fojeaviy kayfiyatni yanada kuchaytirib yuborgan. Nargiza Mirzayeva ijrosidagi ayol, ya’ni ona obrazida chin ma’noda qalbi o‘rtanayotgan, farzandlarining orzu-umidlari va qishlog‘ining tinchligi o‘rtasida talosh bo‘layotgan tuyg‘ular ifodasini ko‘rish mumkin.

Xulosa

Turk rejissori Kubilay Erdelikara tomonidan sahnalashtirilgan spektakldagi ba’zi bir o‘ylab ko‘riladigan voqealar ham soha mutaxassislarining o‘tkir nigohidan chetda qolmadi. Jamoatchilik muhokamalaridan so‘ng “Ko‘chki” spektakli Jizzax viloyati mu-

siqali drama teatrining repertuaridan munosib o‘rin oldi. Zeroki, badiiy barkamol sahna asarigina teatrning ijodiy salohiyatini belgilashi va repertuarda uzoq yashashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston teatrlari (kitob albom). – Toshkent.: Oltin meros press nashriyoti, 2019.

2. Yangi davr san‘ati: An’anaviylik va transformatsion jrayonlar (Ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari to‘plami). – Toshkent, 2013.

3. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sana‘at nashriyoti, 2000.

4. Abduvohidov F. Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri: kecha va bugun. – Toshkent: Voris, 2017.

USMON AZIM DRAMATURGIYASI VA UNING SAHNA TALQINLARINI TAHLIL QILISHNING ILMIY AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri, taniqli dramaturg Usmon Azimning dramatik asarlarini sahna talqinlari bilan qiyosan o‘rganish masalasining ahamiyati yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** drama, sahna, san’atshunoslik, inssenirovka, xarakter.*

***Abstract.** This article discusses the importance of studying the dramatic works of the people’s poet of Uzbekistan, the famous playwright Usman Azim, in comparison with their stage interpretations.*

***Key words:** drama, scene, art history, staging, character.*

Dramaturgiya yozuvchilik mahorati bilan birga, sahnaviy mulohazani ham talab qiladi. Shu jihatdan qaralganda, Usmon Azim asarlarining sahnaviy interpretatsiyasi ijodiy va nazariy tahlil nuqtai nazaridan muhimdir. Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasining vujudga kelishi millat madaniyati va ijtimoiy hayotining muhim ko‘zgusi bo‘lib xizmat qildi, jamiyatning taraqqiyoti, g‘oyaviy qarashlari va milliy o‘zligini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Dramaturgiyani ilmiy tahlil qilish nafaqat uning teatr san’atidagi o‘rnini belgilash, balki uning ijtimoiy va ma’naviy ta’sir doirasini kengroq anglash imkonini ham beradi.

Bu jarayonda o‘zbek dramaturgiyasining zamonaviy namoyandalari, jumladan, Usmon Azimning dramaturgik asarlari alohida o‘rganishni talab qiladi.

O‘zbekiston xalq shoiri, taniqli dramaturg Usmon Azim asarlarida aks etgan muammolar, dramalaridagi xarakter, ruhiy kechinmalari, ularning orzu va maqsadlari kechagi kun, bugun, va ertaga ham g‘oya va mavzu jihatidan o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgani bilan ayniqsa e’tiborlidir. Uning dramalarida xalq og‘zaki ijodi namunlarining o‘ziga xos talqinini ifoda eta bilishi, voqealarning hayotiyligi, inson taqdirida bo‘layotgan jarayonlar aks etganligi va bugungi kun bilan hamohang masalalarning badiiy shakllarda ifodalanganligini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shuningdek, adibning asarlarida ijtimoiy muammolarning sahnaviy yechimi tomoshabinlarni ma’nan hamda ruhan poklaydi. Shu jihatdan Usmon Azim dramaturgiyasi va uning sahna talqinlarini ilmiy tadqiq etish dolzarb ilmiy masaladir. Usmon Azim o‘zbek adabiyotida nafaqat shoir, balki dramaturg sifatida ham muvaffaqiyatli ijod qilgan shaxsdir. Uning dramaturgiyasi zamonaviy o‘zbek teatri uchun muhim tajriba manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning asarlari bir necha muhim jihatlari bilan ajralib turadi:

Falsafiy va ijtimoiy muammolar – Usmon Azim dramalari inson taqdiri, axloqiy masalalar, milliy ong va tarixiy xotira mavzulariga asoslanadi.

Shakl va badiiy uslub yangiligi – u an’anaviy dramaturgiyadan farqli ravishda badiiy tasvirni kuchaytirish, poetik ifoda vositalaridan foydalanish va obrazlar psixologiyasini chuqur yoritishga e’tibor qaratadi.

Til va uslubdagi noyoblik – uning asarlari she’r kabi ohangdorligi va falsafiy tahlili bilan ajralib turadi, bu esa ularni nafaqat adabiy, balki teatr san’atida muhim ma’naviy voqelik sifatida ham ahamiyatini ko’rsatadi.

Sahna talqinlari – Usmon Azim asarlari o‘zbek teatr sahnalarida muxlislar tomonidan iliq kutib olingan va olinmoqda, bu esa uning dramaturgiyasi hayotiyligini isbot etadi.

Adib asarlari bo‘yicha bir qadar ilmiy ishlar qilingan, tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jumladan, M.I. Davronovning “Hozirgi o‘zbek she’riyatida individual uslub poetikasi (Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Faxriyor va Abduvali Qutbiddin she’riyati misolida)” mavzusidagi filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiyasi, J.R.Suvonovning “Hozirgi o‘zbek she’riyatida badiiy izlanishlar (Usmon Azim ijodi misolida)” nomli filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozgan dissertatsiyasi, S.M. Umirovning “O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Usmon Azim she’riyati misolida)” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasi uchun, O. Ro‘ziboyevning “Usmon Azim dramaturgiyasida xalq og‘zaki ijodining badiiy talqinlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi kabilarni sanashimiz mumkin.

Biroq ta’kidlash joizki, O. Ro‘ziboyevning magistrlik ishidan boshqa dissertatsiyalar san’atshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishi emas. Ya’ni, katta dramaturgning dramatik asarlari va ularning sahna talqinlari, teatr san’ati ixtisosligi bo‘yicha, afsuski, keng ko‘lamda qamrab olinmagan.

Usmon Azim dramaturgiyasini sahna talqinlari bilan chog‘ishtirish orqali yanada chuqurroq o‘rganish va uning asarlaridagi inson ma’naviyati masalasini, ijtimoiy estetik ta’sir tamoyillarini aniqlash muhim ilmiy vaziflardan hisoblanadi. Adib dramaturgiyasining o‘ziga xos jihatlarini, uning o‘zbek dramaturgiyasi rivojidadagi xizmatlari, mahoratini va uslubiy jihatlarini, ularda ifodalangan g‘oyalarni aniqlash va tizimli tahlil etish esa san’atshunosdan xuddi filolog kabi adabiy jihatdan chuqur yondashuvni talab etadi.

Usmon Azimning ijodiy faoliyati va uning dramaturgiyadagi ilk qadamlarini sahnaviy talqinlari bilan qiyosiy o‘rganish, muallifning xalq og‘zaki ijodi yo‘lida yozilgan dramatik asarlarining sahna talqinlaridagi o‘ziga xos jihatlar, o‘xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish, pyesalaridagi betakror xarakter yaratish qobiliyati, so‘z qudratidan to‘g‘ri foydalanish kabi o‘ziga xos uslubini ochib berish, dramaturgning davr sinovlaridan o‘tgan asarlaridagi mavzu va g‘oyaning hamon dolzarb ekanligini asoslash kabi vazifalar ham munosib ilmiy tahlillar bilangina yuzaga chiqadi.

Dramaturgning zamonaviy mavzudagi “Bir qadam yo‘l”, “Bozor”, “Jazava”, ijtimoiy-tarixiy mavzudagi “Kunduzsiz kechalar”, “Adibning umri”, “Abdulla Qahhor”, komediya janridagi “O‘tgan zamon hangomalari”, “Baxt qushi”, “Sinfdoosh yoxud kuyovlikka nomzod”, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida “Alpomishning qaytishi”, “Tohir va Zuhra”, “Tong otgan taraflarda”, shuningdek, “Bor ekanu yo‘q ekan” ertak-pyesasi, “Adolat fasli”, “Bobur”, terrorizmga qarshi kurash mavzusidagi “Qurshov” kabi pyesalari Usmon Azim ijodida dramaturgiyaning ahamiyati naqadar salmoqli ekanini aks ettiradi.

Yuqorida ta'kidlangan vazifalarni bajarish O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning tarixiy dramatik asarlari milliy qadriyatlarimizni tiklash, uzoq va yaqin o'tmishning muhim voqealarini, ulardan kelib chiqadigan xulosalarni bugungi kun kishilari, xususan, yoshlarning ma'naviy ongiga ijobiy ta'sirini tadqiq etish, Usmon Azimning jadidlik harakatlari aks etgan dramalarini sahna talqinlari bilan qiyosiy o'rganish orqali bugungi kun teatr san'atidagi muhim ahamiyatini isbotlash, xalq og'zaki ijodi namunalariga tayangan pyesalarning yoshlarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdagi o'rnini o'rganish va boshqa muhim masalalarni hal etish kabi natijalarga erishish mumkin.

Xulosa

O'zbek dramaturgiyasini ilmiy tahlil qilish uning kelajagini shakllantirishda, yangi dramaturglar yetishib chiqishida va teatr san'ati rivojida katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, Usmon Azim ijodi bu jarayonda muhim obyekt bo'lib, uning dramatik asarlarini tadqiq etish san'atshunoslik yo'nalishining katta yutug'i bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bois uning ijodiy merosini chuqur o'rganish, tahlil qilish va yangi dramaturgiya yo'nalishlariga ta'sirini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Rizayev. Jadid dramasi. "Sharq" nashriyoti. – Toshkent, 1997. – 51-bet
2. T. Tursunov. XX asr o'zbek teatri tarixi. – Toshkent, 2009. – B. 21–22.

TEATR SAN‘ATIDA GRIMNING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Maqolada grim san‘atining tarixini nazariy tomonlama tahlil etilib, grim bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganildi. Grim san‘atiga doir amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqish hamda sahnada badiiy obraz yaratishning zamonaviy tendensiyalarini ilmiy-amaliy jihatlarini yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** grim, san‘at, aktyor, gumoz, pyesa, pardo.*

***Abstract.** Theoretical analysis of the history of the art of makakuya and the educational features of working with makakuya. Scientific and practical aspects of developing practical recommendations on the art of grayma and modern tendencies in creating artistic images in the stage will be highlighted.*

***Key words:** makeup, art, actor, stage, role, make-up.*

“Grim” so‘zi fransuzcha “grime”, italyancha “grumo” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy inson yuzida ajin qilish ma‘nosiga to‘g‘ri keladi. Teatr san‘atida aktyorni yaratayotgan obrazga moslab o‘zgartirishdir. Badiiy asar, pyesa, ssenariyning badiiy xususiyatlari, qahramonlarning fe‘l-atvori, ko‘rinishi, harakteri, aktyor va rejissorning ijodiy maqsadiga qarab grim xilma xil bo‘ladi.

Grim — dramaturg, ssenarist, rejissyor, aktyor va rassomning badiiy g‘oyasini ifoda vositalaridan biridir. Aktyor ijrosidagi obraz ma‘suliyatli va murakkab bo‘lsa, grim sodda bo‘lib bir necha detal va shtrixlardan iborat bo‘lishi kerak va obraz harakteridan kelib chiqishi kerak. Bunday kerakli qirralarni jiddiy qidirish natijasida topish kerak. Bu jarayon pyesa o‘qilishidan boshlab, rol ustida ishlash vaqtida topish kerak bo‘ladi. Grim san‘atini qaysidir ma‘noda portretchi rassom asari bilan qiyoslash mumkin. Faqat portretchi-rassom inson yuzini yassi tekislikda mato yoki qog‘ozda aks ettirsa, grimchi jonli qiyofa, ma‘lum hajmga ega bo‘lgan rolga ega bo‘lgan inson yuzi bilan ishlaydi. Grim jarayoni qahramonni tashqi qiyofasi orqali uning ma‘naviy qiyofasi qidiriladi. Bu qahramonning ichki mohiyatini ochilishiga yordam beradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘zga birinchi tashlanganda ahamiyatsiz ko‘ringan aktyorning yuzi, grim bilan tamoshabinga qahramon harakteri haqida tasavvur beradi. Badiiy obraz yaratishda grimning ahamiyatini K.S.Stanislavskiy bir necha bor takidlagan.”Ohirgi general repetitsiyaga yetib keldik, ammo men hali ham ikki stul oralig‘ida o‘tirardim, — yozadi K.S. Stanislavskiy o‘zining “San‘atdagi hayotim” kitobida. Sotanvil roli ustida ish olib borilardi. Ammo baxtinga bexosdan “Apallondan sovg‘a” oldim. Grim orqali berilgan (topilgan) yuzni kulgili ifodasi, meni o‘zgartirib yubordi. Nimadir tushunarsiz bo‘lsa tushunarli bo‘ldi, zaminsiz bo‘lgan unga erishdi, nimagadir ishonmasdim — endi ishondim. Nimadir ichdan uzilib ketdi, to‘lib toshtirdi, oxir oqibat pishib yetildi. Bir bexosdan g‘unchaga tegib ketilishi oqibatida, u yashnay boshladi, yosh gul barglari quyoshda o‘z qanotlarini yoza boshladilar. Shunday qilib menda bexosdan, bo‘yoq

orqali qilingan grimning muvaffaqiyati g‘unchani barg yozilishiga olib keldi. Rol o‘zining gulbargi (qanotini) ni rampa nurida yoza boshladi”¹⁰⁵.

Grimda topilgan nozik hislat K.S. Stanislavskiyga katta ijodiy quvonch bag‘ishladi. Yana bir behosdan topilgan ixtiro ya’ni, grim ixtirosi haqida Обновленский roli (Fedotevning “So‘m” pyesasi) ustida ish jarayonida shunday yozadi:

“Aynan Satvanvildagidek grimda bexosdan ixtiro qilindi. Sartarosh menga soqol yopishtirayotib, shoshilganidan o‘ng taraf soqolimni chap soqolimga nisbatan teparoqqa yopishtirib qo‘ydi. Ana shunday ifoda orqali yuzimda dog‘uli, fribgar, surbetlikni ifodaladi. Yuz ifodamdan hamma tushundiki mening personajimni birov so‘ziga ishonish mumkin emas, chunki men fribgar edim”. Demak, grim badiiy obraz yaratishda uning ichki dunyosini ifodalovchi qiyofasini yaratishda ahamiyatga ega. Ma’lumki, teatr ta’limoti metodologiyasini yaratgan K.S. Stanislavskiy teatr rassomlarining, shu jumladan, grimchilarning eskizlarni yaratishga, kollektiv bilan muloqatda bo‘lishiga, repetitsiyada qatnashib, aktyorlarni kuzatishlariga katta e’tibor qaratgan. Zero, aktyor o‘z personajini talqin qilar ekan uning eng birinchi yordamchisi va hamkori grimchidir. Grimchi rassom bilan birga hamkorlikda ishlaydi. Shuning bilan birga, u qo‘yilayotgan asarni talqin qilishi va his qila bilishi kerak. Grimchi aktyorni har bir xatti-harakatlarini asar va davr muhitida his qila olishini repetitsiyalarda kuzatib borishi kerak.

Rossiya teatrlarida sahnaviy grim. Rossiyaning qadimiy teatri xalq sayillarida tomosha ko‘rsatadigan daydi skomoroxlarning o‘yinlari orqali vujudga kelgan Serkv tomonidan ularning taqiqlanishiga qaramasdan ular rivojlanadilar va ularning satirik chiqishlari o‘tkirlashib boradi. XVI–XVII asr oralig‘ida ularni faoliyati yanada o‘sadi. Podshoh Aleksey Mixaylovich buyrug‘iga binoan Aleksandrov qo‘rg‘oni (слободка) da monastir hayotidan reteual ijro etishadi. Bayram chog‘ida shoh va saroy ahli maska-niqob kiyishibraqsga tushishgan (skomoroxlar bilan birgalikda). 1571-yil daydi aktyorlar saroy shtatiga o‘tkaziladi. Mixayl Ramonov podshohligi davrida 1613 ularga alohida teatr uchun bino ajratiladi. Shundan keyin skomoroxlar aktyorlar nomlanadilar.

XVI–XVII asrlarda rus xalq teatrlarida echki haqida va ayiq haqida sujetli komediyalar o‘ynaydi va u yerda qo‘shiq jo‘rligida raqsga tushishardi. Boshqa diniy simvolik miflar o‘lish va trirlish haqida o‘yinlar ko‘rsatilgan.

XVII asr boshlarida Pyotr I ning ko‘rsatmasiga binoan tarixiy yangi davrga o‘tish bo‘ladi. Diniy ideologiyaga qarshi faol kurash olib boriladi. Bayramlar maskarad jarayonida bo‘lib, unda minga yaqin ishtirokchilar qatnashadi. Har bir guruhda oldinda erkaklar, keyin ayollar yurishardi. Kostyumlar an’anaviy tus olib, u maskaraddan bu maskaradga o‘tgan. Kastyumlar teatr harakter ida butafor tarzida bo‘ladi. Figuralar miflardagi Baxus, Neptun, Satir va boshqa qiyofada bo‘lgan.

Rus professional teatri buyuk aktyor va teatr arbobi Fyodor Grigoriyevich Volkov orqali tashkil topadi. Shu vaqtda rus teatrida grim san’ati tug‘iladi va sahnaviy obraz yaratishda asosiy vositaga aylanadi.

Milliy grim maktabini shakllanishida XIX asrda alohida rus aktyorlarining xizmatlari e’tiborga molik. Maliy teatr artistlari A.P.Lenskiy, P.A.Lebedinskiylar o‘tgan grimlarni o‘rganib asoslab berishadi. Quyi grimni o‘sha davrda K. Shilovskiy – Loshivskiy

105 Jalilova F.S. Grim. – Toshkent: Navro‘z, 2015. – 200 b.

qiladi. A.P.Lenskiy aktyorni grim qilish bu amaliyotda har bir aktyor o‘z uslubiga ega bo‘lib, yuz xususiyatidan kelib chiqib yondoshishdir – deydi. U har xil shablon grimlarni oldini olish kerakligi va bu grim foydasiz va zararli ekanini uqdiradi. U o‘zining grim mashg‘ulotlari va sahnada amalda foydalanish to‘g‘risidagi qo‘llanmasidan kelib chiqib shunday hikoya qiladi. U artist V.V. Samoylovni “Revizor” dagi Rastakovskiy grimni ko‘rib: “Vasiliy Vasilyovich yuzingizga kulrang-jigarrang nusxa bersangiz bo‘lmaydimi? (Samoylov harakter grimini oddiy pukakda qilgan edi). U teriga ulimsiq nusxani beradi, um beo‘xshovga mos tushardi! Samoylov qo‘li bilan grim qilishda davom etib, ming‘irlab qo‘ydi. “Upa, po‘kak va hech narsa”. Biroz tin olgach va qo‘lini sochiqqa artayotib, qo‘shib qo‘yadi. Yoshlik va qarilik, azizim terida emas, ko‘zdadir, deydi¹⁰⁶.

Grim san‘atining shakllanishi va rivojlanishi Moskva akademik badiiy teatrni asoschisi K.S. Stanislavskiy va V.I. Nemirovich – Danchenko bog‘lanadi. Bu teatr realizm tamoyillarini, sahnaviy ijodda yangi uslubiyatni yaratadi. Bu buyuk g‘oyaviylik va hayotiy haqiqatga asoslanadi. Aniq aktyorlarning jismoniy-ruhiy xatti-harakati orqali va grim orqali aniq obrazlar yaratiladi. K.S. Stanislavskiy Molyerning “Jorj Danden” pyesasidagi Stonvil roli ustida ishlayotganda, grim chog‘ida (bo‘yayotgan) bexosdan grim orqali uzoq talqin qilolmagan obrazni yaratdi.

Aktyorning ijodiy vazifalarini yechimida ko‘p uslublarni bosib o‘tgan vaqtida yondosh bo‘lgan grim ustalarini olib borgan ishlari spektakl komponentlaridan biri grim ekanligini tushinib yetdilar va bog‘likligini his etdilar. Grim mahoratidan foydalanishda quyidagi san‘atkorlarning ijod yo‘li yaqqol misol bo‘ladi. V.I. Kachalov, F. I. SHalyapin, M. I. Moskvina, M. M. Tarxanov, B. V. Shukin, N. K. Chernasov, N. K. Simonov va boshqalar shular jumlasidandir.

Teatr san‘ati va umumgrim san‘ati rivojiga buyuk hissalarini qo‘shgan sahna ustalari: B. V. Platonov, D. A. Orlov, P. S. Molchanov va boshqalar o‘z ijodiy biografiyalari-da klassik va zamonaviy obrazlar yaratdilar va yosh aktyorlar uchun mahorat va grim maktabini yaratdilar. Demak, grim san‘atisiz aktyor ijodini, teatr, kino san‘atini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda grim san‘atining ustalari. Teatrning tashkil topishi, rivojlanishida shunday san‘atning bir biridan ajralmas vositalari borki, ularsiz yaxlit badiiylik yaratib bo‘lmaydi. Ana shunday vositalardan biri – grim san‘atidir. Grim – teatr san‘atining paydo bo‘lishidan boshlab teatr bilan mushtaraklikda, uyg‘unlikda ish ko‘radi. Har bir teatr san‘atida grimchilikning rivojlanishi va taraqqiy topishida ma‘lum shaxslarning xizmatlari beqiyosdir. Hususan, o‘zbek teatrining tashkilotchilaridan M. Uyg‘ur, M. Muhammedov, A. Ardobuslar grim san‘atining yaxshi mutaxassisi bo‘lishgan. Ularning qoldirgan tajribalari keyingi bosqichdagi san‘at ahli uchun katta bir maktabdir. M. Uyg‘urning ko‘plab shogirdlari qatori O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, O‘zbekiston teatrlari, kino, kino televideniya da grimni shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shgan mutaxassis, pedogog, san‘atkor Sur‘at Jalilov haqida gapirmaslik mumkin emas.

106 Jalilova F.S. Grim. – Toshkent: Navro‘z, 2015. – 219 b.

S. Jalilov 1932-yilning 29-fevralida Toshkent shahrining Degrez mahallasida san'atkor oilasida dunyoga keladi. Uning otasi mashhur aktyor, o'zbek teatrining birinchi qaldirg'ochlaridan edi. Uning teatr sahnasida, kinoda yaratgan obrazlari, o'zbek teatri tarixida so'nmas va yarqiragan san'atning chiroyli sahifalaridir. Bir donishmand: kunlaringiz amallaringiz sahifasidir. Ularni yaxshi, chiroyli amallar bilan bezang degan naql san'atkor uchun aytilgandek. O. Jalilovning har bir kuni, yaxshi amallar bilan bezatilgan. Farzandlari ham anashu bezatilgan amallarning mahsulidir.

S. Jalilovning yoshligi teatr, xususan Milliy akademik davlat teatrida otasining yonida o'tadi. Komil inson go'zallik va mukammallikka intiladi. Kechagi kundan bugungi kun, bugungi kundan ertangi kun samarali bo'lishini, u yaratish, yangilanish yo'lida o'zini hayotga tarbiyalaydi. Shunday insonlar borki, ularning hayot tarzi iborat qilgan ishlari barcha ishlari barcha sohalarda mukammallikka daxldor bo'lsa, u o'zi uchun emas, xalqi, yurti, jamiyati uchun o'chmas foydali, ibratli xazinadir. Shu bois birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov "San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos olam, shu sababli ijod ahliga aql o'rgatish, eng asosiysi ularni boshqarishga urinish mumkin emas" – deganlarida har bir san'at ahli o'ziga xos olam, takrorlanmas ma'naviy boylik, xalqning iftixori ekanligini ta'kidlaganlar. Uning hayot mazmuni ibrat, mohiyati yangilik yaratish u o'zi yaratgan go'zallikdan bahra olish va shaxs sifatiyashash va ixtiro qilishdir. Ana shunday inson bo'lib shakllangan san'atkor Sur'at Jalilov, o'zbek teatrining mohir grimchi-rassom siftida shakllanadi. Chunki uning umr mazmuni teatr, kino, televideniya grimchiligi taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq.

Teatr o'zining mahsuli badiiy asarlari jamoa mushtarakligida yaratadi. Boshqa jamoalar ijodiy jarayonda bir va bir necha kishilar faoliyati orqali yaratilsa, teatr, kino, televideniya bu jarayon jamoaning uyg'unligida yaratiladi. Ya'ni, bu jarayonda dramaturg, rejissyor, aktyor, musiqachi, rassom, yorituvchi, pardozi-grimchi, nurlantiruvchi, liboschi, sahna anjomlarini tayyorlovchilar – dekoratorlar kabi mutaxassislar bir maqsad yo'lida, bir g'oyani inkishof etish uchun mushtaraklikda ijodiy ish olib boradilar. Obrazni harakter ini ochilishida grimchining xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uni, ya'ni obrazni, harakter yaratishda tashqi qiyofasi alohida o'rin tutadi. Harakter yaratilmasa obraz yaxlitlikka erisholmaydi. Shu bois teatr maktabining ta'limoti asoschisi K.Stanislavskiy ta'limotiga e'tibor qaratilsa: "Xarakter lilik aktyorning rol qiyofasiga kirishidagi muhim omil... Agar aktyor o'z tanasini, ovozi, gapirish uslubini, yurishini, harakatlarini o'zgartirmasa, agar ijro qilayotgan rolga mos harakterlik topmasa, unda sahnada bu personajning kechinmalarini ifodalab bo'lmaydi", deydi. Demak, dramaturg bilan manba'lar asosida aktyorni qiyofasini harakter ga moslash pardozi-grimchi yaratgan harakter aktyorning xatti-harakatidagi to'g'ri talqini bilan alohida qo'llab quvvatlovchi omillardan asosiysidir.

S.Jalilov avvalo aktyor bo'lishni orzu qiladi. Ammo unda aktyorlar qiyofasini pardozi qilishdek san'atga bo'lgan muhabbat ustunlik qiladi. O'z qo'li bilan bir necha eskizlar yaratadi va u eskizlardan foydalanib, aktyorlar qiyofasini o'zgartirish san'atiga berila boshlaydi. 1946-yil o'spirin chog'ida Milliy akademik (Hamza nomidagi O'zbek davlat akadem teatri) teatridagi grim ustasi V.P. Luchixinaga shogird tushadi, ustozidan kasb sirlarini o'rganadi. O'sha davrdagi o'zbek teatri grim ustasi V. P. Luchixin unga

grimning nozik taraflaridan saboq beradi. Ustoz-shogird an'anasiga monand mashg'ulotlarda o'z kasbiga mehr qo'yadi va Yevropa grim san'ati maktabi asoslarini o'zlashtirib oladi.

Bolaligidan san'atga mehr qo'ygan S. Jalilov yoshligidanoq katta teatr sahnasida kichik epizodik rollarda buyuk san'atkorlar bilan birgalikda chiqaboshlaydi. 40-yillarda sahnalashtirilgan badiiy sahna asarlarida grim ustaxonasida teatr grimyori V.I. Luchixinga yordamlashadi. Sekin-asta rassom-grimchi kasbiga mehri orta boshlaydi. Tarixiy klassik asarlardagi grim muolijalarida o'zini bilimini oshirib boradi. Teatrga oid manba'larni tinmay o'rganadi.

14 yoshidan bu sohani mufassal sir-sinoatlarini o'rganishga kirishadi. Avvalo ustoziga unga aktyor-personajni pardozi qilishdan avval, asarni qunt bilan o'rganishni, personajlarni biografiyasini, ular yashagan davrni qunt va sabot ila o'zlashtiradi. Grim bo'yoqlarini qanday ishlatilishi va personaj tashqi qiyofasi bilan obraz yaratish va badiiy yaxlitlik yaratish uslublarini ustozidan, rejissyor talqinidan va buyuk aktyorlar faoliyatidan o'rganadi. Sekin-asta u mustaqil ish qilaboshlaydi. Eskizlar chizib, u orqali personaj qiyofasini yarataboshlaydi. Personajni berilgan sharoitda ichki olamini tashqi ko'rinishida mushtarak holatini yaratish sirlarini o'zi mutaxassis sifatida kashf eta boshlaydi. Akademik teatr sahnasidan o'rin olgan sahna asarlarini umrboqiyiligida grimchi-rassom sifatida o'z hissasini qo'shadi. 60-yillarga kelib, u o'z sohasi mutaxassis sifatida shakllanadi. Respublika viloyat teatrlaridagi grim sohasiga moyil iqtidoli ijodkorlarga grim sirlarini shrgatadi va sekin asta u soha murabbiysi darajasiga ko'tariladi. Akademik teatrdagi faoliyatida dramaturg, ijodkorlar bilan yaqindan tanishadi va ularning asarlarida ustoz bilan birgalikda va yakka o'zi personajlarni o'ziga xos grim qiyofasini yaratadi. I. Sulton, Uyg'unning "Alisher Navoiy", Shekspirning "Otello", "Qutlug' qon", "Yurak sirlari" va boshqa qator sahna asarlari shular jumlasidandir.

M. Uyg'ur, B. Yo'ldoshev, R. Hamrayev kabi yetuk rejissyorlar bilan hamkorlikda ishladi. Hamza va Muqimiy teatrlarida bir necha qahramonlar qiyofalarini grimini yaratadi. B. Yo'ldoshev, G. Brim bilan hamkorligida Turob To'laning "Nodira" spektakli grimini birgalikda yaratadi. Shu tariqa yurtimizda grim san'ati vujudga kelib, rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, grim san'ati necha asrdan beri teatrning ajralmas birligi vazifasini bajarib kelish bilan bir qatorda, teatr san'ati rivojlanishi uchun ham muhim bo'g'in sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. – 184 b.
3. Jalilova F.S. Grim. – Toshkent: Navro'z, 2015. – 219 b.
4. Stanislavskiy K.S "Saylanma" 9-jild. – M: Isskustvo, 1989.

QASHQADARYO VILOYAT MUSIQALI DRAMA TEATRINING TARIXI VA BUGUNGI ISTIQBOLLI IJOD YO‘LI

***Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri tarixi va bugungi erishayotgan yutuqlari, ijodiy faoliyati tahlil qilingan. Teatrning tashkil topishidan boshlab, to bugungi kungacha ijodiy faoliyati, joriy repertuari, xalqaro maydonda erishayotgan yutuqlari haqida ma’lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** repertuar, spektakl, talqin, rejissyor, aktyor, ijro, teatr.*

***Abstract.** This scientific article analyzes the history and current achievements of the Qashqadaryo regional musical drama theater, its creative activity. Information is provided about the theater’s creative activity from its founding to the present day, its current repertoire, and its achievements in the international arena.*

***Key words:** repertoire, performance, interpretation, director, actor, performance, theater.*

Teatrning tashkil topishida mashxur musiqachi va ustasoz Qarshi shahrida yashab ijod etgan Abdulla Qodirov – Tanburiyning hissasi ulkan. Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri Qarshi - Shahrisabz xavaskorlik jamoalari asosida Qarshi tuman maorif mudiri A.Shoibzoda va A.Qodirov tashabbusi bilan 1932-yil 2 avgustda tashkil topdi. Ustoz san’atkorlarning xotirlashicha dastlab teatrda ilk bor «Xalima» spektakli sahnalashtirilgan bo‘lib, unda Xalima rolini iqtidorli aktrisa Zaynab Samiyeva ijro etgan.

Teatr 1936-yil davlat teatri deb atala boshladi. Shu yillarda M. Ermatov bosh rejissyor, S.Voxidov rejissyor pedagog bo‘lib ishlay boshladi.

Teatrga 1943-yilda O‘zbekiston xalq xofizi Mulla Tuychi Toshmuxammedov vafotidan keyin nomini abadiylashtirish maqsadida teatrga uning nomi berildi.

2016 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 29-iyuldagi 246-sonli qaroriga muvofiq Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatridan M.Toshmuhammedov nomi olib tashlandi va Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri deb yuritila boshladi.

Respublikamiz musiqali teatr san’atining rivojlanishida Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrining o‘rni beqiyos. Mashxur san’at ustalari O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at arboblari Raimjon Komiljonov, Sadriddin Salimov, O‘zbekiston xalq artistlari Farog‘at Raxmatova, Ikroma Boltaeva, Sharif Kobilov, Sur‘at Pulatov, Muxtarama Nosirova, Omon Beganjiev, Xusan Amirkulov, Mirza Azizov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Baxrom Kamolov, Jamil Ashurov, Majit Mamatov, Xayit Mustafakulov, Hamida Ibragimova, Nazira Voxidova, Lola Xoliqova, Yokub Rajabov, Alikul Tulaev, Muxiddin Majidov, Tojiddin Murodov Haqberdi Amirqulov, Odiljon Ismoilovlar hamda Muxarram Fayzullaeva, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Gulchexra Axmedova, ustoz

san'atkorlar Zaynab Samieva, Ashirali Xoliqov, Tolib Jalilova, Hazratqul Amirqulov, Baxtiyor Elmurodov, Baxodir Mustafoev, Salohiddin A'zamov, Elmurod Rasulov, Halima Isroilova, Mamatkul Jalilov, Xol Rajabov, Fayzullo Ochilov, Mustafo Madaliev, Turdi Jumaev, Toshpo'lat Axmedov, Aziza Bobomurodova Sabo Jalilova, Saygul Gulmurodova, Odiljon Ismoilovlar hamda Muxarram Fayzullayeva kabi teatr rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shgan marhum ustoz san'atkorlardir.

Bu yerda o'zbek san'atida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan san'atkorlar O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Bahodir Yo'ldoshev teatr repertuaridagi "Nodirabegim" fojiasini sahnalashtirgan. Bundan tashqari teatr san'atining bugungi kundagi tirik afsonalari O'zbekiston Respublikasi san'at arboblari Olimjon Salimov, Karim Yo'ldoshev, Mansur Ravshanov, Isoq To'raev kabi yetuk rejissyorlar teatr repertuaridagi eng sara spektakllarni sahnalashtirib kelmoqda.

Xalqimizning sevimli san'atkori O'zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonova ham o'z ijod faoliyatini aynan shu teatrdan boshlaganligini aytish o'rinli.

Teatrda ijod qilib bugun qarilik gashtini surayotgan, ayrimlari esa teatrda yoshlar bilan birgalikda yana ijod qilib kelayotgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Bekach Beganjjeva, Baxriddin Raxmonov, Muzaffar To'raqulov, Panji Lutfiev, Erkin Shodiev, Sa'dulla Qoraboev, Xolmurod Sattorov, Ra'no Mustafoeva, Oygul Xalilova O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Jabbor Toshev, Abduraxmon Abdunazarov, Baxodir Nazarov, Azamat Sattorov, "Madaniyat va san'at fidoiysi" ko'krak nishoni sohibalari Xurriyat Isroilova, Xalovat Ostonova, "Shuhrat" medali soxiblari Qurbon Berdiev, Oynisa Boboeva kabilar teatrda ijod qilib, ijodi mahsuli sifatida davlatimizning yuksak unvonlariga ega bo'ldilar. Teatrda bugungi kunda taniqli aktyor va xonandalardan Pirimqul Rustamov, Abduvali Hushshiev, Sur'at Axmedov, Baxodir Maksimov, Barot Sohibov, kabi ustozlar samarali ijod qilib kelmoqdalar.

O'tgan yil mobaynida teatr sahnasida «Tohir va Zuxra», «Layli va Majnun», «Farxod va Shirin», «Yoriltosh», «Ravshan va Zulxumor», «Xolisxon», «Nurxon», «Ezop», «Suqrot», «Tristian va Izolda», «Arshin mol-olon», «Ayajonlarim», «Toshbolta oshiq», «Oltin devor», «G'ariblar», «Xiylai sha'riy», «Mullato'ychi», Okibat», «Jannatga yul», «Soxibqiron», «Bir o'lib ko'raychi», «Chimildiq», «Devona», «Ruhlar isyoni», «Qaytarmikan umr baxori?..» kabi minglab o'zbek va chet el mumtoz asarlari sahnalashtirildi.

Teatrning joriy repertuari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning 28 noyabrdagi "O'zbekiston respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli Qarorida teatr sohasida zamonaviy sahna asarlari, milliy va jahon klassik asarlari asosida teatrlarda uzoq muddatli repertuarni shakllantirish, teatrlarning mahalliy va xorijiy davlatlarga ijodiy gastrol faoliyatini tizimli amalga oshirish, teatrlarni xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida teatr repertuari zamonaviy qahramonlar va jahon adabiyotining nodir durdonalarining yangicha talqinlari bilan boyitilganligi, boshlanajak renessans davri uchun munosib ijod qilayotganligini isbotlamoqda.

Teatrning joriy repertuarda jami 34 ta spektakl o‘rin egallagan. Ulardan 5 tasi musiqali drama bo‘lib, ular “Layli va Majnun”, “Jannatga yo‘l”, “To‘y”, “Hisobini bilganlar”, “Toshboltaning chinori”, 1 ta musiqali komediya “Arshin mololon”, 1 ta folklor tomosha “Bobomning orzusi”, 1 ta musiqali tragediya “Nodirabegim”, 1 ta paradoks “Piknik”, 3 ta komediya “Advokatlik osonmu?”, “To‘ylar muborak”, “Xazina”, 4 ta tragik komediya “Bog‘bon qiz”, “Ikkinchi tumor”, “Brut yoxud Yuliy Sezarning o‘limi”, N.Gogolning “Tentakning yozmalari” 2 ta tragediya “Qirol Lir”, “Baxtsiz kuyov” kabi spektakllardir. Qolgan 16 ta sahna asarlar drama janriga mansub bo‘lgan sahna asarlaridir. Jumladan, “Oq kema”, “Xush vaqt”, “Nuh kemasi”, “Jamila”, “Orol bobo”, “Najot darvozasi”, “Oydin Davron”, “Changak”, “Adashganman” kabi spektakllari shular jumlasidandir.

Qashqadaryo teatrining oxirgi yillarda erishayotgan yutuqlari

2010 yilda bo‘lib o‘tgan “Debyut-2010” Respublika yosh rejissyorlarning ko‘rik festivalida F.Boynazarov sahnalashtirgan A.Obidjonning “Qo‘ng‘iroqli aldoqchi” musiqali ertak tomoshasi uchun Gran pri sovrinini va A. Berdiyev sahnalashtirgan N.Shodmonovning “Yurt qadri” spektakli “Aktyor bilan ishlash mahorati” nominatsiyasini qo‘lga kiritdi.

2011 yilda N.Shodmonov asari asosida sahnalashtirilgan “Najot darvozasi” spektakli bilan “Seni kuylaymiz zamondosh” Respublika teatr festivalida yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsatib, N.Shodmonovning “Najot darvozasi” spektakli bilan faxrli 2-o‘rinni egalladi.

2012 yilda A.Xo‘jaquliev tomonidan sahnalashtirilgan A.Navoiyning “Layli va Majnun” milliy musiqali dramasi va A.Berdiyev sahnalashtirgan X.Xursandovning “Bobomning orzusi” musiqali folklor tomoshalari bilan xalqaro teatr festivallarida faol ishtirok etdi. 2012 yilda “Debyut-2012” Respublika yosh rejissyorlarning IV- ko‘rik festivalida yosh rejissyor O.Mamatov, Tafik Al Xakimning “Bexato otilgan o‘q” “Aktyorlar bilan ishlash mahorati” uchun nominatsiyasini qo‘lga kiritdi.

2015 yilda “Seni kuylaymiz zamondosh” Respublika 3 teatr festivalida “Orol bobo” spektakli bilan ishtirok etib, faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

2017 yilda O‘zbek Milliy akademik drama teatrining rejissyori A.Xolmo‘minov sahnalashtirgan A.Avloniyning “Advokatlik osonmu..?” spektakli bilan Toshkent shahrida ijodiy gastrol safarida bo‘ldi.

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri Qoraqalpog‘iston respublikasi Mo‘ynoq tumanida bo‘lib o‘tgan “Orol baliqlaridan 99 turdagi taomlar” gastronomik festivali, “Orol va Mo‘ynoqning qayta tiklanishi” ekofestivali hamda Berdaq va Ajiniyaz ijodiga bag‘ishlangan she‘riy-musiqiy xalqaro festivalida E.A‘zamning “Orol bobo” spektakli bilan ijodiy gastrol safarida bo‘ldi.

2018 yilda 13-14 noyabr kunlari 144-sonli majlis bayoni ijrosi yuzasidan Toshkent shahriga ijodiy gastroli munosabati bilan O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston qahramoni A.Oripovning “Jannatga yo‘l” spektakli bilan Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida ijodiy gastrol safarida bo‘ldi.

15 noyabr kuni “Debyut-2018” respublika teatrlari festivali munosabati bilan maxsus mehmon sifatida taklif etilib, ushbu festivalda teatr jamoasi Milliy akademik drama teatri sahnasida “Oq kema” spektaklini namoyish etdi.

2018 yilda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan o‘tkaziladigan an’anaviy “Ehtirom-2018” taqdimot marosimida Ch.Aytmatovning “Oq kema” spektakli, “Yilning eng yaxshi spektakli” nominatsiyasi va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

2019 yilda “Seni kuylaymiz zamondosh” Respublika 5 teatr festivalida T.Murod asarlari asosidagi O.Salimovning “Xush vaqt” spektakli bilan ishtirok etdi. Ushbu festivalda Momosuluv obrazini yaratgan Sojida Ashirova “Eng yaxshi ayol obrazi” nominatsiyasini qo‘lga kiritdi.

Teatrning xalqaro madaniy aloqalari

2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan 25 iyul - 2 avgust kunlari Rossianing Samara viloyatining “U-RA” turizm va madaniy dam olish markazining Xalqaro Etnografik tarixiy mavzudagi “Rus. Epoxi ob’yedineniya” festivalida ishtirok etdi.

11-15 sentyabr kunlari Turkiya Respublikasining Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan 2-xalqaro festivalda Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri X.Xursandovning “Bobomning orzusi” spektakli bilan ishtirok etdi. Ushbu festivalda Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri “Eng yaxshi spektakl libosi” nominatsiyasi bilan taqdirlandi. Teatr direktori O‘. Maxmatqulovga festivalning “Teatr rivojiga qo‘shayotgan munosib hissasi uchun” maxsus diplomi topshirildi.

2020 yilda PQ-4038-sonli Qaror ijrosi yuzasidan joriy yilning 22-25 fevral kunlari Turkiya Jumhuriyatining Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan “Yevroosiyo xalqaro teatrlar assotsiatsiyasi” kengashi yig‘ilishida Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri direktori O‘. Maxmatqulov hamda O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri adabiy bo‘lim boshlig‘i Oybek Kapadze bilan birga ishtirok etdi.

Turkiyaning teatr sohasidagi eng nufuzli “TIYATRO” gazeta-jurnalida Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri tarixi, buguni va istiqboli hususida “Yangi O‘zbekistonda Qashqadaryo teatri”, “O‘zbekistondan salomlar” kabi bir nechta maqolalar chop etildi.

2020 yil Aprel oyida Turkiya davlatiga xalqaro festivalda A.Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” ishtirok etish rejalashtirilgan edi. Afsuski, “COVID-2019” pandemiyasi munosabati bilan ortga surildi.

2021 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 28 noyabrda gi “O‘zbekiston respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli Qarorida teatr sohasida zamonaviy sahna asarlari, milliy va jahon klassik asarlari asosida teatrlarda uzoq muddatli repertuarni shakllantirish, teatrlarning mahalliy va xorijiy davlatlarga ijodiy gastrol faoliyatini tizimli amalga oshirish, teatrlarni xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida N. Gogolning “Tentakning yozmalari” asarini sahnalashtirishi uchun Istanbul-Maltepa teatrining bosh rejissyori Kubulay Yerdelikara va Adam Tosun Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatriga tashrif buyurdi.

Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida “Davlat buyurtmasi” asosida sahnalashtirilgan N.Gogol qalamiga mansub “Tentakning yozmalari” spektakli joriy yilning 12 may kuni keng jamoatchilika namoyish etildi.

5-9 avgust kunlari “Yevroosiyo xalqlari teatrlari assotsiatsiyasining ilk yig‘ilishi”da 13 ta davlat a‘zolari, jumladan Turkiya, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Ukraina, Gurjiston, Serbiya, Ispaniya, Portugaliya, Polsha, Kosova, Fransiya, Bolgariya va Qozog‘istondan kelgan teatr ijodkorlari va mutassaddilari ishtirok etishdi. Ushbu yig‘ilishda assotsiatsiya a‘zolari O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri Adabiy bo‘lim boshlig‘i Oybek Veysal o‘g‘li Kopadze va Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri direktori O‘tkir Maxmatqulovlar Assotsiatsiyaning 13 davlati a‘zolari ishtirokida “Yevrosiyo” xalqaro teatrlar assotsiatsiyasining 2021 yil assemblyasining Istambul shahrida bo‘lib o‘tgan ilk yig‘ilishida ishtirok etishdi.

Teatr ijodiy faoliyatida shuni alohida takidlab aytardimki, oxirgi yillarda teatr ijodiy faoliyatini yanada yaxshilash, zamonaviy toza ruh olib kirish, hamda aktyorlarning yangi qirralarini ochish maqsadida taniqli ustoz rejissyorlar bilan hamkorlik qilinmoqda. O‘zbekiston san‘at arboblari Bahodir Yo‘ldoshev, Olimjon Salimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimlari Baxodir Nazarov, Abduraxmon Abdunazarov, shu bilan birga iqtidorli yosh rejissyor Asqar Xolmo‘minovlarni misol keltirib o‘tish o‘rinli.

Teatr ijodiy faoliyatida oxirgi o‘n yilliklar mobaynida teatr ijodiy faoliyatini yanada yaxshilash, zamonaviy toza ruh olib kirish, hamda aktyorlarning yangi qirralarini ochish maqsadida taniqli ustoz rejissyorlar va san‘atkorlar bilan doimiy hamkorlik qilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston san‘at arboblari Baxodir Yo‘ldoshev, Olimjon Salimov, Mansur Ravshanov, Karim Yo‘ldoshev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimlari Bahodir Nazarov, Abduraxmon Abdunazarov, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artistlar Mirza Azizov, Marat Azimov, Nodira Maxmudova, tajribali rejissyor Avliyoquli Xo‘jaquliev, O‘zbek Milliy akademik drama teatrining bosh rejissyori Asqar Xolmo‘minovlarning teatr repertuaridan o‘rin olgan eng sara o‘zbek va jahon asarlari durdonasini bo‘lgan spektakllarini sahnalashtirishganligini fikrimiz isbotidir. Bu kabi ijodiy jarayonlar endilikda xalqaro munosabatlar doirasida kengayib, Turkiya davlati Maltepa shahar teatri rejissyori Kubilay Erdilikara va Adam Tosunlarning “Tentakning yozmalari” spektaklini sahnalashtirishga sabab bo‘ldi. Bu kabi ijodiy jarayonlar geografiyasini kelgusida zamonaviy teatrdagi qulay shart-sharoitlar sabab yanada kengaytirishga xalqaro teatr sahnalarini zabt etishga kirishish mumkin bo‘ladi.

Xulosa

Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri 1932-yilda tashkil topib, o‘zining 90 yillik tarixida milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan. Abdulla Qodirov (Tanburiy), Zaynab Samiyeva, Bahodir Yo‘ldoshev kabi san‘atkorlar hissasi bilan boyigan teatr, “Layli va Majnun”, “Oq kema”, “Jannatga yo‘l” kabi klassik va zamonaviy asarlarni sahnalashtirib, mahalliy va xalqaro festivallarda (Turkiya, Rossiya) Gran-pri va nominatsiyalarni qo‘lga kiritdi. Prezident dasturlari asosida zamonaviy repertuar, xalqaro hamkorlik (Kubilay Erdilikara) va raqobatbardoshlikni rivojlantirgan teatr, O‘zbekiston madaniy merosini global sahnaga olib chiqishda yetakchi vazifani o‘tamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 may kungi 3022 sonli Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017-2022 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi "2018-2022 yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi 9-son qarorlari
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4038-son qarori
4. 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6000-sonli Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ -112-sonli Qarorlari
6. Rahmonov M. R. O'zbek teatri: qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: Fan.,1975.-284 b.
7. O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha).– Toshkent: Fan,1968.-430 b.
8. Qodirov M. X. O'zbek xalq og'zaki dramasi.– Toshkent:O'z RFA nashriyoti.,1963.–170 b. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati.– Toshkent:Fan.,1971.-227 b. O'zbek teatri an'analari.–T. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'ati nashriyoti.,1976.-420 b. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T.:O'qituvchi.,1981.-223 b.
9. Tursunov T. T. Sahna va zamon.- Toshkent:Yangi asr avlodi.,2007.-413 b. To'laxo'jaeva M.T. O'zbek dramatik teatri rejissurasi (rivojlanish tamoyillari va zamonaviy muammolar).–T.:G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.,1995.-85 b.
10. Tursunboyev S. T. Andijon teatri.– Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.,1970.-133 b,
11. Bayandiyev T. B. Qoraqalpoq teatri.– Toshkent: San'at masalalari–teatrshunos nigohida.–T.:O'zDSI.,2009.-204 b.
12. Qodirova S.M. Komediya san'ati tarixi.– Toshkent:San'at. 2008. Rizayev O.Z. Nabi Rahimov.– Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.,1997.–104 b.
13. Rahmatullayeva D. N. XX asr O'zbek dramaturgiyasi va teatr san'atida tarixiy drama (shakllanish va rivojlanish muammolari).

UZLUKSIZ TA'LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA DOKTORANTURA FAOLIYATINING O'RNI

Anotatsiya: *Uzluksiz ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, uning samarali tashkil etilishi ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu maqolada doktorantura faoliyatining uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinib, doktorantlarning ilmiy izlanishlari ta'lim sifatini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Uzluksiz ta'lim, doktorantura, ilmiy-tadqiqot, innovatsion yondashuv, ta'lim sifati, akademik izlanishlar, pedagogik jarayon.*

Abstract: *The system of continuous education is a key factor in societal development. Its effective organization is closely linked to the advancement of research activities. This article analyzes the role of doctoral studies within the continuous education system and elucidates how the scientific pursuits of doctoral students contribute to improving the quality of education.*

Keywords: *Continuous education, doctoral studies, research activities, innovative approach, quality of education, academic research, pedagogical process.*

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanishning muhim asosi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tizim maktabgacha ta'limdan boshlab, oliy ta'lim va undan keyingi bosqichlargacha bo'lgan barcha ta'lim shakllarini qamrab oladi. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda muhim omil bo'lib, bu jarayonda doktorantura faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi[1]. Shuningdek 2021/2022-o'quv yilida O'zbekistonda 10 130 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko'rsatib, ularda 6 246 491 nafar o'quvchi tahsil olgan. Shuningdek, 2024-yil yanvar oyidan boshlab maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish uchun "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi joriy etildi. Bu kabi chora-tadbirlar ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lsa-da, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda doktorantura dasturlarining o'rni beqiyosdir. O'zbekistonda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimi tayanch doktorantura va doktorantura bosqichlarini o'z ichiga oladi. 2020-yil 29-oktabrda qabul qilingan "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga muvofiq, ilmiy darajali kadrlar tayyorlash institutini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish belgilangan[2].

Biroq, so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, doktorantura bosqichidagi ustozshogird tizimi xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi mumkin. Shu bois, uzluksiz ta'lim tizimini samarali tashkil etishda doktorantura faoliyatining o'rni va ahamiyatini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va doktorantura faoliyatini takomillashtirish bo'yicha

qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlar ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular ta'limning barcha bosqichlarini qamrab oladi. 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan **“Ta'lim to'g'risida”gi qonun (O'RQ-637-son)** mamlakatda ta'lim tizimini tartibga solish va rivojlantirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi[3].

Ushbu qonunda ta'limning barcha shakllari, jumladan, oliy ta'lim va ilmiy darajalar olish jarayoni mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, 2019-yil 8-oktabrda Prezident tomonidan imzolangan **“Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmon (PF-5847-son)** oliy ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan muhim tashabbuslardan biri bo'ldi. Shu bilan birga, **“Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” (2020-yil 29-oktabr)** doirasida ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, innovatsion tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish belgilangan. Bundan tashqari, doktorantura tizimini rivojlantirish maqsadida 2012-yil 24-iyulda qabul qilingan **“Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi farmon (PF-4456-son)** ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ilmiy kadrlarni xalqaro talablar asosida tayyorlashni ko'zda tutadi. Shuningdek, magistratura bosqichini tartibga solish uchun 2015-yil 2-martda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan **“Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaror (36-son)** ham ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu qaror ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Davlat tomonidan ta'lim va ilmiy izlanishlarga qaratilgan bunday islohotlar kelajakda ta'lim sifatini yanada oshirishga va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga zamin yaratadi. Adabiyotlar tahlili: O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi va doktorantura faoliyatining samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, uzluksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Masalan, uzluksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim bo'yicha chop etilgan darslikda bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli farmoni bilan tasdiqlangan «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda tayanch doktorantura va doktoranturaga xorijiy fuqarolarni jalb etish orqali ilmiy salohiyatni oshirish masalalari belgilangan. Biroq, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar doktorantura tizimida ayrim muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Xususan, doktoranturada o'qitishning O'zbekistonda shakllangan modeli sifatli ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada uzatmasligi aniqlangan. Metodologik qism: Maqolada uzluksiz ta'lim tizimini samarali tashkil etish va doktorantura faoliyatining ilmiy-tadqiqot jarayonlaridagi o'rnini aniqlash maqsadida kompleks tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi

ilmiy asoslangan tahlil usullariga tayangan holda, zamonaviy ta'lim paradigmatlari va xalqaro tajribalarni o'rganishga yo'naltirildi. Birinchi bosqichda **adabiyotlar tahlili** o'tkazildi. Bu jarayonda ta'lim sohasidagi yetakchi ilmiy maqolalar, monografiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlarning (UNESCO, OECD, World Bank) hisobotlari o'rganildi[4].

Ushbu tahlil orqali O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi va doktorantura faoliyatining rivojlanish dinamikasi hamda mavjud muammolar aniqlandi. Ayniqsa, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida davlat siyosatining ushbu yo'nalishda qanday kechayotgani tahlil qilindi. Keyingi bosqichda **statistik tahlil** usuli qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda xalqaro ta'lim tashkilotlari ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Xususan, 2019–2024-yillarda doktoranturaga qabul qilingan talabalar soni, ilmiy daraja olgan mutaxassislar ulushi va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish darajasi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi. Olingan statistik ma'lumotlar doktorantura dasturlarining samaradorligini baholash, ularning milliy ta'lim tizimidagi o'rnini aniqlash va rivojlanish tendensiyalarini kuzatish imkonini berdi. Tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan biri **solishtirma tahlil** bo'lib, O'zbekistonning doktorantura tizimi AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Rossiya kabi ilg'or ta'lim tizimlariga ega mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslandi. Xususan, ushbu davlatlarda doktorantura bosqichi qanday tashkil etilgani, ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan mablag'lar miqdori, ilmiy rahbarlik tizimi va doktorantlarning ilmiy loyihalardagi ishtiroki bo'yicha farqlar o'rganildi[5].

Ushbu tahlil milliy tizimda mavjud kamchiliklarni aniqlash va xorijiy tajribani integratsiya qilish imkoniyatlarini baholashga xizmat qildi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida **ekspert intervyulari** metodi qo'llanildi. O'zbekistonning turli oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy rahbarlar va doktorantlar bilan suhbatlar o'tkazildi. Ushbu intervyular orqali doktorantura tizimining amaliy jihatlari, uning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, doktorantlarning duch kelayotgan asosiy muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar to'plandi. Umuman olganda, tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tizimli va kompleks tahlil olib borish imkonini berdi. Adabiyotlar tahlili va statistik ma'lumotlar doktorantura faoliyatining bugungi holatini obyektiv baholashga, solishtirma tahlil esa milliy va xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashga yordam berdi. Ekspert intervyulari orqali esa real muammolar va amaliy yechimlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratildi. Ushbu metodologik asoslar tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirib, uzluksiz ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga oid ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Natijalar: O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi va doktorantura faoliyatini tahlil qilish natijasida ushbu yo'nalishda sezilarli islohotlar amalga oshirilgani aniqlandi. So'nggi yillarda ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi modernizatsiya qilinib, doktorantura jarayonlarining sifati oshirilmoqda. Xususan, 2023-yilda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan kvotalarga muvofiq, turli ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) dasturlariga qabul amalga oshirildi. Bu esa

mamlakat ilmiy salohiyatini oshirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul e'lon qilingan bo'lib, bu ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va innovatsion izlanishlarni jadallashtirishga xizmat qilmoqda[6].

Shuningdek, O'zbekistonda ta'lim tizimining yaxlitligi va izchilligi ta'minlanib, uzluksiz ta'lim modeli shakllantirilgan. Bu tizim maktabgacha ta'limdan boshlab, oliy ta'lim va undan keyingi ilmiy darajalar bilan bog'liq bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Uzluksiz ta'lim tizimining samaradorligi doktorantura bosqichi bilan mustahkam bog'liq bo'lib, ilmiy izlanishlarning rivojlanishi orqali ta'lim sifati oshmoqda. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida 2023-yilda turli ixtisosliklar bo'yicha doktorantura dasturlariga qabul kvotalari belgilandi. Ushbu tashabbus ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro tajriba bilan solishtirganda, O'zbekistonda doktorantura bosqichining rivojlanish sur'atlari sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, hali ham ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish va ilmiy maqolalarning xalqaro indekslangan jurnallarda chop etilish ko'rsatkichlarini oshirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab ta'limi tizimidagi mavjud muammolar tahlil qilinib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Kelgusida doktorantura tizimini rivojlantirish va uzluksiz ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ish olib borilishi lozim: ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, ilmiy rahbarlik tizimini takomillashtirish, doktorantlarning xalqaro akademik hamkorlik va grant dasturlarida ishtirokini oshirish.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi va doktorantura faoliyatini rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Biroq, kelgusida ilmiy kadrlar tayyorlash sifati va sonini oshirish, ta'lim jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali mamlakatning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash imkoniyatlari mavjud. Shu bois, uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va doktorantura bosqichida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash orqali O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim. Muhokama: O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi va doktorantura faoliyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda bu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni 2017-yilda 48 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga kelib ularning soni 84 taga yetdi. Shuningdek, 2017–2020-yillar oralig'ida 1 693 nafar professor-o'qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9 636 nafarga yetdi. Ushbu o'sish mamlakat ilmiy salohiyatining ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim tizimi va doktorantura faoliyatida hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Masalan, ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish yetarlicha yuqori darajada emas. Ayrim ilmiy-tadqiqot loyihalarining amalga oshirilishi uchun zarur mablag'larning yetishmovchiligi sababli innovatsion tadqiqotlar cheklanmoqda. Xalqaro grant dasturlarida ishtirok

etish imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, ko'plab doktorantlar bu resurslardan foydalana olmayapti. Bundan tashqari, doktorantlarning xalqaro ilmiy hamkorlikdagi ishtiroki yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish zarur. Ilmiy maqolalarning xalqaro nufuzli jurnallarda chop etilish ko'rsatkichlari ham hanuz past darajada qolmoqda.

O'zbekistondagi ilmiy jurnallarning aksariyati xalqaro ilmiy bazalarga kiritilmagan, bu esa doktorantlarning o'z ilmiy natijalarini global ilmiy jamoatchilikka taqdim etish imkoniyatlarini cheklaydi. Bundan tashqari, ilmiy maqolalarni xalqaro miqyosda chop etish uchun yetarlicha ilmiy-ta'limiy resurslardan foydalanish imkoniyati ham muhim masala sifatida qaralmoqda. Kelgusida, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va doktorantura faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirishni oshirish talab etiladi. Davlat byudjeti va xalqaro grantlar hisobidan ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash hajmini kengaytirish, innovatsion tadqiqotlarni rag'batlantirish zarur. Ikkinchidan, doktorantlarning xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etishini kuchaytirish kerak. Buning uchun xorijiy ilmiy markazlar va universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, qo'shma ilmiy loyihalar va tadqiqotlarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Uchinchi muhim yo'nalish esa ilmiy maqolalarning xalqaro nufuzli jurnallarda chop etilishini rag'batlantirishdir. Buning uchun doktorantlarni xalqaro indekslangan jurnallarda maqolalar chop etishga undash maqsadida maxsus grantlar va mukofotlar tizimini joriy etish lozim.

Shuningdek, doktorantura bosqichida ta'lim sifatini oshirish uchun ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish va ilmiy-texnologik rivojlanish tendensiyalariga mos holda yangilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish, doktorantlarni zamonaviy ilmiy metodologiyalar va texnologiyalar bilan ishlashga yo'naltirish talab etiladi. Ushbu bayon etilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonning ilmiy salohiyati yanada yuksalib, uzluksiz ta'lim tizimi va doktorantura faoliyatining samaradorligi oshishiga erishiladi. Natijada, ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati oshadi, xalqaro akademik hamjamiyat bilan integratsiya kuchayadi va mamlakatda ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi yanada rivojlanadi. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim va doktorantura faoliyatini rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy darajaga ega mutaxassislar sonining oshishi va ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatining kengayishi ijobiy natijalardandir. Biroq, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ilmiy maqolalarning nufuzli jurnallarda chop etilishini rag'batlantirish kabi muammolar mavjud. Kelgusida doktorantura tizimini rivojlantirish uchun innovatsion metodlarni joriy etish, xalqaro grant va almashinuv dasturlarini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуқодиров Г., Самикова З. Ж., Бойматов Н. М. Узлуксиз таълим самарадорлигини ошириш тамойиллари //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2015. – №. 51. – С. 8-11.

2. Murodova D. J. Issues of achieving financial independence of higher education institutions //Conferencea. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 99-103.

3. Qonuni O. R. Ta’lim to ‘g ‘risida //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997-yil, 9-son, 225-modda; 2013., 41-son, 543-modda. – 1997.

4. Шукурова Ў. Узлуксиз таълим тизимида “устоз шогирд” имкониятларининг яратилиши //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 175-179.

5. Ergashbayev S. Yoshlarning ma’naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluk-siz ta’lim jarayonlarining o‘rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida) //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 3-9.

6. Абдуқодиров Г. Узлуксиз таълимда профессиональ таълим самарадорлигини ошириш мазмуни //Ўзбекистон республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети. – С. 392.

Jamshid Sobirov,
“Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi,
1-bosqich mustaqil izlanuvchi

SHUKUR BURHONOV – TARIXIY QAHRAMOLAR IJROCHISI

Annotatsiya: Ushbu maqola Shukur Burhonovning tarixiy qahramonlarni badiiy va ilmiy jihatdan talqin qilishdagi ijodi, uning milliy madaniyat va tarixshunoslikka qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritadi. Tadqiqotda Burhonovning asarlarida tarixiy shaxslarning tasvirlanishi, ularning milliy o‘zlik tuyg‘usini shakllantirishdagi roli, shuningdek, uning ijodiy uslubi va metodologiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Shukur Burhonov, tarixiy qahramonlar, milliy madaniyat, badiiy talqin, tarixshunoslik, madaniy meros.

Abstract: This article discusses Shukur Burhonov’s artistic and scholarly interpretation of historical heroes, as well as his contribution to national culture and historiography. The study analyzes the portrayal of historical figures in Burhonov’s works, their role in shaping national identity, and his creative style and methodology.

Keywords: Shukur Burhonov, historical heroes, national culture, artistic interpretation, historiography, cultural heritage.

Ba’zi hollarda aktyorning shaxsiyati bevosita dramaturg shaxsiyatining kashf etilishiga turtki beradi. Aktyor qanchalik salohiyat, boy tajriba, o‘tkir zehnga ega bo‘lsa, dramaturgik asosni shuncha pishitib, baquvvat san’at asari darajasiga yetkazadi. Garchi bunda dramaturgga nisbatan aktyorning “men”i birinchi planga o‘tib qolsada, o‘rtadagi bu tafovut sahna asarining shakl va mazmuniga putur yetkazmaydi. Mashhur adibimiz O‘lmas Umarbekov tomonidan yozilib, shu nom bilan sahnalashtirilgan “Qiyomat qarz” pyesasi bunga misoldir.

Umuman, Sh. Burhonovning dramaturgiya va sahna qonunlarini yaxshi tushunishi, dramaturglarga nisbatan talabchanligi to‘g‘risida ko‘plab dalillarni keltirish mumkin. Uning M. Shayxzoda bilan do‘stona aloqasining o‘ziyoq sahna yozuvchiligining nozik asrorlaridan durustgina xabardor bo‘lganidan dalolat beradi. Aktyor va dramaturg o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik ibtidosi M. Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasi ustida ishlash jarayonida yuzaga keldi. Bu haqida Sh. Burhonovning o‘zi shunday deydi:

“Asarni sahnaga qo‘yishda Shayx aka bevosita ishtirok etdi. Deyarli har kuni repetitsiyaga kelar, rejissorning deganlariga quloq solar. Ayni paytda bizga, ya’ni rollarda chiquvchi artistlarga maslahatlar berar edi. Ko‘pincha repetitsiyadan keyin Shayx aka bilan qaytardik. Yo‘lda ketar ekanmiz sahna asarlari qanday bo‘lishi, saviyasi, aktyorlik mahorati, til madaniyati haqida suhbatlashardik. Har bir suhbatda Shayx aka katta san’atkor, mashhur dramaturg, faylasuf, shoir, ayni chog‘da oliyjanob inson sifatida namoyon bo‘la olardi”¹⁰⁷.

107 Murodov M. «Ikki do‘st hamkorligi». «Toshkent oqshomi» gazetasi, 1988 yil, 31-oktabr.

M. Shayxzodaning aynan Sh. Burhonov bilan kelishishida ham ma'no bor. Kuchli dramaturg hamisha zabardast, ijodiy kengligi yuqori bo'lgan ijrochini tanlaydi. Ijod mahsulining munosib egasini qidiradi. M. Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek" kabi tarixiy dramalarini aynan Sh. Burhonovga bag'ishlab yozilgani ana shundan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ne'mat Do'stxo'jayevning aytishiga qaraganda, hali "Jaloliddin Manguberdi" asari tugallanmay turib, Maqsud aka ayrim monologlarni radio orqali Sh. Burhonovga o'qittirgan. Asar tayyor bo'lgach, uni O'zbek Milliy Akademik drama teatri jamoasiga topshirgan ekan. Hatto rejissor Mannon Uyg'urdan bosh rolni Shukur akaga berishni iltimos qilgan.

"Mirzo Ulug'bek" fojiasi ham muallif va aktyor hamkorligida dunyoga kelgan. Aktyorning guvohlik berishicha, M. Shayxzoda har bir sahna bitgach, matnni Sh. Burhonov bilan birga o'qigan. Pyesadagi falsafiy monologlarni joy-joyiga qo'yishda, mantiqiy bog'lanishlarda va sahna qonunlariga amal qilishda Sh. Burhonov dramaturgga ko'p yordam bergan. Bu borada O'zbekiston xalq artisti Z. Muhammadjonov asosli dalil keltiradi.

"Ushbu pyesada Shukur aka – Mirzo Ulug'bek, men – Abdulatif rolini tayyorlagan edik, bir kuni Shukur Burhonov meni Maqsud akaning uyiga olib bordi. Biz o'sha yerda pyesadagi ota-bola sahnasini ijro etdik. Masala eng keskin nuqtaga yetgan joyda Shukur aka ota - Ulug'bekning farzand haqidagi monologi ortiqcha ekanini aytdi. Men ham Shukur aka haqligini bilib turardim. Shayxzoda esa fikrini o'tkazmoqchi bo'ldi, lekin ertasiga sahnada ko'rib chiqishgach, aktyor haqligiga ishonidi"¹⁰⁸. Keyinchalik "Mirzo Ulug'bek" haqida so'z ketganda muallif "Mirzo Ulug'bek" ni spektakl qilgan Shukur Burhonov!" deb bejizga aytmagan.

Dramaturgning jumladan, yetarlicha bilim, tafakkurga ega yozuvchining o'z mehnati mahsuli taqdirini biror akyorga ishonib topshirishi kamdan kam hollarda yuz beradi. Biroq so'z Sh. Burhonov haqida ketarkan, har qanday ikkilanishga o'rin qolmaydi. Boisi aktyor sahnadagi voqealar me'yorini va xalqqa qanday mavzular yoqishini biladigan zukko san'atkor. Mualliflar ham o'zi yozayotgan asarlari xususida bir necha bor Shukur Burhonov bilan maslahatlashishgan.

U sahna qaysi gapni ko'tarish, ko'tarmasligini, tomoshabinni qanday yo'l bilan jalb qilish mumkinligini yaxshi biladi. Har bir so'zni o'z o'rnida qo'llaydi. Matndagi har bir tovush uning nutqida o'z jozibasi, ma'nosi va maqsadiga ega bo'ladi. Obraz mohiyatini ifodalashga xizmat qilmaydigan so'zdan, butunning bir bo'laki bo'la olmagan sahnadan u shu zahotiyiq voz kechadi. Kinorejissyor Elyor Eshmuhammedov aktyor bilan bog'liq xuddi shunday vaziyatni quyidagicha xotirlaydi.

"Men u kishining katta aktyor ekanligini bilganimdan filmimdagi, kichik bir rolga rozi bo'larmikin, deb o'ylardim. Lekin bu rol kichik bo'lsa ham, Shukur Burhonovga o'xshagan katta qalb egasi ijro etishini istardim. Qahramonim vatangado bo'lib, chet ellarni kezadi. Kunlardan bir kuni qahvaxonada kayf ustida yuragini kimgadir ochishi kerak edi. Biz ssenariyda aytiladigan so'zlarni yozib qo'ygan edik. Ammo bundaylar soni mingta bo'lganidan, hech kim ularga e'tibor qilmaydi. Men aktyorga shu narsa-

108 Muhammadjonov Z. Ulug'lar orasida. – T., 2003. – 49 b.

ni tushuntirdim. Rol jonli, hayotiy ekanini bilib, Shukur aka rozi bo‘ldi. Shu lavhani suratga olish uchun chet el safariga otlandik. Suratga olish uchun hamma narsa tayyor, shunda Shukur Burhonov “Menga matnning keragi yo‘q”, deb qolsa bo‘ladimi? Men u kishiga ssenariyni buzolmayman, deganimda, u menga muzika chalinib tursin, men o‘sha sen aytgan fikrlarni o‘yinda ko‘rsataman, dedi... Aytganidek qilib muzika chalib turdik. U ketma-ket ikki, uch qadah ichib, stol-stullarni surib yubordi-yu, g‘azab bilan raqsga tushib ketdi. Uning ko‘zlari chaqnar, vujudida ichki tug‘yon aks etardi. Yuzi shunday holatga keldiki, go‘yo ich-ichidagi butun dard-alami qalqib chiqqanday bo‘ldi. Shu tobda kimdir uni chalib yubordi, yana kimdir turtar, urmoqchi ham bo‘lishardi. Bularni yonidagi aktyorlarga o‘zi aytib qo‘ygan ekan. Ammo u hech kimga bo‘sh kelmas, ko‘zlari yonib, ularga yeb qo‘ygudek qarardi. Biz kinochilar shu obraz jonli chiqsin deb qancha so‘zlarni qidirib topgan edik. Ammo aktyor biz ko‘zda tutgan holatni so‘zsiz ifodalaganiga tahsinlar o‘qiganmiz...”¹⁰⁹.

Ulug‘ aktyorlarning qudrati ham shunda. Ular o‘z rolining muallifi sifatida bor imkoniyati, ichki quvvatini obrazning to‘laqonli va ta’sirchan chiqishiga sarflaydi. Rejissyor bo‘lib avvaldan epizodini sahnalashtiradi, muallif bo‘lib personajini boyitadi. “Bu mening vazifamga kirmaydi, bu mening ishim emas”, demaydi. Shu tufayli Sh. Burhonovning barcha obrazlarida faqat ungagina tegishli madaniyat, ichki dard va ijodiy dastxat sezilib turadi.

Shunisi ham borki, unga biror rol ma’qul kelmasa yoki rejissyor bilan rol haqidagi fikri bir joydan chiqmasa, asarda qatnashishdan bosh tortadi. Bordi-yu, ma’qul kelsa rejissyor taklifini ham kutib o‘tirmay, maqsadini ochiq-oydin bayon qiladi. Latif Fayziyev Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasi asosida film yaratmoqchi bo‘lganida, Qalandarov rolini men ijro etaman, deb Sh. Burhonovning o‘zi rejissyorga taklif kiritgan. Mazkur rol ustida rejissyor bilan bir necha bor munozara qilib, o‘zi ijro etayotgan rolning takomili yo‘lida xizmat qilgan.

Aktyor ijodiy ufqining chegarasini, o‘z imkoniyati darajasini to‘g‘ri baholay oladi. Ijodiy kuchi, shijoati, quvvati manbayi nimaga yetishini ham tahlil qila biladi. Repertuaridagi obrazlarni ham ana shu me’zon doirasida o‘lchaydi. Har bir materialni chertib, chertib tanlaydi. 1969-yil sahnalashtirilgan Sofokolning “Shoh Edip” tragediyasi ham artistning shaxsan taklifi bilan teatr repertuariga kiritilgan, uning xohishiga ko‘ra A.Muxtor tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan edi. O‘shanda asarni sahnalashtirish uchun rejissyor qidirgan Sh.Burhonov Toshkent Teatr san’ati institutida rejissuradan dars berib yurgan M.Radunda to‘xtagan. Ikki ijodkorning asar to‘g‘risidagi qarashlari mos kelib, aktyorning fojiviy qudrati to‘la namoyon bo‘lgan.

O‘.Umarbekovning “Qiyomat qarz” pyesasi ham aktyorning o‘z rolini o‘zi tanlashi ortidan dunyoga keldi. Asar dastavval kichkina hajmdagi hikoya bo‘lgan. Keyinchalik Sh.Burhonov taklifi bilan sahna asariga aylangan. Ko‘plab epizodlar aktyor tomonidan o‘ylab topilib, asarga kiritilgan.

Spektakl chin ma’noda dramaturg va aktyor ijodiy hamkorligi asosiga qurildi. Bunda aktyor iste’dodi dramaturg O‘.Umarbekovning shuhratini ta’minlash bilan birga, rejissyor Rustam Hamidovning ijoddagi keyingi yo‘lini ham belgilab berdi. Asarni

109 O‘sha manba. – 54 b.

sahnalashtirish jarayoni va repetitsiyalar natijasi rejissyorning shaxs bo‘lib kamol topishida muhim o‘rin egalladi.

“Sulaymon ota timsolining Sh.Burhonov tomonidan talqini misolida sahnada juda kam hollarda sodir bo‘ladigan sinoat tariqasida yuz berdi. Adabiy manbadan farqli o‘laroq ijrochining topilmalari mantiq va badiiy bayonda mazmundorroq va ta’sirchan chiqdi. Sh.Burhonov Sulaymon ota, umuman spektaklga xissiyot va qalbining nidosi bilan jon ato etdi”¹¹⁰.

Ma’lumki O‘.Umarbekov o‘z asarlariga keng masshtabli, ijtimoiy xarakterdagi voqealarni asos qilib oladi. Jumladan, urush mavzusi uning ijodida yetakchi o‘rin tutadi. Uning “Komissiya” sida frontda xizmat qilgan insonning bir lahzalik beqarorligi tufayli vijdon azobida qolishi haqida so‘z ketsa, “Qiyomat qarz” ida urush va uning oqibati, millatlar boshiga solgan dahshati, oddiy insonlar dardi, matonati to‘g‘risida so‘z boradi. “Shoshma, quyosh” dramasida esa hayotining asosiy qismi urush qutqusida o‘tgan ayolning iztiroblari va bugungi osoyishta zamonning qadri haqida hikoya qilinadi. Bularning barida dolzarb, siyosiy muammolar ko‘ndalang qo‘yilgani bois aktyorlardan milliy, xalqchil va tipik qahramon obrazlarini yaratish talab etiladi. Shu vajdan Nabi Rahimov, Shukur Burhonov va Sora Eshonto‘rayeva kabi aktyorlar ushbu asarlarning sahnaviy variantini yuzaga chiqarishda saralab olingan. Aniqrog‘i dramaturg oldindan xuddi shu aktyorlarning mahorati va ijodiy diapazoniga qarab asarlarini ularga atab yozgan.

Sh.Burhonovdek ijodiy potentsiali yuqori san’atkor o‘ziga bag‘ishlab yozilgan pyesa ustida eng ko‘p riyozat chekkan aktyorlardan bo‘ldi. Boisi katta yukka ega voqelik aktyor oldiga milliy xarakter yaratish, zamonaviy qahramonning murakkab, shu bilan birga juda oddiy ma’naviy dunyosini belgilash, Sulaymon otaning ichki va tashqi olamini omixtalashtirish shartini qo‘ydi.

Avvalo milliy xarakter haqida to‘xtalsak. Har bir millat o‘zining dramaturgiyasida milliy xarakter yaratish vazifasini ilgari suradi. Boisi xalqning o‘zligi, madaniyati, tarixi va yashash tarzi haqida aynan milliy qahramonlar orqali xabardor bo‘lish mumkin. Qolaversa, teatr tomoshabin talabi, muammosi, bugunidan kelib chiqib ish ko‘rar ekan, unda millat dardini kuylash muammosi yetakchi o‘ringa qo‘yiladi. Ko‘p hollarda milliy xarakterlar masalasida teatr adabiyotga, prozaga murojat qiladi. Ch.Aytmatov, N.Dumbadze, F Abramov kabi yozuvchilarning asarlari shular jumlasidandir. Ularda milliy xarakterlar ko‘p qirrali, rang-barang va hayotiy bo‘yoqlarda aks etadi. Biroq nasrni doim ham sahnaga silliq, muvaffaqiyatli tarzda ko‘chirib bo‘lmaydi. Bunday holatda uning yaxlitligi, g‘oyasiga putur yetishi, kerakli o‘rinlar, muhim voqeliklar tushib qolishi mumkin. Dramaturgiyada esa milliy xarakterni keng miqiyosda tomoshabiniga yetkazish juda katta tayyorgarlikni, tinimsiz mehnat va izlanishni talab etadi. O‘.Umarbekov ana shunday mashaqqatlarni xatlab o‘tib, berilgan qisqa muddat ichida butun kenglikni qamrab olishga urindi. Tabiiyki bunday og‘ir vazifa Sh.Burhonov iste’dodisiz to‘liq amalga oshmasdi.

Sh.Burhonovning ijrosi haqida to‘xtalar ekan, tanqidchi Eldor Muhtorov aktyor shaxsiyatining ustivorligini alohida ta’kidlab o‘tadi: “Spektakl davomida aktyor biror

110 Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi. – T., 2010. – 296, 297 b.

marta bo'lsa ham obrazining yuksak axloqiy fazilatiga urg'u berishga urinmaydi. Bu so'zda ham, aktyorning o'zini tutishida ham ko'zga tashlanmaydi. Burxonov yengil yaktagi, bir tomonga qiyshaygan do'ppisi bilan o'zining sodda ko'rinishidan beozorgina kuladi, qahramoni ustidan hazil qilish imkoniyatini bir lahzaga-da qo'ldan chiqarmaydi. Shu bilan birga birinchi-Sulaymon otaning olis qirlardan yelkasidagi cho'pon tayoqqa suyanib, hotirjam, sokin qadam bosib kelish sahnasidanoq bu insonning oddiy inson emasligi bilinadi. Bu uning "Ulug'bek"i, "Edip"ida ham sezilgan... Bu yerda aktyorning kimni o'ynayotgani ahamiyatsiz. Shoxmi, ziyolimi, oddiy cho'ponmi. Gap aktyor shaxsining kengligi haqida boradi"¹¹¹.

Aktyor obrazining tarixiy biografiyasi, sodda haqiqati va hayotiy e'tiqodini shu qadar samimiy, jonli, ta'sirchan uslubda ifodalaydiki, oqibatda tomoshabin ko'z o'ngida Sulaymon otaning qalbga yaqin, sof xalqona qiyofasi paydo bo'ladi. Asar matnini o'qib, so'ng aktyor ijrosini ko'rgan tomoshabin uchun sahnadagi qahramon yaqin insonga aylanadi va pyesadagidan Sh.Burxonov talqini ustunligiga ishonch hosil qiladi.

Aktyor pyesadagi jaydarilik, chapanilikni oddiylik, tabiiylik va bolalarcha beg'uborlik bilan sug'oradi. Nutqidagi har bir ifodada mehr-muruvvat tuyg'usi ufurib turadi. Abdusalom bilan do'stona hazillarida ham, No'monjonning ismini takrorlaganda ham ana shu mehrning tafti uzilmaydi. Sh.Burxonov millatning bor dardi, qayg'u-iztirobi, adolatsizlikka qarshi isyoni, hojatbarorligi, bolajonligi xullas jami ezgu fazilatlarini bir obraz sig'imiga jipslashtirishga, ularni o'zaro uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

Sulaymon ota uchun muhim ideallar, fizikadagi murakkab tamoyillar butunlay yot tushunchalar. U o'z tafakkuri kesimida "aspirantura"ni "o'qishlarning o'qishi" deb, "doktor"ni esa "olimlarning olimi" deb qabul qiladi. Chernishevskiy, Ahmedov, Pele kim, unga qorong'u. "Yalla", "Beatless"dan ko'ra o'zining "Ma'murjon"ini tinglashni ma'qul ko'radi. Lekin hayotdagi eng muhim haqiqatlar, umuminsoniy qadriyatlariga kelganda u o'zi aytgandek "olimlarning olimi" ga aylanadi. Umr omonatligi, qarz qiyomatligi va inson qadr-qimmatini bilan bog'liq ayrim masalalar uning uchun yillar o'tsa-da o'zgarmaydi.

Bu jihatdan Sh.Burxonovning Sulaymon otasi taniqli gruzin aktyori Sergo Zakariadzening "Askar otasi" filmidagi obraziga yaqin turadi. Har ikki obrazda ham milliy xarakter, umumiy mavzu va ijrodagi tabiiylik ko'zga tashlanadi. Ikkala aktyorning mahorati, ijodiy qudrati va chuqur mulohazakorligi dramatik manbadan yuqori o'ringa ko'tariladi. Obraz keng masshtablilik, murakkab soddalik va umumiy yaxlitlik xarakteriga ega bo'ladi. Gurji va o'zbek ijodkorlari keksaligiga qaramay hali tetik, bilagi baquvvat, or-nomusi baland, bir so'zli, halol insonlarni g'oyat yuksak did, ma'naviyat bilan talqin qiladi. Ularning har ikkisi o'z xalqining o'ziga xos tomonlarini ustalik bilan ochib beradi.

Shunisi muhimki, asardagi ketma-ket voqealar ijrochidan bir holatdan ikkinchi holatga tez-tez o'tib turishni talab qiladi. Bu haqida K. Rudnitskiy alohida to'xtalib shunday deydi: "Shukur Burhonov ijro etgan Sulaymon ota roli artistni epizoddan-epizodga, janrdan-janrga o'tishga majbur qiladi: dramadan komediya, komediya-dan yana dramaga, ba'zi o'rinlarda voqea tragediyaga nihoyatda yaqin borsa, gohida

111 Muxtarov I. A. Teatr i yego aktyori. – Toshkent, 1989. S. 121.

vodevilga o‘tib ketadi. Ushbu murakkab evolyusiyalarni Sh. Burhonov hayron qolarli darajada sodda, tabiiy, hech qayerida haqiqatdan chekinmagan holda, xalq xarakteri izmida ijro etadi. Barcha kolleziyalarda — g‘am-kulfatda ham, kuchga to‘lganda ham pyesaning bosh mavzusiga sodiq qoladi, ya’ni urushda halok bo‘lgan, uning qahramoni uchun qutlug‘ bo‘lgan odamni xotirasida saqlab turadi”¹¹².

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ustoz san’atkor Shukur Burhonov talqinidagi Sulaymon ota dramatik asosning markaziy qahramoni sifatida voqealar tizimi, spektaklning umumiy liniyasi, temporitmi, ob-havosini boshqarish bilan birga o‘zining ijodiy yondashuvi, hayotiy tajribasi, teran mushohadalari ila sahna asarining muvaffaqiyati, badiiy kamoloti hamda dramaturg yutug‘ini ta’minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Murodov M. «Ikki do‘st hamkorligi». «Toshkent oqshomi» gazetasi, 1988. 31-oktabr.
2. Muhammadjonov Z. Ulug‘lar orasida. – Toshkent: 2003. – 49 b.
3. Muhammadjonov Z. Ulug‘lar orasida. – Toshkent: 2003. – 49 b.
4. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi. – Toshkent: 2010. – 296, 297 b.
5. Muxtarov I. A. Teatr i yego aktyori. – Toshkent: 1989. S. 121.

¹¹² Rudnitskiy K. «Talantlar hamkorligi». «Pravda» gazetasi 1977 yil, 29-aprel.

Muhammad Rustamov,
O‘zDSMI “Madaniyat va san’at menejmenti”
kafedrası o‘qituvchisi 1-bosqich mustaqil izlanuvchi

SAN’AT VA MADANIYAT SOHASINI ILMIY O‘RGANISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada san’at va madaniyat sohasi ilmiy taraqqiyotida sun’iy intellektning o‘rni va hozirgi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Sun’iy intellektdan foydalanishining ijobiy va salbiy jihatlariga urg‘u beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** madaniyat va san’at sohasi, sun’iy intellekt, tadqiqot ishlari, ijodiy jarayonlar.*

***Abstract:** This article discusses the role and current significance of artificial intelligence in the scientific development of the arts and culture sector. The positive and negative aspects of the use of artificial intelligence are emphasized.*

***Keywords:** arts and culture sector, artificial intelligence, research work, creative processes.*

Bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi san’at va madaniyat sohasida ham katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bu sohani ilmiy jihatdan o‘rganayotganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish tobora ortib bormoqda. San’at va madaniyat sohalaridagi turli jarayonlarni o‘rganishda, SI texnologiyalarining qo‘llanilishi yangi imkoniyatlar yaratib, ushbu sohalarni yanada chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi. Doimiy ravishda yangilanib turadigan va yuqori intellektual tizimlarda saqlanadigan model, ideal ravishda insonning obyektli dunyo bilan o‘zaro aloqasining to‘liq axborotini o‘zida aks ettirishi kerak. “Iqtidorlilik”, “ijodiy salohiyat” kompyuterlarning cheksiz orientiriga inson va uning qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi: ko‘rish, eshitish, teginish, tillarni bilish, sportni bilish, haqiqatning eng optimal imkoniyatlaridagi o‘zgarishlar, transformatsiyalar va yaratuvchanliklar yo‘llarida tushunish.

Sun’iy intellekt sun’iy tizimlarning taraqqiyotidagi eng yuqori shakl sifatida paydo bo‘ladi. Sun’iy intellektning falsafiy masalalari hisoblash texnikasining rivojlanishi, uning yanada mukammal avlodlari bilan bevosita bog‘liqdir. Tabiiy va sun’iy intellektning dialektikasi, inson-mashina tizimlari bevosita olamni tasvirlovchi model tasvirida hal bo‘ladi, bu tasvir tobora mukammalroq, chuqurroq va ilm-fan hamda san’at vositalari orqali aniq ifodalanadi. “Aqlli va hissiy mashinalar” davri hali ko‘p jihatdan ilmiy-fantastik adabiyot sohasiga tegishli. Biroq, biz tez-tez ta’kidlashimiz mumkinki, ularda tasvirlangan g‘oyalar amalga oshirilmog‘da, ba’zan esa ular faqat orzu qilishimiz mumkin bo‘lgan narsalarni ham ortda qoldiradi.

Kompyuterning intellektual darajasi katta darajada uning “ijodiy” qobiliyatiga, ya’ni noaniqlik va axborotning katta tanqisligi sharoitida mustaqil ravishda kompetent qarorlar qabul qilish qobiliyatiga bog‘liq. Tanlovning to‘g‘riligi, keng imkoniyatlar doirasida, sifatli yangilik yaratish qobiliyati bilan mustahkamlanadi. Bu yerda yangiliklar miqdori

insonning intellektual darajasi bilan solishtirilishi mumkin, chunki u o'z sohasida yoki faoliyat yo'nalishida professional tarzda ishlaydi.

Sun'iy intellektual tizimlarning mukammalligining asosiy mezonlaridan biri ularning yaxshi dasturlarga ega bo'lishidir. Hozirgi vaqtda intellektual sun'iy tizimlarni yaratish bo'yicha loyiha institutlarini ixtisoslashuvi va integratsiyasi jarayoni davom etmoqda, bu tizimlar butun predmetli va bo'sh muhitta birlashtirilgan.

Ayniqsa, san'at asarlarini yaratish, tahlil qilish va ularni baholashda sun'iy intellektning o'rni juda katta. Kompyuterlar va algoritmlar yordamida tasviriy san'at, musiqa, teatr, adabiyot kabi sohalarda yangi asarlar yaratish va ularni tomoshabinlarga taqdim qilish imkoniyatlari yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Masalan, sun'iy intellekt orqali rassomlar yoki musiqachilar yangi asarlarni yaratishda texnik yordam olishlari, asar uslubini, mavzusini aniqlashda ham bimalol qo'llanishlari mumkin. Madaniyat merosining o'rganilishi jarayonida sun'iy intellekt va mashina o'rganish (machine learning) texnologiyalari katta yordam beradi. Tarixiy yozuvlar, madaniy meros ob'ektlari yoki etnografik materiallarni tahlil qilishda SI algoritmlari aniq natijalar berib, mazkur texnologiyalar yordamida qadimiy yozuvlar yoki qadimgi madaniy yodgorliklar haqidagi bilimlar yangilanishi va o'rganilishi mumkin. Sun'iy intellekt san'at va madaniyat sohasining ilmiy o'rganilishida o'ziga xos o'rin tutib, sohadagi ilmiy izlanishlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ijodiy jarayonni yanada boyitadi.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanmoqda. Yangi ishlab chiqish jarayonlari inson uchun odatiy bo'lib tuyulgan jarayonlarni o'zgartirmoqda. Hayot faoliyatining eng turli sohalari, shu jumladan madaniyat sohasi ham o'zgarishlarga uchrarmoqda. Biz tobora ko'proq sun'iy intellekt madaniy va tarixiy ahamiyatga ega ob'ektlarni saqlash vositasi bo'lib xizmat qilishini kuzatmoqdamiz. Ko'plab hujjatlarning elektron ko'rinishga o'tkazilishi va ma'lumotlar bazalarini shakllantirish o'zi murakkab raqamlashtirish turlaridan biri bo'lib, bu maxsus uskunalar, texnologiyalar va asl nusxalarga nisbatan alohida ehtiyotkorlikni talab qiladi. Biroq, hozirgi vaqtda ushbu texnologiyalarning qo'llanilishi ortib borayotganini ko'rish mumkin.

Sun'iy intellektning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud, shuning uchun uning imkoniyatlarini o'rganish va kengaytirish ishlari faol olib borilmoqda. Zamona-viy texnik ishlab chiqishlar madaniy qadriyatlarga yanada kengroq auditoriyaning kirish imkonini beradi, bu esa san'atni qabul qilishni sezilarli darajada o'zgartiradi va umumiy madaniyat darajasini oshiradi. Raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari tadqiqot salohiyatini kengaytiradi va gumanitar fanlar sohasida katta istiqbollar yaratadi. Endilikda raqamli meros yaratish jarayonining samaradorligini oshirish uchun ushbu sohada yuzaga kelayotgan strukturalarni ta'minlash uchun tayyorlov choralari ko'rilishi kerak.

Shuning uchun madaniyat va san'at muassasalariga ijodiy ishlarni saqlash bo'yicha eng so'nggi texnologiyalarni qo'llagan holda o'z loyihalarini moliyalashtira oladigan va taqdim etadigan texnologik yetakchilar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini izlash kerak. Shuningdek, ko'plab tashkilotlar duch kelayotgan hozirgi cheklovlarni tushunish va ularning texnik bazasini yaxshilash uchun zarur choralarni ko'rish muhimdir. Raqamli texnologiyalarni to'g'ri joriy etish mavjud ijod na'munalarini saqlashga yor-

dam beradi va tadqiqotchilar uchun keng qamrovli raqamli gumanitar fanlarga yo‘l ochadi.

San’at va madaniyat sohasining ilmiy o‘rganilishida sun’iy intellektning salbiy jihatlari ham mavjud bo‘lishi mumkin. Birinchi navbatda, sun’iy intellekt ijodiy jarayonni mexanizatsiyalashga olib kelishi mumkin. Kompyuter tizimlari yordamida san’at asarlarini yaratish jarayoni ba’zan insonning ijodiy ifodasi va original fikrlarini yo‘qotishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa san’atning insoniyat hissiyati va o‘ziga xosligini yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Madaniy va tarixiy qadriyatlarning masofadan boshqarilishi ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sun’iy intellekt texnologiyalari madaniy va tarixiy ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilishda yordam bergan bo‘lsa-da, bu jarayonlar insonning chuqur madaniy tushunchalari va tarixiy anglashini to‘liq hisobga olmaydi. Bu esa, ba’zan madaniyatning mohiyatini to‘g‘ri tushunish va saqlashda kamchiliklar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Sun’iy intellekt (SI) ilmiy bilimlar sohasi sifatida turli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi va bu yo‘nalishlar turli fanlar va texnikada qo‘llaniladi. SI tipologiyasi nuqtai nazaridan, zaif SI (yoki tor spektrli SI) va umumiy SI (yoki keng qo‘llaniladigan SI) haqida gapiriladi. Tor SI ma’lum bir vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘ziga berilgan vazifalarni bajarishda inson imkoniyatlaridan yuqori bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda inson tor spektrli SI ishlab chiqarish va undan foydalanishni o‘zlashtirdi. Umumiy intellekt esa keng qamrovli kognitiv vazifalarni bajarishi, turli metodlar yordamida maqsadlarga erishishi va operatorning aralashuvisiz ishlashi kerak. Biroq, bunday umumiy intellekt hozirgi kunda yaratilgan emas. Ba’zi olimlar uning yaratilish imkoniyatlariga skeptik qarashadi, boshqalari esa superintellekt tushunchasiga murojaat qilmoqda, bu SI quvvatlarini oshirish va rekursiv auto-o‘rganish yordamida o‘z algoritmlarini va o‘zini takomillashtirish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Sun’iy va tabiiy intellekt o‘rtasidagi munosabatlar masalasida ilmiy hamjamiyatning ushbu munosabatlar prinsiplarini ishlab chiqishga bo‘lgan harakatlari katta ahamiyatga ega. 2017-yil yanvarida Kaliforniyaning Asilomar shahrida SI xavfsizligi bo‘yicha konferentsiya o‘tkazildi. Konferentsiyada qabul qilingan prinsiplar, SI imkoniyatlarini noto‘g‘ri baholash va uning kelajakdagi yuqori chegaralari haqida xavotirlarni ifoda etdi. Aslida, bu masala mashina superintellektini SI bilan birlashtirishning ehtimolligi va imkoniyatini ko‘rsatadi, shu bilan birga ularning ehtiyojlari va madaniyatga oid tushunchalar – axloqiy va ma’naviy talablar bilan ham bog‘liq edi. Madaniyat va san’at sohasi ilgari faqat insonlarga xos bo‘lgan soha deb hisoblangan edi. Biroq, endi biz mashina san’ati asarlarini yaratish faktlarini tobora ko‘proq uchratmoqdamiz. Neyron tarmoqlari imkoniyatlari ijodiy faoliyatga kirib bormoqda, bu esa, ma’lumki, faqat insonlarga xos bo‘lgan. Sun’iy intellekt faqat inson g‘oyalarini amalga oshirish vositasi bo‘lib qolmay, balki yangi yo‘nalish sifatida “hisoblash ijodiyliigi” (computational creativity) deb nomlangan soha shakllanmoqda. Ammo, shunday qilib, SI mustaqil ijodkor bo‘lishi mumkinmi?

Bu savolga javob berish uchun, avvalo, san’at asarining nimadan iboratligini va uning muallifi kimligini, ijodning mohiyatini tushunish kerak. F. Shelling madaniyatning simbolik tabiatini ta’kidlab, “San’at falsafasi”da ochib bergan bo‘lib, madaniyatni nemis

ma'naviyatining asosiy tushunchalaridan biri sifatida qaragan. Shellingga ko'ra, san'at odami – bu ijodkor. U qonunlar va qoidalarga bog'lanmagan, uning asarlari bir nechta g'oyalarni jamlaydi va cheksiz talqin va tushunishga imkon beradi. Bundan tashqari, ijodkorlik muallif va uning asarlari bilan tanishgan odamlar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. San'at asarining ba'zi ma'nolari aniq ifodalangan, boshqalari esa faqat belgilangan va oldindan ko'rilgan, chunki ijodkor – bu bashorat qiluvchi. Uchinchi guruhdagi ma'nolar esa tashqaridan kiritilgan va ehtimol, asar bilan tanishganlarning subyektiv talqinlari bo'lishi mumkin. Shuningdek, texnologiyalarga nisbatan haddan tashqari qaramlik ham muammo tug'dirishi mumkin.

Xulosa

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar san'at va madaniyatni ilmiy o'rganishda insonning o'z fikrini va yaratish qobiliyatini kamaytirishi mumkin. Bu jarayonning sifatini va chuqurligini pasaytirib, faqat aniq va matematika asoslangan xulosalar chiqarish imkonini yaratadi, ammo insonning noaniq va murakkab fikrlarini hisobga olishda cheklovlar yuzaga keladi. Shunday qilib, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar san'at va madaniyatni ilmiy o'rganishda katta imkoniyatlar yaratishda davom etsa ham, bu sohada ehtiyotkorlik va muvozanatni saqlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Норенков С. В. Научные исследования: проектный синтез. Курс лекций. Н. Новгород.: Издво ННГАСУ, 2011.–271с.
2. Царёва А., Тарасова Т. Технологии цифровизации и искусственного интеллекта в сохранении культурного наследия. Стольпинский вестник 5.5 (2023): 2700-2709.
3. Беликова, Е. К., Попов, Е. А. (2023). Современные проблемы соотношения естественного и искусственного интеллекта в парадигме культуры. Социально-гуманитарные знания, (11), 9-13

FILM THEORY TYPES AND FEATURES.

Annotation: *This paper explores the evolution of film theory from its early roots in the silent era to contemporary perspectives influenced by digital technology and psychoanalysis. It discusses key contributors such as Bergson, Bazin, Delluk, Haskell highlighting various approaches including apparatus theory, philosophy of language film analysis, and psychoanalytical film theory*

Keywords: *film theory, practice, analysis, author, structuralist, formalistic, feminist, screen theories*

Annotatsiya: *Ushbu maqola kino nazariyasi evolyutsiyasini jimlik davridagi dastlabki ildizlaridan raqamli texnologiyalar va psixoanaliz ta'sirida zamonaviy istiqbol-largacha o'rganadi. Unda Bergson, Bazin, Delluk, Haskel kabi asosiy ishtirokchilar muhokama qilinib, apparat nazariyasi, muallif, formalist, feminist va psixoanalitik kino nazariyasi kabi turli yondashuvlarni ta'kidlaydi*

Kalit so'zlar: *kino nazariyasi, amaliyot, tadqiqot, muallif, strukturalist, formalist, feminist, ekran nazariya turlari.*

Film theory explores the nature of film art and provides a conceptual framework for understanding its relationship to reality, other art forms, audiences, and society at large. It is important not to confuse the term with film analysis, which is a method of studying films that draws on ideas from film theory. Film analysis includes the study of such aspects as mise-en-scène, editing, cinematography, sound, and editing. One method of analysis is frame-by-frame analysis, although it is usually applied to short fragments or scenes.

Here are some of the main aspects that make film theory difficult: diversity of genres and styles: Film covers a wide range of genres, from drama to comedy, from documentary to animation. Each genre may have its own rules and approaches. Cultural context: Film often reflects the cultural and social realities of its time. This can make it difficult to interpret a film if the viewer is not familiar with the context. Subjectivity of perception: Each viewer perceives a film in his or her own way, depending on personal experiences, tastes and preferences. This makes film theory subjective and open to interpretation. Technical aspects: As technology advances, so do the possibilities of film. New techniques in shooting, editing and sound design may require new theoretical approaches. Philosophical and aesthetic questions: Film theory also addresses deeper questions what is art? What is the impact of film on society? How can film be used to express ideas and feelings? Because of all these issues, developing a unified theory of film becomes a difficult task. Therefore the study of film theory divided into different types.

Both theoretical and empirical research methods were used in the course of the work. Theoretical methods include generalization and comparison aimed at studying

the history of the formation of film theory in scientific research, as well as content analysis, which allows for a detailed study of the step-by-step development of its types. The scientific study is aimed at studying the above issues using the example of the founders of scientific works on film theory. Empirical methods include analysis of films that served as the basis for the formation of film theories.

As a new art form in the 20th century, cinema immediately attracted the attention of theorists who sought to define its essence and function. This was largely due to the inferiority complex inherent in this young art, which led early theorists to strive for recognition and respectability.

Some of the ideas of the French philosopher Henri Bergson in his work *Matter and Memory* anticipated the development of film theory during the period when the art was just beginning to take shape. He noted the importance of new approaches to understanding movement and proposed the terms “movement-image” and “time-image”. However, in his 1906 essay “L’illusion cinématographique” (in *L’évolution créatrice*), he rejected cinema as an illustration of his concepts. However, in the philosopher Gilles Deleuze’s works “Cinéma I” and “Cinéma II” (1983-1985), he rethought Bergson’s ideas, integrating them with the semiotics of Charles Sanders Peirce. Early film theory arose in the silent era and largely focused on identifying key expressive devices. It developed through the efforts of filmmakers such as Germain Dulac, Louis Delluc, Jean Epstein, Sergei Eisenstein, Lev Kuleshov, Dziga Vertov, Paul Roth, and theorists such as Rudolf Arnheim, Béla Balázs, and Siegfried Kracauer. These figures established a scientific approach to the differences between cinema and reality, arguing that cinema is a full-fledged art.

After World War II, the French film critic and theorist André Bazin argued against this approach, arguing that the essence of film lies in its ability to mechanically reproduce reality, not in its differences from it. In the 1960s and 1970s, film theory gained a foothold in the academic community as a distinct field of study, borrowing concepts from various disciplines such as psychoanalysis, gender studies, anthropology, literary theory, and semiotics.[1]

In the 1990s, the digital revolution in imaging technology significantly influenced film theoretical practice. Theorists such as Mary Ann Doane, Philip Rosen, and Laura Mulvey drew on psychoanalysis to highlight the unique capacity of celluloid film to capture indexical images of time. In the context of psychoanalysis, following Lacan’s notion of the Real, Slavoj Žižek offered new perspectives that have found wide application in contemporary film analysis. Scholars including Tom Gunning, Miriam Hansen, and Yuri Tsivian have conducted historical surveys of early film exhibitions and audience practices [2].

Structuralist film theory emphasizes how films convey meaning through codes and conventions, analogous to the ways in which language communicates. For example, a simple sequence of shots—a facial expression, a mouth-watering meal, another face can convey ideas about hunger or desire, even though none of the images express these literally. Analyzing hidden meaning requires taking into account many factors, including lighting, camera angle, shot length, and cultural context, which in turn can enhance

ce or weaken perception.

Marxist film theory is one of the oldest forms of film analysis. In the 1920s, Sergei Eisenstein and other Soviet filmmakers integrated Marxist ideas into their work. Hegelian dialectic was considered to be best expressed through montage, as Kuleshov's experiments confirmed. However, Russian filmmakers also expressed criticism of Hollywood narrative structure.

Eisenstein proposed to avoid traditional narrative structure by eliminating a single protagonist and creating stories in which the action moves in a group, and the plot develops through the clash of different images, whether in composition, movement, or concept. This approach allowed the audience to maintain attention without allowing them to become ensnared in illusions. However, Eisenstein faced criticism from Stalin's authorities for the "formalist error" of focusing on form rather than depicting the worker in a noble light. French Marxist directors such as Jean-Luc Godard used radical editing techniques and story choices, as well as parodic elements, to raise class consciousness and promote Marxist ideas in their films.

Situationist filmmaker Guy Debord, best known for *The Society of the Spectacle*, began his film *In girum imus nocte et consumimur igni* with a scathing critique of moviegoers who go to the cinema to forget their difficult everyday lives. Situationist filmmakers made several important films in which the only contribution of the Situationist film cooperative was the soundtrack. In *Can Dialectics Break Bricks?* (1973), a Chinese kung fu film was re-soundtracked to become a manifesto on state capitalist structures and proletarian revolution. This intellectual device, using capitalism's own mechanisms against it, is called *detournement*. *Screen theory* is a Marxist conception of cinema associated with the British magazine *Screen* in the 1970s. Theorists of this approach, such as Colin McCabe, Stephen Heath, and Laura Mulvey, describe the "cinematic apparatus" as a version of Althusser's Ideological State Apparatus (ISA). According to screen theory, it is the spectacle that shapes the spectator, not the other way around. The creation of the subject and its simultaneous impact on the screen narrative is hidden behind the illusion of realism of the content presented.

Formalist film theory focuses on the formal and technical aspects of film, such as lighting, sound, set design, color, shot composition, and editing. This theory is considered the foundational theory in modern film studies. Formalism in a general sense examines the synthesis (or lack of synthesis) of the various elements of filmmaking and the emotional and intellectual effects of this combination. For example, a formalist might analyze how standard Hollywood "continuous editing" creates a comfortable effect, while abrupt editing can create discomfort or tension.

The combination of elements such as editing, composition, and music might also be explored. The shootout at the end of Sergio Leone's spaghetti western trilogy *Dollars* is a striking example of the interplay of these elements. The choice of shots ranges from wide to close and tense, the length of the shots shortens as the film progresses toward the end, and the musical score swells. All of these elements work together to create tension. Formalism is unique in that it embraces both the ideological and the authorial aspects of criticism, with stylistic expression serving as the common denominator.

Feminist film theory is a theoretical form of film criticism that is grounded in feminist politics and theory. Feminists use a variety of approaches to analyzing film, examining its elements and theoretical underpinnings. The evolution of feminist film theory is linked to second-wave feminism and the rise of women's studies in academia. Feminist scholars began to integrate new concepts emerging from these movements into film criticism. Initial research in the United States in the early 1970s drew on sociological theory and focused on the functions of female characters in various narratives and genres, as well as on stereotypes that reflect public perceptions of women. Such works include Marjorie Rosen's *Popcorn Venus: Women, Film, and the American Dream* (1973)[3], and Molly Haskell's *From Homage to Rape: The Treatment of Women in Film* (1974)[4], which examine how depictions of women in film relate to broader historical contexts, stereotypes, the active or passive nature of women on screen, and the amount of screen time they are given.

Psychoanalytic film theory applies concepts from psychoanalysis to film in a variety of ways.[5] In the 1970s and 1980s, a theory emerged that uses the ideas of the French psychoanalyst Jacques Lacan to analyze the viewing experience. The spectator is perceived as a subject of a "gaze" that is largely "constructed" by the film itself, where the on-screen image becomes an object of desire. The spectator is offered certain identifications (usually with a leading male character) from which to observe. The theory emphasizes the subject's desire for fullness, which film seems to be able to offer through identification with the image; However, according to Lacan, this identification always remains an illusion, and the subject is inevitably split by its birth.

The auteur theory, which emerged in the 1950s, argues that a director's films reflect his or her individual creative vision, regarding the director as the primary "Auteur". [6] In some cases, producers may also be regarded as "Auteurs" of their films. Legally, the author of a film is the creator as an artistic work and the original owner of the copyright. Under European Union law, the director is always considered the author or co-author of a film. Auteur theory has had a significant influence on film criticism since its championing by film director and critic François Truffaut in 1954. "Auteurism" is a method of analyzing films based on this theory, or on the characteristics of a director's work that make them Auteurs. Both auteur theory and the auteur method are often associated with the French New Wave and the film critics who published in the renowned French magazine *Cahiers du cinéma*. *The apparatus theory*, based in part on Marxist film theory, semiotics, and psychoanalysis, dominated film studies in the 1970s. It argues that cinema is intrinsically ideological because its mechanics of representation are ideological, including the camera and editing. The central position of the spectator in the composition is also ideological in nature. Apparatus theory focuses on the ways in which cinema reinforces the dominant cultural ideology in the spectator, arguing that ideology is not imposed on but is part of the very nature of cinema. Apparatus theory follows the institutional model of perception.

The philosophical analysis of film language is an approach that examines the aesthetics of film through the concepts and practices that shape the experience and interpretation of films, drawing on the philosophical tradition begun by Ludwig Wittgenstein.

Critics of this tradition often identify misconceptions in theoretical studies of film and offer an analysis of the vocabulary of film and its relationship to a form of life.

Conclusion

By examining history and developing of film theory, several key conclusions emerge: there are 8 different types of film theory exist: structuralist, marxist, screen, formalist, feminist, psychoanalytic, author theories. Diversity of approaches: There are many theoretical schools of thought in film, including formalism, realism, structuralism, poststructuralism, feminist theory, cultural studies, and many others. Each school offers unique tools for analyzing and interpreting films. Relationship between form and content: Film theories emphasize the importance of the relationship between formal elements (editing, framing, sound) and content (themes, plot). Different types of theories may emphasize different aspects of this relationship. Cultural and historical contexts: Film theory shows that films are not made in a vacuum. They reflect and shape cultural and social contexts, including political, economic, and ideological factors. This emphasizes the importance of contextual analysis. Contemporary film theories emphasize the active role of the spectator. The spectator does not simply passively perceive the film, but actively creates meaning based on their experiences and context. As technology evolves, so do the ways in which cinema is produced and perceived. This opens up new horizons for theoretical analysis, including the impact of digital technology on narrative and visual style. Interdisciplinary Approach: Film theory often intersects with other disciplines, such as literature, psychology, sociology, and philosophy. This allows for a broader horizon of analysis and a richer understanding of cinema as an art form. Critical Reflection: Various film theories help us to critically reflect on films, question conventional wisdom, and discover new layers of meaning. Overall, exploring film theories enriches our understanding not only of cinema itself, but also of the broader cultural processes in which it participates.

References:

1. Bazin Andre. *What is Cinema?* : essays selected and translated by Hugh Gray. Berkeley; University of California Press, 1971. 76 p
2. Lapsley, Robert. *Film theory: an introduction*. Manchester University Press, 1988. 35p.
3. Marjorie Rosen's *Popcorn Venus: Women, Film, and the American Dream* (1973) 24 p
4. Haskell, Molly. *From Reverence to Rape: The treatment of women in the movies*, New York: Holt, Rinehart and Winston, 1974. 168 p
5. McGowan, Todd. *Psychoanalytic Film Theory*. Cinema and Media Studies 2011. 57 p
6. Tasker, Yvonne. "Women Directors and the Auteur Theory." *Women & Film Criticism*, Wiley-Blackwell. 1998. 42 p

RAQAMLI MARKETING VA SAN'AT: IJTIMOY TARMOQLAR VA VEB-SAYTLAR ORQALI SAN'AT ASARLARINI TARG'IB QILISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli marketingning san'at asarlarini targ'ib qilish va ommalashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va kontent marketing strategiyalaridan foydalangan holda san'atni global miqyosda kengroq auditoriyaga yetkazish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi*

***Kalit so'zlar:** San'at, raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar, SEO, SMM, reklama, san'atni targ'ib qilish, veb-saytlar, e-mail marketing.*

***Annotation.** This article analyzes the role of digital marketing in promoting and popularizing artworks. It examines the possibilities of expanding art to a global audience using social media, search engines, and content marketing strategies*

***Keywords:** Art, digital marketing, social media, SEO, SMM, advertising, art promotion, websites, email marketing.*

Raqamli marketing va san'at sohasining integratsiyasi. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir o'tkazmoqda. Ayniqsa, san'at sohasida raqamli marketingning ahamiyati juda katta bo'lib, bu yo'nalishda sodir bo'layotgan innovatsiyalar butun dunyo bo'ylab san'at asarlarini targ'ib qilish va sotish usullarini o'zgartirmoqda. Internet tarmog'ining keng tarqalishi va raqamli platformalarning ommalashishi tufayli san'at asarlarining auditoriyaga yetib borish imkoniyati sezilarli darajada oshdi.

Ilgari san'at asarlari asosan galereyalar, san'at ko'rgazmalari va muzeylar orqali namoyish etilgan bo'lsa, hozirda internet va raqamli marketing vositalari tufayli san'at asarlarini global darajada tarqatish imkoniyati yaratildi. San'atkorlar ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va elektron tijorat platformalari yordamida o'z asarlarini butun dunyoga tanitishlari va ularni onlayn ravishda sotish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Raqamli marketing san'atkorlar uchun shunchaki mahsulot sotish vositasi emas, balki san'atni targ'ib qilish, auditoriya bilan muloqot qilish va san'at asarlarini ommalashtirish vositasidir. Ijtimoiy tarmoqlar, kontent marketing, SEO optimallashtirish, email marketing va hatto sun'iy intellekt vositalari bugungi kunda san'at sohasi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu boisdan, ushbu bo'limda san'at va raqamli marketingning qanday qilib uyg'unlikda ishlashi, ularning o'zaro bog'liqligi va kelajakdagi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. San'atkorlar va san'at sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun raqamli marketingning imkoniyatlarini kengaytirish, san'atni keng ommaga yetkazish va raqamli transformatsiyadan unumli foydalanish masalalari muhokama etiladi.

Raqamli marketing va san'at: zamonaviy tendensiyalar va ahamiyati. Hozirgi kunda san'atni targ'ib qilish va sotish usullari sezilarli darajada o'zgarib, raqamli marketing vositalari san'atkorlar va san'at muassasalari uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

An'anaviy marketing usullari – afishalar, gazeta va jurnal reklamalari, hamda an'anaviy san'at yarmarkalari – o'z ahamiyatini yo'qotayotgan bir paytda, raqamli marketing san'atni keng auditoriyaga yetkazishning eng samarali usuli sifatida ko'rilmoqda. Internet texnologiyalari tufayli san'at ixlosmandlari har qanday joydan va istalgan vaqtda turib, san'at asarlarini ko'rish, baholash va hatto xarid qilish imkoniga ega bo'ldilar.

Raqamli marketing strategiyalaridan biri bu ijtimoiy tarmoqlarda brend yaratish va san'at asarlarini targ'ib qilishdir. Bugungi kunda Instagram, Facebook, Twitter, TikTok, YouTube kabi platformalar san'atni namoyish etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi vizual kontent san'atkorlarning ishlarini keng auditoriyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Instagram va Pinterest kabi platformalarda tasvirlar, videolar, jonli efirlar va hikoyalar orqali auditoriya bilan yaqin aloqa o'rnatish mumkin. San'atkorlar uchun muhim strategiyalardan biri – doimiy va sifatli kontent yaratish orqali auditoriyani jalb qilish va ularning e'tiborini doimiy saqlab turishdan iborat.

Bundan tashqari, veb-saytlar san'at asarlarini targ'ib qilish va sotish uchun kuchli vosita hisoblanadi. San'atkorlar o'zlariga xos uslub va ijodini namoyish qilish uchun shaxsiy veb-saytlar yaratishadi. Bu saytlar asosan portfolio, blog, san'at asarlarini sotish uchun elektron do'kon, kontakt ma'lumotlari va mijozlar uchun maxsus takliflarni o'z ichiga olishi mumkin. Veb-saytlar, ayniqsa, san'at ixlosmandlari va potensial xaridorlar bilan aloqada bo'lishning eng yaxshi vositalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda san'at sohasida brend yaratish va uni ilgari surishda turli xil raqamli marketing vositalari qo'llaniladi. Ularga ijtimoiy media marketing, kontent marketing, e-mail marketing va influencer marketing kabi yo'nalishlar kiradi. Masalan, san'atkorlar o'z ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida san'at asarlarini ommaga namoyish qilishlari, turli ko'rgazma va ijodiy jarayonlar to'g'risida blog yuritishlari mumkin. Bu ularga auditoriyani kengaytirish va san'at ixlosmandlari bilan aloqada bo'lish imkonini beradi.

Shuningdek, zamonaviy raqamli san'at sohasida NFT (Non-Fungible Token) texnologiyasi keng qo'llanmoqda. San'atkorlar o'z ishlarini blokcheynga asoslangan raqamli san'at ashyosi shaklida sotishlari mumkin. NFT texnologiyasi san'at asarlari qiymatini oshirish, ularni qalbakilashtirishning oldini olish va global bozorlarga kirib borish imkonini beradi. Ko'plab taniqli rassomlar va san'atkorlar o'z ijodiy asarlarini raqamli shaklga o'tkazib, ularni onlayn platformalar orqali sotishmoqda.

Umuman olganda, raqamli marketing vositalari san'atkorlar va san'at muassasalari uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Internet orqali targ'ibot qilish, ijodiy kontentlar yaratish va san'at asarlarini global auditoriyaga yetkazish hozirgi davrda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelajakda esa sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR), hamda big data texnologiyalarining jadal rivojlanishi san'at sohasining yangi bosqichga chiqishiga olib keladi.

Ijtimoiy tarmoqlar san'atni targ'ib qilish vositasi sifatida. Bugungi raqamli dunyoda ijtimoiy tarmoqlar san'atni ommalashtirish va keng auditoriyaga yetkazishning eng samarali vositalaridan biriga aylandi. An'anaviy san'at yarmarkalari, galereyalar va ko'rgazmalar san'at ixlosmandlarini jalb qilishda davom etayotgan bo'lsa-da, ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi san'atkorlar va san'at muassasalariga butun dunyo

bo‘ylab auditoriya bilan bog‘lanish imkonini yaratdi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlar san‘atkorlar uchun o‘z ijodiy ishlarini targ‘ib qilish, izdoshlari bilan bevosita muloqot qilish va yangi imkoniyatlarni kashf etish vositasiga aylandi.

Ijtimoiy tarmoqlarning eng asosiy afzalliklaridan biri bu – tezkor va keng auditoriyaga chiqish imkoniyatidir. San‘atkorlar o‘zlarining ijodiy jarayonlarini doimiy ravishda Instagram, Facebook, TikTok, Twitter va YouTube kabi platformalarda joylashtirib, ijodlarini keng ommaga tanishtirishlari mumkin. Instagram va Pinterest vizual kontentga asoslangan bo‘lib, san‘at asarlarini ko‘rsatish uchun eng mos platformalar hisoblanadi. Ushbu platformalarda yuqori sifatli tasvirlar, qisqa videolar va hikoyalar yordamida san‘at asarlarini ommaga taqdim etish mumkin. Ayniqsa, san‘at asarlarini yaratish jarayonini namoyish qiluvchi “behind-the-scenes” videolari auditoriyaning qiziqishini yanada oshiradi.

Facebook va Twitter esa kengroq auditoriya bilan fikr almashish va san‘at haqidagi yangiliklarni tarqatish uchun qulay vositadir. San‘atkorlar o‘z sahifalarida ijodiy jarayonlari, ko‘rgazmalar, tanlovlar va boshqa san‘atga oid voqealar haqida ma‘lumot berish orqali obunachilarining e‘tiborini ushlab turishlari mumkin. Shuningdek, Facebook guruhlar va sahifalari orqali san‘at ixlosmandlari va potensial xaridorlar bilan bog‘lanish imkoni mavjud. Twitter esa qisqa, lekin dolzarb xabarlar bilan san‘atni targ‘ib qilishda juda foydali hisoblanadi.

San‘atni ommalashtirishning yana bir muhim vositasi – YouTube va TikTok platformalaridir. YouTube san‘atkorlar uchun ijodiy jarayonlarni batafsil yoritish, master-klasslar va san‘at haqidagi intervyularni taqdim etish imkonini beradi. Ko‘plab rassomlar va dizaynerlar YouTube kanallari orqali o‘z bilim va tajribalarini boshqalar bilan bo‘lishmoqda. TikTok esa qisqa va qiziqarli videolar yaratish orqali san‘atkorlarga tezkor e‘tibor qozonish imkoniyatini taqdim etadi. Ayniqsa, san‘at yaratish jarayoni, “time-lapse” videolar va ijodiy eksperimentlar TikTok foydalanuvchilari orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda san‘atni samarali targ‘ib qilish uchun san‘atkorlar ma‘lum strategiyalarni qo‘llashlari kerak. Masalan, muntazam ravishda sifatli va qiziqarli kontent joylashtirish, o‘z izdoshlari bilan doimiy muloqot qilish, turli tanlovlar va so‘rovnomalar tashkil etish, auditoriya e‘tiborini jalb qilish uchun kreativ yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Hashtaglardan to‘g‘ri foydalanish ham auditoriyani kengaytirishda katta rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda reklama va pullik targ‘ibot xizmatlari san‘atkorlar uchun muhim vosita hisoblanadi. Facebook Ads, Instagram Ads va TikTok Ads kabi reklamalar orqali san‘at asarlarini aniq maqsadli auditoriyaga yetkazish mumkin. Masalan, san‘at ixlosmandlari, galereya egalariga yoki san‘at kolleksionerlariga mo‘ljallangan maxsus reklamalar orqali san‘at asarlarini kengroq auditoriyaga taqdim etish mumkin.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar san‘atni ommalashtirishda inqilobiy o‘zgarishlar olib keldi. Bugungi kunda san‘at faqat an‘anaviy galereyalarda emas, balki raqamli maydonlarda ham keng namoyish etilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish san‘atkorlarga o‘z brendlarini yaratish, auditoriyalarini kengaytirish va

san'at asarlarini global bozorga olib chiqish imkoniyatini taqdim etadi. Shu sababli, har bir zamonaviy san'atkor ijtimoiy media marketingning asosiy tamoyillarini o'rganishi va o'z ijodiy faoliyatida samarali qo'llashi zarur.

Veb-saytlar va san'at biznesining rivojlanishi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan veb-saytlar san'at biznesining ajralmas qismiga aylandi. Ilgari san'at asarlarini sotish, ularni ko'rgazmalarda namoyish etish yoki shaxsiy kolleksiyalarga jalb qilish uchun asosan an'anaviy usullar qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda veb-saytlar san'atkorlar, galereyalar va san'at ixlosmandlari uchun global miqyosda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli maydonda san'atni ommalashtirish va tijorat faoliyatini yo'lga qo'yish uchun to'g'ri tashkil qilingan veb-sayt juda muhim vosita hisoblanadi.

San'at biznesida veb-saytlarning asosiy roli san'atkorlar va san'at muassasalariga o'z ishlarini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatini berishdir. To'g'ri tuzilgan veb-sayt san'atkorlarning portfoliolarini vizual tarzda namoyish etib, ularning brend imidjini shakllantirishga yordam beradi. Veb-sayt orqali san'atkorlar o'z asarlarini professional tarzda taqdim etishi, mijozlar bilan bog'lanishi va savdolarni avtomatlashtirishi mumkin. Shuningdek, san'at bo'yicha blog va maqolalar nashr qilish orqali ular auditoriyaning e'tiborini oshirishi va san'at ixlosmandlari bilan yaqin aloqalar o'rnatishi mumkin.

San'at asarlarini sotish uchun e-tijorat funksiyalariga ega veb-saytlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Rassomlar va dizaynerlar o'zlarining shaxsiy internet do'konlarini yaratib, san'at asarlarini bevosita sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu saytlar orqali foydalanuvchilar kartochkalar, rasmlar, skulpturalar yoki raqamli san'at asarlarini ko'rish, ularning narxlari bilan tanishish va to'g'ridan-to'g'ri buyurtma berishlari mumkin. Zamonaviy e-tijorat veb-saytlari PayPal, Stripe, Click va boshqa to'lov tizimlari bilan integratsiya qilinib, mijozlarga qulay va xavfsiz to'lov imkoniyatlarini taqdim etadi.

Veb-saytlarning yana bir muhim jihati – bu san'at asarlarining kataloglarini yaratish va ular haqida to'liq ma'lumot berish imkoniyatidir. Galereyalar va muzeylar o'zlarining raqamli kataloglarini yaratib, onlayn ko'rgazmalar tashkil qilish orqali san'at ixlosmandlarini jalb qilishi mumkin. Virtual galereyalar san'at asarlarini onlayn formatda ko'rish va ularni interaktiv tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul ayniqsa, pandemiya davrida san'at muassasalari uchun muhim ahamiyat kasb etdi, chunki ko'plab ko'rgazmalar onlayn formatga o'tishga majbur bo'ldi.

San'at biznesida veb-saytlarni samarali yuritish uchun ularning qidiruv tizimlariga moslashtirilgan (SEO) bo'lishi muhim. Qidiruv tizimlariga moslashtirilgan veb-sayt san'at ixlosmandlari, kolleksionerlar va potensial xaridorlar tomonidan oson topilishi mumkin bo'ladi. Mavjud tendensiyalarga qaraganda, san'at bilan bog'liq veb-saytlar o'z mazmunini qidiruv tizimlariga mos tarzda yozishi, sifatli vizual materiallardan foydalanishi va sahifalar tez yuklanishini ta'minlashi kerak. Bundan tashqari, foydalanuvchilarga qulay navigatsiya taqdim etish va mobil moslikni ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega.

San'at va veb-saytlarning rivojlanishi kontent marketingning ham dolzarb bo'lishiga olib keldi. San'atkorlar o'z veb-saytlari orqali san'atga oid bloglar, maqolalar,

intervyular va yangiliklar bilan bo‘lishishlari mumkin. Bunday yondashuv ularning auditoriyasi bilan yanada mustahkam aloqalar o‘rnatishiga yordam beradi. Maqolalar va blog postlari orqali san‘at sohasidagi dolzarb masalalar muhokama qilinib, san‘at ixlosmandlari uchun qiziqarli bo‘lgan kontent yaratilishi mumkin. Bu esa veb-saytga muntazam ravishda tashrif buyuruvchilar sonining oshishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, san‘at bilan bog‘liq veb-saytlar ko‘p hollarda ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya qilinadi. San‘atkorlar o‘z veb-saytlaridagi yangiliklarni Facebook, Instagram, Twitter, LinkedIn va TikTok kabi platformalar orqali bo‘lishib, yanada ko‘proq auditoriyaga yetib borishlari mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar orqali veb-saytga trafik yo‘naltirish va san‘at asarlarini targ‘ib qilish yanada samarali bo‘ladi.

Umuman olganda, san‘at va veb-saytlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi san‘atkorlarga o‘z ijodiy faoliyatlarini professional tarzda targ‘ib qilish va tijorat jihatidan foyda olish imkoniyatini taqdim etadi. Bugungi kunda har bir san‘atkor o‘z shaxsiy veb-saytiga ega bo‘lishi, unda san‘at asarlarini namoyish qilishi va raqamli marketing vositalaridan foydalanib, san‘at biznesini rivojlantirishga e‘tibor qaratishi zarur. Shu bilan birga, veb-saytlarni doimiy ravishda yangilab borish, zamonaviy texnologiyalar bilan moslashtirish va foydalanuvchilar uchun qulay interfeys yaratish san‘at sohasida raqamli muvaffaqiyatga erishishning asosiy shartlaridan biridir.

Raqamli marketing strategiyalari va san‘at asarlarini ommalashtirish. Raqamli marketing san‘at asarlarini ommalashtirish va auditoriyaga yetkazishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. An‘anaviy marketing usullaridan farqli o‘laroq, raqamli marketing vositalari san‘atkorlarga o‘z asarlarini global miqyosda targ‘ib qilish imkoniyatini taqdim etadi. Zamonaviy internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va kontent marketing strategiyalari san‘at asarlarini keng ommaga yetkazish hamda potentsial xaridorlarni jalb qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

San‘at biznesida muvaffaqiyatga erishish uchun to‘g‘ri marketing strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda, san‘atkor yoki galereya o‘zining maqsadli auditoriyasini aniqlashi kerak. Bu jarayon san‘at asarlarini qaysi turdagi odamlar qidirayotganini tushunish va ular bilan samarali aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Masalan, zamonaviy san‘at ixlosmandlari ko‘proq Instagram va Pinterest kabi vizual platformalardan foydalanadi, klassik san‘at muxlislari esa galereya veb-saytlari va san‘at bilan bog‘liq bloglarni afzal ko‘rishadi. Shu sababli, har bir auditoriyaga mos marketing strategiyasi ishlab chiqilishi kerak.

San‘at asarlarini ommalashtirishda kontent marketing muhim rol o‘ynaydi. San‘atkorlar va galereyalar o‘z veb-saytlarida blog maqolalari, intervyular, san‘at tarixi haqida ma‘lumotlar va o‘z asarlari yaratilish jarayonini ko‘rsatadigan videolar joylashtirishlari mumkin. Bunday kontent nafaqat auditoriyani jalb qiladi, balki qidiruv tizimlari orqali saytga organik trafik olib kelishga yordam beradi. Shuningdek, san‘at bo‘yicha ekspert maqolalar va sharhlar yozish ham veb-saytning ishonchliligini oshiradi va san‘at ixlosmandlari uchun qimmatli ma‘lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli marketing strategiyalarining yana bir muhim jihati – ijtimoiy tarmoqlarni samarali ishlatishdir. Bugungi kunda Instagram, Facebook, TikTok va Twitter san‘atni targ‘ib qilish uchun eng samarali platformalar hisoblanadi. Ayniqsa, Instagram san‘at

asarlarni vizual tarzda taqdim etish va auditoriya bilan bevosita aloqada bo‘lish uchun eng mos vositadir. San’atkorlar o‘z asarlarini suratlar yoki videolar ko‘rinishida joylab, postlar ostida san’atga oid hikoyalar yozishlari, asarlarning yaratilish jarayonini ko‘rsatishlari va foydalanuvchilar bilan interaktiv muloqot qilishlari mumkin. Bunday strategiya auditoriyaning qiziqishini oshiradi va san’at asarlariga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

SMM (Social Media Marketing) strategiyalarini to‘g‘ri ishlab chiqish orqali san’at asarlarini keng ommaga yetkazish mumkin. Masalan, san’atkorlar o‘z postlarini belgilangan vaqtlarda muntazam ravishda joylashtirishlari, obunachilar bilan jonli efirlar o‘tkazishlari va izohlarga javob berishlari muhimdir. Bundan tashqari, mashhur san’at sahifalari bilan hamkorlik qilish, reklama kampaniyalarini yo‘lga qo‘yish va ijtimoiy tarmoqlarda homiylik qilingan postlarni yaratish ham samarali usullardan biridir. Influencer marketing ham san’at asarlarini targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashhur san’at bloggerlari yoki taniqli san’atkorlar orqali o‘z asarlarini ommalashtirish natijasida san’at ixlosmandlari orasida brend imidjini shakllantirish va sotuv hajmini oshirish mumkin.

San’at sohasida qidiruv tizimlari optimallashtirish (SEO) ham raqamli marketingning ajralmas qismi hisoblanadi. Qidiruv tizimlarida yuqori o‘rinlarga chiqish orqali san’atkorlar va san’at biznesi vakillari o‘z auditoriyalarini kengaytirishlari mumkin. Veb-saytlarga mos kalit so‘zlarni qo‘shish, sahifalarni optimallashtirish, meta tavsiflarni to‘g‘ri yozish va sifatli kontent yaratish qidiruv tizimlarida yuqori o‘rinlarni egalashga yordam beradi. Bundan tashqari, san’at asarlariga doir yuqori sifatli suratlar va video materiallar yuklash ham veb-sayt reytingini oshirishga xizmat qiladi.

E-mail marketing ham san’at asarlarini ommalashtirishda samarali strategiyalardan biri hisoblanadi. San’atkorlar va galereyalar o‘z obunachilariga yangi asarlar, eksklyuziv chegirmalar va san’at yangiliklari haqida xabar beruvchi elektron pochta xabarlarini jo‘natishlari mumkin. Maxsus elektron pochta kampaniyalari orqali san’at ixlosmandlarini yangi ko‘rgazmalarga taklif qilish, san’at yarmarkalari yoki tanlovlar haqida xabar berish va mijozlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatish mumkin.

Xulosa

Umuman olganda, raqamli marketing strategiyalaridan to‘g‘ri foydalanish san’at asarlarini keng auditoriyaga yetkazish va sotuv hajmini oshirish imkoniyatini beradi. San’at biznesida muvaffaqiyatga erishish uchun kontent marketing, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritish, SEO optimallashtirish, e-mail marketing va reklama kampaniyalarini birgalikda olib borish kerak. Shuningdek, auditoriya bilan doimiy muloqotda bo‘lish, interaktiv marketing strategiyalarini ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalar bilan hamqadam bo‘lish san’at sohasida raqamli muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sodiqov, S. Raqamli marketing: Nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2020.

2. Saidov, U. Internet marketing asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
3. Rajabov, A. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va biznes rivoji. Toshkent: TDYU nashriyoti. 2021.
4. Abdurahmonov, Q. Axborot texnologiyalari va marketing integratsiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. Karimov, D. Ijtimoiy tarmoqlarda biznes va marketing strategiyalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
6. Kotler, P., & Armstrong, G. Principles of Marketing (18th ed.). Pearson. 2021.
7. Ryan, D. Understanding Digital Marketing: Marketing Strategies for Engaging the Digital Generation (4th ed.). Kogan Page. 2016.
8. Chaffey, D., & Smith, P. Digital Marketing Excellence: Planning, Optimizing and Integrating Online Marketing (5th ed.). Routledge. 2017.
9. Safko, L. The Social Media Bible: Tactics, Tools, and Strategies for Business Success (3rd ed.). Wiley. 2012.
10. Enge, E., Spencer, S., Stricchiola, J., & Fishkin, R. The Art of SEO: Mastering Search Engine Optimization (3rd ed.). O‘Reilly Media. 2015.
11. Scott, D. M. The New Rules of Marketing and PR (7th ed.). Wiley. 2020.

SAN'ATNING INSON VA JAMIYAT ONGIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada san'atning inson va jamiyat ongiga ta'siri tahlil qilinadi. San'at insonning estetik didini shakllantirish, axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatib, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: san'at, inson ongi, jamiyat, estetik did, axloqiy qadriyatlar, ijodiy fikrlash, ma'naviy taraqqiyot, madaniy meros, ijtimoiy ong.

Annotation: This article analyzes the impact of art on human and societal consciousness. Art plays a crucial role in shaping aesthetic taste, strengthening moral values, and developing creative thinking. Additionally, it has a direct influence on the spiritual development of society, helping to preserve and promote cultural heritage.

Keywords: art, human consciousness, society, aesthetic taste, moral values, creative thinking, spiritual development, cultural heritage, social consciousness.

San'at insoniyat tarixida juda qadimiy tushuncha bo'lib, u dastlab mehnat jarayonlari bilan bog'liq holda shakllangan. Insoniyat taraqqiyoti davomida san'at faqat estetik go'zallikni aks ettirish vositasi emas, balki inson tafakkurining rivojlanishi, jamiyatning axloqiy va ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omil sifatida namoyon bo'lgan. Tadqiqotchi O'.Zubaydullayev o'zining "San'atning shaxsga ta'siri" maqolasida "San'at inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning estetik didini shakllantiradi va ma'naviy olamini boyitadi" deb ta'kidlagan. Darhaqiqat, mazkur fikr san'atning inson tafakkuri va his-tuyg'ularini shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Ta'kidlash joizki, ilk davrlarda san'at mehnat va kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, ibtidoiy odamlar toshlarga o'z rasmlarini chizib, bu orqali atrof-muhitni anglashga harakat qilganlar. Ushbu jarayon san'atning dastlabki shakllaridan biri bo'lib, insonning olamni anglash va ifoda etish ehtiyojidan kelib chiqqan. Jamiyat taraqqiy etishi bilan san'at ham rivojlanib, u muayyan ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini aks ettiruvchi vositaga aylandi. Xususan, o'rta asrlarda qirollar va hukmdorlar san'atdan o'z qudratini namoyish qilish uchun foydalangan bo'lsa, oddiy xalq esa xalq og'zaki ijodi orqali o'z hayotini, orzu-umidlarini ifodalagan. Shu bilan birga, har qanday davrda xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar san'atni faqat hukmdorlar manfaatiga xizmat qiluvchi vosita sifatida emas, balki inson ruhiyatini boyituvchi, unga ezgulik va umid ulashuvchi kuch sifatida namoyon qilishgan.

"San'at jamiyat hayotida ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi, chunki u insonlarning ongini shakllantiradi va ularni faoliyatga undaydi"¹¹³. Haqiqatdan ham, san'at inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, u kishilarning ma'na-

113 Urinbayev, Isroiljon Kadirjonovich, SAN'ATNI JAMIYAT HAYOTINING IJTIMOY O'ZGARISHLARDAGI ROLI VA AHAMIYATI. *Oriental Art and Culture* 5.6 (2024): 473-480.

viy dunyosini boyitadi, ularga ezgulik, adolat va insonparvarlik kabi yuksak qadriyatlarini singdiradi. Masalan, musiqaning inson ruhiyatiga ijobiy ta'siri ko'p bora kuzatilgan. Betxovenning "9-simfoniyasi" ozodlik va birodarlik g'oyalarini kuylagan bo'lib, "bu asarda nafaqat uning garmonik va mavzuli rivojlanishida ulkan yutuq, balki inson ovozi simfonik janrga kiritish orqali cholg'u musiqasining chegaralarini kengaytirish qobiliyati bilan ham ajralib turadi. Ushbu simfoniya, uning musiqiy nutqining chuqurligi bilan birgalikda, uni G'arb sivilizatsiyasining eng buyuk badiiy yutuqlari qatoriga qo'yadi, mashhur yozuvchilarning asarlari inson ruhiyatini tarbiyalashga xizmat qiladi¹¹⁴. Shuningdek, o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlar o'z asarlarida ham xalqning dardini, orzu-umidlarini ifodalaganlar. Milliy san'atning inson hayotiga ta'siri nomli ilmiy maqolada ham bu borada quyidagicha ta'kidlangan: Milliy san'at xalqning ma'naviy dunyosini yuksaltirishda, uning estetik didini shakllantirishda va jamiyatning madaniy taraqqiyotiga hissa qo'shishda muhim ahamiyatga egadir.

Fikrimizcha, san'at inson tafakkuri va jamiyat rivojida muhim o'rin tutadi. U insonlarni ma'naviy jihatdan yuksaltirib, ularning hayotga bo'lgan qarashlarini shakllantiradi. San'at nafaqat o'tmish va bugunni bog'lovchi ko'priq, balki kelajak avlodlarga yetkaziladigan bebaho ma'naviy merosdir. San'at inson faoliyatining o'ziga xos shakli bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridanoq insoniyatning ijtimoiy hayoti va mehnat jarayoni bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Uning dastlabki namunalari so'nggi paleolit davriga, taxminan miloddan avvalgi 40–20 ming yilliklarga taalluqlidir. Biroq, bu davrda san'at mustaqil hodisa sifatida shakllanmagan bo'lib, moddiy va ma'naviy omillar uyg'unligi asosida mavjud edi.

Jamiyat taraqqiyoti va madaniyat rivojlanishi natijasida san'at asta-sekin alohida faoliyat sohasi sifatida ajrala bordi. San'atning asosiy xususiyati insonning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, u jamiyat a'zolarining aqliy va hissiy rivojlanishida, ularni ma'lum axloqiy va estetik me'yorlar asosida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib kelgan. Turli tarixiy davrlarda san'at insonning ijtimoiy tuyg'ulari, manfaatlari va g'oyalarini ifoda etgan hamda jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. U ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan voqelikni aks ettirish usuli, mazmuni va ijtimoiy hayotdagi o'rni jihatidan farqlanadi.

San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatida uning bilimi, tajribasi, mahorati va ijodiy qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy faoliyat mahsulidir. Estetik tafakkur rivoji jarayonida san'at avval voqelikni bevosita aks ettirish, keyinchalik esa hayotni go'zallik me'yorlari asosida badiiy talqin qilish yo'nalishida taraqqiy etib borgan. Uning predmeti tabiat, jamiyat va inson hayotining ijtimoiy, ma'naviy hamda milliy jihatlarini qamrab oladi.

Har qanday badiiy ijodiy jarayonda ijodkor o'zining ijtimoiy-estetik idealiga tayyib, voqelikka ma'lum baho beradi va uni o'z dunyoqarashi asosida ifodalaydi. San'atning falsafiy mohiyati shundaki, u inson ongining go'zallikni idrok etish qobiliyatini shakllantiradi va ijtimoiy ong evolyutsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli,

114 Schenker, H., & Rothgeb, J. (1992). *Beethoven's Ninth Symphony: A Portrayal of its Musical Content, with Running Commentary on Performance and Literature as Well*. Yale University Press. <https://doi.org/10.2307/j.ctt1xp3v1q>

san'atni nafaqat estetik hodisa, balki ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotning muhim omili sifatida o'rganish zarur.

San'at inson tafakkuri va faoliyatining muhim shakllaridan biri bo'lib, u butun tarixiy taraqqiyot davomida ijtimoiy ongning rivojlanishi bilan bog'liq holda shakllangan. San'atning mazmun-mohiyati masalasi falsafa va san'atshunoslik doirasida uzoq yillardan beri bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Mazkur bahslarda san'atning obyektiv va subyektiv, real hamda hayoliy omillar uyg'unligi asosida vujudga kelishi ta'kidlanadi.

San'at inson hayotida estetik zavq manbai bo'lish bilan birga, uni ma'naviy yuksaltirish, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, hissiy tajribalarni ifodalash hamda bilim vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. San'atning ijtimoiy-estetik vazifalari turli tarixiy bosqichlarda kengayib borgan. U insonda voqelikka nisbatan estetik va axloqiy munosabat shakllantiradi, hayotni o'rganish hamda uni inson orzu qilgan yo'nalishda o'zgartirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, san'at axloqiy va estetik tarbiya vositasi sifatida kishilarni go'zallikni idrok etishga undaydi hamda insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismi sifatida xizmat qiladi.

San'at jamiyatning ma'naviy-madaniy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning boshqa ijtimoiy ong shakllari – fan, falsafa, mafkura, axloq bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Uning bosh maqsadi – dunyoni badiiy idrok etish, insonning estetik ehtiyojlarini qondirish va ularni ma'naviy jihatdan boyitishdan iboratdir. San'at asarlarining diqqat markazida inson, uning ijtimoiy munosabatlari, tarixiy sharoitdagi faoliyati va jamiyat bilan o'zaro aloqalari turadi. Shu sababli, san'at orqali taqdim etiladigan bilimlar an'anaviy ilmiy bilimlardan farqli bo'lib, ularning ta'siri estetik kechinmalar orqali namoyon bo'ladi. San'atning tarbiyaviy ahamiyati ham aynan shundaki, u o'quvchi va tomoshabinning qalbiga ta'sir etib, ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. San'at inson tafakkurining estetik tizimini shakllantirib, badiiy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va avlodlarga uzatish vazifasini bajaradi. U turli ifoda shakllariga ega bo'lib, tasviriy san'at, me'morchilik, rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kino, sirk, badiiy adabiyot, xoreografiya singari ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Har bir san'at turi o'ziga xos ifoda uslubi va obrazlilik xususiyatlariga ega. Masalan, adabiyotda til asosiy vosita bo'lsa, tasviriy san'atda bo'yoqlar, teatr san'atida esa aktyorlik mahorati muhim rol o'ynaydi.

San'atning rivojlanish qonuniyatlari uning ichki mohiyati va ijtimoiy taraqqiyot omillari bilan bevosita bog'liq. Xalq, millat, elat, mamlakat va jahon sivilizatsiyasi darajasi san'atning shakllanishiga va uning mazmuniga ta'sir qiladi. San'atning mohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlari estetika va san'atshunoslik tomonidan ilmiy jihatdan o'rganiladi. Ko'chma ma'noda "san'at" tushunchasi inson faoliyatining turli jabhalarida yuksak mahoratni anglatadi. Masalan, notiqlik san'ati, rahbarlik san'ati yoki bahs yuritish san'ati tushunchalari buni yaqqol namoyon etadi. Pyotr Redkin ta'kidlaganidek, san'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, dunyoni ma'naviy idrok etishning maxsus shakli hisoblanadi¹¹⁵. U faqat badiiy qadriyatlarni yaratish

115 Помелов В.Б. (2020). П. Г. Редкин - Основоположник русской теоретической педагогики. Вестник Вятского государственного университета, (3), 170-179.

bilan cheklanmay, balki ularni anglash va iste'mol qilish jarayonlarini ham qamrab oladi. San'atning mohiyatini yanada chuqurroq tushunish uchun uni amaliy va badiiy (nafis) turlarga ajratish mumkin. Amaliy san'atga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san'at rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, kino, teatr va badiiy adabiyot kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, san'at tasviriy va ifodali shakllarga ajratiladi. Masalan, musiqa ifoda san'ati bo'lib, unda kompozitor ohanglar orqali inson kechinmalarini aks ettiradi. Rassomchilik va haykaltaroshlik esa tasviriy san'at turlaridir, bunda ijodkor o'z kechinmalarini badiiy obrazlar orqali gavdalantiradi. Shunday qilib, san'at inson tafakkurining fundamental ko'rinishi bo'lib, uning hayotiy tajribalarini, ma'naviy ehtiyojlarini, hissiy va estetik kechinmalarini ifoda etish hamda ularga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos usulidir. Uning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi roli nihoyatda keng bo'lib, u inson va jamiyat taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, san'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi bo'lib, jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning hamma shakllari bilan a'loqaga kirishadi. San'at voqelikni badiiy vositalar orqali yanada to'laqonli, jozibali anglashga yordam beradi. San'at uchun inson bosh mavzu bo'lib xizmat qiladi. San'atda inson hamma vaqt ham bevosita ifodalanmaydi. San'at narsalardan, tabiat hodisalardan inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'noni izlaydi, inson qalbini poklaydi, uning har tomonlama kamol topishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Urinbayev, Isroiljon Kadirjonovich, san'atni jamiyat hayotining ijtimoiy o'zgarishlardagi roli va ahamiyati. *Oriental Art and Culture* 5.6 (2024): 473-480.
2. Schenker, H., & Rothgeb, J. (1992). *Beethoven's Ninth Symphony: A Portrayal of its Musical Content, with Running Commentary on Performance and Literature as Well*. Yale University Press. <https://doi.org/10.2307/j.ctt1xp3v1q>
3. Помелов В.Б. (2020). П. Г. Редкин - основоположник русской теоретической педагогики. *Вестник Вятского государственного университета*, (3), 170-179.
4. Aristotel, *Poetika* (ruschadan M. Mahmudov va U. Tuychiyev tarjimasini). – Toshkent: 1980; - B.122.
5. Nafosat falsafasi (darslik Kadirova Dilbar Solixovna) Toshkent "Mumtoz so'z" 2022. – B.79.

VIRTUAL REALITY (VR) VA AUGMENTED REALITY (AR) TEXNOLOGIYALARINING SAN'AT VA MADANIYAT SOHASIDAGI O'RNI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada VR va AR texnologiyalarining san'at asarlarini yaratish, namoyish etish va madaniy merosni saqlash jarayonlariga ta'siri tahlil qilinadi. VR orqali virtual muzeylar, immersiv san'at ko'rgazmalari va raqamli ijodiy loyihalar qanday rivojlanayotganiga e'tibor qaratiladi. AR texnologiyalarining esa san'at va madaniy tadbirlarni interaktiv qilishdagi o'rni yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Virtual Reality, Augmented Reality, san'at, madaniyat, raqamli san'at, immersiv tajriba, virtual muzey, interaktiv san'at.*

***Annotation.** This article examines the impact of VR and AR technologies on the creation, presentation, and preservation of cultural heritage. The development of virtual museums, immersive art exhibitions, and digital creative projects using VR is explored. The role of AR in making artistic and cultural events more interactive is highlighted.*

***Keywords:** Virtual Reality, Augmented Reality, art, culture, digital art, immersive experience, virtual museum, interactive art.*

Virtual Reality (VR) va Augmented Reality (AR) texnologiyalari zamonaviy san'at va madaniyat sohasida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Ushbu texnologiyalar san'atni yaratish, uni tomoshabinlarga taqdim etish va madaniy merosni saqlash jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. VR va AR san'at asarlarini interaktiv tarzda namoyish etish, auditoriya bilan yanada yaqin aloqa o'rnatish va yangi tajribalar yaratish imkonini beradi[1].

San'at va madaniyatning an'anaviy shakllari ko'p yillar davomida asosan statsionar joylarda namoyish etilgan bo'lsa, hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ushbu jarayonlarni global miqyosda amalga oshirishga yordam bermoqda. Ayniqsa, VR va AR texnologiyalarining rivojlanishi san'atni nafaqat tomosha qilish, balki unda faol ishtirok etish imkonini ham taqdim etmoqda. Odamlar endi oddiy galereya yoki muzeyga tashrif buyurishdan tashqari, san'at asarlarini virtual muhitda yaratish, tahrirlash va hatto o'zlari san'at muhitining bir qismiga aylanish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda[2]. Bu esa san'atning yangi, interaktiv va immersiv shakllarini rivojlantirishga olib kelmoqda. Virtual muhitdagi san'at asarlari tomoshabinlarga o'ziga xos vizual va auditor tajribalar yaratish imkonini berib, ijodkorlar uchun ham yangi ifoda shakllarini kashf etish imkoniyatini taqdim etadi.

VR texnologiyalari yordamida foydalanuvchilar an'anaviy muzey va galereyalarni virtual makonda ko'rishlari, tarixiy va madaniy obidalarni batafsil o'rganishlari mumkin. Virtual muzeylar orqali san'at asarlariga geografik joylashuvdan qat'iy nazar kirish imkoniyati yaratiladi, bu esa madaniy merosni keng ommaga taqdim etish va saqlashga xizmat qiladi[3]. Shuningdek, VR texnologiyasi san'atkorlarga o'z asarlarini uch o'lchamli formatda yaratish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, ilgari bir san'at asari

yoki tarixiy yodgorlikni faqatgina o'sha joyga borib ko'rish mumkin bo'lgan bo'lsa, hozirda VR yordamida dunyoning istalgan burchagidan turib, tarixiy yodgorliklar va san'at asarlarini ko'rish mumkin bo'lib qoldi. Bu, ayniqsa, ta'lim sohasi uchun katta ahamiyatga ega, chunki talabalar va tadqiqotchilar madaniy merosni o'rganishda endi yanada ko'proq vizual va interaktiv imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin.

Virtual muzeylar, masalan, tarixiy buyumlar va san'at asarlarining o'zgarishlarini animatsion tarzda ko'rsatish orqali ularning rivojlanish tarixini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, san'atkorlar VR muhitida yangi turdagi raqamli san'at asarlarini yaratishlari, uch o'lchamli modellash orqali o'z ijodlarini yanada kengroq auditoriyaga taqdim etishlari mumkin. VR muhitida yaratilgan asarlar an'anaviy san'at shakllari bilan sintezlanib, yangi tajribalarni yaratishda muhim rol o'ynaydi[4].

AR texnologiyalari esa san'atni jismoniy makonda interaktiv qilish imkoniyatini beradi. Masalan, san'at asarlarini mobil qurilmalar yoki AR ko'zoynaklari orqali jonlantirish, ularning tarixi va mazmuni haqida kengroq ma'lumot olish imkonini beradi. AR texnologiyasi shuningdek, tarixiy yodgorliklarni rekonstruksiya qilish va ularning asl ko'rinishini foydalanuvchilarga ko'rsatish uchun ishlatilmoqda. AR texnologiyalari madaniy merosni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali yangi avlod uchun yanada jozibador qilishga xizmat qiladi[5]. Masalan, tarixiy binolar va yodgorliklar ustida AR texnologiyalari yordamida ularning dastlabki qurilish bosqichlari yoki dastlabki holatini ko'rsatish mumkin. Bu esa foydalanuvchilarga vaqt sayohati qilish imkonini berib, tarixni chuqurroq anglashlariga yordam beradi.

Shuningdek, AR san'at asarlarini jonlantirish orqali, masalan, rasm yoki haykallarni harakatlantirish, ularning yaratilish jarayonini vizual ravishda ko'rsatish mumkin. Bu texnologiya ayniqsa teatr va sahna san'atlarida ham muhim o'rin tutadi, chunki sahna dizayni va dekoratsiyalarni jonlantirish orqali tomoshabinlarga yanada chuqurroq tajriba taqdim etish imkoniyati yaratiladi[6]. Bundan tashqari, AR texnologiyalari madaniy tadbirlarni interaktiv qilish va san'at asarlarini har tomonlama idrok etish imkonini beradi, bu esa san'at ixlosmandlari va tadqiqotchilar uchun katta yutuq hisoblanadi.

San'at va madaniyat sohasida VR va AR texnologiyalarining qo'llanilishi auditoriyaning ishtirokini oshiradi va yangi interaktiv san'at shakllarini yaratish imkoniyatini kengaytiradi. Raqamli san'at namoyishlari, immersiv teatr tajribalari va virtual ko'rgazmalar madaniy merosni o'rganish va baholash jarayonlarini innovatsion usullar bilan boyitmoqda. Bunday texnologiyalar madaniyatning global tarqalishiga ham xizmat qiladi, chunki ular turli millat vakillariga o'zaro tajriba almashish va yangi san'at shakllarini kashf etish imkoniyatini taqdim etadi.

Zamonaviy texnologiyalar madaniy tadbirlarni yangi formatda tashkil qilish va ularning jozibadorligini oshirishga yordam bermoqda. Masalan, AR va VR vositalari yordamida xalqaro festivallar yoki san'at biennalelari yanada kengroq auditoriyaga yetib borishi mumkin. Bu esa san'atning global integratsiyasiga va madaniyatlararo muloqotning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday texnologiyalar yosh avlod uchun san'at va madaniyat bilan shug'ullanishni yanada qiziqarli qilish orqali, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham hissa qo'shadi[7].

VR va AR texnologiyalarining san'at sohasiga ta'siri yanada chuqurlashib borayotganligi sababli, ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar va innovatsiyalar kelajakda yanada keng qo'llanilishi kutilmoqda. Xususan, sun'iy intellekt bilan birgalikda ishlatiladigan VR va AR tizimlari san'at va madaniyatni yanada boyitishi va keng ommaga taqdim etilishi uchun yangi imkoniyatlar ochib berishi mumkin. Shu boisdan, san'at va madaniyat sohasi mutaxassislari ushbu texnologiyalarni o'z faoliyatlarida joriy etish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqishlari lozim[8].

Kelajakda VR va AR texnologiyalari bilan integratsiyalashgan san'at asarlari, madaniy tadbirlar va o'quv dasturlari yanada ommalashib, san'atning yangi o'lchamlarini kashf etishga yordam berishi mumkin.

Xulosa

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, Virtual Reality (VR) va Augmented Reality (AR) texnologiyalari san'at va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida san'at asarlari interaktiv va immersiv shaklda namoyish etilishi, madaniy meros keng auditoriyaga taqdim etilishi va saqlanishi, shuningdek, san'atkorlar uchun yangi ifoda usullari yaratilishi mumkin. VR orqali virtual muzeylar va ko'rgazmalar tashkil qilinib, tomoshabinlar uchun yangi tajribalar yaratilmoqda. AR esa san'at asarlarini jismoniy makonda interaktiv qilishga yordam bermoqda. Ushbu texnologiyalar san'atning rivojlanishiga, madaniy merosni saqlashga va yangi avlod auditoriyasi uchun yanada qiziqarli formatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turdiyeva. L, Nurullayeva. M, & Yaxiyaxonova, M. (2025). Vr-virtual voqelik texnologiyasi. *Наука и инновация*, 3(1), 64–68. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/42968>
2. Bannikova K., Fryz P., Voronova N., Bondarenko A., Bilozub L.(2023) Digital transformations in culture and art: new opportunities and challenges. *Revista Amazonia Investiga*, 12(61), 348-358. <https://doi.org/10.34069/AI/2023.61.01.35>
3. Tsukasa Fukuda, Naoki Ishibash. (2023). Virtual Art Exhibition System: An Implementation Method for Creating an Experiential Museum System in a Virtual Space. *Information Modelling and Knowledge Bases XXXIV*. 38-47. <http://dx.doi.org/10.3233/FAIA220491>
4. James Hutson, Trent Olsen. (2022). Virtual Reality and Art History: A Case Study of Digital Humanities and Immersive Learning Environments. *Journal of Higher Education Theory and Practice* Vol. 22(2), V. Ivanova. (2018). Технологии виртуальной и дополненной реальности: возможности и препятствия применения, *Strategic decisions and risk management*, 89-107. <http://dx.doi.org/10.17747/2078-8886-2018-3-88-107>
5. Л.Е.Малыгина. (2019). Дополненная реальность в тв-промодискурсе, *Ученые записки Новгородского государственного университета имени Ярослава Мудрого*. № 1 (19), 1-5. <https://doi.org/10.34680/dsj9-fh77>

6. Федосова О.А., Соколина Е.Н. (2022). О цифровой культуре, как неотъемлемой части общей культуры человека в современных реалиях, международный научный журнал "символ науки", № 2-1, 95-96.

7. Ю.Ф. Катханова, А.И. Корьгин. (2024). Влияние цифровых технологий на искусство, наука, образование, культура, 222-231. <http://dx.doi.org/10.31862/2073-9613-2024-2-222-231>

Azizbek Ibodullayev,
*Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI bakalavr
ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

YOSH KOMPOZITOR ULUG‘BEK KARIMOV IJODI DUNYO E‘TIROFIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa ijodiyotida Mirzo Ulug‘bek obrazini ochib berish masalalari hamda Rossiya Federatsiyasining “Kosmonavtika va aviatsiya” markazida “Ruskosmos davlat korporatsiyasi” homiyligida o‘tkazilgan zamonaviy kompozitorlarning “Ochiq koinot” xalqaro laboratoriyasida oliy Gran-Prini qo‘lga kiritgan O‘zbekistonlik yosh kompozitor Ulug‘bek Karimov ijodiga mansub “Koinotga nazar” balalaykalar ansambli uchun zamonaviy uslubda yozilgan musiqa namunasi hamda ushbu asarda matematik va astronom Temuriyshoh Mirzo Ulug‘bek hayotining ifodalanishi haqida qisqacha so‘z boradi. Olim hayotini gavalantirishda kompozitorning olib borgan izlanish va o‘rganishlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalitli so‘zlar: Ulug‘bek Karimov, Usadba, “Koinotga nazar”, Mirzo Ulug‘bek, balalayka, kompozitor.

Annotatio: In this article, the young Uzbek composer Ulugbek Karimov, who won the Grand Prix at the international laboratory of modern composers “Open Universe” held under the auspices of “Ruskosmos State Corporation” at the center of “Aeronautics and Aviation” of the Russian Federation, “Looking at the Universe” a sample of music written in a modern style for the ensemble of balalaikas, and this work contains a brief description of the life of the mathematician and astronomer Temuryshah Mirzo Ulug‘bek. Information about the research and studies conducted by the composer in embodying the life of a scientist is presented.

Keywords: Ulug‘bek Karimov, Usadba, “Koinotga nazar”, Mirzo Ulug‘bek, balalaika, composer.

1918-yilda Toshkent xalq konservatoriyasi tashkil topishi, 1936-yilda Toshkent davlat konservatoriyasi ochilishi va chet eldan kompozitorlarning O‘zbekistonga kelib faoliyat olib borganligi o‘zbek musiqasini yozib olish, nashr qildirish masalalarini yangi bosqichga olib chiqdi.



O‘zbek zamonaviy kompozitorlik ijodiyotida tarixiy shaxslar obrazini qo‘llash XX asrning 40-yillaridan boshlandi. Bu davrda Leningrad konservatoriyasining Toshkentga evakuatsiya qilinishi o‘zbek zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti uchun muhim bosqich hisoblanadi. Kompozitorlar o‘z asarlarida Alisher Navoiy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek singari

qator tarixiy shaxslar hayotini yoritish maqsadida ijodiy namunalar yoza boshladilar. Olim, matematik va astranom hamda davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek obrazini musiqa ijodiyotida gavdalantirishda O‘zbekiston xalq artisti, professor, kompozitor va dirijyor Aleksandr Kozlovskiyning 1942-yildagi “Ulug‘bek” operasi ilk qadam bo‘ldi. Bu opera G.Gerus-Kozlovskaya librettosi asosida yaratilgan. Unda Mirzo Ulug‘bekning shaxsiy sifatleri, hayoti, Movarounnahrning madaniy hayotda o‘chmas iz qoldirgani, o‘g‘li Abdulatif tomonidan o‘ldirilishi ochib berilgan. Ushbu asar O‘zbekiston musiqa madaniyatida ancha qiziqarli, lekin ziddiyatli bo‘lishiga qaramay, respublikada opera janri rivojida ma‘lum o‘rin egalladi[4.78] “Ulug‘bek” operasining muallif tomonidan qayta ishlangan nusxasi O‘zbekiston jamoatchiligi tomonidan yaxshi qabul qilindi. 1958-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbek san‘ati dekadasida ham ijobiy baholandi. Keyingi yillarda M.Boboyevning “Ulug‘bek” poemasi, M.Bafoyevning “Ulug‘bek burji” baletlari sahna yuzini ko‘rdi.

Asar haqida ma’lumot	Ssilka (iqtibos)	QR kod
Aleksandr Kozlovskiyning “Ulug‘bek” operasi	https://www.youtube.com/watch?v=t2U2DF40sN0	



O‘tmish emas, bugundan gapiramiz. 2024-yilning 21-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasining “Kosmonavtika va aviatsiya” markazida “Ruskosmos davlat korporatsiyasi” homiyligida zamonaviy kompozitorlarning “Ochiq koinot” xalqaro laboratoriyasi g‘oliblarining tantanali konserti bo‘lib o‘tdi. Bu yil finalga Rossiya, Belorussiya, O‘zbekiston va hatto Shveysariyadan kelgan ishtirokchilar yo‘l oldi. “Open

Space” xalqaro yosh kompozitorlar laboratoriyasi tanlovi natijalarini e’lon qiladi. Ko‘p sonli juda yuqori darajadagi ijodiy ishlar orasida faqat bittasinigina tanlamoq mushkul edi, albatta. Shunday ekan oliy o‘ringa davorgarlik finalchilar: Anton Smirnov, Sergey Xvorostyanov, Alsou Sungatullina, Sergey Shestakov, Kseniya Vecher-Kovalevskaya, Ulug‘bek Karimov, Ivan Kuznetsov o‘rtasida “ayovsiz chang” bo‘lib o‘tdi. Bu safar sahnada “Usadba” Rus kamer orkestrining solistlari bo‘lgan olti balalayka ijrochisi tomonidan final ishtirokchilarining bir-biridan betakror ijod namunalari yangradi. Laboratoriyaning Gran-Pri sohibi Ulug‘bek Karimovning asari tinglovchilarni ramziy tarzda Samarqanddagi o‘zbek rasadxonasiga sayohat qildirdi.



Tanlovda ishtirok etayotgan yosh ijodkor Ulug‘bek Karimov ijodiga mansub “Koinotga nazar” asari balalaykalar ansambli uchun zamonaviy uslubda yozilgan musiqa namunlaridan biridir. Ulug‘bek Karimovning g‘aroyib “Koinotga nazar” asari barchani bolalik olamiga qaytaradi, unda balalaykalar seksteti raketa bo‘lib, bu musiqani tinglagan insonlar koinot olamiga sayohat qiladi. Konsertda Ulug‘bek Karimovning g‘ayrioddiy fazoviy kompozitsiyasi ajib xis-tuyg‘ular bilan qabul qilindi. “Koinotga nazar” nomli asar erkin harakatlanuvchi zarralarni tasvirlashga asoslangan bo‘lib, tinglovchilarning boshiga go‘yo akkordlar do‘li yog‘ilayotgandek tuyuladi. Kompozitorning bu asari konsert tomoshabinlarida balalaykalar kamonchalarining ijrosi tufayli g‘ayrioddiy yangrar, tinglovchilarni qimir etmay o‘tirishga, cholg‘ularning past ovozigacha quloq solishga majbur qildi. Ulug‘bek Karimov va “Usadba” rus kamer orkestrining oltita balalaykachisi tom ma’noda “birinchi marta koinotga chiqishdi”, falakda Mirzo Ulug‘bekni ziyorat qilishdi. Ulug‘bek Karimovning “Koinotga nazar” balalaykalar uchun sekstetida Quyosh sistemasi sohasi tarkibining xilma-xilligining musiqiy metaforasi sifatida ritmik rasm paydo bo‘ladi. Oltita cholg‘u partiyalarining har birida u har xil, o‘zgaruvchan tarzdan ifodalangan. Laboratoriyaning xalqaro ishtirokchilaridan biri bo‘lgan O‘zbekistonning qadimiy shahri xivalik Ulug‘bek Karimov “Koinotga nazar” asarida Samarqanddagi observatoriyasida koinotdagi yulduzlarning harakatini ko‘rish mumkin bo‘lgan buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek shaxsiyatiga murojaat qildi.



Asarda buyuk astronom va matematik Temuriylar sulolasining yorqin vakili hayotini ifodalagan. Allomaning Samarqandda joylashgan rasadxonasida koinotda yulduzlarning harakati, uchishini, osmon sir-asrorlariga chuqur falsafa bilan qarab turishi, xayotidagi izchillik va ziddiyatlar musiqiy tilda tasvirlab berilgan. Kompozitsiyaning musiqiy shakli erkin, ijodkor shaklni ijodiy fantaziyasi va g'oyasi asosida o'zi bastalagan.



Bu ajoyib parvoz va bepoyon koinotni torlarini balalaykalarining sokin titrashi ochib berdi. Kompozitorning aytishicha, bu yerda ham o'zbek xalqidan olingan iqtiboslardan foydalangan. Kompozitsiyaning musiqiy shakli erkin, ijodkor shaklni o'zi bastalagan. Ushbu asarda balalayka cholg'usi ijro imkoniyatlari va ijro etishning zamonaviy uslublari mahorat bilan qo'llanilgan. Asarda bir cholg'uda turli musiqiy ohanglarni sado ettirishda bir qator yangi ijro texnikalari notada berilib, qanday ijro qilinishi yozuvda qayd etilgan. Cholg'u ijrochiligi bilan bir qatorda vokal ijrosini ham eshitish mumkin. Vokal partiyasini balalayka ijrochilarining o'zlari kuylaydilar. Kompozitor ushbu cholg'uning turlari orqali koinotni tasvirlagan. Tinglovchilarning ovoz berishi natijasida aynan shu asar tomoshabinlar e'tiboriga sazovor bo'ldi. Laboratoriya kompozitorlari o'rtasidagi ushbu kosmik poygada Ulug'bek Karimov g'olib bo'ldi. Yelena Klimova, Anna Pospelova, Roman Xoxryakov va loyihaning musiqiy prodyuseri Valeriy Mifodovskiy Gran-Prini matryoshka shaklida o'tkazishga qaror qilishdi ichida fazogirlari bilan quyoshli O'zbekistonga kelishadi. Mavzuiylik jihatdan aniq melodiylari va motivlariga ega bo'lgan ushbu musiqiy kompozitsiyada o'zbek milliy mumtoz kuyi bo'lmish "Qaro ko'zum" musiqiy matniga murojaat etilgan. Asosan Mirzo Ulug'bek motivlari sifatida gavdalanadi. Asarning garmonik tuzilishi esa kompozitorning izlanishi natijalarida koinot ohanglarini tasvirlaydi. Asarning muqaddimasi Mirzo Ulug'bekning sirli osmonga boqib nimalarnidir o'ylayotgani, mushohadalik bilan jadvallarda nimanidir tasvirlashga harakat qilayotgan voqeani esga soladi. Milliy musiqa bilan sug'orilgan ushbu asar O'rta asrlarda Movarounnahrning maishiy hayoti va turmushini yoritishga yordam beradi. Balalaykaning ovozi milliy cholg'ularidan bo'lgan qonun va chang cholg'ularining ovozi bilan o'xshab ketishi

alohida rang-baranglikni kiritadi. Asar jadalashar ekan olim hayotidagi turli xil qarama-qarshiliklar, xiyonatlar kechkin tovushlar orqali ifodalanadi. Aqli kalta farzandning padarkushga aylanishi, davlat arbobi va olim Mirzo Ulug‘bekning ruhi o‘zi sevgan osmonga uchib, yulduzlar shodasidan joy olishi musiqada chiroyli yoritib berilgan. Ijodkorning ta’kidlashicha, har bir sayyoraning o‘z tovushlar mavjud bo‘lib ularning barchasi bir-biridan farq qiladi. Sayyoralar tovushlari bilan tanishib chiqqan kompozitor Zahro sayyorasi ohanglarini asarida mahorat bilan tasvirlaydi. Uchtovuchlik (a,c,d tovushlari) dan tarkib topgan garmoniya asar davomida turli ko‘rinishlarda ijro etiladi va koinotni tovushlarini doimiy tarzda takrorlab tinglovchiga musiqiy tilda yetkazib beradi. Asarda nota grafikasidan ham foydalanilgan bo‘lib, partiturada “COSMOS” yozuvini ko‘rish mumkin.



Asar haqida ma'lumot	Ssilka (iqtibos)	QR kod
Muallif haqida	https://t.me/ulugbekkarimov1/2	
Asarning musiqa variant	https://t.me/ulugbekkarimov1/3	

Asarning nota variant	https://t.me/ ulugbekkarimov1/4	
-----------------------	----------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------

Yosh kompozitor Ulug‘bek Karimov asarni yozish jarayonida Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” romani hamda Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” pyesalarini olim hayotini yanada ochib beruvchi manbalar sifatida o‘zi uchun kashf qildi. Mirzo Ulug‘bekni nafaqat olim, balki, xalq maorifi va ilm-fanni o‘ylovchi podshoh hamda bebaxt ota ekanligini musiqada to‘liq tasvirlashga harakat qildi. Ijodiy asarni yozish jarayonida kompozitor Samarqand va Buxoro shaharlariga sayohat qildi. Mirzo Ulug‘bek hayotini o‘rganish, mavjud manba va meroslarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish, shaxsni gavalantirishda aniq faktlarga tayanish maqsadlarida Samarqanddagi Go‘ri Amir, Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli, Ulug‘bek rasadxonasi hamda Buxorodagi Ulug‘bek maqdrasinini borib o‘rgandi. Zero Alisher Navoiy yozganidek:

“Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek”.

Xulosa

O‘zbekistonlik yosh kompozitor Ulug‘bek Karimovning ijodi dunyo e‘tirofiga sazovor bo‘ldi. Uning “Koinotga nazar” nomli musiqa namunasi balalaykalar ansambli uchun zamonaviy uslubda yaratilgan va matematik va astronom Temuriyshoh Mirzo Ulug‘bek hayotini ifodalaydi. Rossiya Federatsiyasining “Ruskosmos davlat korporatsiyasi” homiyligida o‘tkazilgan xalqaro laboratoriyada ushbu asar oliy Gran-Prini qo‘lga kiritdi. Kompozitorning Mirzo Ulug‘bek obrazini ochib berishdagi izlanish va o‘rganishlari uning ijodiyotining muhim qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:

1. Пояс астероидов и звуки балалайки | Музыкальная жизнь
2. https://t.me/otkrytyy_kosmos
3. «Открытый космос»: концерт финалистов
4. Madrimov B. O‘zbek musiqa tarixi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2018.
5. Y.Pekker. Uzbekskaya opera.- Moskva: 1984.
6. A.Jabborov. S.Begmatov. M.Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi. –Toshkent: 2018.
7. M.Shayxzoda. Mirzo Ulug‘bek. Tragediya. 1960.
8. O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinasini. Roman. 1973.

MUNDARIJA

Nodirbek Sayfullayev. Ilm-fan – jamiyat taraqqiyotining asosi	3
Baxtiyor Yakubov. Yangi O‘zbekistonda ilm-fan sohasidagi islohotlar	4
Oybek Davlatov. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti va uning tashkil etilish shakllari	6
Ma’rufjon Ashurov. Doktorantlarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	10
Aziza Kurbanova. San’at ta’limida raqamli transformatsiyani joriy etish dolzarb pedagogik muammo sifatida	17
Muborak Xakimova, Yulduz Qo‘ziyeva. Kutubxonalar va axborot texnologiyalari: raqamli kutubxonalarning rivojlanishi	22
Kamoliddin Isayev. Bo‘lajak folklor ijrochilarining media kompetentligini shakllantirish texnologiyalari	25
Bahodir Mag‘diyev. Madaniyat va san’at sohasida nazariy va amaliyot	30
Bobir Ibragimov. Musiqiy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslari: zamonaviy ta’limdagi innovatsiyalar	34
Khabibullo Kobilov. Psychophysiological and pedagogical aspects of student-actor’s work before the camera: analysis of problems and solutions	38
Zuxra Arzibayeva. Musiqiy dramada teatr tomoshasi, musiqa va raqsning uyg‘un integratsiyasi	43
Mo‘minmirzo Xolmo‘minov. O‘zbekiston madaniyati va san’ati	46
Qurbonmurot Amonqulov. Madaniy xizmatlarning umumiy tushunchasi va ahamiyati	53
Asliddin Utayev. O‘zbek teatrining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni	59
Doniyor Tuyg‘unov. San’at va madaniyat sohasining ilmiy o‘rganilishida she’riy dramalarining ahamiyati	63
Ozoda Shobilolova. Sahnada “Shaddod ona”	68
Tohirjon Ismailov. Ilmiy tadqiqotlar va musiqiy ta’limining rivojlanish strategiyalari	72
Tohirjon Ismailov. Doktorantura ta’lim bosqichining xalqaro standartlari	78

Iroda Mirhusanova. Turkiyaning ilk opera va balet teatri (asos solinishi va taraqqiyot yo‘li)	87
Kamoliddin Umarov. Teatr san‘atiga ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta‘sirining tarixiy-nazariy asoslari	90
Xurshida Usmanova. Sun‘iy intellektning ta‘lim jarayonidagi imkoniyatlari va o‘qituvchilik faoliyatiga ta‘siri	95
Temur Abdullayev. Zamonaviy texnogen madaniyat va yoshlar tafakkuri: falsafiy-metodologik tahlil	99
Shahnoza Rustamaliyeva. Uchinchi renessans poydevorini yaratishda xotin-qizlar ijtimoiy faolligi	104
Sevara Bekmuradova. Jahon kinematografiyasida bolalar kinosining vujudga kelishi	109
Nozima Shomuradova. Dissertatsiya mavzusini tanlash va shakllantirish, asosnoma yozish tartibi	113
Jumagul Nishonova. Talabalarda ijtimoiy mas‘uliyatlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari	119
Malika Xudaybergenova. Musiqa savodxonligi darslari jarayonlarini tashkil etishning tarixiy-nazariy aspektlari	124
Nigina Xakimova. O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri repertuarining asosiy xususiyatlari	127
Munira Mamatkulova. Teatr san‘atining ilmiy o‘rganilishi	132
Dilnura Novshadbekova. Sharq mutafakkirlarining qarashlarida tarbiyaviy munosabatlar va o‘quvchilarni tarbiyalashga oid qarashlarning e‘tiqodiy, ma‘naviy axloqiy negizlari	136
Feruza Umaraliyeva. Oliy ta‘limdan keyingi ta‘limda mustaqil izlanuvchilar dush keladigan ayrim qiyinchiliklar	140
Axrur-Murod Irodabegim. San‘at va madaniyat sohasini ilmiy o‘rganishning dolzarb jihatlari	146
Shaxnoza Rajabova. Eksperimental teatrlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlar	149

Shaxnozaxon Davlatova. Xalq pedagogikasida oilaning ahamiyati	155
Sitora Umarova. O‘zbekiston televideniyesi bolalar ko‘rsatuvlarida badiiy mahorat masalalari	158
Muxayyo Tadjikulova. O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasining rivojlanishida madaniyat muassasalarining o‘rni	162
Shahnoza To‘xtarova. Kutubxona-axborot muassasalarini rivojlantirishda tajriba-sinov loyihalarining ahamiyati qanday?	168
Dilshoda Hamdamova. Maktab kutubxonachilari bugun qanday maqomga ega? Ular texnik xodimmi?	173
Bobur Jabborov. Tovush birikmalari va talaffuz ustida ishlashning innovatsion uslublari (dotsent I.Djumanovning uslubiy yondashuvlari)	177
Pirmuhammad Xolmaxmatov. Sharq renessansini turkiya orqali yevropaga yetkazgan olim	185
Abbosjon Umurzoqov. Farg‘ona vodiysida an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrining rivojlanishi	190
Oybek Qulmurodov. Professional o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining an’anaviy teatr ijrochiligi negizida shakllanishi	193
Dilfuza Riskiyeva. Teatrda repertuar siyosatining yuritilish muammo va yechim (Buxoro viloyat qo‘g‘irchoq teatri misolida)	197
Islom Berdimurodov. Qo‘g‘irchoq teatrlarining asrimiz madaniy hayotida tutgan o‘rni	202
Baxtiyar Aytmuratov. Teatr taraqqiyotida ijodiy jamoa va repertuar masalalari (qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatri misolida)	207
Nazokat Abdumuxtorova. Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri sahnasida nasriy asarlarning o‘rni	212
Laylo Fazliyeva. Xoreografiyaning paydo bo‘lishi va musiqali teatrdagi o‘rni	217
Shoxrux Payg‘amov. Tarixiy tafakkurni shakllantirishda teatr pedagogikasining o‘rni	220
Tursunoy Fayzullayeva. Jizzax viloyati musiqali drama teatridagi ijodiy izlanishlar: “ko‘chki spektakli yangi talqinda”	223

Shavkat Bobomurodov. Usmon Azim dramaturgiyasi va uning sahna talqinlarini tahlil qilishning ilmiy ahamiyati	226
Robiya Rizayeva. Teatr san'atida grimning ahamiyati	229
Shodiya Xudaynazarova. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrining tarixi va bugungi istiqbolli ijod yo'li	234
Shohbozbek Ergashbaev. Uzluksiz ta'limni samarali tashkil etishda doktorantura faoliyatining o'rni	240
Jamshid Sobirov. Shukur Burhonov – tarixiy qahramolar ijrochisi.....	246
Muhammad Rustamov. San'at va madaniyat sohasini ilmiy o'rganishda sun'iy intellektning o'rni	252
Kamila Khasanova. Film theory types and feature	256
Xojiakbar Ostanaqulov. Raqamli marketing va san'at: ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlar orqali san'at asarlarini targ'ib qilish	261
Sarvara Turg'unova. San'atning inson va jamiyat ongiga ta'siri	268
Asrorbek Xoshimjonov. Virtual reality (VR) va Augmented reality (AR) texnologiyalarining san'at va madaniyat sohasidagi o'rni	272
Azizbek Ibodullayev. Yosh kompozitor Ulug'bek Karimov ijodi dunyo e'tirofida	276

“YOSHLAR – ILM-FANNI RIVOJLANTIRUVCHI KUCH”

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO‘PLAMI**

Muharrir

Badiiy muharrir

Sahifalovchi

U. Abdullayeva

D. Mulla-Axunov

G. Ahmedova

Noshirlik faoliyati to'g'risidagi xabarnoma
6.11.2023-yil qabul qilingan, tasdiqnoma № 156149.
Bosishga 2025-yil 28-martda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 ¹/₈. Shartli bosma tabog'i 33,48.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma raqami № 008/M-25.

“Donishmand ziyosi” MChJ nashriyotida nashrga tayyorlandi.
Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

“Kamalak-PRESS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

